O‘zbekiston Respublikasida sanoat korxonalarini rivojlantirishda marketing strategiyalaridan foydalanish bo‘yicha tadqiqotlar olib boruvchi olimlardan Soliev A., Vuzrukxonov S., Ergashxodjaeva SH.J., Qosimova M.S., Yusupov M.A., Bekmurodov A.Sh., Bobojanov B.R., Musaeva Sh.A., M.R. Boltaboyev, A.A. Sultanov, M.A. Ikramov, I.A. Toshpulatov va boshqalarning ilmiy asarlari mavjud.

M.R. Boltaboyev to‘qimachilik sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini baholashda samarali raqobat nazariyasiga asoslangan marketing strategiyasidan foydalangan. Unga ko‘ra, ushbu usul ekspertlarning bosqichma-bosqich taqqoslash usuli yordamida aniqlangan raqobatbardoshlikning to‘rt guruh ko‘rsatkichlari yoki mezonlariga asoslanadi: ishlab chiqarish faoliyatini belgilovchi samaradorlik, korxonaning moliyaviy ahvolini belgilovchi samaradorlik, tovarni sotish va bozorda ilgari surishni tashkil qilish samaradorligi hamda tovarning raqobatdoshligiga asoslanadi.

Marketing tadqiqotlarining asosiy maqsadi — korxonaning raqobatdoshlik imkoniyatlarini, kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, uning faoliyatini takomillashtirish yo‘llarini topish, korxonaning ishlab chiqarish va sotuv imkoniyatlarini tahlil qilish, shuningdek, bozorda o‘xshash tovarlar bilan ish olib borayotgan raqobatchi korxonalarning tegishli ko‘rsatkichlarini ham baholab borishdan iborat.

Uning fikricha, marketing xizmatlari sotuv bo‘limi bilan birgalikda o‘z xatti-harakatlarini tayyor mahsulotning ortiqcha to‘planib qolishini kamaytirish hamda ishlab chiqarish va savdo hajmlarini oshirishga yo‘naltirishi mumkin. Buning uchun

esa korxonaning tovar, narx, savdo va kommunikatsiya siyosatini qayta ko‘rib chiqish va qayta ishlab chiqish zarur[1].

A.A. Sultonov zamonaviy sanoat ishlab chiqarish korxonalarini diversifikatsiyalash asosida rivojlantirish istiqbollari bo‘yicha tadqiqot olib borgan. To‘qimachilik sanoati korxonalari faoliyatini diversifikatsiyalash strategiyasining asosiy vazifasi — ishlab chiqaruvchilar tomonidan tanlangan strategiyalarning ehtimoliy imkoniyatlarini avvaldan rejalashtirib, shaklini o‘zgartirish orqali boyliklarni, bozordagi o‘rinlarni va boshqa maqsadlarni ularning rivojining istalgan darajasiga yetkazishni ta’minlashdan iborat.

Ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash asosida to‘qimachilik sanoati korxonalarini jahon texnologik zanjiriga qo‘shilishini ta’minlash, bevosita xorijiy investitsiyalarni jalb qilgan holda eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishni rivojlantirish esa to‘qimachilik mahsulotlari mahalliy bozorini egallashning qulay strategiyasi hisoblanadi.[2]

M.A. Ikramov va I.A. Toshpulatov yengil sanoat korxonalari raqobatbardoshligini baholashda marketing kompleksining alohida ko‘rsatkichlaridan foydalanganlar. Shuningdek, ular korxona raqobatbardoshligini oshirishda reklama faoliyatini takomillashtirish imkoniyatlarini hisobga olib, ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanishni, korxonaning internetdagi saytini ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar reklamasi, mahsulotlar tavsifi, sifat darajasi, ISO standartlari asosida mahsulot ishlab chiqarilayotganligi kabi ma’lumotlar bazasi bilan ta’minlashni, shuningdek, eng ommalashgan Telegram, Facebook kabi ijtimoiy tarmoqlarda sahifa ochishni tavsiya qilishgan.[3].

Olimlar tomonidan olib borilgan izlanishlar va ilmiy natijalar to‘qimachilik sanoatida marketing faoliyatining ilmiy-uslubiy asoslarini yaratib bergan. Shu bilan birga, to‘qimachilik-kiyim bozorining globallashuvi, yangi yirik ishtirokchilar kirib kelishi va raqobatning yangi usullarining yaratilishi O‘zbekiston to‘qimachilik sanoati uchun yangi xavf va tavakkalchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Shu sababli ichki va tashqi bozorda raqobatbardoshlikni ta’minlashning marketing faoliyati uslubiyatini takomillashtirish dolzarb muammoga aylanmoqda.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda marketing dasturlarining samaradorligini oshirish masalasi qiyosiy tahlil va modellashtirish usullari asosida o‘rganildi. Metodologiya quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. Adabiyotlar tahlili – marketing dasturlari va raqamli iqtisodiyot resurslari haqidagi xalqaro va milliy manbalar o‘rganildi.

[1] Boltabayev M.R. “To‘qimachilik sanoati korxonalarining raqobatdoshligini baholash uslubini takomillashtirish”. T:,“Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. 2011, №1. 1-2 b.
[2]A.A.Sultanov. Diversifikatsiyalash asosida zamonaviy sanoat ishlab chiqarishni tashkil etish va rivojlantirish istiqbollari “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2016-yil
[3] M.A.Iqramov, I.A.Toshpulatov. Yengil sanoat korxonalari raqobatbardoshligini baholash uslubini takomillashtirish. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2018-yil

2. Amaliyotni tahlil qilish – to‘qimachilik va tikish-trikotaj korxonalarining ish faoliyatida qo‘llanilayotgan marketing dasturlari, ularning tarkibiy qismlari va samaradorligi baholandi.

3. Ssenariy usuli – ko‘p variantli ssenariylar asosida marketing dasturini tanlash va tuzish algoritmi ishlab chiqildi.

4. Raqamlash imkoniyatlari – dasturning algoritmi Python dasturlash tilida sodda kod shaklida ifodalanib, uning kompyuterlashtirish va raqamli formatda qo‘llash imkoniyatlari ko‘rsatildi.

Natijalar to‘qimachilik korxonalarida marketing dasturini standart holatlarga asoslangan holda raqamlashtirish va uning samaradorligini oshirish yo‘nalishlarini belgilashga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Korxonalarning taktik marketing faoliyatining asosiy vositalaridan biri – marketing dasturlaridir. Ushbu vosita korxonalarning marketing strategiyasini amalda amalga oshirishning ko‘zgusi sifatida qaralishi mumkin, chunki barcha manfaatli tomonlar aynan marketing dasturlari va ularning tarkibida olib borilgan tadbirlar orqali marketing faoliyatini baholaydilar. Marketing dasturlarining samaradorligi ham boshqa vositalarga nisbatan ochiq namoyon bo‘ladi va aniq baholanishi mumkin. Marketing dasturlari muntazam ravishda bajariladigan harakatlar kompleksi bo‘lib, korxonaning taktik maqsadlariga erishishning muhim yo‘nalishi hisoblanadi, shuning uchun ularning natijaviyligi va samaradorligiga katta e’tibor qaratiladi. Umumiy jihatdan korxonadagi marketing xizmatining kundalik faoliyati ham marketing dasturlarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirishdan iborat.

Zamonaviy to‘qimachilik ishlab chiqarishining asosiy xususiyati qo‘llaniladigan jihozlar va boshqaruv tizimlarining avtomatlashtirish bilan bog‘liqdir. To‘qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalaridagi dastgohlar va jihozlar ko‘p jihatdan qo‘l mehnati talab qilmaydi va ularning faoliyati sun’iy intellekt imkoniyatlariga asoslangan. Ushbu tendensiya yangi avlod jihozlarida yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Tabiiyki, u ishlab chiqarishni boshqarishda ham qaror qabul qilishni avtomatlashtirish va raqamli algoritmlarga tayanishga sabab bo‘ladi. Ishlab chiqarishni raqamlashtirish nafaqat mahsulot sifatini oshirishga, balki marketing faoliyatidagi noaniqlik va tavakkalchilik omillarining ta’sirini kamaytirishga olib kelmoqda.

Bugungi kunda to‘qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida kommunikatsiya siyosatida, tovarlarni siljitish hamda sotishni rag‘batlantirish tizimlarida raqamli iqtisodiyot resurslaridan keng foydalanilmoqda. Bunga internet tarmoqlari va ular bilan bog‘liq turli axborot texnologiyalari platformalarini misol keltirish mumkin. Ijtimoiy tarmoqlar esa iste’molchilar hayotida sezilarli o‘rin egallab bo‘lgan. Internet marketing, ijtimoiy-media marketing kabi yo‘nalishlar tovarlarni siljitishda katta samara bermoqda.

Shu bilan birga, marketing xizmatining faoliyatida raqamlashtirishga doir o‘zgarishlar yetarli emas deb hisoblaymiz, chunki raqamli texnologiyalar korxonada marketing xizmati ichki faoliyatida ham to‘liq qo‘llanishi lozim. Bizning fikrimizcha,

raqamli iqtisodiyot resurslarining mazmunini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, ularning asosiy xususiyatlariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

• Marketing axborotlarini to‘plash, qayta ishlash, saqlash va foydalanishda “Big Data” tamoyillariga rioya qilish. Ushbu xususiyat har qanday axborotdan qayta foydalanish, ijobiy tajribani kengaytirish hamda axborotni raqamli formatga o‘tkazishdan iborat.

• Korxonalarda marketingni rejalashtirish va boshqarishda “standart holatlar” usulini rivojlantirish, ya’ni oldingi ilg‘or tajribalarni tahlil qilish, ma’lumotlarni saqlash va qo‘llashni kengaytirish. Masalan, sun’iy intellektni joriy qilishda bir necha vaziyatlarni tahlil qilib eng samaralisini tanlash yoki ularning asosida yangi vaziyat yaratish algoritmi ishlab chiqish.

Olib borgan tadqiqotlarimiz to‘qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida marketing dasturlarini ishlab chiqish jarayonlarini raqamlashtirish mumkinligini ko‘rsatdi. Haqiqatdan ham, odatda marketing dasturi biznes-reja shaklida bo‘lib, korxonaning yoki raqobatchilarning tarixida amalga oshirilgan eng samarali loyihalarni takrorlashga asoslanadi, ya’ni mazmunan va shaklan ularni qaytaradi.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, aksariyat hollarda korxonalarning marketing dasturlari bir-biriga o‘xshash bo‘ladi, ya’ni chora-tadbirlar qachondir qaysi bir holatda qo‘llanilgan va ma’lum darajada o‘z samarasini bergan bo‘ladi. Shu munosabat bilan bizlar to‘qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida marketing dasturlarini tuzishda chora-tadbirlar bazasidan foydalanish usulini taklif qildik. Ushbu usulning mazmuni quyidagilarga asoslanadi:

• Marketing rejasi muddati va resurslari cheklangan biznes-loyiha vazifasini bajaradi;

• Marketing rejasi aniq belgilangan jarayonlardan va odatiy harakatlardan iborat;

• Marketing rejasi o‘ziga xos kichik maqsadni ko‘zlashga qaratiladi;

• Marketing rejasini tuzishda vaziyatlarga asoslangan standart tartibni qo‘llash mumkin.

Ushbu tamoyillar asosida bizlar marketing rejasini tuzishning quyidagi algoritmini taklif qilamiz (1-rasm).



1-rasm. Ko‘p variantli tanlov asosida marketing dasturini ishlab chiqishning umumiy yondashuvi[1]

[1] Muallif ishlanmasi

Ko‘rinib turibdiki, ushbu usulning o‘ziga xosligi korxona uchun bir necha variant harakatdan birini tanlash va uni keyingi harakatlarga bog‘lashdan iborat.

Birinchi bosqichda korxona rahbariyati aynan shu davr uchun dolzarb va ustuvor bo‘lgan taktik maqsadni tanlaydi (masalan, foyda hajmi, sotish hajmi, bozor ko‘lami va hokazo). Marketing qarorini qabul qilishni osonlashtirish maqsadida tanlovni 5–6 maqsaddan biriga to‘xtash tavsiya qilinadi.

Taktik maqsad tanlanganidan so‘ng, ishlab chiqarish assortimenti ichidan aniq mahsulot tanlashga o‘tiladi, ya’ni ushbu maqsadga erishishda qaysi mahsulot ko‘proq hissa qo‘shishini aniqlash zarur.

Keyingi bosqichda korxona ishlayotgan bozorlarning birini tanlaydi, ya’ni mazkur marketing dasturi qaysi iste’mol bozorida qo‘llanilishi rejalashtirilganligini belgilaydi (V2V, V2S, V2G, hududiy bozorlar yoki boshqa bozorlar).

Shundan so‘ng, ushbu bozordagi eng jozibador iste’molchi guruhlari tanlanadi. Korxona uchun eng yuqori xarid salohiyatiga ega bo‘lgan maqsadli segment yoki korxona uchun muhim iste’molchilar segmenti tanlov obyekti bo‘lishi lozim.

Ma’lumki, marketing dasturi vaqt va mablag‘ bilan chegaralangan bo‘ladi, shuning uchun marketing faoliyatining faqat bitta elementi yoki yo‘nalishi tanlanadi (tovar, narx, siljitish va hokazo).

Barcha tanlovlar amalga oshirilgandan so‘ng, ushbu vaziyatga mos chora-tadbirlar majmuasi tanlanadi. Ushbu chora-tadbirlar oldin qo‘llanilgan qulay tajribalar asosida shakllangan xarajatlar bazasidan olinadi. Bu esa marketing dasturini rasmiylashtirish va marketing byudjetini aniqlashga asos bo‘ladi.

Ushbu takliflarimiz korxona amaliyotida quyidagi afzalliklarga ega:

- Marketing dasturini tuzishning har bir bosqichida korxona uchun foydali yo‘nalish tanlanadi;
- Marketing rejasini tuzish jarayonida o‘zaro fikr almashishga imkon paydo bo‘ladi;
- Marketing rejasi aniq shaklga ega va uni bajarishga asos bo‘lgan ssenariylardan iborat;
- Marketing rejasi va dasturini tuzish jarayonini raqamlashtirish imkoniyati mavjud bo‘ladi.

Ko‘p variantli ssenariylar usulining eng muhim jihati – modellashtirish imkonini ta’minlashdir. Sodda kompyuterlashtirish dasturiga murojaat qilganda masala ikki mustaqil yo‘nalishda hal qilinadi: marketingning taktik masalasini ko‘p bosqichli saralash orqali aniq marketing dasturi holatiga keltirish hamda ssenariylar bazasidan masalaga mos (yoki unga yaqin) marketing choralarini tanlash.

Birinchi bajariladigan harakatlar va saralash bosqichlarini kompyuter tiliga moslashtirish natijalarini quyidagi rasmda kuzatish mumkin (3-rasm).

```
def add(goal, production, market_type, consumer_segment, element_5p):
    with open("Marketing_Strategy.txt", "a") as file:
        file.write(goal + "|" + production + "|" + market_type + "|"
                + consumer_segment + "|" + element_5p + "\n")
def view():
    with open("Marketing_Strategy.txt", "r") as file:
        for lines in file.readlines():
            data = lines.rstrip()
            goal_data, production_data, market_type_data,
            consumer_segment_data, element_5p_data = data.split("|")
            print(
                f"- Tactical Goal: {goal_data}\n"
                f"- Product Type: {production_data}\n"
                f"- Market Type: {market_type_data}\n"
                f"- Consumer Segment: {consumer_segment_data}\n"
                f"- 5P Element: {element_5p_data}\n"
            )
goals = {
    "1": "Increase in profit",
    "2": "Increase in revenue",
    "3": "Reduction of cost price",
    "4": "Expansion of market share"
}

products = {
    "1": "Clothing",
    "2": "Knitwear",
    "3": "Underwear",
    "4": "Socks",
    "5": "Industrial textiles"
}
markets = {
    "1": "B2B",
    "2": "B2C",
    "3": "B2G",
    "4": "Regional",
    "5": "International"
}
segments = {
    "1": "Men",
    "2": "Women",
    "3": "Children",
    "4": "Business"
}
five_p = {
    "1": "Price",
    "2": "Product",
    "3": "Promotion",
    "4": "Place",
    "5": "People"
}
while True:
    start = input("Type 'start' to continue or 'q' to quit: ").lower()

    if start == "q":
        print("Thank you. Maybe next time!")
        break

    elif start != "start":
        print("Invalid input. Please type 'start' or 'q'.")
        continue
     # Tactical goal
    while True:
        goal = input(
            "\nPlease select the tactical goal:\n"
            "1) Increase in profit\n"
            "2) Increase in revenue\n"
            "3) Reduction of cost price\n"
            "4) Expansion of market share\n"
            "Enter your choice (1-4): "
        )
```

```
        if goal in goals:
            break
        print("Invalid input. Please enter your choice (1-4): ")
    # Type of products
    while True:
        production = input(
            "\nPlease select the type of products:\n"
            "1) Clothing\n"
            "2) Knitwear\n"
            "3) Underwear\n"
            "4) Socks\n"
            "5) Industrial textiles\n"
            "Enter your choice (1-5): "
        )
        if production in products:
            break
        print("Invalid input. Please enter your choice (1-5): ")
    # Market type
    while True:
        market_type = input(
            "\nPlease select the market type:\n"
            "1) B2B\n"
            "2) B2C\n"
            "3) B2G\n"
            "4) Regional\n"
            "5) International\n"
            "Enter your choice (1-5): "
        )
        if market_type in markets:
            break
        print("Invalid input. Please enter your choice (1-5): ")
    # Consumer segment
    while True:
        consumer_segment = input(
            "\nPlease select consumer segment:\n"
            "1) Men\n"
            "2) Women\n"
            "3) Children\n"
            "4) Business\n"
            "Enter your choice (1-4): "
        )
        if consumer_segment in segments:
            break
        print("Invalid input. Please enter your choice (1-4): ")

    # 5P element
    while True:
        element_5p = input(
            "\nPlease select the 5p element:\n"
            "1) Price\n"
            "2) Product\n"
            "3) Promotion\n"
            "4) Place\n"
            "5) People\n"
            "Enter your choice (1-5): "
        )
        if element_5p in five_p:
            break
        print("Invalid input. Please enter your choice (1-5): ")

    selected_goal = goals[goal]
    selected_production = products[production]
    selected_market = markets[market_type]
    selected_segment = segments[consumer_segment]
    selected_5p = five_p[element_5p]

    add(selected_goal, selected_production, selected_market, selected_segment, selected_5p)
    # add and preserve everything in a new file: "Marketing_strategy.txt"

print("\nThank you! Your selections have been recorded.\n")
```

```
print("\n Saved to 'Marketing_Strategy.txt':")
print(f"- Tactical Goal: {selected_goal}")
print(f"- Product Type: {selected_production}")
print(f"- Market Type: {selected_market}")
print(f"- Consumer Segment: {selected_segment}")
print(f"- 5P Element: {selected_5p}\n")

while True:
  strategy = input("Would you like to view all startegies that you chose? \n"
          "Type view to 'view' or 'q' to Quit: ")
  if strategy == "view":
    view()
  elif strategy == "q":
    break
  else:
    print("Invalid mode!")
    continue
```

2-rasm. Marketing dasturini tuzishda ko‘p variantli tanlovni amalga oshirish kompyuter dasturi

XULOSA VA TAKLIFLAR

Agar dastur vazifani aniqlashtiradigan bo‘lsa, ikkinchi darajadagi masala uchun korxona, raqobatchilar hamda ilg‘or tajriba asosida shakllantirilgan tayyor marketing dasturlari shablonlari zarur bo‘ladi.

Marketing dasturlari bazasi (shablonlari) – bu korxona tarixida amalga oshirilgan marketing dasturlari va biznes-loyihalari, shuningdek, benchmarking usuli orqali bozor ishtirokchilari tomonidan muvaffaqiyat qozongan har qanday loyiha ham shu bazaga kiritilishi mumkin. Shu yo‘l bilan kompyuter masala mazmunidan kelib chiqqan holda ssenariylar bazasidan eng maqbulini tanlash imkoniyati paydo bo‘ladi.

Ikkinchi darajadagi kompyuter dasturi ancha sodda bo‘lib, uning algoritmida vazifaning mazmuni va taklif qilinayotgan yechimlarni taqqoslash jarayonlari yotadi. Ma’lumotlar bazasi qancha yirik bo‘lsa va taqqoslash mezonlari qanchalik puxta ishlansa, marketing rejasining aniqligi va hayotiyligi shuncha yuqori bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Soliev A., Vuzrukxonov S., Marketing, bozorshunoslik. Darslik. – T.: Iqtisod-Moliya, 2010. – 424 b.

2. Ergashxodjaeva SH.J., Qosimova M.S., YUsupov M.A. Marketing. Darslik. – T.: TDIU, 2011. – 202 b.

3. Bekmurodov A.Sh., Qosimova M.S., Ergashxodjaeva Sh.J. Strategik marketing. O‘quv qo‘llanma. 2010.-161 b.

4. Болтабаев M.P. “Тўқимачилик саноати корхоналарининг рақобатдошлигини баҳолаш услубини такомиллаштириш”. T:,“Иқтисодиёт ва инноватсион технологиялар” илмий электрон журнали. 2011, №1. 1-2 б.

5. А.А.Султанов. Диверсификациялаш асосида замонавий саноат ишлаб чиқаришни ташкил этиш ва ривожлантириш истиқболлари “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 4, июль-август, 2016 йил

6. М.А.Икрамов, И.А.Тошпулатов. Енгил саноат корхоналари рақобатбардошлигини баҳолаш услубини такомиллаштириш. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 2, март-апрель, 2018

йил

7. Bekmurodov A.Sh., Qosimova M.S. Safarov B.J., Musayeva Sh. Marketingni boshqarish. O‘quv qo‘llanma. – T.: TDIU, 2007, 160-b.

8. Bobojanov B. R. O‘zbekistonda farmatsevtika mahsulotlari bozorining rivojlanish holatining statistik tahlili va prognozlash. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2020-yil.

9. Musaeva Sh.A. Marketing tadqiqotlari. Darslik “STAR-SEL” MChJ nashriyot va ijodiy bo‘limi. Samarqand-2023

10. Musaeva Sh.A. Integrallashtirilgan marketing kommunikatsiyasi O‘quv qo‘llanma “Mahorat” nashriyoti, Samarqand – 2022

11. Musaeva Sh.A., Usmonova D.I. Innovatsion marketing “TURON EDITION” 2021-yil uchun o‘quv qo‘llanma.

12. O‘zbekiston Respublikasi milliy statistika qo‘mitasining Samarqand viloyati boshqarmasi ma’lumotlari.

MINTAQAVIY RESURSLARNI BOSHQARISHDA MENEJMENT YONDASHUVLARI: INSTITUTSIONAL NAZARIYA VA IQTISODIY XAVFSIZLIK INDIKATORLARI ASOSIDA BAHOLASH

Ismoilov Abdulxoliq Muxiddin o‘g‘li
Menejment kafedrasi o‘qituvchisi, NamDTU
ORCID: 0009-0006-6436-7604
E-mail: ismoilovabdulxoliq0305@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada mintaqaviy resurslarni boshqarishda menejment yondashuvlari institutsional nazariya va iqtisodiy xavfsizlik indikatorlari asosida ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Mintaqa iqtisodiyoti resurslardan samarali foydalanish darajasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, tabiiy, mehnat, moliyaviy va ishlab chiqarish resurslari iqtisodiy xavfsizlikning asosiy omillari sifatida qaraladi. So‘nggi yillarda hududiy rivojlanish jarayonlarida resurslarni boshqarishda nomutanosibliklar, samaradorlikning pastligi va institutsional mexanizmlarning yetarlicha ishlamasligi kuzatilmoqda. Shu nuqtai nazardan, ushbu tadqiqot mintaqaviy resurslarni boshqarishda institutsional iqtisodiyot yondashuvlarini qo‘llash hamda iqtisodiy xavfsizlikni baholashda Gini, Theil, Atkinson va Hoover kabi ko‘rsatkichlardan foydalanishni taklif etadi. O‘zbekiston viloyatlari misolida olib borilgan tahlillar resurslardan foydalanish samaradorligi va iqtisodiy xavfsizlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib beradi. Tadqiqot natijalari asosida mintaqaviy menejmentni takomillashtirish, resurslardan oqilona foydalanish va hududiy tafovutlarni kamaytirishga qaratilgan ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: mintaqaviy resurslar, menejment yondashuvlari, institutsional nazariya, iqtisodiy xavfsizlik, hududiy nomutanosiblik, samaradorlik, tabiiy resurslar, mehnat resurslari, moliyaviy resurslar, iqtisodiy xavfsizlik indikatorlari, Gini koeffitsiyenti, Theil indeksi, Atkinson koeffitsiyenti, Hoover indeksi.

Аннотация

В данной статье будет проведен научный анализ управленческих подходов к управлению региональными ресурсами на основе институциональной теории и индикаторов экономической безопасности. Экономика региона напрямую связана со степенью эффективного использования ресурсов, при этом природные, трудовые, финансовые и производственные ресурсы рассматриваются как основные факторы экономической безопасности. В последние годы в процессах территориального развития наблюдаются диспропорции в управлении ресурсами, низкая эффективность, недостаточная работоспособность институциональных механизмов. В этом контексте настоящее исследование предлагает применение институциональных экономических подходов к региональному управлению ресурсами, а также использование таких показателей, как Gini, theil, Atkinson и Hoover, для оценки экономической безопасности. Анализ, проведенный на примере регионов Узбекистана, выявляет взаимосвязь между эффективностью использования ресурсов и экономической безопасностью. На основе результатов исследований

разрабатываются научно обоснованные рекомендации, направленные на совершенствование регионального управления, рациональное использование ресурсов, сокращение территориальных различий.

Ключевые слова: региональные ресурсы, подходы к управлению, институциональная теория, экономическая безопасность, территориальный дисбаланс, эффективность, природные ресурсы, трудовые ресурсы, финансовые ресурсы, индикаторы экономической безопасности, коэффициент Джини, индекс Тейла, коэффициент Аткинсона, индекс Гувера.

Abstract

in this article, management approaches to regional resource management are scientifically analyzed on the basis of institutional theory and economic security indicators. The economy of the region is directly related to the level of effective use of resources, and natural, labor, financial and productive resources are considered as the main factors of economic security. In recent years, there have been imbalances in resource management in the processes of Territorial Development, low efficiency and insufficient functioning of institutional mechanisms. In this context, this study offers the use of institutional economics approaches in regional resource management as well as the use of indicators such as Gini, Theil, Atkinson and Hoover in economic security assessments. The analysis carried out on the example of the regions of Uzbekistan reveals the connection between the efficiency of resource use and economic security. Based on the results of the study, scientifically based recommendations are developed aimed at improving regional management, rational use of resources and reducing territorial differences.

Keywords: regional resources, management approaches, institutional theory, economic security, territorial imbalance, efficiency, natural resources, labor resources, financial resources, economic security indicators, Gini coefficient, Theil index, Atkinson coefficient, Hoover index.

KIRISH

Mintaqaviy iqtisodiyotda resurslardan oqilona foydalanish va ularni samarali boshqarish iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning ustuvor omillaridan biridir. Resurslar – tabiiy, mehnat, moliyaviy va ishlab chiqarish salohiyati – hududiy rivojlanishning asosiy drayverlari sifatida iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy muvozanat va hududiy tafovutlarni kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, resurslarni boshqarishda institutsional mexanizmlarning yetarli darajada samarali ishlamasligi ko‘pincha hududlar o‘rtasidagi rivojlanish tafovutlarini chuqurlashtiradi va iqtisodiy xavfsizlikni zaiflashtiradi.

BMT Taraqqiyot Dasturining (UNDP) 2022-yilgi Inson rivojlanishi to‘g‘risidagi hisobotida qayd etilishicha, resurslardan foydalanishda adolatsizlik yuqori bo‘lgan mamlakatlarda iqtisodiy xavfsizlikning institutsional asoslari ham izdan chiqadi, bu esa barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni murakkablashtiradi [1].

Jahon iqtisodiy forumi (WEF) tomonidan chop etilgan Global Risk Report 2023da resurslardan samarasiz foydalanish, institutsional boshqaruvdagi zaifliklar va hududiy tafovutlarning ortishi iqtisodiy xavfsizlikka tahdid tug‘diruvchi global xavflar qatoriga

kiritilgan [2]. Mazkur hisobotda resurslardan foydalanishda kompleks menejment mexanizmlarini shakllantirish, shaffoflik va samaradorlikni oshirish zarurligi ta’kidlanadi.

Shuningdek, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) Regional Outlook 2021 hujjatida resurslarni boshqarishda menejment yondashuvlarini kuchaytirish orqali hududiy rivojlanishda barqarorlik va inklyuzivlikni ta’minlash mumkinligi ilmiy asoslangan dalillar bilan tasdiqlangan [3].

O‘zbekiston tajribasi ham bu jarayonni yaqqol namoyish etadi. Mamlakatda resurslardan samarali foydalanish masalasi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilgan. Prezidentning 2022-yil 28-yanvarda qabul qilingan PF–60-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2022–2026-yillarda Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash uchun resurslardan oqilona foydalanish, ekologik muvozanatni saqlash va hududiy nomutanosibliklarni kamaytirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan [4]. Shu bilan birga, 2021-yilda tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasi”da ham resurslarni boshqarishda innovatsion menejment mexanizmlarini joriy etish va samaradorlikni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar ko‘zda tutilgan [5].

Shunday qilib, mintaqaviy resurslarni boshqarishda menejment yondashuvlarini institutsional nazariya nuqtai nazaridan tahlil qilish va iqtisodiy xavfsizlik indikatorlari yordamida baholash bugungi kunda ilmiy va amaliy jihatdan nihoyatda dolzarbdir. Chunki resurslardan oqilona foydalanish nafaqat hududiy iqtisodiy barqarorlikni ta’minlaydi, balki ijtimoiy tenglikni mustahkamlaydi, hududlararo tafovutlarni kamaytiradi va iqtisodiy xavfsizlikning kompleks kafolatini yaratadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Mintaqaviy resurslarni boshqarishda menejment yondashuvlari bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar turli nazariy paradigmalarga asoslangan bo‘lsa-da, ularning umumiy xulosasi iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash samarali institutsional mexanizmlar mavjudligiga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Avvalo, Douglass Northning “Institutsional iqtisodiyot nazariyasi” asarida barqaror iqtisodiy o‘sish uchun samarali institutlarning mavjudligi hal qiluvchi shart ekanligi ta’kidlanadi [6]. Uning fikricha, iqtisodiy taraqqiyotning uzoq muddatli barqarorligi nafaqat resurslarning mavjudligiga, balki ularni taqsimlash va boshqarish mexanizmlariga bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, mintaqaviy menejment tizimlarida institutlarning sifat darajasi iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashda muhim determinant hisoblanadi.

Resurslardan oqilona foydalanmaslik natijasida yuzaga keladigan xavflarni Sachs va Warner tadqiqotlari ham chuqur asoslab bergan. Ularning “Resurs la’nati” nazariyasiga ko‘ra, resurslarga haddan tashqari tayangan mamlakatlarda iqtisodiy xavfsizlik zaiflashadi va o‘sish sur’atlari pasayadi [7]. Bu g‘oya hududiy iqtisodiyot uchun ham dolzarb bo‘lib, resurslardan samarali foydalanish mexanizmlarining mavjud emasligi hududiy nomutanosibliklarni kuchaytirishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Hududiy tafovutlar masalasida Milanovicning global tengsizlik haqidagi tadqiqotlari alohida ahamiyat kasb etadi. U mintaqaviy daromad va resurslardan

foydalanishdagi nomutanosibliklarni o‘lchash uchun Gini, Theil va Atkinson koeffitsientlarini qo‘llashni taklif etadi [8]. Bu metodologiya hududiy iqtisodiyotda iqtisodiy xavfsizlikni tahlil qilishda keng qo‘llanilib, resurslardan foydalanish samaradorligi va ijtimoiy adolat o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib beradi.

Xalqaro tashkilotlarning hisobotlari ham bu yo‘nalishda muhim ilmiy manba hisoblanadi. OECDning Regional Outlook 2021 hujjatida hududiy boshqaruvni kuchaytirish, resurslardan foydalanishda innovatsion menejment mexanizmlarini joriy etish va hududiy tafovutlarni kamaytirish orqali iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash mumkinligi ta’kidlangan [9]. UNDPning Inson rivojlanishi hisobotida esa resurslardan samarali foydalanish inson kapitalining rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liqligi, ularning noto‘g‘ri boshqarilishi esa iqtisodiy xavfsizlikka bevosita tahdid solishi qayd etilgan [10].

Milliy ilmiy manbalar ham mazkur masalaga chuqur yondashadi. Masalan, Abdukarimovning tadqiqotlarida mintaqaviy resurslardan foydalanishda institutsional mexanizmlarni kuchaytirish, samarali menejment tizimlarini joriy etish va resurslar ustidan davlat nazoratini takomillashtirish zarurligi ilmiy asoslanadi [11].

Mullabayev esa mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishda resurslardan foydalanish samaradorligi va boshqaruv mexanizmlarining takomillashuvi iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashdagi asosiy shartlardan biri ekanini alohida ta’kidlaydi [12].

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvarda qabul qilingan PF–81-son Farmonida belgilangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” ham hududiy tafovutlarni kamaytirish va resurslardan oqilona foydalanish orqali iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri sifatida qayd etilgan [13].

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mintaqaviy resurslarni boshqarishda menejment yondashuvlari institutsional asoslar, samarali indikatorlar va strategik davlat siyosati uyg‘unligi orqali iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ilmiy manbalarda berilgan nazariy qarashlar va amaliy tavsiyalar ushbu tadqiqotning metodologik asosini tashkil etib, hududiy rivojlanishda resurslardan samarali foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda iqtisodiy xavfsizlik indikatorlari asosida mintaqaviy resurslardan foydalanish samaradorligi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Mintaqa iqtisodiyoti tabiiy, mehnat, moliyaviy va ishlab chiqarish resurslari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ularning boshqarilishi iqtisodiy xavfsizlikning poydevorini tashkil etadi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida institutsional iqtisodiyot yondashuvi tanlandi, chunki u rasmiy va norasmiy institutlarning samaradorligi orqali resurslardan foydalanish natijadorligini izohlaydi. Iqtisodiy xavfsizlikni empirik o‘lchashda Gini, Theil, Atkinson va Hoover ko‘rsatkichlaridan foydalanish taklif etildi. Ushbu indikatorlar yordamida hududlar kesimida resurslardan foydalanishdagi nomutanosibliklar, tengsizlik darajasi hamda iqtisodiy xavfsizlikka bo‘lgan ta’sir aniqlandi.

Tadqiqotning ma’lumotlar bazasi O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, Markaziy bank va xalqaro tashkilotlar (OECD, UNDP) ochiq statistik hisobotlari asosida shakllantirildi. Panel ma’lumotlar tahlili, korrelyatsion bog‘liqlikni aniqlash, indikatorlar asosida hududiy nomutanosibliklarni hisoblash va dinamik qiyosiy tahlil metodlari qo‘llanildi. Namuna sifatida O‘zbekistonning barcha viloyatlari, chuqurlashtirilgan holda esa Namangan viloyati va uning tumanlari bo‘yicha 2015–2024-yillar oralig‘idagi statistik ko‘rsatkichlar tahlil qilindi. Natijalar mintaqaviy menejmentni takomillashtirish, resurslardan samarali foydalanish va iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash uchun ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur bo‘limda Namangan viloyati va uning tumanlari misolida 2015–2024-yillar davrida resurslardan foydalanish samaradorligi hamda iqtisodiy xavfsizlik indikatorlari asosida kompleks ilmiy tahlil amalga oshiriladi. Tadqiqotda tabiiy, mehnat va moliyaviy resurslardan foydalanish darajasining dinamikasi chuqur o‘rganilib, ularning hududiy tafovutlarga va iqtisodiy xavfsizlik ko‘rsatkichlariga ta’siri aniqlanadi. Shuningdek, Gini, Theil, Atkinson va Hoover indekslari asosida hududiy nomutanosiblik darajasi baholanib, iqtisodiy xavfsizlik bilan resurslardan foydalanish samaradorligi o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘liqlik empirik asosda tahlil qilinadi. Ushbu natijalar mintaqaviy menejment yondashuvlarini takomillashtirish va iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Namangan viloyatida so‘nggi o‘n yil davomida tabiiy, mehnat va moliyaviy resurslardan foydalanishning umumiy dinamikasi hamda ularning samaradorlik darajasidagi o‘zgarishlar yillik kesimda aks ettirilgan (1-jadval).

1-jadval.

Namangan viloyatining 2015-2024-yillarda resurslardan foydalanish dinamikasi

Yil	YaIM o‘sishi (%)	Tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligi (%)	Mehnat resurslari bandligi (%)	Moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligi (%)
2015	6.5	72.1	62.5	65.3
2016	6.8	73.4	63.2	66.1
2017	7.1	74.8	64.0	68.0
2018	6.9	75.3	64.9	68.8
2019	7.4	76.5	65.8	70.2
2020	5.1	72.6	62.7	65.0
2021	6.2	74.0	63.8	67.3
2022	6.8	75.2	65.4	68.5
2023	7.0	76.9	66.1	69.7
2024	7.2	78.1	67.4	71.0

Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Jadval ma’lumotlari Namangan viloyatida so‘nggi o‘n yil davomida resurslardan foydalanish samaradorligining turlicha bosqichlarda shakllanganini ko‘rsatadi. 2015-yilda tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligi 72,1 foiz, mehnat resurslari

bandligi 62,5 foiz, moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligi esa 65,3 foizni tashkil etgan. Keyingi yillarda barqaror o‘sish kuzatilib, 2019-yilga kelib mazkur ko‘rsatkichlar mos ravishda 76,5 foiz, 65,8 foiz va 70,2 foizgacha yetgan. Bu davrda viloyat YaIMining o‘sish sur’ati ham yuqori bo‘lib, resurslardan foydalanishning iqtisodiy xavfsizlik bilan bevosita bog‘liqligi tasdiqlanadi.

2020-yilda pandemiya ta’siri natijasida barcha asosiy ko‘rsatkichlarda pasayish qayd etilgan. Masalan, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligi 72,6 foizgacha, mehnat resurslari bandligi 62,7 foizgacha, moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligi esa 65,0 foizgacha qisqargan. Ammo keyingi yillarda iqtisodiy tiklanish jarayoni boshlanib, 2024-yilga kelib tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligi 78,1 foiz, mehnat resurslari bandligi 67,4 foiz, moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligi esa 71,0 foiz darajasiga yetgan. Ushbu ko‘rsatkichlar mintaqada resurslardan foydalanish samaradorligi iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashda muhim determinant sifatida namoyon bo‘layotganini ko‘rsatadi.

Namangan viloyatida so‘nggi o‘n yil davomida iqtisodiy xavfsizlik indikatorlari – Gini, Theil, Atkinson va Hoover ko‘rsatkichlarining dinamikasi yoritilgan bo‘lib, daromad va resurslardan foydalanishdagi hududiy tafovutlarning o‘zgarishi hamda ularning iqtisodiy xavfsizlikka ta’siri aks ettirilgan (2-jadval).

2-jadval.

Namangan viloyatining 2015-2024-yillardagi iqtisodiy xavfsizlik indikatorlari

Yil	Gini koeffitsiyenti	Theil indeksi	Atkinson indeksi	Hoover indeksi
2015	0.298	0.155	0.121	0.102
2016	0.295	0.153	0.119	0.100
2017	0.302	0.159	0.124	0.108
2018	0.309	0.163	0.127	0.111
2019	0.312	0.168	0.129	0.114
2020	0.328	0.179	0.134	0.123
2021	0.321	0.173	0.131	0.118
2022	0.315	0.169	0.128	0.113
2023	0.310	0.165	0.126	0.109
2024	0.305	0.161	0.123	0.106

Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasi hamda Davlat soliq boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, 2015-yilda Gini koeffitsiyenti 0,298 bo‘lsa, 2019-yilda 0,312 gacha o‘sib, daromad taqsimotidagi tengsizlik kuchaygan. Shu bilan birga, Theil indeksi 0,155 dan 0,168 gacha, Atkinson indeksi 0,121 dan 0,129 gacha oshgan, Hoover indeksi esa 0,102 dan 0,114 gacha yetgan. Bu jarayon viloyatda resurslardan foydalanishdagi nomutanosiblikning ortib borayotganini ko‘rsatadi.

2020-yilda pandemiya ta’siri bilan eng yuqori tafovut qayd etilgan: Gini 0,328, Theil 0,179, Atkinson 0,134 va Hoover 0,123 darajaga yetgan. Keyingi yillarda davlat siyosati, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari va hududiy rivojlanish strategiyalari hisobiga nomutanosiblik asta-sekin pasayib, 2024-yilga kelib Gini

koeffitsiyenti 0,305 gacha, Hoover indeksi esa 0,106 gacha tushgan. Bu esa institutsional chora-tadbirlarning iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashda ijobiy natija berganini ilmiy asosda tasdiqlaydi (3-jadval).

3-jadval

Namangan viloyati ayrim tumanlarining 2015-2024-yillar bo‘yicha resurslardan foydalanish samaradorligi

Tumanlar	2015	2017	2019	2021	2022	2024
Namangan sh.	68.5	71.2	73.4	70.1	72.6	75.8
Chust	66.8	69.1	71.5	68.9	70.3	73.0
Kosonsoy	67.4	70.0	72.6	69.5	71.2	74.1
Pop	65.7	68.0	70.8	67.4	69.1	72.0
Uychi	66.0	68.5	71.0	68.1	70.5	73.5
To‘raqo‘rg‘on	67.1	69.8	72.1	69.0	71.6	74.3
Norin	64.5	67.2	69.5	66.2	68.1	71.0
Uchqo‘rg‘on	65.2	68.1	70.4	67.0	69.4	72.2

Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, Namangan shahrida resurslardan foydalanish samaradorligi eng yuqori darajada shakllangan. 2015-yilda 68,5 foiz bo‘lgan ko‘rsatkich 2024-yilga kelib 75,8 foizga yetgan. Chust va Kosonsoy tumanlarida ham ijobiy tendensiya kuzatilib, 2024-yilda samaradorlik mos ravishda 73,0 va 74,1 foizni tashkil etgan. Eng past ko‘rsatkich Norin tumanida qayd etilgan bo‘lib, 2015-yildagi 64,5 foizdan 2024-yilda 71,0 foizgacha ko‘tarilgan. Bu farqlar hududiy iqtisodiy xavfsizlik darajasida sezilarli tafovutlarni keltirib chiqargan.

2020–2021-yillarda pandemiya ta’siri tufayli barcha tumanlarda samaradorlik ko‘rsatkichlari pasaygan. Masalan, Pop tumanida 2019-yilda 70,8 foiz bo‘lgan ko‘rsatkich 2021-yilda 67,4 foizgacha kamaygan. Biroq 2022-yildan boshlab barcha hududlarda resurslardan foydalanish ko‘rsatkichlari barqarorlashib, o‘sish tendensiyasiga qaytgan. 2024-yilga kelib tumanlar kesimida 71–76 foiz oralig‘ida shakllangan samaradorlik mintaqada iqtisodiy xavfsizlikni tiklash va mustahkamlashda muhim rol o‘ynaganini ko‘rsatadi (4-jadval).

4-jadval.

Namangan viloyatida iqtisodiy xavfsizlik va resurslardan foydalanish o‘rtasidagi korrelyatsiya

Ko‘rsatkichlar	Korrelyatsiya koeffitsienti (r)
Tabiiy resurslardan foydalanish – Gini koeffitsiyenti	-0.62
Mehnat resurslari bandligi – Theil indeksi	-0.58
Moliyaviy resurslardan foydalanish – Hoover indeksi	-0.65
Umumiy resurs samaradorligi – Iqtisodiy xavfsizlik	+0.71

Manba: Muallif hisob-kitoblari.

Jadval natijalariga ko‘ra, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligi va Gini koeffitsiyenti o‘rtasida –0,62 darajadagi salbiy korrelyatsiya aniqlangan. Bu shuni anglatadiki, tabiiy resurslardan foydalanish darajasi ortgani sari daromad taqsimotidagi tengsizlik kamaygan. Mehnat resurslari bandligi va Theil indeksi o‘rtasidagi –0,58

ko‘rsatkich ham hududiy tengsizlikni yumshatishda mehnat resurslarining to‘liq bandligi muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi.

Moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligi va Hoover indeksi o‘rtasidagi –0,65 darajadagi kuchli salbiy bog‘liqlik moliyaviy resurslarning samarali boshqaruvi hududiy nomutanosibliklarni sezilarli darajada kamaytirishini tasdiqlaydi. Eng muhim natija shundaki, umumiy resurs samaradorligi va iqtisodiy xavfsizlik o‘rtasida +0,71 darajali ijobiy korrelyatsiya qayd etilgan. Bu esa resurslardan oqilona foydalanishning iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashda strategik ahamiyatga ega ekanini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqotda Namangan viloyati va uning tumanlari misolida 2015–2024-yillarda resurslardan foydalanish samaradorligi hamda iqtisodiy xavfsizlik indikatorlari o‘rganildi. Olingan natijalar hududiy rivojlanishda tabiiy, mehnat va moliyaviy resurslardan oqilona foydalanishning iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashdagi hal qiluvchi ahamiyatini tasdiqlaydi. Shu asosda quyidagi ilmiy asoslangan xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Birinchidan, 2015–2024-yillar davomida Namangan viloyatida tabiiy, mehnat va moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligi izchil o‘sib borgan bo‘lsa-da, ayrim yillarda (ayniqsa, pandemiya davrida) sezilarli pasayish kuzatildi. Bu esa resurslardan foydalanish darajasi mintaqaning iqtisodiy xavfsizligiga bevosita ta’sir etishini tasdiqlaydi.

Ikkinchidan, iqtisodiy xavfsizlik indikatorlari – Gini, Theil, Atkinson va Hoover ko‘rsatkichlari hududiy nomutanosiblikning kuchayib borayotganini ko‘rsatdi. 2020-yilda Gini koeffitsiyenti 0,328 darajaga yetishi mintaqada daromad tengsizligi va resurslardan foydalanishdagi tafovutlar iqtisodiy xavfsizlikka jiddiy xavf tug‘dirishini ilmiy asosda ko‘rsatib berdi.

Uchinchidan, tumanlar kesimida resurslardan foydalanish samaradorligi o‘zgaruvchan bo‘lib, Namangan shahri va To‘raqo‘rg‘on yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan bo‘lsa, Norin va Pop tumanlari eng past samaradorlikka ega hududlar sifatida qayd etildi. Bu esa hududiy iqtisodiy xavfsizlik darajasida sezilarli tafovutlarni yuzaga keltirdi.

To‘rtinchidan, korrelyatsion tahlillar resurslardan samarali foydalanish va iqtisodiy xavfsizlik o‘rtasida kuchli bog‘liqlik mavjudligini isbotladi. Masalan, moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligi va Hoover indeksi o‘rtasida –0,65 darajali salbiy korrelyatsiya mavjudligi moliyaviy oqimlarni samarali boshqarish hududiy nomutanosibliklarni kamaytirishini ko‘rsatdi.

Beshinchidan, umumiy resurs samaradorligi va iqtisodiy xavfsizlik o‘rtasida +0,71 darajali ijobiy bog‘liqlik aniqlangani, resurslardan oqilona foydalanishning iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashda strategik determinant ekanini ilmiy asosda tasdiqladi.

Mazkur tadqiqot natijalari mintaqaviy resurslardan samarali foydalanish va iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash uchun institutsional hamda strategik

mexanizmlarni kuchaytirish zarurligini ko‘rsatdi. Shu bois quyida ilmiy asoslangan taklif va amaliy tavsiyalar taqdim etiladi.

Birinchidan, mintaqaviy resurslardan samarali foydalanish bo‘yicha doimiy monitoring tizimini shakllantirish zarur. Bu tizim tabiiy, mehnat va moliyaviy resurslarning yilma-yil o‘zgarishini kuzatib borishga, ularning samaradorligini baholashga hamda iqtisodiy xavfsizlik darajasiga ta’sirini aniq ko‘rsatib berishga xizmat qiladi. Shu maqsadda yagona elektron platforma yaratilib, barcha hududiy statistik ko‘rsatkichlar unda jamlanishi lozim.

Ikkinchidan, iqtisodiy xavfsizlik indikatorlari – Gini, Theil, Atkinson va Hoover ko‘rsatkichlari rasmiy hududiy rivojlanish dasturlariga kiritilishi lozim. Bu orqali resurslardan foydalanishdagi nomutanosibliklar aniqlanadi, hududiy tafovutlarni yumshatishga qaratilgan aniq chora-tadbirlar ishlab chiqiladi. Ayniqsa, daromad tengsizligini kamaytirish, ijtimoiy adolatni ta’minlash va hududiy iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylanishi zarur.

Uchinchidan, samaradorlik past bo‘lgan tumanlarda resurslardan foydalanishni rag‘batlantirishga qaratilgan qo‘shimcha investitsiya dasturlari ishlab chiqilishi kerak. Bunda infratuzilma loyihalari, ishlab chiqarish klasterlari va kichik biznesni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish muhimdir. Bu choralar resurslardan foydalanish darajasini oshirish bilan birga, hududlararo tafovutlarni kamaytirishga va iqtisodiy xavfsizlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

To‘rtinchidan, institutsional mexanizmlarni kuchaytirish mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikning poydevori hisoblanadi. Davlat boshqaruvi, xususiy sektor va fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi hamkorlik kengaytirilishi, shaffof boshqaruv va hisobdorlik mexanizmlari joriy qilinishi zarur. Xalqaro tajribadan kelib chiqib, OECD va UNDP tomonidan qo‘llanilgan ilg‘or usullarni milliy sharoitga moslashtirish, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishda muhim strategik qadam bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. United Nations Development Programme (UNDP). (2022). Human Development Report 2022: Uncertain Times, Unsettled Lives. New York: UNDP.

2. World Economic Forum (WEF). (2023). Global Risk Report 2023. Geneva: WEF.

3. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). (2021). OECD Regional Outlook 2021: Addressing COVID-19 and Moving to Net Zero Greenhouse Gas Emissions. Paris: OECD Publishing.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti PF–60-son 2022-yil 28-yanvar: “2022–2026-yillarda Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmon https://lex.uz/uz/docs/-5841063 .

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabr PF-5853-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni https://lex.uz/docs/-4567334

6. North, D. C. (1990). Institutions, Institutional Change and Economic Performance. Cambridge: Cambridge University Press.

7. Sachs, J. D., & Warner, A. M. (1995). Natural Resource Abundance and Economic Growth. Cambridge, MA: National Bureau of Economic Research (NBER).

8. Milanovic, B. (2016). Global Inequality: A New Approach for the Age of Globalization. Cambridge, MA: Harvard University Press.

9. OECD. (2021). OECD Regional Outlook 2021: Addressing COVID-19 and Moving to Net Zero Greenhouse Gas Emissions. Paris: OECD Publishing.

10. UNDP. (2022). Human Development Report 2022: Uncertain Times, Unsettled Lives. New York: United Nations Development Programme. https://hdr.undp.org

11. Abdukarimov, I. (2020). Iqtisodiy xavfsizlik va mintaqaviy resurslardan foydalanish mexanizmlari. Toshkent: Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar nashriyoti.

12. Mullabayev, B. (2021). Mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishda resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishning institutsional asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 2022–2026 yillarda Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi PF–81-son Farmoni.

TADBIRKORLIKNI BOSHQARISHDA ZAMONAVIY YETAKCHILIK MODELLARIDAN FOYDALANISH

Kazakov Olim Sabirovich
Namangan davlat texnika universiteti
“Menejment” kafedrasi professori, i.f.n.
E-mail: olimkzkv@gmail.com

Annotatsiya

Tadbirkorlik faoliyatini yanada jadal sur’atlarda rivojlanishini ta’minlash uchun boshqaruv faoliyatida yetakchilikning zamonaviy va samarali konsepsiyalaridan foydalanish talab etiladi. Mazkur maqolada yetakchilik bo‘yicha nazariy asoslar va konsepsiyalar tahlil qilingan hamda ular asosida tadbirkorlik faoliyatida yetakchilikni qo‘llash yo‘nalishlari ishlab chiqilgan. Shuningdek, yetakchilikning zamonaviy konsepsiyalarini qo‘llash bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar taqdim etilgan.

Kalit so‘zlar: tadbirkorlik, boshqaruv, samara, yetakchilik, yetakchilik konsepsiyalari, boshqaruv mehnati, yetakchilik sifatlari.

Аннотация

Для обеспечения более быстрого развития предпринимательской деятельности необходимо использовать современные и эффективные концепции лидерства в управлении. В статье анализируются теоретические основы и концепции лидерства и на их основе разрабатываются направления применения лидерства в предпринимательской деятельности. Даны предложения и рекомендации по применению современных концепций лидерства.

Ключевые слова: предпринимательство, управление, эффективность, лидерство, концепции лидерства, управленческий труд, лидерские качества.

Abstract

To ensure the more rapid development of entrepreneurial activity, it is necessary to use modern and effective concepts of leadership in management. The article analyzes the theoretical foundations and concepts of leadership and, based on them, develops directions for the application of leadership in entrepreneurial activity. Suggestions and recommendations are given on the application of modern concepts of leadership.

Keywords: entrepreneurship, management, effectiveness, leadership, leadership concepts, managerial work, leadership qualities.

KIRISH

O‘zbekiston-2030 strategiyasida mamlakatimizni rivojlantirishning asosiy parametrlari ishlab chiqilgan, jumladan, 2030-yilgacha iqtisodiyot hajmini 2 barobarga oshirish va «daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar» qatoriga kirish, yalpi ichki mahsulot hajmini 160 milliard dollarga va aholi jon boshiga daromadlarni 4 ming dollarga yetkazish belgilangan [1]. Bu kabi maqsadlarga erishish uchun tadbirkorlik faoliyatini yanada jadal sur’atlarda rivojlantirish talab etiladi. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish avvalambor uni boshqarishni takomillashtirish va boshqaruvda zamonaviy usullar va vositalardan foydalanishni taqozo etadi. Barcha sohalar va

tarmoqlarda rivojlanish jarayonlari endilikda yashil iqtisodiyot talablarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi davr iqtisodiyotning globallashuvi va o‘zgarishlar bilan tavsiflanadi. Faoliyat samarasi tadbirkorlik korxonalarining boshqaruv faoliyatiga va unda o‘zgarishlarni hisobga olish zarurligiga bog‘liqdir. Bu faoliyatda taraqqiyotga erishish tadbirkorlikda boshqaruvga va unda menejmentning yetakchilik konsepsiyalariga e’tibor qaratishni talab qiladi. Yashil iqtisodiyot asosida rivojlanish jarayonidagi zamonaviy boshqaruv nazariyasida yetakchilik tushunchasi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tadbirkorlik faoliyati korxonalarida faoliyat olib borayotgan yetakchilarning ta’siri natijasida sohaning rivojlanishi jadal sur’atlarda amalga oshmoqda va yangi maqsadlar sari harakatlar ta’minlanmoqda. Tadbirkorlik faoliyatida va uning rivojlanishida yetakchilarning muhim o‘rni va ahamiyati mavjudligini qator xorijdagi klassik yetakchilar misolida ko‘rish mumkin. Hozirgi vaqtgacha amalga oshirilgan yetakchilar bo‘yicha nazariyalarning tahlili so‘nggi yillar davomida ma’lum sifatlarga ega bo‘lgan yetakchilarni yetakchilik modeli shakligacha ko‘tarilishiga olib kelganligini ko‘rsatmoqda. Yetakchilik modelida asosiy o‘ringa yetakchilarning shaxslar-aro munosabatlari va tashkilotlarning boshqa a’zolari o‘rtasidagi munosabatlari chiqdi.

Tadbirkorlikdagi zamonaviy boshqaruv faoliyati yangiliklarga va innovatsiyalarga yo‘naltirilganligi ularda yetakchilarni tayyorlash va mos ravishda rag‘batlantirishni talab qilmoqda. O‘tkazilgan tadqiqotlarga muvofiq, AQShda yetakchi kompaniyalar yetakchilikni rivojlantirish maqsadida sarflanadigan xarajatlarini yiliga o‘rtacha 14 %ga orttirib borayotganligini ko‘rsatmoqda. Yetakchilikni rivojlantirish bilan shug‘ullanadigan menejerlar soni ortib bormoqda va 100 ta yetakchiga 3,4 tadan to‘g‘ri kelmoqda. Tadqiqotlarga ko‘ra olib borilgan so‘rovnomada respondentlarning 80 foizi o‘z tashkilotlarida boshqaruv faoliyati samaradorligini ta’minlash uchun yetakchilikni ustuvor yo‘nalish hisoblashlarini ko‘rsatdi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Mamlakatimizda iqtisodiyotni globallashuvi sharoitida boshqaruv faoliyati hamda yetakchilik qobiliyati masalalari, g‘oyalari O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning asarlarida atroflicha o‘z aksini topgan. Boshqaruv faoliyatidagi yetakchilik to‘g‘risida qator tadqiqotlar o‘tkazilgan va ularda yetakchilik qobiliyati atroflicha o‘rganilgan, mohiyati va ahamiyatini ochib berishga harakat qilingan. Ilin A. N. yetakchilik to‘g‘risida shunday fikr bildiradi: “Yetakchilik qadimiy vaqtlardan beri hozirgi davrga qadar insoniyat rivojlanishining ajralmas qismi bo‘lib kelgan”[4].

O‘rta asrlarda yetakchilik bo‘yicha Sharqda ham ma’lum fikrlar bildirilgan. 1340–1400-yillarda Amir Temur o‘z hukmronligi ostidagi hududlarda mamlakatni idora qilish va saltanatni boshqarish uslubini, strategiyasi va taktikasini joriy qildi. U bu vaqtda o‘sha davrlardagi voqealar va ijtimoiy hayotni o‘zida aks ettirgan qimmatli asar “Temur tuzuklari”ni yaratdi. Mazkur asarda bayon etilgan boshqarish yo‘l-

yo‘riqlari, qonun-qoidalari, pand-nasihatlari O‘zbekiston mustaqilligini mustahkamlash yo‘lida xizmat qilmoqda.

Amir Temur kuchli davlatni barpo etish, davlat hokimiyatining qaysi ijtimoiy toifalarga tayanishi, mansabdor shaxslarni ularning sifatlariga ko‘ra tanlash va vazifalarga tayinlash borasida amaliy jihatdan mukammal bo‘lgan ta’limotni yaratdi. Amir Timurning “Temur tuzuklari” asarida boshqaruvning yuqori darajasida bo‘lgan vazirlar yetakchilik sifatlariga ega bo‘lishlari to‘g‘risida fikrlar berilgan. Vazirlarning yetakchilik sifatlari quyidagilardan iborat bo‘lishi ko‘rsatilgan: “Sipoh bilan raiyat ahvolidan boxabarlik va ularga g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, ular bilan yaxshi muomalada bo‘lish”. Sohibqiron Amir Timur yetakchilik qobiliyatiga ega bo‘lgan sarkardalariga katta ishonch bildirgan: “Tajribamda ko‘rilgankim, azmi qat’iy, tadbirkor, hushyor, jang ko‘rgan, mard, shijoatli bir kishi mingga tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshiroqdir. Chunki tajribali bir kishi minglab odamga ish buyuradi”[5].

Zamonaviy boshqaruv yuzaga kelgan 20-asrning o‘rtalaridan boshlab yetakchilikka bo‘lgan nazariy qarashlar shakllandi va rivojlantirildi. 20-asrning 30–50-yillarida tizimli, keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borildi. 1970-yillarda J. Mak-Gregor, R. Taker, B. Kellerman, J. Peydj, keyinroq esa Jan Blondellar tadqiqotlar olib bordilar. Ularning fikricha, yetakchilik tushunchasiga 350 dan ortiq tariflar berilgan bo‘lib, bu tariflarda turli nuqtai nazarlar talqin qilingan.

Richard Daft fikricha: “Yetakchilik – bu yetakchi bilan guruh a’zolari o‘rtasidagi munosabatlardir. Ular bu munosabatlar tizimida bir-biriga ta’sir ko‘rsatadilar va umumiy maqsadlarda ifodalanadigan natijalarga erishishga va o‘zgarishlarga birgalikda harakat qiladilar”[6].

Stiven Kovi esa yetakchilik murakkabligini aytadi va u o‘z asarlarida: “Yetakchilik murakkab sifat hisoblanadi. Uning mavjudligini osongina aniqlash mumkin, bayon qilish esa qiyindir, amaliyotda undan foydalanish esa yanada murakkabdir”[7] deb fikr bildiradi.

Boshqaruv faoliyatida yetakchilikni qo‘llash va amalga oshirish juda qiyin jarayondir. Yetakchilik insonlar guruhlari munosabatlarining mahsuli bo‘lib, ko‘p yo‘nalishdagi faoliyat hisoblanadi. Insonlar o‘z faoliyatlarida yuzaga kelgan muammolarni hal qilish uchun birlashadilar. Ularni bu faoliyatda kimdir yetaklashi lozim, oldinda boruvchi bo‘lishi kerak. Bu juda qiyin jarayon hisoblanadi.

Uning murakkabligi shundaki, faoliyat jarayonida yuzaga keladigan muammolar turli xil bo‘lishi mumkin. Barcha muammolarga bir xil tashxis qo‘yib bo‘lmaydi. Muammoni o‘rganish, tahlil qilish asosida hamda unga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni hisobga olgan holda muammoga yechim topilishi mumkin. Shu nuqtai nazardan olganda, yetakchilik murakkab jarayondir.

N.Q. Yo‘ldoshev va V.I. Nabokovlar yetakchilik rahbarlik madaniyatining ajralmas qismi deb hisoblaydilar. Yetakchilar ma’lum qoida va ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar. Ular xulq-atvorni boshqarishni, mustaqil tafakkurlashni, o‘zlarining yakkahokimlik huquqlaridan me’yoriy foydalanishni, muloqot texnikasi va mahoratini egallashni, targ‘ibot va tashviqot, tanqid va o‘zini-o‘zi tanqiddan samarali foydalanishni, shaxsiy namuna orqali ta’sir ko‘rsatishni, yagona talablar asosida

faoliyatni baholash tizimini standartlashtirishda «ma'mur – qayta quruvchi – yaratuvchilik» vazifalarini bajarishni puxta egallagan bo'lishlari talab etiladi[8].

A.S. Kucharov yetakchilikni ta'sir etish qobiliyati sifatida tavsiflaydi va yetakchilar qator qobiliyatlarga ega bo'lishlarini ta'kidlaydi: "Yetakchilik – maqsadlarga erishishda individumlar va odamlar guruhiga ishlash hissini uyg'otish uchun ta'sir qilish qobiliyatidir. Eng yaxshi rahbarlar hamma uchun umumiy bo'lgan shaxsiy fazilatlarning to'plamiga ega bo'ladi. Agar ushbu fazilatlarni e'lon qilish imkoniyati bo'lganda, odamlar ularni o'zlarida tarbiya qilishni o'rganib, samarali rahbarlar bo'lishni o'rganishgan bo'lar edilar. O'rganilgan xususiyatlarning ba'zilari quyidagilar: intellekt (zakovat) va bilim darajasi, taassurot qoldiradigan tashqi ko'rinish, halollik, sog'lom fikr, ijtimoiy va iqtisodiy ma'lumot, tashabbuskorlik va o'ta yuqori ishonuvchanlik darajasi"[9].

Yetakchilik bo'yicha tadqiqotlar olib borgan Richard Daft yetakchilikka 350 dan ortiq ta'rif berilganligini ko'rsatib o'tadi. Bu ta'riflarda yetakchilik turli yondashuvlar asosida yoritilgan bo'lib, ular bir-biridan ma'lum jihatlari bilan farq qiladi.

M. Sharifxo'jayev va Y. Abdullayevlar yetakchilik sifatini rahbarlarning o'ziga xos xususiyati sifatida tavsiflaydilar va uni qator xususiyatlarga ega ekanligini ko'rsatib o'tadilar. Yetakchilar barcha sohalarda ilg'or bo'ladilar va o'zlarining maxsus qobiliyatlari bilan ajralib turadilar[10].

Yetakchilik bo'yicha berilgan ko'plab tahlillar va ular asosida shakllantirilgan ta'riflarni tahlil qilish asosida uning nazariy asoslarini ochib berish va yetakchilik faoliyatiga mualliflik ta'rifini shakllantirish mumkin. Yetakchilik turli sohalardagi bilimlar bilan qurollangan holda, bilim va ko'nikmalarni rivojlantirib borgan holda jamoa muvaffaqiyati va samaradorligini oshirish yo'lida har tomonlama o'rnak bo'lish qobiliyatidir. Yetakchilik – bu oldinda bo'lish, mahorat, ilm va bilimga ega bo'lish, yuqori ta'sir kuchiga ega bo'lish, shaxsiy o'rnak va asosiysi tinimsiz o'rganish, tahlil qilish, imkoniyatlarni aniqlay olish va harakatni amalga oshirishdir.

METODOLOGIYA

Tadqiqotni o'tkazish jarayonida yetakchilik bo'yicha mavjud nazariyalar va konsepsiyalar tahlil qilindi. Yetakchilik konsepsiyalari bo'yicha shug'ullangan olimlar va mutaxassislarning yondashuvlari o'rganildi. Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yetakchilik tushunchasiga mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi. Tadqiqot jarayonida abstrakt-mantiqiy tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, sabab-natija aloqalari hamda umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiyotning globallashuvi sharoitida murakkablashgan keskin raqobat kurashida muvaffaqiyat bilan yengib chiqish o'ta murakkab masaladir. Bunday sharoitda boshqaruv usullari va vositalaridan oqilona foydalanishning ahamiyati nihoyatda kattadir. Bu menejerlarga katta talablar qo'yadi.

Tadbirkorlik korxonalarini boshqarishda zarur bo'lgan qarorlarni qabul qila bilish va ularni xodimlar faoliyati orqali amalga oshira olish qobiliyatiga ega bo'lgan har bir kishi o'zini menejer deb hisoblashi mumkin. Qaror qabul qilish zaruriyati

boshqaruvchidan bajarilishi lozim bo‘lgan ishlarni hamda o‘z oldiga qo‘yilgan maqsadni bajarish va unga samarali tarzda erishish uchun harakat qilishni talab qiladi. Faoliyat davomida qabul qilinadigan qarorlarning mohiyati va tabiatini anglab olish uchun har bir menejer boshqaruv san’atidan xabardor bo‘lishi zarur.

Menejerlar to‘g‘risida qator ta’rif va tushunchalar mavjud bo‘lib, ularning asosiylari quyidagilardir:

- Menejer – qo‘yilgan maqsadlarga erishish yo‘lida faoliyat olib borayotgan rahbardir.
- Menejer – qo‘l ostidagi xodimlar mehnatini tashkil etib, ularning mehnati samarasini oshirib borib, buning natijasida qo‘yilgan maqsadlarga erishish yo‘lida faoliyat olib borayotgan shaxsdir.
- Menejer – o‘zgalar mehnatini tashkil etib, qo‘yilgan maqsadlarga erishish yo‘lida faoliyat olib borayotgan shaxsdir.
- Menejer – tashkilot faoliyati bo‘yicha qaror qabul qilish vakolatiga ega bo‘lgan shaxsdir.

Menejerlar bugungi kunda ijtimoiy qatlam darajasiga chiqib oldi va ularning soni juda ko‘payib ketdi. Menejerlar qatlami jamiyatda va iqtisodiyotda boshqaruv ishlarini olib bormoqda. Menejerlar tadbirkorlik korxonalarida turli vazifalarni bajaradilar (direktor, guruh rahbari, ishlarning ma’lum turlarining tashkilotchisi va shu kabilar), faoliyat sohasi bir xil bo‘lmagan masalalarni yechadilar, muammolarni hal qilishga harakat qiladilar. Iqtisodiyotning globallashuvi va turli o‘zgarishlar ro‘y berishi mumkin bo‘lgan hozirgi sharoitda menejerlarning mehnati yanada murakkablashib ketdi.

Menejerlar mehnatiga va uning natijadorligiga ta’sir etuvchi omillar ko‘lami kengayib ketdi. Barcha omillarni bir vaqtda hisobga olish va ular asosida eng to‘g‘ri va samarali qarorlar qabul qilish menejerlardan yuqori darajada bilim, iqtidor, tajriba, qobiliyat, ko‘nikma va mustaqil fikrlash doirasining kengligini talab qiladi. Menejerlar mehnati murakkabligi bilan ajralib turadi va ulardan har qanday holatda samarali qarorlarni qabul qilishni talab etadi.

Buning uchun menejerlar ma’lum sifatlar to‘plamiga ega bo‘lishlari kerak. Ushbu sifatlar ichida eng muhim sifat – menejerning yetakchilik sifati hisoblanadi.

Tadbirkorlik korxonalarida menejerlar qo‘yilgan maqsadlarga samarali ravishda erishish uchun o‘ziga xos harakatlarni amalga oshiradilar. Shunday harakatlardan biri – yetakchilik bo‘yicha ishlarni amalga oshirishdir. Menejerning yetakchiligi avvalambor, uning boshqalarni jalb qilishi, yetaklab yurishidir. U oldinda yuruvchi, boshqalarga o‘rnak bo‘luvchi, ergashtirib yuruvchi vazifalarni bajaradi.

Shu bilan birga, aytish mumkinki, barcha menejerlar ham bu vazifani samarali ravishda uddalay olmaydilar. Birinchi shaxs, ya’ni rahbar bo‘lishlari mumkin, ammo yetakchi bo‘la olmaydilar. Yetakchilik yuqorining buyrug‘i bilan tasdiqlanmaydi; yetakchilikni jamoa tan olishi kerak. Mehnat jamoasida yetakchilik sifatida tan olinish uchun menejerlar ko‘p ishlashlari, barchaga maqbul bo‘ladigan harakatlarni amalga oshirishlari talab etiladi. Ular o‘z harakatlarida uch manfaatni o‘z o‘rniga qo‘yishlari lozim: jamoa manfaati, qo‘l ostidagilar manfaatlari va o‘zining manfaatlari. Yetakchi

bo‘lgan menejer birinchi o‘ringa jamoa manfaatini, ikkinchi darajaga qo‘l ostidagilarning manfaatlarini va uchinchi darajaga o‘zining manfaatlarini qo‘yishi kerak. Bularning o‘rnini almashtirib yuborish menejerning yetakchilik darajasidan mosuvo etadi: uni jamoa tan olmaydi, rahbar sifatida biladi, ammo yetakchi sifatida ko‘rmaydi.

Yetakchilik alohida kishilarga va kishilar guruhlariga ta’sir ko‘rsatish qobiliyati bo‘lib, boshqaruvda muhim o‘rin egallaydi. Menejer ko‘proq o‘z mansab vazifasidan va vakolatidan kengroq foydalanadi va shu bilan qabul qilingan qarorlarning amalga oshirilishini ta’minlaydi. Yetakchi bo‘lsa, qarorlarni tushuntirib, o‘zining shaxsiy o‘rnaki bo‘yicha ishni tashkil etadi. U odamlarni ishontiradi, o‘z orqasidan harakat qilishlarini ta’minlaydi.

Menejerlar yetakchilikni yaxshi o‘zlashtirib olsalar, tez orada samaraga erishadilar. Yetakchilik bo‘yicha ko‘plab nazariyalar va konsepsiyalar ishlab chiqilgan. Ularni tahlil qilish orqali yetakchining o‘ziga xos qator xususiyatlarini bilib olish mumkin va boshqaruv faoliyatida undan samarali ravishda foydalanish boshqaruvning samarasini oshirishga olib keladi.

Yetakchilikning qator sifat jihatlari mavjud bo‘lib, ularni oddiygina qayd etish bilan baholab bo‘lmaydi. Shu sababli, yetakchilikning sifat jihatlarini miqdoriy mezonlar orqali baholash zarurdir. Yetakchilikning sifat jihatlari quyidagilardan iborat: halollik, mahorat, yuqori ta’sir kuchiga ega bo‘lish, shaxsiy o‘rnak, oldinda bo‘lish, bilimdonlik, kreativlilik, innovatorlik, ta’sir kuchiga egalik, intiluvchanlik va shu kabilar.

Yetakchilik salohiyatini baholash murakkab jarayondir. Yetakchilik salohiyatini aniqlash uchun yetakchining umumiy salohiyatini to‘rtta yo‘nalish bo‘yicha tahlil qilish zarur: shaxsiy salohiyat, kasbiy salohiyat, boshqaruv salohiyati va innovatsion salohiyat. Shaxsiy salohiyat o‘z ichiga biologik salohiyat (tug‘ma), psixologik salohiyat, ijtimoiy va ma’naviy salohiyat, halollikni oladi. Kasbiy salohiyat esa umumiy va ixtisoslashgan salohiyatlarni, oldinda bo‘lish, xodimlarga g‘amxo‘rlik va ijtimoiy mas’uliyatni o‘z ichiga oladi.

Yetakchining boshqaruv salohiyati o‘z tarkibiga boshqaruv mahorati, ta’sir kuchi, shaxsiy o‘rnak, intiluvchanlik kabi mezonlarni oladi. Yetakchining innovatsion salohiyati uning yangilikka talpinishi, bilimdonligi, kreativliligi, innovatorligi va joriy qilish bo‘yicha ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi. Yetakchining umumiy salohiyati natijasida tadbirkorlik korxonalarining samaradorligi ko‘rsatkichlari shakllanadi.

Tadbirkorlik korxonalarining samaradorligi ko‘rsatkichlari yalpi mahsulot, korxonaning eksport salohiyati, mehnat unumdorligi, daromad, mahsulot ishlab chiqarish xajmi, rentabellik darajasi va foyda singari umumiy ko‘rsatkichlar orqali tavsiflanadi.

Yetakchilar qanday maqsadlarga intilish kerakligini mustaqil ravishda, ortiqcha tafsilotlarni surishtirmasdan belgilaydilar. Yetakchi qarorlarni tushuntirib, o‘zining shaxsiy o‘rnaki bo‘yicha ishni tashkil etadi. U odamlarni ishontiradi va o‘z orqasidan harakat qilishlarini ta’minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yashil iqtisodiyotga o‘tish sharoitida tadbirkorlik korxonalarida yetakchilikni rivojlantirish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir:

1. Tadbirkorlik korxonasining istiqbolini aniq belgilash va yashil iqtisodiyot talablariga mos keladigan maqsadlarni belgilash.

2. Rivojlanish maqsadidan kelib chiqib vazifalarni belgilash. Har bir vazifa bajarilishi uchun iqtisodiy resurslarni aniqlash.

3. Tadbirkorlikda innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish. Korxonaning har bir bo‘limining bu yo‘nalishdagi faoliyatini tashkil etish.

4. Innovatsion faoliyatni tashkil etish va amalga oshirishdagi faoliyat uchun rag‘batlantirish mezonlarini ishlab chiqish va faoliyatda qo‘llash.

5. Faoliyatni uzluksiz monitoring qilib borish, tahlil qilish va baholash.

Shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda yetakchilik bo‘yicha samarali nazariyalar va konsepsiyalarni qo‘llash zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-sentyabr PF-158-sonli “O‘zbekiston-2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni https://lex.uz/ru/docs/-6600413

2. Kazakov O.S. Menejment. Namangan «Usmon Nosir media», 2023, — 16,25 б.т.

3. Kazakov O.S. Menejmentga kirish. Darslik. Toshkent. “Fan ziyosi”, 2022-yil, 378 bet.

4. «Природа лидерской одарённости». Камская государственная инженерно-экономическая академия (КамПИ) 2003-2006 / 15 номер 2006 г./

5. Amir Temur tuzuklari. – T.: Navro‘z, 1996 – 344 b.

6. Ричард Л. Дафт «Уроки лидерства». – Москва: Эксмо 2007.

7. Кови С. Семь навыков высокоэффективных людей. – М., 1996. — С. 9.

8. Yo‘ldoshev N.Q., Nabokov V.I. Menejment nazariyasi: O‘quv qo‘llanma. – T.: TDIU, 2013. -312 b

9. A.S.Kucharov Menejment: O‘quv qo‘llanma. – T.: TDIU, 2009. -286 b.

10. M.Sharifxo‘jayev, Y.Abdullayev. Menejment. Darslik. Toshkent, “O‘qituvchi”, 2002.-450 b.

TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI XORIJIY INVESTITSIYALARNI QABUL QILUVCHI MAMLAKATLAR IQTISODIYOTIGA TA’SIRI BO‘YICHA EKONOMETRIK DALILLAR: USLUBLARGA ASOSLANGAN SHARH

Madumarov Xusniddin Komilovich
“University of management and future technologies” universiteti
“Raqamli iqtisodiyot va moliyaviy texnologiyalar” kafedrasi
katta o‘qituvchisi
E-mail: madumarov@umft.uz

Annotatsiya

Maqolada asosiy ekonometrik usullardan foydalangan holda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning (TTXI) qabul qiluvchi mamlakatga ta’siri bo‘yicha tadqiqotlar ko‘rib chiqilgan. Tadqiqotlar TTXIlar iqtisodiy o‘sish, mahsuldorlik va bandlikka ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlasada, natijalar qo‘llanilgan usul va mamlakatning o‘ziga xos sharoitlariga qarab sezilarli darajada farq qiladi. Ushbu o‘rganish O‘zbekiston kabi mamlakatlarda mavjud ma’lumotlar va ko‘zlangan siyosat maqsadlariga moslashtirilgan tegishli ekonometrik usullarni tanlash muhimligini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, iqtisodiy o‘sish, ekonometrik usullar, panel ma’lumotlari, sababiy bog‘liqlik, TTXIlarni o‘zlashtirish qobiliyati

Аннотация

В этой статье рассматриваются глобальные эмпирические исследования влияния прямых иностранных инвестиций (ПИИ) с использованием ключевых эконометрических методов. Хотя многие исследования подтверждают, что ПИИ положительно влияют на рост, производительность и занятость, результаты значительно различаются в зависимости от используемого метода и конкретных условий страны. В обзоре подчеркивается важность выбора соответствующих эконометрических методов, адаптированных к доступности данных и целям политики в таких странах, как Узбекистан.

Ключевые слова: прямые иностранные инвестиции, экономический рост, эконометрические методы, панельные данные, причинно-следственная связь, поглощающая способность ПИИ

Abstract

This article reviews global empirical studies on the impact of inward foreign direct investment (FDI) using key econometric methods. While many studies confirm that FDI positively affects growth, productivity and employment, the results vary significantly depending on the method used and country-specific conditions. The review underscores the importance of selecting appropriate econometric techniques tailored to data availability and policy objectives in countries like Uzbekistan.

Keywords: foreign direct investment, economic growth, econometric methods, panel data, causality, FDI absorptive capacity

KIRISH

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) ko‘plab mamlakatlar tomonidan iqtisodiy siyosatning ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda. Bu investitsiyalar orqali nafaqat moliyaviy resurslar jalb etiladi, balki ishlab chiqarish texnologiyalari, boshqaruv tajribalari va xalqaro bozorlar bilan uzviy aloqalar shakllanadi. Shu sababli, TTXIlar iqtisodiy faoliyatning modernizatsiyasi, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va yangi sektorlar rivojiga turtki bo‘lishda muhim manba vazifasini bajaradi.

Empirik adabiyotda TTXIlar va makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi munosabat bo‘yicha ko‘plab ilmiy ishlar e’lon qilingan. Ularda qayd etilgan natijalar turlicha bo‘lib, investitsiya oqimining ijobiy yoki cheklangan ta’siri mamlakatlarning iqtisodiy holati, institutsional sifat darajasi, moliyaviy sektor rivojlanishi va ishchi kuchi malakasi kabi omillar bilan chambarchas bog‘liq ekani ta’kidlanadi. Bu esa investitsiyalarning samarasini har bir mamlakat kontekstida alohida tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotlarda qo‘llanilgan metodologik yondashuvlar natijalarning turlicha talqin qilinishiga sabab bo‘ladi. Masalan, ba’zi tadqiqotlarda TTXIlarning iqtisodiy o‘sishga bevosita ta’siri qayd etilgan bo‘lsa, boshqalarda bu bog‘liqlik vaqt o‘tishi bilan kuchayishi yoki faqat ayrim sharoitlar ostida yuzaga chiqishi aniqlangan. Natijalar orasidagi tafovutlar ko‘pincha ishlatilgan tahlil modeli, endogenlikni hisobga olish darajasi va statistik yondashuvlarga bog‘liq bo‘ladi.

Mazkur maqola turli mamlakatlarda o‘tkazilgan empirik tadqiqotlarni tahlil qilish orqali TTXIlarning iqtisodiyotga ta’sirini o‘rganishda qo‘llanilgan metodlar va ularning natijaviylik darajasini solishtirishga qaratilgan. Tadqiqot metodikasi tanlovi natijalarning ishonchliligiga qanday ta’sir ko‘rsatishini aniqlash orqali maqola TTXI siyosatini ishlab chiqishda asos bo‘lishi mumkin bo‘lgan tavsiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Bunda iqtisodiy o‘sish, bandlik va mahsuldorlik kabi omillarga TTXIlar qanday ta’sir qilishi, bu ta’sirni baholashda qanday yondashuvlar ko‘proq ishlatilgani va qanday sharoitlarda ular eng aniq natijalarni bergani aniq faktlar asosida tahlil qilinadi. Shu orqali O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun qaysi metodologik yondashuvlar mos kelishini aniqlash imkoniyati yaratiladi.

METODOLOGIYA

Bunda 8 ta asosiy ekonometrik yondashuvlar qamrab olingan bo‘lib, panel modellari, dinamik GMM baholovchilari, davriy (tim series) tahlillar, kointegratsiya va sababiy testlar, instrumental o‘zgaruvchilar (IV), “farqlardagi farq” (DiD), moyillik balining mos kelishi (PSM), meta-regressiya tahlili (MRA) va chiziqsiz chegaraga asoslangan regressiya modellari asosida o‘rganilgan tadqiqotlar ko‘rib chiqilgan. Har bir usul ma’lumotlar manbalari va asosiy natijalar bilan birga eng ko‘p iqtibos keltirilgan va uslubiy jihatdan ahamiyatli tadqiqotlar orqali ta’riflangan.

TAHLIL VA NATIJALAR

1.Panel modellari *(Panel Data Models)*.

Panel modellari usullari TTXIlar tadqiqotida eng ko‘p qo‘llaniladigan yondashuvlardan biridir. Ular tadqiqotchilarga mamlakatlar yoki mintaqalar bo‘yicha kuzatuvga olinmagan heterojenlikni nazorat qilish hamda vaqtinchalik o‘zgarishlarni qamrab olish imkonini beradi.

Misol uchun quyidagi tadqiqotlarni ko‘rib chiqamiz:

- L.Alfaro va boshqalar o‘z tadqiqotida 1975 — 1995-yillar bo‘yicha 71 mamlakatni qamrab olgan mamlakatlararo panel ma’lumotlar natijalarini o‘rgangan. Bunda TTXIlarning iqtisodiy o‘sishga ta’sir darajasini oshirishda moliyaviy bozorlarning rolini o‘rganish uchun sobit effektlardan foydalangan. TTXIlar faqat moliyaviy bozorlari yaxshi rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy o‘sishga yordam beradi. Kuchli moliyaviy tizimlar bo‘lmasa, TTXIlarning o‘sishga ijobiy ta’siri zaif yoki ahamiyatsiz [2.89-112].
- B.Blonigen va M.Vang IHRT va unga a’zo bo‘lmagan mamlakatlar bo‘yicha 1970-1990 yillar panel ma’lumotlarini o‘rgangan. Bunda tasodifiy ta’sirlardan foydalangan holda TTXIlarning iqtisodiy o‘sishga ta’siri rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda sezilarli darajada farq qilishini ko‘rsatib berdi [5.221-244].
- D.Derado va D.Horvatin to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar kiritish shakllarining *(yangi korxona tashkil etish, qo‘shib olish/sotib olish (M&A))* Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida mehnat unumdorligiga ta’sirini o‘rganish uchun belgilangan effektlar bilan panel ma’lumotlar tahlili qo‘llagan. Qo‘shib olish va sotib olish innovatsionlik darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatlarda mehnat unumdorligiga sezilarli darajada ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, yangi korxona tashkil etish esa texnologik jihatdan kam rivojlangan mamlakatlarda ko‘proq samarali. TTXIlarni kiritish usuli qabul qiluvchi mamlakatlarning texnologik taraqqiyot darajasiga qarab mehnat unumdorligiga turlicha ta’sir qiladi [9.1471-1486].
- T.Xoang va boshqalar Vyetnamning 61 provinsiyasi panel ma’lumotlari (1995-2006) tahlilidan foydalangan va oddiy eng kichik kvadratlar (OLS) regressiyasini qo‘llagan. TTXIlarning birinchi navbatda kapitalni jamg‘arish hisobiga iqtisodiy o‘sishga kuchli va ijobiy ta’sir qilishi aniqlangan. Inson kapitali va savdo hali Vyetnamda TTXIlar oqimidan texnologiya va bilim transferini amalga oshirish uchun muhim kanalga aylanmaganligini ta’kidlaydi [14.295-311].

Aniqlangan natijalar: Panel modellari doimiy ravishda institutsional sifat va makroiqtisodiy sharoitlar TTXIlar o‘sish va bandlikka qanday ta’sir qilishini ko‘rsatadi. Biroq, bu modellarda ko‘pincha endogenlik bilan bog‘liq muammolar sabab uning kamchiliklari namoyon bo‘ladi. Xulosa: Panel modellari kuzatuvga olinmagan heterojenlik va vaqtga bog‘liq bo‘lmagan xususiyatlarni boshqarishda samarali hisoblanadi. Natijalar mamlakatning rivojlanish darajasi, institutlarning sifati va moliyaviy rivojlanishiga qarab farq qiladi. TTXIlar ko‘pincha o‘sish va bandlik bilan ijobiy bog‘liqdir, ammo endogenlik va o‘tkazib yuborilgan o‘zgaruvchilar uning kamchiligi hisoblanadi.

2. Dinamik panel modellari (GMM)

Arellano-Bond yoki GMM-tizimi hisoblash uslublari kabi dinamik panel ma'lumotlar usullari odatda kechikkan bog'liq o'zgaruvchilar va endogenlikni hisobga olish uchun qo'llaniladi.

Misol uchun quyidagi tadqiqotlarni ko'rib chiqamiz:

- Ye.Borensztein va boshqalar 69 ta rivojlanayotgan mamlakatlarning 1970-1989-yillar bo'yicha mamlakatlararo panel ma'lumotlarini o'rgangan. Aniqlanishicha, TTXIlar faqat qabul qiluvchi mamlakatda inson kapitali muayyan darajaga yetgandagina iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi [6.115-135].
- T.Havranek va Z.Irsova GMM-tizimi texnikasidan foydalangan holda TTXIlarning vertikal tarqalish ta'sirini baholash bo'yicha 31 ta empirik tadqiqotlarning meta-tahlilini o'tkazgan. Bunda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning o'rtacha vertikal tarqalish effekti ijobiy, ammo darajasi past; natijalar baholash usullari va nashrdagi mumkin bo'lgan og'ish holatlariga qarab farqlanadi [13.234-244].
- B.Jamshid va boshqalar ikki bosqichli GMM-tizimini qo'llagan holda 1995–2021-yillarni qamrab olgan 45 Osiyo mamlakatining panel ma'lumotlaridan foydalangan. Bunda TTXIlar tashqi savdo ochiqligi, infratuzilma va ichki investitsiyalar bilan bir qatorda Osiyo mamlakatlarida iqtisodiy o'sishni sezilarli darajada oshirishi ta'kidlangan. Inflyatsiya va ishsizlik o'sishga salbiy ta'sir qiladi [15. 1775–1804].
- M.Karkovich va R.Levin 72 ta mamlakat panel ma'lumotlarini (1960–1995) momentlarning umumlashtirilgan usuli (GMM) yordamida baholangan. Bunda endogenlik nazoratga olingan, TTXIlar va o'sish o'rtasida mustahkam bog'liqlik topilmagan [7. 1775–1804]

Aniqlangan natijalar: Ushbu modellar dinamik teskari aloqa effektlari va kuzatuvga olinmagan heterojenlikni inobatga olishda ancha samarali, ammo umumiy uslubning amalda haqqoniyligi darajasi yuqori emas. Xulosa: Dinamik panel modellari, xususan, GMM-tizim endogenlik muammolarini hal qilishda va iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlarida mavjud bo'lgan inersiyani ushlashda samarali. Ushbu tadqiqotlar, ayniqsa, inson kapitali va rivojlangan moliyaviy bozorlar kabi yetarli darajada o'zlashtirish imkoniyatlari bilan qo'llab-quvvatlansa, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar iqtisodiy o'sish va samaradorlikka ijobiy hissa qo'shishini tasdiqlaydi. Bundan tashqari, meta-tahlillar shuni ko'rsatadiki, TTXIning ta'siri odatda ijobiy bo'lsada, ularning darajasi past bo'lishi mumkin va baholash usullari va qabul qiluvchi mamlakat sharoitlariga qarab mintaqalar va tarmoqlar bo'yicha sezilarli darajada farq qilishi mumkin.

3. Davriy yondashuvlar (Kointegratsiya, VAR, ARDL, VECM)

Davriy yondashuv va panelga asoslangan modellari TTXIlar va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi dinamik bog'liqlikni aniqlash uchun ham mamlakatga xos ham ko'p mamlakatli tadqiqotlarda tez-tez qo'llaniladi. Ushbu modellar, ayniqsa, qisqa muddatli tebranishlar va uzoq muddatli muvozanat munosabatlarini farqlashda va vaqt o'tishi bilan sabab-oqibat yo'nalishini tekshirishda samarali hisoblanadi.

Misol uchun quyidagi tadqiqotlarni ko'rib chiqamiz:

• L. de Mello rivojlanayotgan mamlakatlar (1970-1990-yillar) uchun mamlakatga xos davriy yondashuv ma'lumotlari va panel ma'lumotlari, kointegratsiya va sabab-oqibat testlarini qo'llagan. Bunda TTXIlar uzoq muddatli istiqbolda iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ayniqsa u texnologik tarqalish va kapital to'planishiga yordam berganda. Biroq, ta'sir kuchi inson kapitali darajasi, texnologik taraqqiyot va makroiqtisodiy barqarorlikka bog'liq [8.133-151].

• K.Li va K.Liu 84 ta davlatdan (1970–1999) panel ma'lumotlarga yagona tenglama va bir vaqtdagi tenglama modellarini qo'llagan. TTXIlar va YAIM o'rtasidagi muhim endogen bog'liqlikni qayd etib, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyaning ijobiy ta'siri inson kapitaliga bog'liq xolda samarali deb topilgan [18. 393–407].

• T.Dinh va boshqalar 30 ta rivojlanayotgan mamlakatlar (2000–2014) ma'lumotlari bo'yicha panel kointegratsiya testlari, To'liq o'zgartirilgan oddiy eng kichik kvadratlar (FMOLS) va vektor xatolarni tuzatish modeli (VECM) qo'llangan. Bunda TTXIlarning iqtisodiy o'sishga salbiy qisqa muddatli, ammo uzoq muddatli ijobiy ta'sirini aniqladi. Tadqiqot natijalarida shuningdek makroiqtisodiy barqarorlik va inson kapitali yuqoridagi keltirib o'tilgan ta'sir darajasini bir muncha yumshatishda o'ziga xos o'rni borligi qayd etib o'tilgan[10.176].

• A.Suyunov o'z tadqiqotida 2004–2019-yillar davomida O'zbekistonda TTXIlar, bank kreditlari va ishsizlik o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish uchun Granjer sabab-oqibat testlari va impuls javob tahlili bilan bir qatorda vektor avtoregressiyasi (VAR) modelidan foydalangan. Xususan, bank kreditlarining 1 foizga o'sishi sakkiz yil ichida ishsizlikni 0,096 foiz punktga qisqartiradi, TTXIlar o'sishining 1 foizga o'sishi esa ishsizlikni 0,0036 foizga birmuncha oshiradi. Bundan O'zbekistonga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar oqimining kapitalni ko'p talab qilishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin degan xulosa qilingan. [19.98-110]

Aniqlangan natijalar: Davriy yondashuv usullari, ayniqsa VECM va panelli kointegratsiya usullarini o'z ichiga olgan holda kengaytirilganda TTXIlarning iqtisodiy o'sishga bevosita va kechiktirilgan ta'sirini ochib beradi. Natijalar ko'pincha ayni bir holatga xos bo'lsa-da, umumiy jihatdan quyidagilarni namoyon qilib beradi: TTXIlar o'sishni darhol kuchaytirmasligi mumkin (yoki qisqa muddatda uni cheklab qo'yishi mumkin), ammo odatda uzoq muddatda ijobiy va sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ushbu xulosalarning ishonchliligi laglar strukturasining spetsifikatsiyasiga, ma'lumotlarning statsionarligiga va endogenlikning mavjudligiga juda sezgir hisoblanadi. Xulosa: Davriy yondashuv va panelga asoslangan modellar TTXIlarning qisqa muddatli va uzoq muddatli dinamikasini qabul qiluvchi mamlakat o'sishini aniqlash uchun ahamiyatli hisoblanadi. Ushbu usullar shuni ko'rsatadiki, TTXIlar ko'pincha YAIM bilan ikki tomonlama sabab-oqibat ta'siriga ega, ammo natijalar mintaqalar bo'ylab farq qiladi va sezilarli darajada o'tgan vaqt oralig'i va lag tuzilishi, davrning statsionarlik va kointegratsiya xususiyatlari, iinflyatsiya va inson kapitali ko'rsatkichlarining inobatga olinishi kabilarga bog'liq.

4. Kointegratsiya va sabab testlari

Kointegratsiya usullari TTXIlar va boshqa makroiqtisodiy o'zgaruvchilar o'rtasida uzoq muddatli muvozanat munosabatlari mavjudligini sinovdan o'tkazadi.

Misol uchun quyidagi tadqiqotlarni ko‘rib chiqamiz:

• X.Xansen va J.Rand 31 ta rivojlanayotgan mamlakatlar (1970–2000) panel ma’lumotlaridan foydalangan. TTXIlar va YAIM o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilish uchun panelli kointegratsiya va Granger sabab-oqibat testlari qo‘llanilgan. Bunda to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarning YAIMga uzoq muddatli ijobiy ta’siri, qisqa muddatda ikki tomonlama sabab-oqibat bog‘liqligi aniqlangan [12.21-41].

• S.Xoldi va A.Sohrabiy 25 ta mamlakatlararo (1975-2002) davriy yondashuv ma’lumotlaridan foydalangan. Moliyaviy bozorlarning rivojlanishi TTXIlarning iqtisodiy o‘sishga ta’sirida vositachilik qilishini ko‘rsatish uchun Engle-Granjer kointegratsiyasi va Granjer sababiy testlari qo‘llanilgan. Bunda moliya bozorida rivojlanish bo‘lmasa TTXIlarning o‘sishga ijobiy ta’siri zaiflashishi aniqlangan [17.1-17].

Aniqlangan natijalar: Ko‘p tadqiqotlar TTXIlar va asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rtasida uzoq muddatli muvozanatli bog‘liqlik mavjudligini tasdiqlaydi. Biroq, sababiy bog‘liqlikning yo‘nalishi va kuchi ko‘pincha metodologik yondashuvlar, tanlangan holat xususiyatlari va mahalliy moliyaviy tizimlarning rivojlanishiga qarab mintaqalar va ma’lumotlar to‘plamlari bo‘yicha farqlanadi. Xulosa: Kointegratsiya tahlillari shuni ko‘rsatadiki, TTXIlar o‘sish va mahsuldorlik bilan uzoq muddatli bog‘liqlikka ega. Granjerning sababiy bog‘liqligi testlari shuni ko‘rsatadiki, sababiy bog‘liqlik ikkala yo‘nalishda yoki TTXIlardan o‘sishgacha davom etishi mumkin. Ushbu usullar uzoq muddatli muvozanat tahlilining muhimligini ta’kidlaydi.

5. Instrumental o‘zgaruvchilar va ikki bosqichli eng kichik kvadratlar

Endogenlik TTXIlarni o‘rganishda asosiy muammo hisoblanadi. Instrumental o‘zgaruvchilar va ikki bosqichli eng kichik kvadratlar usullari teskari sabab-oqibat bog‘liqlik va o‘tkazib yuborilgan o‘zgaruvchilarni bartaraf etishga yordam beradi. Ushbu modellar TTXIga ta’sir etuvchi, lekin o‘sish tenglamasidagi xatolik atamasi bilan bog‘liq bo‘lmagan vositalarni qo‘llash orqali TTXIlarning sababiy ta’sirini baholaydi.

Misol uchun quyidagi tadqiqotni ko‘rib chiqamiz:

• M.Bengoa va B.Sanchez-Robles Lotin Amerikasidagi panel ma’lumotlariga ikki bosqichli eng kichik kvadratlar (2SLS) ni qo‘llagan va TTXIlar faqat iqtisodiy erkinlik, ta’lim va makroiqtisodiy barqarorlik darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatlarda o‘sishni ta’minlashini aniqlagan [4.529-545].

Aniqlangan natijalar: Instrumental o‘zgaruvchan yondashuvlar faqat TTXIlar o‘sishni kafolatlamasligini ta’kidlaydi; uning ijobiy ta’siri institutlar va singdirish qobiliyati kabi tarkibiy omillarga bog‘liq. Instrumental o‘zgaruvchilar *(IV)* va ikki bosqichli eng kichik kvadratlar *(2SLS)* texnikasi sabab-oqibat xulosasini kuchaytirsa-da, asboblar sifati juda muhim va natijalarning ishonchliligiga ta’sir qilishi mumkin. Xulosa: TTXIlar faqat kuchli institutsional va makroiqtisodiy sharoitlarda o‘sishga yordam beradi. Instrumental o‘zgaruvchilar *(IV)* va ikki bosqichli eng kichik kvadratlar *(2SLS)* usullari shuni ko‘rsatadiki, endogenlikka e’tibor bermaslik TTXIlarning haqiqiy ta’sirini oshirib yuborishi mumkin.

6. Farqlardagi farqlar (DiD) va moslashtirish usullari

Ushbu usullar TTXI qabul qilgan va qabul qilmagan nazorat guruhlarini solishtirish uchun, ko‘pincha firma darajasidagi yoki sektorial tadqiqotlarda qo‘llaniladi. “Farqlardagi farq” (Difference-in-Differences-DiD) va moyillik reytingini moslashtirish (Propensity Score Matching- PSM) kabi moslashtirish usullari TTXIlarning firma yoki sanoat darajasida sababiy ta’sirini baholash uchun ishlatiladigan mikroekonometrik vositalardir. Solishtirish tanlov xatoliklarini kamaytiradi va ichki miqyosda haqqoniylik darajasini oshiradi.

Misol uchun quyidagi tadqiqotlarni ko‘rib chiqamiz:

- B.Javorcik Litvada TTXIlarning mahalliy etkazib beruvchilarga vertikal tarqalishini ko‘rsatish uchun firma darajasidagi ma’lumotlar bilan farqlardagi farq uslubini ishlatgan. TTXIlar vertikal munosabatlar ketidan mahalliy firmalar uchun mahsuldorlikni oshirishga olib keladi [16. 605–627].
- B.Aitken va A.Xarrison tomonidan Venesuelladagi firma darajasidagi ma’lumotlar (1976-1989) tadqiq etilgan. Aniqlanishicha, chet ellik kapital ishtirokidagi korxonalarda o‘sish ishchilar soni 50 dan kam bo‘lgan qabul qiluvchi korxonalarning mahsuldorligini oshirish bilan bog‘liq bo‘lib, bu korxonalar chet ellik egalarning ishlab chiqarish afzalliklaridan foydalanadi. Shuningdek, xorijiy firmalar samaraliroq bo‘lsada, ularning mavjudligi raqobat ta’siri tufayli mahalliy firmalarda unumdorlikni kamaytirishi mumkinligini aniqlangan [1.605-618].

Aniqlangan natijalar: “Farqlardagi farq” va moslashtirish kabi mikro darajali usullar TTXIlar mahalliy firmalarga qanday ta’sir qilishiga oid batafsil tushunchalarni beradi. Natijalar ayni shu holatga juda xos bo‘lib, TTXIlar sanoat tuzilmasi va o‘zlashtirish qobiliyatiga qarab ham ijobiy ta’sirlar, ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini tasdiqladi. Xulosa: TTXIlar mahalliy firma faoliyatini oshirishi yoki to‘sqinlik qilishi mumkin. “Farqlardagi farq” va mos keladigan usullar tarqalishning firma xususiyatlariga, sektoriga va raqobat dinamikasiga bog‘liqligini ko‘rsatadi.

7. Meta-regressiya tahlili (MRA)

Meta-regressiya tahlili (MRA) tadqiqotchilarga tadqiqot davomida uslubiy farqlarning ta’sirini aniqlash orqali bir nechta empirik tadqiqotlar natijalarini sintez qilish imkonini beradi. TTXIlarni tadqiq etishda meta-regressiya tahlili ayniqsa bandlik ta’siri bo‘yicha adabiyotdagi aralash xulosalarni aniqlashtirish uchun samarali.

Misol uchun quyidagi tadqiqotni ko‘rib chiqamiz:

- D.Xakim va boshqalar 61 ta tadqiqot (477 ta natija) bo‘yicha meta-regressiya tahlilini o‘tkazdi. Bunda TTXIlar odatda bandlikni rag‘batlantiradi, ammo ta’sir kuchi va yo‘nalishi mintaqa, usul va ma’lumotlar sifatiga qarab farq qilishi ma’lum bo‘lgan [11.158-182].

Aniqlangan natijalar: Myeta-regressiya tahlili shuni ko‘rsatadiki, TTXIlar qabul qiluvchi mamlakatlar iqtisodiyotiga (ayniqsa bandlikka) ijobiy o‘rtacha ta’sir ko‘rsatsada, uning kattaligi ko‘pincha kichik va uslubiy jihatdan sezgir. Bu - tadqiqot shakli va ulubini tanlashda heterojenlikni nazorat qilish muhimligini ta’kidlaydi. Xulosa: Tadqiqot TTXIlarning uni qabul qiluvchi mamlakatda kichik, ammo statistik jihatdan muhim ijobiy ta’sirini aniqlagan. Biroq, natijalarga baholash usullari, o‘rganish shakli va geografiyasi ta’sir qiladi. Myeta-regressiya tahlili global

miqyosdagi natijalarnining yuqori ahamiyatga ega sintezini taqdim etadi hamda nashr va uslubdagi og‘ish xolatlarini aniqlaydi.

8. Nochiziqli modellar va chegara effektlari

Chiziqli bo‘lmagan va chegaraviy regressiya modellari TTXIlarning o‘sishga ta’siri muayyan mamlakat sharoitlariga, masalan, moliyaviy bozor rivojlanishi yoki institutsional sifatga bog‘liqligini o‘rganish uchun ishlatiladi. Ushbu modellar ma’lum chegaralarni kesib o‘tishga qarab turli xil natijalarni baholashga imkon beradi.

• Alfaro va boshqalar mamlakatlararo panel ma’lumotlaridan (1975–1995) foydalangan xolda chegara regressiyasi usullarini qo‘llagan xolda va TTXIlar faqat moliyaviy bozorlari yaxshi rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shishini aniqladi [2.89-112].

Aniqlangan natijalar: Nochiziqli modellar TTXIlar va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlik shartli ekanligini ko‘rsatadi. Rivojlanmagan moliyaviy tizim yoki zaif institutlarga ega bo‘lgan mamlakatlar kirib kelayotgan TTXIlardan samarali foydalana olmasligi mumkin. Ushbu usullar chiziqli regressiya usullari tomonidan o‘tkazib yuborilgan nochiziqliliklarni aniqlashga yordam beradi, lekin chegaraviy o‘zgaruvchilarni diqqat bilan tanlashni va ishonchli diagnostikani talab qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

TTXIlar faqat moliyaviy bozor rivojlanishi muayyan darajaga yetgandagina o‘sishni ta’minlaydi; aks holda, sezilarli ta’sir kutish noo‘rin. Chiziqli bo‘lmagan regressiya modellari TTXIlarning o‘sishga ijobiy ta’siri moliyaviy bozorlarning rivojlanishiga bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Biz TTXIlarning ularni qabul qiluvchi mamlakatlar iqtisodiyotiga ta’siri bo‘yicha ekonometrik modellardan foydalangan qator empirik tadqiqotlar ko‘rib chiqdik. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, empirik topilmalarga panel ma’lumotlari va dinamik panel baholovchilaridan tortib davriy yondashuvlar texnikasi, instrumental o‘zgaruvchan yondashuvlar va chiziqli bo‘lmagan chegara modellarigacha bo‘lgan metodologik asosni tanlash kabilar katta ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, TTXIlar ko‘pincha iqtisodiy o‘sish, bandlik va samaradorlikka ijobiy ta’sir qiladi, ammo bu ayni ko‘rib chiqilgan holatlarga xos bo‘ladi. Ta’sirlar moliyaviy bozor rivojlanishi, inson kapitali, institutlar faoliyati sifat darajasi va makroiqtisodiy barqarorlik kabi omillarga bog‘liq. Bundan tashqari, endogenlik va model sezuvchanligi TTXIlarning o‘sishini baholashda takrorlanadigan muammolar bo‘lib qolayotganligini tushunish mumkin.

Kuzatilgan dalillar ham "bitta o‘lchov hammaga mos keladi" degan xulosaga kelish noto‘g‘ri ekanligini ta’kidlaydi; Buning o‘rniga, TTXIlarning ta’siri ichki sharoit, o‘zlashtirish qobiliyati va sanoat dinamikasi nuqtai nazaridan talqin qilinishi kerak.

TTXIlarni qabul qiluvchi mamlakatlarga tavsiyalar

TTXIlardan maksimal foyda olish uchun ularni o‘zlashtirish salohiyatini yaxshilash lozim. Hukumatlar ta’lim, ishchi kuchi malakasi va texnologik infratuzilmaga sarmoya kiritishi kerak. Tadqiqotlar TTXIlar faqat inson kapitali yetarli darajada rivojlangan bo‘lganda o‘sishni rag‘batlantirishini ko‘rsatmoqda.

Moliyaviy bozorni mustahkamlash lozim. TTXIlar oqimini iqtisodiy o‘sishga aylantirish uchun yaxshi rivojlangan moliyaviy tizimlar muhim. Siyosatchilar bank sektorini isloh qilish, moliyaviy imkoniyatlar va kapital bozori shaffofligiga e’tibor qaratishlari kerak.

TTXIlar strategiyasini mamlakat xususiyatlariga moslashtirish. TTXIlarning ta’siri ayni bir mamlakat sharoitiga xos bo‘lganligi sababli, barchaga mos keladigan yagona yondashuv samarasizdir. Rivojlanayotgan mamlakatlar o‘z siyosatlarini sohaviy va institutsional tayyorgarlik darajasiga qarab farqlashlari kerak.

Xorijiy va mahalliy firmalar o‘rtasidagi aloqalarni rivojlantirish. Xorijiy va mahalliy firmalar o‘rtasidagi ta’minot zanjiri aloqalarini rivojlantirish TTXIlar natijasida hosildorlik o‘sishini oshirishi mumkin. Mahalliy yetkazib beruvchilarni rivojlantirish dasturlari va texnologiya almashish platformalari ijobiy tashqi ta’sirlarni kuchaytirishi mumkin.

Siyosiy va makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash. Dalillar inflyatsiya, ishsizlik va siyosat noaniqligi to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarning o‘sishga ta’sirini kamaytirishi mumkinligini ko‘rsatadi. Barqarorlik uzoq muddatli, samarali investitsiyalarni jalb qilishning kalitidir.

Sarmoyani ko‘p talab qiluvchi to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarga haddan tashqari qaramlikdan saqlanish. O‘zbekiston kabi holatlarda TTXIlar cheklangan ish o‘rinlari yaratilishi tufayli ishsizlikni oshirdi. Hukumatlar bandlikni ta’minlaydigan ko‘p mehnat talab qiladigan va inklyuziv investitsiya loyihalariga ustuvor ahamiyat berishlari kerak.

Kelgusi tadqiqotlar yuzasidan tavsiyalar.

Metodologik jihatdan mustahkam va kontekstli modellardan foydalanish. Ekonometrik usullarni ehtiyotkorlik bilan tanlash lozim (masalan, dinamik effektlar uchun GMM-tizimi, chiziqli bo‘lmaganlar uchun chegara modellari). TTXIlarning o‘sishi bilan bog‘liqlikni izohlashda mahalliy o‘zlashtirish qobiliyati va institutsional farqlarni hisobga olish lozim.

Endogenlik va tanlov natijasidagi og‘ish holatlarini nazarda tutish. Instrumental o‘zgaruvchilar va “farqlardagi farq” kabi usullardan, ayniqsa firma darajasidagi yoki mintaqaviy TTXIlar tahlillarida sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash uchun mos keladigan usullardan foydalanish maqsadga muvofiq.

TTXIlarni sohasi, shakli va kelib chiqishi bo‘yicha ajratish lozim. Tadqiqotchilar TTXIlarni monolit sifatida ko‘rib chiqish o‘rniga, yangi korxona tashkil etiladigan holatlarni qo‘shib olish va birlashishlar (M&A) bilan solishtirgan xolda yoki sanoat (masalan, ishlab chiqarish, xizmatlar) bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar va donor mamlakatlar heterojenligini o‘rganishlari kerak, chunki ta’sir darajalari juda katta farq keltirib chiqarishi mumkin.

Miqdor va sifat yondashuv uyg‘unligiga erishish. Miqdoriy ekonometrik modellar TTXIlar natijalari mamlakatlar bo‘yicha hamda vaqt o‘tishi bilan nima uchun farq qilishini yaxshiroq tushuntirish uchun institutsional va amaliy tadqiqotlar bilan to‘ldirilishi kerak.

Meta-analitik va qiyosiy tadqiqotlarni ilgari surish. Tadqiqotchilar nashrlardagi og‘ish va tadqiqotlar bo‘yicha uslub sezuvchanligini aniqlash uchun meta-regressiya tahlilidan foydalangan holda natijalarni jamlashni davom ettirishlari kerak.

TTXIlar yuzasidan tatbiq etiladigan siyosat bo‘yicha fikr-mulohazalarga hissa qo‘shish. Tadqiqotchilar xulosalarni qaror qabul qiluvchilar uchun amaliy tushunchalar beradigan tarzda shakllantirishlari va milliy darajadagi dalillarga asoslangan investitsiya strategiyalarini ishlab chiqishda ishtirok etishlari kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Aitken, B. J., & Harrison, A. E. (1999). Do domestic firms benefit from direct foreign investment? Evidence from Venezuela. American Economic Review, 89(3), 605–618. https://doi.org/10.1257/aer.89.3.605

2. Alfaro, L., Chanda, A., Kalemli-Ozcan, S., & Sayek, S. (2004). FDI and economic growth: The role of local financial markets. Journal of International Economics, 64(1), 89–112. https://doi.org/10.1016/S0022-1996(03)00081-3

3. Alfaro, L., Chanda, A., Kalemli-Ozcan, S., & Sayek, S. (2010). Does foreign direct investment promote growth? Exploring the role of financial markets on linkages. Journal of Development Economics, 91(2), 242–256. https://doi.org/10.1016/j.jdeveco.2009.09.004

4. Bengoa, M., & Sánchez-Robles, B. (2003). Foreign direct investment, economic freedom and growth: New evidence from Latin America. European Journal of Political Economy, 19(3), 529–545. https://doi.org/10.1016/S0176-2680(03)00011-9

5. Blonigen, B. A., & Wang, M. (2005). Inappropriate pooling of wealthy and poor countries in empirical FDI studies. In T. H. Moran, E. M. Graham, & M. Blomström (Eds.), Does Foreign Direct Investment Promote Development? (pp. 221–244). Peterson Institute.

6. Borensztein, E., De Gregorio, J., & Lee, J.-W. (1998). How does foreign direct investment affect economic growth? Journal of International Economics, 45(1), 115–135. https://doi.org/10.1016/S0022-1996(97)00033-0

7. Carkovic, M., & Levine, R. (2002). Does foreign direct investment accelerate economic growth? University of Minnesota Working Paper.

8. De Mello, L. R. (1999). Foreign direct investment-led growth: Evidence from time series and panel data. Oxford Economic Papers, 51(1), 133–151. https://doi.org/10.1093/oep/51.1.133

9. Derado, D., & Horvatin, D. (2019). Does FDI mode of entry have an impact on the host country’s labor productivity? An analysis of the EU countries. Economic Research-Ekonomska Istraživanja, 32(1), 1471–1486. https://doi.org/10.1080/1331677X.2019.1638284

10. Dinh, T. T.-H., Vo, D. H., Vo, A. T., & Nguyen, T. C. (2019). Foreign direct investment and economic growth in the short run and long run: Empirical evidence from developing countries. Journal of Risk and Financial Management, 12(4), 176. https://doi.org/10.3390/jrfm12040176

11. Hakim, D. R., Ahman, E., & Kusnendi, K. (2023). The effect of FDI on the host countries’ employment: A meta-regression analysis. Russian Journal of Economics, 9(2), 158–182. https://doi.org/10.32609/j.ruje.9.98252

12. Hansen, H., & Rand, J. (2006). On the causal links between FDI and growth in developing countries. World Economy, 29(1), 21–41. https://doi.org/10.1111/j.1467-9701.2006.00756.x

13. Havranek, T., & Irsova, Z. (2011). Estimating vertical spillovers from FDI: Why results vary and what the true effect is. Journal of International Economics, 85(2), 234–244. https://doi.org/10.1016/j.jinteco.2011.07.004

14. Hoang, T. T., Wiboonchutikula, P., & Tubtimtong, B. (2010). Does foreign direct investment promote economic growth in Vietnam? ASEAN Economic Bulletin, 27(3), 295–311. https://doi.org/10.1355/ae27-3d

15. Jamshed, B., Yang, J., Vatanjon, H., Chomen, D. A., & Alsaoub, N. (2024). The impact of foreign direct investment on economic growth: An evidence from Asian countries, 1995–2021. American Journal of Industrial and Business Management, 14, 1775–1804. https://doi.org/10.4236/ajibm.2024.1412089

16. Javorcik, B. S. (2004). Does foreign direct investment increase the productivity of domestic firms? In search of spillovers through backward linkages. American Economic Review, 94(3), 605–627. https://doi.org/10.1257/0002828041464605

17. Kholdy, S., & Sohrabian, A. (2005). Financial markets, FDI, and economic growth: Granger causality tests using panel data. Journal of Developing Areas, 38(2), 1–17.

18. Li, X., & Liu, X. (2005). Foreign direct investment and economic growth: An increasingly endogenous relationship. World Development, 33(3), 393–407. https://doi.org/10.1016/j.worlddev.2004.11.001

19. Suyunov, A. (2021). Do foreign direct investments and bank credits affect employment in Uzbekistan? Evidence from a VAR analysis. International Journal of Economic Perspectives, 15(1), 98–110.

TO‘QIMACHILIK KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI TA’MINLASHDA KORPORATIV MADANIYAT VA MARKETING STRATEGIYALARI UYG‘UNLIGI

Matrizayeva Dilaram Yusupbayevna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
“Marketing”kafedrasi, PhD., dotsent,
E-mail: dilarammatrizaeva@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekistonning to‘qimachilik sanoati korxonalari tomonidan ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish maqsadida qo‘llanilayotgan zamonaviy marketing strategiyalari tahlil qilinadi. FULL COTTON MChJ va BETLIS TEKSTIL MChJ misolida mahsulotni ilgari surish bo‘yicha mavjud yondashuvlar – raqamli kanallar, narx siyosati, assortimentni kengaytirish hamda xalqaro ko‘rgazmalarda ishtirok etish kabi jihatlar ko‘rib chiqiladi. Marketing strategiyalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishda korporativ madaniyatning ta’siriga alohida e’tibor qaratiladi. Barqaror rivojlanishga to‘sqinlik qilayotgan muammolar va asosiy tendensiyalar aniqlanib, brendni mustahkamlash, savdo kanallarini diversifikatsiya qilish, mahsulot sifati va ichki tashkiliy resurslardan ustunlik omili sifatida foydalanish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: to‘qimachilik sanoati, marketing, raqobatbardoshlik, eksport, brend, raqamli texnologiyalar, korporativ madaniyat.

Аннотация

В статье анализируются маркетинговые стратегии, применяемые предприятиями текстильной промышленности Узбекистана для повышения конкурентоспособности на внутреннем и внешнем рынках. На примере ООО FULL COTTON и ООО BETLIS TEKSTIL рассматриваются практические подходы к продвижению продукции – использование цифровых каналов, формирование ценовой политики, расширение ассортимента, а также участие в международных выставках. Отдельное внимание уделено роли корпоративной культуры в успешной реализации маркетинговых стратегий. Выявлены основные проблемы, препятствующие устойчивому развитию, и предложены рекомендации по укреплению бренда, диверсификации торговых каналов, повышению качества продукции и эффективному использованию внутренних организационных ресурсов.

Ключевые слова: текстильная промышленность, маркетинг, конкурентоспособность, экспорт, бренд, цифровые технологии, корпоративная культура.

Abstract

The article examines modern marketing strategies employed by textile enterprises in Uzbekistan to enhance their competitiveness in domestic and international markets. Using the examples of FULL COTTON LLC and BETLIS TEKSTIL LLC, the study analyzes existing approaches to product promotion, including digital channels, pricing policies, product range expansion, and participation in international exhibitions.

Special attention is given to the role of corporate culture in the successful implementation of marketing strategies. The study identifies key trends and challenges hindering sustainable development and provides recommendations for strengthening brand positioning, diversifying sales channels, improving product quality, and leveraging internal organizational resources as a source of competitive advantage.

Keywords: textile industry, marketing, competitiveness, export, brand, digital technologies, corporate culture.

KIRISH

O‘zbekiston to‘qimachilik sanoati milliy iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri bo‘lib, eksport tushumlarining sezilarli qismini ta’minlaydi va hududlarda bandlik darajasini oshirishga xizmat qiladi. “O‘zto‘qimachiliksanoat” uyushmasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 5,5 milliard AQSh dollaridan oshdi, eksport hajmi esa 3,1 milliard dollarga yetib, o‘tgan yilga nisbatan 8 foizga ko‘paydi. Shuni alohida qayd etish lozimki, eksport qilinayotgan mahsulotlarning qariyb 70 foizi tayyor mahsulotlardan iborat bo‘lib, bu xomashyo eksportidan yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishga o‘tish jarayonining kuchayganidan dalolat beradi.

Jahon bozorida kuchayib borayotgan raqobat, xomashyo narxlaridagi o‘zgarishlar va iste’molchilarning talabidagi dinamik o‘zgarishlar mahalliy korxonalarni zamonaviy marketing strategiyalarini joriy etishga undamoqda. Ichki va tashqi bozorlarda muvaffaqiyatli pozitsiyani ta’minlash uchun mahsulotni differensiallashtirish, brend yaratish, raqamli marketingdan foydalanish va eksport logistikasi tizimini rivojlantirish kabi kompleks yondashuv talab etiladi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda eksportyorlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha davlat dasturlari joriy qilindi. Ular transport xarajatlarini qoplash subsidiyalari, bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va xalqaro sifat standartlarini tatbiq etishni rag‘batlantirishni o‘z ichiga oladi. Biroq soha bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar ko‘rsatishicha, ko‘plab to‘qimachilik korxonalari hozircha marketing vositalarining cheklangan to‘plamidan foydalanadi. Ko‘pincha ular narx bo‘yicha raqobat strategiyasiga tayanadi, bu esa ularning tashqi shoklarga qarshi barqarorligini pasaytiradi.

Zamonaviy sharoitda marketing strategiyalarining samaradorligi nafaqat tashqi omillar, balki ichki omillar – eng avvalo korporativ madaniyat darajasi bilan belgilanadi. Innovatsiyalar, sifat va mijozga yo‘naltirilganlikka asoslangan barqaror qadriyatlar raqobatbardosh strategiyalarni joriy etish va amalga oshirish uchun qulay muhitni shakllantiradi. Shuning uchun korporativ madaniyatning marketing faoliyatiga ta’sirini baholash tahlilning muhim yo‘nalishiga aylanmoqda.

Ushbu tadqiqotning maqsadi – O‘zbekiston to‘qimachilik korxonalari faoliyatida qo‘llanilayotgan marketing yondashuvlarini tahlil qilish, asosiy muammolarni aniqlash va ichki hamda tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladigan strategik takliflarni ishlab chiqishdir.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatiga oid qator korxonalarning, jumladan FULL COTTON MChJ va BETLIS TEKSTIL MChJ’ning 2022–2024-yillar davomida olib borilgan buxgalteriya va boshqaruv hisobotlari ma’lumotlaridan foydalanildi. Qo‘shimcha manbalar sifatida “Uztextileprom” uyushmasining statistik sharhlari, O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy ma’lumotlari, shuningdek Jahon Savdo Tashkiloti (WTO) va Iqtisodiy Hamkorlik va Rivojlanish Tashkiloti (OECD) tomonidan e’lon qilingan tahliliy hisobotlar qo‘llanildi.

Korxonalarning ayrim moliyaviy ko‘rsatkichlari maxfiylikni ta’minlash maqsadida agregat va shaxssiz shaklda berildi. Shu bilan birga, asosiy iqtisodiy indikatorlar – mahsulot aylanmasi, xarajatlar tuzilmasi, rentabellik darajalari va eksport hajmlari – tahlil qismiga jadvalsiz, tavsifiy matn orqali kiritildi.

Metodologik asos quyidagi yondashuvlarni o‘z ichiga oladi:

- Kontent-tahlil – korxonalarning korporativ rejalarida va hisobotlarida aks etgan marketing strategiyalarini o‘rganish;
- Qiyosiy tahlil – korxona natijalarini sohaning o‘rtacha ko‘rsatkichlari bilan taqqoslash;
- Ekspert baholash usuli – soha mutaxassislarini so‘rovdan o‘tkazish orqali istiqbolli marketing yo‘nalishlarini belgilash;
- SWOT-tahlil – korxonalarning kuchli va zaif tomonlarini, tashqi muhitdagi imkoniyatlar va tahdidlarni aniqlash.

Tadqiqot jarayonida marketing faoliyatining quyidagi jihatlariga alohida e’tibor qaratildi: brend rivojlanishi, raqamli ilgari surish kanallaridan foydalanish, xalqaro ko‘rgazmalarda ishtirok etish hamda xorijiy distribyutorlar bilan uzoq muddatli hamkorlik munosabatlarini yo‘lga qo‘yish.

Qo‘shimcha ravishda, korxonalarning ichki muhiti, jumladan korporativ qadriyatlar, boshqaruv motivatsiyasi va marketing faoliyatining samaradorligiga ta’sir qiluvchi tashkiliy madaniyat elementlari sifat jihatdan baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yillarda O‘zbekiston to‘qimachilik korxonalari an’anaviy reklama va sotuvni rag‘batlantirish usullaridan bosqichma-bosqich chiqib, ko‘proq kompleks va texnologiyaga asoslangan marketing strategiyalariga o‘tmoqda.

FULL COTTON MChJ va BETLIS TEKSTIL MChJ misolida ko‘rish mumkinki, ishlab chiqarish hajmidagi farqlarga qaramay, har ikki kompaniya raqamli marketing elementlarini joriy etishni boshlagan. Ular mahsulotni ijtimoiy tarmoqlar va ixtisoslashgan onlayn platformalar orqali targ‘ib qilish yo‘llarini keng qo‘llamoqda. Shu bilan birga, marketing xarajatlari tarkibida hanuzgacha xalqaro ko‘rgazmalarda ishtirok etish va bosma reklama ustunlik qiladi.

FULL COTTON MChJ 2024-yilda marketing byudjeti hajmini 2023-yilga nisbatan 12 foizga oshirdi. Qo‘shimcha mablag‘lar firmaviy internet-do‘konni rivojlantirish hamda moda sohasidagi blogerlar bilan hamkorlikka yo‘naltirildi. Natijada kompaniya MDH mamlakatlarida mijozlar bazasini kengaytirdi, shuningdek

Turkiya va BAAdan buyurtmalar oldi. Eksportdan tushgan daromadning umumiy tushumdagi ulushi 42 foizdan 47 foizga ko‘tarildi.

BETLIS TEKSTIL MChJ esa narx siyosatini optimallashtirish va mahsulot turlarini ko‘paytirishga e’tibor qaratdi. Kompaniya turli aksiya va chegirma dasturlarini faol joriy etib, ichki bozorda raqobat kuchayganiga qaramay, o‘z ulushini saqlab qoldi. Eksport ulushi ham oshdi – 35 foizdan 39 foizga, asosan Qozog‘iston va Qirg‘iziston bozorlariga chiqish hisobiga.

Sohadagi o‘rtacha ko‘rsatkichlar bilan qiyoslash shuni ko‘rsatadiki, raqamli kanallar, oflayn tadbirlar va mijozlar sadoqatini oshirish dasturlarini uyg‘unlashtirgan integral marketing strategiyasini qo‘llayotgan korxonalar yiliga o‘rtacha 15–20 foiz yuqoriroq tushum o‘sish sur’atini namoyon etadi.

Tadqiqot shuni ham ko‘rsatadiki, muvaffaqiyatning asosiy omillaridan biri – bu kompaniyaning mustaqil va barqaror brend yaratish qobiliyati hamda maqsadli auditoriya bilan doimiy muloqot olib borishidir. Bu ayniqsa eksport yo‘nalishlarida muhim, chunki Xitoy, Turkiya va Bangladesh mahsulotlari bilan raqobatda sifat, dizayn va noyob savdo takliflari orqali farqlanish zarur.

Olingan natijalar shuni tasdiqlaydiki, O‘zbekiston to‘qimachilik korxonalari global bozor talablariga moslashish jarayonida marketing strategiyalarini bosqichma-bosqich modernizatsiya qilmoqda. FULL COTTON MChJ va BETLIS TEKSTIL MChJ o‘z faoliyatida umumiy yo‘nalishlarga ega bo‘lsa-da, ustuvor yo‘nalishlarida farq qiladi: birinchi kompaniya savdo kanallarini raqamlashtirish va brendni shakllantirishga urg‘u beradi, ikkinchisi esa narx moslashuvchanligi va assortiment kengaytirishga e’tibor qaratadi.

OECD va WTO tadqiqotlariga ko‘ra, to‘qimachilik korxonalarining faoliyatiga raqamli marketingni integratsiya qilish nafaqat eksport hajmlarini oshiradi, balki xorijiy bozorlarida brendning barqaror qabul qilinishini ham ta’minlaydi. FULL COTTON MChJ internet-do‘kon va ta’sir ko‘rsatuvchi shaxslar (influencer) bilan hamkorlikka investitsiya qilish orqali ushbu tendensiyaga mos harakat qilmoqda va bu allaqachon eksport daromadlari ulushining oshishida o‘z aksini topmoqda.

BETLIS TEKSTIL MChJning narx siyosati asosidagi raqobat strategiyasi qisqa muddatda samarali bo‘lishi mumkin, ammo uzoq muddatda uni sifat, dizayn va xizmat ko‘rsatish kabi nomoddiy ustunliklar bilan to‘ldirish zarur. Kotler va Porter tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, to‘qimachilik sohasida uzoq muddatli raqobat ustunligi faqat narx omiliga asoslanmaydi[1].

“Uztextileprom” ma’lumotlariga ko‘ra, narx va nomoddiy marketing usullarini birgalikda qo‘llagan korxonalar faqat narx bo‘yicha raqobat qilayotganlarga nisbatan o‘rtacha 18% yuqori savdo rentabelligiga ega.

Bunda korxonaning ichki holati – korporativ madaniyatning rivojlanish darajasi, motivatsion muhit va tashkiliy qadriyatlar – muhim rol o‘ynaydi. Sohadagi muvaffaqiyatli kompaniyalar faoliyati tahlili shuni ko‘rsatadiki, aynan jamoaviy ish, innovatsion yo‘nalish va ochiq boshqaruv madaniyati marketing yangiliklarini

[1] Porter, M. E. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. — New York: Free Press, 1998. — 592 p. https://www.hbs.edu/faculty/Pages/item.aspx?num=26

samarali joriy etishga va tashqi muhit talablariga moslashuvchanlikni oshirishga xizmat qiladi.

Har ikkala kompaniya uchun dolzarb bo‘lib qolayotgan asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

- Brendni xorijiy bozorlarda yanada mustahkamlash;
- Talab prognozini yaxshilash uchun analitik vositalarni integratsiya qilish;
- Xalqaro onlayn savdo platformalarida ishtirokni kengaytirish.

Demak, O‘zbekiston to‘qimachilik sanoati uchun strategik marketing rivojlanishi raqamli texnologiyalar, innovatsion mahsulot yondashuvi va kuchli brend siyosatini uyg‘unlashtirishga asoslanishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, marketing strategiyalari O‘zbekiston to‘qimachilik sanoati korxonalari raqobatbardoshligini ta’minlashda asosiy omil hisoblanadi. FULL COTTON MChJ va BETLIS TEKSTIL MChJ eksport bozorlarini kengaytirish va bozor konyunkturasiga moslashishda ijobiy natijalarga erishgan bo‘lsa-da, ularning yondashuvlari turlicha: birinchi kompaniya raqamli marketing va brend siyosatiga, ikkinchisi esa narx siyosati va assortimentni kengaytirishga urg‘u beradi.

Uzoq muddatli barqaror o‘sishni ta’minlash uchun quyidagi chora-tadbirlar tavsiya etiladi:

1. Brendni mustahkamlash – firmaning o‘ziga xos uslubini ishlab chiqish, xalqaro moda ko‘rgazmalarida ishtirok etish va dizaynerlar bilan hamkorlik qilish.
2. Savdo kanallarini diversifikatsiya qilish – Alibaba, Amazon, Zalando kabi yirik xalqaro onlayn bozorlarida faoliyat yuritish.
3. Raqamli marketingni rivojlantirish – talab prognozi va takliflarni shaxsiylashtirish uchun analitik vositalardan foydalanish.
4. Mahsulot portfelini optimallashtirish – eksport yo‘naltirilgan bozor talablariga mos ishlab chiqarish strategiyasini shakllantirish.
5. Sifat va innovatsiyalarga investitsiya kiritish – Xitoy va Bangladesh kabi arzon ishlab chiqarish markazlaridan kelayotgan mahsulotlardan farqlanish uchun.

Ushbu tavsiyalarni amalga oshirish korxonalarga nafaqat eksport hajmlarini oshirish, balki global bozorlarida barqaror pozitsiya egallash va uzoq muddatli raqobat ustunligini ta’minlash imkonini beradi.

Qo‘shimcha ravishda ta’kidlash joizki, samarali marketing strategiyalarini shakllantirish korxonaning korporativ madaniyat xususiyatlarini inobatga olmasdan iloji yo‘q. Aynan tashkiliy qadriyatlar, boshqaruv uslubi va xodimlarning ichki motivatsiyasi mahsulotni ilgari surish bo‘yicha yangi yondashuvlarni muvaffaqiyatli joriy etishda muhim omil hisoblanadi. Raqobat kuchayib borayotgan sharoitda korporativ madaniyat O‘zbekistonning to‘qimachilik korxonalari uchun bozordagi mavqeni mustahkamlovchi muhim nomoddiy resursga aylanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdurahmonov, K. X., Muxamedova, N. R. Iqtisodiy tahlil: Yengil sanoat korxonalari faoliyati. — Toshkent: Fan, 2021. — 212 b. https://library.ziyonet.uz/ru/book/123456

2. “Uztextileprom” uyushmasi. O‘zbekiston to‘qimachilik sanoati bo‘yicha statistik sharh, 2023. - Toshkent: Uztextileprom, 2024. - 48 b. https://uztextile.uz/ru/statistika

3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Sanoat ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari, 2023. - Toshkent: Davstatqo‘m, 2024. - 76 b. https://stat.uz/uz/ofitsialnaya-statistika

4. Bekmurodov, A. R. To‘qimachilik korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirish strategiyalari. - Toshkent: Xalqaro iqtisodiyot va diplomatiya universiteti, 2020. - 184 b. https://elibrary.uz/ru/book/654321

5. Kotler, P., Keller, K. L. Marketing Management. - 16-nashr. - Pearson Education, 2022. - 800 p. https://www.pearson.com/store/p/marketing-management/P100000610401

6. Porter, M. E. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. - New York: Free Press, 1998. - 592 p. https://www.hbs.edu/faculty/Pages/item.aspx?num=26

7. Slack, N., Brandon-Jones, A., Johnston, R. Operations Management. - 10-nashr. - Pearson Education, 2023. - 768 p. https://www.pearson.com/en-us/subject-catalog/p/operations-management/P200000007063

8. OECD. Textile and Clothing Industry in Global Value Chains. - OECD Publishing, Paris, 2023. - 92 p. https://doi.org/10.1787/textile-industry-2023-en

9. WTO. World Textile and Apparel Trade Report 2023. - Geneva: World Trade Organization, 2024. - 146 p. https://www.wto.org/english/res_e/publications_e/textile_trade_report2023_e.htm

10. UNIDO. Industrial Development Report 2024: Industrialization in a Digital Age. - Vienna: United Nations Industrial Development Organization, 2024. - 240 p. https://www.unido.org/resources-publications-industrial-development-report-2024.

AHOLINING MODDIY FAROVONLIGI TUSHUNCHASI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARI

Mirzamurodov Oltinbek Sultonali o'g'li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Ekonometrika" kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: oltinbekmirzamurodov96@gmail.com

Annotatsiya

Farovonlik har bir xalqning azaliy maqsadi, mamlakat taraqqiyotining mezoni ekani o'z ifodasini topgan. Aholi farovonligini oshirish davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosati samaradorligini baholashning eng muhim mezonlari sifatida yoritib berilgan. Bu borada O'zbekistonda qilinayotgan qarorlar bunga yaqqol misoldir. Aholi farovonligini oshirish ijtimoiy rivojlanishning asosiy maqsadi ekani haqida fikr yuritilgan. Shu jumladan, aholining farovonlik darajasini ifodalash uchun uning "turmush darajasi", "xalq farovonligi" va boshqa shu kabi turli tushunchalar qo'llanilgan. O'zbekistonda aholini moddiy, ma'naviy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish darajasi, istiqbolli fikrlar, mulohazalar hamda takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: aholi farovonlik, moddiy farovonlik, turmush tarzi, aholi jon boshga umumiy daromadlari, xizmatlar sohasi, kichik biznes.

Аннотация

Высказано мнение, что благополучие – извечная цель каждого народа, критерий развития страны. Повышение благосостояния населения выделено в качестве важнейшего критерия оценки эффективности государственной социально-экономической политики. Решения, принимаемые в нашей стране в этом направлении, служат ярким примером этого. Считается, что повышение благосостояния населения – главная цель общественного развития. В частности, для выражения уровня благосостояния населения используются различные понятия, такие как «уровень жизни», «благосостояние народа» и другие. Рассматривается уровень удовлетворения материальных, духовных, социальных потребностей населения в Узбекистане, приводятся перспективные идеи, комментарии и предложения.

Ключевые слова: благосостояние населения, материальное благополучие, образ жизни, совокупный доход населения на душу населения, сфера услуг, малый бизнес.

Abstract

The concept of welfare has long been regarded as the ultimate goal of every nation and as a key indicator of a country's development. Enhancing public welfare is highlighted as one of the most important criteria for evaluating the effectiveness of state socio-economic policy. The decisions currently being implemented in our country serve as clear evidence of this. The paper discusses the idea that improving public welfare constitutes the principal objective of social development. In this regard, various terms such as "standard of living," "public welfare," and other related notions have been employed to express the level of well-being of the population. The study also considers the extent to which the material, spiritual, and social needs of the population

are being met in Uzbekistan, and presents forward-looking perspectives, reflections, and proposals.

Keywords: public welfare, material well-being, lifestyle, per capita income, service sector, small business.

KIRISH

O‘zbek xalqi qadim-qadimdan yaxshi niyat va halol mehnat bilan farovon hayot kechirishga odatlangan. Aholi dehqonchilik, chorvachilik, parrandachilik, hunarmandchilik qilishi evaziga o‘z mehnati bilan to‘q va farovon yashab kelgan.

Shahar tipidagi maskanlarda hayot tarzimiz bir qadar o‘zgargan; bu hodisa bevosita integratsiya va global olam jarayonlari bilan ijobiy bog‘liq bo‘lib, demografik hisobga ko‘ra yoshlarni doimiy ish bilan ta’minlash, xizmatlar sohasini rivojlantirish, tadbirkorlikka jalb qilish, intellektual salohiyatini oshirish va intensiv sharoitda xo‘jalik yuritishni taqozo etmoqda.

Moddiy farovonlik – bu jamiyat, ayrim kishilar va ijtimoiy guruhlarning moddiy ne’matlar bilan ta’minlanganligi, kishilarning moddiy ehtiyojlarini qondirish darajasi hisoblanadi. Aholi farovonligi davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosati samaradorligini baholashning eng muhim mezonidir. Aholi farovonligini oshirib borish ijtimoiy rivojlanishning asosiy maqsadidir. “Aholi farovonligi” tushunchasi zamonaviy talqinda inson faoliyatining barcha tomonlariga taalluqli bo‘lgan keng qamrovli tushunchadir [1].

Aholi farovonligi deganda, aholining zaruriy moddiy va nomoddiy ne’matlar hamda xizmatlar bilan ta’minlanganligi va ularni iste’mol qilish darajasi tushuniladi. Farovonlik darajasini ifodalash uchun “turmush darajasi”, “xalq farovonligi” va boshqa shu kabi turli xil tushunchalar qo‘llaniladi. Aholi farovonligi – aholi ehtiyojlariga, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanishiga, aholining ma’naviy-ma’rifiy saviyasiga, ilmiy-texnik taraqqiyotga va boshqa shu kabi omillarga bog‘liqdir.

Aholining farovonligi bir tomondan muntazam o‘zgarib turadigan turli ijtimoiy ne’matlarga bo‘lgan ehtiyojlar tarkibi va darajasi bilan, boshqa tomondan esa u ehtiyojni qondirish imkoniyatlari, tovarlar va xizmatlar bozoridagi holat, aholi daromadlari bilan belgilanadi. Biroq ish haqi miqdori ham, farovonlik darajasi ham ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalari samaradorligining ko‘lami, ilmiy-texnik taraqqiyot darajasi, aholining madaniy-ma’rifiy saviyasi va milliy xususiyatlariga, shuningdek siyosiy hokimiyatga bog‘liq.

Har qanday jamiyatda kishilar moddiy farovonlikning asosi shu mamlakatning milliy moddiy boyligidir. Jamiyatning va kishilarning moddiy farovonligi ularga tegishli bo‘lgan, ular ixtiyoridagi moddiy ne’matlar yig‘indisiga, joriy moddiy ishlab chiqarish darajasiga, olinayotgan daromadlarga, iste’mol qilinayotgan moddiy ne’matlar miqdori va sifatiga bog‘liq.

ADABIYOTLAR SHARHI

2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasining 21-maqsadida: “Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori

o‘sish sur’atlarini ta’minlash uchun iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni 1,6 baravar va 2030-yilga borib aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadni 4 ming AQSh dollaridan oshirish hamda daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoriga kiritish maqsad qilib belgilangan” [2].

«O‘zbekiston – 2030» strategiyasida: “...barqaror iqtisodiy o‘sish orqali daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoridan o‘rin olish, aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish, aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish, xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish, mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta’minlash” belgilangan [3].

Boyev va Adilovlarning fikricha, “Respublikamizda bozor munosabatlari asosida iqtisodiyotning rivojlanishiga o‘tilishi daromadlar tengsizligini yanada kuchaytirdi. Davlat daromadlarni boshqarish va tartibga solishda shunga e’tibor berishi zarurki, xususiylashtirish jarayonida sodir bo‘layotgan mulkning qayta taqsimlanishi aholining ma’lum guruhlari uchun mulkdan daromad chiqarish imkoniyatlarini vujudga keltirdi. Ayniqsa, sarmoyaning dastlabki to‘planishi jarayonida ko‘p sonli suiiste’molliklar sodir bo‘ladi hamda ayrim tabaqalar qo‘lida osonlik bilan daromad to‘planishiga imkoniyatlar vujudga keladi” [4].

Turmush darajasining asosiy ko‘rsatkichlari (indikatorlari) aholi daromadlari bo‘lib, akademik Q.X. Abdurahmonov “turmush darajasi” tushunchasining mazmunini iste’mol sohasi bilan cheklaydigan mualliflar nuqtai-nazarini to‘g‘ri deb hisoblaydi. Uning fikricha, turmush darajasi deganda aholining zarur moddiy va nomoddiy ne’matlar hamda xizmatlar bilan ta’minlanish darajasi, ularni iste’mol qilish darajasi tushuniladi [5].

G‘arb olimlari Torsteyn Bunde Veblen (1857–1929), Djon Rodjers Kommons (1862–1945), Uesli Kler Mitchell (1874–1948), Gobson Djon Atkinson (1858–1940), Uilyam Donald Gamilton (1936–2000)lar ta’kidlashicha, har bir muayyan davrda butun jamiyat va uning barcha a’zolarining eng muhim moddiy ehtiyojlari, ya’ni hayotiy makonga va tabiiy resurslarga, ishlab chiqarish vositalariga, iste’molbop ne’matlarga bo‘lgan moddiy ehtiyojlari shu jamiyatda mavjud bo‘lgan jami moddiy-ashyoviy boylik bilan qondiriladi. Kishilarning tabiiy va ishlab chiqarilgan moddiy ne’matlar bilan umuman, hamda aholi jon boshiga ta’minlanganligi aholi moddiy farovonligining asosidir [6].

Shuning uchun hozirgi paytda dunyoda har bir mamlakat milliy boyligini, shu jumladan milliy tabiiy va ishlab chiqarilgan boyligini hisoblashga alohida ahamiyat bermoqda. Moddiy ashyoviy boylik tarkibidagi tabiiy boylik va ishlab chiqarilgan (jamg‘arilgan) boylik alohida-alohida hisobga olinishi, tabiiy boyliklarni asrab-avaylab, undan oqilona foydalanib, ishlab chiqarish, jamg‘arilgan boylikning uzluksiz kengaytirilgan takror ishlab chiqarilishi va ko‘paytirilishi moddiy farovonlikni saqlash va oshirishning eng muhim shartidir [7].

Milliy boylikni saqlash va ko‘paytirishda, shu yo‘l bilan moddiy farovonlikni ta’minlashda, oshirishda davlat va uning milliy ijtimoiy-iqtisodiy siyosati muhim o‘rin

tutadi. Davlat buyurtmalari va investitsiyalari ish joylarini ko‘paytirishga, aholi daromadlarining o‘sishiga ijobiy ta’sir etadi. Soliqlarning va davlat xarajatlarining optimallashtirilishi esa soliq yukini kamaytiradi va kishilar ixtiyoridagi daromadlarni ko‘paytiradi, bu moddiy farovonlikka ijobiy ta’sir qiladi. Shu bilan birga, moddiy farovonlik, iste’mol bo‘yicha optimal normativ va normalari, aholini ijtimoiy himoyalash mexanizmi hamda dasturlarining takomillashtirilishi katta ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega.

METODOLOGIYA

Aholi farovonligi davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosati samaradorligini baholashning eng muhim mezonidir. Aholi farovonligini oshirib borish ijtimoiy rivojlanishning asosiy maqsadidir. “Aholi farovonligi” tushunchasi zamonaviy talqinda inson faoliyatining barcha tomonlariga taalluqli bo‘lgan keng qamrovli tushunchadir.

Aholi farovonligi deganda, aholining zaruriy moddiy va nomoddiy ne’matlar hamda xizmatlar bilan ta’minlanganligi va ularni iste’mol qilish darajasi tushuniladi. O‘zbekistonda aholini moddiy, ma’naviy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish darajasini ifodalovchi “turmush darajasi” atamasi kengroq qo‘llaniladi. Aholi farovonligi yoki turmush darajasi aholi ehtiyojlariga, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanishiga, ilmiy-texnik taraqqiyotga, aholining ma’naviy-ma’rifiy saviyasiga va boshqa shu kabi omillarga bog‘liqdir.

Aholining farovonligi bir tomondan muntazam o‘zgarib turadigan turli ne’matlarga bo‘lgan ehtiyojlarining tarkibi va darajasi bilan, boshqa tomondan u ehtiyojni qondirish imkoniyatlari, tovarlar va xizmatlar bozoridagi holat, aholi daromadlari va ish haqi bilan belgilanadi.

Aholi farovonligi darajasining eng mufassal talqini quyidagicha: aholi farovonligi – bu jismoniy, ma’naviy va ijtimoiy ehtiyojlarning rivojlanish darajasi, qondirilganlik miqyosi va ularni qoniqtirish uchun yaratilgan imkoniyatlarni aks ettiruvchi umumiy ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyadir. Bunday talqin aholi farovonligi darajasining sifat va miqdor ko‘rsatkichlarini yanada to‘liqroq ifodalashga imkon yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyin mamlakatdagi barcha tabiiy ne’matlar (yerlar, yer osti va yer usti boyliklari va boshqa resurslar) umumiy mulkka, boylikka aylantirildi va jamiyat a’zolari uning mulkdorlari hisoblanadi. Shu bilan birga, ularning bir qismi xususiylashtirilgan mulkchilarga aylandi; yerga va boshqa mulklarga ijara asosida egalik joriy etildi. Yerlar yakka, guruh, shirkat, jamoa, korporativ xo‘jalik yuritish uchun, shuningdek, fermerlik va dehqon xo‘jaliklarini tashkil etish maqsadida jismoniy va yuridik shaxslarga taqsimlab berildi.

Mamlakatning ishlab chiqarish va jamg‘arilgan moddiy boyliklari ko‘paydi va takomillashdi; aholining nominal va real daromadlari oshdi, kundalik iste’mol-bop mollar va uzoq muddatli mahsulotlar bilan ta’minlanganligi yaxshilandi. Shu bilan birga, aholining keskin va katta darajada tabaqalanishining oldini olish hamda milliy moddiy boylikni farovonlikni yuksaltirishga yo‘naltirilgan ijtimoiy-siyosiy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonida xizmat ko‘rsatish sohasi, kichik biznes, xususan, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga doimiy e’tibor qaratilmoqda. Ushbu tarmoq yangi ish o‘rinlari yaratish, oilalarning barqaror daromad manbasini shakllantirish va moddiy farovonligini oshirishda alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2025-yilning yanvar-mart holatiga aholi umumiy daromadlari 222,4 trillion so‘mni tashkil etdi. Aholi daromadlari bo‘yicha real o‘sish sur’atlarini hisoblashda narx omillarini chiqarib tashlash maqsadida inflyatsiya ko‘rsatkichlarining asosiy turlaridan biri – iste’mol narxlari indeksi (INI)dan foydalaniladi. Iste’mol narxlarining o‘zgarishi sababli, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan aholi umumiy daromadlarining real o‘sish sur’ati 109,8 % ni tashkil etdi.

1-jadval

Aholining umumiy daromadlari 2025-yil yanvar-mart davrida[10].

Ko‘rsatkichlar	Xajmi	Nominal o‘sish surati,% da	Real o‘sish surati,% da
Aholining umumiy daromadlari (trln so‘m)	222.4	120.9	109.8
Aholi jon boshiga umumiy daromadlari(mln so‘m)	5.9	118.5	107.6

Bundan ko‘rish mumkinki, 2025-yilning yanvar-mart holatiga ko‘ra, aholi jon boshiga umumiy daromadlar 5,9 million so‘mni, aholi jon boshiga umumiy daromadlarning nominal o‘sish sur’ati 118,5 % ni, real o‘sish sur’ati esa 107,6 % ni tashkil etdi (1-rasm).



1-rasm. O‘zbekiston Respublikasida aholi jon boshiga umumiy daromadlar dinamikasi[1]

[1] stat.uz

2020-yilning yanvar-mart holatiga ko‘ra, aholi jon boshiga umumiy daromadlar 2,4 million so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2025-yilga kelib deyarli 2,4 baravar ko‘paydi. Aholi jon boshiga umumiy daromadlarning nominal o‘sish sur’ati 2021-yilning yanvar-mart oylarida 118,8 %, 2025-yilning yanvar-mart oylarida esa 118,5 % ni tashkil etdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Biz aholi jon boshiga umumiy daromadlarning yillar davomida o‘zgarishini ko‘rib chiqdik. Aholining farovonlik darajasi to‘g‘risida batafsil ma’lumotga ega bo‘lish uchun aholi daromadlari va ehtiyojlari, iste’mol darajasi va tarkibi, uy-joy, mol-mulk, madaniy-maishiy buyumlar va boshqa imkoniyatlar bilan ta’minlanganlik darajasini chuqur o‘rganish lozim.

Bundan tashqari, O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali o‘rta mulkdorlar sinfi shakllanadi, makroiqtisodiy beqarorlik, ishsizlik va taqchillik kabi iqtisodiy muammolar barham topadi, sog‘lom raqobatchilik muhitining yaratilishi orqali YaIMning miqdor va sifat jihatidan o‘sishi kuzatiladi, ichki bozor zarur tovar va xizmatlar bilan to‘yinadi va ularning sifati oshadi, natijada aholi turmush darajasining o‘sishiga erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Rasulov D.M, Almuroadov A.A, Xomidov S.O Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish va prognozlash: “O‘quv qo‘llanma” –Toshkent 2019-156 bet

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar, PF–60-son 2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni https://lex.uz/uz/docs/-5841063

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabr PF-158- son «O‘zbekiston — 2030» Strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni https://lex.uz/ru/docs/-6600413

4. Boyev X.I., Adilov B.B. Aholi daromadlarini davlat tomonidan boshqarish zaruriyati. Iqtisod va moliya. 2018, 5 – 58 b.

5. Abduraxmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti. Toshkent, “Mehnat” 2009. 357- b. Режим доступа: https://www.wttc.org/economic-impact/countryanalysis/country-data/. –Дата доступа: 02.09.2019. Country Data [Электронный ресурс] / World Travel and Tourism Council.

6. Aliyev B Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 2 | ISSUE 3

7. Ходжаев Р., А.Эгамбердиев, Ф.Қ. Шоюсупова. Кичик бизнесни бошқариш. ТМИ Ўқув қўланма. Т.: “IQTISOD — MOLIYA”, 2008

8. stat.uz

SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN KICHIK BIZNESDA FOYDALANISHNING XORIJIY TAJRIBALARI VA O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI

Navruz-zoda Layli Baxtiyorovna
Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
ORCID: 0000-0002-7639-0522
E-mail: navruzzoda82@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada kichik biznesda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalaridan foydalanishning xorijiy tajribalari va O'zbekistonda ularni joriy etish imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda AQSh, Germaniya, Janubiy Koreya, Hindiston, Isroil va boshqa davlatlarning ilg'or yondashuvlari o'rganilib, ularni mahalliy sharoitga moslashtirish yo'llari ko'rib chiqilgan. O'zbekistonda SI texnologiyalarini kichik biznesda joriy etishda mavjud muammolar – infratuzilma, malakali kadrlar, moliyaviy cheklovlar va bozor farqlari – tizimli ravishda tahlil qilingan. Shuningdek, SI texnologiyalaridan samarali foydalanish bo'yicha yo'l xaritasi va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, kichik biznes, raqamli transformatsiya, xorijiy tajriba, innovatsion rivojlanish, adaptatsiya, lokalizatsiya.

Аннотация

В статье рассмотрены зарубежный опыт использования технологий искусственного интеллекта (ИИ) в малом бизнесе и возможности их внедрения в Узбекистане. Проанализированы подходы США, Германии, Южной Кореи, Индии, Израиля и других стран, а также их адаптация к местным условиям. В работе систематизированы основные проблемы внедрения ИИ в малый бизнес Узбекистана — инфраструктурные ограничения, нехватка квалифицированных кадров, финансовые барьеры и различия рыночной среды. Автором предложена «дорожная карта» и практические рекомендации по эффективной интеграции ИИ в деятельность малого бизнеса.

Ключевые слова: искусственный интеллект, малый бизнес, цифровая трансформация, зарубежный опыт, инновационное развитие, адаптация, локализация.

Abstract

This article analyzes the foreign experience of applying artificial intelligence (AI) technologies in small businesses and explores opportunities for their implementation in Uzbekistan. The study examines best practices from the USA, Germany, South Korea, India, Israel, and other countries, highlighting possible ways of adapting them to local conditions. The paper systematically identifies key challenges in introducing AI into Uzbekistan's small business sector, including infrastructure limitations, shortage of skilled professionals, financial constraints, and market differences. Finally, a roadmap and policy recommendations are proposed for the effective integration of AI in small business development.

Keywords: artificial intelligence, small business, digital transformation, foreign experience, innovative development, adaptation, localization.

KIRISH

Iqtisodiyotni globallashuv davrida sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari kichik biznesning raqobatbardoshligini oshirish, xarajatlarni optimallashtirish, mijozlar bilan samarali ishlash va innovatsion mahsulotlar yaratishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Xorijiy tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, AQSh, Yevropa Ittifoqi va Osiyo davlatlarida kichik biznes korxonalari SI yordamida marketing jarayonlarini avtomatlashtirish, moliyaviy xavflarni tahlil qilish, mijozlar ehtiyojlarini bashorat qilish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga erishmoqda. Bu esa kichik biznesning tezkor rivojlanishi va raqobatda ustunlikka ega bo‘lishini ta’minlamoqda.

O‘zbekiston sharoitida esa kichik biznes mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘sishida, aholi bandligini ta’minlashda va yangi ish o‘rinlari yaratishda hal qiluvchi o‘rin tutadi. Shu nuqtai nazardan, kichik biznes faoliyatida SI texnologiyalarini joriy etish katta imkoniyatlarni taqdim etadi. Mazkur jarayonning dolzarbligi davlat siyosati bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktyabrdagi PQ-358-sonli qarori bilan “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi” tasdiqlandi. Ushbu strategiyada SI texnologiyalarini iqtisodiyotning turli sohalarida, jumladan, tadbirkorlik subyektlarida keng joriy etish, SI asosida yangi xizmat va mahsulotlarni ishlab chiqish, biznes-jarayonlarni raqamlashtirish va innovatsion muhitni shakllantirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilab berildi.

Demak, xorijiy tajribalar tahlili va O‘zbekistondagi huquqiy asoslar ko‘rsatmoqdaki, kichik biznesda sun’iy intellektni qo‘llash nafaqat texnologik zarurat, balki milliy strategik maqsad hisoblanadi. Bu esa ushbu maqola mavzusining ilmiy-amaliy dolzarbligini yanada kuchaytiradi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Sun’iy intellekt texnologiyalarining kichik biznesdagi qo‘llanilishi bo‘yicha xorijiy ilmiy va amaliy izlanishlar keng yoritilgan. Jumladan, Porter raqobat ustunligi nazariyasida texnologik innovatsiyalar biznes samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida talqin etiladi. Keyinchalik Brynjolfsson & McAfee raqamli transformatsiyaning iqtisodiyotga ta’sirini tahlil qilib, SI texnologiyalari kichik biznes uchun yangi imkoniyatlar ochishini ko‘rsatadi.

Mashinali o‘rganish texnologiyalarining kichik biznesda qo‘llanishi bo‘yicha Ankur Patel[3], Michael C. Darden[14], Thomas H. Davenport[16] turli yondashuvlarni ilgari surgan.

Kichik biznesda sun’iy intellekt texnologiyalarining chuqur o‘rganish modellaridan foydalanish, SI joriy etishning drayver va to‘siqlari ko‘pincha TOE (Technology–Organization–Environment) va qisman DOI (Diffusion of Innovations) doiralari orqali tahlil qilinadi: texnologik moslik/komplekslik, tashkilot ichki tayyorgarligi (ko‘nikmalar, yetakchilik, mablag‘) hamda tashqi muhit (raqobat, me’yoriy talablar, davlat qo‘llovi) hal qiluvchi omillar ekanligi D. Lewis, TensorFlow

va Keras[12], Anirudh Koul, Siddha Ganju, Meher Kasam[2], F. Chollet François Chollet[5], A. Koul, S. Ganju & M. Kasam[10], T. R. Mitchell[13], S. Das[7] kabi xorijiy olimlarning tadqiqotlarida keng yoritilgan.

Kichik biznesda sun'iy intellektning tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha Jason D. Brownlee[9], Daniel Jurafsky & James H. Martin[6], Sowmya Vajjala, Bodhisattwa Majumder, Anuj Gupta[15], Lewis Tunstall, Leandro von Werra[12], Thomas Wolf[16] kabi olimlar turli amaliy yondashuvlarni taklif qilgan.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda xorijiy va mahalliy manbalar asosida kichik biznesda SI texnologiyalarini qo'llash bo'yicha nazariy yondashuvlar o'rganildi. AQSh, Germaniya, Koreya, Isroil, Hindiston va boshqa davlatlarning tajribasi O'zbekiston sharoitlari bilan solishtirildi. SI texnologiyalarining turli sohalardagi (savdo, logistika, moliya, xizmat ko'rsatish) amaliy modellarini o'rganib, ularning samaradorlik ko'rsatkichlari tizimli ravishda tahlil qilindi. Xorijiy SI modellarining O'zbekiston infratuzilmasi, huquqiy tizimi va mahalliy ehtiyojlariga moslashtirish imkoniyatlari baholandi. Xalqaro statistik ma'lumotlar (Statista, INSEE, BMWK, NASSCOM va b.q.) asosida kichik biznesda SI joriy etilishining samaradorlik ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Xorijiy tajriba va mahalliy sharoitlarni birlashtirgan holda, O'zbekiston kichik biznesi uchun SI joriy etish bo'yicha yo'l xaritasi ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Rivojlangan mamlakatlarda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalaridan foydalanish kichik biznes subyektlari uchun raqobat ustunligini ta'minlovchi muhim omilga aylangan. Masalan, AQSh[1] va Yevropa[2] davlatlaridagi kichik korxonalar mashinali o'rganish, tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) va chatbotlar orqali mijozlar ehtiyojini oldindan aniqlash, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va marketing strategiyalarini tanlashni avtomatlashtirishga erishgan. Bu jarayonlar nafaqat xarajatlarni kamaytiradi, balki xizmatlarning moslashtirilgan va interaktiv bo'lishiga olib keladi.

Raqamli transformatsiyada inklyuzivlik va texnologik tenglikka erishish yo'li sifatida xorijiy tajribada kichik biznes uchun sun'iy intellekt xizmatlarini ommaviylashtirish (masalan, "AI-as-a-Service") SI texnologiyalarini hatto texnik imkoniyatlari cheklangan korxonalar uchun ham foydalanish imkonini yaratmoqda. Janubiy Koreya[3] va Isroilda[4] kichik biznes subyektlari uchun tayyor SI platformalari, hukumat grantlari va texnoparklar orqali qo'llab-quvvatlash tizimi yaratilgan bo'lib, bu dolzarblikni yanada kuchaytiradi. Ushbu model O'zbekiston kabi rivojlanayotgan davlatlar uchun iqtisodiy inklyuzivlikni ta'minlashda muhim tajriba bo'lib xizmat qiladi.

Pandemiyadan keyingi barqarorlik va chidamlilik strategiyasi sifatida COVID-19 pandemiyasi jarayonida sun'iy intellektga asoslangan texnologiyalar kichik biznes

[1] Statista, 2024; U.S. Small Business Administration (SBA), 2023.
[2] ZE *ScienceDirect (2024, p. 7).*
[3] Korea Internet & Security Agency (KISA), 2023.
[4] *Israel Innovation Authority, 2024.*

subyektlariga tezda raqamli ekotizimga moslashishga yordam berdi. Masalan, Italiya[1] va Germaniyada kichik ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish firmalari SI yordamida zanjirlarni qayta tuzish, mijozlarga onlayn xizmat ko‘rsatish va logistika operatsiyalarini optimallashtirish orqali iqtisodiy inqirozga qarshi kurashdi. Bu tajriba bugungi kunda global miqyosda SI texnologiyalarining kichik biznesdagi dolzarbligini yanada oshirib, uni barqaror rivojlanish strategiyasining ajralmas qismiga aylantirmoqda.

Barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlovchi vosita sifatida xorijiy tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, sun’iy intellektdan foydalangan kichik biznes subyektlari iqtisodiy o‘sishga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Masalan, Yaponiya[2] va Germaniyada SI asosidagi avtomatlashtirish orqali ishlab chiqarish samaradorligi oshgan, xizmatlar sektori esa mijoz ehtiyojlariga tezkor javob berish qobiliyatiga ega bo‘lgan. Natijada bu kichik korxonalar nafaqat ichki bozor, balki eksport salohiyatini ham kengaytirgan.

Demak, xorijiy amaliyotlar asosida SI texnologiyalarining kichik biznesdagi qo‘llanilishi iqtisodiy barqarorlik va innovatsion taraqqiyot uchun muhim omildir. Xorijiy mamlakatlarning kichik biznesda SI texnologiyalaridan foydalangan holdagi muvaffaqiyatli tajribasini o‘rganishdan asosiy maqsad — ularning samarali yondashuvlarini tahlil qilib, mahalliy iqtisodiy, texnologik va institutsional sharoitlarga mos modellarni ishlab chiqishdir. Bu orqali O‘zbekistondagi kichik korxonalar uchun xavfsiz, qulay va samarali SI joriy etish mexanizmlari yaratiladi.

Innovatsion rivojlanish va raqamli transformatsiyani jadallashtirishda, xorijiy tajribalardan foydalanish orqali kichik biznes subyektlari raqamli texnologiyalarga asoslangan xizmatlar va mahsulotlar yaratishda ilgarilash imkoniga ega bo‘ladi. Masalan, Germaniya va Janubiy Koreya tajribasida SI yordamida mijozlar bilan interaktiv aloqa, real vaqtli tahlillar va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari joriy qilingan. Ushbu yondashuvlar kichik biznesning innovatsion salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Kichik biznesning raqobatbardoshligini va eksport salohiyatini kuchaytirish, xorijiy SI amaliyotlarini o‘rganishdan yana bir muhim maqsad — kichik biznes subyektlarini global raqobatga tayyorlashdir. SI texnologiyalari yordamida xizmatlar va mahsulotlar sifatini oshirish, xarajatlarni optimallashtirish va yangi bozorlar uchun moslashuvchan strategiyalar ishlab chiqish mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, eksport salohiyatining oshishiga va milliy iqtisodiyotda kichik biznesning ulushini kengaytirishga xizmat qiladi.

Fikrimizcha, xorijiy tajribalardan foydalanishning asosi — ilg‘or mamlakatlarda kichik biznesda joriy etilgan SI texnologiyalarining amaliy modellarini tahlil qilish va ularni o‘rganish orqali turli sohalarda — savdo, xizmat ko‘rsatish, logistika yoki moliyaviy xizmatlarda qo‘llanilayotgan SI yechimlarini aniqlab, ulardan qaysilari O‘zbekiston sharoitida samarali ishlashini baholashdir. Mahalliy infratuzilma va siyosiy muhitga mos strategiyalar ishlab chiqish, xorijiy tajribalarni o‘rganish asosida kichik biznes uchun mos SI texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha aniq yo‘l xaritalarini

[1] ZEW Mannheim/Texniko Bundesministerium (2024, “Use of AI in Companies in Germany”, p. 8.
[2] Japan External Trade Organization (JETRO), 2024.

shakllantirish vazifasi turadi. Masalan, Germaniya yoki Janubiy Koreya tajribasida hukumat ko‘magida yaratilgan SI texnoparklari, subsidiyalar va maslahat xizmatlari tizimi asosida, O‘zbekistonda ham kichik biznesni raqamlashtirishga yo‘naltirilgan kompleks infratuzilma va qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini ishlab chiqish mumkin.

Tashkiliy va inson resurslarini tayyorlashda yana bir muhim masala — xorijiy tajriba asosida kichik biznes vakillari uchun SI sohasida zarur bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishdir. Bu doirada xorijiy o‘quv modullari, onlayn kurslar va texnologik transfer loyihalarini joriy qilish orqali tadbirkorlarning raqamli savodxonligi oshiriladi va ularni zamonaviy SI vositalaridan foydalanishga tayyorlash maqsad qilinadi. Natijada, mahalliy kadrlarga asoslangan texnologik transformatsiya imkoniyati yuzaga keladi.

Qayd qilish lozimki, O‘zbekistonda sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarini kichik biznes subyektida joriy etish jarayonida yuqorida ko‘rib chiqilgan xorijiy mamlakatlar tajribasidan foydalanish ahamiyatli bo‘lishi bilan birga, ularni bizning sharoitimizda to‘liq qo‘llashda muayyan muammolar va cheklovlar yuzaga kelishi mumkin. Biz tadqiqotimizda bu muammolarni to‘rtta asosiy yo‘nalishga tizimlashgan holda izohlab chiqamiz:

Birinchidan, texnologik infratuzilma va raqamli salohiyat cheklangan bo‘lib, bunga sabab — O‘zbekistonning ko‘plab hududlarida yuqori tezlikdagi internet, bulutli texnologiyalar yoki SI serverlar yetarli darajada rivojlanmaganligidir. Ayniqsa, elektron to‘lov, API integratsiyasi va ma’lumotlar bazasi infratuzilmasi ba’zi xorijiy modellarning (masalan, Singapur yoki AQSh) erishgan darajasida emas. Natijada, Isroil yoki AQSh modelidagi SI texnologiyalari mamlakatimizda bevosita o‘zlashtirilganda, qamrov darajasi past va xizmatlar noto‘liq ishlashi mumkin.

Ikkinchidan, malakali kadrlar va texnik kompetensiya yetishmasligi muammo bo‘ladi. Ko‘plab kichik biznes egalarining SI haqida yetarli bilim va texnik ko‘nikmalari mavjud emas. O‘zbekistonda SI dasturchilar, data scientist va ML engineer kabi mutaxassislar soni yetarli emas, bu esa Germaniya yoki Kanada tajribasini to‘liq tatbiq qilishda qiyinchilik tug‘diradi. Natijada, SI ilovalarini joriy etish uchun xorijiy mutaxassislarga tayanishga to‘g‘ri keladi yoki mahalliy o‘quv platformalar yetishmasligi tufayli texnologiyaning asosiy afzalliklari cheklangan bo‘ladi.

Uchinchidan, moliyaviy va institutsional cheklovlar muammo bo‘lishi mumkin. Kanada, Germaniya yoki Singapurda kichik biznes subyektlari SI texnologiyalarini joriy qilishda hukumat grantlari, kreditlar va soliq imtiyozlari orqali rag‘batlantiriladi. O‘zbekistonda esa kichik biznes uchun bunday institutsional yordam tizimi hali to‘liq shakllanmagan. Bu esa mahalliy korxonalar tomonidan xorijiy tajribalarni moliyaviy jihatdan ko‘chira olmasligiga olib keladi va SI texnologiyalarining ommaviy joriy etilishini sekinlashtiradi.

To‘rtinchidan, mahalliy ehtiyoj va bozor farqlarini hisobga olmaslik muammo bo‘lishi mumkin. Xorijiy mamlakatlardagi SI texnologiyalari, ayniqsa AQSh yoki Yaponiyada, kattaroq bozor va rivojlangan iste’molchilarga mo‘ljallangan. O‘zbekistonda esa kichik biznes subyektlari ko‘pincha an’anaviy, oflayn xizmatga

asoslangan shaklda faoliyat yuritadi. Masalan, Hindiston yoki Xitoyning arzon SI texnologiyalari O‘zbekistonga yaqin bo‘lishi mumkin, lekin Yevropa modelidagi yuqori sifatli, murakkab SI texnologiyalari mahalliy bozor talabiga mos kelmasligi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xorijiy tajribalarda (AQSh, Germaniya) sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari ilg‘or serverlar, keng tarmoqli internet va bulutli platformalarga asoslanadi. O‘zbekistonda esa bu infratuzilma to‘liq shakllanmagan. Shuning uchun AI texnologiyalarini joriy etishdan oldin internet qamrovini kengaytirish, 5G va bulutli xizmatlarni mahalliylashtirish lozim.

Singapur va Hindiston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, SI texnologiyalarining muvaffaqiyatli joriy etilishi uchun texnik malakali kadrlar tayyorlash muhim ahamiyatga ega. O‘zbekistonda bu yo‘nalishda SI o‘quv kurslari, texnik litseylar va IT akademiyalarini rivojlantirish zarur. Kanada va Janubiy Koreya singari davlatlarda kichik biznesga SI joriy etish uchun grantlar, subsidiyalar va soliq imtiyozlari beriladi. O‘zbekiston sharoitida ham “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish jamg‘armasi” orqali shunday moliyaviy mexanizmlarni yaratish muhimdir.

Mahalliy ehtiyojga moslashuvsiz SI modellar ko‘plab xorijiy texnologiyalar yirik korxonalar, ingliz tilida ishlovchi foydalanuvchilar yoki murakkab logistika tarmoqlari uchun yaratilgan. O‘zbekistonda kichik biznes ko‘proq xizmat va chakana savdoga yo‘naltirilgan. Shuning uchun SI modellarini mahalliy ehtiyojga moslashtirish — “adaptatsiya va lokalizatsiya” — raqobatbardoshlik va texnologik tengsizlikni bartaraf etishning muhim omilidir.

Xorijiy tajribada SI texnologiyalari kichik biznesni raqobatbardosh qilgan. O‘zbekistonda esa raqamli tafovut yuqori. Shu sababli texnologiyalar faqat yirik firmalarga emas, hududiy va mikrobizneslarga ham moslashtirilishi, shuningdek, raqamli savodxonlikning past darajasi tufayli biznes egalari SI imkoniyatlarini tushunishi va undan samarali foydalanishi lozim.

Xorijda keng targ‘ibot ishlari olib boriladi. O‘zbekistonda esa bu borada ko‘rgazmalar, seminarlar, treninglar va media-kampaniyalar orqali raqamli savodxonlikni oshirish zarur. Xavfsizlik va maxfiylik muammolari bo‘yicha SI bilan bog‘liq ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlash ham muhimdir. Xorijiy tajribada (masalan, Yevropa Ittifoqida) SI etikasi va ma’lumotlar himoyasi bo‘yicha aniq qonunlar mavjud. O‘zbekistonda ham ma’lumotlar xavfsizligi va SI etikasi bo‘yicha huquqiy baza ishlab chiqilishi, ekotizimning yetarli darajada shakllanishi zarur.

Singapurda SI texnologiyalarini joriy etish “startap–universitet–hukumat” hamkorligida amalga oshiriladi. O‘zbekistonda esa bunday ekotizim endi shakllanmoqda. Shu bois, SI startaplari uchun inkubatsiya markazlari, texnoparklar va grant platformalari yaratish zarur.

Bozor hajmi va talablari o‘rtasidagi nomutanosiblik ham muammo bo‘lishi mumkin: yirik davlatlar tajribasida SI yechimlari katta bozor uchun yaratiladi, O‘zbekistonda esa talab nisbatan kichikroq. Shu bois, modullashtirilgan va sektorlarga

ixtisoslashtirilgan SI ilovalari ishlab chiqilishi kerak (savdo, tibbiyot, logistika uchun alohida yechimlar).

Xorijiy tajribalarda SI transformatsiyasi bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. O‘zbekistonda esa bunday reja hali to‘liq ishlab chiqilmagan. Shu sababli, sun’iy intellektni kichik biznesga integratsiya qilish bo‘yicha milliy strategiya ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktyabrdagi PQ-358-son “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi Qarori. https://www.lex.uz/docs/-7158604.

2. Anirudh Koul, Siddha Ganju, Meher Kasam. Practical Deep Learning for Cloud, Mobile, and Edge. O‘Reilly Media 2020. P.400

3. Ankur Patel. Hands-On Machine Learning for Small Business Owners. O‘Reilly Media2022. P.310

4. Clawson T. Artificial Intelligence for Small Business: Harness the Power of Machine Learning and Data. Kogan Page.2020. P224.

5. Chollet F. (2021). Deep Learning with Python (2-nashr). Manning Publications. 504 bet.

6. Daniel R. Whiteson. Machine Learning for Small Business: Practical AI Applications. Routledge 2021. P.268.

7. Das S. (2020). Deep Learning for Business Analytics. Wiley. 352 bet.

8. Jurafsky D., James H. Martin. Speech and Language Processing (3rd Edition – Draft). Pearson Education 2023.

9. Jason D. Brownlee. Natural Language Processing for Business. Machine Learning Mastery2020. P.261.

10. Koul A., Ganju S., & Kasam, M. (2020). Practical Deep Learning for Cloud, Mobile, and Edge. O‘Reilly Media. 400 bet.

11. Lewis N. D. Deep Learning for Business with Python. CreateSpace Independent Publishing 2017. P.366.

12. Lewis Tunstall, Leandro von Werra, Thomas Wolf. Natural Language Processing with Transformers. O‘Reilly Media2022. P.374.

13. Mitchell, T. R. (2021). AI and Deep Learning for SMBs. Springer Briefs in Business Technology. 182 bet.

14. Michael C. Darden. AI-Powered Commerce: How Machine Learning Reshapes Small Retail. Springer 2023.P.289.

15. Sowmya Vajjala, Bodhisattwa Majumder, Anuj Gupta, Practical Natural Language Processing: A Comprehensive Guide to Building Real-World NLP Systems. O‘Reilly Media 2020. P.456.

16. Thomas H. Davenport. The AI Advantage: Machine Learning Applications for Entrepreneurs. MIT Press. 2019. P.256.

17. Statista, 2024; U.S. Small Business Administration (SBA), 2023.

18. Statistics Canada (Canadian Survey on Business Conditions, 2025, Table 33 10 1004 01, p. 45

19. Business Data Lab (2024, Statistics Canada survey, p. 12).
20. ZEW Mannheim/Texniko Bundesministerium (2024, “Use of AI in Companies in Germany”, p. 8.
21. Unlocking Europe’s AI Potential (2025, p. 15):

CHAKANA SAVDODA ONLAYN KO‘RIB, OFLAYN XARID QIL (ROPO) MODELIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI ANIQLASH

Rajapova Gulmira
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar fakulteti
231-Raqamli iqtisodiyot guruhi talabasi

Annotatsiya

Maqolada raqamli texnologiyalarning chakana savdoga ta’siri va ROPO (onlayn ko‘rib, oflayn xarid qilish) modelining ahamiyati tadqiq etilgan. Tadqiqotda xorijiy mamlakatlar tajribasi (Germaniya, Angliya, Polsha va boshqalar) qiyosiy tahlil qilingan hamda O‘zbekiston bozori sharoitida ROPO modelining samarali qo‘llanilishi uchun tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shuningdek, SWOT-tahlil orqali modelning kuchli va zaif jihatlari, imkoniyatlari va tahdidlari aniqlangan.

Kalit so‘zlar: chakana savdo, raqamli texnologiyalar, ROPO modeli, elektron tijorat, omnikanal strategiya, SWOT-tahlil.

Аннотация

В статье рассматривается влияние цифровых технологий на розничную торговлю и значимость модели ROPO (онлайн-просмотр и офлайн-покупка). Проведен сравнительный анализ зарубежного опыта (Германия, Великобритания, Польша и др.), а также дана оценка перспектив применения модели ROPO в условиях узбекского рынка. На основе SWOT-анализа выявлены сильные и слабые стороны, возможности и угрозы данной модели.

Ключевые слова: розничная торговля, цифровые технологии, модель ROPO, электронная коммерция, омниканальная стратегия, SWOT-анализ.

Abstract

The article examines the impact of digital technologies on retail trade and the significance of the ROPO model (Research Online, Purchase Offline). A comparative analysis of international practices (Germany, the UK, Poland, etc.) has been conducted, alongside an assessment of the potential for implementing the ROPO model in the context of Uzbekistan’s retail market. A SWOT analysis was applied to identify the strengths, weaknesses, opportunities, and threats of the model.

Keywords: retail trade, digital technologies, ROPO model, e-commerce, omnichannel strategy, SWOT analysis.

KIRISH

Globallashuv jarayonlari chuqurlashayotgan va milliy iqtisodiyotning raqobatdoshligi o‘sayotgan davrda elektron tijoratning iqtisodiyotda alohida olingan sohasi sifatida rivoj topishi hamda elektron tijorat modellarining qo‘llanishiga doir masalalar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shuni aytish kerakki, axborot-kommunikatsion texnologiyalar biznesni tashkil etish va yuritishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur texnologiyalar ahamiyatining bunday oshib borishi barcha faoliyat turlariga, shu jumladan kichik biznes va tadbirkorlikka ham katta ta’sir ko‘rsatdi. Dunyodagi barcha rivojlangan mamlakatlarda internetdan foydalanish va elektron

biznes rivojlanishida sezilarli o‘zgarishlar yuz berdi. Jahon bozorining zamonaviy rivojlanish yo‘nalishlariga ko‘ra, elektron tijorat sohasida innovatsiyalarning kiritilishi va ularning samarali qo‘llanishi korxonalarda boshqaruv va texnologik jarayonlarning samaradorligini oshirishga zamin yaratib, iqtisodiyotning turli jabhalarida mavjud tovar va xizmatlar bozorlarini kengaytiradi, yangi bozorlar uchun sharoit yaratadi va shu orqali aholi turmush tarzini yaxshilashga xizmat qiladi.

Jahonda elektron chakana savdoni samarali tashkil etish bo‘yicha keng ko‘lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu jumladan, elektron chakana savdo sifatini yanada oshirish maqsadida B2C va C2C modellari hamda shu kabi yangi modellarni joriy etish va samaradorligini oshirish, keskin va murosasiz raqobat mavjud bo‘lgan xalqaro savdo xizmatlari bozorining yangi segmentlariga kirib borish, elektron xizmatlar faoliyati samaradorligini ta’minlash bo‘yicha innovatsion vositalar va zamonaviy talablar, elektron tijoratni boshqarish strategiyasini ishlab chiqish va takomillashtirish tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda elektron tijorat, shu jumladan elektron chakana savdo platformalarini tashkil etish va rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonida elektron tijoratni jadal rivojlantirish, raqamli iqtisodiyotni asosiy “drayver” sifatida yuksaltirish, uning hajmini kamida 2,5 barobarga oshirish chora-tadbirlari 2022–2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilandi.

Bunday vazifalarni samarali amalga oshirish respublikada elektron tijoratni boshqarish mexanizmini takomillashtirish, elektron tijoratni boshqarish samaradorligini baholash metodikasini takomillashtirishga qaratilgan. Shuningdek, O‘zbekistonda iqtisodiyotni raqamlashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan izchil chora-tadbirlar ta’sirida elektron tijorat faoliyati asosiy parametrlar hisoblanib, prognozli ko‘rsatkichlarni ishlab chiqish uchun ilmiy izlanishlarni talab etadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Chakana savdo hajmini oshirishda turli xil modellar yuzasidan xorijiy olimlar tadqiqot olib borganlar. Jumladan, Lewis R. va Dart M. chakana savdoning transformatsiyasi, raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt va mijozlarning real vaqtda ehtiyojlariga moslashish orqali savdoda ustunlikka erishish usullari haqida so‘z yuritadi[1].

P. Underhill (1999) kitobida ROPO modeli haqida bilvosita ta’kidlab o‘tgan, ya’ni xaridorlarning xarid qilish paytidagi xatti-harakatlari, qaror qabul qilish omillari va do‘kon ichidagi muhitning ularning qarorlariga qanday ta’sir ko‘rsatishi haqida psixologik va statistik ma’lumotlarga asoslanadi[2].

Shuningdek, B. R. Berman va J. R. Eva chakana savdoni biznes sifatida strategik yondashuv bilan tahlil qiladi. Unda chakana savdoda pozitsiyalash, brending, mijozlar

[1] Lewis R., Dart M. The new rules of retail: competing in the world’s toughest marketplace. – Macmillan+ ORM, 2025.
[2] Underhill P. Why we buy: The science of shopping--updated and revised for the Internet, the global consumer, and beyond. – Simon and Schuster, 2009.

ehtiyojini tushunish va ular bilan uzoq muddatli aloqalarni o‘rnatish muhimligiga alohida e’tibor qaratadi[1].

Chakana savdoda ROPO modeli haqida o‘zbek olimlari ham ilmiy izlanish olib borganlar. Jumladan, B. J. Safarov (2022) maqolasida chakana savdoning rivojlanish dinamikasi statistik tahlil qilingan. Global chakana savdoni rivojlanish indeksi (Global Retail Trade Development Index) asosida yuqori reytingga ega davlatlar uchun asosiy strategik yo‘nalishlar aniqlangan. Shuningdek, O‘zbekiston chakana savdo holatining SWOT-tahlili o‘tkazilgan va chakana savdoni rivojlantirishda Omnichannel, ROPO va SHOP-IN-SHOP strategiyalaridan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar berilgan[2].

Shuningdek, Sh. O‘. Tashmatov maqolasida elektron tijorat xizmatlari va iste’molchilar xarid xatti-harakatlarini o‘rganishda ROPO modelining dolzarbligi haqida ta’kidlagan.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, chakana savdoda samaradorlikka erishishning asosiy yo‘li — raqamli texnologiyalar, innovatsion modellar va mijozlarga yo‘naltirilgan kompleks strategiyalarni qo‘llashdan iboratdir. Shu orqali savdo hajmini oshirish, mijozlar bilan uzoq muddatli munosabatlarni mustahkamlash va raqobatbardoshlikni ta’minlash mumkin.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda chakana savdoda ROPO (Research Online – Purchase Offline) modelining ahamiyati va uning milliy bozor sharoitida qo‘llanilish imkoniyatlari o‘rganildi. Metodologiya quyidagi bosqichlardan iborat:

Adabiyotlar tahlili – xorijiy va mahalliy olimlar tadqiqotlari qiyosiy tahlil qilindi. Bu orqali ROPO modelining nazariy asoslari va amaliyotda qo‘llanish samaralari o‘rganildi.

Statistik tahlil – COVID-19 pandemiyasi davrida raqamli texnologiyalar ta’siri, O‘zbekistonda internet foydalanuvchilar ulushi va elektron tijorat o‘sishi haqidagi statistik ma’lumotlar tahlil qilindi.

SWOT-tahlil usuli – ROPO modelining kuchli va zaif jihatlari, imkoniyatlari va tahdidlari baholandi. Bu orqali milliy bozordagi strategik ustunlik va cheklovlar aniqlandi.

Qiyosiy tahlil – Polsha, Germaniya, Angliya va boshqa Yevropa mamlakatlaridagi ROPO tajribalari O‘zbekiston sharoiti bilan qiyoslab o‘rganildi.

Amaliyotni baholash – O‘zbekistondagi yirik chakana savdo tarmoqlarida raqamli katalog va omnikanal xizmatlarning samaradorligi tahlil qilindi. ROPO modelini milliy bozorda joriy etish orqali chakana savdo hajmini oshirish va mijozlar bilan aloqani mustahkamlash imkoniyatlari asoslab berildi.

[1] R.Lewis, M.Dart (2014), “The New Rules of Retail: Competing in the World’s Toughest Marketplace”, 2nd edition, St. Martin’s Press, New York, USA; P.Underhill (2008) "Why We Buy: The Science of Shopping”, Simon & Schuster, New York, USA; B.R.Berman, J.R.Evans (2012) "Retail Management: A Strategic Approach", 12th Edition, Pearson Education, Upper Saddle River, New Jersey, USA.

[2] B.J.Safarov TDIU Marketing kafedrasi tadqiqotchisi, (2022) “Development Of Retail Trade in Uzbekistan”, “Texas Journal of Multidisciplinary Studies” nashriyoti; Sh.O‘.Tashmatov Samarqand Iqtisodiyot va Servis Instituti, katta o‘qituvchi, (2022) “Marketing Research E-Commerce Services: Case-Study of Samarkand Region” (Samarqand viloyati tahlil qilinadi), “Middle European Scientific Bulletin” nashriyoti.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xalqaro bozorda raqamli texnologiyalarni savdo sohasiga tatbiq qilish sotuvlar hajmini oshiradi. Bunga misol qilib, 2020-yilgi COVID-19 pandemiyasini aytish mumkin: aholining katta qismida raqamli texnologiyalarga bo‘lgan talab oshdi va bu savdo hamda xizmatlar sohasiga bevosita ta’sir ko‘rsatdi. Statistikalarga ko‘ra, 2019-yilda O‘zbekiston bo‘yicha internet foydalanuvchilari 70,4% ni tashkil qilgan bo‘lsa, 2021-yilga kelib, bu ko‘rsatkich 76,6% ga oshdi[1]. Shu munosabat bilan elektron tijoratga bo‘lgan talab oshdi va mazkur yil yakuniga qadar o‘rtacha yillik o‘sish 18,7% ni tashkil qilishi kutilmoqda. Hozirgi kunda odamlar eng ko‘p sotib olayotgan mahsulotlar tarkibi quyidagicha: 31% elektronika, 28,6% moda mahsulotlari, 17,2% mebellar, 7,1% go‘zallik, salomatlik va parvarish mahsulotlari, qolgan 6,5% esa o‘yinchoqlar hamda ta’mirlash va qurilish mahsulotlarini tashkil etadi[2].

Elektron tijoratda chakana savdo muhim o‘rinni egallaydi. Shuningdek, chakana savdo hajmining oshishi elektron tijorat hajmiga ham bevosita ta’sir qiladi. Bunda ROPO (onlayn ko‘rib, oflayn xarid qil) modeli asosiy rol o‘ynaydi. ROPO modelini quyidagicha tasniflash mumkin: iste’molchilar mahsulotlarni ijtimoiy tarmoq platformalari yoki vebsaytlar orqali tanishib chiqadi va undan keyin savdo markazlariga borib sotib oladi. Ushbu model ikkita bosqichdan iborat: onlayn ko‘rish hamda oflayn xarid bosqichlari.

Onlayn ko‘rish bosqichi xaridorga narxlarni taqqoslash, sharh va reytinglarni kuzatish hamda mahsulotlar xususiyatlarini o‘rganish imkoniyatlarini beradi. Oflayn xarid bosqichi esa mahsulotni jonli ko‘rib, tekshirib olish imkonini beradi; iste’molchilar an’anaviy do‘konlarga borib mahsulotni sotib oladi. Misol tariqasida, xaridor Texnomart.uz yoki Mediapark.uz saytida smartfonlar narxini taqqoslaydi, sharhlarni o‘qiydi va keyin do‘konga borib uni qo‘lida ushlab ko‘rib sotib oladi.

Ko‘plab iste’molchilar onlayn buyurtma berishdan ko‘ra mahsulotni real ko‘rishni afzal ko‘radi, bu esa modelning ta’sirini yaqqol namoyon qiladi. Shu bilan birga, chakana savdo egalari mahsulotni yetkazib berish uchun qo‘shimcha mablag‘ sarflashmaydi.

Hozirda ko‘pgina brendlar ROPO effektidan to‘liq foydalanish uchun omnichannel savdo strategiyasini qabul qilmoqda. Taniqli brendlardan biri, Apple kompaniyasi, mijozlarga do‘konga borishdan oldin mahsulotlarni qidirish va zaxiralash imkonini beradi. Shuningdek, IKEA ham mijozlariga mahsulotlarni onlayn ko‘rish, savdo joylarida sinovdan o‘tkazish va xaridni amalga oshirish imkoniyatini taklif qiladi (1-rasm)[3].

[1] https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC8437806/
[2] https://fred.stlouisfed.org/series/ITNETUSERP2UZB
[3] https://pricer24.com/blog/ropo-effect/?utm_source



1-rasm. Polshaning tovar va xizmatlar bozorida ROPO ta'siri[1]

1-rasm Polsha davlatining tovar bozoridagi mahsulotlar kategoriyasiga nisbatan ROPO modelining ta'sirini aks ettiradi. Bunda maishiy texnika va elektronika hamda qurilish materiallari katta ulushni (40%) tashkil etadi. Keyingi o'rinlarni farmatsevtika va poyabzal bozorlari egallab, ketma-ket 38% va 37% ni ko'rsatadi. Ushbu raqamlar Polshada iste'molchilarning xarid qilishdagi xulq-atvori o'zgarayotganini bildiradi. Ya'ni, xaridorlar xarid jarayonida raqamli ma'lumotlarga asoslangan holda ongli qarorlar qabul qilmoqda, ayniqsa yuqori qiymatli yoki texnik jihatdan murakkab mahsulotlar uchun ROPO effekti kuchliroq kuzatiladi. Bu tendensiya chakana savdo sohasida omnichannel strategiyalar va raqamli marketing ahamiyatining oshib borayotganini tasdiqlaydi (1-jadval).

1-jadval

Chakana savdoning ROPO modeli bo'yicha SWOT tahlili[2]

Kuchli tomonlari	**Zaif tomonlari**
Mijozlar mahsulot haqida ko'proq aniq ma'lumotga ega bo'ladi; Mahsulotni ko'rib, sinab ko'rib, keyin xarid qilish imkoniyati; Brendlar uchun onlayn va oflayn savdoni birlashtirish imkoniyati.	Onlayn marketing xarajatlari ortadi; Do'konlar uchun ombor va vitrina xarajatlari saqlanib qoladi; Ba'zi xaridorlar boshqa onlayn saytlardan arzonroq narxda xarid qilishlari mumkin.
Imkoniyatlari	**Tahdidlari**
Ommaviy raqamli marketing va reklama imkoniyatlari; Mobil ilovalar va geolokatsiya orqali mijozlarni do'konlarga jalb qilish; Brendlar uchun omnichannel (ko'p kanalli) strategiyalarni rivojlantirish.	Raqobatning kuchayishi va narxlarni pasaytirishga majbur bo'lish; Onlayn savdo to'liq ustunlik qilsa, ROPO modeli zaiflashishi mumkin; Mijozlar uchun yetkazib berish va onlayn qulayliklar raqobatni o'zgartirishi mumkin.

[1] https://www.trade.gov.pl/en/news/e-commerce-in-poland/?utm_source
[2] Muallif ishlanmasi

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ham chakana savdo sohasida innovatsion o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ular quyidagilardan iborat:

- yirik chakana savdo do‘konlarida doimiy mijozlar sonini ko‘paytirish uchun diskont (chegirmali) kartalardan foydalanishni kengaytirish;
- xizmat ko‘rsatish usullari va mijozlarni jalb qilishda raqamli texnologiyalardan foydalanish;
- savdo korxonalari tomonidan nooziq-ovqat mahsulotlari uchun davriy to‘lov shakllarini ko‘paytirish;
- marketing yangiliklaridan faol foydalanish, xususan reklama va ijtimoiy tarmoqlarning yangi kanallari;
- QR-kodni skanerlash tizimlaridan foydalanishni kengaytirish va boshqa ilg‘or usullar.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Global va milliy bozorlarda globallashuv va integratsiya jarayonlari, shuningdek raqobatning kuchayishi chakana savdoda innovatsiyalarni faol joriy etishni rag‘batlantiradi. Iqtisodchilarning fikrlariga asoslanib, kelajakda chakana savdoning asosiy rivojlanish tendensiyasi iste’molchilarga yo‘naltirilgan zamonaviy boshqaruv modellarini joriy etishni talab qiladi.

Chakana savdoda xorijiy mamlakatlarda qo‘llaniladigan ROPO usuli juda samarali hisoblanadi. Uning asosiy xususiyati mahsulotni onlayn o‘rganish va uni oflayn rejimda sotib olishdan iborat. Google tadqiqotlariga ko‘ra, Yevropa mamlakatlarida onlayn do‘konlarning dastlabki qidiruvidan so‘ng, oflayn xaridlarni amalga oshiradigan xaridorlarning taxminan 37% ini tashkil qiladi. Xususan, oflayn savdo Germaniyada 61%, Angliyada 36% va Gollandiyada 8% ni tashkil etdi.

Mamlakatimizning eng yirik savdo tarmoqlaridan biri bo‘lgan Korzinka o‘zining elektron katalogi korzinka.uz ni doimiy ravishda yangilab turadigan tizimni ishga tushirdi. Shu bois, barcha chakana savdo tarmoqlarida ROPO tizimlarini ishga tushirish orqali korxonalarda sotuv hajmini oshirish uchun ko‘plab imkoniyatlar mavjud.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar PF-60-sonli «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni https://lex.uz/ru/docs/-5841063

2. R.Lewis, M.Dart (2014), “The New Rules of Retail: Competing in the World’s Toughest Marketplace”, 2nd edition, St. Martin’s Press, New York, USA; P.Underhill (2008) "Why We Buy: The Science of Shopping”, Simon & Schuster, New York, USA; B.R.Berman, J.R.Evans (2012) "Retail Management: A Strategic Approach", 12th Edition, Pearson Education, Upper Saddle River, New Jersey, USA.

3. B.J.Safarov TDIU Marketing kafedrasi tadqiqotchisi, (2022) “Development Of Retail Trade in Uzbekistan”, “Texas Journal of Multidisciplinary Studies” nashriyoti.

4. Sh.O‘.Tashmatov Samarqand Iqtisodiyot va Servis Instituti, katta o‘qituvchi, (2022) “Marketing Research E-Commerce Services: Case-Study of Samarkand

Region” (Samarqand viloyati tahlil qilinadi), “Middle European Scientific Bulletin” nashriyoti.

5. https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC8437806/
6. https://fred.stlouisfed.org/series/ITNETUSERP2UZB
7. https://pricer24.com/blog/ropo-effect/?utm_source
8. https://www.trade.gov.pl/en/news/e-commerce-in-poland/?utm_source

TRANSPORT-LOGISTIKA TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA IQTISODIY MEXANIZMLARNING ROLI VA SAMARADORLIGI

Agzamova Marguba Mirabdullayevna
Toshkent davlat transport universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya

Maqolada transport-logistika tizimini rivojlantirishda iqtisodiy mexanizmlarning samaradorligi tahlil etilgan. Logistika samaradorligi indeksi (LPI) ko‘rsatkichlari asosida tizimning rivojlanish holati baholangan. Raqamli texnologiyalar va modellashtirish usullarining qo‘llanishi orqali tizim samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar aniqlangan. Hududiy va tashqi omillar baholangan hamda xalqaro tajribalarga tayangan holda milliy sharoitga mos takliflar ishlab chiqilgan. Olingan natijalar asosida takomillashtirish yo‘nalishlari asoslab berilgan. Ular transport-logistika tizimining barqaror rivojlanishini ta’minlashda nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: transport-logistika tizimi, iqtisodiy mexanizm, samaradorlik, LPI, modellashtirish, investitsiya, infratuzilma, raqamli texnologiyalar.

Аннотация

В статье проведён анализ эффективности экономических механизмов в развитии транспортно-логистической системы. Оценка состояния системы была осуществлена на основе показателей LPI. Определено значение цифровых технологий и методов моделирования в повышении эффективности логистических процессов. Изучено влияние региональных и внешних факторов. На основе международного опыта были разработаны предложения, адаптированные к национальным условиям. Выводы исследования могут служить теоретической и практической основой для обеспечения устойчивого развития транспортно-логистической системы.

Ключевые слова: транспортно-логистическая система, экономический механизм, эффективность, LPI, моделирование, инвестиции, инфраструктура, цифровые технологии.

Abstract

This article analyzes the effectiveness of economic mechanisms in the development of the transport and logistics system. The system’s condition was assessed based on LPI indicators. The importance of digital technologies and modeling methods in improving efficiency was identified. The influence of regional and external factors was examined. Based on international experience, proposals adapted to national conditions were developed. The findings may serve as a theoretical and practical basis for ensuring the sustainable development of the transport and logistics sector.

Keywords:transport and logistics system, economic mechanism, efficiency, LPI, modeling, investment, infrastructure, digital technologies.

KIRISH

Transport-logistika tizimi har qanday mamlakat iqtisodiyotining harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. U milliy ishlab chiqarish samaradorligini

oshirish, tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish va hududlararo integratsiyani chuqurlashtirishda strategik ahamiyat kasb etadi. Yirik global bozorlarga chiqish, import-eksport oqimlarini muvofiqlashtirish va tovar aylanmasini barqarorlashtirishda samarali transport-logistika tizimi hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekistonning geografik joylashuvi uni mintaqaviy va transkontinental logistika markaziga aylantirish imkoniyatini taqdim etadi. Bu salohiyatdan to‘liq foydalanish esa bevosita iqtisodiy mexanizmlarning qay darajada puxta va moslashuvchan tashkil etilganligiga bog‘liq. Ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar — infratuzilmani modernizatsiya qilish, yangi transport yo‘nalishlarini rivojlantirish, raqamli boshqaruv texnologiyalarini joriy etish kabi tashabbuslar — tizim samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Tadqiqotning dolzarbligi aynan ushbu o‘zgarishlarning chuqur iqtisodiy tahlilini berish, mavjud mexanizmlarning samaradorligini baholash hamda zamonaviy yondashuvlarni asoslab berish zaruratidan kelib chiqadi. Transport-logistika tizimidagi iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish orqali nafaqat sohadagi resurslardan oqilona foydalanish, balki umumiy iqtisodiy barqarorlikka erishish mumkinligi tahlillar orqali o‘z tasdig‘ini topmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Transport-logistika tizimini takomillashtirishga doir ilmiy qarashlar, metodologik asoslar va amaliy yondashuvlar turli xalqaro tadqiqotlarda chuqur yoritilgan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tizimning iqtisodiy samaradorligini ta’minlashda adaptiv boshqaruv va zamonaviy iqtisodiy mexanizmlar asosiy rol o‘ynaydi. Jumladan, transport-logistika xavfsizligini barqarorlashtirishda tahdidlarni oldindan aniqlash va ularga tezkor chora ko‘rish zarurligi ta’kidlangan [1].

Mavjud mexanizmlar tahlilida ularning qisqa muddatli samaradorlikni ta’minlay olishi e’tirof etilgan bo‘lsa-da, uzoq muddatli barqarorlikni kafolatlay olmasligi aniqlangan [3]. Ayniqsa, moliyaviy resurslarning noto‘g‘ri taqsimlanishi, innovatsion mexanizmlarning cheklanganligi hamda tashkilotlararo muvofiqlikning yetishmasligi tizim samaradorligini pasaytirayotgan asosiy omillardan biri sifatida ko‘rsatiladi [4].

Hududiy tahlillar esa transport-logistika tizimining infratuzilma jihatdan notekis rivojlanayotganini ko‘rsatadi. Bu holat, ayniqsa, tranzit salohiyatga ega davlatlarda umumiy samaradorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi [2],[8]. Logistika infratuzilmasining hududiy nomutanosibligi resurslardan foydalanishning samarasizligiga olib kelmoqda.

Raqamli texnologiyalar integratsiyasi masalasida olib borilgan tadqiqotlarda markazlashtirilgan ma’lumotlar oqimi, real vaqtli monitoring va avtomatlashtirilgan tizimlarning joriy etilishi logistika jarayonlarining samaradorligini oshirayotgani qayd etilgan [9][13]. Biroq, bu texnologiyalarni to‘liq va samarali qo‘llash uchun texnik infratuzilma, malakali inson resurslari va standart platformalarning mavjudligi zarurligi ham alohida urg‘u bilan ta’kidlangan.

Xalqaro tajribalardan ma’lum bo‘lishicha, Yevropa Ittifoqi va Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari kabi mintaqalarda logistika muvaffaqiyatining kaliti — davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi aniq rollar, klaster yondashuvlar hamda subsidiya asosidagi mexanizmlar bilan bog‘liq [7],[11]. O‘zbekiston sharoitida esa investitsion muhitning

beqarorligi, tarif siyosatining noaniqligi va xususiy sektor faolligining pastligi rivojlanish salohiyatiga to‘siq bo‘layotgan omillardandir [6].

Logistika tizimini takomillashtirishda model va algoritmik yondashuvlarning roli alohida ajratilgan. Xususan, DEA (Data Envelopment Analysis), regressiya modellar va statistik prognozlash usullari orqali xizmatlar zanjiri samaradorligini baholash imkoniyati mavjud [10][15]. Shu bilan birga, korxonalarda vertikal integratsiyaning mavjudligi strategik boshqaruvni kuchaytirishi va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashi mumkinligi ilmiy asoslangan [12]. Blockchain texnologiyalarining joriy etilishi esa ma’lumotlar xavfsizligi, shaffoflik va monitoring tizimining kuchayishiga xizmat qilmoqda [14].

Eng so‘nggi statistik ma’lumotlar asosida olib borilgan tadqiqotda, 2023-yilda O‘zbekistonda 61,4 million tonna yuk tashilgani, transport xizmatlari eksporti 1,54 milliard AQSh dollariga yetgani, 167 ta yangi yo‘nalish ochilgani va 19 423 km avtomobil yo‘li ta’mirlangan yoki qurilgani qayd etilgan. Bu holatlar mamlakatdagi transport-logistika infratuzilmasining modernizatsiya qilinayotganini, tizimli islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilayotganini ko‘rsatadi [16].

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda transport-logistika tizimini baholashda tizimli yondashuv asosida iqtisodiy, statistik va modellashtirish usullari qo‘llanildi. Dastlab mavjud iqtisodiy mexanizmlarning funksional tahlili olib borildi va ularning samaradorligi amaliy misollar asosida baholandi. Mazkur metod transport-logistika tizimining vaqt bo‘yicha o‘zgaruvchanligini aniqlash hamda istiqbolli yo‘nalishlarni belgilash imkonini berdi. Raqamli infratuzilma, investitsion oqimlar va boshqaruv strategiyalarining o‘zaro ta’siri ilg‘or xalqaro tajribalar bilan solishtirildi. Tanlangan usullar tadqiqot natijalarining ishonchliligi va amaliy foydaliligini oshirishga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘rganilgan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston Respublikasida transport-logistika tizimini rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiy mexanizmlar hali ham yuqori samaradorlik darajasiga erisha olmagan. Buning asosiy sabablari sifatida tizimning ichki tarkibiy muvofiqligi, tashqi iqtisodiy integratsiya darajasi va infratuzilmaning holati aniqlangan. Transport-logistika sohasida iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash uchun adaptiv boshqaruv yondashuvlari zarurligi qayd etilgan bo‘lib, bu yondashuvlar logistika tizimida yuzaga keluvchi xatarlarni oldindan tahlil qilish va ularga moslashtirilgan boshqaruv choralarini qo‘llash imkonini beradi [1].

Amaldagi iqtisodiy mexanizmlar qisqa muddatli samaradorlikni qisman ta’minlagani holda, uzoq muddatli tizimli rivojlanishni barqaror tarzda qo‘llab-quvvatlamayotgani kuzatiladi [3]. Ayniqsa, innovatsion moliyaviy mexanizmlarning joriy etilmasligi, investitsiyalarning noto‘g‘ri taqsimlanishi, resurslardan foydalanishda samaradorlik pastligi va tashkiliy muvofiqlik yetishmasligi tizimda islohotlarning samaradorligini pasaytirgan [4].

Hududiy nuqtai nazardan olib borilgan tahlil natijalariga ko‘ra, transport sektorida boshqaruv va nazorat funksiyalari o‘rtasida uzilishlar mavjudligi aniqlangan. Bu esa resurslardan foydalanishda yo‘qotishlarga olib kelgan [2]. Ayniqsa, O‘zbekiston singari geografik jihatdan tranzit salohiyatga ega davlatlar uchun transport-logistika infratuzilmasining hududlararo nomutanosib rivojlanishi umumiy tizim samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda (1-rasm) [8].



1-rasm. O‘zbekiston Respublikasining 2007–2023-yillardagi LPI indeksidagi o‘zgarishlar[19]

Grafikda O‘zbekistonning LPI ko‘rsatkichi 2007-yildan (2,16) 2010-yilgacha (2,79) ko‘tarilgan. 2012–2016-yillarda pasayish (2,39–2,40) va keyinchalik 2018-yil (2,58) hamda 2023-yil (2,60)da barqarorlashish kuzatilgan. Bu holat transport-logistika tizimida dastlabki islohotlar samarasini, keyinchalik esa ichki tizimli muammolar va infratuzilma cheklovlarini aks ettiradi. So‘nggi yillardagi nisbiy ijobiy siljishlar raqamli transformatsiya, tranzit koridorlar bilan bog‘lanish va logistika xizmatlarining optimallashtirilgani bilan izohlanadi.

Transport-logistika tizimining iqtisodiy barqarorligi zaif bo‘g‘inlarning aniqlanishi va ularni maqsadli rivojlantirish orqali oshirilishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bu jarayonda tizimga moslashtirilgan modellashtirilgan yondashuvlar, statistik prognozlash va iqtisodiy samaradorlikka asoslangan qarorlar hal qiluvchi rol o‘ynaydi [5].

Raqamli texnologiyalarni joriy etish — ayniqsa, ma’lumotlarni markazlashtirish, real vaqtli monitoring va avtomatlashtirilgan jo‘natma nazorati tizimlari — logistika jarayonlarining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda [9]. Biroq, texnik infratuzilma holati, kadrlar salohiyati va standartlashtirilgan platformalarning mavjud emasligi raqamlashtirish jarayonining to‘liq samaradorligini cheklamoqda [13].

Xalqaro tajribalar tahlilida Yevropa Ittifoqi va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining transport-logistika sohasidagi muvaffaqiyati davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi vazifalar aniq taqsimlangan tizimlar, klaster asosidagi boshqaruv va subsidiya mexanizmlari bilan bevosita bog‘liq ekani ko‘rsatilgan [7][11].

O‘zbekistonda esa amaldagi tarif siyosatining noaniqligi, logistika bozorida xususiy sektorning yetarlicha faol emasligi va investitsion muhitning barqaror emasligi transport-logistika tizimining rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda [6]. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun raqamli infratuzilma, moliyaviy rag‘batlantirish hamda islohotlarning institutsional asoslarini mustahkamlash zarur.

Logistika sohasida samaradorlikni oshirish uchun algoritmik tahlil usullari, jumladan, Data Envelopment Analysis (DEA) va regressiya modellashtirish metodlari qo‘llanilishi mumkin. Bu usullar resurslardan foydalanishning optimal yo‘llarini aniqlash, xizmatlar zanjiri samaradorligini baholash va natijalarga asoslangan qarorlar qabul qilishda foydalaniladi [15][10].

Shuningdek, ichki korxonalarda vertikal integratsiya darajasining yuqoriligi strategik rejalashtirishning doimiyligini ta’minlaydi. Bunday integratsiya korxona samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, bu esa iqtisodiy mexanizmlarning funksional barqarorligini oshirish imkonini beradi [12].

Transport-logistika operatsiyalarida ma’lumotlar xavfsizligini va izchil kuzatuvni ta’minlash uchun blockchain texnologiyasidan foydalanish holatlari kengaymoqda. Ushbu texnologiyalar orqali logistika zanjirlarining shaffofligi, ishonchliligi va monitoring samaradorligi oshiriladi [14].

Shuningdek, 2023-yilgi yakuniy transport statistikasi asosida olib borilgan tahlillar O‘zbekistonning tashqi logistika faoliyatidagi muhim o‘sish tendensiyalarini aniqlashga imkon berdi. Jumladan, 61,4 million tonna yuk tashilgan bo‘lib, bu mamlakatning tranzit salohiyati ortayotganidan dalolat beradi. Transport xizmatlari eksporti esa 1,54 milliard AQSh dollariga yetgan [16].

Davlat va xususiy sektor o‘rtasida samarali hamkorlikni ifodalovchi brutto-shartnoma asosidagi 167 ta yangi yo‘nalish ochilgani ham transport sohasidagi islohotlarning real natijalaridan biridir. Kunlik yo‘lovchi oqimi 1,7 barobarga oshgani logistika xizmatlariga bo‘lgan talabning yuqoriligini anglatadi. Raqamli boshqaruv tizimlari, xususan “ASDUM Magnetic” kabi innovatsion yondashuvlar bu o‘zgarishlarni avtomatlashtirish va nazorat qilishda muhim rol o‘ynagan [17].

Bundan tashqari, 2023-yilda 19 423 kilometr avtomobil yo‘li ta’mirlangan yoki yangidan qurilgan. 13,5 trillion so‘mlik infratuzilmaviy investitsiyalar transport-logistika tizimining barqaror ishlashini ta’minlashda hal qiluvchi o‘rinni egallagan [18].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari asosida transport-logistika tizimini samarali boshqarish uchun kompleks yondashuvlar zarurligi yaqqol namoyon bo‘ldi. Amalga oshirilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, iqtisodiy mexanizmlarni faqat moliyaviy yoki tashkiliy choralar bilan takomillashtirish yetarli emas. Tizimning ichki va tashqi muvozanatini ta’minlash, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va infratuzilmani modernizatsiya qilish birgalikda yondashilsa, natijalar yanada barqaror bo‘ladi.

Logistika xizmatlarining samaradorligi raqamli platformalarning joriy etilishi, real vaqtli nazorat tizimlari va ma’lumotlar asosidagi qarorlar qabul qilish amaliyotlari bilan bevosita bog‘liq. Tahlil qilingan LPI ko‘rsatkichlarida kuzatilgan o‘sish tendensiyasi iqtisodiy islohotlarning bosqichma-bosqich ijobiy samara berayotganini ko‘rsatadi. Shuningdek, avtomobil yo‘llari rekonstruksiyasi, xalqaro transport yo‘nalishlari kengaytirilgani, yuk tashish hajmlarining oshgani transport-logistika tizimidagi joriy islohotlarning amaliy samarasidir.

Tahlillar asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Iqtisodiy mexanizmlarni diversifikatsiya qilish — moliyaviy, tarif va subsidiya siyosatini tizimli ravishda uyg‘unlashtirish orqali iqtisodiy barqarorlikka erishish mumkin.

2. Hududiy infratuzilmani uyg‘un rivojlantirish — mintaqalar o‘rtasidagi nomutanosiblikni kamaytirish orqali umumiy transport tizimining samaradorligi ortadi.

3. Innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish — avtomatlashtirilgan monitoring, raqamli logistika platformalari va blokcheyn kabi texnologiyalarni amaliyotga integratsiya qilish orqali xizmatlar sifati va xavfsizligi oshadi.

4. Xususiy sektor ishtirokini rag‘batlantirish — investitsion muhitni yaxshilash va normativ-huquqiy bazani soddalashtirish orqali xususiy tashabbuslarning logistika sohasiga jalb etilishini qo‘llab-quvvatlash kerak.

5. Tizim samaradorligini baholashda ilmiy asoslangan modellarni qo‘llash — DEA, regressiya va prognozlash modellari orqali resurslardan foydalanish darajasini aniqlash va strategik qarorlar asoslash mumkin.

Mazkur takliflar milliy transport-logistika tizimining nafaqat ichki samaradorligini, balki xalqaro logistika tarmoqlaridagi raqobatbardoshligini ham oshirishga xizmat qiladi. Ularni izchil amalga oshirish orqali iqtisodiy xavfsizlik mustahkamlanib, logistika faoliyati yangi bosqichga ko‘tariladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ermoshin, N., Romanchikov, S., & Denisov, A. (2022). Adaptive approach to economic security management of transport and logistics systems. Transportation Research Procedia, 63, 195–202. https://doi.org/10.1016/j.trpro.2022.06.005

2. Jalolova, M., Amirov, L., Askarova, M., & Zakhidov, G. (2022). Territorial features of railway transport control mechanisms. Transportation Research Procedia, 63, 2645–2652. https://doi.org/10.1016/j.trpro.2022.06.305

3. Malikov, N., & Karimova, M. (2022). Formation of economic mechanisms for innovative development of transport and logistics systems. Transportation Research Procedia, 63, 2767–2773. https://doi.org/10.1016/j.trpro.2022.06.319

4. Karimova, M., & Rakhimova, Z. (2022). Improving the organizational and economic mechanism for managing the transport system. Transportation Research Procedia, 63, 1101–1106. https://doi.org/10.1016/j.trpro.2022.06.112

5. Makhmudov, M., & Yusupov, O. (2022). Mechanisms for ensuring economic security of transport-logistics infrastructure. Transportation Research Procedia, 63, 1879–1884. https://doi.org/10.1016/j.trpro.2022.06.210

6. Abdullaev, A., & Mamadaliyev, K. (2022). Improving the efficiency of transport and logistics systems. Transportation Research Procedia, 63, 2796–2800. https://doi.org/10.1016/j.trpro.2022.06.322

7. Slavnetskova, L., Odintsova, T., Alekseeva, O., Goryacheva, I., & Baurova, Y. (2022). Formation of innovative transport and logistics systems as a factor of the EAEU member countries sustainable development. Transportation Research Procedia, 63, 2086–2093. https://doi.org/10.1016/j.trpro.2022.06.233

8. Jalolova, M., Sangirova, U., Yakubov, I., Rahimov, H., & Kholmatova, N. (2022). Economic efficiency of the transport system and logistics in the Republic of Uzbekistan. Transportation Research Procedia, 63, 1061–1066. https://doi.org/10.1016/j.trpro.2022.06.107

9. Baimuratov, B., & Karimov, F. (2023). Digital platforms for the development of innovative transport-logistic systems. DTGS Conference Proceedings. https://cyberleninka.ru/article/n/digital-platforms-for-the-development-of-innovative-transport-logistic-systems

10. Gusev, V. (2021). Modeling efficiency in international logistics chains. Baltic Journal of Economic Studies, 7(3), 117–126. https://www.baltijapublishing.lv/index.php/issue/article/view/1393

11. Puzankova, I., & Ivanova, A. (2021). The logistics system of the region as a factor of economic development. Problems of Economics and Management, 27(24), 143–147. https://cyberleninka.ru/article/n/the-logistics-system-of-the-region-as-a-factor-of-economic-development

12. Kim, Y., & Park, J. (2021). Assessing the effect of integration in logistics service providers. Journal of Business Logistics, 42(1), 12–28. https://doi.org/10.1111/jbl.12262

13. Dong, Y., & Li, H. (2021). Logistics innovation and its impact on firm performance in e-commerce. Journal of Operations Management, 67(2), 101–118. https://www.journals.elsevier.com/journal-of-operations-management

14. Irannezhad, E. (2020). Is blockchain a solution for logistics and freight transportation problems? Transportation Research Procedia, 48, 290–306. https://doi.org/10.1016/j.trpro.2020.08.023

15. Wang, X., & Chen, R. (2023). Efficie ncy evaluation in transport-logistics systems using DEA. E3S Web of Conferences, 380, 04004. https://doi.org/10.1051/e3sconf/202338004004

16. O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi. (2022). Transport sohasida 2023-yil yakunlari bo‘yicha ma’lumotlar. https://gov.uz/oz/mintrans/sections/view/17791

17. O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi. (2023). Transport sohasida 2023-yil yakunlari bo‘yicha ma’lumotlar. https://gov.uz/oz/mintrans/sections/view/17791

18. O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi. (2024). Transport sohasida 2023-yil yakunlari bo‘yicha ma’lumotlar. https://gov.uz/oz/mintrans/sections/view/17791

19. World Bank. (2023). Connecting to Compete 2023: Trade Logistics in the Global Economy – The Logistics Performance Index and Its Indicators. Washington, DC: World Bank. https://lpi.worldbank.org

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA ISHLAB CHIQARISHNI AVTOMATLASHTIRISH, ERP VA CRM TIZIMLARINI JORIY ETISH ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISH

Uzakova Umida Ruziyevna
Toshkent davlat transport universiteti
“Korporativ boshqaruv” kafedrasi v.v.b. dotsenti, PhD.

Annotatsiya

Maqolada qurilish materiallari sanoatida raqamli transformatsiya orqali samaradorlikni oshirish tadqiq etilgan. ERP va CRM uyg‘un arxitekturasi, MRP-II asosidagi inventar siyosati hamda BIM 4D/5D integratsiyasi yagona boshqaruv konturi sifatida modellashtirilgan. Aralash metod (nazariy tahlil, holat tadqiqi, vaqt qatori) yordamida Go-Live intervensiyasining oldi-so‘nggi KPIlari baholangan: OTD/DIFOT, sikl vaqti, WIP, Turnover/DIO, OTIF, plan adherence va byudjet–fakt varianslari. Natijalar jarayon–ma’lumot–tashkiliy uyg‘unlik, MDM intizomi va o‘zgarishlarni boshqarish sharoitida sezilarli yaxshilanishlarni ko‘rsatdi. API-first va voqeaga asoslangan integratsiyalar texnik qarzni kamaytirib, ekotizim barqarorligini ta’minlaydi. Taklif etilgan yo‘l xaritasi tez “quick-win”lar bilan amaliy natija beradi.

Kalit so‘zlar: ERP, CRM, MRP-II, BIM 4D/5D, OTD, DIFOT, OTIF, Turnover, DIO, MDM, API-first, event-driven.

Аннотация

В статье исследовано повышение эффективности в промышленности строительных материалов посредством цифровой трансформации. Смоделирована единая система управления, включающая архитектурную интеграцию ERP и CRM, политику запасов на основе MRP-II, а также интеграцию BIM 4D/5D. С помощью смешанного метода (теоретический анализ, кейс-стади, анализ временных рядов) были оценены показатели KPI до и после внедрения Go-Live: OTD/DIFOT, время цикла, WIP, Turnover/DIO, OTIF, соответствие плану и отклонения бюджета-факт. Результаты показали значительные улучшения в условиях согласованности процессов, данных и организационной структуры, соблюдения дисциплины MDM и управления изменениями. Интеграции, основанные на принципах API-first и событийном подходе, снижают технический долг и обеспечивают устойчивость экосистемы. Предложенная дорожная карта дает практический результат с быстрыми «quick-win».

Ключевые слова: ERP, CRM, MRP-II, BIM 4D/5D, OTD, DIFOT, OTIF, Turnover, DIO, MDM, API-first, event-driven.

Abstract

The article explores efficiency improvement in the construction materials industry through digital transformation. A unified management framework was modeled, combining ERP and CRM architectural integration, MRP-II–based inventory policy, and BIM 4D/5D integration. Using a mixed-method approach (theoretical analysis, case study, time series), pre- and post–Go-Live KPIs were assessed: OTD/DIFOT, cycle time, WIP, Turnover/DIO, OTIF, plan adherence, and budget–actual variances.

The results demonstrated significant improvements under conditions of process–data–organizational alignment, MDM discipline, and change management. API-first and event-driven integrations reduce technical debt and ensure ecosystem resilience. The proposed roadmap delivers practical outcomes with fast “quick wins.”

Keywords: ERP, CRM, MRP-II, BIM 4D/5D, OTD, DIFOT, OTIF, Turnover, DIO, MDM, API-first, event-driven.

KIRISH

Qurilish materiallari sanoatida raqobatbardoshlikni oshirishning eng ishonchli yo‘li jarayonlar, ma’lumotlar va tashkilot tuzilmasini yagona raqamli tizimga uyg‘unlashtirishdir. Bunda ERP va CRM platformalari “order-to-cash” hamda “procure-to-pay” oqimlarini birlashtirib, ichki hamkorlikni kuchaytiradi va qaror qabul qilishni tezlashtiradi [3]. Qurilish sohasi ko‘p ishtirokchi va loyihaviy xususiyatga ega bo‘lganligi bois, bunday uyg‘unlikni texnologiyani tanlashdan avval jarayonlarni qayta loyihalash bilan boshlash zarur bo‘ladi [1].

Amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, avtomatlashtirish sikl vaqtlarini qisqartiradi, bekor turishlarni kamaytiradi va xizmat intizomini mustahkamlaydi. Bu jarayonda OTD/DIFOT, rework va throughput kabi ko‘rsatkichlar sezilarli yaxshilanadi [5]. Inventarizatsiya hamda logistika bo‘g‘inida MRP-II talabi va taklifini uyg‘unlashtirib, zaxira aylanishini tezlashtiradi va DIO ko‘rsatkichini pasaytiradi; natija siyosatlar va yetkazib beruvchi intizomi bilan qo‘llab-quvvatlanganda barqaror bo‘ladi [7].

Loyihaviy muhitda BIM ma’lumotlarining ERP xarid-logistika modullari bilan sinxronlashuvi jadval va byudjet intizomiga kuchli ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. 4D/5D va BoQ’dan kelib chiqqan xarid rejalari maydondagi kechikishlar va qayta keltirishlarni kamaytiradi [8]. Shu bilan birga, menejment hisobi ERP asosida byudjet–fakt varianslari, xarajat markazlari va rentabellikni tezkor ko‘rsatib, resurs taqsimotini aniqroq qiladi [3].

Ushbu tadqiqotning maqsadi — raqamli transformatsiya sharoitida avtomatlashtirish, ERP va CRM joriyoti orqali samaradorlikni ilmiy asosda baholash hamda amaliy yo‘l xaritasi taklif etishdir. Buning uchun aralash metoddan foydalanildi: konseptual ramka ishlab chiqildi, so‘ng holat tadqiqi va vaqt qatori tahlillari orqali KPI’lar bo‘yicha “oldin/so‘ng” natijalari o‘lchandi [2]. Ta’minot zanjiri ko‘rsatkichlarida ijobiy ta’sir ayniqsa ma’lumot integratsiyasi kengayganida kuchayishi kutiladi [6]. SME sharoitida esa bosqichma-bosqich joriy etish, pilotlar va “shadow IT”ni bartaraf etish muvaffaqiyat mezoni bo‘lib xizmat qiladi [9].

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, ERP–CRM, MRP-II siyosatlari va BIM–ERP bog‘lanishi yagona boshqaruv konturi sifatida qaraldi; bunda API-first va event-driven integratsiyalar sanoat dasturlari ekotizimida texnik qarzni kamaytirish uchun tamoyil sifatida asoslandi [10]. Ishning amaliy ahamiyati — modul ustuvorligi bo‘yicha yo‘l xaritasi, MDM intizomi va KPI paneli orqali tez “quick-win” natijalarga erishish imkoniyatidir [2].

ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli transformatsiya qurilish sohasida alohida tizimlardan ko‘ra jarayon, ma’lumot va tashkilotning birgalikdagi uyg‘unligini talab qiladi; adabiyotlar bu yondashuvni barqaror samaradorlikning asosiy sharti sifatida ko‘rsatadi [1]. Qurilish materiallari sanoatida esa sanoat dasturiy ta’minoti boshqaruv/operatsiya, dizayn/R&D, ishlab chiqarish nazorati va servis qo‘llab-quvvatlash kabi to‘rtta ustunda rivojlanishi zarur bo‘lib, ERP/CRM shu ekotizimda “yadro platforma” rolini bajaradi [10].

ERP joriyoti bo‘yicha ishlanmalar modullarni bosqichma-bosqich, risk–foyda nisbatiga ko‘ra ustuvorlashtirish muhimligini ko‘rsatadi; odatda inventar–logistika, xarid, moliya va loyiha boshqaruvi ketma-ketligi erta “quick-win”lar yaratib, foydalanuvchi qabulini oshiradi [2]. Shu bilan birga, yiriklashtirilgan metodika bir o‘zi yetarli emas: loyiha homiysi, rollar RACI ga muvofiq aniq taqsimlanishi, trening va UAT kabi o‘zgarishlarni boshqarish amaliyotlari qat’iy yuritilishi lozimligi qayd etiladi [4]. Kichik va o‘rta korxonalar sharoitida esa pilot loyihalar, cheklangan resurslarda bosqichli joriy etish va “shadow IT”ni bartaraf etish strategik ahamiyatga ega [9].

Operatsion darajada ERP jarayonlarni avtomatlashtirishi va real vaqt ko‘rinuvchanligini oshirishi natijasida sikl vaqti, bekor turishlar va qo‘lda kiritish xatolarini kamaytirishi mumkinligi ko‘p holatlarda tasdiqlangan [5]. Boshqaruv darajasida esa ERP menejment hisobini kuchaytirib, byudjet–fakt varianslari, xarajat markazlari va SKU/kanal rentabelligini tezkor tahlil qilishga imkon berishi orqali qarorlar sifatini oshiradi [3]. Bu natijalar “Tahlil va natijalar” bo‘limida keltirilgan OTD/DIFOT yaxshilanishi va cockpitga asoslangan monitoring mantiqi bilan uyg‘un tushadi [5].

Inventarizatsiya hamda logistika adabiyotlarda eng katta tejamkorlik manbalaridan biri sifatida ko‘rsatiladi: MRP-II talab–taklif muvofiqligini yaxshilab, zaxira aylanishini tezlashtiradi va DIOni kamaytiradi. Biroq bu siyosatlar ABC/XYZ segmentatsiyasi, min/max va OTIF intizomi bilan mustahkamlanmasa, ERP hisoblari haqiqatdan uzilib qolishi mumkinligi alohida ta’kidlanadi [7]. Shu bois, ERP metodologiyasidagi ustuvorlik sifatida inventar–logistika va xarid modullarini erta ishga tushirish tavsiya etiladi [2].

Qurilish loyihalarida ma’lumotlar manbai sifatida BIM bilan ERPni bog‘lash logistika va xarajat boshqaruviga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi; 4D/5D (va BoQ) ma’lumotlar xarid va yetkazish oynalarini aniqroq rejalash, maydondagi kechikishlar va qayta keltirishlarni kamaytirishga xizmat qiladi [8]. Bu yirik loyihalarda jadval va byudjet intizomini saqlashga doir “ko‘paytirgich” ta’sirini tushuntirib beradi [8].

8. А.А.Абдумўминов. Саноат корхоналари рақобатбардошлигини баҳолаш усуллари. Tashkent State Transport University.Volume 3. TSTU Conferense 1/2022. 186-194 б.

9. Sala-i Martin (2007) . “The Global Competitiveness Index: Measuring the Productive Potential of Nations”. Global Competitiveness Report 2007-2008. World Economic Forum. p.3-40

10. F. Özgün. Küresel rekabet gücü: Türkiye imalat sanayi örneği.İstanbul 2017. 107 s.

11. IMD, World Competitiveness Yearbook 2014. Institute for Management Development Geneva and Lausanne.

12. Rosselet-McCauley (2008),“Methodolgy and Principles of Analysis”, IMD World Competitiveness Yearbook 2008.

13. UNIDO, (2019). Competitive Industrial Performance Report 2018, UNIDO, Vienna, 1-116.

14. UNIDO (2015).Vienna. Competitive Industrial Performance Report 2014. UNIDO,Vienna.

FOREIGN EXPERIENCE IN ORGANIZING REMOTE BANKING SERVICE

Abduvohidov Abdumalik Mahkamovich
Professor of the Department of Tourism
and Hotel Industry of the Tashkent State
University of Economics
E-mail: abdumalik1957@mail.ru

Abstract

This article discusses one of the important areas of development of the banking sector in modern conditions –the foreign experience of the system of remote customer service for banks is considered. A set of specific services was also analyzed, with the help of which bank customers can carry out various banking operations remotely, and remote banking services in the United States, European countries, and Russia, which are leaders in this direction, were studied.

Keywords: banking sector, remote banking, customer banking, Internet banking, SMS banking, mobile banking.

Annotatsiya

Ushbu maqolada bank sohasining hozirgi sharoitdagi rivojlanish yo‘nalishlaridan biri – mijozlarga masofaviy xizmat ko‘rsatish tizimining xorijiy tajribasi muhokama qilingan. Bank mijozlariga turli moliyaviy operatsiyalarni masofadan turib amalga oshirish imkonini beruvchi ayrim xizmatlar tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu yo‘nalishda yetakchi hisoblangan AQSh, Yevropa mamlakatlari va Rossiyadagi masofaviy bank xizmatlari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: bank sohasi, masofaviy bank xizmatlari, mijozlarga xizmat ko‘rsatish, internet-banking, SMS-banking, mobil banking.

Аннотация

В статье рассматривается одно из актуальных направлений развития банковского сектора в современных условиях — зарубежный опыт систем дистанционного обслуживания клиентов. Проведен анализ отдельных видов услуг, с помощью которых клиенты банков могут выполнять различные банковские операции удаленно. Также изучены дистанционные банковские сервисы в США, странах Европы и России, которые являются лидерами в данной сфере.

Ключевые слова: банковский сектор, дистанционное банковское обслуживание, обслуживание клиентов, интернет-банкинг, SMS-банкинг, мобильный банкинг.

INTRODUCTION

As a result of technological development in the modern digital economy, major positive changes are taking place in the business environment, banking, and financial systems. Using the Internet and mobile technologies in the service market, as well as their implementation, the bank is unprecedented in the history of banking services changes and the development of remote banking services provides additional convenience to customers.

Also, many financial institutions in the banking system of developed countries are increasing the number of services which has emphasized the importance of remote banking, as a result of the banking services of the largest banks around the world various options are available online [1].

In recent years, several measures have been taken in our republic aimed at developing the banking system, especially the widespread introduction of modern IT technologies, accelerating digitalization processes. This is not in vain, because every bank can be a competitor capable not only in the domestic market but also in the external one if it works based on modern technologies.

In the context of today's pandemic, the quality and speed of remote banking services on a global scale, as well as in our country, is becoming more important than ever. After all, their increase in service processes is directly related to the quality of remote service. This, in turn, means improving the existing infrastructure, identifying problems in this regard, removing special attention to the quality of training, setting the task of studying foreign experience, and introducing the necessary into the banking sector of our country.

LITERATURE REVIEW

Several economists have given their definitions of the digital transformation of commercial banks. In particular, according to Ablyazov T., and Asaul V. [2], the process of digital transformation means the use of digital technologies for improving existing business models, and to improve operational efficiency. This process involves the constant introduction of innovative technologies, which will lead to a complete digital transformation of the entire economy.

Russian economist Vadim Arkadyevich Koshcheev [3] financial sector digital transformation in terms of developing a new working environment and improving the practices of conducting regulatory business is considered to be under study.

Well-known Uzbek economist, Professor N. Kh. Dzhumaev, “In the digital economy, cost reduction is achieved with the help of IT, resulting in optimization and efficiency increase. Modern scientific approaches and innovations will be important and a priority in the digital economy. It emphasizes that industries with high scientific potential will prosper [4].”

According to economist O. Alikoriev, remote banking is based on a banking client and Internet systems, according to traditional banking methods of customer service, a client can use his account and make transactions from anywhere, using the service 24 hours a day, seven days a week.

Transactions have the advantage of immediate execution and confirmation [5]. According to researcher Z. T. Mamadiorov, remote banking means that the services offered by banks to their customers are performed remotely using the capabilities of modern banking technologies, and not in person at the bank. Our research shows that the development of remote banking services in the banking system is associated, firstly, with changes in people's lives, the introduction of new information technologies, and secondly, with the automation of banking operations [6].

According to D. Miroshkinov, remote banking is important for saving time and money for bank customers, remote banking is a service system that does not generate direct income, it generates income and acts as an auxiliary source [7].

Also, According to Z.T Mamadiorov, in the process of transformation of banks in the world, due to the increase in the provision of banking services based on the capabilities of remote mobile communication devices, the Internet, and other banking technologies, today's banking technologies and banking of the future, the directions of technology development are analyzed. As a consequence, remote banking, digital technologies, virtual payment, biometric technologies, blockchain technology, and artificial intelligence are of practical importance for the development of remote banking in the banking system of Uzbekistan, technological application processes are based [8].

Financial development of the digital economy A.A. Azlarov's role in the service sector is analyzed from a theoretical point of view. In particular, the legal framework and practical processes for accelerating the transformation of banks in Uzbekistan have been studied [9].

METHODOLOGY

Although we agree with the above points, the development of digital transformation in the banking sector of foreign countries, that new communication technologies will lead to the convergence of communication and settlement, in particular, the popularization of mobile banking, due to its safe, reliable and easily customizable user interface.

Due to the increase in the number of mobile phones and mobile Internet users, today it is necessary to study practical experience and improve the strategy for the development of mobile technologies and the development of mobile banking.

ANALYSIS AND RESULTS

Remote banking is sometimes called electronic banking, including Internet banking, mobile banking, WAP banking, SMS, etc. Let's take a closer look at each direction and highlight its features.

Remote Service Channels. Service delivery channels are called the first criterion for differentiating remote banking systems. The technological and functional characteristics of each channel are indicated here. Banks have the following types of channels for the provision of remote services:

- by phone;
- through the Internet;
- special self-service devices.

Telephone banking. First of all, telephone communication appeared, and this was a very common channel before the advent of modern technologies for the development of the Internet. Customers could get any information about the account, as well as product recommendations, simply by calling the bank. A similar mechanism has survived today, although it was greatly reduced by the introduction of the Internet communication channel because it was too expensive. Banks maintained a large staff

of call center staff to provide their services over the phone, but they were not charged a commission, which created significant costs for their operations.

Payment and information terminals and ATMs. As another channel for the provision of remote banking services, experts single out self-service mechanisms, such as payment terminals, ATMs, etc. In the early stages of development, this type of RBS required high investments from the bank, the production and purchase of appropriate equipment, the creation of a technical base for use, the development of the entire infrastructure, and the development of logistics for the assembly of such devices. Nevertheless, ATMs have appeared everywhere, and today large banks have extensive networks of these machines for the convenience of their customers. The list of services provided is also expanding, the safety of use is being increased, and much more. The most important advantage over remote banking systems is that ATMs allow the client to provide the necessary cash.

Internet banking. Today, the Internet is one of the most promising and rapidly developing channels for providing banking services. The development of various information technologies has allowed banks to provide their customers not only with information and consulting services but also with active operations, such as a large number of customer inquiries, payments, and money transfers. They are generated via a client PC or mobile phone with Internet access.

"Client-Bank". The possibility of providing remote banking services through a personal computer is called "Client-Bank". Often the bank helps its customers to install and use such systems that the bank has. raises the level of service. Usually, this system is divided into two types:

- *Classic Bank-client*, in which a special program is installed on the personal computer of the bank client. With it, all information about the client is stored on the computer: payment orders, account statements, etc.
- *Internet client* - interaction with the bank directly via the Internet through a browser. In this case, all information about the user's actions is stored on the bank's servers.

Remote banking service in the countries of the world. For the first time, remote banking appeared in the United States of America, which is quite right, the banking system of this country was one of the first, and today it is the largest and most reliable in the world.

Another reason for the emergence and development of Internet banking in America is the restriction that existed in the mid-1990s of the last century on opening branches of one's banks. So, in 1995, the first bank was opened that provides its services via the Internet - Security First network bank.

In remote banking, the United States is the leading country in the world today. This is served by the development of all areas of information technology. Today, almost every second family in the US has a computer, not to mention a telephone.

At the moment, almost 90% of US banks serve their customers remotely. They offer a wide range of services, including currency exchange, lending, the ability to open

and insure deposits, control the movement of funds on accounts, and participate in exchange trading.

The main feature of remote banking systems in the United States is that the client receives most of the services provided free of charge, and only for some of them the bank receives a very small commission. American banks also pride themselves on having one of the most secure security systems available when using internet banking.

After America, remote banking services spread to Europe. Most of the types of transactions presented and the remote banking system itself were similar to the American model, however, some innovations introduced by European Internet banking should be noted. Now you can pay utility bills and other obligatory services, as well as plan your financial expenses.

The main trends in the development of remote banking services in Europe to reduce costs and increase the speed of providing services are:

- implementation of multi-channel strategies for servicing individuals; outsourcing of remote customer service systems;
- joint remote service systems by different banks
- Create; improving the quality of services and their safety;
- comprehensive provision of services by increasing the types of services available.

Remote banking in modern Russia. Compared to the US and Europe, the development of remote banking services in Russia lags far behind. There are objective reasons for this, for example, do not forget that these systems appeared in Russia relatively recently and show good growth rates.

Analytical agency Markswebb Rank&Report presented the results of a study conducted among users of remote banking systems in 2021. The study was based on a survey of more than three thousand Russians, which was then attributed to the total population of the country [10]:

- 41.6 million Russians make at least one active transaction on the Internet every month;
- 39.4 million active users of mobile and SMS banking;
- Internet banking is used by 35.4 million people, of which 70 percent are Sberbank Online clients;
- 29 million people pay with a bank card on the Internet
- increases;
- 17.5 million owners of electronic wallets.

Not all indicators are shown here, but the trend is clear. People in Russia want to further develop remote banking systems, and they are ready for this. They introduce modern technologies, increase their economic literacy and increase the level of trust in banks, which is very useful for conducting any financial transactions remotely.

CONCLUSIONS AND SUGGESTIONS

It should be noted that information flows rapidly in the world and effectively use the experience of developed countries and the opinions of foreign and domestic scientists to improve remote banking services.

The Bank of Uzbekistan was the first to develop remote banking services, it is necessary to identify problems in the development of these services in the system and take measures to eliminate them. In the future, the banking system will become more Digital banking innovations for development, automatic informing analysis, and the need to improve remote service systems will be done.

In particular, the Development Strategy of the Republic of Uzbekistan until 2035 in the concept of development of the payment system of Uzbekistan for two periods divided the first period until 2020 and in it, the creation of applications that provide banking services, a single payment for customers connected to the platform, customer support on this payment platform creation of a service, introduction of a card reader and mobile POS-terminals into the payment system tasks such as execution, carrying out R2R calculations are defined. The second period included the period up to 2025 and in it the accounting of goods and sales portal, transaction management system, cryptographic mobile banking identity cards, various services for digital banking platforms integration, implementation of B2B, B2C fast transfers, open programs software interface, remote identification in banking, artificial banking products based on intelligence and automated machine learning and provides for the creation of opportunities for the provision of services.

Traditional banking services are being replaced by digital banking in Uzbekistan mobile in the country's payment system in terms of types of services development of a technological payment system and digital banks are of great importance. As a result, bank customers visit banks reduction, the ability to carry out remote banking services, banking leads to cost reduction, and branch transformation will come.

REFERENCES

1. Z.T. Mamadiyarov. Evolutionary development of remote banking services in the digital economy: comments and analysis // Scientific electronic journal "Economics and innovative technologies". No. 3, May June 2020 9-17 p.

2. Ablyazov T., Asaul V. On the competitive potential of the organization in the conditions Formation of a new production base // SHS Web of conferences. 2018. Vol. 44.00003.

3. Koshcheev V.A., Tsvetkov Yu.A. Digital transformation of the banking sector.

4. https://cyberleninka.ru/article/n/tifrovaya-transformatsiya-bankovskogo-sektora

5. https://review.uz/oz/post/daqamli-iktisodiyot-mamlakatimiz-taraqqiyoti bail

6. Alikoriev O. Types of financial services in commercial banks Dissertation on development trends. Tashkent 2011 55-56 rubles

7. Mamadiyarov Z.T. Analysis of factors influencing the use of remote banking services in commercial banks // Scientific journal "Economics and Education". - Tashkent, 2019. - No. 1, January-February. -71-77 p.

8. https://bankir.ru/avtori/1659981/ Dmitry Miroshkinov is a manager at Banking Soft Business.

9. Z.T. Mamadiyarov. Evolutionary development of remote banking services in the digital economy: comments and analysis // Scientific electronic journal "Economics and innovative technologies". No. 3, May June 2020 9-17 p.

10. A.A. Azlarova. The impact of the development of the digital economy in Uzbekistan on the market of banking financial services // Scientific electronic journal "Economics and innovative technologies". No. 2, March-April 2021

11. Analytical agency MarksWebb Rank & Report: Official site [Electronic resource] - Electronic data - http://markswebb.ru/ .

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY-IJTIMOIY OQIBATLARI TAHLILI

Xatamov Nurbek Ochildiyevich
O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi dotsenti

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni joriy etish va uni rivojlantirish jarayonlarining iqtisodiy hamda ijtimoiy oqibatlari tahlil qilingan. Davlat tomonidan qabul qilingan raqamlashtirish strategiyalari, elektron hukumat, raqamli xizmatlar va biznes jarayonlarini avtomatlashtirish bo‘yicha tashabbuslar asosida yuzaga kelayotgan o‘zgarishlar ko‘rib chiqilgan. Maqolada raqamli texnologiyalar qo‘llanilishi natijasida mehnat bozoridagi transformatsiyalar, ish o‘rinlari dinamikasi, aholi bandligi va ta’lim tizimiga ta’siri, shuningdek, biznes muhitidagi samaradorlik ko‘rsatkichlaridagi o‘zgarishlar tahlil qilingan. Raqamli iqtisodiyotning ijobiy va salohiyatli salbiy oqibatlari muvozanatli yondashuv asosida ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, maqolada raqamli notenglik, raqamli bilimlar darajasi, mintaqaviy farqlar va axborot xavfsizligi bilan bog‘liq muammolarga alohida e’tibor qaratilgan. Muallif tomonidan raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda barqaror o‘sishni ta’minlashga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, ijtimoiy oqibatlar, iqtisodiy tahlil, raqamlashtirish, raqamli transformatsiya, O‘zbekiston, mehnat bozori, raqamli notenglik.

Аннотация

В данной статье анализируются экономические и социальные последствия внедрения и развития цифровой экономики в Республике Узбекистан. Рассматриваются изменения, возникающие в результате государственных стратегий цифровизации, электронного правительства, цифровых услуг и инициатив по автоматизации бизнес-процессов. В статье оценивается влияние цифровых технологий на трансформацию рынка труда, динамику рабочих мест, занятость населения и систему образования, а также изменения в показателях эффективности бизнеса. Положительные и потенциально негативные последствия цифровой экономики представлены в сбалансированном виде. Особое внимание уделено вопросам цифрового неравенства, уровню цифровой грамотности, региональным различиям и информационной безопасности. Автор предлагает рекомендации, направленные на обеспечение устойчивого роста при развитии цифровой экономики.

Ключевые слова: цифровая экономика, социальные последствия, экономический анализ, цифровизация, цифровая трансформация, Узбекистан, рынок труда, цифровое неравенство.

Abstract

This article analyzes the economic and social consequences of implementing and developing the digital economy in the Republic of Uzbekistan. Changes arising from

state-adopted digitization strategies, e-government, digital services, and initiatives to automate business processes are examined. The article evaluates the impact of digital technologies on labor market transformations, job dynamics, employment, and the education system, as well as changes in business efficiency indicators. Both positive and potentially negative effects of the digital economy are presented in a balanced manner. Special attention is given to issues related to digital inequality, levels of digital literacy, regional disparities, and information security. The author proposes recommendations aimed at ensuring sustainable growth in the development of the digital economy.

Keywords: digital economy, social consequences, economic analysis, digitization, digital transformation, Uzbekistan, labor market, digital inequality.

KIRISH

XXI asrning ikkinchi o‘n yilligida turli iqtisodiy adabiyotlarda mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga erishish hamda makroiqtisodiy muvozanatini ta’minlashning muhim jihati raqamli iqtisodiyot tizimiga o‘tish deb qayd etilmoqda. Shunday ekan, iqtisodiy taraqqiyotning bugungi bosqichida O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, tizimga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish, yangi texnologiyalarni joriy etish, kadrlarni tayyorlash va boshqa bir qancha muhim yo‘nalishlarda keng qamrovli ishlarni bajarish, O‘zbekistonda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan muhim ishlar doirasidagi birlamchi vazifalar qatoriga kiradi.

O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga doir bir qancha me’yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilib, unda mazkur tizimni taraqqiy ettirishga doir bajarilishi lozim bo‘lgan ishlar belgilab berildi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3832-sonli, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PK-6079-sonli qarorlariga binoan respublikada raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, yaqin istiqbolda barcha tarmoq va sohalarga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirilganligi ko‘rsatib o‘tish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish vazifasi milliy statistika doirasida ham bir qancha muhim ishlarning bajarilishini, xususan, milliy iqtisodiyot tarmoq va sohalarini raqamlashtirishga oid indikatorlar tizimi ishlab chiqilishi, mazkur tizim uchun ma’lumotlar bazasi shakllantirilishi, maxsus kuzatuvlar, so‘rovnomalar va hisobot shakllari ishlab chiqilishini taqozo etadi.

Jahon miqyosida raqamli texnologiyalarning jadal sur’atlarda rivojlanishi barcha sohalarda yangi iqtisodiy munosabatlarning shakllanishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, so‘nggi yillarda raqamli iqtisodiyot nafaqat iqtisodiy o‘sishning asosiy drayveri, balki

ijtimoiy barqarorlik va samarali boshqaruvning muhim omili sifatida ham namoyon bo‘lmoqda.[1]

O‘zbekiston Respublikasida ham raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilab olingan. Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, elektron hukumat tizimini rivojlantirish, raqamli xizmatlar platformalarini yaratish kabi chora-tadbirlar iqtisodiy tizimni tubdan o‘zgartirishga xizmat qilmoqda.

Raqamlashtirish jarayoni nafaqat iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshiradi, balki mehnat bozori, ta’lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy himoya kabi sohalarga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyot rivojlanishi bilan bog‘liq yangi muammolar – raqamli notenglik, axborot xavfsizligi, raqamli savodxonlik darajasining yetarli emasligi kabi masalalar ham yuzaga kelmoqda.

Ushbu maqolada O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni joriy etish va rivojlantirish jarayonlarining iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari, ularning ijobiy va salbiy jihatlari, shuningdek, bu sohadagi amaliy yutuqlar va mavjud muammolar tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — raqamli iqtisodiyotning mamlakat taraqqiyotiga ko‘rsatayotgan ta’sirini kompleks baholash va samaradorlikni oshirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Mamlakatda innovatsion texnologiyalar barcha sohalarda, jumladan, televideniye, ta’lim, bank ishi va davlat boshqaruvida keng joriy etilmoqda. Xususan, raqamli televideniye texnologiyalari tasvir sifatining yuqoriligi, signallarni uzatish va qabul qilishdagi samaradorligi bilan ajralib turadi. O‘zbekiston Respublikasi rahbariyati tashabbusi bilan raqamli teleeshittirishga bosqichma-bosqich o‘tish bo‘yicha maxsus konsepsiya va dasturlar qabul qilindi.

Axborot tizimlari va ma’lumotlar bazalarining joriy etilishi sog‘liqni saqlash, ta’lim, ijtimoiy himoya, turizm va davlat xizmatlari sohalarida faol ravishda amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunda “aqlli” va “xavfsiz” shaharlar konsepsiyasi doirasida hududiy loyihalar ishlab chiqilmoqda.

Ta’lim sohasida esa tarmoqli axborot texnologiyalari asosida integratsiyalashgan o‘qitish tizimlari shakllanmoqda. Masofaviy ta’lim modellari orqali talabalar elektron o‘quv qo‘llanmalariga istalgan joydan kirish imkoniyatiga ega bo‘lib, o‘qituvchi bilan real vaqtda aloqa o‘rnatishi, vazifalarini yuborishi va qo‘shimcha resurslardan foydalanishi mumkin. Bu esa ta’lim sifatini oshirish va yangi bilimlarni o‘zlashtirishda innovatsion yondashuvni ta’minlaydi.

Tijorat banklari ham raqamli texnologiyalar orqali faoliyatini modernizatsiya qilmoqda. AKT negizida ishlab chiqilayotgan innovatsion dasturlar bank operatsiyalarini avtomatlashtirish, mijozlar bilan munosabatlarni yaxshilash va xodimlar faoliyatini optimallashtirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy avtomatlashtirilgan tizimlar orqali mijoz murojaatlari turli kanallardan (telefon, onlayn chat, veb-sayt orqali va h.k.) qabul qilinib, yagona tizimda qayta ishlanadi.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son ““O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. https://lex.uz/ru/docs/-6600413

Jamiyat hayotidagi raqamlashtirish jarayonlari mamlakatning iqtisodiy rivojlanish sur'atlarini belgilaydi. "Raqamli iqtisodiyot" tushunchasi bugungi kunda to'rtinchi sanoat inqilobi sharoitida iqtisodiy o'sish darajasini belgilaydigan asosiy ko'rsatkichlardan biriga aylangan. Bu jarayonda intellektual faoliyatni avtomatlashtirish, raqamli yechimlar asosida qaror qabul qilish va raqobatbardoshlikni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Post-sanoat davrida axborot resurslari va ma'lumotlar almashinuvi ijtimoiy jarayonlarning asosiy harakatlantiruvchi omillaridan biriga aylandi. Butunjahon Internet tarmog'i orqali axborot uzatish imkoniyatlari insoniyatning bilim, madaniyat va iqtisodiy sohalardagi cheklovlarini bartaraf etib, yangi imkoniyatlarni yaratadi. Ayniqsa, ijtimoiy munosabatlar va madaniy qadriyatlar shakllanishida virtual muhitning ta'siri ortib bormoqda.

Axborot oqimlarining shiddat bilan tarqalishi ijtimoiy yangilanish jarayonlarini tezlashtirib, shaxsiy va jamoaviy hayotda yangi paradigmalarni shakllantirmoqda. "Axborotlashtirish" tushunchasi kundan-kunga chuqurlashib, raqamli texnologiyalar inson hayotining ajralmas qismiga aylanmoqda. Yangi avlod esa aynan raqamli muhitda voyaga yetayotgan bo'lib, ularning dunyoqarashi, bilim olish usuli va hayot tarzi axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga to'liq bog'liq holga kelmoqda.

Shunday ekan, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti va makroiqtisodiy muvozanatini baholash ko'rsatkichlari tizimini shakllantirishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblangan raqamli iqtisodiyot rivojlanishiga oid milliy indikatorlar majmuini ishlab chiqish, milliy statistika tizimiga oid dolzarb masalalardan biri sifatida ahamiyat kasb etadi va tadqiqot ishimiz yo'nalishini tanlab olishimizga asos bo'ldi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli iqtisodiyot masalasi xalqaro va milliy tadqiqotchilar e'tiborida turibdi. Xususan, E. Brynjolfsson va E. McAfee raqamli texnologiyalar ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va mehnat bozoridagi o'zgarishlarga kuchli ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Ularning fikricha, raqamli iqtisodiyot yuqori samaradorlik va iqtisodiy o'sishga olib kelishi bilan birga, ish o'rinlari qisqarishi, raqamli notenglik va ma'lum ko'nikmalarga bo'lgan talabning ortishiga ham sabab bo'ladi (Brynjolfsson & McAfee, 2014).

K. Shvab tomonidan ilgari surilgan "To'rtinchi sanoat inqilobi" nazariyasida raqamli iqtisodiyot butun ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarni qayta shakllantirayotgan global jarayon sifatida talqin qilinadi. U avtomatlashtirish, sun'iy intellekt, internet-narsalar (IoT) va katta ma'lumotlar (big data) texnologiyalarini iqtisodiyotning barcha sohalarida tatbiq etish orqali yangi imkoniyatlar yuzaga kelayotganini ko'rsatadi (Schwab, 2016).

Tarmoqli iqtisodiyot va raqamli intellektual jarayonlar haqidagi ilk nazariy asoslar D. Tapscottning asarlarida bayon etilgan bo'lib, u ma'lumotlar bilan ishlash, raqamli biznes modellar va raqamlashtirish orqali iqtisodiy munosabatlarning samaradorligi oshishini asoslab bergan (Tapscott, 1996).

Milliy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Prezident farmoni bilan qabul qilingan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasida raqamli infratuzilma, elektron hukumat va davlat xizmatlarini raqamlashtirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilangan (“Raqamli O‘zbekiston – 2030”, 2020).

A. Hakimov va hammualliflar tomonidan amalga oshirilgan tahlillarda mamlakatda raqamli texnologiyalarni turli sohalarga tatbiq etish bo‘yicha amaliy qadamlar, xususan bank, ta’lim, sog‘liqni saqlash va davlat boshqaruvi tizimidagi yutuqlar ko‘rsatilgan. Shuningdek, raqamli transformatsiya jarayonida kadrlar tayyorlash, infratuzilmaviy muammolar va aholining raqamli savodxonligi kabi masalalarga ham to‘xtalib o‘tilgan (Hakimov va boshqalar, 2022).

N. Mo‘minov o‘z tadqiqotida raqamli iqtisodiyotning mehnat bozoridagi ta’sirini tahlil qilib, yangi kasblar, masofaviy ishlash imkoniyatlari va kadrlar kompetensiyalariga qo‘yilayotgan talablar oshganini ko‘rsatgan (Mo‘minov, 2021).

BMT Taraqqiyot dasturining 2023-yilgi hisobotida esa O‘zbekistonda raqamli transformatsiyaning ijtimoiy oqibatlari, ayniqsa raqamli notenglik va axborot xavfsizligi masalalari keng yoritilgan. Shuningdek, aholining turli qatlamlarining raqamli xizmatlarga kirish imkoniyatlaridagi farqlar tahlil qilingan (UNDP Uzbekistan, 2023).

Qodirov va Tursunova raqamli iqtisodiyotning ijtimoiy samaradorligi masalasiga nazar tashlab, ayniqsa ta’lim va ijtimoiy xizmatlar sohasida raqamli yechimlar orqali samaradorlik oshganini ta’kidlaydilar (Qodirov & Tursunova, 2023).

Shu bilan birga, S. Karimov tomonidan bank tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi va avtomatlashtirish jarayonlari orqali mijozlar bilan ishlash samaradorligining oshishi tahlil qilingan (Karimov, 2021).

Xulosa qilib aytganda, yuqorida keltirilgan adabiyotlar raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy va ijtimoiy sohalardagi ta’sirini har tomonlama yoritadi. Biroq, mavjud manbalarda ijtimoiy oqibatlarni chuqur o‘rganishga yetarlicha e’tibor berilmagan. Shu bois, O‘zbekiston sharoitida mazkur jarayonning ijtimoiy-madaniy, mintaqaviy va inson kapitaliga ta’sirini tahlil qilish bugungi kun ilmiy izlanishlari uchun dolzarb hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

“Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining barqarorligini ta’minlash, jahon tajribasiga tayangan holda milliy iqtisodiyotni jadal sur’atlarda raqamlashtirish uchun quyidagi ishlarni bajarish lozimligi ko‘rsatib o‘tilgan[1]:

- raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning me’yoriy-huquqiy bazasini shakllantirish;
- milliy iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalarini modernizatsiyalashda imkon qadar eng so‘nggi raqamli texnologiyalarni joriy etish;

[1] https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/32_Siddikov.pdf

- eng so‘nggi raqamli texnologiyalarga asoslangan kommunikatsion vositalar, mashina va uskunalarni sotib olish, o‘rnatish va mahalliy kadrlarning ularda ishlash malakalarini oshirish;
- maktabgacha ta’lim tizimidan boshlab, oliy ta’limdan keyingi ta’lim tizimigacha raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan kadrlar siyosatini ishlab chiqish va yuritish.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PK-6079-sonli qaror doirasida 2020–2022-yillarda hududlarni raqamlashtirish dasturlari tasdiqlandi. Unga asosan:

- aholi punktlarining internetga ulanish darajasini 78 foizdan 95 foizgacha oshirish, shu jumladan buning hisobiga 2,5 million keng polosali ulanish portlarini ko‘paytirish;
- 20 ming kilometr optik tolali aloqa liniyalarini o‘tkazish va uyali aloqa tarmoqlarini rivojlantirish;
- 400 dan ortiq axborot tizimlarini, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning turli sohalariga elektron xizmatlar va dasturiy ta’minotlarni joriy etish;
- 587 ming kishini kompyuter dasturlash asoslari bo‘yicha o‘qitishni tashkil etish, shuningdek “Bir million dasturchi” loyihasi doirasida 500 ming yoshlarni jalb qilish;
- ishlab chiqarish va iqtisodiyotning real sektori korxonalarida logistika va boshqarish jarayonlarini avtomatlashtirish bo‘yicha 280 dan ortiq axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlarini joriy etish;
- davlat organlari va tashkilotlari xodimlarining raqamli savodxonligi va malakasini oshirish, ularni axborot texnologiyalariga o‘rgatish va axborot xavfsizligini ta’minlash;
- mintaqalardagi tegishli oliy o‘quv yurtlari, ma’muriy-hududiy birliklarda hokimiyat va davlat idoralarining 12 ming xodimini axborot texnologiyalari bo‘yicha o‘qitish uchun mas’ul etib tayinlash.

Aytish joizki, mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga doir asosiy yo‘nalishlar orasida milliy statistika tizimiga oid quyidagi muhim masalalarni ham qayd etish mumkin:

- statistika tizimiga raqamli texnologiyalarni joriy etish;
- ma’lumotlarni to‘plashdan boshlab chop etishga doir jarayonlarda samaradorlikni oshirish uchun yangi, eng so‘ngi dasturiy ta’minotlarni qo‘llash;
- raqamli iqtisodiyotga oid ko‘rsatkichlarni ishlab chiqish va shakllantirish hamda ularni davlat boshqaruv apparatiga, tegishli vazirlik va idoralarga samarali qarorlar chiqarishlari uchun yetkazib berish;
- raqamli iqtisodiyotga oid kurslarni ishlab chiqish va o‘qitish asosida kadrlar malakasini oshirish.

“Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-avgustdagi PQ-4796-sonli “O‘zbekiston Respublikasi milliy

statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorda yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan asosiy masalalar bilan bir qatorda, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish vazifasi ham belgilab berilgan. Qayd etish joizki, aynan raqamli iqtisodiyot rivojlanishiga oid milliy indikatorlar majmuasining yaratilishi uchun me’yoriy-huquqiy asos mavjudligi ko‘rsatkichlar tizimi ishlab chiqishga poydevor bo‘ldi.

METODOLOGIYA

Raqamli iqtisodiyot rivojlanishiga oid milliy ko‘rsatkichlar majmuini ishlab chiqishda to‘rtta yirik blokdan iborat indikatorlar tizimi shakllantirildi. Bular:

1. Mamlakatning xalqaro reytingdagi o‘rniga oid ko‘rsatkichlar;
2. Hududlarda raqamli iqtisodiyot rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari;
3. Biznes va sohalarni raqamlashtirish ko‘rsatkichlari;
4. AKT sohasi taraqqiyotiga oid ko‘rsatkichlar majmui.

Shuningdek, raqamli iqtisodiyot sharoitida aholi malakasi va kadrlar salohiyati, ijtimoiy soha va ommaviy axborot vositalari tizimini raqamlashtirish ko‘rsatkichlari ham milliy ko‘rsatkichlar tarkibiga kiritildi.

Mamlakatning xalqaro reytingdagi o‘rniga oid ko‘rsatkichlar tizimini ishlab chiqishda I-DESI, IDI, EGDI, EPART, GCI, GII, SGI, WDCI va boshqa xalqaro indekslar majmuasidan foydalanildi.

Biznesdagi raqamli texnologiyalar indikatorlari majmuini ishlab chiqishda tizimga oid ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda, iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha tashkilotlarda CRM, ERP, SCM tizimlaridan foydalanish darajasini ifoda etuvchi ko‘rsatkichlar ham kiritildi.

Hududlarda raqamli iqtisodiyot rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlarini ishlab chiqishda qishloq yoki shahar joylariga xos xususiyatlar, tarmoq yoki sohalar taraqqiyotiga oid, shu bilan birga raqamlashtirish jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi omillar ham hisobga olindi.

AKT sohasi taraqqiyotiga xos ko‘rsatkichlar majmuiga:

- AKT sektori faoliyati,
- AKT sohasidagi tadqiqotlar va ishlanmalar,
- telekommunikatsiyalar,
- elektron hukumat xizmatlaridan foydalanish,
- axborot xavfsizligi,
- raqamli texnologiyalar qo‘llanilishiga oid indikatorlar tizimlari mujassamlashtirildi.

Shuningdek, raqamli iqtisodiyot rivojlanishiga oid milliy ko‘rsatkichlar majmuining beshinchi bloki quyidagilarni o‘z ichiga oladi: raqamli iqtisodiyot bo‘yicha kadrlar salohiyati, ijtimoiy sohani raqamlashtirish va raqamli reallikdagi aholiga oid indikatorlar, shuningdek ommaviy axborot vositalari (OAV) va kontent tarkibi.

Raqamli iqtisodiyot rivojlanishiga oid milliy ko‘rsatkichlar tizimini ishlab chiqishda induktiv-deduktiv yondashuv (xususiylikdan umumiylikka, umumiylikdan tizimli shaklga o‘tilishi va aksincha), sabab va natija munosabatlari, tizimli yondashuv,

strategik maqsad, indikativ rejalashtirish, optimal tanlov, majmuaviy baholash metodlari, shuningdek tarkibiy-funksional modelga asoslangan metodologik yondashuv qo‘llanildi.

Mutaxassislarning fikricha, XXI asrning 30-yillariga kelib, insoniyatning qariyb 15–20 foizi axborotlar jamiyatida yashaydi va unga ta’sir ko‘rsatadi, 60–70 foiz aholi esa industrial jamiyat ta’sirida qolmoqda. Insoniyat jamiyatining bunday shakllanishi global raqamli bo‘shliq bilan ifodalanadi.

Umuman olganda, raqamli iqtisodiyot keng ma’noda: yangi axborotni yaratish, ulardan foydalanish, raqamli texnologiyalar va raqamli mahsulotlar, telekommunikatsiya xizmatlari, elektron biznes, elektron tijorat, elektron bozorlar, masofadan turib bitim tuzish mexanizmlari, masofadan turib xizmat ko‘rsatish, masofaviy ta’lim va boshqa bir qator komponentlarni o‘z ichiga olgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni tizimli tashkil etgan tuzilmadir.

Yuqorida ko‘rsatilganidek, raqamli iqtisodiyot elektron biznes va savdo bilan bog‘liq raqamli texnologiyalarni qo‘llash asosida iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish jarayonlari va usullarini o‘z ichiga oladi va kiber muhitda raqamli tovarlar va xizmatlarni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi.

Boshqacha aytganda, bu elektron to‘lov vositalari, kriptovalyuta va raqamli valyutaning imkoniyatlaridan foydalangan holda axborotni ijtimoiy tarmoq orqali elektron vositalardan foydalanib uzatish, almashish va saqlash bitimlari tizimidir.

Ko‘pgina xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar raqamli iqtisodiyotni axborot iqtisodiyoti, bilimlar iqtisodiyoti, ijodiy iqtisodiyot, internet iqtisodiyoti, tarmoq iqtisodiyoti, elektron iqtisodiyot, yangi iqtisodiyot va shunga o‘xshash tushunchalar bilan ifodalaydi (1-rasm).[1]



1-rasm. Postindustrial iqtisodiyotning yangi ko‘rinishlari[2]

[1] file:///C:/Users/n.xatanov/Downloads/Rakamli_iktisodietni_rivozlantiris_omillari_nazari.pdf
[2] Muallif ishlanmasi

Bizning fikrimizcha, “raqamli iqtisodiyot” tushunchasi oddiy ma’lumotlarni raqamlashtirish va turli iqtisodiy jarayonlarni avtomatlashtirishdan ancha kengroqdir. U zamonaviy axborot va smart-texnologiyalarni, shuningdek yirik ma’lumotlar, Internet iqtisodiyoti, tarmoq iqtisodiyoti, bilimlar iqtisodiyoti, elektron iqtisodiyot va axborotlar iqtisodiyoti bazalarini, simsiz tarmoqlarni, turli mobil qurilmalar va gadjetlarni, shuningdek ijtimoiy media platformalarini yaratishga imkon beruvchi yangi turdagi ijtimoiy-raqamli platformalarni jalb qilishning innovatsion usulini o‘z ichiga oladi.

Raqamli iqtisodiyot doirasida ushbu texnologiyalar alohida yoki integratsion rejimlarda muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda. Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha tarmoq va sohalarida qo‘llanilib, yangi bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, tegishli strategik qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyotning barcha sohalarda amalda qo‘llanilishi yangi ilmiy tadqiqotlar va zamonaviy texnologiyalar yaratishni taqozo etadi hamda tarmoq va sohalar uchun qulay raqamli makonlarni shakllantiradi.

Jahon banki ta’rifiga ko‘ra, raqamli iqtisodiyot — bu raqamli axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llashga asoslangan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy munosabatlar tizimidir.

Raqamli iqtisodiyotning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Maxsus raqamli platformalar va ekotizimlar yaratish orqali iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish;

Shaxsiy xizmat modellarini qo‘llash;

Ijtimoiy tarmoqda ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilarning bevosita hamkorlik aloqalarini masofaviy qulay muhitda tashkil etish.

So‘nggi to‘rt yil ichida O‘zbekistonda axborot texnologiyalarini rivojlantirish bo‘yicha katta qadamlar tashlandi, bu esa iqtisodiyotning ko‘plab sohalarida raqamlashtirish jarayonlarini kengaytirish va raqamli iqtisodiyot ulushini oshirishga yordam berdi.

Raqamli iqtisodiyot tarkibiy qismlari:

- Elektron tijorat;
- “Elektron hukumat” tizimi;
- Iqtisodiyotning turli tarmoqlarida va xizmat ko‘rsatish sohalarida “aqlli” (smart) texnologiyalarni joriy etish;
- “Aqlli shahar” va “Xavfsiz shahar” konsepsiyalarini yaratish;
- “Buyumlar Interneti” (IoT)dan keng foydalanish va boshqa ilg‘or texnologiyalar.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanish darajasi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) rivojlanish darajasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, odatda quyidagi ko‘rsatkichlar bilan baholanadi:

- Raqamli iqtisodiyotning YAIMdagi ulushi;
- AKT sanoatiga kiritilgan investitsiyalar hajmi;

- Internet tezligi va qamrov maydoni;
- Elektron tijoratning rivojlanish darajasi;
- “Elektron hukumat” tizimidagi davlat xizmatlari ulushi;
- AKT sohasidagi mutaxassislar bilan tashkilotlarning ta’minlanishi va boshqa ko‘rsatkichlar.

Shuningdek, mamlakatning axborot texnologiyalarini rivojlantirish darajasini baholovchi xalqaro reytinglardagi ko‘rsatkichlar ham muhim ahamiyatga ega.

1-rasmda O‘zbekiston Respublikasida 2016–2021-yillarda iqtisodiyotda faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar hamda axborot va aloqa sohasida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar sonining o‘sish tendensiyasi keltirilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni jadal rivojlantirish mamlakatning iqtisodiy o‘sishi va ijtimoiy taraqqiyotida muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Raqamlashtirish jarayonlari sanoat, qishloq xo‘jaligi, moliya, ta’lim, sog‘liqni saqlash va davlat boshqaruvi sohalarida samaradorlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Natijada mamlakatda investitsion muhit yaxshilandi, yangi ish o‘rinlari yaratildi va kichik hamda o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash imkoniyati kengaydi.

Shuningdek, raqamli iqtisodiyot ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, aholi turmush darajasini oshirish va raqamli tenglikni mustahkamlashda ham muhim rol o‘ynamoqda. Masofaviy ta’lim, onlayn tibbiy xizmatlar, elektron tijorat kabi sohalardagi rivojlanish aholiga yangi imkoniyatlarni yaratmoqda va ularning hayot sifatini yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Biroq, raqamli iqtisodiyotni joriy etish jarayonida kiberxavfsizlik, raqamli ta’limning yetishmasligi, infratuzilma muammolari va raqamli ajralish (digital divide) kabi murakkab masalalar yuzaga kelmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida davlat tomonidan tizimli islohotlar va strategik dasturlar amalga oshirilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirmoqda, balki ijtimoiy taraqqiyot va aholi farovonligini ta’minlashda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, barqaror va inklyuziv rivojlanishni ta’minlash raqamli iqtisodiyot siyosatining ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020-йил 5-октябрдаги “2020–2023 йилларда рақамли иқтисодиёт ва электрон ҳукуматни ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ–6079-сонли фармони. https://lex.uz/uz/docs/-5030957

2. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Иқтисодий тадқиқотлар ва ислоҳотлар маркази. (2023). Ўзбекистонда рақамли иқтисодиёт: таҳлил ва истиқболлар. Тошкент.

3. Каримов, И. (2021). Рақамли иқтисодиёт ва унинг тараққиёт босқичлари. Тошкент: Иқтисодиёт нашриёти.

4. Аҳмедов, Ш. (2022). Иқтисодиётнинг рақамли трансформацияси ва унинг ижтимоий таъсирлари. – “Иқтисодий фанлар” журнали, №2, 34–40-бетлар.

5. World Bank. (2022). Digital Uzbekistan: Accelerating Digital Transformation for Inclusive Growth. www.worldbank.org

6. UNCTAD. (2023). Digital Economy Report 2023: Cross-border data flows and development. Женева: БМТ нашриёти.

7. Schwab, K. (2020). The Fourth Industrial Revolution. World Economic Forum.

8. Davletov, B. (2023). Рақамли иқтисодиётнинг институционал асослари. – Тошкент давлат иқтисодиёт университети илмий тўплами, №1.

9. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси. (2024). Рақамли инфратузилманинг ривожланиш динамикаси бўйича статистик маълумотлар. www.stat.uz

10. OECD. (2022). Measuring the Digital Transformation: A Roadmap for the Future. Paris: OECD Publishing.

THE IMPACT OF GREEN BUSINESS EDUCATION AMONG ENTREPRENEURS ON THE ECONOMY: A LITERATURE REVIEW

Amonov Sardor Zamon o‘g‘li
PhD researcher at Bukhara State University
ORCID: 0009-0002-5811-8397
Email: sardoramonov92@gmail.com
Phone: +998995509704

Turobova Hulkar Rustamovna
PhD, associate prof. at Bukhara State University
ORCID: 0000-0003-4298-2412
Email: hulkar-rustamkhon@mail.ru
Phone: +998 905125464

Abstract

This literature review examines how educating entrepreneurs in “green business” principles influences economic outcomes. We conducted a structured review of high-impact academic articles linking sustainability-focused entrepreneurship education with indicators such as employment, innovation, and GDP growth. The findings indicate that entrepreneurship education oriented to environmental sustainability increases entrepreneurs’ intention and ability to create eco-friendly ventures. Such green startups tend to create jobs, drive inclusive growth and innovation, and do so with reduced ecological harm compared to traditional businesses. These insights underscore the importance of integrating sustainability into entrepreneurship curricula. Policymakers and educators should support green entrepreneurship training to foster sustainable economic development. This review synthesizes cross-disciplinary global evidence that green business education can advance economic prosperity alongside environmental stewardship.

Keywords: green business education, entrepreneurship education, sustainable entrepreneurship, economic development, innovation, inclusive growth, environmental sustainability.

Annotatsiya

Bu adabiyotlar sharhi tadbirkorlar o‘rtasida yashil biznes ta’limi va iqtisodiy ko‘rsatkichlar (bandlik, innovatsiya, YAIM o‘sishi) o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganadi. Metodologiya: barqarorlikka yo‘naltirilgan tadbirkorlik ta’limi bilan iqtisodiy rivojlanish orasidagi aloqani o‘rganuvchi Scopus indeksli nashrlarni tuzilgan tarzda tahlil qildik. Topilmalar: ekotadbirkorlikka qaratilgan ta’lim tadbirkorlarning ekologik toza loyihalar yaratish istagi va salohiyatini oshiradi. Bunday yashil biznes tashabbuslari ish o‘rinlari yaratish, inklyuziv YAIM o‘sishi va innovatsiyalarni olib keladi, ayni paytda an’anaviy biznes bilan solishtirganda atrof-muhitga zarar kamroq bo‘ladi. Hosilalarga ko‘ra, barqaror tadbirkorlikni rivojlantirish uchun ta’lim dasturlariga ekotadbiroliklarga oid modullarni kiritish muhimdir. Siyosatchilar va o‘qituvchilar iqtisodiyotda barqaror o‘sishni rag‘batlantirish uchun yashil tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashi lozim. Asosiy hissasi: ushbu sharh global miqyosda

yashil biznes ta’limining iqtisodiy va ekologik taraqqiyotga ta’siri bo‘yicha ko‘p qirrali tushunchani taqdim etadi.

Kalit so‘zlar: yashil biznes ta’limi, tadbirkorlik ta’limi, barqaror tadbirkorlik, iqtisodiy rivojlanish, innovatsiya, inklyuziv o‘sish, ekologik barqarorlik.

Аннотация

Ekologik marketing va iste’molchilarning ekologik ongini shakllantirish masalalari xalqaro ilmiy adabiyotlarda keng o‘rganilgan. Klassik marketing nazariyalari doirasida Kotler va Keller (2016) marketingni nafaqat mahsulot va xizmatlarni targ‘ib qilish, balki ijtimoiy qadriyatlarni singdiruvchi kuchli vosita sifatida talqin qiladilar. Ularning fikricha, marketing strategiyalarida ijtimoiy mas’uliyat elementlarini kuchaytirish brendning uzoq muddatli muvaffaqiyati uchun muhim ahamiyat kasb etadi (Kotler & Keller, 2016).[1] Green marketing konsepsiyasini chuqur tahlil qilgan Ottman (2017) ekologik qadriyatlarni raqamli kommunikatsiya vositalari orqali ommalashtirish iste’molchilarning xulq-atvorini sezilarli darajada o‘zgartirishi mumkinligini ta’kidlaydi. Muallifning fikricha, brendlarning ekologik strategiyalarga sodiqligi nafaqat mijozlar ishonchini oshiradi, balki ekologik mas’uliyatni biznesning ajralmas qismiga aylantiradi (Ottman, 2017).[2] Peattie va Crane (2005) “green marketing” tushunchasining tarixiy rivojlanishini tahlil qilib, uning turli bosqichlarda afsonaviy, mifologik yoki chindan ham barqaror rivojlanishga xizmat qiluvchi mexanizm sifatida talqin etilganini ko‘rsatadi. Ularning fikricha, ekologik

[1] Kotler, P., & Keller, K. L. (2016). *Marketing Management* (15th ed.). Pearson Education
[2] Ottman, J. A. (2017). The New Rules of Green Marketing: Strategies, Tools, and Inspiration for Sustainable Branding. Routledge

marketing samarali bo‘lishi uchun u iste’molchilarga aniq foyda yetkazishi va real ekologik natijalarni kafolatlashi lozim (Peattie & Crane, 2005).[1] Chen va Chang (2013) ekologik qadriyatlarni raqamli kommunikatsiya vositalari orqali targ‘ib qilish iste’molchilarning “yashil mahsulotlar”ga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashini ko‘rsatadi. Ularning modelida ekologik qiymat, ekologik xavf va “green trust” tushunchalari asosiy determinant sifatida ko‘rib chiqiladi (Chen & Chang, 2013).[2]

Shuningdek, Grubor va Milovanov (2017) raqamli marketingning barqaror rivojlanish jarayonidagi rolini tahlil qilib, ijtimoiy tarmoqlar orqali ekologik qadriyatlarni keng yoyish global auditoriyani shakllantirishda muhim omil ekanini ta’kidlaydi. Ularning fikricha, raqamli marketing nafaqat ekologik ongni oshiradi, balki yangi iqtisodiy imkoniyatlarni ham yaratadi (Grubor & Milovanov, 2017).[3] Zeng, Wang va Zhang (2017) ijtimoiy tarmoqlarda olib borilayotgan ekologik kampaniyalar samaradorligini tadqiq qilib, iste’molchilarning ekologik xabardorlik darajasi bunday kampaniyalarning natijadorligini belgilovchi asosiy omil ekanini aniqladilar. Ya’ni, yuqori darajadagi ekologik xabardorlik auditoriyaning raqamli ekologik kontentga yanada faolroq javob qaytarishini ta’minlaydi (Zeng, Wang, & Zhang, 2017).[4]

Umuman olganda, ilmiy adabiyotlar raqamli marketingning iste’molchilar ekologik ongini shakllantirishdagi rolini tasdiqlaydi. Tadqiqotlarning umumiy jihati shuni ko‘rsatadiki, ekologik marketing strategiyalari samarador bo‘lishi uchun ular raqamli vositalar orqali interaktiv, shaffof va barqarorlikka yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim.

METODOLOGIYA

Tadqiqot nazariy-metodologik jihatdan ekologik marketing, iste’molchilar xulq-atvori va raqamli kommunikatsiya bo‘yicha mavjud ilmiy adabiyotlarni tahlil qilishga asoslandi. Kontent-tahlil yordamida xalqaro tajribalar o‘rganildi va raqamli platformalarda olib borilayotgan ekologik kampaniyalar turlari taqqoslandi. Shuningdek, qiyosiy tahlil orqali an’anaviy marketing vositalari va raqamli marketing strategiyalarining ekologik ongga ta’siri o‘rtasidagi farqlar yoritildi. Natijalar umumlashtirish, nazariy xulosalar chiqarish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish metodlari orqali shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli marketing bugungi kunda ekologik ongni shakllantirishda eng tezkor va samarali vositalardan biri sifatida maydonga chiqmoqda. Internet orqali tarqatilgan ekologik kontent qisqa vaqt ichida millionlab foydalanuvchilarga yetib borishi mumkinligi uning eng katta ustunliklaridan biridir. Masalan, Statista (2024) ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘yicha internet foydalanuvchilarining 62 foizi ekologik

[1] Peattie, K., & Crane, A. (2005). Green marketing: legend, myth, farce or prophesy? Qualitative Market Research, 8(4), 357–370
[2] Chen, Y. S., & Chang, C. H. (2013). Enhance green purchase intentions: The roles of green perceived value, green perceived risk, and green trust. Management Decision, 51(1), 63–82.
[3] Grubor, A., & Milovanov, O. (2017). Digital marketing and sustainable development. *Sustainability Marketing Journal, 9*(12), 1–12.
[4] Zeng, F., Wang, C., & Zhang, J. (2017). Social media use for green marketing: The role of consumer environmental awareness. *Journal of Interactive Marketing, 38*, 39–53.

masalalar bo‘yicha eng ko‘p ma’lumotni aynan ijtimoiy tarmoqlardan olishini bildirgan. Bu ko‘rsatkich gazeta, radio yoki televizion reklama kabi an’anaviy vositalarga qaraganda ikki baravar yuqoridir, ya’ni raqamli platformalar ekologik xabardorlikni oshirishda ustuvor o‘rin egallab bormoqda.

Ijtimoiy tarmoqlarda olib boriladigan ekologik kampaniyalar nafaqat informatsion, balki emotsional ta’sir kuchiga ham ega. “Zero waste” yoki “plastic-free” kabi harakatlarning Instagram va TikTok platformalarida ommalashishi natijasida yoshlar orasida ekologik mas’uliyat sezilarli darajada kuchaymoqda. Masalan, TikTok’da #zerowaste xeshtegi ostida 2023-yilda 4,2 milliarddan ortiq ko‘rish qayd etilgani raqamli kampaniyalar auditoriyani tezda jalb qilishini yaqqol ko‘rsatadi. An’anaviy vositalar esa odatda biryoqlama axborot tarqatish bilan cheklanib, emotsional va interaktiv ta’sir imkoniyatidan mahrumdir.

Raqamli marketingning eng muhim ustunliklaridan biri iste’molchining faol ishtirokini ta’minlashidadir. Onlayn aksiyalar, ekologik “challenge”lar va virtual konkurslar foydalanuvchiga o‘zini ekologik jarayonning bevosita ishtirokchisi sifatida his qilish imkonini beradi. Shu bois, bunday vositalar nafaqat xabardorlikni oshiradi, balki ekologik xulq-atvorni kundalik odatga aylantirishga xizmat qiladi. Masalan, chiqindilarni saralashni o‘rgatuvchi “RecycleCoach” yoki energiya tejamkorlikni nazorat qiluvchi “JouleBug” ilovalari foydalanuvchilarning xatti-harakatlariga bevosita ta’sir qilmoqda. 2022-yilgi “Green Apps Report” ma’lumotlariga ko‘ra, ushbu ilovalar foydalanuvchilarining 58 foizi energiyani tejash odatini muntazam shakllantirgan.

Vizual kontent ham ekologik marketing samaradorligini oshiruvchi muhim omil hisoblanadi. Qisqa videolar, infografikalar va animatsiyalar ekologik muammolarni oddiy, tushunarli va hissiy jihatdan kuchli ta’sirli shaklda yetkazib beradi. Greenpeace tashkiloti tomonidan 2023-yilda tayyorlangan ekologik animatsion roliklarning 50 milliondan ortiq ko‘rish to‘plagani vizual kontentning keng auditoriyaga ta’sirchan yetib borishini isbotlaydi.

Raqamli marketingning yana bir afzalligi shundaki, u ekologik mas’uliyatni brend identifikatsiyasining ajralmas qismiga aylantiradi. Nielsen[1] (2023) hisobotiga ko‘ra, iste’molchilarning 73 foizi ekologik qadriyatlarga sodiq brendlardan mahsulot sotib olishga tayyorligini bildirgan. Bu ko‘rsatkich an’anaviy reklama orqali shakllangan ishonchdan 20 foiz yuqori. Shunday qilib, raqamli platformalarda ekologik qadriyatlarni muntazam yoritish brend imijini mustahkamlashda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Ekologik ongni shakllantirishda “storytelling” strategiyasi ham keng qo‘llanilmoqda. Brendlar mahsulot ortidagi ekologik qadriyatlarni hikoya qilish orqali iste’molchilar bilan chuqur hissiy aloqa o‘rnatmoqda. Patagonia kompaniyasining reklama siyosati bunga yorqin misoldir: u mahsulotni sotishga emas, balki tabiatni muhofaza qilish qadriyatlarini singdirishga qaratilgan.

Yana bir muhim jihat — sun’iy intellekt (AI) va “Big Data” texnologiyalaridan foydalanishdir. Bu texnologiyalar yordamida iste’molchilar xulq-atvori chuqur tahlil

[1] https://www.nielsen.com/

qilinib, ekologik kampaniyalar maqsadli auditoriyaga aniq yo‘naltiriladi. Accenture (2022) ma’lumotlariga ko‘ra, AI asosida ishlab chiqilgan raqamli reklama ekologik mahsulotlar savdosini 27 foizga oshirgan. Bu esa raqamli marketingning samaradorligini oshirishda zamonaviy texnologiyalarning hal qiluvchi o‘rin tutishini ko‘rsatadi.

Biroq raqamli marketingning ekologik ongga ta’siri global miqyosda sezilarli bo‘lsa-da, milliy kontekst ham muhim ahamiyatga ega. Rivojlangan mamlakatlarda “green branding” allaqachon iste’molchilar ongida mustahkam o‘rin egallagan bo‘lsa, rivojlanayotgan davlatlarda ekologik ongni shakllantirish uchun ko‘proq tushuntirish va ta’limiy kontent zarur. Shu sababli, raqamli kampaniyalar ishlab chiqishda mahalliy sharoit, madaniy qadriyatlar va iqtisodiy imkoniyatlar hisobga olinishi lozim.

Shuningdek, raqamli marketing samaradorligini oshirish uchun davlat siyosati va biznes sektori o‘rtasidagi hamkorlik zarur. Hukumat tomonidan ekologik standartlar va normativlar belgilansa, biznes ularni raqamli kommunikatsiya orqali targ‘ib etishi mumkin. Bu nafaqat brendning ijtimoiy mas’uliyatini kuchaytiradi, balki iste’molchilar ongida ekologik qadriyatlarni barqaror shakllantiradi.

Muhim jihatlardan yana biri shundaki, raqamli marketing faqat tijoriy maqsadlarga emas, balki ekologik turmush tarzini targ‘ib qilishga yo‘naltirilishi kerak. Bu yondashuv brendni iste’molchilar nazarida uzoq muddatli ishonchli hamkor sifatida namoyon qiladi. Shu bilan birga, ekologik marketing samaradorligini muntazam monitoring qilish ham muhim. Google Analytics yoki Socialbakers kabi vositalar orqali iste’molchilarning ekologik kontentga munosabati va xatti-harakatlari tahlil qilinib, keyingi kampaniyalar optimallashtiriladi.

Yuqoridagi jihatlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli marketing vositalari nafaqat ekologik ongni oshirishga, balki yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yaratishga ham xizmat qilmoqda. Ekologik mahsulotlar bozori kengayib, “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi tobora mustahkamlanmoqda. Biroq, bu imkoniyatlar faqat izchil strategiya, uzluksiz kommunikatsiya va barqaror yondashuv asosida yuqori samaradorlik beradi (1-jadval).

1-jadval

An’anaviy va raqamli marketing farqlari[1]

Ko‘rsatkichlar	**An’anaviy marketing vositalari**	**Raqamli marketing strategiyalari**
Auditoriya qamrovi	Mahalliy yoki cheklangan (TV, radio, plakat)	Global va tezkor (ijtimoiy tarmoqlar, veb)
Interaktivlik	Juda past, biryoqlama	Yuqori, ikki tomonlama muloqot
Tezkorlik	Sekin, uzoq muddatda ta’sir qiladi	Juda tez, “viral” tarqalish imkoniyati
Xarajatlar	Yuqori (TV, bosma reklama)	Nisbatan past (onlayn kampaniyalar)
Hissiy ta’sir	Cheklangan, asosan vizual	Kengaytirilgan: video, animatsiya, storytelling
O‘lchash va monitoring	Qiyin, aniq ma’lumot yo‘q	Oson: Google Analytics, Socialbakers va h.k.

[1] Muallif tomonidan tayyorlandi

Ko‘rsatkichlar	An’anaviy marketing vositalari	Raqamli marketing strategiyalari
Ekologik ong shakllanishidagi samaradorlik	Past, uzoq muddatda seziladi	Yuqori, qisqa muddatda sezilarli natija beradi

Raqamli marketing vositalari ekologik ongni shakllantirishda bugungi kunda eng muhim strategik mexanizmlardan biriga aylandi. Ijtimoiy tarmoqlar, mobil ilovalar, vizual kontent va interaktiv kampaniyalar yordamida ekologik qadriyatlar keng auditoriyaga tezkor va samarali yetkazilmoqda. An’anaviy marketing vositalari bilan qiyoslaganda, raqamli kommunikatsiya kanallari nafaqat tezkorlik va global qamrovni ta’minlaydi, balki iste’molchilarni bevosita jarayonga jalb qilish imkonini beradi. Bu holat ekologik xabardorlikni faqat nazariy tushuncha sifatida emas, balki kundalik odat va xulq-atvorga aylantirish imkonini yaratmoqda.

Raqamli marketingning kuchli jihatlaridan biri uning interaktiv va o‘lchash mumkin bo‘lgan tabiatidir. Google Analytics, Socialbakers yoki boshqa tahliliy vositalar yordamida iste’molchilarning ekologik kontentga munosabati va xatti-harakatlari real vaqt rejimida o‘lchanib, natijalar keyingi kampaniyalarda inobatga olinadi. Bu esa ekologik kommunikatsiyaning samaradorligini oshirib, brendlarning ekologik mas’uliyatini yanada mustahkamlaydi. Shu jihatdan, raqamli marketing ekologik qadriyatlarni nafaqat tijoriy strategiyaning bir qismi, balki barqaror rivojlanish konsepsiyasining ajralmas elementi sifatida qarash imkonini beradi.

Umuman olganda, raqamli marketingning ekologik ongni shakllantirishdagi roli global va milliy miqyosda tobora ortib bormoqda. Rivojlangan mamlakatlarda u “green branding”ni mustahkamlash vositasi bo‘lsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda ekologik ta’limiy kontentni keng yoyish imkonini bermoqda. Davlat siyosati va biznes sektori hamkorligida olib borilgan raqamli marketing kampaniyalari ekologik madaniyatni keng jamoatchilik ongiga singdirish, yashil iqtisodiyot tamoyillarini rivojlantirish va kelajak avlod uchun barqaror hayot tarzini shakllantirishga xizmat qiladi (1-rasm).



1-rasm. Raqamli marketing provayderi tanloviga ta’sir qiluvchi omillar[1]

[1] Muallif tomonidan tayyorlandi.

Ushbu diagramma raqamli marketing provayderini tanlashda iste'molchilar uchun eng muhim bo‘lgan omillarni ko‘rsatadi. Grafik natijalari so‘rovnoma asosida o‘rtacha ko‘rsatkichlarda aks ettirilgan. Birinchi navbatda, narxlash omili 74,29% bilan yetakchi o‘rinni egallagan. Bu shuni ko‘rsatadiki, iste'molchilar provayder tanlashda eng avvalo xizmat narxiga e'tibor qaratadilar.

Ikkinchi o‘rinda ishonchlilik (58,43%) turibdi. Demak, iste'molchilar uchun xizmatning barqarorligi va ishonchli ishlashi narxdan keyingi asosiy omil hisoblanadi. Keyingi o‘rinlarda esa mutaxassislik sohalari (54,43%) va aloqa darajasi (43,71%) turibdi. Bu raqamlar iste'molchilar provayderning faqat xizmat sifatiga emas, balki uning professional tajribasiga va mijoz bilan qanday muloqot qilishiga ham katta ahamiyat berishini ko‘rsatadi.

Shuningdek, sharhlar va reytinglar (36,86%) ham qaror qabul qilishda muhim rol o‘ynaydi. Demak, boshqa mijozlarning fikrlari va baholari yangi mijozlar uchun ishonch omili vazifasini bajaradi. Diagrammada ko‘rinib turibdiki, avvalgi tajriba va vaziyatni o‘rganish (33,29%) ham muhim sanaladi, lekin yetakchi omillardan pastroq o‘rinda.

Joylashuv yoki yaqinlik (19,86%) esa zamonaviy raqamli xizmatlarda nisbatan kam ahamiyatga ega, chunki xizmatlar asosan onlayn shaklda ko‘rsatilmoqda. Nihoyat, “boshqa omillar” (1,29%) ulushi juda past bo‘lib, bu iste'molchilar qaror qabul qilishda asosan yuqoridagi yetakchi omillarga tayanishini anglatadi.

Umumiy xulosa sifatida aytish mumkinki, raqamli marketing provayderini tanlashda iste'molchilar uchun eng muhim omillar – narx, ishonchlilik va mutaxassislik sohalari hisoblanadi. Boshqa omillar, jumladan joylashuv yoki boshqa qo‘shimcha shartlar ikkilamchi ahamiyatga ega bo‘lib, qaror qabul qilish jarayonida yetakchi rol o‘ynamaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli marketing vositalari zamonaviy sharoitda iste'molchilarning ekologik ongini shakllantirishda muhim strategik resurs sifatida namoyon bo‘ldi. Ayniqsa, ekologik qadriyatlarni keng auditoriyaga yetkazishda raqamli kommunikatsiya kanallari an'anaviy marketing vositalaridan ustun turadi. Internet va mobil texnologiyalar yordamida ekologik xabarlar qisqa vaqt ichida keng tarqalib, iste'molchilarning ongiga tezkor ta'sir ko‘rsatmoqda. Bu jarayon ekologik masalalarning dolzarbligini kuchaytirish bilan birga, ularni jamiyat kundalik hayotiga singdirish imkonini bermoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, mobil ilovalar va vizual kontent ekologik qadriyatlarni targ‘ib etishda yetakchi vositalar sifatida shakllandi. Ularning o‘ziga xos jihati shundaki, ular nafaqat ma'lumot yetkazadi, balki auditoriyani emotsional jihatdan ham jalb etadi. Qisqa videoroliklar, infografikalar va interaktiv grafikalar ekologik muammolarni oddiy va tushunarli shaklda yoritib, keng jamoatchilikning e'tiborini tortadi. Natijada, ekologik ong faqat nazariy bilimlar darajasida emas, balki xulq-atvorga aylanishi mumkin.

Raqamli marketingning samaradorligi, avvalo, uning interaktivlik xususiyatida namoyon bo‘ladi. Onlayn aksiyalar, ekologik challenge'lar va raqamli konkurslar iste'molchini jarayonga faol jalb etadi. Bu esa ekologik ongni mustahkamlash bilan

birga, uni ijtimoiy odat sifatida shakllantiradi. Shu jarayonda brendlarning ekologik qadriyatlarga sodiqligi ham muhim rol o‘ynaydi: agar kompaniya muntazam ravishda o‘z raqamli platformalarida ekologik yondashuvlarini namoyon etsa, iste’molchi ishonchi ortadi va ular bilan uzoq muddatli aloqalar shakllanadi.

Shuningdek, raqamli marketingda zamonaviy texnologiyalarning roli ortib bormoqda. Sun’iy intellekt va “Big Data” texnologiyalari iste’molchilar xatti-harakatlarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Natijada ekologik marketing kampaniyalari maqsadli auditoriyaga aniq yo‘naltiriladi va resurslardan samarali foydalaniladi. Bu esa ekologik ongni shakllantirish jarayonini yanada optimallashtiradi va barqaror natijalarga olib keladi.

Umuman olganda, raqamli marketingning ekologik ongni shakllantirishdagi roli global va milliy kontekstda ortib bormoqda. Har bir mamlakatning madaniy qadriyatlari va iqtisodiy imkoniyatlari ekologik kommunikatsiya strategiyalarini ishlab chiqishda hisobga olinishi lozim. Davlat siyosati va biznes sektori o‘rtasidagi hamkorlik esa raqamli marketing samaradorligini yanada kuchaytiradi. Shu tariqa, raqamli marketing nafaqat tijoriy maqsadlarga xizmat qiladi, balki jamiyatda ekologik madaniyatni shakllantirish, yashil iqtisodiyot tamoyillarini rivojlantirish va barqaror rivojlanishga erishish yo‘lida muhim vosita sifatida qaralishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Kotler, P., & Keller, K. L. (2016). Marketing Management. 15th Edition. Pearson Education.

2. Peattie, K., & Crane, A. (2005). Green marketing: legend, myth, farce or prophesy? Qualitative Market Research, 8(4), 357–370.

3. Leonidou, C. N., Katsikeas, C. S., & Morgan, N. A. (2013). Greening the marketing mix: Do greeners lead to greener? International Journal of Business and Social Science, 44(2), 89–105.

4. Ottman, J. A. (2017). The New Rules of Green Marketing: Strategies, Tools, and Inspiration for Sustainable Branding. Routledge.

5. Chen, Y. S., & Chang, C. H. (2013). Enhance green purchase intentions: The roles of green perceived value, green perceived risk, and green trust. Management Decision, 51(1), 63–82.

6. Belz, F. M., & Peattie, K. (2012). Sustainability Marketing: A Global Perspective. Wiley.

7. Grubor, A., & Milovanov, O. (2017). Digital marketing and sustainable development. Sustainability Marketing Journal, 9(12), 1–12.

8. Hartmann, P., & Apaolaza-Ibáñez, V. (2012). Consumer attitude and purchase intention toward green energy brands: The roles of psychological benefits and environmental concern. Journal of Business Research, 65(9), 1254–1263.

9. Zeng, F., Wang, C., & Zhang, J. (2017). Social media use for green marketing: The role of consumer environmental awareness. Journal of Interactive Marketing, 38, 39–53.

QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALARNI BOSHQARISHNING XORIJ MAMLAKATLAR TAJRIBASI VA ULARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Uzakova Umida Ruziyevna
Toshkent davlat transport universiteti
“Korporativ boshqaruv” kafedrasi v.v.b. dotsenti, PhD.

Annotatsiya

Ushbu tadqiqot qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda boshqaruv samaradorligini oshirish yo‘llarini o‘rganishga qaratilgan. Tahlil jarayonida sifat menejmenti tizimlarining jarayon intizomini ta’minlashdagi o‘rni, raqamli transformatsiyaning ishlab chiqarish jarayonlarini real vaqt rejimida nazorat qilishdagi afzalliklari hamda energiya samaradorligi va ekologik boshqaruvning barqaror rivojlanishdagi ahamiyati chuqur ko‘rib chiqildi. Xorijiy tajribalar asosida ishlab chiqilgan xulosalar korxonalar faoliyatini optimallashtirish, resurslardan samarali foydalanish va xalqaro me’yorlarga mos ishlash uchun muhim amaliy tavsiyalar beradi.

Kalit so‘zlar: sifat menejmenti, raqamli transformatsiya, energiya samaradorligi, ekologik boshqaruv, qurilish materiallari sanoati.

Аннотация

Данное исследование направлено на изучение путей повышения эффективности управления на предприятиях по производству строительных материалов. В процессе анализа подробно рассмотрены роль систем менеджмента качества в обеспечении процессной дисциплины, преимущества цифровой трансформации в контроле производственных процессов в режиме реального времени, а также значение энергоэффективности и экологического менеджмента в устойчивом развитии. Выводы, разработанные на основе зарубежного опыта, дают важные практические рекомендации для оптимизации деятельности предприятий, эффективного использования ресурсов и работы в соответствии с международными стандартами.

Ключевые слова: менеджмент качества, цифровая трансформация, энергоэффективность, экологический менеджмент, промышленность строительных материалов.

Abstract

This study is focused on exploring ways to improve management efficiency in construction materials manufacturing enterprises. The analysis thoroughly examines the role of quality management systems in ensuring process discipline, the advantages of digital transformation in real-time monitoring of production processes, as well as the importance of energy efficiency and environmental management for sustainable development. The conclusions, developed based on international experience, provide essential practical recommendations for optimizing enterprise operations, ensuring efficient use of resources, and aligning activities with international standards.

Keywords: quality management, digital transformation, energy efficiency, environmental management, construction materials industry.

KIRISH

So‘nggi yillarda qurilish materiallari sanoati jadal rivojlanib, iqtisodiyotning barqaror o‘sishida muhim o‘rin egallamoqda. Ayniqsa, sement va beton ishlab chiqaruvchi korxonalar ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, mahsulot sifatini oshirish hamda energiya resurslaridan oqilona foydalanishda yangi yondashuvlarga ehtiyoj sezmoqda. Zamonaviy sharoitda samarador boshqaruv faqat ishlab chiqarish jarayonini nazorat qilish bilan cheklanmay, balki sifat, raqamli texnologiyalar va ekologik talablarning uzviy bog‘liqligini ham taqozo etadi.

Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, sifat menejmenti tizimlari jarayon intizomini ta’minlash va nuqsonlarni kamaytirishda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, raqamli transformatsiya texnologiyalari ishlab chiqarish jarayonlarini real vaqt rejimida kuzatish, prediktiv xizmat ko‘rsatish va ma’lumotlarga asoslangan boshqaruvni yo‘lga qo‘yishda samarali natija bermoqda. Energiya samaradorligi va ekologik boshqaruv yondashuvlari esa tannarxni pasaytirish, chiqindilarni kamaytirish va barqaror rivojlanish talablariga mos ishlash imkonini beradi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, sifat menejmenti, raqamli transformatsiya va energiya samaradorligini uyg‘unlashtirish orqali korxonalar nafaqat iqtisodiy samaradorlikka erishadi, balki xalqaro standartlarga moslashib, milliy sanoatning raqobatbardoshligini ham kuchaytiradi. Shu sababli, ushbu ishda xorijiy tajribalarni tahlil qilish, ularni qiyosiy baholash va O‘zbekiston sharoitida qo‘llash imkoniyatlarini aniqlash asosiy vazifa qilib belgilangan.

ADABIYOTLAR SHARHI

Sifat menejmenti: intizom, o‘lchash va barqarorlik. Beton ishlab chiqaruvchilar uchun QMS yo‘riqnomasi siyosat–jarayon–audit zanjirini bir tizimga keltirib, nuqsonlarni kamaytirish va sifatsizlik xarajatlarini nazorat qilishga metodik asos beradi [1]. Bu asos sement sanoatida Lean tamoyillari orqali isroflarni yo‘qotishga va Six Sigma o‘lchash-intizomiga mos keladi. CemLean6S modeli aynan shu ikkisini sement sharoitiga moslashtirib, CTQ ko‘rsatkichlari, nazorat kartalari va PDCA amaliyotlari orqali barqaror ishlashni ta’minlaydi [2]. Amaliy dalil sifatida PT Semen Tonasa misolida DMAIC yordamida qadoqlash bosqichidagi nuqsonlar ildiz sabablari aniqlanib, sigma darajasi hisoblab chiqildi va tuzatish choralariga aylantirildi [3]. Demak, sifat boshqaruvi keyingi raqamli va energiya tashabbuslari uchun tayanch bo‘ladigan “jarayon skeleti”ni yaratadi.

Raqamli transformatsiya: proaktiv boshqaruv va ma’lumot intizomi. Prediktiv texnik xizmat yechimlari sifat intizomini proaktiv darajaga ko‘taradi: AI/ML asosida raqamli egizaklar nozik og‘ishlarni erta aniqlab, reaktiv ta’mirdan oldini oluvchi xizmatga o‘tkazadi [4]. Bunday tizimlar uzluksizlikni oshiradi, to‘xtashlar va ehtiyot qismlar boshqaruvini optimallashtiradi. Raqamlashtirishning muvaffaqiyati esa yagona strategiya va ma’lumot boshqaruviga bog‘liq: FAIR tamoyillari, umumiy ma’lumot modeli va metadata intizomi ko‘p zavodli guruhlarda qiyoslanadigan, ko‘chiriladigan tahlilni ta’minlaydi [5]. Ta’minot zanjiri darajasida SCOR jarayonlari (Plan–Source–Make–Deliver–Return), push/pull dizaynlari va Porter tahlili

sementning tovar tabiatiga mos moslashuvchanlikni beradi; bu raqamli kuzatuvchanlik va logistika sinxronizatsiyasini kuchaytiradi [6]. Sanoat interneti va “Connected Cement Plant” konsepsiyasi esa OT–IT integratsiyasi orqali energiya sarfi, uptime va qarorlar tezligini tizimli yaxshilashga xizmat qiladi [7]. Shunday qilib, raqamli qatlam sifat intizomini real vaqtli boshqaruv va ishonchli ma’lumotlar bilan boyitadi.

Energiya samaradorligi va ekologik boshqaruv: benchmarking va GIIP. Energiya intensivligi yuqori bo‘lgan sement ishlab chiqarishda benchmarking dasturlari “qayerdamiz va qayerga boramiz?” savollariga aniq javob beradi: yonish rejimlari, issiqlikni qayta tiklash, tegirmon samaradorligi kabi yo‘nalishlarda ustuvor choralar tanlanadi va tannarx pasaytiriladi [8]. Issiqxona gazlarini kamaytirish bo‘yicha amaliy menyu — WHR, muqobil yoqilg‘ilar/biomassa, klinker o‘rnini bosuvchilar va elektr-issiq sarfini qisqartirish bo‘yicha case-studylardan iborat bo‘lib, sifat ko‘rsatkichlarini saqlagan holda karbon izini kamaytirishga yo‘naltiriladi [9]. Bu amaliy choralarning barqarorligi EHS Guidelines (Cement & Lime) talablari bilan mustahkamlanadi: energiya, emissiyalar, chiqindilar, OHS va jamoa xavfsizligi bo‘yicha GIIP me’yorlariga moslik talab qilinadi; farq bo‘lsa, qattiqrog‘i qo‘llanadi [10]. Shunday integratsiya raqamli kuzatuvchanlik yordamida o‘lchovli natijalarni hujjatlashtirish va auditdan samarali o‘tish imkonini beradi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotning metodologiyasi qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarni boshqarish bo‘yicha xorijiy tajribalarni o‘rganish va ularni milliy sharoitda qo‘llash imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan. Bunda ilmiy izlanishlar bir necha bosqichda amalga oshirildi.

Birinchi bosqichda, mavjud xalqaro ilmiy adabiyotlar, ilmiy maqolalar, amaliy qo‘llanmalar va sanoat hisobotlari tizimli ravishda yig‘ildi. Manbalarni tanlashda ularning ilmiy ishonchliligi, amaliy qiymati hamda so‘nggi yillardagi dolzarbligi asosiy mezon sifatida belgilandi. Shu jarayonda sifat menejmenti tizimlari, raqamli transformatsiya, ta’minot zanjiri boshqaruvi, energiya samaradorligi va ekologik boshqaruv kabi yo‘nalishlar bo‘yicha 10 ta xorijiy adabiyot asosiy manba sifatida tanlab olindi.

Ikkinchi bosqichda, tanlangan adabiyotlar mazmuni tahlil qilinib, ularning asosiy konseptual yondashuvlari, metodologik asoslari va amaliy xulosalari o‘zaro taqqoslandi. Bu jarayonda turli mamlakatlarda sement va beton ishlab chiqaruvchi korxonalar boshqaruvining samaradorligi, sifatni oshirish usullari hamda energiya resurslaridan oqilona foydalanish tajribalari ilmiy asoslangan holda umumlashtirildi.

Uchinchi bosqichda, xorijiy tajribalarni O‘zbekiston sanoati sharoitlariga moslashtirish imkoniyatlari baholandi. Bu baholashda milliy iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy muhit, mavjud ishlab chiqarish infratuzilmasi hamda korxonalarni modernizatsiya qilishdagi ustuvor yo‘nalishlar inobatga olindi. Shuningdek, xalqaro amaliyotlarning milliy qonunchilik va strategik dasturlar bilan muvofiqligi ham o‘rganildi.

Tadqiqot metodologiyasi sifatida qiyosiy tahlil, kontent-tahlil va konseptual umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Qiyosiy tahlil yordamida turli mamlakatlar

tajribasi o‘zaro solishtirildi, kontent-tahlil esa adabiyotlarda ilgari surilgan g‘oyalarni tizimli tahlil qilish imkonini berdi. Konseptual umumlashtirish orqali esa xorijiy tajribalarning milliy amaliyotda tatbiq etish uchun mos keladigan yo‘nalishlari ajratib olindi.

Natijada, ushbu metodologik yondashuv tadqiqotning nazariy asoslarini mustahkamlash, amaliy tavsiyalar ishlab chiqish va qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan ilmiy xulosalar tayyorlash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarni boshqarish samaradorligini oshirishda uchta asosiy yo‘nalishning o‘zaro bog‘liqligi quyidagicha ifodalanadi. Avval sifat menejmenti tizimlari jarayon intizomini shakllantirib, nuqsonlarni kamaytirish uchun barqaror asos yaratadi. Keyin raqamli transformatsiya ushbu poydevorni real vaqtli monitoring va prediktiv xizmat bilan mustahkamlaydi. Yakunda esa energiya samaradorligi va ekologik boshqaruv natijalarni o‘lchovli, barqaror va xalqaro me’yorlarga mos shaklga keltiradi (1-rasm).



1-rasm. Sement ishlab chiqarish zanjiri va boshqaruv nuqtalari[1]

Beton ishlab chiqaruvchi korxonalar uchun ishlab chiqilgan sifat menejmenti qo‘llanmalari (QMS) amaliyotda uch asosiy bosqich — sifat qo‘llanmasi, jarayon/protseduralar va ish ko‘rsatmalarini bir-biriga bog‘laydi. Bu yondashuv rejalashtirishdan tortib ichki audit va tuzatish choralarigacha bo‘lgan barcha siklni qamrab oladi va ishlab chiqarishdagi sifatsizlik xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirishga xizmat qiladi [1].

Sement sanoatida jarayonlarning murakkabligi Lean va Six Sigma falsafalarini moslashtirishni talab qiladi. Isaksson va Taylor tomonidan taklif etilgan CemLean6S modeli ishlab chiqarishda chiqindilarni kamaytirish, jarayon o‘zgaruvchanligini nazorat qilish va uglerod izini qisqartirishga qaratilgan samarali metodik ramka sifatida e’tirof etiladi [2].

Indoneziyadagi PT Semen Tonasa korxonasida o‘tkazilgan tadqiqot bunga yaqqol misol bo‘la oladi. DMAIC metodologiyasi yordamida qadoqlash bosqichida 2,8 million dona mahsulot tekshirilib, 16 536 nuqson aniqlandi. Nuqsonlarning asosiy sabablari ro‘yxatdan o‘tmagan mahsulotlar (38%), xiralashgan bosma (31%) va kesilgan qoplar (30%) bo‘lganligi qayd etildi. Natijada ishlab chiqarishning sigma

[1] Muallif ishlanmasi

darajasi 1,49 ga teng bo‘lib, bu 93 643 DPMO ko‘rsatkichiga mos keladi [3]. Bunday tizimlashtirilgan yondashuv sifat nazoratini institutsional darajaga olib chiqadi va keyingi transformatsion jarayonlar uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Sifat intizomi mavjud bo‘lganda, jarayonlarni yanada samarali boshqarish uchun ularni real vaqt rejimida kuzatish va oldindan ko‘ra olish muhim ahamiyatga ega. CemAI tomonidan ishlab chiqilgan sun’iy intellekt asosidagi prediktiv texnik xizmat ko‘rsatish yechimlari uskuna ishonchliligini oshirish va to‘xtashlarni kamaytirish imkonini berdi. Masalan, pech reduktoridagi 0,5 mm dan kichik tebranish o‘zgarishi SCADA tizimidan oldin aniqlanib, ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligi ta’minlandi. Bunday tizimlar odatda 8–12 hafta ichida samarali ishlashni boshlaydi [4].

Shuningdek, raqamli transformatsiyaning muvaffaqiyati ma’lumotlarni to‘g‘ri boshqarishga bog‘liq. Carbon Re tadqiqotlari energetika sohasida sinovdan o‘tgan amaliyotlarni sement sanoatiga moslashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Bu, eng avvalo, FAIR tamoyillariga asoslangan yagona raqamli strategiyani ishlab chiqish, ma’lumot standartlarini joriy etish va umumiy ma’lumot modelidan foydalanishni o‘z ichiga oladi [5].

MIT tadqiqotida sement sanoatining ta’minot zanjiri SCOR modeli asosida tahlil qilinib, “grind-to-order” va “pack-to-order” kabi yondashuvlar yordamida talab o‘zgarishlariga moslashuvchan javob berish imkoniyati aniqlangan. Porterning besh kuch modeli orqali esa sanoatdagi raqobat omillari chuqur o‘rganilgan [6].

Raqamli transformatsiyaning yana bir amaliy yo‘nalishi IIoT va aqlli ishlab chiqarish kontsepsiyalarini qo‘llashdir. Rockwell Automation tomonidan taklif etilgan “Connected Cement Plant” konsepsiyasi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, energiya sarfini kamaytirish va boshqaruv qarorlarini tezlashtirish imkonini beradi [7].

Shunday qilib, raqamli nazorat va ma’lumot intizomi energiya samaradorligi va ekologik boshqaruvni o‘lchovli natijalarga bog‘laydi.

Energiya resurslari yuqori hajmda sarflanadigan sement ishlab chiqarishda energiya samaradorligini oshirish alohida ahamiyat kasb etadi. Kanada sement sanoati bo‘yicha olib borilgan benchmarking tadqiqotlari ko‘rsatishicha, issiqlikni qayta tiklash, yonish jarayonini optimallashtirish va elektr energiyasi iste’molini kamaytirish orqali tannarxni pasaytirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish mumkin [8].

Shuningdek, Hindiston Milliy Mahsuldorlik Kengashi tomonidan ishlab chiqilgan qo‘llanmada chiqindilardan energiya olish, muqobil yoqilg‘ilardan foydalanish va klinker o‘rnini bosuvchi materiallarni qo‘llash orqali issiqxona gazlarini kamaytirish tajribalari tahlil qilingan [9].

Bunday tajribalarni umumlashtiruvchi xalqaro standart sifatida Jahon banki guruhi tomonidan ishlab chiqilgan *EHS Guidelines for Cement and Lime Manufacturing* hujjati muhim o‘rin tutadi. U energiya samaradorligi, havo emissiyalari, atrof-muhit xavfsizligi va mehnat muhofazasi bo‘yicha GIIP tamoyillarini belgilaydi. Muhim jihati shundaki, milliy me’yorlar va xalqaro talablar o‘rtasida farq bo‘lsa, korxonalar qattiqroq talablarni bajarishi zarur hisoblanadi [10].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda samarali boshqaruv uch asosiy yo‘nalishning izchil uyg‘unligiga tayanadi. Birinchidan, sifat menejmenti tizimlari jarayon intizomini ta’minlab, nuqsonlarni kamaytirish va mahsulot barqarorligini oshirishga xizmat qiladi. Ikkinchidan, raqamli transformatsiya vositalari — sun’iy intellekt, IIoT va prediktiv xizmat ko‘rsatish usullari — mavjud jarayonlarni real vaqt rejimida nazorat qilish, ishlab chiqarish uzluksizligini ta’minlash va boshqaruv qarorlarini tezlashtirish imkonini beradi. Uchinchidan, energiya samaradorligi va ekologik boshqaruv yondashuvlari tannarxni kamaytirish, resurslardan oqilona foydalanish va barqaror rivojlanish talablariga javob berishni ta’minlaydi. Ushbu uch yo‘nalish bir-birini to‘ldirgan holda korxona faoliyatining samaradorligini oshiradi va raqobatbardoshligini mustahkamlaydi.

Tadqiqot asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- Korxonalarda sifat menejmenti tizimlarini joriy etish va ularni xalqaro standartlarga moslashtirish zarur.
- Raqamli texnologiyalarni bosqichma-bosqich tatbiq etish, prediktiv xizmat ko‘rsatish va ma’lumot boshqaruvini yo‘lga qo‘yish lozim.
- Energiya samaradorligi bo‘yicha benchmarking tizimidan foydalanish, muqobil yoqilg‘ilar va chiqindidan energiya olish amaliyotlarini kengaytirish maqsadga muvofiq.
- Korxona faoliyatida ekologik boshqaruv me’yorlarini kuchaytirish va xalqaro *EHS* talablariga mos ravishda ishlash zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. National Ready Mixed Concrete Association. (2015). Quality Management System for Ready Mixed Concrete Companies. NRMCA Publication.
2. Isaksson, R., & Taylor, R. (2019). CemLean6S: Combining Lean and Six Sigma in the Cement Industry. International Journal of Quality & Reliability Management, 36(3), 321–337.
3. Lantara, I. W., et al. (2020). Application of DMAIC Method to Improve Product Quality in Cement Industry: Case of PT Semen Tonasa. Journal of Physics: Conference Series, 1569(3), 032089.
4. CemAI. (2022). Artificial Intelligence in Predictive Maintenance for Cement Plants. CemAI White Paper.
5. Carbon Re. (2023). Digitalization in the Cement Industry: Getting It Right by Learning from the Energy Sector. Carbon Re Report.
6. Massachusetts Institute of Technology (MIT). (2018). Supply Chain Optimization in the Cement Industry: SCOR Model Application. MIT Working Paper.
7. Rockwell Automation. (2021). Connected Cement Plant: Industrial IoT for Smarter Manufacturing. Rockwell Automation White Paper.
8. Natural Resources Canada (NRCan). (2017). Benchmarking Energy Efficiency in the Canadian Cement Industry. Ottawa: NRCan Publications.
9. National Productivity Council of India. (2015). GHG Reduction in the Cement Sector: A Guide for Energy Efficiency and Cleaner Production. NPC Technical Report.

10. World Bank Group. (2022). Environmental, Health, and Safety (EHS) Guidelines for Cement and Lime Manufacturing. Washington, DC: World Bank Publications.

TEMIR YO‘L TRANSPORTI INFRATUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISH VA LOGISTIKA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Qilichev Umid Ibodullayevich
Toshkent davlat transport universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Maqolada temir yo‘l transporti infratuzilmasida sun’iy intellekt texnologiyalarining qo‘llanish imkoniyatlari tahlil qilingan. Asosiy e’tibor diagnostika va texnik xizmat samaradorligini oshirish, yuk oqimlarini modellashtirish, raqamli egizaklardan foydalanish hamda yuqori tezlikdagi poyezdlar boshqaruvini optimallashtirishga qaratildi. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, SI texnologiyalari xavfsizlikni mustahkamlash, ekspluatatsion xarajatlarni kamaytirish va logistika jarayonlarini samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Taklif etilgan yondashuvlar transport tizimining barqaror rivojlanishiga hissa qo‘shishi mumkin.

Kalit so‘zlar: temir yo‘l transporti, sun’iy intellekt (SI), diagnostika, modellashtirish, Digital Twin, logistika, samaradorlik, xavfsizlik.

Аннотация

В статье анализируются возможности применения технологий искусственного интеллекта в инфраструктуре железнодорожного транспорта. Основное внимание уделено повышению эффективности диагностики и технического обслуживания, моделированию грузопотоков, использованию цифровых двойников, а также оптимизации управления высокоскоростными поездами. Анализ научных источников показывает, что технологии ИИ играют важную роль в укреплении безопасности, снижении эксплуатационных затрат и эффективной организации логистических процессов. Предлагаемые подходы могут способствовать устойчивому развитию транспортной системы.

Ключевые слова: железнодорожный транспорт, искусственный интеллект (ИИ), диагностика, моделирование, цифровой двойник, логистика, эффективность, безопасность.

Abstract

The article examines the application potential of artificial intelligence technologies in railway transport infrastructure. The focus is on improving diagnostic and maintenance efficiency, modeling freight flows, utilizing Digital Twins, and optimizing high-speed train management. The analysis of scientific sources indicates that AI technologies play a crucial role in enhancing safety, reducing operational costs, and effectively organizing logistics processes. The proposed approaches can contribute to the sustainable development of the transport system.

Keywords: railway transport, artificial intelligence (AI), diagnostics, modeling, Digital Twin, logistics, efficiency, safety.

KIRISH

Temir yo‘l transporti iqtisodiy tizimlarning barqaror ishlashi va hududlar o‘rtasidagi integratsiyani ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Bu soha nafaqat yirik yuklarni tashish, balki yo‘lovchi harakatini samarali tashkil etishda ham strategik ahamiyat kasb etadi. Transport tarmoqlarining kengayishi, yuk oqimlarining ortishi va xavfsizlik talablari oshishi temir yo‘l infratuzilmasini yangilash va samaradorlikni oshirishni talab etadi. Shu sababli innovatsion texnologiyalarni joriy etish transport tizimining barqaror rivojlanishida ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

So‘nggi yillarda sun’iy intellekt texnologiyalari turli sohalarda keng joriy etilib, samarali natijalar ko‘rsatmoqda. Temir yo‘l tizimi bundan mustasno emas. Ma’lumotlarni katta hajmda qayta ishlash, texnik xizmat muddatlarini prognozlash, yuk oqimlarini optimallashtirish va xavfsizlikni monitoring qilish kabi jarayonlarda SI yechimlari yuqori samaradorlikni namoyon etmoqda. Ilmiy adabiyotlarda chuqur o‘rganish algoritmlari, agentga asoslangan modellashtirish, raqamli egizak texnologiyalari va kuchaytirib o‘rganish modellarining amaliy qo‘llanishi tahlil qilingan va ularning ijobiy natijalari ko‘plab tajribalar orqali isbotlangan.

Temir yo‘l infratuzilmasining rivojlanishida SI texnologiyalari bir nechta asosiy maqsadlarni amalga oshirishga yordam beradi: xavfsizlikni oshirish, ekspluatatsion xarajatlarni kamaytirish, resurslardan foydalanishni samarali tashkil etish va logistika jarayonlarini optimallashtirish. Bunda ilmiy izlanishlar nazariy yondashuvlar bilan cheklanmay, real tajribaviy natijalar orqali ham asoslanadi. Shu jihatdan, temir yo‘l transportida sun’iy intellektni qo‘llash bo‘yicha ilmiy izlanishlar amaliy rivojlanishga bevosita hissa qo‘shmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining temir yo‘l infratuzilmasi va logistika tizimlariga joriy etilishi bilan bog‘liq zamonaviy ilmiy adabiyotlar muayyan yo‘nalishlarga ixtisoslashgan va har bir tadqiqotda aniq amaliy yondashuvlar taklif etilgan. Tahlil qilingan manbalar texnik xizmatni avtomatlashtirishdan tortib, real vaqtli monitoring, yuk oqimini modellashtirish, raqamli egizak modellar va marshrutlash tizimlarigacha bo‘lgan muhim yo‘nalishlarni qamrab oladi.

Texnik xizmat va diagnostika sohasida [1] va [2] tadqiqotlari asosiy manba sifatida ajralib turadi. Ahmad [1] o‘z ishida texnik nosozliklarni erta aniqlash uchun chuqur o‘rganish algoritmlarini rels holatini kuzatishga integratsiyalashgan model asosida ishlab chiqqan. Ayniqsa, sun’iy neyron tarmoqlari asosida yaratilgan ushbu model yuqori aniqlikda natijalar bergani bilan ahamiyatlidir. Alawad [2] esa SI asosidagi monitoring tizimlari orqali real vaqtli nosozlik prognozini taklif qilgan. Har ikki manbada xavfsizlik va texnik xizmat intervalini optimallashtirish SI yondashuvi orqali amalga oshirilgani ko‘rsatilgan.

Transport oqimlarini modellashtirish bo‘yicha Bo‘riyev [3] agentga asoslangan simulyatsiya tizimini ishlab chiqib, yuk oqimini marshrutlash va stansiyalar yuklanishini optimallashtirishda qo‘llagan. Bu uslub yuk zanjirining operatsion yuklanishini tahlil qilishda yuqori samaradorlik bergani bilan boshqa manbalar bilan bog‘liq bo‘ladi, ayniqsa [5] va [10] bilan.

Liu va hamkorlari [4] esa sun’iy intellektning transport tizimlaridagi umumiy integratsiyasi haqida chuqurroq qarashlarni taqdim etadi. Ular SI asosidagi monitoring va boshqaruv tizimlarining real vaqtli qaror qabul qilishdagi rolini yoritib beradi. Ushbu qarashlar [6] tomonidan keltirilgan ochiq ma’lumotlar to‘plamlaridan foydalanish bo‘yicha yondashuvlar bilan to‘ldiriladi. Pappaterra [6] o‘z tadqiqotida SI modellarining sifatli ishlashi uchun toza, strukturali va tavsiflangan ma’lumotlar bazasining zarurligini asoslab bergan.

SI texnologiyalarining raqamli egizak (Digital Twin) tizimlari bilan integratsiyasi bo‘yicha [7] va [8] ishlari alohida ahamiyatga ega. Sarp [7] tomonidan taqdim etilgan Digital Twin modeli sun’iy intellekt bilan bog‘langan holda texnik xizmat rejalashtirish jarayonlarini avtomatlashtirishda qo‘llaniladi. SresakoolchSI [8] esa Digital Twin texnologiyasining ekspluatatsion holatlarni real vaqtli modellashtirishdagi ustunliklarini asoslagan. Ushbu yondashuvlar texnik xizmat samaradorligini oshirish bilan birga, xizmat xarajatlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

Yin va boshqalar [9] tomonidan olib borilgan tadqiqotda esa sun’iy intellektning yuqori tezlikdagi poyezdlar tizimidagi qo‘llanilishi tahlil qilinadi. Ushbu model poyezd tezligi, harakatlanish intensivligi va tormozlash algoritmlarini optimallashtirish orqali energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan. Bu yondashuvlar texnik xizmat bilan bog‘liq tahlillarni [1][2] bilan bevosita bog‘laydi.

Bae va hamkorlar [10] tomonidan taqdim etilgan logistik tizimlar uchun ishlab chiqilgan SI modeli esa multimodal tashish tizimlarini o‘zaro bog‘lab, harakat holatini real vaqt monitoringi, yuk tashish ketma-ketligini optimallashtirish va yuk saqlash zanjirlarini avtomatlashtirishga qaratilgan. Bu yondashuv transport tizimidagi umumiy operatsion samaradorlikni oshirishda SI texnologiyalarining amaliy imkoniyatlarini ko‘rsatadi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda temir yo‘l transporti infratuzilmasida sun’iy intellekt texnologiyalarining qo‘llanilish imkoniyatlari tizimli tahlil qilindi. Metodologik yondashuv sifatida ilmiy maqolalarning mazmuniy tahlili, texnologik yechimlarning solishtirma bahosi hamda real modellashtirish amaliyotlari asos bo‘ldi. Ma’lumotlar “agent-based modeling”, “Digital Twin”, “deep learning” va “reinforcement learning” kabi texnologiyalarni qamrab olgan manbalardan olindi. Tahlil davomida SI modellarining texnik xizmat, monitoring, yuk oqimi va logistika tizimlaridagi funksional jihatlari baholandi. Har bir texnologiya natijalari asosida samaradorlik darajasi, real qo‘llanilish holatlari va integratsion imkoniyatlar aniqlashtirildi. Uslubiy yondashuvlar natijalarga asoslangan xulosalar chiqarish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining temir yo‘l transporti infratuzilmasini takomillashtirish va logistik tizimlarni samarali boshqarishdagi imkoniyatlari chuqur tahlil qilindi. Ilmiy manbalar tahliliga asoslanib, ushbu texnologiyalarni turli bosqichlarda integratsiyalash orqali transport tizimining ishonchliligi, xavfsizligi va samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkinligi

aniqlangan. SI algoritmlari texnik xizmatni avtomatlashtirish, harakat jarayonlarini real vaqt monitoring qilish, yuk oqimini optimallashtirish, va ekspluatatsion xarajatlarni kamaytirish kabi ko‘plab funksiyalarni bajarishda yuqori natijalarga erishmoqda.

Dastlabki kuzatishlar sun’iy intellekt algoritmlarining texnik xizmat tizimlaridagi qo‘llanilishini ko‘rsatadi. Ayniqsa, chuqur o‘rganish asosida ishlab chiqilgan neyron tarmoqlar real vaqt rejimida relslar holatini monitoring qilish, nosozliklarni aniqlash va texnik og‘ishlarni avtomatik tahlil qilish imkonini bermoqda [1], [2]. Bu uslub rels deformatsiyasi, silkinish chastotasi, harorat ta’siri kabi omillarni baholab, nosozliklarni aniqlashda 92% aniqlikka erishgan [2]. Bu orqali relslar va boshqa inshootlarda avariyalarning oldini olish imkoniyati oshadi, texnik xizmatlar esa jadval asosida emas, balki real ekspluatatsion ehtiyojga asosan rejalashtiriladi.

Keyingi bosqichda yuk tashish oqimlarini modellashtirishda agentga asoslangan simulyatsiya tizimlarining qo‘llanilishi muhim omil sifatida ko‘rsatildi. Har bir yuk birligi mustaqil agent sifatida modellashtiriladi, bu esa yuk oqimlarining stansiyalar bo‘yicha taqsimlanishini, tranzit vaqtini va yuk sig‘imlarining optimal darajada yuklanishini tahlil qilish imkonini beradi [3]. Simulyatsiya natijalariga ko‘ra, agent-based modeling yordamida tranzit vaqtini 17% ga qisqartirishga erishilgan va stansiyalardagi yuk to‘planishi kamaytirilgan [3].

Shuningdek, zamonaviy transport tizimlarida sun’iy intellekt algoritmlarining tizimli integratsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Ular avtomatik marshrutlash, real vaqt qaror qabul qilish, xavfsizlik monitoringi va foydalanuvchiga yo‘naltirilgan boshqaruv tizimlarini amalga oshiradi [4]. SI modellarining bunday integratsiyasi texnik nosozliklar, yuk kechikishlari va xizmat xarajatlarining oldini olishga xizmat qiladi [5].

Ma’lumotlar sifati esa SI modellarining ishonchliligini belgilovchi asosiy omildir. Raqamli relslar koordinatalari, GPS yo‘llanmalar, texnik xizmat loglari, va sensorlardan kelayotgan real vaqt ma’lumotlari SI modelga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi. Sifatli va to‘liq ma’lumotlar SI modellarining bashorat qilish aniqligini oshirib, transport oqimini tahlil qilishda yuqori aniqlik bilan ishlash imkonini yaratadi [6]. Ayniqsa, ochiq ma’lumotlar to‘plamlaridan foydalanish orqali modellar doimiy ravishda yangilanib boradi.

Shu bilan birga, temir yo‘l infratuzilmasida fizik tizimning raqamli nusxasi — ya’ni Digital Twin texnologiyasi keng qo‘llanilmoqda. Bu texnologiya real infratuzilmaning SI bilan boshqariladigan raqamli modelini yaratadi. Digital Twin orqali texnik xizmatlar, texnologik eskirish va ekspluatatsion tahlillar ilg‘or algoritmlar yordamida bashorat qilinadi [7],[8]. Tizimlar sun’iy muhitda sinovdan o‘tkazilib, xavflarning oldini olish strategiyalari ishlab chiqiladi.

SI texnologiyalari yuqori tezlikdagi poyezdlar tizimlarida ham o‘z samaradorligini isbotlagan. Marshrut optimallashtirish, tormozlash algoritmlari, tezlikni nazorat qilish kabi vazifalar uchun reinforcement learning va ilg‘or SI modellaridan foydalaniladi. Natijada, energiya sarfi 12% ga kamaytiriladi va poyezd harakatining barqarorligi oshadi [9].

Bundan tashqari, transport logistikasida SI texnologiyalarining boshqa raqamli vositalar bilan integratsiyasi — masalan, IoT va Big Data — transport zanjirini avtomatik boshqarishga imkon beradi. Harakat holati, yuk hajmi, yuklama muddatlari, va yetkazib berish marshrutlari SI orqali boshqariladi. Bu yondashuv chegara o‘tish punktlari, terminal va ombor sig‘imi, va tranzit rejimlarining optimallashuviga olib keladi [10].

Quyidagi jadvalda SI texnologiyalarining asosiy turlari, ular haqida qisqacha izoh, qo‘llanilish sohasi, kutilgan natijasi va manba raqamlari keltirilgan:

1-jadval.

SI texnologiyalarining taqqoslanishi, qo‘llanish sohasi va manbalari[1]

№	Texnologiya turi	Izohi	Qo‘llanilish sohasi	Kutilgan natija
1	Deep Learning[1]	Keng qatlamli neyron tarmoqlar asosida avtomatik xulosa chiqarish	Rels holatini monitoring qilish	92% aniqlik bilan nosozlik aniqlash
2	Agent-based Simulation [3]	Mustaqil harakat qiluvchi agentlar orqali tizimni simulyatsiya qilish	Yuk oqimi optimizatsiyasi	17% tranzit vaqtini qisqartirish
3	Digital Twin[7]	Fizik tizimning raqamli nusxasi orqali monitoring va tahlil	Texnik xizmat rejalashtirish	30% xizmat xarajatlarini kamaytirish
4	Reinforcement Learning[9]	Harakatlar natijasini o‘rganib, mukofot asosida qaror chiqarish	Marshrutlash, xavfsizlik	Energiya iste’molini 12% kamaytirish

SI texnologiyalari tizimga qanday integratsiyalashishini ko‘rsatish uchun quyidagi konseptual model shakllantirildi. Bu diagramma sun’iy intellekt yordamida sensorlar, tahlil modullari, qaror qabul qilish algoritmlari va texnik xizmat funksiyalarining uzluksiz faoliyatini aks ettiradi.

1-rasm. Temir yo‘l infratuzilmasida SI integratsiyasi modeli[2]

Rasmdan ko‘rinib turibdiki, har bir bosqich oldingi bosqichdan olingan real vaqt ma’lumotlariga asoslanadi. Sensorlar yordamida to‘plangan ma’lumotlar SI modellariga uzatiladi, ular tahlil qilinib, texnik xizmat rejalari avtomatik shakllantiriladi. Yakuniy natijada esa operatsion barqarorlik va samaradorlik oshadi.

[1] Muallif ishlanmasi
[2] Muallif ishlanmasi

Zamonaviy sun'iy intellekt texnologiyalari transport infratuzilmasini faqat avtomatlashtirish emas, balki strategik optimallashtirish vositasi sifatida ishlatilmoqda. Ushbu yondashuvlar harakat barqarorligi, xavfsizlik, texnik xizmat samaradorligi va logistika integratsiyasi nuqtSI nazaridan muhim ilmiy va amaliy yechimlarni taklif qilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'rganilgan ilmiy manbalar va tahlillar sun'iy intellekt texnologiyalarining temir yo'l transportida qo'llanishi aniq amaliy natijalar berishini ko'rsatdi. Chuqur o'rganish modellaridan foydalanish relslarning texnik holatini yuqori aniqlikda kuzatish va nosozliklarni erta aniqlash imkonini beradi[2]. Agentga asoslangan modellar yuk oqimining harakatini tahlil qilish va tranzit vaqtini qisqartirishda samarali natijalar ko'rsatmoqda [3]. Integratsion boshqaruv tizimlari esa qaror qabul qilishni tezlashtirib, ekspluatatsion resurslardan foydalanishni yaxshilashga yordam beradi[5].

Ma'lumotlar bazalarining to'liq va sifatli bo'lishi SI modellarining ishonchliligini oshiradi. Ochiq ma'lumotlardan foydalanish yangi tahlil usullarini sinovdan o'tkazish imkonini beradi [6]. Digital Twin texnologiyasi real infratuzilma nusxasini yaratish orqali texnik xizmat muddatlarini rejalashtirish va xizmat xarajatlarini kamaytirishda yuqori samaradorlik ko'rsatmoqda[7]. Yuqori tezlikdagi poyezdlar tizimida SI algoritmlarining qo'llanilishi energiya tejamini oshirgan va xavfsizlik darajasini yaxshilagan [9]. Logistika tizimlarida esa AI, IoT va Big Data asosidagi yechimlar yuklarni samarali boshqarish va multimodal tashishlarni muvofiqlashtirishga imkon bergan.

Tahlillardan kelib chiqib quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Rels va boshqa inshootlar holatini baholash uchun SI asosidagi monitoring tizimlarini bosqichma-bosqich joriy etish.
2. Temir yo'l transporti uchun maxsus ma'lumotlar bazalarini yaratish va ilmiy hamjamiyat uchun ochiq qilish.
3. Digital Twin texnologiyasini ekspluatatsion jarayonlarga kiritish va uni texnik xizmat dasturlari bilan bog'lash.
4. Yuqori tezlikdagi poyezdlar uchun SI yordamida energiya sarfini kamaytirishga qaratilgan modellarni kengaytirish.
5. Multimodal logistika tizimlarida SI asosida avtomatlashtirilgan boshqaruv mexanizmlarini keng qo'llash.

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt texnologiyalarini temir yo'l transportida tatbiq etish texnik xizmat, yuk oqimi va logistika boshqaruvi samaradorligini oshiradi, xavfsizlik darajasini yaxshilaydi va iqtisodiy natijalarni ijobiy tomonga o'zgartiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ahmad, W. (2022). Artificial intelligence-based condition monitoring of rail infrastructure (PDEng Thesis). Eindhoven University of Technology. https://research.tue.nl/en/publications/artificial-intelligence-based-condition-monitoring-of-rail-infra

2. Alawad, H. (2022). A hybrid artificial intelligence approach for rail infrastructure fault diagnosis and maintenance planning (PhD thesis). University of Huddersfield. https://eprints.hud.ac.uk/id/eprint/35785/

3. Bo‘riyev, S. (2025). Freight flow simulation and optimization on the Uzbekistan–Kyrgyzstan–China railway using agent-based modeling. International Journal of Artificial Intelligence, 3(2), 87–102. Retrieved from: https://inlibrary.uz/index.php/ijai/article/view/108402

4. Liu, H., Wang, T., Zhang, J., & Gao, Y. (2022). Artificial intelligence in transportation systems: Advances, challenges, and prospects. Journal of Advanced Transportation, 2022, Article ID 7265721. https://doi.org/10.1155/2022/7265721

5. Nagy, R., Hor vát, F., & Fischer, S. (2024). Innovative approaches in railway management: Leveraging big data and artificial intelligence for predictive maintenance. Tehnički Vjesnik, 31(4), 1245–1259. Retrieved from: https://doi.org/10.17559/TV-20240420001479

6. Pappaterra, M. J., Flammini, F., Vittorini, V., & Bešinović, N. (2024). A systematic review of artificial intelligence public datasets for railway applications. Infrastructures, 6(136), 1–28. https://doi.org/10.3390/infrastructures6010136

7. Sarp, S. (2024). Digitalization of railway transportation through AI-powered services: Digital Twin trains. European Transport Research Review, 16(58). https://doi.org/10.1186/s12544-024-00679-5

8. Sresakoolchai, J. (2023). Railway infrastructure maintenance efficiency improvement using deep reinforcement learning integrated with Digital Twin. Scientific Reports, 13, 2439. https://doi.org/10.1038/s41598-023-29526-8

9. Yin, M., Li, K., & Cheng, X. (2020). A review on artificial intelligence in high-speed rail. Transportation Safety and Environment, 2(4), 247–259. https://doi.org/10.1093/tse/tdaa022

10. Bae, H., Kim, K. H., Meisel, F., & Park, K. S. (2025). Smart maritime logistics supported by advanced technologies. Maritime Policy & Management, 52(4), 515–516. https://doi.org/10.1080/03088839.2025.2474470

UNIVERSITETNI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA BENCHMARKING USULIDAN FOYDALANISH YO‘LLARI

Maxmudov Faxriddin Umarovich
Toshkent amaliy fanlar universiteti tadqiqotchisi
E-mail: faxriddin.maxmudov.1984@gmail.com

Annotatsiya

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimini rivojlantirishning samarali yo‘llaridan biri innovatsion boshqaruv usullarini joriy etishdan iborat. Bunda eng istiqbolli usullardan biri sifatida benchmarking texnologiyasini keltirish mumkin. Universitet boshqaruvida benchmarkingni amalga oshirishda “20 kalit” dasturini asosiy yo‘riqnoma sifatida qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Mazkur tadqiqotda oliy ta’lim muassasalarida benchmarkingdan foydalanishda “20 kalit” dasturini amalga oshirishga qaratilgan yondashuv taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: benchmarking, universitet boshqaruvi, “20 kalit” dasturi.

Аннотация

Одним из эффективных путей развития системы высшего образования Узбекистана является внедрение инновационных методов управления. Одной из наиболее перспективных технологий в этой сфере является бенчмаркинг. Для реализации бенчмаркинга в управлении университетом рекомендуется использовать программу «20 ключей» в качестве основного руководства. В исследовании предлагается подход к реализации программы «20 ключей» при использовании бенчмаркинга в высших учебных заведениях.

Ключевые слова: бенчмаркинг, управление университетом, программа “20 ключей”

Abstract

One of the effective ways to develop the higher education system of Uzbekistan is the introduction of innovative management methods. Benchmarking is one of the most promising technologies in this area. To implement benchmarking in university management, it is recommended to use the "20 Keys" program as a key guide. This study proposes an approach to implementing the "20 Keys" program in the use of benchmarking in higher education institutions.

Keywords: benchmarking, university management, "20 Keys" program.

KIRISH

O‘zbekiston hamda butun dunyo oliy ta’lim xizmatlari iste’molchilari ta’lim sifati masalasini ustuvor vazifa sifatida qo‘yadi. Oliy o‘quv yurtlari o‘rtasidagi mavjud raqobat muhiti oliy malakali mutaxassislar tayyorlaydigan muassasalarning yuqori darajadagi menejerlarini oliy ta’lim muassasasini boshqarishning zamonaviy usullarini o‘zlashtirishga majbur qilmoqda. Ular bu usullar orqali tayyorlanayotgan mahsulot va xizmatlar sifatini, jarayonlar sifatini va boshqaruv tizimlari sifatini takomillashtirishga intilishadi.

Tashkilotni rivojlantirishning samarali va oddiy usullari qatorida butun dunyo bo‘ylab O‘zbekiston pedagogik jamoatchiligi uchun ilgari noma’lum bo‘lgan “benchmarking” atamasi tobora ko‘proq tilga olinmoqda.

Benchmark (bench – joy, mark – belgilamoq) – bu yuz yillar davomida yer o‘lchovchilar tomonidan qo‘llanilgan atama. Yer o‘lchovchilar “benchmark”lardan – masofalarni hisoblash boshlanishidagi boshlang‘ich belgilar sifatida – foydalanganlar. Ular bu belgilarni yer uchastkalarining chegaralarini aniqlashda boshlang‘ich nuqta sifatida ishlatishgan.

Eng umumiy ma’noda, benchmark – bu ma’lum miqdor yoki sifatga ega bo‘lgan va boshqa narsalar bilan solishtirishda standart yoki o‘lchov sifatida ishlatilishi mumkin bo‘lgan hodisadir.

XX asrning boshida benchmarking mahsulot darajasini baholash uchun etalon (o‘lchov) sifatida qo‘llanilgan. Uning yordamida raqib o‘z mahsulotlarini qanday yaratishi va ushbu mahsulot qanchalik yaxshi ekanligini aniqlash maqsad qilingan. Qisqacha aytganda, benchmarking raqobatchining mahsulotini solishtirish va uning ijobiy tomonlarini o‘rganish vositasi sifatida qo‘llanilgan.

Benchmarking bilan birinchi marta Ikkinchi jahon urushidan keyin Yaponiyada shug‘ullana boshlashgan. O‘sha paytda mamlakat rahbariyatiga o‘zini rivojlangan davlatlar bilan solishtirish, jahon sanoat davlatiga qanday aylanishni tushunish uchun benchmarking muhim vosita bo‘lgan. Yaponlar ushbu tushunchaga yangi mazmun kiritdilar: butun dunyo bo‘ylab “sanoat safari”larini amalga oshirib, eng yaxshi kompaniyalarni benchmarking qilish orqali ular raqobatchilarni o‘rganishda birinchi marta mahsulotga emas, balki uning ishlab chiqarish jarayoniga e’tibor qaratdilar. Bu Yaponiyaga XX asrning 70-yillarida AQShni jahon bozorlaridan siqib chiqarish imkonini berdi.

Hozirgi vaqtda benchmarking global hodisa maqomiga ega bo‘lib, dunyoning turli kompaniyalari doimiy rivojlanish va takomillashtirish uchun to‘plangan bilim va tajribalarni almashish imkonini beruvchi vosita sifatida qaralmoqda.

Benchmarking ayrim kompaniyalar boshqalariga qaraganda ancha yuqori natijalarga qanday va nima uchun erishishlarini tushunish san’ati sifatida ham namoyon bo‘ladi. Bu — ilg‘or boshqaruv tajribasini uzatish va moslashtirishni rasmiylashtirishga imkon beradigan innovatsion boshqaruv texnologiyasidir.

XX asrning 90-yillari boshida Buyuk Britaniya, AQSh, Germaniya, Shvetsiya va Italiya benchmarking markazlari dunyo miqyosida etalonli taqqoslash usulini rivojlantirish bo‘yicha kuchlarni birlashtirib, mustaqil benchmarking markazlari hamjamiyati sifatida Global Benchmarking Network (GBN)ni tashkil etdilar. Bugungi kunda ushbu tarmoq dunyoning 24 mamlakatidagi shunga o‘xshash markazlarni birlashtiradi.

GBN qatori ta’lim sohasida ham global benchmarking hamjamiyatlari muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Ular orasida Oliy ta’limni benchmarking tahlili konsorsiumi (CHEBA), Davlat sektorida benchmarking xizmati (PSBS), Ta’lim benchmarking Inc. (EBI) va boshqa xalqaro etalonli taqqoslash markazlari ajralib turadi.

Global benchmarkingning faol rivojlanishiga sifat sohasidagi nufuzli tanlovlar, jumladan, Malcolm Baldridge milliy sifat mukofoti (AQSh), Yaponiya sifat mukofoti, Yevropa sifat mukofoti va boshqa mukofotlar turtki bermoqda.

Benchmarking AQShdagi kasbiy ta'lim assotsiatsiyalari (NACUBO — Kollej va universitet biznes xodimlari milliy assotsiatsiyasi, ACHE — Oliy ta'limni davom ettirish assotsiatsiyasi), ayrim oliy o'quv yurtlari (Chikago universiteti, Oregon, Pensilvaniya, Yuta va boshqa shtatlardagi universitetlar) hamda xususiy konsalting kompaniyalari (Educational Benchmarking, The Benchmarking Exchange va boshqalar) tomonidan keng qo'llaniladi.

Yevropada esa Universitetlarning strategik menejmenti bo'yicha Yevropa markazi (ESMU, Belgiya) taniqli bo'lib, u yerda bir necha yildan beri "Benchmarking" dasturi muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Ushbu dastur ishtirok etayotgan universitetlarga o'zlarining asosiy boshqaruv jarayonlarini tahlil qilish va takomillashtirish imkonini bermoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Hozirgi vaqtda "benchmarking" tushunchasining ko'plab turli ta'riflari mavjud.

Benchmarking — bu insonning tabiiy qiziquvchanligining bir shakli bo'lib, u orqali hamkorlik va do'stlik imkoniyatlari o'rganiladi[1].

Benchmarking — bu kompaniyaning asosiy ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini o'z raqobatchilari va sohadagi yetakchilarning shunga o'xshash ko'rsatkichlari bilan tizimli o'rganish va solishtirishdir[2].

Benchmarking — bu ma'lum standartlar asosida mahsulot yoki jarayonni boshqa shunga o'xshash mahsulot yoki jarayonlar bilan solishtirish usulidir[3].

Benchmarking — bu takomillashtirish va o'z-o'zini tartibga solish maqsadida amaliyot, faoliyat jarayoni va uning natijalarini tizimli solishtirish va baholash jarayonidir[4].

Shuni ta'kidlash kerakki, benchmarkingning "belgi" sifatidagi tushunilishi o'rganilayotgan jarayonlar yoki benchmarking qilinayotgan mahsulot va xizmatlardagi farq va tafovutlarni aniqlash uchun ishlatiladi. Bu ma'noda benchmarking faqat o'lchovlar jarayonini aks ettiradi va solishtirilayotgan obyektlar orasidagi tafovut va farqlarni izohlamaydi, yetakchidan ortda qolishni qanday kamaytirish kerakligini ko'rsatmaydi.

Benchmarkingni oliy ta'lim muassasasini boshqarish vositasi sifatida qo'llashda uni tahlil qilish va eng yaxshi amaliyotni izlash tartibi sifatida qabul qilish juda muhimdir. Eng yaxshi amaliyotni faqat benchmarking qilinayotgan obyektlarni

[1] Karjalainen A., Kuortti K. & Niinikoski S. Creative Benchmarking. University of Oulu & Finnish Higher Education Evaluation Council. – University Press of Oulu, 2002.
[2] Dervitsiotis K.N. Benchmarking and business paradigm shifts // Total Quality Management. – 2000. – № 11. – P. 41–46.
[3] Pepper D., Webster. F. and Jenkins. A. Benchmarking in geography: some implications for assessing dissertation in the undergraduate curriculum // Journal of Geography in Higher Education. – 2001. – Vol. 25. – № 1. – P. 23–35.
[4] Jackson N. Benchmarking in UK HE: An overview // Quality Assurance in Education. – 2001. – Vol. 9. – № 4. – P. 218–235.

solishtirish uchun asos bo‘ladigan belgilar to‘plamini qiyosiy tahlil qilish orqali topish mumkin.

Eng yaxshi amaliyotni izlash jarayoni sifatida benchmarking obyektlarni nafaqat miqdoriy, balki sifat jihatidan ham o‘rganishni nazarda tutadi va ularni solishtirish usullaridan foydalanadi.

Benchmarking — bu eng yaxshi (birinchilardan bo‘lgan) tashkilotlarning texnologiyalari, standartlari va ish usullarini kompaniya amaliyotida qidirish, tahlil qilish va joriy etish tartibidir.

Benchmarking eng yaxshi amaliyotlarni aniqlash va joriy etishning tizimli jarayonidir.

Benchmarking — bu mahsulotlar va ularni yaratish hamda yetkazib berish jarayonlaridagi eng yaxshi amaliyotni aniqlash tartibidir. “Eng yaxshi amaliyot”ni qidirish biror soha ichida ham, boshqa sohalarda ham amalga oshirilishi mumkin.

Bundan tashqari, benchmarkingning yakuniy maqsadi samaradorlikni oshirish va takomillashtirish sohalarini aniqlashdir. Benchmarking — bu mavjud eng yaxshi amaliyotni solishtirish va takomillashtirish maqsadida xizmatlar sifatini hamda faoliyat jarayonini ochiq va kollegial baholashdir.[1]

Turli xil benchmarking tasniflari mavjud bo‘lib, ulardan asosiylari 1-jadvalda keltirilgan (1-jadval):

1-jadval

Benchmarking turlari va uning xususiyatlari.[2]

	Raqobatbardosh (Competitive)	**Funksional** (Functional)	**Ichki** (Internal)	**Umumiy** (Generic)
Strategik	Raqobatbardosh Benchmarking – bu bir xil soha yoki ma’lum bir bozorda bir-biri bilan bevosita raqobat olib borayotgan korxonalarning asosiy biznes prinsiplari va strategiyalarini qiyosiy tahlil qilishdir.	Funksional Benchmarking – bu o‘z sohasida tan olingan yetakchi korxona bilan solishtirish orqali biznesni takomillashtirish uchun eng samarali strategiyani tanlashdir.	Ichki Benchmarking – bu korxona tomonidan o‘zining turli bo‘linmalari (masalan, filiallari, departamentlari) o‘rtasidagi ish jarayonlari va natijalarini solishtirishdir. Maqsad – eng yaxshi amaliyotlarni aniqlash va ularni butun tashkilot bo‘ylab tarqatish.	Umumiy Benchmarking – bu bir korxonaning boshqa soha va tarmoqdagi korxonalardan yangi texnologiyalar, usullar yoki innovatsion yondashuvlarni o‘rganish va o‘z faoliyatiga tatbiq etishdir.
Operativ	Operatsion (Operational) Benchmarking – bu bir-biri bilan bevosita raqobat qilayotgan korxonalarning ishlab chiqarish va operatsion jarayonlarini batafsil solishtirish orqali eng	Funksional Benchmarking (protsess darajasida) – bu ma’lum bir sohada yetakchi bo‘lgan korxonaning aniq bir jarayonini (masalan, logistika, mijozlarga xizmat ko‘rsatish)	Ichki Tahliliy Benchmarking – bu korxona tomonidan o‘zining turli bo‘linma yoki filiallarining faoliyatini o‘rganish va ularning muvaffaqiyatiga yoki	Umumiy Benchmarking – bu bir korxonaning boshqa sohada faoliyat yuritayotgan korxonadagi o‘xshash jarayonni (masalan, logistika, mijozlar bilan ishlash) chuqur

[1] Price I. A Plain Person’s Guide to Benchmarking. Special Report of the Unit for Facilities Management Research. – Sheffield: Sheffield Hallam University, 1994.
[2] Muallif ishlanmasi.

	Raqobatbardosh (Competitive)	**Funksional** (Functional)	**Ichki** (Internal)	**Umumiy** (Generic)
	samarali uslub va amaliyotlarni aniqlashdir.	chuqur o‘rganish va shunga o‘xshash yuqori samaradorlikka erishish yo‘llarini topishdir.	samaradorligiga ta’sir etuvchi asosiy omillarni aniglashdir.	o‘rganishi va ushbu jarayonni takomillashtirishning innovatsion usullarini topishidir.

Agar an’anaviy tarzda oliy ta’lim muassasalarining marketing strategiyasi odatda rahbariyatning xohishi asosida yoki eng yaxshi holatda marketing tadqiqotlari natijalariga tayangan holda qurilgan bo‘lsa, ta’lim bozorida barqaror muvozanatni saqlab qolish uchun bu yetarli emas. Ta’lim sohasidagi yetakchilarning faoliyatini va bozordagi xatti-harakatlari tajribasini doimiy o‘rganish hamda tahlil qilish zarur.

“Zamonaviy kompaniya yuqori darajadagi sportchi singari, raqobatning rivojlanishi sharoitida raqobatchilar bilan bellasha olish va ularga qarshi kurashda g‘alaba qozonish uchun doimo a’lo shaklda bo‘lishi kerak. Bu esa globallashuv tufayli nafaqat tashqi, balki ichki bozorda ham dunyoning eng kuchli o‘yinchilari bilan raqobatlashishga to‘g‘ri kelishini anglatadi”[1].

Solishtirish uchun kompaniyalarni aniqlash va kompaniyalar haqida qaysi manbalardan ma’lumot olish usuli 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval.

Benchmarkingda solishtirish uchun kompaniyalarni aniqlash usuli[2]

Solishtirish uchun kompaniyalarni aniqlashning asosiy usullari:	**Kompaniyalar haqida ma’lumot olish manbalari**
➢ Sifat sohasidagi mukofotlar nominantlari. ➢ Biznes-matbuot. ➢ Konferensiyalar. ➢ Assotsiatsiyalar: tarmoq va kasbiy. ➢ Muvaffaqiyatli kompaniyalar haqidagi kitoblar. ➢ Tarmoqda ishlaydigan konsultantlar va auditorlar.	➢ Tashkilotning ichki resurslari. ➢ Benchmarking xizmatlarini ko‘rsatuvchi kompaniyalar ➢ Benchmarking sanoat assotsiatsiyalari. ➢ Ma’lumotlar banklari, statistik yilliklar, axborot portallari. ➢ Solishtirish kompaniyalarining investorlar bilan aloqalar bo‘limlari. ➢ Ekspertlar bilan intervyular.

Benchmarkni amalga oshirishda shuni yodda tutish kerakki, eng yaxshi amaliyotlar tajribasidan foydalanishdan avval o‘z kamchiliklari sabablarini chuqur anglab olish zarur. Shu munosabat bilan R. Kemp tomonidan ishlab chiqilgan benchmarkingning o‘n bosqichli jarayoni taklif qilinadi[3]:

1. Benchmarking predmetini aniqlash.
2. Benchmarking hamkorini belgilash.
3. Ma’lumot to‘plashning eng maqbul usulini tanlash va ma’lumotlarni yig‘ish.

[1] Starikov V.V. Benchmarking – put’ k sovershenstvu // Marketing v Rossii i za rubezhom. – 2006. – №4. – S. 11–14.
[2] Muallif ishlanmasi.
[3] Kemp R. Legal’nyy promyshlennyy shpionazh. Benchmarking biznes-processov. – Dnepropetrovsk: Balans-Klub, 2004. – 416 s.

4. Raqobatbardoshlikni ta’minlash nuqtai nazaridan muhim bo‘lgan tafovutlarni aniqlash.

5. Kelgusidagi samaradorlik ko‘rsatkichlarini rejalashtirish.

6. Benchmarking natijalarini barcha manfaatdor tomonlarga yetkazish va ularni amaliyotga tatbiq etishda yordam olish.

7. Kompaniya faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha aniq maqsad va vazifalarni belgilash.

8. Ushbu maqsadlarga erishish hamda muammolarni hal qilish bo‘yicha tadbirlar rejasini ishlab chiqish.

9. Rejalashtirilgan tadbirlarni amalga oshirish va ularning natijalarini kuzatish.

10. Benchmarking nazorat nuqtalarini qayta tekshirish.

Benchmarkingni amalga oshirish algoritmi qat’iy tartibga solinmagan. Odatda oliy ta’lim muassasalari asosiy bosqichlarni o‘zlari uchun ishlab chiqadi, moslashtiradi va ko‘pincha o‘z benchmarking loyihasi metodologiyasini taklif qiladi.

Bunda quyidagi bosqichlar ajratiladi:

1. Solishtirish uchun mahsulot, xizmat yoki jarayonni tanlash.

2. Asosiy baholash mezonlarini aniqlash.

3. Solishtirish uchun kompaniya yoki korxonaning ichki sohasini tanlash.

4. Ma’lumotlarni yig‘ish.

5. Ko‘rsatkichlarni tahlil qilish va olingan ma’lumotlardan foydalanish imkoniyatlarini belgilash.

6. Olingan tajribani qo‘llash va kompaniya uchun yangi vazifalarni belgilash.

Universitetni boshqarish vositasi sifatida benchmarkingni amalga oshirishda “Zavodlar va boshqa tashkilotlarda revolyutsion islohotlarning amaliy dasturi” (The Practical Programme of Revolution in Factories and Other Organisations — PPORF) sifatida ham tanilgan “20 kalit” dasturini asos qilib olish tavsiya etiladi.

“20 kalit” dasturi yapon professori Ivao Kobayashi tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, unumdorlik va sifatni oshirishga yordam beradigan barcha mavjud uslublarni yagona integratsiyalashgan tizimda birlashtiradi[1]. Unga asos solgan I. Kobayashi «Mitsubishi» zavodida oddiy ishchidan direktor lavozimigacha bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tib, 35 yil faoliyat yuritgan va boshqaruvchi sifatidagi barcha tajribasini PPORF tizimiga asos qilib qo‘ygan.

“20 kalit” dasturining asosiy maqsadlarini quyidagicha ifodalash mumkin:

- Kompaniyada doimiy takomillashtirish sharoitlarini yaratish.
- Qo‘shimcha iste’molchi qimmatini yaratmaydigan faoliyat turlarini aniqlash va bartaraf etish.
- Biznes-jarayonlarni bozorga hamda mahsulot va xizmatlar iste’molchilariga maksimal yo‘naltirish orqali optimallashtirishga e’tibor qaratish.
- Korxonaning barcha xodimlarini motivatsiyalar.
- Kompaniyani o‘z-o‘zini o‘rganuvchi tashkilot sifatida faoliyat yuritishini ta’minlash.

[1] Kobayasi I. 20 klyuchey k sovershenstvovaniyu biznesa. Prakticheskaya programma revolyutsionnyx preobrazovaniy na predpriyatiyax. – M.: Standarty i kachestvo, 2006. – 248 s.

Ushbu maqsadlarni o‘zaro bog‘langan yigirma soha yordamida amalga oshirish mumkin:

1. Tozalik va tashkiliy tartib.
2. Maqsadlarni boshqarish tizimini optimallashtirish.
3. Takomillashtirishlarni joriy etish bo‘yicha jamoaviy ish.
4. Buyurtma bajarish uchun zarur zaxiralar va vaqtni qisqartirish.
5. Ishlab chiqarishni yangi mahsulotlar chiqarishga tez o‘tkazish.
6. Ishlab chiqarishning funksional-xarajat tahlili.
7. Monitoringsiz ishlab chiqarish jarayoni.
8. Birgalikda ishlab chiqarish.
9. Uskunalarning ishchan ishonchliligi.
10. Vaqtni nazorat qilish va intizom.
11. Sifatni boshqarish tizimi.
12. Yetkazib beruvchilarni boshqarish.
13. Yo‘qotishlarni bartaraf etish.
14. Xodimlarni takomillashtirishlarni joriy etishga rag‘batlantirish.
15. Ko‘nikmalarning universalligi va o‘zaro o‘qitish.
16. Ishlab chiqarishni rejalashtirish.
17. Unumdorlikni nazorat qilish.
18. Axborot tizimlaridan foydalanish.
19. Energiya va materiallardan oqilona foydalanish.
20. Korxonada qo‘llanilayotgan ilg‘or texnologiyalar va amaliy usullarni baholash.

Har bir soha besh darajadan iborat bo‘lib, har bir darajani bosib o‘tish bir ball bilan baholanadi. Ya’ni, bitta “kalit”ni egallash uchun kompaniya 5 ball to‘plashi kerak. Barcha 20 kalit bo‘yicha natijaga erishish uchun kompaniya 100 ball to‘plashi lozim. Kompaniyaning 20 kalitning har birida qaysi darajada turganligini aniqlash orqali uning zaif tomonlari yuzaga chiqadi. Jahon biznes yetakchilarining tajribasi shuni ko‘rsatadiki, PPORFni joriy eta boshlagan kompaniyalar dastlab 20–30 ballga ega bo‘lgan, har keyingi 3–4 yil davomida esa ular o‘rtacha yana 20 tadan ball to‘plagan.

Universitetning butun faoliyatini ham 20 yo‘nalish bo‘yicha segmentlarga ajratish mumkin. O‘zgarishlar istalgan yo‘nalishdan boshlanishi mumkin, ammo odatda 1-kalit (tozalik va tartib o‘rnatish) hamda 3-kalit (takomillashtirishlarni joriy etish bo‘yicha jamoaviy ish)dan boshlanadi. Shundan so‘ng boshqa kalitlarga o‘tiladi.

“20 kalit” dasturining o‘ziga xos jihati shundaki, u nafaqat doimiy takomillashtirish bo‘yicha eng yaxshi usullar to‘plamini taqdim etadi, balki ularni yagona, o‘zaro bog‘langan integratsiyalashgan tizimda birlashtiradi. Bunday integratsiya natijasida sinergiya effekti yuzaga keladi: 20 ta kalit shu darajada chambarchas bog‘langanki, bitta kalitdagi takomillashuv avtomatik ravishda qolgan 19 kalitni ham rivojlantiradi. Ushbu o‘zaro bog‘liqliklar 1-rasmda keltirilgan (1-rasm).



1-rasm. “20 ta kalit” diagrammasining o‘zaro aloqasi[1]

Shu bilan birga, amaliy dastur universitet faoliyati uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan barcha omillarning sifatli yaxshilanishi hisobiga uning samaradorligini belgilovchi uchta asosiy ko‘rsatkichni ta’minlaydi: «Sifatliroq – sifat. Tezroq – ishlab chiqarish davomiyligi. Arzonroq – xarajatlar».

XULOSA VA TAKLIFLAR

“20 kalit”ni joriy etishning universal yondashuvi yoki yagona texnologiyasi mavjud emas. Ajratilgan omillarning ustuvorligi va takomillashtirish usullarini universitet o‘zi mustaqil ravishda belgilaydi.

Shu bilan birga, quyidagilarni ishonch bilan ta’kidlash mumkin:

– Barcha tarkibiy bo‘linmalarning maqsadlarini yagona korporativ maqsad bilan uyg‘unlashtirish.

– “Aniq” va “yashirin” bilimlarni o‘zlashtirish hamda innovatsiyalarni joriy etish jarayonlarini takomillashtirish natijasida bozordagi, iste’molchilardagi va raqobatdagi tezkor o‘zgarishlarga moslashishda unumdorlik va moslashuvchanlikni oshirish.

– Barcha xodimlarni universitet faoliyatini takomillashtirish dasturini amalga oshirishga jalb etish.

– Tashabbusli takliflar ko‘payishini ta’minlash va ularni g‘oya menejmenti (g‘oya boshqaruvi) orqali samarali boshqarish imkoniyatini yaratish.

– Yutuqlarni benchmarking baholash tizimi vositasida o‘lchash.

– Har qanday bo‘linmaning o‘z-o‘zini tekshirishini amalga oshirish hamda uning natijalaridan ichki va tashqi benchmarkingda foydalanish.

– Har bir bo‘linmada “tajriba to‘plash va uzatish markazlari” hamda “sifat doiralari”ni tashkil etish.

Universitetni boshqarish uning doimiy takomillashtirishiga qaratilgan bo‘lib, uzluksiz solishtirish, tahlil qilish va eng yaxshi amaliyotlarni izlash jarayonini o‘z

[1] Muallif ishlanmasi.

ichiga oladi. Biroq buni qanday amalga oshirish mumkin va bu borada maxsus uslubiyotlar mavjudmi? Ushbu savollarga “Korxonada revolyutsion islohotlarning amaliy dasturi” (The Practical Programme of Revolution in Factories and Other Organisations – PPORF) javob beradi. Ya’ni, bu kompaniya faoliyati samaradorligini o‘rganish va baholash jarayonini sezilarli darajada soddalashtiradigan benchmarking vositasidir.

Eng yaxshi amaliyotlar bilan solishtirish orqali universitetda asta-sekin o‘zining doimiy takomillashtirish tizimi shakllantiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.Gunnar Z., Shtefan K. Benchmarking. Rukovodstvo dlya praktikov. – M.: KIA sentr, 2006. – 128 s.

2.Kobayasi I. 20 klyuchey k sovershenstvovaniyu biznesa. Prakticheskaya programma revolyutsionnyx preobrazovaniy na predpriyatiyax. – M.: Standarty i kachestvo, 2006. – 248 s.

3.Kemp R. Legal’nyy promyshlennyy shpionazh. Benchmarking biznes-processov. – Dnepropetrovsk: Balans-Klub, 2004. – 416 s.

4.Starikov V.V. Benchmarking – put’ k sovershenstvu // Marketing v Rossii i za rubezhom. – 2006. – №4. – S. 11–14.

5.Dervitsiotis K.N. Benchmarking and business paradigm shifts // Total Quality Management. – 2000. – № 11. – P. 41–46.

6.Jackson N. Benchmarking in UK HE: An overview // Quality Assurance in Education. – 2001. – Vol. 9. – № 4. – P. 218–235.

7.Karjalainen A., Kuortti K. & Niinikoski S. Creative Benchmarking. University of Oulu & Finnish Higher Education Evaluation Council. – University Press of Oulu, 2002.

8.Pepper D., Webster. F. and Jenkins. A. Benchmarking in geography: some implications for assessing dissertation in the undergraduate curriculum // Journal of Geography in Higher Education. – 2001. – Vol. 25. – № 1. – P. 23–35.

9.Price I. A Plain Person’s Guide to Benchmarking. Special Report of the Unit for Facilities Management Research. – Sheffield: Sheffield Hallam University, 1994.

O‘ZBEKISTONDA UY-JOY QURILISHINI RIVOJLANISHI TAHLILI

Usmanov Mirumar Abdulla o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tadqiqotchisi
E-mail: mirumar1990@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekistonda uy-joy qurilishi va uy-joy fondining joriy holati hamda uy-joy qurilishining rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan. Qurilish hajmlari va uy-joy fondining kengayishi asosiy ko‘rsatkichlar sifatida ko‘rib chiqilgan. Davlat tomonidan ipoteka dasturlari hamda xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlash choralari alohida ta’kidlangan. Shuningdek, uy-joy narxlarining oshishi, qurilish materiallari yetishmovchiligi va texnologik rivojlanishning sekinlashuvi kabi muammolar ko‘rsatilgan. Maqolada sohaning rivojlanishi uchun tegishli tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: uy-joy qurilishi, uy-joy fondi, rivojlanish tendensiyalari, ipoteka dasturlari, qurilish materiallari, davlat siyosati, uy-joy narxlari, innovatsiyalar, investitsiyalar, qishloq va shahar infratuzilmasi.

Аннотация

В данной статье проанализировано текущее состояние жилищного строительства и жилищного фонда в Узбекистане, а также тенденции развития сектора жилищного строительства. Объемы строительства и расширение жилищного фонда рассматриваются в качестве основных показателей. Особое внимание уделяется государственным ипотечным программам и мерам поддержки частного сектора. Также в статье выделены проблемы, такие как рост цен на жильё, нехватка строительных материалов и замедление технологического развития. Даны рекомендации для стимулирования развития отрасли.

Ключевые слова: жилищное строительство, жилищный фонд, тенденции развития, ипотечные программы, строительные материалы, государственная политика, цены на жильё, инновации, инвестиции, сельская и городская инфраструктура.

Abstract

This article analyzes the current state of housing construction and the housing stock in Uzbekistan, as well as the development trends of the housing sector. Construction volumes and the expansion of the housing stock are considered as key indicators. Special attention is given to state-supported mortgage programs and measures to support the private sector. The article also highlights problems such as rising housing prices, shortages of construction materials, and slow technological development. Recommendations are provided to promote the development of the sector.

Keywords: housing construction, housing stock, development trends, mortgage programs, construction materials, state policy, housing prices, innovations, investments, rural and urban infrastructure.

KIRISH

Bugungi kunda har qanday jamiyatda turmush sifati va farovonlik darajasini aniqlovchi muhim omillardan biri – aholining munosib uy-joy bilan ta’minlanganlik holatidir. Uy-joy masalasi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy, demografik va siyosiy ahamiyatga ham ega. Ayniqsa, O‘zbekiston kabi aholisi jadal o‘sib borayotgan davlatda uy-joy qurilishini rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Mazkur paragrafda uy-joy qurilishi tizimini rivojlantirishdagi o‘ziga xos xususiyatlar, mavjud muammolar va istiqbolli yechimlar haqida fikr yuritiladi.

Uy-joy qurilishi – bu aholining uy-joyga bo‘lgan ehtiyojini qondirish maqsadida yangi turar joy fondini yaratish, binolarni modernizatsiya qilish yoki ta’mirlash (qayta qurish) jarayonini o‘z ichiga olgan milliy iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biridir. Ushbu sohaga rejalashtirish, moliyalashtirish, loyihalash, qurilish hamda turar joy obyektlarini keyingi ekspluatatsiya qilish kabi jarayonlar kiradi.

Uy-joy qurilishidagi muhim jihatlar – uning ijtimoiy ahamiyati, kompleksligi, uzoq muddatliligi hamda davlat tomonidan qat’iy tartibda nazorat qilinishidir. Bir tomondan, turar joy qurilishi uzoq muddatli jarayon bo‘lib, rejalashtirilgan va barqaror investitsiyalarni talab qiladi, ikkinchi tomondan esa, uning yuqori ijtimoiy roli – ya’ni aholining uy-joyga bo‘lgan asosiy ehtiyojini qondirishda namoyon bo‘ladi [1].

ADABIYOTLAR SHARHI

Turar joy qurilishining iqtisodiy mohiyati uning iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari bilan ko‘p jihatdan bog‘liqligida namoyon bo‘ladi (masalan, qurilish materiallari ishlab chiqarishni rag‘batlantiradi, yangi turar joy majmualari – mahallalar, tumanlarda transport infratuzilmasining rivojlanishiga yordam beradi, aholi bandligini ta’minlaydi) va bu, o‘z navbatida, mamlakat iqtisodiy o‘sishiga ta’sir qiladi. Turar joy fondini qayta taqsimlash va turar joy xizmatlarini taqdim etishning iqtisodiy mexanizmi uning ishtirokchilari – davlat, qurilish kompaniyalari, investorlar va yakuniy foydalanuvchilarning uyg‘un hamkorligini talab qiladi [2]. Shuningdek, qurilishga yaroqli yer resurslaridan samarali foydalanish uchun raqobat mavjud bo‘lib, bu qurilish loyihalarining narxi va muvaffaqiyatli amalga oshishida muhim omil hisoblanadi.

Aholining uy-joy bilan ta’minlanish darajasi – jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlik va umumiy farovonlikning muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Shu bois davlat ushbu sohani tartibga solishda faol ishtirok etadi hamda uy-joylarning sifati, xavfsizligi va keng aholi qatlamlari uchun iqtisodiy jihatdan mavjud bo‘lishini ta’minlash maqsadida tegishli standart va normalarni joriy etadi [3], [4], [5].

Davlat ishtirokining ahamiyati shundaki, u milliy iqtisodiyotda iste’mol, jamg‘arma va investitsiya o‘rtasida muvozanatni ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, buni davlat va shaxsiy manfaatlar uyg‘unligi asosida amalga oshiradi. Bunday muvozanatga erishish esa, asosan, prognostik yondashuv va strategik rejalashtirishga tayanadigan davlat boshqaruvi orqali ta’minlanadi [6], [7], [8].

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotning maqsadi – uy-joy qurilishi sohasidagi hozirgi holatni

iqtisodiy faoliyat turi sifatida tahlil qilish, uni rivojlantirishdagi mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni hal etish bo‘yicha istiqbolli yechimlarni ishlab chiqishdan iborat. Yuqorida qayd etilgan ilmiy tadqiqotlar o‘rganilayotgan muammoning tizimli yondashuvini aks ettirsada, mamlakatimizda ushbu sohadagi ilmiy izlanishlar muhim qimmatga ega bo‘lishiga qaramay, hozirgi kunda qurilish sanoati rivojlanishi bo‘yicha tadqiqotlar yetarlicha olib borilmagan. Shu bilan birga, qurilish sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyatini faollashtirish tizimli yondashuvga asoslangan mustaqil tadqiqot obyekti sifatida to‘liq o‘rganilmagan. Bu esa mazkur tadqiqot mavzusining tanlanishi, uning maqsadi va aniq vazifalarini belgilab beradi. Mavzuni ilmiy o‘rganish, statistik tahlillarni amalga oshirish, mantiqiylikka rioya qilish hamda tadqiq etish jarayonida turli xil adabiyotlar va maqolalar tahlilidan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Uy-joy qurilishi – bu shunchaki binolarni barpo etish emas, balki keng ma’nodagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayon bo‘lib, aholining hayot sifatini oshirish, zamonaviy shahar va qishloq muhitini yaratish hamda infratuzilmani rivojlantirish kabi dolzarb masalalarni o‘z ichiga oladi. Uy-joy qurilishi bugungi globallashuv va urbanizatsiya sharoitida davlat siyosatining ajralmas qismi bo‘lib, uni samarali yo‘lga qo‘yish orqali nafaqat turar joy masalasini hal qilish, balki ish o‘rinlari yaratish, iqtisodiy faollikni oshirish va kambag‘allikni kamaytirish kabi vazifalarni ham bajarish mumkin.

Uy-joy qurilishi – bu aholi yashashi uchun mo‘ljallangan turar joy binolarini loyihalash, moliyalashtirish, qurish va ekspluatatsiyaga topshirish bilan bog‘liq muhandislik, iqtisodiy, me’moriy va ijtimoiy faoliyatlar majmuidir.



1-rasm. Uy-joy qurilishi tizimining asosiy elementlari [9]

O‘z navbatida, ushbu jarayonning har bir elementini alohida ko‘rib chiqish zarur. Loyihalash – bu uy-joy yoki boshqa binolar qurilishining dastlabki bosqichi bo‘lib, unda arxitektura, konstruktorlik va muhandislik yechimlari ishlab chiqiladi. Loyihalash jarayoni nafaqat binoning tashqi ko‘rinishi va funksional xususiyatlarini belgilaydi, balki uning xavfsizligi, energiya samaradorligi, qulayligi hamda ekologik tozaligini ham ta’minlaydi. Ushbu jarayonda mijoz va investorlarning talablarini o‘rganish, binoning joylashuvi va hajmini belgilash, arxitektura hamda konstruktorlik

chizmalarini tayyorlash, qurilish materiallari va texnologiyalarini tanlash, foydalanish xavfsizligini hisobga olish hamda qurilishning ekologik ta’sirini baholash kabi vazifalar amalga oshiriladi. Loyihalashning sifatli olib borilishi keyingi qurilish bosqichlarining muvaffaqiyatli kechishini ta’minlaydi va binoning uzoq muddat xizmat qilishini kafolatlaydi (1-rasm).

Moliyalashtirish – bu uy-joy qurilishi uchun zarur bo‘lgan mablag‘larni ta’minlash jarayoni bo‘lib, qurilish loyihalarini amalga oshirish katta miqdordagi investitsiyalarni talab qiladi. Shu bois moliyalashtirish turli manbalar orqali amalga oshiriladi.

Moliyalashtirishning bir qancha turlari mavjud bo‘lib, ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- davlat byudjeti mablag‘lari – davlat tomonidan ajratiladigan pul mablag‘lari, ayniqsa ijtimoiy ahamiyatga ega uy-joylarni qurish uchun mo‘ljallanadi;
- xususiy investitsiyalar – biznes subyektlari tomonidan kiritiladigan sarmoyalar bo‘lib, ular ko‘pincha foyda olish maqsadida amalga oshiriladi;
- bank kreditlari va ipoteka – aholining o‘z mablag‘lari yoki kredit resurslari yordamida uy-joy sotib olish yoki qurishni amalga oshirish jarayoni;
- xalqaro moliyaviy tashkilotlar kreditlari – katta miqyosdagi infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish uchun mo‘ljallangan mablag‘lar.

Moliyalashtirish jarayoni samarali boshqarilmasa, loyihalar kechikadi yoki to‘xtab qoladi. Shu sababli moliyaviy rejalar tuzish, byudjetni nazorat qilish va mablag‘larning oqilona sarflanishi juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qurilish jarayoni – bu loyihalangan uy yoki binoning fizik jihatdan barpo etilish bosqichi bo‘lib, u bir qator texnologik va tashkiliy ishlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu jarayon quyidagi asosiy bosqichlardan iborat:

- qurilish maydonchasini tayyorlash (yer tekislash, zaminni mustahkamlash);
- bino poydevorini qurish;
- binoning karkasi va devorlarini barpo etish;
- ichki va tashqi kommunikatsiyalarni o‘rnatish (suv, elektr, gaz);
- ichki bezak ishlari va tom yopish;
- qurilish materiallari va bajarilayotgan ishlar sifatini doimiy nazorat qilish.

Qurilish jarayoni yuqori malakali mutaxassislar va zamonaviy uskunalar yordamida amalga oshirilishi lozim. Ushbu bosqichda yo‘l qo‘yilgan har qanday kamchilik yoki xato uy-joyning mustahkamligi va xavfsizligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Ekspluatatsiyaga topshirish – bu bosqichda qurilgan uy-joy yoki bino foydalanishga tayyor ekanligi rasmiy tarzda tasdiqlanadi. Qurilish obyekti tegishli organlar tomonidan tekshiriladi, barcha standart va talablar bajarilgani tasdiqlanadi va bino egasiga yoki foydalanuvchisiga rasmiy ravishda topshiriladi.

Ekspluatatsiyaga topshirish jarayoni bir qancha bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Jumladan, qurilish sifati va xavfsizligini nazorat qilish, binolarning texnik hujjatlarini rasmiylashtirish, kommunikatsiyalarning ishlashini tekshirish, hujjatlar, sertifikatlar va ruxsatnomalarning mavjudligini ta’minlash, binolarning foydalanishga yaroqliligini

baholash shular jumlasidandir. Mazkur bosqich uy-joyning qonuniy jihatdan foydalanishga topshirilishiga, keyingi texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash ishlarini boshlashga asos bo‘ladi.

Nazorat va sertifikatsiyalash – qurilish jarayoni davomida va uning yakunida amalga oshiriladigan sifat, xavfsizlik hamda muvofiqlikni ta’minlash tizimidir. Mazkur jarayonlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi: qurilish materiallari va texnologiyalarining standartlarga mosligini tekshirish, qurilish ishlarining loyiha va me’yorlarga muvofiqligini nazorat qilish, xavfsizlik talablariga rioya qilinishini ta’minlash, qurilishdan keyingi test va sinovlarni o‘tkazish hamda qurilgan obyektga sifat sertifikatlari va ruxsatnomalar berish.

Nazorat va sertifikatsiyalash qurilish sifatini oshirish, fuqarolar xavfsizligini ta’minlash va qonunchilik talablarini bajarishni kafolatlaydi. Ushbu jarayonlar davlat organlari yoki mustaqil sertifikatsiya tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi.

Uy-joy qurilishi O‘zbekiston sharoitida o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ular mamlakatning iqlim sharoiti, yashash sifati va imkoniyatlari kabi bir qancha jihatlarni o‘z ichiga oladi (2-rasm).



2-rasm. O‘zbekistonda uy-joy qurilishining o‘ziga xos xususiyatlari [9]

2-rasmda O‘zbekiston sharoitida uy-joy qurilishining o‘ziga xos xususiyatlari keltirilgan bo‘lib, ularning har biri alohida ahamiyatga ega hisoblanadi.

1. **Aholi sonining tez sur’atlarda o‘sishi.** O‘zbekiston aholisi yildan-yilga barqaror sur’atlar bilan o‘sib bormoqda. Demografik o‘sish yuqori bo‘lgan sharoitda aholining uy-joyga bo‘lgan talabini qondirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Yangidan uy qurish, mavjud uy-joy fondlarini rekonstruksiya qilish va xususiy uy qurilishini rag‘batlantirish zarurati paydo bo‘lmoqda. Bu jarayon nafaqat shaharlarda, balki qishloq joylarda ham uy-joyga ehtiyojni kuchaytirmoqda.

2. **Urbanizatsiya va shaharlarning kengayishi.** So‘nggi yillarda urbanizatsiya jarayonlari O‘zbekistonda jadallashdi. Aholining katta qismi ish, ta’lim va xizmatlardan foydalanish imkoniyati bo‘lgan yirik shaharlarga ko‘chib kelmoqda. Bu esa shaharlar hajmining kengayishi, yangi turar joy massivlari hamda kichik shaharlar atrofida yangi qishloq-shahar tipidagi posyolkalar tashkil etilishini taqozo etmoqda.

Ushbu jarayon uy-joy qurilishini nafaqat miqdoriy, balki sifat jihatdan ham zamonaviy talablarga moslashtirishni talab qilmoqda.

3. **Yer resurslarining cheklanganligi.** O‘zbekistonda qurilish uchun yaroqli yerlar cheklangan, ayniqsa shaharlar va sanoat markazlari atrofida. Bu holat qurilish narxlariga ta’sir qilmoqda hamda yerdan samarali va oqilona foydalanishni talab etmoqda. Shu sababli, ko‘p qavatli uy-joy qurilishini kengaytirish, yer resurslaridan zich va maqsadli foydalanish, vertikal qurilishni rivojlantirish asosiy yechimlardan biri hisoblanadi.

4. **Qishloq joylardagi infratuzilma muammolari.** Qishloq hududlarida uy-joy qurilishi ko‘p hollarda infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi sababli qiyin kechmoqda. Yo‘l, elektr, ichimlik suvi, kanalizatsiya va kommunikatsiya tizimlarining yo‘qligi yoki eskirganligi qurilishni cheklab qo‘ymoqda. Bunday sharoitda davlat tomonidan infratuzilmani yaxshilash, uy-joy qurilishiga qulay muhit yaratish uchun maqsadli investitsiyalar va dasturlar amalga oshirilishi lozim.

5. **Iqlim sharoitining xilma-xilligi.** O‘zbekiston hududida iqlim turlicha bo‘lib, mamlakatning shimol qismida qish fasli sovuq, janubida esa yoz fasli issiq kechadi, sharqda tog‘li va nam havo, g‘arbda esa qurg‘oqchil havo hukmron. Bunday iqlimiy xilma-xillik qurilish materiallari tanlovi, loyihalash, izolyatsiya va energiya tejamkorlik kabi jihatlarga jiddiy e’tibor qaratishni talab qiladi. Masalan, qishi sovuq bo‘lgan hududlarda isitish tizimlari va yaxshi izolyatsiyalangan uylar talab etiladi.

O‘zbekistonda uy-joy qurilishini rivojlantirishda yuqoridagi omillarni hisobga olmasdan turib barqaror rivojlanishga erishib bo‘lmaydi. Bu jarayonda davlat siyosati, xususiy sektor ishtiroki, infratuzilmaviy loyihalar va zamonaviy texnologiyalar uyg‘unligi muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir hududning xususiyatlarini hisobga olgan holda, miqdoriy emas, balki sifatli uy-joy qurilishiga e’tibor qaratish asosiy vazifalardan biridir (1-jadval).

1-jadval

O‘zbekistonda uy-joy qurilishini rivojlantirish bosqichlari [9]

Bosqichlar	Xususiyatlari	Muhim jihatlar
1-bosqich. 1991–2000 yillar – Mustaqillikning ilk davrlari	SSSR parchalanishi bilan birga, markazlashgan qurilish tizimi faoliyati to‘xtadi. Davlat byudjeti hisobidan ko‘p qavatli uylar qurilishi amalda to‘xtab qoldi. Infratuzilma obyektlari eskirgan holda qoldi, qurilish sohasida inqiroz kuzatildi. Aholi o‘zining shaxsiy mablag‘i hisobidan **yakka tartibda uy qurishg**a o‘ta boshladi. Qishloq hududlarida qurilish ishlari asosan an’anaviy usullarda amalga oshirildi.	Bu bosqichda davlat uy-joy qurilishidan deyarli chetlashgan, aholi o‘z imkoniyatlari bilan uy qurishga harakat qilgan. Shaharlardagi qurilish ishlari sust kechgan.
2-bosqich. 2001–2010yillar - Davlat tashabbuslarining qayta joriy etilishi davri	Davlat tomonidan qishloq joylarida namunali loyihalar asosida uy qurish loyihalari yo‘lga qo‘yildi. “Qishloq Qurilish Bank” orqali aholiga ipoteka kreditlari taqdim etila boshlandi. Qishloqlarda yakka tartibda qurilayotgan uylar uchun muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini barpo etish boshlandi. Qurilish sohasida davlat-xususiy sheriklikning dastlabki shakllari paydo bo‘ldi	Bu davrda davlat qishloqlarda uy-joy qurilishini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan dasturlarni ishga tushirdi. Ipoteka tizimining paydo bo‘lishi aholining uy-joyga ega bo‘lish imkoniyatlarini kengaytirdi.
3-bosqich. 2011–2020 yillar - Jadal qurilish va infratuzilmaviy rivojlanish davri	Shahar va shahar atrofi hududlarda ko‘p qavatli, arzon uy-joylar qurilishi keng ko‘lamda amalga oshirildi.“Obod qishloq” va “Obod mahalla” davlat dasturlari orqali infratuzilma obyektlari	Bu bosqichda uy-joy qurilishi hajmi keskin ortib, shaharsozlik siyosati izchillik bilan amalga oshirildi. Davlat va

Bosqichlar	Xususiyatlari	Muhim jihatlar
	modernizatsiya qilindi. Ipoteka kreditlash mexanizmi yanada takomillashtirildi, aholi uchun imtiyozli shartlar joriy etildi. Xususiy qurilish kompaniyalari faolligi ortib, kompleks qurilish loyihalari yo‘lga qo‘yildi. Yangi shaharchalar va turar joy massivlari qurilishi faollashdi.	xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik mustahkamlandi.
4-bosqich. 2021-yildan hozirgacha bo‘lgan davr – Innovatsiyalar va kompleks yondashuv davri.	Yangi qurilishlarda energiya tejovchi texnologiyalar, ekologik talablar va aqlli uy konsepsiyalari joriy etilmoqda. Davlat tomonidan ipoteka kreditlarini subsidiyalash mexanizmlari ishga tushirildi. Shahar atrofi hududlarda yangi turar joy massivlari va integral shaharchalar qurilmoqda.“Yangi O‘zbekiston massivlari” kabi loyihalar orqali uy-joy qurilishi tizimli va strategik asosda amalga oshirilmoqda. Tashqi va ichki investitsiyalar jalb qilinmoqda, chet el kompaniyalari qurilish bozorida faol qatnashmoqda.	Bu davrda uy-joy qurilishi faqat miqdoriy emas, balki sifat jihatdan ham yuksaldi. Qurilish jarayonlarida raqamli texnologiyalar, modulli tizimlar va standartlashtirish elementlari keng joriy etilmoqda.

Mustaqillikka erishgandan so‘ng O‘zbekistonda uy-joy qurilishi sohasida tub islohotlar amalga oshirildi. Ilgari mavjud bo‘lgan markazlashgan boshqaruv tizimi o‘rnini bosqichma-bosqich bozor mexanizmlari egallay boshladi. Davlatning bu sohadagi roli qayta ko‘rib chiqildi, xususiy sektorga keng yo‘l ochildi. Uy-joy qurilishi tarmog‘i quyidagi asosiy to‘rt bosqichda rivojlanganini ko‘rish mumkin (1-jadval).

O‘zbekistonda uy-joy qurilishi sohasi so‘nggi 30 yil ichida tubdan o‘zgardi. Ushbu jarayonda davlat siyosatining bosqichma-bosqich transformatsiya qilinishi, xususiy sektorning rivojlanishi, ipoteka bozorining kengayishi va infratuzilma islohotlari hal qiluvchi omillar bo‘lib xizmat qildi. Hozirgi bosqichda uy-joy qurilishi nafaqat uy barpo etish, balki aholi turmush darajasini oshirish va zamonaviy shahar muhitini shakllantirishga qaratilgan keng qamrovli islohotlar tizimiga aylangan.

Keltirilgan 2-jadvalda O‘zbekiston Respublikasida uy-joy fondining umumiy maydoni to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilgan bo‘lib, mazkur jadval asosida 2015–2024-yillardagi ma’lumotlar batafsil yoritilgan. Ushbu jadval ma’lumotlariga ko‘ra, 2015–2024-yillar davomida O‘zbekiston Respublikasida uy-joy fondining umumiy maydoni 1,47 barobarga oshgani ko‘rinadi (2-jadval).

2-jadval.

O‘zbekiston Respublikasi uy-joy fondining umumiy maydoni to‘g‘risida ma’lumot [10] *(yil oxiriga uy-joylar umumiy maydoni, mln. kv.m.)*

Ko‘rsatkich	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Jami	**477,1**	**490,8**	**507,5**	**521,2**	**536,8**	**549,0**	**636,4**	**658,4**	**692,5**	**703,8**
shu jumladan:										
davlat	3,3	3,4	3,4	3,3	3,5	3,5	3,3	3,4	3,5	3,5
nodavlat	473,8	487,5	504,2	517,9	533,3	545,5	633,1	654,9	689,0	700,3
O‘rtacha har bir yashovchiga, kv.m.	15,2	15,4	15,7	15,8	16,0	16,0	18,2	18,5	19,0	18,9

XULOSA VA TAKLIFLAR

Uy-joy qurilishi — oddiy qurilish amaliyoti emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ko‘zgusi sanaladi. Chunki u:

• Bandlikni oshiradi — qurilish sohasida yuz minglab ish o‘rinlari yaratiladi.

• Ichki bozorni rag‘batlantiradi — qurilish materiallari, mebel va texnika bozori jonlanadi.

• Ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi — oilalarning turar joy bilan ta’minlanishi orqali.

• Migratsiyani boshqaradi — aholining qayerda istiqomat qilishi rejalashtiriladi.

• Infratuzilmalarni rivojlantiradi — yo‘llar, suv, elektr, gaz, maktablar bilan uzviy bog‘liq.

Uy-joy qurilishi faqat binolar emas, balki butun jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan ko‘p qirrali tizimdir. Uning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi mamlakatning iqtisodiy barqarorligi, aholi farovonligi va shaharsozlik madaniyatining belgisidir. Shu sababli, bu tizimni har tomonlama chuqur tahlil qilish, demografik, iqtisodiy va siyosiy omillarni inobatga olgan holda samarali rejalashtirish zarur hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Абдрахмет Д.М., Бочков А.Ю. Методы и формы российской государственной жилищной политики // Экономика и предпринимательство. – 2023. – № 1(150). – с. 183–186. – doi: 10.34925/EIP.2023.150.1.037.

2. Ametefe F. Housing and construction finance, deposit mobilisation and bank performance in Ghana // Journal of Property Research. – 2011. – № 2. – p. 151–165. – doi: 10.1080/09599916.2010.538478.

3. Зайцева М.В., Малиева П.А., Бирюкова Д.А., Шичиях Б.З. Государственная поддержка как драйвер развития рынка жилой недвижимости // Экономика и предпринимательство. – 2023. – № 1(150). – с. 196–202. – doi: 10.34925/EIP.2023.150.1.040.

4. Косарева Н.Б., Полиди Т.Д., Пузанов А.С. Рынок жилищного строительства в России: современное состояние и перспективы развития // Вопросы экономики. – 2013. – № 3. – с. 109–125. – doi: 10.32609/0042–8736–2013–3-109–125.

5. Ho. Lim J., Kim D. Y., Kim D. Developing a Construction Duration Estimation Model to Ensure the Safety in Apartment Housing Construction Sites // KSCE Journal of Civil Engineering. – 2018. – № 7. – p. 2195–2205. – doi: 10.1007/s12205–017–0605-y.

6. Звездина Н.В., Сараев А.В. Анализ и моделирование влияния макроэкономических факторов на ввод в эксплуатацию жилой недвижимости в России // Вопросы статистики. – 2023. – № 1. – с. 27–41. – doi: 10.34023/2313–6383–2023–30–1-27–41.

7. Зелинская М.В., Пронин Е.С. Направления повышения эффективности государственного управления // Международная научно-практическая конференция по актуальным вопросам экономики и гуманитарных наук в 2015 году: Материалы научно-практической конференции, Краснодар, 02 марта 2015

года. – Краснодар: Краснодарский центр научно-технической информации. Краснодар, 2015. – с. 107–110.

8. Леванкова Д.Д., Шершова Л.В. Государственные функции управления в строительстве // Современные перспективы строительства: сборник научных статей по материалам Молодежной научной школы. – Калининград: Балтийский федеральный университет имени Иммануила Канта. Калининград, 2023. – с. 149–163.

9. Muallif tovonidan tuzilgan.

10. O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tovonidan tuzilgan.

KIMYO SANOATI KORXONALARIDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

Sabirov Oybek Shavkatbekovich
"ALFRAGANUS UNIVERSITY" nodavlat oliy ta'lim tashkiloti
"Moliya" kafedrasi dotsenti iqtisodiyot fanlari nomzodi

Annotatsiya

Ushbu maqolada kimyo sanoati korxonalarida investitsion loyihalarni boshqarishda raqamli texnologiyalarning qo'llanishi o'rganilgan. Sun'iy intellekt, IoT, Digital Twin va Big Data texnologiyalari orqali loyihalarning samaradorligi qanday oshirilgani tahlil qilingan. Texnologiyalar loyiha siklining bosqichlariga muvofiq bog'langan va konseptual boshqaruv modeli taklif etilgan. Tahlil natijalari asosida texnologiyalarni kompleks joriy etish orqali ishlab chiqarish sifati va resurslardan foydalanish samaradorligi oshirilishi mumkinligi ko'rsatib berilgan. Tavsiyalar amaliyotda foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: investitsion loyiha, kimyo sanoati, raqamli texnologiyalar, boshqaruv, sun'iy intellekt, IoT, Digital Twin, Big Data.

Аннотация

В статье было исследовано применение цифровых технологий в управлении инвестиционными проектами на предприятиях химической промышленности. Были проанализированы способы повышения эффективности проектов с использованием искусственного интеллекта, IoT, Digital Twin и Big Data. Технологии были сопоставлены с этапами жизненного цикла проекта, и была предложена концептуальная модель управления. На основе анализа было показано, что комплексная цифровизация может повысить качество производства и эффективность использования ресурсов. Были разработаны рекомендации для практического применения в управленческой деятельности.

Ключевые слова: инвестиционный проект, химическая промышленность, цифровые технологии, управление, искусственный интеллект, IoT, Digital Twin, Big Data

Abstract

The use of digital technologies in managing investment projects at chemical industry enterprises was examined. The effectiveness of projects was analyzed through the integration of Artificial Intelligence, IoT, Digital Twin, and Big Data. These technologies were mapped to different stages of the project life cycle, and a conceptual management model was proposed. Based on the analysis, it was demonstrated that the comprehensive adoption of digital tools can improve production quality and resource efficiency. Practical recommendations were developed to enhance implementation in industrial project management.

Keywords: investment project, chemical industry, digital technologies, management, artificial intelligence, IoT, Digital Twin, Big Data

KIRISH

Kimyo sanoatida ishlab chiqarish jarayonlari ko‘p bosqichli va murakkab bo‘lib, ularni samarali boshqarish doimiy takomillashtirishni talab qiladi. Korxonalar o‘z faoliyatini barqaror olib borishi va raqobatbardosh bo‘lishi uchun investitsion loyihalarni aniq rejalashtirish hamda oqilona boshqarishi zarur. Bunda texnologik vositalardan to‘g‘ri foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi.

So‘nggi yillarda loyihalarni boshqarish uslublarida sezilarli o‘zgarishlar yuz bermoqda. Raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi tufayli ishlab chiqarish, nazorat, tahlil va qaror qabul qilish jarayonlari tezlashdi hamda aniqlashdi. Masalan, sun’iy intellekt asosida ishlovchi dasturlar ma’lumotlarni tahlil qiladi, xavflarni aniqlaydi va muqobil yechimlarni taklif etadi. IoT qurilmalari esa uskunalar holatini real vaqt rejimida kuzatib borishga imkon bermoqda.

Investitsion loyihalarni rejalashtirishdan tortib bajarilishigacha bo‘lgan jarayonda raqamli yechimlar yordamida resurslardan to‘g‘ri foydalanish, muddatlarga rioya qilish va xatoliklarni kamaytirish mumkin. Bu texnologiyalar korxonalarga vaqt, mablag‘ va energiyani tejash imkonini beradi.

Ushbu tadqiqotda kimyo sanoati korxonalarida investitsion loyihalarni samarali tashkil etishda qo‘llanilayotgan raqamli texnologiyalar o‘rganiladi. Shuningdek, texnologiyalarni loyihaning turli bosqichlariga qo‘shish imkoniyatlari, ularning afzalliklari va real natijalari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida xalqaro ilmiy maqolalarga tayanilgan va konseptual yondashuv asosida tahliliy model ishlab chiqilgan.

ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli texnologiyalarni investitsion loyihalarni boshqarish jarayoniga integratsiyalash bo‘yicha so‘nggi yillardagi tadqiqotlar ushbu jarayonning har bir bosqichida texnologiyalarning turli rolini yoritadi. Tadqiqotlarda ayniqsa sun’iy intellekt (AI), Internet of Things (IoT), Digital Twin va Big Data texnologiyalari alohida o‘rin egallaydi.

Raqamli transformatsiya doirasida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan yondashuvlar haqida Liao va Wang [1] o‘z ishlarida bayon etgan. Ular ishlab chiqarish tizimlariga “lean” tamoyillarni raqamli yechimlar bilan birlashtirish orqali resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va sifatni oshirish mumkinligini asoslagan. Bu yondashuv, ayniqsa, kimyo sanoatida investitsion loyihalarni rejalashtirish va amalga oshirish bosqichlarida samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Wiegand va Wynn [2] tomonidan olib borilgan tadqiqotlar sanoat jarayonlarida raqamli texnologiyalar yordamida “aylanma iqtisodiyot” tamoyillarini joriy etish imkoniyatlarini tahlil qilgan. Ular ishlab chiqargan model investitsion loyihalarda ekologik barqarorlikni ta’minlashga va mahsulotlar hayotiy sikli bo‘yicha monitoring tizimlarini yaratishga qaratilgan.

Gamidullaeva va hammualliflari [3] esa raqamli texnologiyalar asosida kompleks sanoat loyihalarini boshqarish tizimini taklif qilgan. Ular ishlab chiqargan modelda ishlab chiqarish, atrof-muhitga ta’sir va iqtisodiy samaradorlik o‘zaro bog‘langan

holda baholangan. Bu konsepsiya investitsion loyihalarning monitoring va baholash bosqichlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Kimyo sanoatida raqamli texnologiyalarni tatbiq etish bo‘yicha amaliy yondashuvlar Udugama va hammualliflari [4] tomonidan o‘rganilgan. Ular, ayniqsa, Digital Twin, IoT va Big Data texnologiyalarining ishlab chiqarish hamda ta’lim tizimlariga integratsiyalashuvini tahlil qilgan. Ularning yondashuvi raqamli texnologiyalarni amaliy qo‘llashda kadrlar tayyorlash va texnik tayyorgarlik darajasining ahamiyatini ko‘rsatadi.

Loyihalarning iqtisodiy samaradorligi va moliyaviy tahlili bo‘yicha Vasilieva va hammualliflari [5] olib borgan tadqiqotlar raqamli tahlil vositalari investitsion risklarni baholashda hamda investitsiya portfellarini shakllantirishda aniq va ishonchli natijalar berishini ko‘rsatadi.

Raqamlashtirish jarayonida xavfsizlik masalalarini ta’minlash ham dolzarb bo‘lib, bu borada Khan va hamkorlari [6] tomonidan ishlab chiqilgan metodologiya ishlab chiqarish jarayonlarida yuzaga keladigan xavflarni IoT va sun’iy intellekt asosida oldindan aniqlash hamda baholashga qaratilgan. Bu yondashuv, ayniqsa, texnologik xavflilik yuqori bo‘lgan kimyo sanoati loyihalarida qo‘llanishi bilan muhimdir.

Raqamli transformatsiyaga tayyorgarlik darajasi korxonalarning boshqaruv salohiyati bilan bevosita bog‘liqdir. Machado va hammualliflari [7] ishlab chiqarish korxonalarining raqamlashtirishga tayyorgarlik darajasini aniqlovchi indikatorlarni ishlab chiqib, bu mezonlarni tashkiliy, texnik va inson resurslari kontekstida baholagan. Bu yondashuv investitsion loyiha boshlanishidan oldin kompaniya ichki imkoniyatlarini real baholash imkonini beradi.

Rincon-Guio va hamkorlari [8] raqamli texnologiyalarni loyiha boshqaruvi jarayonlariga integratsiyalashga e’tibor qaratgan. Ularning tahlili loyiha hayotiy sikli davomida raqamli vositalarni mos ravishda qo‘llash, masalan, rejalashtirishda Big Data, ijroda IoT, monitoringda Digital Twin texnologiyalaridan foydalanish orqali boshqaruvning aniq va samarali amalga oshirilishini ko‘rsatadi.

Wanasinghe va hammualliflari [9] o‘z izlanishlarida Digital Twin texnologiyasining real vaqt rejimidagi ishlab chiqarish monitoringi va optimallashtirishdagi afzalliklarini yoritgan. Ularning yondashuvi investitsion loyihalarning murakkab fazalarida vaziyatga tezkor javob berish imkonini yaratadi.

Fantke va hammualliflari [12] mahsulotlar hayotiy siklini raqamli tahlil qilish orqali ekologik barqarorlikka xizmat qiluvchi natijalarga erishish mumkinligini ko‘rsatgan. Ular ishlab chiqargan model kimyo sanoatida chiqindilarni kamaytirish, resurslardan foydalanishni optimallashtirish va ekologik risklarni nazorat qilish imkonini beradi.

Kumar va hammualliflari [11] sun’iy intellekt asosidagi qaror qabul qilish tizimlarini joriy etish orqali investitsion loyihalarda aniqlik va samaradorlikni oshirishga qaratilgan texnologik yondashuvni ilgari surgan. Ularning algoritmik modellari moliyaviy risklarni boshqarish, talab prognozini tuzish va samarali rejalashtirishni ta’minlaydi.

Dutta va hammualliflari [13] kichik va o‘rta korxonalarda sifat nazoratini raqamlashtirish orqali ularning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan amaliy takliflar bergan. Ularning izlanishlari raqamli texnologiyalarning nafaqat yirik korxonalar, balki kichik subyektlar uchun ham strategik ahamiyatga ega ekanligini isbotlaydi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda kimyo sanoati korxonalarida investitsion loyihalarni boshqarishda raqamli texnologiyalarni integratsiyalashning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilindi. Metodologik asos sifatida tizimli yondashuv, kontent tahlili va konseptual model yaratish usullari qo‘llanildi. Sun’iy intellekt (AI), Internet of Things (IoT), Digital Twin va Big Data texnologiyalarining investitsion bosqichlardagi ta’siri o‘rganildi. Shuningdek, texnologiyalar va loyiha bosqichlari o‘rtasidagi moslik asosida integratsion boshqaruv modeli ishlab chiqildi. Mazkur model investitsion qarorlarning tezkorligini, resurslardan foydalanish samaradorligini va monitoring tizimlarining funksionalligini aniq baholash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘tkazilgan tadqiqotlar asosida kimyo sanoati korxonalarida investitsion loyihalarni boshqarish samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalarning roli har tomonlama baholandi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, raqamli transformatsiya sanoat ishlab chiqarish jarayonlarining barcha bosqichida aniqlik, tezkorlik va sifat kabi mezonlarni yaxshilashda hal qiluvchi omilga aylanmoqda. Tadqiqot natijalari investitsion loyihalarning tashabbus bosqichidan tortib monitoring va yakuniy baholashgacha bo‘lgan barcha bosqichlarda raqamlashtirishning ijobiy ta’sirini yaqqol tasdiqlaydi (1-rasm).



1-rasm. Investitsion loyiha hayotiy sikli bosqichlarida raqamli texnologiyalar ta’siri[1]

[1] Muallif ishlanmasi

Bu grafikda AI, IoT, Digital Twin va Big Data texnologiyalarining investitsion loyiha siklining turli bosqichlariga ko‘rsatgan ta’siri baholangan. Eng yuqori ta’sir ko‘rsatuvchi texnologiyalar rejalashtirish, ijro va monitoring bosqichlarida aniqlangan bo‘lib, aynan shu bosqichlarda avtomatizatsiya va real vaqt ma’lumotlariga asoslangan qarorlar muhim o‘rin egallaydi.

Liao va Wang tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar [1] ishlab chiqarish jarayonlariga “lean” yondashuvini raqamli transformatsiya bilan birgalikda tatbiq etish orqali ishlab chiqarish samaradorligi va resurslardan foydalanish ko‘rsatkichlarini yaxshilash mumkinligini ko‘rsatgan. Ularning natijalari kimyo sanoati korxonalarida investitsion resurslarni samarali taqsimlash va chiqindilarni minimallashtirish bo‘yicha amaliy model sifatida qabul qilinishi mumkinligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, Wiegand va Wynn [2] raqamli texnologiyalar yordamida sanoat tarmoqlarida “aylanma iqtisodiyot” tamoyillarini joriy etish tajribalarini o‘rganib chiqib, bu jarayonning samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan raqamli yechimlar tahlilini bergan. Ularning tadqiqoti korxona darajasida barqaror ishlab chiqarish strategiyalarini ishlab chiqish uchun zaruriy asos yaratadi.

Gamidullaeva va hammualliflari [3] tomonidan taklif etilgan kompleks yondashuv sanoat tizimlarida ekologik va texnologik loyihalarni uyg‘unlashtirish orqali integratsiyalashgan boshqaruv modelini ishlab chiqish zarurligini ta’kidlaydi. Ularning tadqiqotida raqamli texnologiyalar orqali sanoat jarayonlarining monitoringi, tahlili va optimallashtirilishi natijasida samaradorlikka erishishning nazariy asoslari ishlab chiqilgan. Bu holat raqamli transformatsiyaning nafaqat ishlab chiqarish samaradorligiga, balki atrof-muhit barqarorligiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatishini isbotlaydi.

Quyidagi jadvalda AI, IoT, Digital Twin va Big Data texnologiyalarining har biri qanday turdagi loyihalarda qo‘llanilgani va qanday aniq natijalarga erishilganligi ko‘rsatilgan. Har bir texnologiya uchun foydalanilgan mualliflar asosida faktlar keltirilgan bo‘lib, bu ilmiy asoslashni kuchaytiradi (1-jadval).

1-jadval.

Raqamli texnologiyalar – Loyiha turlari va natijalari[1]

Texnologiya	Loyiha turi	Natijalar
AI	Jarayon avtomatizatsiyasi va qaror qabul qilish [11]	Qarorlar tezligi va aniqligi oshdi
IoT	Uskunalar monitoringi va xavfsizlik [6]	Nosozliklarni oldindan aniqlash imkoniyati
Digital Twin	Rejalashtirish va simulyatsiya [9]	Rejalar aniq va moslashuvchan bo‘ldi
Big Data	Hayotiy sikl tahlili va resurs optimallashtirish [12]	Resurslar, energiya va chiqindilar tahlili aniqlandi

Udugama va hammualliflari [4] tomonidan kimyo muhandisligi sohasida raqamli texnologiyalarning ta’lim va ishlab chiqarish muhitida joriy etilishi o‘rganilgan. Ular ayniqsa digital twin, IoT va katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish tizimlarining

[1] Muallif ishlanmasi

ishlab chiqarish tizimlari bilan uyg‘unligi, texnik mutaxassislarning malakasiga qo‘yiladigan talablar hamda real vaqt rejimidagi qaror qabul qilishda bu texnologiyalarning qo‘llanish imkoniyatlarini tahlil qilgan.

Vasilieva va hammualliflari [5] esa kimyo sanoati sohasida innovatsion loyihalarning iqtisodiy samaradorligini oshirishda zamonaviy tahlil vositalaridan foydalanish orqali raqamlashtirishning moliyaviy boshqaruvdagi rolini ko‘rsatgan. Ularning tadqiqoti investitsion loyihalarni iqtisodiy samaradorlik asosida baholash modelini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Raqamlashtirish jarayonining muhim jihatlaridan biri xavfsizlik masalasidir. Bu borada Khan va hamkorlari [6] sanoat tizimlarini raqamlashtirish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavflarni aniqlash, baholash va ularni boshqarish metodikalarini ishlab chiqqan. Ularning izlanishlari jarayon xavfsizligini ta’minlash va texnik nosozliklarni oldindan prognoz qilish imkonini beradigan integratsiyalashgan tizimlar asosida raqamli transformatsiyani amalga oshirish zarurligini ko‘rsatadi.

Korxonalarning raqamli transformatsiyaga tayyorgarlik darajasi ularning investitsion loyihalarni qanday darajada muvaffaqiyatli amalga oshirishlarini belgilovchi muhim mezon sifatida namoyon bo‘ladi. Machado va hammualliflari [7] ishlab chiqarish korxonalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish uchun zarur tashkiliy salohiyat, texnik infrastrukturaviy tayyorgarlik va xodimlar malakasiga oid omillarni tizimli tahlil qilgan. Shu bilan birga, Rincon-Guio va hamkorlari [8] raqamli loyihalarni amalga oshirishda loyiha boshqaruvi tamoyillari bilan Industry 4.0 texnologiyalari o‘rtasidagi uyg‘unlikni chuqur tahlil qilgan bo‘lib, bu yondashuv loyihani boshqarish sifatini oshirishda muhim amaliy mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi (2-rasm).



2-rasm. Investitsion loyihani boshqarishda raqamli texnologiyalar integratsiyasi[1]

[1] Muallif ishlanmasi

Quyidagi konseptual model investitsion loyihani boshqarish jarayonida qanday raqamli texnologiyalar (Big Data, Digital Twin, AI, IoT) bosqichma-bosqich integratsiyalashishini ko‘rsatadi. Ushbu sxema loyiha g‘oyasidan tortib baholash va optimallashtirishgacha bo‘lgan bosqichlarda qanday raqamli texnologiyalar ishtirok etishini aniqlashtiradi.

Katta ma’lumotlar va sun’iy intellektni investitsion loyihalarga joriy etish masalalari Kumar va hamkorlari tomonidan keng tahlil qilingan [11]. Ular axborotlarni real vaqt rejimida tahlil qilish, qarorlarni optimallashtirish va moliyaviy risklarni minimallashtirishga xizmat qiluvchi algoritmlar orqali investitsion loyihalar samaradorligini oshirish mexanizmlarini ishlab chiqqan.

Barqaror rivojlanishga doir tahlillar raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ishlab chiqarish jarayonlarining ekologik va ijtimoiy mas’uliyatli boshqaruv tizimlariga moslashtirilishini ko‘rsatmoqda. Fantke va hamkorlari [12] kimyo sanoatida mahsulotlar hayot siklini monitoring qilish hamda barqarorlik ko‘rsatkichlarini nazorat qilishda raqamli vositalarning funksional afzalliklarini asoslab bergan. Dutta va hamkorlari [13] esa kichik va o‘rta ishlab chiqarish korxonalarida sifat nazoratini raqamlashtirish orqali raqobatbardoshlik va tashkiliy samaradorlikni oshirish yo‘llarini taklif qilgan.

Yuqoridagi tahlillarni umumlashtirib aytganda, shuni ko‘rish mumkinki, raqamli texnologiyalarni investitsion loyihalarni boshqarishga kompleks tarzda joriy etish kimyo sanoatida iqtisodiy samaradorlik, ishlab chiqarish unumdorligi va barqaror rivojlanishni ta’minlovchi hal qiluvchi omil sifatida qaralishi lozim. Raqamlashtirish jarayonini faqat texnik innovatsiya sifatida emas, balki strategik boshqaruv vositasi sifatida qabul qilish orqali investitsion faoliyatni har tomonlama takomillashtirish mumkin. Bu esa hozirgi zamon sanoat korxonalarida samarali boshqaruv tizimini shakllantirish uchun muhim nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, kimyo sanoati korxonalarida investitsion loyihalarni samarali boshqarishda raqamli texnologiyalar muhim omil sifatida shakllanmoqda. AI, IoT, Digital Twin va Big Data texnologiyalarining har biri loyiha hayotiy siklining turli bosqichlarida alohida funksiyani bajaradi. Ularning integratsiyasi rejalashtirishda aniqlik, ijro bosqichida avtomatlashtirish, monitoringda esa real vaqt tahlil imkoniyatini yaratadi.

Loyihalarni iqtisodiy samaradorlik asosida baholashda Big Data va AI texnologiyalari qaror qabul qilishni sezilarli darajada takomillashtiradi. IoT va Digital Twin texnologiyalari esa ishlab chiqarish xavfsizligini oshiradi va uskunalarning ishlash holatini doimiy nazorat qilish imkonini beradi. Bularning barchasi investitsion resurslardan oqilona foydalanishga, jarayonlar uzluksizligini ta’minlashga hamda loyihalarning umumiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shu asosda quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Raqamli texnologiyalarni kompleks joriy etish strategiyasi ishlab chiqilishi va ushbu strategiya loyihaning barcha bosqichlarini qamrab olishi lozim.

2. Kadrlar salohiyatini oshirishga yo‘naltirilgan, uzluksiz raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish dasturlari amalga oshirilishi zarur.

3. Loyihalarni baholash va monitoring qilishda sun’iy intellekt asosidagi algoritmik tizimlar keng joriy etilishi lozim.

4. IoT va Digital Twin asosidagi xavfsizlik monitoringi tizimlari ishlab chiqilishi va real vaqt rejimida ishlashi ta’minlanishi kerak.

5. Kichik va o‘rta korxonalar uchun moslashtirilgan raqamli boshqaruv modellari ishlab chiqilishi va ularning amaliyotga tatbiq etilishi tavsiya etiladi.

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, raqamli texnologiyalarni investitsion loyihalarni boshqarish jarayoniga maqsadli va bosqichma-bosqich integratsiyalash nafaqat iqtisodiy samaradorlikni, balki ishlab chiqarish jarayonlarining ekologik va texnik barqarorligini ham ta’minlaydi. Bu esa kimyo sanoati korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirish va barqaror rivojlanishga erishishning muhim sharti hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Liao, M.-H., & Wang, C.-T. (2021). Using enterprise architecture to integrate lean manufacturing, digitalization, and sustainability: A lean enterprise case study in the chemical industry. Sustainability, 13(9), 4851. https://doi.org/10.3390/su13094851

2. Wiegand, T., & Wynn, M. (2023). Sustainability, the circular economy and digitalisation in the German textile and clothing industry. Sustainability, 15(11), 9111. https://doi.org/10.3390/su15119111

3. Gamidullaeva, L., Shmeleva, N., Tolstykh, T., Guseva, T., & Panova, S. (2024). The complex approach to environmental and technological project management to enhance the sustainability of industrial systems. Systems, 12(7), 261. https://doi.org/10.3390/systems12070261

4. Udugama, I. A., Bayer, C., Baroutian, S., Gernaey, K. V., Yu, W., & Young, B. R. (2022). Digitalisation in chemical engineering: Industrial needs, academic best practice, and curriculum limitations. Education for Chemical Engineers, 39, 94–107. https://doi.org/10.1016/j.ece.2022.03.003

5. Vasilieva, E., Kudryavtseva, T., & Skhvediani, A. (2020). Managing the efficiency of an innovative project in the chemical sector. IOP Conference Series: Materials Science and Engineering, 940, 012046. https://doi.org/10.1088/1757-899X/940/1/012046

6. Khan, F., Amyotte, P., & Adedigba, S. (2021). Process safety concerns in process system digitalization. Education for Chemical Engineers. https://doi.org/10.1016/j.ece.2020.11.002

7. Machado, C. G., Winroth, M., Almström, P., Öberg, A. E., Kurdve, M., & AlMashalah, S. (2021). Digital organisational readiness: Experiences from manufacturing companies. Journal of Manufacturing Technology Management, 32(9), 167–182. https://doi.org/10.1108/JMTM-05-2019-0188

8. Rincon-Guio, C., Hernández-Ramírez, J., Olguín, C. M., Pibaque-Ponce, M. S., Baque-Cantos, M. A., Santistevan-Villacreses, K. L., Cañarte-Quimis, L. T., Hernández-Lugo, P., & Medina, L. (2023). A systematic literature review on advances,

trends and challenges in project management and Industry 4.0. LogForum, 19(2), 225–244. https://doi.org/10.17270/J.LOG.2023.844

9. Wanasinghe, T. R., Wroblewski, L., Petersen, B. K., Gosine, R. G., James, L. A., de Silva, O., Mann, G. K. I., & Warrian, P. J. (2020). Digital twin for the oil and gas industry: Overview, research trends, opportunities, and challenges. IEEE Access, 8, 104175–104197. https://doi.org/10.1109/ACCESS.2020.2998723

10. Klei, A., Moder, M., Stockdale, O., Weihe, U., & Winkler, G. (2017). Digital in chemicals: From technology to impact. McKinsey & Company. Retrieved from https://www.mckinsey.com

11. Kumar, D., Shekhar, S., & Tewary, T. (2025). AI and data analytics for climate data management. Frontiers in Environmental Science, 13, Article 1679608. https://doi.org/10.3389/fenvs.2025.1679608

12. Fantke, P., Cinquemani, C., Yaseneva, P., De Mello, J., Schwabe, H., Ebeling, B., & Lapkin, A. A. (2021). Transition to sustainable chemistry through digitalization. Chem, 7(11), 2866–2882. https://doi.org/10.1016/j.chempr.2021.09.012

13. Dutta, G., Kumar, R., Sindhwani, R., & Singh, R. K. (2021). Digitalization priorities of quality control processes for SMEs: A conceptual study in perspective of Industry 4.0 adoption. Journal of Intelligent Manufacturing, 32, 1679–1698. https://doi.org/10.1007/s10845-021-01783-2

QASHQADARYO VILOYATIDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK TOMONIDAN ISHLAB CHIQILGAN MAHSULOT HAJMINING PROGNOZLASH

Xudoyorov Laziz Niyozovich
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti tadqiqotchisi
ORCID: 0009-0002-5636-4682
E-mail: lazizx64@gmail.com

Annotatsiya

Maqola Qashqadaryo viloyatida kichik biznes va tadbirkorlikning rivojlanishini ekonometrik modellashtirish orqali tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda 2000–2024-yillar oralig‘idagi viloyat kichik biznes va tadbirkorlik (KBT) subyektlari bo‘yicha statistika ma’lumotlari asosida regressiya tahlili va vaqt qatori metodlari qo‘llanildi.

KBT mahsulot hajmini shakllantiruvchi asosiy omillar aniqlandi va 2025–2030-yillar uchun prognoz natijalari ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari bandlik darajasi, investitsiyalar va asosiy fondlar qiymatining mahsulot hajmiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi. Natijalar KBT rivojlanishining barqaror tendensiyasini tasdiqladi hamda hududiy iqtisodiy siyosatni shakllantirish va resurslarni samarali taqsimlash bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda asos bo‘ladi. Tadqiqotda EViews dasturida amalga oshirilgan ekonometrik hisob-kitoblar va prognozlash natijalari asosiy ilmiy metod sifatida xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Kichik biznes, tadbirkorlik, iqtisodiy rivojlanish, hududiy iqtisodiyot, Qashqadaryo viloyati, mahsulot hajmi, bandlik darajasi, investitsiyalar, korxonalar soni, asosiy fondlar, ekonometrik modellashtirish, regressiya tahlili, vaqt qatori tahlili, prognozlash, EViews dasturi, iqtisodiy omillar, barqaror o‘sish, hududiy siyosat, resurslarni taqsimlash.

Аннотация

Статья посвящена анализу развития малого бизнеса и предпринимательства в Кашкадарьинской области с помощью эконометрического моделирования. В исследовании применялись методы регрессионного анализа и анализа временных рядов на основе статистических данных субъектов малого бизнеса и предпринимательства (МБП) региона за период 2000–2024 годов.

Выявлены ключевые факторы, влияющие на объём продукции МБП, а также разработаны прогнозные результаты на 2025–2030 годы. Результаты исследования показывают, что уровень занятости, инвестиции и стоимость основных фондов оказывают существенное влияние на объём продукции. Полученные данные подтверждают устойчивую тенденцию развития МБП и служат основой для формирования региональной экономической политики и выработки практических рекомендаций по эффективному распределению ресурсов. Эконометрические расчёты и прогнозирование, выполненные в программном обеспечении EViews, являются основным научным методом исследования.

Ключевые слова: малый бизнес, предпринимательство, экономическое развитие, региональная экономика, Кашкадарьинская область, объём продукции, уровень занятости, инвестиции, количество предприятий, основные фонды, эконометрическое моделирование, регрессионный анализ, анализ временных рядов, прогнозирование, программное обеспечение EViews, экономические факторы, устойчивый рост, региональная политика, распределение ресурсов.

Abstract

The article is dedicated to analyzing the development of small business and entrepreneurship in the Qashqadaryo region through econometric modeling. The study employs regression analysis and time series methods based on statistical data of small business and entrepreneurship (SBE) entities in the region for the period 2000–2024.

Key factors influencing the volume of SBE products were identified, and forecast results for 2025–2030 were developed. The study findings show that employment levels, investments, and the value of fixed assets significantly impact the product volume. The results confirm a stable trend in SBE development and serve as a basis for forming regional economic policy and developing practical recommendations for effective resource allocation. Econometric calculations and forecasting performed in the EViews software serve as the main scientific method of the study.

Keywords: small business, entrepreneurship, economic development, regional economy, Qashqadaryo region, product volume, employment level, investments, number of enterprises, fixed assets, econometric modeling, regression analysis, time series analysis, forecasting, EViews software, economic factors, sustainable growth, regional policy, resource allocation.

KIRISH

Kichik biznes va tadbirkorlik (KBT) mamlakatning iqtisodiy barqarorligi va hududiy rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, viloyat darajasida KBTning rivojlanishi ish bilan ta’minlash, investitsiyalarni jalb qilish, ishlab chiqarish hajmini oshirish va hududiy iqtisodiy strategiyalarni amalga oshirishda asosiy rol o‘ynaydi. O‘zbekiston sharoitida KBT rivojlanishi iqtisodiy o‘sishning muhim drayveri sifatida tan olinmoqda, chunki u nafaqat yangi ish o‘rinlarini yaratadi, balki innovatsion yechimlarni tatbiq etish va mahalliy resurslarni samarali taqsimlash imkonini beradi.

So‘nggi yillarda Qashqadaryo viloyatida kichik biznes subyektlarining soni sezilarli darajada oshdi. Shu bilan birga, ularning ishlab chiqarish hajmi, investitsiyalar va asosiy fondlar qiymati ham barqaror o‘sish sur’atini ko‘rsatmoqda. Biroq, KBT rivojlanishidagi asosiy omillar va ularning mahsulot hajmiga ta’sir darajasini ilmiy asosda aniqlash uchun aniq statistika va tahliliy yondashuvlar zarur.

Shu maqsadda, maqolada ekonometrik modellashtirish metodologiyasi qo‘llaniladi. Regressiya tahlili, korelyatsion bog‘liqlik va vaqt qatori tahlili yordamida KBT mahsulot hajmini shakllantiruvchi omillar aniqlanadi, shuningdek, 2025–2030-yillar uchun prognozlar ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalari nafaqat ilmiy jihatdan, balki hududiy iqtisodiy rejalashtirish va siyosat ishlab chiqishda ham amaliy ahamiyatga ega bo‘ladi.

Maqola KBT rivojlanishini tahlil qilishda EViews dasturida amalga oshirilgan ekonometrik hisob-kitoblarni ham o‘z ichiga oladi, bu esa natijalarning aniqligi va ishonchliligini ta’minlaydi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznes va tadbirkorlik (KBT) rivojlanishini tahlil qilish va prognozlashda econometrik metodlar muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotda foydalanilgan adabiyotlar iqtisodiy ko‘rsatkichlarni baholash, omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash va kelajak sur’atlarini prognozlash bo‘yicha ilmiy asosni taqdim etadi.

Gujarati [1, 11] o‘z asarlarida OLS regressiya, kovariatsiya, korelyatsiya, heteroskedastiklik va auto-korelatsiya kabi econometrik tushunchalarni tizimli ravishda bayon qiladi. Ushbu manbalar KBT mahsulot hajmi va uning rivojlanish omillari o‘rtasidagi munosabatni aniqlashda nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, EViews dasturida amaliy mashqlar orqali model tuzish va prognozlash bo‘yicha tavsiyalar ham berilgan.

Wooldridge [2] hamda Stock va Watson [3] asarlarida regressiya tahlili va zamonaviy econometrik yondashuvlar keng yoritilgan. Ular vaqt qatori va kross-seksiya ma’lumotlari bilan ishlash, model aniqligi va ishonchliligini baholash metodlarini batafsil tushuntiradi. Shu manbalar yordamida KBT rivojlanishining statistik jihatdan ishonchli natijalari olinadi.

Hayashi [4] va Hamilton [9] asarlarida vaqt qatori tahliliga alohida e’tibor qaratilgan. Bu manbalar KBT subyektlari faoliyatini vaqt bo‘yicha o‘rganish va kelajakdagi mahsulot hajmini prognozlashda zarur metodologik asosni beradi. Ayniqsa, Hamiltonning *Time Series Analysis* kitobi iqtisodiy ko‘rsatkichlarning dinamikasini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, Lambert [16] iqtisodiy va statistika metodlarini tushuntirib, modeldagi o‘zgaruvchilarni baholash va natijalarni interpretatsiya qilishda yordam beradi.

Umuman olganda, tahlil qilingan adabiyotlar KBT rivojlanishini baholashda quyidagi jihatlarni ta’minlaydi:

• Asosiy iqtisodiy omillarni aniqlash va ularning mahsulot hajmiga ta’sirini o‘rganish;

• Vaqt qatori va regressiya metodlarini qo‘llash orqali barqaror o‘sish tendensiyalarini tahlil qilish;

• EViews dasturida amaliy ishlar va prognoz natijalarini vizual tarzda chiqarish [8].

Shu bilan birga, ushbu manbalar KBT rivojlanishini ilmiy asosda baholash va strategik tavsiyalar ishlab chiqishda ishonchli baza yaratadi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda Qashqadaryo viloyatidagi kichik biznes va tadbirkorlik (KBT) subyektlarining iqtisodiy rivojlanishini tahlil qilish va prognozlash uchun ekonometrik modellashtirish metodologiyasi qo‘llanildi. Metodologiyaning asosiy yo‘nalishlari quyidagilar:

Ma’lumotlar manbalari va tanlovi: Tadqiqotda 2000–2024-yillar oralig‘idagi viloyatning KBT subyektlariga oid statistik ma’lumotlar, jumladan, ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, bandlik darajasi, investitsiyalar, korxonalar soni va asosiy fondlar qiymati ishlatildi. Ma’lumotlar asosan Davlat statistika qo‘mitasi va viloyat Iqtisodiyot boshqarmasi ma’lumotlar bazasidan olingan.

O‘zgaruvchilarni tanlash:

- Mustaqil o‘zgaruvchilar: Bandlik darajasi (X1), investitsiyalar hajmi (X2), KBT korxonalari soni (X3), asosiy fondlar qiymati (X4).
- Erksiz o‘zgaruvchi: KBT tomonidan ishlab chiqilgan mahsulot hajmi (Y).

Ushbu o‘zgaruvchilar KBT rivojlanishining asosiy omillarini ifodalaydi va iqtisodiy tahlil uchun statistik jihatdan sezilarli hisoblanadi.

Metod va vositalar: Tadqiqotda Ordinary Least Squares (OLS) regressiya usuli tanlandi. Ushbu usul yordamida KBT mahsulot hajmiga ta’sir etuvchi asosiy iqtisodiy omillar aniqlanadi va ularning prognozga ta’siri baholanadi. Regressiya tahlili orqali:

- O‘zgaruvchilar orasidagi korelyatsiya va kovariatsiya aniqlanadi;
- Modelning aniqligi va ishonchliligi R^2, Adjusted R^2 va F-statistika orqali baholanadi [8];
- Prognoz natijalari yordamida KBT rivojlanishining kelajak sur’atlari aniqlanadi.

Prognozlash: OLS modeli asosida 2025–2030-yillar uchun KBT mahsulot hajmining prognozi ishlab chiqildi [5]. Prognozlashda mavjud tendensiyalar, bandlik darajasi, investitsiyalar va asosiy fondlar qiymati asosiy omillar sifatida hisobga olindi. Prognoz natijalari grafik va jadval shaklida vizual tarzda taqdim etildi.

EViews dasturidan foydalanish: Tadqiqotning barcha econometrik hisob-kitoblari, regressiya natijalari va prognozlar EViews dasturida bajarildi [6]. Bu dastur vaqt qatori tahlili, regressiya modellari va statistik testlarni amalga oshirish uchun qulay va aniq natijalar beradi.

Tahlil va interpretatsiya: Model natijalari tahlil qilinib, KBT rivojlanishidagi asosiy omillar aniqlanadi [7]. Shuningdek, prognoz natijalari hududiy iqtisodiy rejalashtirish va KBT siyosatini shakllantirishda strategik tavsiyalar berishga imkon beradi.

Ushbu metodologiya KBT subyektlarining iqtisodiy rivojlanishini ilmiy asosda baholash, omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash va kelajak sur’atlarini prognozlash imkonini beradi [10]. Metodologiya nafaqat statistik va ekonometrik tahlilga, balki viloyat iqtisodiy siyosatini shakllantirishga ham xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Viloyat statistika boshqarmasidan olingan ma’lumotlarga asosan, 2000–2024-yillar davomida kichik biznes va tadbirkorlik (KBT) subyektlarining asosiy ko‘rsatkichlari barqaror o‘sish tendensiyasini namoyon qilmoqda. Ushbu davrda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi (Y) 62,7 mlrd so‘mdan 57 267,4 mlrd so‘mgacha o‘sib, umumiy o‘sish sur’ati sezilarli darajada yuqori bo‘lgan. Dastlabki bosqichlarda (2000–2005-yillar) mahsulot hajmi sekinroq o‘sib, 509,3 mlrd so‘mga yetgan bo‘lsa, 2006–2015-yillarda barqaror va yuqori o‘sish kuzatilgan. 2016–2024-yillar esa KBT

rivojlanishida eng dinamik davr hisoblanadi; ayniqsa, 2019-yilda keskin o‘sish va keyingi yillarda barqaror rivojlanish davom etgan.

KBTda band bo‘lganlar soni (X1) ham o‘sish sur’atini ko‘rsatadi: 349,1 ming kishidan 2024-yilda 1 017,1 ming kishiga yetgan. Shu bilan birga, bandlik o‘sishida 2019–2020-yillarda sekinlashish kuzatilgan, bu global iqtisodiy shoklar va pandemiya bilan izohlanadi. Bandlik va ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi o‘rtasidagi bog‘liqlik yuqori ijobiy korrelyatsiyani ko‘rsatadi, ya’ni mahsulot hajmi oshishi bilan bandlik darajasi ham ortgan.

Investitsiyalar (X2) KBT rivojlanishidagi kapital qo‘llab-quvvatlashning o‘sishini aks ettiradi. 2000-yilda 8,3 mlrd so‘m bo‘lgan investitsiya hajmi 2024-yilda 15 628,0 mlrd so‘mgacha yetgan. Ayniqsa, 2019-yilda 7 458,5 mlrd so‘mga ko‘tarilishi, yirik modernizatsiya va kengayish davrini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, KBT korxonalari soni (X3) 1 673,0 ming birlikdan 22 452,0 ming birlikgacha o‘sib, sektor kengayishining barqarorligini tasdiqlaydi.

Asosiy fondlar qiymati (X4) ham KBT rivojlanishining barqaror o‘sishini ko‘rsatadi. 2000-yilda 502,5 mlrd so‘m bo‘lgan asosiy fondlar qiymati 2024-yilda 43 296,4 mlrd so‘mga yetgan. Bu rivojlanish ishlab chiqarish quvvatining kengayishi va investitsiya samaradorligining oshishini aks ettiradi.

Yuqoridagi ko‘rsatkichlar asosida KBT rivojlanishining kelajak tendensiyalari prognozlash imkonini beradi. 2025–2030-yillarda mahsulot hajmi, bandlik, investitsiya, korxonalar soni va asosiy fondlar qiymatining o‘sish sur’atlari tarixiy ma’lumotlar asosida modellash orqali aniqlanishi mumkin [11]. Bu prognozlar, o‘z navbatida, KBT siyosatini shakllantirish va resurslarni samarali taqsimlash bo‘yicha strategik qarorlar qabul qilishda muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

2000–2024-yillar davomidagi statistik ma’lumotlar asosida EViews dasturidan foydalanib quyidagi korrelyatsion tahlil jadvali ishlab chiqildi (1-jadval).

1-jadval.

Viloyatda KBT tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga ta’sir qiluvchi omillarning kovariatsiya va korrelyatsiya tahlili[1]

Covariance Analysis: Ordinary					
Date: 09/27/25 Time: 21:28					
Sample: 2000 2024					
Included observations: 25					
Covariance					
Correlation					
t-Statistic					
Probability	Y	X1	X2	X3	X4
Y	2.73E+08				
	1.000000				
X1	2633965.	45603.58			
	0.747068	1.000000			

[1] Muallif ishlanmasi

	5.389734	-----			
	0.0000	-----			
X2	52424633	443694.9	12389780		
	0.902097	0.590273	1.000000		
	10.02543	3.506986	-----		
	0.0000	0.0019	-----		
X3	1.19E+08	1510753.	18470362	73963286	
	0.835967	0.822595	0.610148	1.000000	
	7.305587	6.937795	3.693319	-----	
	0.0000	0.0000	0.0012	-----	
X4	2.10E+08	2018903.	39806428	92872685	1.63E+08
	0.998645	0.741006	0.886395	0.846420	1.000000
	92.01479	5.292256	9.182823	7.622840	-----
	0.0000	0.0000	0.0000	0.0000	-----

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, KBT asosiy ko‘rsatkichlari orasida sezilarli ijobiy bog‘liqlik mavjud. Quyida asosiy xulosalar keltiriladi:

Mahsulot hajmi (Y) va boshqa ko‘rsatkichlar orasidagi bog‘liqlik:

- Y va X1 (bandlik) o‘rtasidagi korrelyatsiya: r = 0.747, bu yuqori ijobiy bog‘liqlikni bildiradi. t-statistikasi 5.39 va p < 0.001, ya’ni bog‘liqlik statistik jihatdan ishonchli. Bu mahsulot hajmi oshishi bilan bandlik ham ortishini ko‘rsatadi [12].
- Y va X2 (investitsiya) o‘rtasidagi korrelyatsiya: r = 0.902, bu juda yuqori ijobiy bog‘liqlikni bildiradi. t-statistikasi 10.03 va p < 0.001, ya’ni sezilarli darajada muhim. Shu orqali investitsiya hajmining mahsulot hajmiga sezilarli ta’siri mavjudligi tasdiqlanadi [13].
- Y va X3 (korxonalar soni) o‘rtasidagi korrelyatsiya: r = 0.836, t-statistikasi 7.31, p < 0.001, bu ham yuqori ijobiy bog‘liqlikni ko‘rsatadi.
- Y va X4 (asosiy fondlar) o‘rtasidagi korrelyatsiya: r = 0.999, t-statistikasi 92.01, p < 0.001, ya’ni mahsulot hajmi va asosiy fondlar qiymati o‘rtasida deyarli mukammal bog‘liqlik mavjud (2-jadval).

2-jadval.

Viloyatda KBT tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga ta’sir qiluvchi omillarning OLS regressiya natijalari[1]

Dependent Variable: Y
Method: Least Squares
Date: 09/27/25 Time: 20:59
Sample: 2000 2024
Included observations: 25

Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
C	-1880.853	517.3135	-3.635809	0.0016

[1] Muallif ishlanmasi

X1	2.726211	0.969114	2.813097	0.0107
X2	0.363674	0.086813	4.189185	0.0005
X3	-0.036095	0.036026	-1.001921	0.3284
X4	1.190156	0.035330	33.68680	0.0000

R-squared	0.999026	Mean dependent var	13825.79
Adjusted R-squared	0.998831	S.D. dependent var	16850.57
S.E. of regression	576.2073	Akaike info criterion	15.72767
Sum squared resid	6640297.	Schwarz criterion	15.97144
Log likelihood	-191.5959	Hannan-Quinn criter.	15.79528
F-statistic	5126.250	Durbin-Watson stat	1.094646
Prob(F-statistic)	0.000000		

2000–2024-yillar uchun KBT mahsulot hajmi (Y) ga ta’sir qiluvchi asosiy omillar OLS usuli bilan tahlil qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki:

- X1 (bandlik) va X2 (investitsiyalar) Y ga ijobiy va sezilarli ta’sir ko‘rsatadi (t-stat 2.81 va 4.19, $p < 0.05$).
- X4 (asosiy fondlar) eng muhim omil bo‘lib, mahsulot hajmini sezilarli darajada oshiradi (t-stat 33.69, $p < 0.001$).
- X3 (korxonalar soni) koeffitsienti manfiy bo‘lishiga qaramay, statistik jihatdan sezilarli emas ($p = 0.328$), ya’ni mahsulot hajmiga aniq ta’siri mavjud emas.

Model juda yuqori aniqlikka ega: $R^2 = 0.999$, bu regressiya orqali ma’lumotlarning deyarli barcha o‘zgarishi tushuntirilishini bildiradi. F-statistikasi 5126.25 va $p < 0.001$, ya’ni model umumiy jihatdan sezilarli [14].

OLS regressiya natijalari asosida quyidagi model tuzildi:

$$\mathbf{y = -1880.85 + 2.72*x1 + 0.36*x2 - 0.03*x3 + 1.19*x4} \quad (1)$$

Ushbu tadqiqotda kichik biznes va tadbirkorlik (KBT) rivojlanishini tahlil qilish uchun 2000–2024-yillar oralig‘idagi asosiy ko‘rsatkichlar — ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi (Y), bandlik darajasi (X1), investitsiyalar (X2), korxonalar soni (X3) va asosiy fondlar qiymati (X4) — asosiy regressiya modeli yordamida o‘rganildi. Model natijalari asosida 2025–2030 yillar uchun 3-jadval prognozlari ishlab chiqildi (3-jadval).

3-jadval

2025–2030-yillar uchun KBT mahsulot hajmining rivojlanish prognozlari[1]

Yil	Mahsulot hajmi (Y), mlrd so‘m
2025	58 176,6
2026	59 435,3
2027	59 231,7
2028	60 432,1
2029	60 965,2
2030	61 345,8

[1] Muallif ishlanmasi

OLS regressiya modeli asosida 2025–2030-yillar uchun kichik biznes va tadbirkorlik (KBT) subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining prognozi amalga oshirildi [15]. Natijalarga ko‘ra, KBT mahsulot hajmi barqaror va doimiy o‘sish sur’atini saqlaydi. 2025-yilda mahsulot hajmi 58 176,6 mlrd so‘m bo‘lsa, 2030-yilda u 61 345,8 mlrd so‘mga yetishi prognoz qilinmoqda. Ushbu o‘sish tendensiyasi mutanosib bo‘lib, yillik o‘sish sur’ati 4–6 foiz atrofida bo‘lib, iqtisodiy sharoitlarning barqarorligini aks ettiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Prognoz natijalari asosida xulosa qiladigan bo‘lsak, 2025–2030-yillarda KBT mahsulot hajmi barqaror o‘sish sur’atini saqlaydi. O‘sish tendensiyasi mutanosib va doimiy bo‘lib, yillik o‘sish sur’ati bir necha foiz atrofida saqlanadi. Ushbu barqaror o‘sish, asosan, quyidagi omillar bilan izohlanadi:

1. Bandlik (X1): Bandlik darajasi mahsulot hajmi bilan sezilarli ijobiy bog‘langan. Prognoz davrida bandlikning oshishi ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirishga xizmat qiladi va ishchi kuchi samaradorligini oshiradi.
2. Investitsiyalar (X2): Prognoz natijalariga ko‘ra, investitsiyalarning yuqori sur’ati KBT korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, yangi texnologiyalar va ishlab chiqarish infratuzilmasiga investitsiya qilish mahsulot hajmining sezilarli darajada ortishini ta’minlaydi.
3. Asosiy fondlar (X4): Modelda asosiy fondlarning ta’siri eng muhim omil sifatida namoyon bo‘lgan. Asosiy fondlar qiymatining oshishi mahsulot hajmiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi, chunki ishlab chiqarish asosiy vositalari va texnologik quvvatlar mahsulot hajmining asosiy tarkibiy qismini tashkil etadi.
4. Korxonalar soni (X3): Prognoz davomida korxonalar sonining koeffitsienti kichik va statistik jihatdan sezilarli emas. Bu shuni ko‘rsatadiki, ishlab chiqarish hajmi ko‘proq mavjud korxonalarning samaradorligi va kapitalga bog‘liq.

Shu bilan birga, prognoz natijalari iqtisodiy siyosat va KBT rivojlanish strategiyasini shakllantirishda muhim ma’lumot sifatida xizmat qiladi. Barqaror o‘sish tendensiyasi mahsulot hajmining kelajakda yanada oshish ehtimolini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, 2025–2030-yillar uchun prognoz KBT rivojlanishining barqaror va ijobiy dinamikasini tasdiqlaydi, bu esa hududiy iqtisodiy rejalashtirish va resurslarni samarali taqsimlash bo‘yicha strategik qarorlar qabul qilishda ishonchli asos bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Gujarati, D. N. (2005). Essentials of Econometrics (3rd Edition). McGraw-Hill. 544 p.
2. Wooldridge, J. M. (2012). Introductory Econometrics: A Modern Approach (5th Edition). South-Western Cengage Learning. 912 p.
3. Stock, J. H., & Watson, M. W. (2015). Introduction to Econometrics (3rd Edition). Pearson. 790 p.
4. Hayashi, F. (2000). Econometrics. Princeton University Press. 690 p.

5. Kennedy, P. (2008). A Guide to Econometrics (6th Edition). Wiley-Blackwell. 608 p.
6. Cameron, A. C., & Trivedi, P. K. (2005). Microeconometrics: Methods and Applications. Cambridge University Press. 1056 p.
7. Verbeek, M. (2012). A Guide to Modern Econometrics (4th Edition). Wiley. 514 p.
8. Enders, W. (2014). Applied Econometric Time Series (4th Edition). Wiley. 496 p.
9. Hamilton, J. D. (1994). Time Series Analysis. Princeton University Press. 763p.
10. Studenmund, A. H. (2011). Using Econometrics: A Practical Guide (6th Edition). Pearson. 624 p.
11. Gujarati, D. N. (2006). Essentials of Econometrics (3rd Edition, with EViews 4.1 Student Version software). McGraw-Hill. 544 p.
12. Brooks, C. (2014). Introductory Econometrics for Finance (3rd Edition). Cambridge University Press. 878 p.
13. Schmidt, S. J. (2005). Econometrics (with EViews 4.1 Student Version software). McGraw-Hill. 544 p.
14. Diebold, F. X. (2007). Elements of Forecasting (4th Edition, with EViews 6 Student Version software). Thomson/South-Western. 512 p.
15. Maiti, M. (2021). Applied Financial Econometrics: Theory, Method and Applications (with EViews examples). Palgrave Macmillan. 350 p.
16. Lambert, B. (2019). Econometrics and Statistics: Books. Ben Lambert. 200 p.

РАЗВИТИЕ ИННОВАЦИОННОГО МЕНЕДЖМЕНТА В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛЬНОЙ КОНКУРЕНЦИИ

Азизов Ильдар Рафаэльевич
доцент кафедры «Управление бизнесом и предпринимательство» PhD
Высшей школы бизнеса и предпринимательства при
Кабинете Министров Республики Узбекистан
E-mail: ildar8707@gmail.com

Аннотация

В статье рассматриваются современные тенденции развития инновационного менеджмента в Узбекистане в условиях глобальной конкуренции. Анализ основан на стратегических документах («Узбекистан-2030», «Цифровой Узбекистан-2030»), официальных статистических данных и материалах международных организаций (ВОИС, Всемирный банк, ОЭСР). Показано, что инновационный менеджмент становится важным инструментом повышения конкурентоспособности национальной экономики, а также ключевым фактором интеграции в глобальные рынки. Особое внимание уделено развитию инновационной инфраструктуры (технопарки, IT Park, свободные экономические зоны), механизмам государственной поддержки стартапов и НИОКР, а также проблемам кадрового обеспечения и финансирования. Сделан вывод о необходимости активизации венчурного капитала, расширения взаимодействия университетов и бизнеса, а также интеграции инновационных проектов в международные цепочки добавленной стоимости.

Ключевые слова: инновационный менеджмент; Узбекистан; глобальная конкуренция; инновационная инфраструктура; технопарк; IT Park; цифровизация; стартап; венчурное финансирование; конкурентоспособность.

Annotatsiya

Maqolada global raqobat sharoitida O‘zbekistonda innovatsion menejmentning rivojlanish tendentsiyalari tahlil qilingan. Tadqiqot «O‘zbekiston-2030», «Raqamli O‘zbekiston-2030» strategiyalari, rasmiy statistik ma’lumotlar va xalqaro tashkilotlar (JB, OESR, BIIMT) hisobotlari asosida amalga oshirilgan. Innovatsion menejment milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishning muhim vositasi, shuningdek, global bozorlarga integratsiyaning asosiy omili sifatida namoyon bo‘lmoqda. Maqolada innovatsion infratuzilmaning rivojlanishi (texnoparklar, IT Park, erkin iqtisodiy zonalar), startaplar va ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari, kadrlar va moliya bilan bog‘liq muammolar ko‘rib chiqilgan. Xulosa qilinishicha, venchur kapitali faolligini oshirish, universitet va biznes hamkorligini kengaytirish hamda innovatsion loyihalarni xalqaro qiymat zanjirlariga integratsiya qilish zarur.

Kalit so‘zlar: innovatsion menejment; O‘zbekiston; global raqobat; innovatsion infratuzilma; texnopark; IT Park; raqamlashtirish; startap; venchur moliyalash; raqobatbardoshlik.

Abstract

The article examines current trends in the development of innovation management in Uzbekistan under the conditions of global competition. The analysis is based on strategic documents ("Uzbekistan-2030", "Digital Uzbekistan-2030"), official statistical data and reports of international organizations (WIPO, World Bank, OECD). It is shown that innovation management is becoming an important tool for enhancing the competitiveness of the national economy as well as a key factor of integration into global markets. Special attention is paid to the development of innovation infrastructure (technoparks, IT Park, free economic zones), mechanisms of state support for startups and R&D, as well as issues of human resources and financing. The study concludes on the necessity to activate venture capital, expand cooperation between universities and businesses, and integrate innovative projects into international value chains.

Keywords: innovation management; Uzbekistan; global competition; innovation infrastructure; technopark; IT Park; digitalization; startup; venture financing; competitiveness.

ВВЕДЕНИЕ

Малый бизнес в Узбекистане играет центральную роль в устойчивом социально-экономическом развитии страны. По данным Агентства по статистике, доля малого бизнеса в валовом внутреннем продукте в 2024 году составила 53,8%, а в отдельных секторах достигает особенно высоких показателей — около 96% в сельском хозяйстве и более 78% в строительстве. Даже несмотря на методологические корректировки, в первом полугодии 2025 года вклад малого бизнеса сохраняется на уровне 49,6%, что подчеркивает его системную значимость [1]. Малый бизнес обеспечивает значительную часть занятости населения, создает конкурентную среду и выступает источником инноваций в сфере услуг и информационных технологий.

Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев, говоря о задачах современной экономической политики, заявил: «В целях продолжения системных реформ, построения сильного и процветающего государства мы приняли Стратегию «Узбекистан – 2030». В этом важном документе отражено 100 конкретных задач по достижению устойчивого экономического роста, реформированию социальной защиты, здравоохранения и образования, обеспечению верховенства закона» [2].

Стратегия «Узбекистан – 2030», утверждённая Указом Президента № УП-158 от 11 сентября 2023 года, стала официальной рамкой для дальнейших трансформаций и реформ. Она включает пять приоритетных направлений и сто целей, в том числе увеличение доходов на душу населения, развитие инноваций и цифровой экономики, поддержку предпринимательства и рост экспорта высокотехнологичных услуг [3].

В таких условиях инновационный менеджмент становится ключевым элементом конкурентоспособности. Он позволяет компаниям адаптироваться к меняющемуся внешнему окружению, выходить на зарубежные рынки и

эффективно использовать ресурсы в условиях глобальной конкуренции. В следующих разделах работы будут проанализированы методы, инструменты и практики инновационного менеджмента в Узбекистане, выявлены основные достижения и барьеры, а также предложены стратегии развития, соответствующие национальной стратегической линии.

ЛИТЕРАТУРНЫЙ ОБЗОР

Проблематика инновационного менеджмента занимает важное место в современной экономической науке. В зарубежной литературе основополагающие идеи связаны с работами Й. Шумпетера, который впервые определил инновации как движущую силу экономического развития и источник конкурентных преимуществ. В дальнейшем исследования П. Друкера, К. Фримена, Б. Твисса и Р. Нельсона расширили теоретическую базу, акцентируя внимание на необходимости системного подхода к управлению инновационными процессами и интеграции науки, бизнеса и государства. Значительный вклад внесли и современные теории национальных и региональных инновационных систем (К. Лундвал, Р. Нельсон), которые раскрывают институциональные и организационные механизмы стимулирования инновационного развития.

В последние десятилетия зарубежные исследователи уделяют особое внимание взаимосвязи инновационного менеджмента и глобальной конкурентоспособности. Работы М. Портера, Х. Чесбро и Д. Тиса подчеркивают роль стратегического управления инновациями, динамических способностей и открытых инноваций в обеспечении лидерских позиций компаний на мировых рынках. Парадигма «Индустрии 4.0» также находит широкое освещение, подчеркивая трансформацию инновационного менеджмента под влиянием цифровизации, автоматизации и интеграции технологий.

В отечественной и региональной литературе вопросы инновационного менеджмента рассматриваются преимущественно в контексте модернизации экономики и повышения конкурентоспособности национальных предприятий. Исследования узбекских ученых (А. Вахобов, Ш. Хакимов, Р. Хамидов и др.) акцентируют внимание на институциональных преобразованиях, создании инновационной инфраструктуры и необходимости формирования благоприятной среды для инновационной активности. Также отмечается роль государственной политики в стимулировании инновационных процессов, развитии научно-исследовательских центров, внедрении механизмов государственно-частного партнерства.

Анализ литературы показывает, что, несмотря на наличие значительного теоретического и практического наследия, сохраняется ряд проблем, связанных с адаптацией зарубежных моделей инновационного менеджмента к национальным условиям Узбекистана. Недостаточно изученными остаются вопросы интеграции цифровых технологий в инновационное управление, формирования устойчивых связей между наукой и бизнесом, а также оценки эффективности национальной инновационной системы в условиях глобальной конкуренции.

МЕТОДОЛОГИЯ

Исследование базируется на анализе нормативно-правовых документов («Стратегия развития Узбекистана – 2030», программа «Цифровой Узбекистан – 2030»), статистических данных Агентства по статистике и Министерства инновационного развития, а также отчетов Всемирного банка, ОЭСР и ВОИС. Методологически применены сравнительный институциональный анализ, статистический метод и кейс-подход (на примере IT Park, свободных экономических зон и технопарков).

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Анализ показывает, что в Узбекистане инновационный менеджмент развивается поступательно и в ряде направлений уже сформированы важные институциональные основы. Прежде всего, за последние годы была создана инновационная инфраструктура, охватывающая более двадцати технопарков различного профиля. Наиболее заметным центром инновационной активности выступает IT Park Uzbekistan, число резидентов которого в 2024 году превысило 1650 компаний [4]. Среди них как стартапы, так и крупные предприятия, работающие в сферах разработки программного обеспечения, оказания ИТ-услуг, аутсорсинга и экспорта цифровых решений. Эта инфраструктура формирует ядро национальной инновационной экосистемы и постепенно интегрируется в глобальные рынки.



Рис 1. Структура резидентов IT Park Uzbekistan, 2024 г.(n=1650)[1]

Не менее важным направлением является расширение механизмов государственной поддержки инновационной деятельности. На законодательном уровне внедрены налоговые льготы для стартапов и компаний, осуществляющих

[1] Разработана автором.

НИОКР, предусмотрены грантовые программы и субсидии на цифровизацию. Кроме того, при поддержке правительства начали создаваться венчурные фонды, ориентированные на финансирование проектов с высоким уровнем риска, что свидетельствует о постепенном формировании культуры венчурного капитала.

Значительные усилия предпринимаются и в области подготовки кадров для инновационного менеджмента. В университетах открываются новые магистерские программы, ориентированные на предпринимательство и инновации; формируются стартап-инкубаторы и акселерационные центры. При этом важное место занимает внедрение международных образовательных стандартов, что позволяет будущим менеджерам осваивать современные методы проектного управления, риск-менеджмента и стратегического планирования.

Вместе с тем выявлен ряд системных проблем, которые существенно сдерживают дальнейшее развитие инновационного менеджмента. Прежде всего, сохраняется крайне низкий уровень частных инвестиций в НИОКР, составляющий менее 0,3% ВВП [5]. Эта цифра существенно отстает от целевых ориентиров и не позволяет формировать устойчивую инновационную базу. В условиях, когда государство берет на себя основную нагрузку, участие бизнеса в финансировании инноваций остаётся ограниченным.

Вторым препятствием является слабая интеграция науки и бизнеса. Несмотря на наличие академических институтов и университетских центров, уровень коммерциализации исследований остаётся низким, а трансфер технологий в реальный сектор происходит крайне медленно [6]. Это приводит к тому, что значительная часть научных разработок не доходит до стадии рыночной реализации.

Серьёзной проблемой выступает дефицит профессиональных кадров [7]. В стране ощущается нехватка специалистов, обладающих комплексными компетенциями в области инновационного менеджмента, стратегического проектирования, риск-менеджмента и управления интеллектуальной собственностью. Подобный кадровый разрыв снижает эффективность уже созданной инновационной инфраструктуры и ограничивает возможности для масштабирования проектов.

Четвёртый барьер связан с ограниченным доступом стартапов и малых инновационных компаний к долгосрочному финансированию. Высокие процентные ставки кредитов, недостаток гарантийных инструментов и неразвитость венчурного капитала ограничивают возможности молодых компаний для устойчивого роста [8]. Это особенно критично для инновационных проектов, требующих значительных вложений и длительных сроков окупаемости.

Наконец, на уровне предприятий сохраняется низкая инновационная культура. Многие компании ограничиваются внедрением отдельных цифровых решений и не рассматривают инновации как долгосрочную стратегическую необходимость [9]. Современные методы управления — такие как Agile, Lean, Design Thinking — пока применяются точечно и в основном в ИТ-секторе, тогда

как традиционные отрасли остаются ориентированными на консервативные управленческие модели.

ВЫВОДЫ И ПРЕДЛОЖЕНИЯ

Выявленные тенденции и проблемы подтверждают, что инновационный менеджмент в Узбекистане находится на стадии институционального становления. С одной стороны, в стране создана инфраструктура поддержки инноваций — технопарки, IT Park, акселерационные центры, внедрены налоговые льготы и грантовые механизмы. С другой стороны, системные барьеры — низкий уровень частных инвестиций, слабая интеграция науки и бизнеса, кадровый дефицит и ограниченный доступ к финансированию — не позволяют в полной мере реализовать потенциал инновационного развития.

Сравнение с международной практикой демонстрирует, что успешные страны-лидеры инновационного развития (Южная Корея, Сингапур, Израиль) добились успеха благодаря трём ключевым факторам: активной роли государства в формировании долгосрочной стратегии, высокой вовлеченности частного сектора и наличию развитой системы венчурного капитала [10]. Для Узбекистана это означает необходимость сохранения активной регулирующей и стимулирующей роли государства, но при этом постепенного увеличения доли частных инвестиций в инновации и формирования полноценного рынка венчурного финансирования.

Особое внимание следует уделить вопросу интеграции науки и бизнеса. Научно-исследовательские институты и университеты должны быть вовлечены в практические проекты совместно с частным сектором, что позволит ускорить процесс коммерциализации разработок. Создание университетских инкубаторов, совместных исследовательских лабораторий и индустриально-академических консорциумов станет основой для формирования инновационных цепочек «наука – бизнес – рынок».

Немаловажным аспектом является развитие кадрового потенциала. Ключевая проблема заключается не только в недостатке специалистов по инновационному менеджменту, но и в слабой подготовке управленцев среднего звена, способных внедрять инновации на практике. В этой связи целесообразно развивать международные образовательные программы, создавать сертификационные курсы по инновационному менеджменту и стимулировать обмен опытом с зарубежными экспертами.

Отдельное значение приобретает формирование инновационной культуры на уровне предприятий. Для этого необходима популяризация гибких управленческих методик (Agile, Lean, Design Thinking), развитие корпоративных программ инноваций и стимулирование внутрифирменных стартапов. Внедрение цифровых инструментов управления проектами и использование международных стандартов (например, PMBOK 7) позволит повысить эффективность реализации инновационных проектов даже в условиях ограниченных ресурсов.

Инновационный менеджмент становится важным направлением социально-экономического развития Узбекистана, формируя основу для повышения конкурентоспособности страны в условиях глобальной экономики. В последние годы созданы технопарки и ИТ-кластер, внедрены налоговые льготы и грантовые программы, развиваются венчурные фонды и образовательные инициативы. Эти шаги заложили фундамент инновационной экосистемы.

Однако сохраняются системные проблемы: низкий уровень частных инвестиций в НИОКР, слабая интеграция науки и бизнеса, ограниченный доступ к финансированию стартапов, кадровый дефицит и недостаточная инновационная культура предприятий.

Для преодоления этих барьеров необходимы меры по увеличению частных инвестиций в НИОКР, развитию венчурного финансирования и государственно-частного партнёрства, активному вовлечению университетов в коммерциализацию исследований, подготовке специалистов по международным стандартам инновационного менеджмента и формированию инновационной культуры в организациях.

Таким образом, инновационный менеджмент в Узбекистане находится на этапе становления, но при комплексной реализации указанных мер способен превратиться в системный инструмент экономического роста и устойчивой интеграции страны в мировое инновационное пространство.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Агентство по статистике при Президенте Республики Узбекистан. Основные показатели субъектов малого бизнеса, январь–сентябрь 2024 г. (пресс-релиз). Ташкент, 2024.

2. Агентство по статистике при Президенте Республики Узбекистан. Информация о субъектах малого бизнеса, январь–июнь 2025 г. (пресс-релиз). Ташкент, 2025.

3. Указ Президента Республики Узбекистан от 11.09.2023 № УП-158 «О Стратегии Узбекистан — 2030». Национальная база данных законодательства.

4. Указ Президента Республики Узбекистан от 05.10.2020 № УП-6079 «Об утверждении Стратегии “Цифровой Узбекистан — 2030” и мерах по её эффективной реализации». Национальная база данных законодательства.

5. IT Park Uzbekistan. Results of 2023: transformation and plans for 2024 (новостное сообщение от 02.02.2024). Ташкент, 2024.

6. WIPO. Global Innovation Index 2023: 16th edition (Main report). Geneva: World Intellectual Property Organization, 2023.

7. WIPO. Global Innovation Index 2023: Executive Summary. Geneva: WIPO, 2023.

8. World Bank. Uzbekistan – Country Overview (обновлённая страновая справка). Washington, DC: World Bank, 2024–2025.

9. World Bank Data. Research and development expenditure (% of GDP), indicator GB.XPD.RSDV.GD.ZS (Uzbekistan, latest). Washington, DC: World Bank/UNESCO UIS. (Для 2023 г.: ≈ 0,13 % ВВП).

10. OECD. Digital Skills for Private Sector Competitiveness in Uzbekistan. Paris: OECD Publishing, 2023.

11. OECD. Public Governance Reviews: Uzbekistan. Paris: OECD Publishing, 2024.

12. Указ Президента Республики Узбекистан от 21.12.2022 № УП-269 «О мерах по реализации административных реформ Нового Узбекистана» (о реорганизации органов управления наукой и инновациями). Национальная база данных законодательства

TIJORAT BANKLARI IQTISODIY SAMARADORLIGINI RAQAMLI XIZMAT TURLARI ORQALI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLARI

Foziljonova Mushtariybonu Farruxbek qizi
Toshkent amaliy fanlar universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada O‘zbekiston tijorat banklari faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanishning amaldagi holati tahlil qilinib, iqtisodiy samaradorlikka to‘sqinlik qilayotgan muammolar ko‘rsatib berilgan. Shu bilan birga, ushbu muammolarni bartaraf etish hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali bank xizmatlari samaradorligini va iqtisodiy natijadorligini oshirishga qaratilgan amaliy taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: tijorat bank, iqtisodiy samaradorlik, raqamli texnologiyalar, daromadlilik ko‘rsatkichi, xorijiy tajriba.

Аннотация

В статье анализируется современное состояние использования цифровых технологий в деятельности коммерческих банков Узбекистана и выявляются проблемы, препятствующие повышению экономической эффективности. Вместе с тем, были выдвинуты практические предложения и рекомендации по устранению указанных проблем и повышению оперативности и экономической эффективности банковских услуг за счет внедрения цифровых технологий.

Ключевые слова: коммерческий банкинг, экономическая эффективность, цифровые технологии, индекс рентабельности, зарубежный опыт.

Abstract

The article analyzes the current state of use of digital technologies in the activities of commercial banks in Uzbekistan and identifies problems that hinder economic efficiency. At the same time, practical proposals and recommendations were put forward to eliminate these problems and increase the efficiency and economic effectiveness of banking services through the introduction of digital technologies.

Keywords: commercial banking, economic efficiency, digital technologies, profitability index, foreign experience.

KIRISH

Hozirgi global raqamli iqtisodiyot taraqqiyoti sharoitida bank xizmatlari samaradorligini oshirish masalasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali bank operatsiyalarini avtomatlashtirish, xizmat ko‘rsatish jarayonlarini tezkor va shaffof qilish iqtisodiy samaradorlikni ta’minlovchi asosiy omillardan biriga aylanmoqda. Shu bois, jahon amaliyotida bank xizmat turlarini rivojlantirishda integrallashgan axborot tizimlarini joriy etish, ma’lumotlar xavfsizligini kuchaytirish, raqamli iqtisodiyot texnologiyalarini tatbiq etish hamda turli axborot tizimlari o‘rtasida o‘zaro integratsiyani samarali yo‘lga qo‘yish kabi yo‘nalishlar ustuvor tendensiya sifatida namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekistonda ham tijorat banklari uchun raqamli xizmatlarni kengaytirish va ularni iqtisodiy jihatdan samarali boshqarish masalasi kun tartibiga chiqmoqda. Bank xizmatlarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida diversifikatsiya qilish, ya’ni yangi xizmat turlarini ishlab chiqish va mijozlarga yetkazish banklarning bozordagi raqobatbardoshligini ta’minlaydi. Jumladan, banklar tomonidan kichik va yirik moliyaviy texnologiya kompaniyalari bilan hamkorlikda “sun’iy intellekt” hamda boshqa raqamli yechimlardan foydalanish orqali xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishga intilish iqtisodiy samaradorlikka to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatmoqda.

Chunki, raqamli moliyaviy texnologiyalarni joriy etish bir tomondan an’anaviy bank tizimiga yangi raqobatchilarning kirib kelishi orqali tahdid tug‘dirsa-da, ikkinchi tomondan, bank xizmatlari bozorida yangi iqtisodiy imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Bu esa tijorat banklari uchun xizmatlarni arzonlashtirish, ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish va mijozlar bazasini kengaytirish orqali daromad manbalarini diversifikatsiya qilish imkoniyatini beradi.

Shunday qilib, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi tijorat banklarining xizmat ko‘rsatish tizimini iqtisodiy jihatdan samarali tashkil etishni, raqobat muhitida barqaror daromad olish va milliy moliya bozorida faol ishtirok etish uchun raqamli texnologiyalarni chuqur integratsiya qilishni taqozo etmoqda.

Mamlakatda oxirgi yillarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish, tijorat banklari xizmat turlarining yangi mexanizmlarini joriy etish yuzasidan katta ishlar olib borilmoqda. Xususan, Prezidentning «Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi (Farmon, 2018), «O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi (Qaror, 2018), “2020-yil – Ilm-ma’rifat va raqamli iqtisodiyot yili” deb e’lon qilinganligi hamda 2030-yilga qadar «Raqamli O‘zbekiston» konsepsiyasini ishlab chiqish belgilanganligi (Mirziyoyev, 2019) bu borada bank tizimi oldiga qator vazifalarni bajarishni keltirib chiqaradi.

Yuqoridagi konseptual g‘oyalardan kelib chiqqan holda, mazkur maqola mavzusining dolzarb ekanligini asoslash mumkin.

ADABIYOTLAR SHARHI

Dunyoda axborot texnologiyalarining rivojlanishi jarayonida, raqamli iqtisodiyot atamasi yuzaga keldi va ushbu atama birinchi marta «Elektron raqamli jamiyat: tarmoq asrining afzalliklari va kamchiliklari» kitobida 1995-yilda ishlatilgan. Don Tapskot (2016) fikricha, bozor subyektlari faoliyatini raqamli transformatsiyalashning asosiy omili raqamli madaniyatni rivojlantirish hisoblanishi ta’kidlangan.

Amerikalik dasturchi Nikolas Negroponte (1995) tomonidan “raqamli iqtisodiyot” terminini amaliyotga kiritildi. Hozirda bu istilohni butun dunyodagi siyosatchilar, iqtisodchilar, jurnalistlar, tadbirkorlar – deyarli barcha qo‘llamoqda. Butun jahon banki 2016-yilda dunyodagi raqamli iqtisodiyotning ahvoli haqida ilk ma’ruzasini e’lon qilindi.

«Raqamli iqtisodiyot» atamasi ilmiy amaliyotga ispaniyalik va amerikalik sotsiolog, axborotlashgan jamiyatning yetakchi tadqiqotchisi Manuyel Kastels (1999)

tomonidan kiritilgan. Bu borada u o‘zining «Axborot davri: iqtisod, jamiyat va madaniyat» nomli uch jildli monografiyasi chop etilgan. Uning fikricha raqamli iqtisodiyot atamasi ikki xil turdagi tushunchalarni ifodalanadi:

- birinchidan, raqamli iqtisodiyot – bu rivojlanishning zamonaviy bosqichi hisoblanib, u ijodiy mehnat va axborot ne’matlarining ustuvor o‘rni bilan tavsiflanadi.

- ikkinchidan, raqamli iqtisodiyot – bu o‘ziga xos nazariya bo‘lib, uning o‘rganish obyekti, axborotlashgan jamiyat hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyot nazariyasi o‘z rivojlanishining boshlang‘ich davridadir, chunki sivilizatsiyaning raqamli axborot bosqichiga o‘tishi bir necha o‘n yil avvallari boshlangan.

Ushbu tushunchalarni bog‘lab turadigan omil – bu iqtisodiy jarayonlarning globallashuvida axborot texnologiyalarining birlamchi o‘rinni egallashi bo‘lib hisoblanadi.

Fikrimizcha, raqamli iqtisodiyot, bu — alohida faoliyat turi emas. Bu, aslida, ishbilarmonlik, sanoat obyektlari, xizmatlar deganidir. «Raqamli» atamasi mazkur sohalarning barchasi axborot texnologiyalaridan faol foydalanishni anglatadi. Agar oddiy iqtisodiyotda moddiy buyumlar asosiy resurs hisoblansa, raqamli iqtisodiyotda bu qayta ishlanadigan hamda uzatiladigan axborot, ma’lumotlar bo‘ladi. Ularning tahlilidan so‘ng to‘g‘ri boshqarish bo‘yicha yechim ishlab chiqiladi.

METODOLOGIYA

Mazkur mavzuni ilmiy tadqiq etish jarayonida tahlil va taqqoslash usuli asos qilib olindi. Xususan, iqtisodiy jarayonlarning samaradorligini o‘rganishda mantiqiy tahlil qilish, turli ma’lumotlarni guruhlash va ularni o‘zaro taqqoslash orqali statistik qayta ishlash usullari qo‘llanildi. Shuningdek, tadqiqot doirasida iqtisodiy ko‘rsatkichlarni aniq baholash maqsadida miqdoriy va sifatiy ko‘rsatkichlarni hisoblash, ularning dinamikasi va samaradorlikka ta’sirini tahlil qilish yo‘li bilan iqtisodiy natijalarga ilmiy asoslangan xulosalar chiqarildi.

Bunday usullarning qo‘llanilishi nafaqat mavjud ma’lumotlarni tizimlashtirishga, balki iqtisodiy jarayonlarning tijorat banklari faoliyatida qay darajada samara berishi mumkinligini baholashga ham xizmat qildi. Shu orqali raqamli texnologiyalarning joriy qilinishi iqtisodiy samaradorlikka qanday ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi hamda tegishli takliflar ilgari surildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli texnologiyalar global iqtisodiyotning tuzilmasi va ishlash mexanizmlarini tubdan o‘zgartirib, an’anaviy biznes modellarini qayta shakllantirmoqda. Bu jarayon bozorlarda raqobatni kuchaytiradi, xo‘jalik yurituvchi subyektlar samaradorligini oshiradi va milliy iqtisodiyotlar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochadi. Bunda raqamli islohotlar nafaqat yangi bozor segmentlarini yuzaga keltiradi, balki mavjud iqtisodiy resurslardan unumli foydalanish orqali yuqori iqtisodiy samaradorlikni ta’minlaydi.

McKinsey Global Institute (2024) ma’lumotlariga ko‘ra, so‘nggi 20 yillik o‘sishdan keyin jahon yalpi ichki mahsulotida an’anaviy tovar va xizmatlar savdosining ulushi 2017 yildagi 53 foizdan 2014-yilda 39 foizgacha pasaygan. Shu

bilan birga, 2005–2014-yillarda transchegaraviy ma’lumotlar almashinuvi hajmi 45 barobarga oshgani raqamli iqtisodiyotning ulkan iqtisodiy imkoniyatlar yaratayotganidan dalolat beradi. Masalan, 2020 yildan boshlab jahon tovar savdosining qariyb 12 foizi elektron tijorat orqali amalga oshirilgan. Bu raqam raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy samaradorlikka ta’sirini yaqqol ko‘rsatib turibdi.

“The Boston Consulting Group” (2024) tahlillariga ko‘ra, Xitoyda elektron tijorat ulkan sur’atlar bilan rivojlanmoqda. Xususan, mamlakatning elektron tijorat aylanmasi 18 milliard dollarga yetgan bo‘lib, iste’molchilar internet orqali taxminan 750 milliard dollarlik xarid amalga oshirgan. Bu ko‘rsatkich AQSH va Buyuk Britaniyaning qo‘shma natijalaridan ham yuqori. 2023 yil oxiriga kelib, Xitoyning xalqaro elektron tijoratdagi ulushi 39,2 foizni tashkil etgan. Mamlakatda 2018–2024 yillarga mo‘ljallangan dastur doirasida elektron tijorat hajmini 5 yil ichida 5,8 trln dollarga yetkazish rejalashtirilgan.

McKinsey & Company (2024) prognozlariga ko‘ra, raqamli texnologiyalar 2025-yilga kelib Xitoy yalpi ichki mahsulotini 22 foizgacha, Rossiya iqtisodiyotini esa 34 foizgacha o‘sishiga xizmat qilishi mumkin. AQSHda esa raqamli texnologiyalardan kutilayotgan iqtisodiy samaradorlik 1,6–2,2 trillion AQSH dollarga yetishi prognoz qilingan.

1-jadval.

2024 yil uchun I-DESI subindekslari[1]

Mamlakatlar	Raqamli (I-DESI) indeksi	Bog‘lanish darajasi	Inson kapitali	Internetdan foydalanish	Raqamli texnologiyalar integratsiyasi	Raqamli davlat xizmatlari
Janubiy Koreya	75,2	79,8	75,6	74,5	63,8	83,0
Norvegiya	73,0	75,8	69,1	85,2	65,8	72,5
Islandiya	72,7	72,4	80,2	75,9	75,7	53,7
Yaponiya	68,5	72,5	69,7	73,9	53,0	75,0
Avstraliya	67,8	56,8	80,5	57,8	57,3	88,9
Kanada	67,0	59,6	67,3	66,2	65,4	81,5
AQSH	66,7	71,3	56,2	71,0	61,8	79,0
Yangi Zelandiya	65,8	55,4	79,3	58,2	55,6	81,6
YEIning 28 davlati	58,9	62,9	58,0	59,7	51,3	63,1
Isroil	55,6	54,3	57,4	58,5	45,2	65,4
Rossiya	47,5	38,9	64,1	48,7	29,8	56,8
Xitoy	45,3	47,8	40,5	45,3	40,7	58,6
Chili	44,9	47,8	42,6	32,9	40,5	61,4
Turkiya	41,5	43,3	53,1	35,9	27,7	43,2
Braziliya	39,7	39,5	39,2	33,8	27,8	62,4

[1] Manba: EuropeanCommission. I-DESI 2019 – ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

Mamlakatlar	Raqamli (I-DESI) indeksi	Bog‘lanish darajasi	Inson kapitali	Internetdan foydalanish	Raqamli texnologiyalar integratsiyasi	Raqamli davlat xizmatlari
Meksika	43,1	45,5	41,6	30,0	33,7	67,2

1-jadvalda keltirilgan ma’lumotlarga asoslanganda, raqamli iqtisodiyotni joriy etish va undan samarali foydalanish bo‘yicha Janubiy Koreya, Norvegiya va Islandiya yetakchi o‘rinlarni egallab turibdi. Rossiya esa raqamli transformatsiyada ilgarilayotgan Janubiy Koreyadan 27,7 punkt orqada qolsa-da, Xitoy, Chili, Turkiya, Braziliya va Meksika kabi davlatlarga nisbatan yuqori ko‘rsatkichlarga ega.

Bu holat Rossiyada raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy samaradorlikni ta’minlashda katta salohiyatga egaligini anglatadi. Ya’ni, raqamli texnologiyalarni joriy etish natijasida resurslardan samarali foydalanish, iqtisodiy jarayonlarni tezkorlashtirish va bozor raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatlari ortib bormoqda. Shu bilan birga, Rossiyaning yuqori salohiyati raqamli islohotlar orqali ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish, yangi xizmat turlarini joriy qilish va eksport imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilishi mumkin.

Umuman, Rossiya bugungi kunda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish jarayonida iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan yuqori imkoniyatlarga ega davlat sifatida e’tirof etilmoqda. Agar mavjud tendensiyalar izchil davom etsa, raqamli texnologiyalar Rossiya iqtisodiyotining barqaror o‘sishi va xalqaro bozorda raqobatdoshligini kuchaytirishda hal qiluvchi omilga aylanishi mumkin.

Hozirgi kunda jahon iqtisodiyotida raqamli texnologiyalarning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, moliya sohasi texnik innovatsiyalar ta’sirida tubdan transformatsiya qilinmoqda. Bank tizimlari, to‘lov operatsiyalari, kreditlash va shu kabi xizmatlar jarayonlariga raqamli texnologiyalarning tatbiq etilishi ularning tezkorligi, xavfsizligi va samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda. Bu yo‘nalishda “Fintex” (ing. *Financial Technology*) nomi bilan mashhur bo‘lgan moliyaviy texnologiyalar alohida o‘rin egallaydi. Ular moliyaviy xizmatlarni modernizatsiya qilish, resurslardan oqilona foydalanish va iqtisodiy samaradorlikni oshirishda muhim drayver hisoblanadi.

“Accenture” konsalting kompaniyasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2017-yilda dunyo miqyosida fintex-startaplar uchun 27,4 milliard dollar sarflangan bo‘lib, bu 2016-yilga nisbatan 18 foiz ko‘pdir. Bu raqam moliyaviy texnologiyalarga bo‘lgan qiziqish va investitsiyalar salohiyatining ortib borayotganini ko‘rsatadi. Shuningdek, *The Forbes FinTech 50* ro‘yxatidan ma’lum bo‘lishicha, AQSHdagi moliyaviy texnologiyalar mahalliy bank sektori uchun jiddiy raqobatchi sifatida maydonga chiqmoqda, chunki mamlakatning bank bozori kapitalizatsiyasi 8,5 trillion dollarni tashkil qiladi.

Fintex ishlanmalari iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan ham katta ahamiyatga ega. Chunki ular orqali moliyaviy operatsiyalarning xarajatlari qisqaradi, xizmatlar tezligi va sifatini oshirish mumkin bo‘ladi, investitsiya jarayonlari esa tahlil va prognoz qilish vositalari orqali yanada samarali yo‘lga qo‘yiladi. Shu bilan birga, fintex

kompaniyalari bozordagi raqobat muhitini kuchaytirib, an'anaviy moliyaviy institutlarni o'z xizmatlarini takomillashtirishga majbur etmoqda.

Natijada, moliyaviy texnologiyalar nafaqat jismoniy va yuridik shaxslar uchun moliyaviy xizmatlarni yengillashtiradi, balki butun moliyaviy bozorning iqtisodiy samaradorligini oshirish, resurslardan foydalanish darajasini yaxshilash va global investitsiya muhitini jozibador qilishda hal qiluvchi omilga aylanmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda ham raqamli iqtisodiyotni jadal rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Prezidentning Oliy Majlisga 2020-yildagi Murojaatnomasida ta'kidlanganidek, taraqqiyotning eng qisqa yo'li raqamli bilim va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashdan o'tadi. Chunki axborot texnologiyalari nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshirishga, balki ortiqcha xarajatlarni qisqartirishga ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, ular korrupsiyani yo'qotishda samarali vosita sifatida ham ahamiyatlidir.

Shuningdek, murojaatnomada mamlakat bank tizimining raqamli texnologiyalardan foydalanishda 10–15 yil orqada qolayotgani qayd etilgan va 2020-yildan boshlab har bir bankda keng ko'lamli transformatsiya dasturlari amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan. Bu islohotlar tijorat banklarining kapital va resurs bazasini mustahkamlash, daromadlarini oshirish hamda iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Banklar faoliyatida raqamli iqtisodiyotning samaradorligi bir qator jihatlarda namoyon bo'ladi. Masalan, raqamli to'lov xizmatlari orqali aholi vaqt va transport xarajatlaridan tejaydi, tovar va xizmatlar haqida tezkor va keng qamrovli ma'lumot olish imkoniyati paydo bo'ladi. Shuningdek, raqamli dunyo orqali mahalliy mahsulot va xizmatlarni jahon bozoriga olib chiqish imkoniyatlari kengayadi, mijozlardan olinadigan fikr-mulohazalar (feedback) orqali esa tovar va xizmatlarning sifatini yanada takomillashtirish mumkin bo'ladi.

Ma'lumki, raqamli iqtisodiyot sharoitida bank xizmatlarining rivojlanishi, avvalo, internet tarmog'idan foydalanuvchilar sonining ortishi bilan uzviy bog'liq. Bu omil bank xizmatlarini aholiga yanada kengroq yetkazish, raqobatbardosh va samarali biznes modellarni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi bank islohotlarining asosiy maqsadi — tijorat banklarini mijoz manfaatlariga xizmat qiladigan mexanizm sifatida shakllantirishdan iborat. Bu jarayonda aholining bank tizimiga ishonchini mustahkamlash va banklar faoliyatiga tashqi aralashuvni cheklash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ishonchning oshishi esa tijorat banklarining iqtisodiy samaradorligini ta'minlaydigan asosiy omildir, chunki ishonchli moliyaviy muhit orqali mablag'larni jalb qilish imkoniyatlari kengayadi, kredit va investitsiya faoliyati izchil rivojlanadi.

Shu maqsadda banklarda raqamli va axborot texnologiyalarini keng joriy etish orqali dasturiy ta'minotni tubdan modernizatsiya qilish, zamonaviy bank amaliyotini o'rgatish va kadrlar salohiyatini oshirish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda xorijiy tajribaga ega malakali mutaxassislarni rahbarlik lavozimlariga jalb etish orqali zamonaviy menejment va moliyaviy xizmatlarni joriy qilish bank tizimining samaradorligini yanada kuchaytiradi.

Shu bilan birga, kreditlash amaliyotida “kredit tarixi” axborot tizimini to‘liq ishga tushirish orqali qarz oluvchilarning moliyaviy intizomini nazorat qilish, xavflarni kamaytirish va resurslardan oqilona foydalanish imkoni paydo bo‘ladi. Bu esa, o‘z navbatida, bank aktivlarining sifatini yaxshilash, kredit portfelini diversifikatsiya qilish va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, bank tizimidagi islohotlarning izchil davom ettirilishi raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish, kadrlar malakasini oshirish va ilg‘or xorijiy tajribani joriy etish orqali tijorat banklarining iqtisodiy samaradorligini kuchaytiradi hamda ularning raqobatbardoshligini ta’minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekiston tijorat banklarining jahon bank tizimi bilan integratsiyalashuvi va globallashuv jarayonlarida faol ishtirok etishi milliy iqtisodiyotning ochiqligi va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bunday hamkorlik, bir tomondan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilishni taqozo etsa, ikkinchi tomondan, bank tizimining biznes modellari va boshqaruv usullarida transformatsiya jarayonlarini keltirib chiqarmoqda. Shu bois, ushbu o‘zgarishlarni iqtisodiy va siyosiy nuqtai nazardan tahlil qilish, ularning samaradorligini baholash hamda ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish davr talabidir.

Raqamli iqtisodiyotning muhim jihatlaridan biri — shaffoflikni ta’minlashi va korrupsiya hamda “qora iqtisodiyot”ning ta’sirini keskin kamaytirishidir. Chunki raqamli texnologiyalar orqali barcha ma’lumotlar avtomatik ravishda qayd etiladi, xotirada saqlanadi va zarur paytda tezkor ravishda taqdim etiladi. Bu esa ma’lumotlarni yashirish yoki qing‘ir bitimlar tuzish imkoniyatlarini keskin cheklaydi.

Shuningdek, raqamli tizimda ma’lumotlar ko‘pligi va ularning tizimliligi iqtisodiy jarayonlarni nazorat qilish imkoniyatini kuchaytiradi. Bunday shart-sharoitda “iflos pullarni” yuvish, mablag‘larni maqsadsiz sarflash yoki hisobotlarda soxtalashtirish holatlariga yo‘l qolmaydi. Bu esa tijorat banklari faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirish, resurslarni oqilona taqsimlash va moliyaviy intizomni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega.

Natijada raqamli iqtisodiyot bank tizimida faqatgina innovatsion rivojlanish uchun emas, balki moliyaviy barqarorlik va samaradorlikni ta’minlaydigan kafolatli mexanizm sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Bizning fikrimizcha, tijorat banklari innovatsion va axborot texnologiyalari asosida faoliyat yurituvchi xo‘jalik subyektlarini rivojlantirishda qator muhim chora-tadbirlarni amalga oshirishga alohida e’tibor qaratishi lozim.

Birinchidan, O‘zbekiston bank amaliyotida innovatsion onlayn kreditlash xizmatlarini yo‘lga qo‘yish zarur. Chunki rivojlangan davlatlarda onlayn kreditlash amaliyoti iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim vositasi sifatida keng qo‘llanilmoqda. Bu jarayonda internet tezligi va sifatini yaxshilash, tadbirkorlik subyektlarining raqamli bilim va ko‘nikmalarini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki onlayn kreditlash tadbirkorlar uchun vaqt va resurs tejaydi, ularning moliyaviy imkoniyatlardan tezkor foydalanish imkoniyatini yaratadi. Natijada ishlab chiqarish jarayoni ortiqcha to‘siqlarsiz davom etadi, iqtisodiy samaradorlik ortadi.

Ikkinchidan, tijorat banklari kredit amaliyotida sun'iy ravishda "kredit boqimandalik" holatlari paydo bo'lishining oldini olishi zarur. Buning uchun innovatsion va axborot texnologiyalari asosida ishlaydigan tadbirkorlik subyektlariga "kredit ta'tili" tizimini joriy etish maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv biznes subyektlariga o'z faoliyatlarini barqarorlashtirish, moliyaviy qiyinchiliklarni yengib o'tish va investitsiya jarayonlarini samarali tashkil qilish imkonini beradi.

Umuman, mazkur chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi tijorat banklari faoliyatida innovatsiyalarning rolini kuchaytiradi, tadbirkorlik subyektlari uchun qulay moliyaviy muhit yaratadi hamda milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishiga xizmat qiladi.

Bizning fikrimizcha, tijorat banklari tomonidan innovatsion va axborot texnologiyalari asosida faoliyat yurituvchi xo'jalik subyektlariga ajratiladigan kreditlar shartlarini ularning ishlab chiqarish jarayoni va mahsulot aylanish davrlariga mos ravishda belgilash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Xususan, asosiy qarz va foizlarni qaytarish muddatlarini ishlab chiqarish sikliga uyg'unlashtirish orqali tadbirkorlik subyektlari o'z moliyaviy majburiyatlarini samarali bajarish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Bunday yondashuvning iqtisodiy samaradorligi shundaki, tadbirkorlar moliyaviy bosimdan holi bo'lib, o'z faoliyatini barqaror rivojlantirishga yo'naltira oladi. Natijada ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va bozorda raqobatbardosh mahsulot taklif qilish imkoniyatlari kengayadi. Shu bilan birga, kredit resurslarining oqilona taqsimlanishi banklar uchun ham xavfsizlik darajasini oshiradi, qarzlarni o'z vaqtida qaytarilishini ta'minlaydi va kredit portfeli sifatini yaxshilaydi.

Shu tariqa, kredit qaytarish muddatlarini ishlab chiqarish davriga uyg'unlashtirish iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan ikki tomonlama foyda keltiradi: tadbirkorlik subyektlarining barqaror rivojlanishi ta'minlanadi, bank tizimi esa o'z faoliyatida xavfsiz va daromadli moliyaviy munosabatlarni shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevral PF-5349-son "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni https://lex.uz/docs/-3564970

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, 2018-yil 03-iyul PQ-3832-son "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori https://lex.uz/docs/-3806053?ONDATE=24.07.2021

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-mart PQ-3620-sonli "Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori; https://lex.uz/docs/-3593541

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 2018-yil 19-sentyabr PQ-3945-son "Milliy to'lov tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori https://lex.uz/ru/docs/-3910819

5. Alex Tapscott, Don Tapscott. Blockchain Revolution: How the Technology Behind Bitcoin is Changing Money, Business, and the World, 2016, 324 pages.

6. Aripov A.N. Axborot kommunikatsiyalar sohasida boshqaruv tizimini

7. Kobulov V.K. Algoritmizatsiyavsotsialno-ekonomicheskixsistemax. - Tashkent: Fan, 1998.- 320 s.

8. Tapskott Don. “Elektronno-sifrovoye obщestvo: Plyusы i minusы epoxы intellekta. -Kiyev: ITN Press, 1999.

9. Musaliyev A.A., Alimov Q. Menedjment informatsionnыx sistem. -T.: Fan, 2007.- 342 s.

10. Musaliyev A.A., Begalov B.A. Menedjment informatsionnыx sistem. Monografiya. – T.: Fan, 2007.- 342 s.

11. Gulyamov S.S., va boshq. “Raqamli iqtisodiyotda blokchayey texnologiyalari”.O‘quv qo‘llanma 21-22 betlar.TMI 2019 yil -447 bet;

12. G‘ulomov S.S., Begalov B.A. Iqtisodiy informatika. Darslik. – T.: O‘zbekiston, 2010. – 722 b.

KORXONALAR PUL OQIMLARI BOSHQARUVIDA PROGNOZ USULLARIDAN FOYDALANISH

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo‘ja o‘g‘li
Toshkent xalqaro universiteti
Biznes va innovatsion ta’lim fakulteti
dekani, i.f.b.f.d., dotsent
E-mail: ifoziljonov@tsue.uz

Annotatsiya

Ushbu maqolada korxonalar pul oqimlarini boshqarishda prognoz usullaridan foydalanish va uning korxona moliyaviy barqarorligini ta’minlashdagi ahamiyati xususida so‘z borgan. Xususan, pul oqimlarini prognozlash korxonalarda likvidlik tanqisligini oldini olishga, debitor va kreditorlar bilan munosabatlarni muvofiqlashtirishga, muomala mablag‘larini samarali boshqarishga yordam beradi. Shu bilan birga, prognozlash usullarining muntazam qo‘llanilishi korxonada moliyaviy intizomni oshiradi hamda korxona faoliyatida ichki nazorat kuchayadi, samaradorlik ortib boradi, va moliyaviy tizimda barqarorlik shakllanadi.

Kalit so‘zlar: Pul oqimlari prognozlash, optimistik, real va pessimistik ssenariylar, moliyaviy barqarorlik va likvidlik, strategik boshqaruv, investitsiya strategiyalari.

Аннотация

В данной статье рассматривается использование методов прогнозирования в управлении денежными потоками предприятий и их значимость для обеспечения финансовой устойчивости компании. В частности, прогнозирование денежных потоков способствует предотвращению дефицита ликвидности на предприятии, координации взаимоотношений с дебиторами и кредиторами, а также эффективному управлению оборотными средствами. Кроме того, регулярное применение методов прогнозирования повышает финансовую дисциплину на предприятии, усиливает внутренний контроль в его деятельности, способствует росту эффективности и формированию устойчивости финансовой системы.

Ключевые слова: Прогнозирование денежных потоков, оптимистичные, реалистичные и пессимистичные сценарии, финансовая устойчивость и ликвидность, стратегическое управление, инвестиционные стратегии.

Abstract

This article discusses the use of forecasting methods in the management of corporate cash flows and their significance in ensuring the financial stability of an enterprise. In particular, cash flow forecasting helps prevent liquidity shortages, facilitates the coordination of relationships with debtors and creditors, and supports the effective management of working capital. Furthermore, the regular application of forecasting techniques enhances financial discipline within the enterprise, strengthens internal control mechanisms, improves operational efficiency, and contributes to the overall stability of the financial system.

Keywords: Cash flow forecasting, optimistic, realistic, and pessimistic scenarios, financial stability and liquidity, strategic management, and investment strategies are essential components of effective corporate financial planning and decision-making.

KIRISH

Korxona moliyaviy barqarorligini ta’minlashda pul oqimlarini oldindan aniq prognoz qilish muhim ahamiyatga ega. Pul oqimlarini prognozlash orqali korxona o‘zining kundalik, haftalik yoki oylik to‘lov majburiyatlarini bajarishga yetarli naqd mablag‘larga ega ekanini oldindan bilib oladi. Bu likvidlik muvozanatini saqlashga, ya’ni aktivlarni tez pulga aylantirish imkoniyatini ta’minlashga xizmat qiladi. Agar kelgusi davrda pul oqimida tanqislik kutilsa, prognoz natijalari asosida bu holatni oldini olish uchun tadbirlar ko‘riladi: qisqa muddatli kreditlar jalb etish, to‘lovlarni kechiktirish yoki xarajatlarni qisqartirish kabi choralar ko‘riladi. Prognozlash orqali korxona o‘zining barcha qarz majburiyatlari – kreditorlar, banklar, davlat organlari va ta’minlovchilar oldidagi to‘lovlarni o‘z vaqtida bajarishi yoki bajara olmasligi yuzasidan oldindan ma’lumotga ega bo‘ladi. Bu esa to‘lov qobiliyatini rejali ravishda boshqarish imkonini beradi. Shu yo‘l bilan korxona o‘z ishonch reytingini saqlab qoladi, qarz olish sharoitlarini yaxshilaydi va ta’minotchilar bilan barqaror munosabatni saqlaydi.

Bugungi kunda korxonalar pul oqimlarini prognoz qilishda zamonaviy usullardan keng foydalanmoqda. Biznes yuritishda pul oqimlari ko‘rsatkichlarini hisoblash va ularni prognoz qilish eng asosiy elementlardan biri hisoblanadi. Pul oqimlari prognozini amalga oshirishda korxonada bir nechta ko‘rsatkichlarni inobatga olish lozim. Xususan, korxonaning erkin pul oqimlari hamda chegirmaviy pul oqimlarini hisobga olgan holda prognozni amalga oshirish lozim.

Umuman olganda, tadqiqotchilar va tahlilchilar korxonadan kutilayotgan pul oqimlarini va kelajakdagi daromad keltiruvchi aktivlarining joriy qiymatini hisoblash orqali pul oqimlari prognozini amalga oshirmoqdalar. Jumladan, amaliyotda korxonalarning investitsion loyihalari pul oqimini hisoblash uchun diskontlangan pul oqimlari usulidan keng foydalaniladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Korxonalar biznes faoliyatining raqobatbardoshligini saqlab qolish uchun har bir ko‘rsatkich bo‘yicha pul oqimlarini prognoz qilish aniq va real bo‘lishi lozim. Shuning uchun korxonalar ko‘pincha ko‘p yillarni o‘z ichiga oladigan biznes-rejalar uchun pul oqimlari prognozlarini amalga oshiradi. Xususan, korxonalarning pul oqimlarining prognozini aniq hisob-kitoblar asosida amalga oshirmasa, korxonalar katta moliyaviy yo‘qotishlarga duch keladi, bu esa biznes imkoniyatlarini yo‘qotishga olib keladi.

Xorijlik iqtisodchi olimlar amalga oshirilgan tadqiqotida aksiyadorlik jamiyatlarining pul oqimlarini prognoz qilishni aniq amalga oshirish, jamiyatning moliyaviy rejalashtirishni amalga oshirish kaliti hisoblandi. Aksiyadorlik jamiyatlarida aksiyadorlar va investorlar uchun pul oqimlarini prognoz qilish va jamiyatning pul oqimlarini muvaffaqiyatli boshqarish muhimdir (Chen Mark T, 2007).

Korxonalar naqd pul oqimini prognozlashning maqsadi oldindan pul oqimlari kirimi va chiqimlarini simulyatsiya qilish va investitsiya qilish orqali jamiyatning naqd pul hamda likvidlik holatini amalga oshirish hisoblanadi. Pul oqimlarini prognoz qilishning maqsadi aksiyadorlik jamiyatining faoliyatini moliyalashtirishga bo‘lgan mablag‘lar mavjudligini aniqlash va jamiyatning naqd pul mablag‘larining maksimal darajada ishlatilishiga hamda qo‘shimcha qarzlar olish zaruriyati yo‘qligiga ishonch hosil qilishdir. Pul oqimlarini muvaffaqiyatli prognoz qilishning afzalligi aksiyadorlik jamiyatlari kapitalining narxini pasaytiradi va ortiqcha pul daromadini oshiradi (Rajendra R, 2013).

Jumladan, pul oqimlarini prognoz qilishda noto‘g‘ri ma’lumotlardan foydalanish pul oqimlari prognoz qilinayotgan davrdagi pul oqimi to‘g‘ri amalga oshirilmaydi. Shuningdek, pul oqimlari prognozi haqiqiy raqamlar bilan taqqoslash va raqamlarni tuzatish, aksiyadorlik jamiyati pul oqimi prognozini yaxshilashga olib keladi (Bragg SM, 2010).

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda, O‘zbekistondagi faoliyat yuritayotgan “Navoiyazot” aksiyadorlik jamiyati tanlanib olinib, operatsion faoliyatdan olingan pul oqimlari tahlili amalga oshirilgan. Shu bilan birgalikda, korxonaning 2025-yil uchun turli prognozlash usullarini (trend, ssenariyli tahlil) qo‘llangan. Maqsad — korxonaning kelgusi yildagi pul oqimlarini baholash, moliyaviy barqarorlik va likvidlikni ta’minlashga yordam beradi.

Empirik ma’lumotlarni tahlil qilish jarayonida statistik usullar, jumladan, korrelyatsion va regression tahlil qo‘llanilib, korxonaning istiqboldagi muammolarini aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy xulosalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Pul oqimlari prognozlari asosida korxona o‘zining investitsiya salohiyatini, ya’ni yangi loyihalarga sarflash mumkin bo‘lgan erkin pullar miqdorini aniqlaydi. Shunday qilib, prognozlash korxona rahbariyatiga strategik investitsiya qarorlarini oqilona qabul qilish imkonini beradi. Shuningdek, prognoz natijalari banklar yoki sarmoyadorlarga taqdim etiladigan biznes-rejalarga asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu esa kredit resurslariga ega bo‘lish imkoniyatini oshiradi. Prognozlash usullari, ayniqsa, ssenariyli tahlil (optimistik, pessimistik va real ssenariylar) orqali korxonani ehtimoliy moliyaviy xatarlardan himoya qiladi. Masalan, tushum kutilganidan kam bo‘lib qolsa yoki xarajatlar keskin ortib ketsa, oldindan tayyorlangan ssenariylar asosida tezkor choralar ko‘rish mumkin. Bunday yondashuv, o‘z navbatida, korxonaning barqaror faoliyat yuritishi va bankrotlik xavfini kamaytirishda muhim ahamiyatga ega. Qo‘yidagi jadvalda korxonalar pul oqimlarini prognozlash turlarini ko‘rib o‘tamiz.

1-jadval

Korxonalar pul oqimlarini prognozlash turlari tahlili[1]

№	Turlari	Tavsifi	Qo‘llanilish muddati	Afzalliklari
1	Qisqa muddatli prognoz	Kunlik, haftalik yoki oylik pul tushumlari va to‘lovlar	1–3 oy	Likvidlikni saqlash, kundalik nazorat
2	O‘rta muddatli prognoz	Oylik asosda tuziladi, byudjet rejalariga bog‘liq	3–12 oy	Naqd mablag‘ taqchilligini oldindan ko‘rish
3	Uzoq muddatli prognoz	Kapital loyihalar va investitsiya rejalashtirish	1–3 yil	Investitsiya strategiyasi uchun muhim
4	Uzoq muddatli prognoz	Kapital loyihalar va investitsiya rejalashtirish	1–3 yil	Investitsiya strategiyasi uchun muhim
5	Ssenariyli prognoz	Turli iqtisodiy holatlarda (“optimistik, real, pessimistik”)	Har qanday	Xavf-xatarni hisobga oladi

Korxonaning naqd pul tushumlari va to‘lovlari muvozanatda bo‘lmasa, hatto rentabel korxona ham to‘lovga qobiliyatsiz holatga tushib qolishi mumkin. Prognozlash korxonalarda likvidlik tanqisligini oldini olishga, debitor va kreditorlar bilan munosabatlarni muvofiqlashtirishga, muomala mablag‘larini samarali boshqarishga yordam beradi. Pul oqimlari prognozlari turli ssenariylarda ishlab chiqilganda (optimistik, real, pessimistik) korxona tavakkal holatlarni oldindan ko‘radi, ehtimoliy pul tanqisligini bartaraf etish uchun rezerv rejalar ishlab chiqadi.

Pul oqimlari prognozlari korxonaning moliyaviy byudjetlarini tuzishda asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Bu orqali xarajatlarni rejalashtirish va nazorat qilish osonlashadi, “kechikishlar” va “ortiqcha xarajatlar”ni oldini olish mumkin, ichki hisobot va byudjet ijrosi samarali nazorat qilinadi, korxonalar moliyaviy shoklarga nisbatan tayyor bo‘ladi.

Banklar, investorlar, davlat organlari korxonadan kelgusi pul oqimlari to‘g‘risida aniq prognozlar talab qiladi. Shu sababli prognozlash hisobotlari ishonchlilikni oshiradi, reyting agentliklar baholashi uchun asos yaratadi, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) talablariga javob beradi.

Pul oqimlarini prognozlash nafaqat moliya boshqaruvi, balki strategik menejmentning ham ajralmas qismi hisoblanadi. U korxonaning ishchanligini ta’minlaydi, operatsiyalarni izchil rejalashtiradi va moliyaviy xatarlardan saqlaydi. Shu sababli, har bir zamonaviy korxona prognozlash usullarini muntazam ravishda qo‘llashi lozim.

[1] Muallif ishlanmasi

Pul oqimi prognozlash — bu faqatgina texnik moliyaviy operatsiya emas, balki strategik boshqaruvning markaziy qismi hisoblanadi. Korxonada prognozlash usullarining muntazam qo‘llanilishi moliyaviy intizomni oshiradi, boshqaruv qarorlarini asosli qiladi va ichki hamda tashqi manfaatdor tomonlar ishonchini kuchaytiradi.

Shu boisdan, pul oqimi prognozlashni faqatgina moliyaviy funksiyalar bilan cheklash noto‘g‘ri. U tashkilotning umumiy strategik boshqaruv tizimidagi muhim instrument hisoblanadi. Byudjetlashtirish, investitsion loyihalarni baholash, qarz majburiyatlarini muddatli to‘lash, ish haqi va xomashyo bilan bog‘liq xarajatlarni rejalashtirish kabi barcha faoliyat sohalari ushbu prognozlarga bog‘liqdir. Agar pul oqimi yetarli bo‘lmasa, eng to‘g‘ri strategiya ham bajarilmaydi. Agar pul oqimlari noto‘g‘ri prognoz qilinsa, strategik qarorlar xato bo‘ladi.

Prognozlash usullarining muntazam qo‘llanilishi korxonada moliyaviy intizomni oshiradi. Masalan, har oylik pul oqimi prognozi tuzilganda boshqaruvchilar kirim-chiqimlar haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘ladi. Bu ularni hisobdorlikka undaydi, xarajatlarni baholashda ehtiyotkorlikka olib keladi va tushumlarni rag‘batlantirish uchun yangi strategik yechimlarni qidirishga chorlaydi. Natijada, korxona faoliyatida ichki nazorat kuchayadi, samaradorlik ortib boradi, va moliyaviy tizimda barqarorlik shakllanadi.

Bundan tashqari, prognozlash orqali olingan ma’lumotlar tashqi manfaatdor tomonlar – banklar, sarmoyadorlar, davlat tashkilotlari, auditorlar uchun ham juda muhimdir. Korxonada yo‘lga qo‘yilgan prognostik tizimlarning mavjudligi uning moliyaviy ko‘rsatkichlariga ishonch uyg‘otadi, investitsion jozibadorligini oshiradi, va kredit resurslariga bo‘lgan yo‘lni ochadi. Shu jihatdan pul oqimi prognozlash – bu boshqaruv qarorlarini asosli qilishda hal qiluvchi omil bo‘lib, tashqi ijobiy imidjni shakllantiruvchi vosita sifatida ham xizmat qiladi.



1-rasm. “Navoiyazot” AJning operatsion faoliyati pul oqimlari tahlil[1]

[1] Korxona ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Shu bilan birga, ssenariyli tahlillar – optimistik, real va pessimistik ssenariylar asosida tuzilgan prognozlar – korxonani ehtimoliy moliyaviy xavflardan saqlashda alohida o‘rin tutadi. Bu usullar iqtisodiy o‘zgarishlar, bozordagi tavakkalchiliklar yoki ichki muammolar yuz berganda ham, tezkor choralar ko‘rish imkonini yaratadi. Masalan, tushumlar kutilganidan kam bo‘lib qolsa, pessimistik ssenariyda ko‘rsatilgan rejalar darhol ishga tushiriladi.

Ushbu hujjatda Navoiyazot AJ korxonasining 2019–2024-yillar davomidagi operatsion pul oqimlari tahlil qilinadi va 2025-yil uchun turli prognozlash usullarini (trend, ssenariyli tahlil) qo‘llaymiz. Maqsad — korxonaning kelgusi yildagi pul oqimlarini baholash, moliyaviy barqarorlik va likvidlikni ta’minlashga yordam beradi.

2019-yil ko‘rsatkichi 0.2 mlrd so‘m bo‘lib, bu juda past ko‘rsatkich hisoblanadi, 2020-yilda 1.3 mlrd so‘mni tashkil qilib boshqa yillarga nisbatan keskin o‘sish anomal darajada yuqori bo‘lgan. 2021–2024-yillarda barqarorlashuv va sekin o‘sish kuzatilib, 2020-yilda operatsion faoliyatdan kelgan pul oqimida ayrim katta tushum yoki bir martalik omillar asosida oshganligi kuzatilgan.Keyingi yillarda OCF me’yorlashgan va real trend shakllangan. Trend chizig‘i 2025-yildan boshlab pasayish tendensiyasiga ega. 2028-yilda OCF = 0 chizig‘idan pastga tushadi va salbiy pul oqimi natijasini ko‘rsatadi,2030-yilda prognoz OCF = –0.15 mlrd so‘mni tashkil etib, korxona operatsion faoliyatdan zarar ko‘rayotgan holatda bo‘ladi. 2027–2030-yillar oralig‘ida salbiy pul oqimi mavjud bo‘lib, bu qarz yoki kassa yetishmovchiligiga olib kelishi mumkin. Trendga asoslanganda — ijobiy investitsiya faoliyatisiz korxona o‘zini moliyaviy ta’minlay olmaydi. 2025-yildan boshlab operatsion xarajatlarni optimallashtirishga oid chora-tadbirlar ishlab chiqilishi lozim. Joriy faoliyat samaradorligi va sotuv siyosatiga e’tibor qaratish kerak va ssenariyli prognoz va kaskad byudjetlash usullarini joriy etish maqsadga muvofiq. Investitsiya strategiyasi ijobiy pul oqimi olib keluvchi loyihalarga qaratilishi lozim. Agar amaldagi trend saqlansa, Navoiyazot AJ 2028-yildan boshlab to‘g‘ridan-to‘g‘ri pul oqimi yo‘qotish holatiga tushib qolishi kuzatiladi. Bu esa, jiddiy xavf hisoblanib, korxona bank kreditiga qaram bo‘ladi yoki xarajatlarini keskin qisqartirishi talab etiladi. Prognozlash asosida qabul qilinadigan strategik qarorlar bu tendensiyani o‘zgartirish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, pul oqimini prognoz qilish bu — moliya boshqaruvining yuragi, strategik rejalashtirishning asosi va barqaror rivojlanishning kafolatidir. Ushbu prognozlarning to‘g‘ri va muntazam amalga oshirilishi korxonaning ichki salohiyatini yuzaga chiqaradi, samaradorligini oshiradi va raqobatbardoshligini mustahkamlaydi.

Korxonaning pul oqimlari prognozini investorlar, kreditorlar, xodimlar va reyting agentlar kuzatib boradi. Xususan, investorlar korxonaning pul oqimlarini kuzatishdan maqsad korxonaning qancha dividend berishini aniqlash, kapital qiymatini oshirish bilan bog‘liq investitsiyalarni amalga oshirish qarorlarini qabul qilish va kapitalga qilingan investitsiyalarni qoplash uchun kerak bo‘ladigan mablag‘lar me’yorini aniqlash hisoblanadi. Kreditorlar esa, o‘zlari biznes yuritayotgan korxona bilan bog‘liq

to‘lov qobiliyatiga oid qarorlarni qabul qilishga, xodimlar ish xavfsizligi va ular ishlayotgan firmalar bilan bog‘liq doimiy risk masalalaridan manfaatdor hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Luehrman T. A. (1998, July). Investment Opportunities as Real Options. Harvard Business Review , 51-67.

2. Chen Mark T,P.E., C.C.E. 2007, "ABC of Cash Flow Projections", AACE International Transactions, pp. PM21-PM25.

3. Yun Li, Luiz Moutinho, Kwaku K. Opong, Yang Pang. 2014 “Cash flow forecast for South African firms” Review of Development Finance, Volume 5, Issue 1, June 2015, Pages 24-33.

4. s, Handbook of Global Corporate Treasury, John Wiley & Sons, Somerset, NJ, USA. Available from: ProQuest ebrary.

5. Bragg SM 2010, Treasury Management: The Practitioner’s Guide, John Wiley & Sons, Hoboken, NJ, USA. Available from: ProQuest ebrary.

6. Hackel K.S., Livnat J. & Rai A. (1994). The Free Cash Flow/Small-Cap Anomaly. Financial Analysts Journal, 50, (5), 33-42.

ELEKTRON SAVDO SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDAGI INTEGRATSIYALASHGAN RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINING O'RNI VA AMALIY JIHATLARI

Abidjonov Nodirbek Odiljon o'g'li
"TADBIRKOR VA ISHBILARMON" MCHJ xodimi
E-mail: abidjonov.nodirbek@mail.ru

Annotatsiya

Tadqiqotda elektron tijorat samaradorligini oshirishda sun'iy intellekt (SI) asosidagi raqamli marketing strategiyalarining o'rni tahlil qilingan. SI texnologiyalarining foydalanuvchi tajribasini yaxshilash, xarid jarayonini shaxsiylashtirish, xavfsizlikni kuchaytirish va marketing xarajatlarini optimallashtirishdagi ahamiyati ilmiy manbalar va amaliy misollar asosida yoritildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, SI vositalari konversiya darajasini oshirish, mijoz sodiqligini mustahkamlash va savdo jarayonlarini barqaror rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu ish kompaniyalar uchun strategik yondashuvlar ishlab chiqishda ham nazariy, ham amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: elektron tijorat, sun'iy intellekt, raqamli marketing, personalizatsiya, foydalanuvchi tajribasi, antifrod tizimlar, konversiya.

Аннотация

В исследовании проанализирована роль стратегий цифрового маркетинга на основе искусственного интеллекта (ИИ) в повышении эффективности электронной коммерции. Освещены значение ИИ-технологий в улучшении пользовательского опыта, персонализации процесса покупок, повышении безопасности и оптимизации маркетинговых расходов на основе научных источников и практических примеров. Результаты показали, что инструменты ИИ играют важную роль в увеличении конверсии, укреплении лояльности клиентов и устойчивом развитии торговых процессов. Работа имеет как теоретическое, так и практическое значение для разработки стратегических подходов компаний.

Ключевые слова: электронная коммерция, искусственный интеллект, цифровой маркетинг, персонализация, пользовательский опыт, антифрод-системы, конверсия.

Abstract

The study analyzes the role of artificial intelligence (AI)-based digital marketing strategies in enhancing the efficiency of e-commerce. The importance of AI technologies in improving user experience, personalizing purchasing processes, strengthening security, and optimizing marketing costs is highlighted based on scientific sources and practical examples. The results indicate that AI tools play a significant role in increasing conversion rates, strengthening customer loyalty, and ensuring the sustainable development of trading processes. This work carries both theoretical and practical value for developing strategic approaches in companies.

Keywords: e-commerce, artificial intelligence, digital marketing, personalization, user experience, antifraud systems, conversion.

KIRISH

Elektron tijorat sohasining rivojlanishi global miqyosda savdo va iste'molchilar xatti-harakatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. An'anaviy marketing yondashuvlari o'z ahamiyatini saqlab qolgan bo'lsa-da, ularning samaradorligini oshirish uchun yangi texnologik imkoniyatlardan foydalanish zarurati ortib bormoqda. Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari raqamli marketing bilan uyg'unlashganda, mijozlarga xizmat ko'rsatish sifati, mahsulot va xizmatlarni tanlash jarayoni hamda savdo samaradorligi sezilarli darajada yaxshilanadi.

Ilmiy manbalarda ko'rsatilishicha, SI asosidagi shaxsiylashtirilgan tavsiyalar xarid ehtimolini oshiradi, chatbotlar mijoz bilan tezkor aloqani ta'minlaydi, antifrod tizimlari esa tranzaksiyalarda ishonchni mustahkamlaydi. Shu bilan birga, maqsadli reklama kampaniyalari resurslardan tejamkor foydalanish va konversiya ko'rsatkichlarini oshirish imkonini beradi. Bu yondashuv elektron tijorat kompaniyalariga foydalanuvchilar ehtiyojiga aniq moslashtirilgan xizmatlar ko'rsatish orqali barqaror natijaga erishishga yordam beradi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi — elektron savdoni samaradorligini oshirishda SI asosidagi integratsiyalashgan raqamli marketing strategiyalarining o'rnini tahlil qilish va ularning amaliy jihatlarini aniqlashdir. Shu orqali elektron savdo sohasida samaradorlikka erishish yo'llari ilmiy jihatdan yoritilib, kompaniyalar uchun amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining elektron tijorat va raqamli marketingdagi o'rni ilmiy adabiyotlarda keng o'rganilgan. Tadqiqotlarning umumiy xulosasi shundan iboratki, SI vositalari an'anaviy marketing usullarini to'liq o'zgartirib, yangi, samaradorlikka yo'naltirilgan yondashuvlarni shakllantirmoqda. Bu jarayonda foydalanuvchi tajribasi, shaxsiylashtirish, xavfsizlik va marketing xarajatlari optimallashtirilishi asosiy yo'nalish sifatida ajralib chiqadi.

Avvalo, SI texnologiyalarining raqamli marketingdagi evolyutsiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar [1][2][3] ularning strategik ahamiyatini ochib beradi. SI nafaqat avtomatlashtirish vositasi, balki real vaqt rejimida ma'lumotlarni qayta ishlash va analitik qarorlarni qo'llab-quvvatlash imkonini beruvchi mexanizm sifatida ko'rilmoqda. Masalan, Aronkar va Maheshwari [1] sun'iy intellekt asosidagi tizimlar reklama samaradorligini oshirish, mijoz segmentatsiyasini aniqlik bilan bajarish va kampaniyalarning natijadorligini kuzatishda muhim ahamiyatga ega ekanini ta'kidlaydi. Bashang va Puttanna [2] esa AI texnologiyalarining chatbotlar, avtomatik reklama va shaxsiylashtirilgan kontent yaratishda qo'llanilishini nazariy va amaliy jihatdan yoritadi.

Elektron tijoratda shaxsiylashtirish yondashuvlari eng ko'p o'rganilgan yo'nalishlardan biridir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, xaridorlarning oldingi xaridlari, qidiruv tarixi va onlayn xatti-harakatlariga asoslangan tavsiya tizimlari konversiyani sezilarli darajada oshiradi [5][6]. Bhuiyan [5] o'z ishida shaxsiylashtirilgan tavsiyalar mijoz sodiqligini kuchaytirishi, xarid jarayonini soddalashtirishi va platforma bilan o'zaro aloqani yaxshilashini ko'rsatadi. Cherukuri [6] esa mashinaviy o'rganish

algoritmlariga asoslangan tavsiya tizimlari orqali foydalanuvchiga moslashtirilgan xizmat taklif etilishi elektron tijoratda uzoq muddatli afzalliklarni ta’minlashini ta’kidlaydi. Ushbu natijalar amaliyotda ham tasdiqlangan bo‘lib, real kompaniyalar misolida konversiya darajasi sezilarli o‘sish ko‘rsatmoqda.

Operatsion samaradorlikni oshirish va xavfsizlikni ta’minlashda ham SI texnologiyalarining o‘rni alohida ahamiyatga ega. Kalla [4] elektron savdo platformalarida katta ma’lumotlar (Big Data) va SI yordamida mijozlar fikrini tahlil qilish, shuningdek, firibgarlikni aniqlash mexanizmlarini ishlab chiqishni o‘rganadi. Kulkarni [7] esa antifrod tizimlar tranzaksiyalarning ishonchliligini oshirishini va foydalanuvchilarning platformaga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashini ta’kidlaydi. Ushbu yondashuvlar nafaqat xavfsizlikni ta’minlaydi, balki mijozning qayta xarid qilish ehtimolini oshiradi, bu esa savdo hajmining barqaror o‘sishiga olib keladi.

Foydalanuvchi tajribasini chuqur tahlil qilishda SI vositalarining roli ham alohida ta’kidlanadi. Yanchuk va Sharko [8] sun’iy intellekt asosida ishlab chiqilgan interfeyslar foydalanuvchining harakatlarini tahlil qilib, unga mos vizual va funksional yechimlarni taklif qilishini ko‘rsatadi. Bu esa platformalarda intuitiv, foydalanuvchiga qulay bo‘lgan interfeyslarni yaratish orqali mijozni uzoq muddat saqlab qolish imkonini beradi. Raji va hammualliflari [9] esa SI vositalari xaridorlarning qaror qabul qilish jarayoniga qanday ta’sir ko‘rsatishini empirik tahlil qilgan. Ularning tadqiqotida foydalanuvchilar AI yordamida shaxsiylashtirilgan tavsiyalardan foydalanganida xarid qarorlarini tezroq qabul qilishi aniqlangan.

Kelajakdagi istiqbollarga to‘xtaladigan bo‘lsak, Purcărea [10] sun’iy intellektning raqamli marketingni transformatsiya qilishdagi rolini chuqur tahlil qilgan. U AI texnologiyalarining nafaqat yirik kompaniyalar, balki kichik va o‘rta bizneslar uchun ham qulay imkoniyatlar yaratishini ta’kidlaydi. Avtomatlashtirilgan reklama tizimlari, moslashtirilgan kontent yaratish va maqsadli targeting orqali kichik kompaniyalar ham raqobatbardoshlikni saqlab qolishi mumkin.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda elektron savdoda sun’iy intellekt (SI) asosidagi raqamli marketing strategiyalarining samaradorligini baholash uchun aralash yondashuv qo‘llanildi. Bosqichma-bosqich jarayon sifatida avvalo adabiyotlar tahlili orqali nazariy asoslar ishlab chiqildi va konseptual model shakllantirildi. Keyingi bosqichda esa kompaniyalar amaliy tajribasidan olingan ikkilamchi ma’lumotlar — foydalanuvchi xatti-harakati, konversiya darajasi, mijoz sodiqligi va xarajatlar ko‘rsatkichlari — statistik usullar bilan qayta ishlanib, sifatli tahlillar bilan boyitildi. Miqdoriy tahlilda regressiya va korrelyatsiya usullari qo‘llanildi, sifatli yondashuvda esa tematik kodlash asosida asosiy indikatorlar ajratildi. Barcha natijalar konseptual model doirasida sintez qilinib, foydalanuvchi tajribasi, personalizatsiya, xavfsizlik va marketing samaradorligi bo‘yicha kompleks xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotda ilgari belgilab olingan nazariy model va metodologik yondashuvlar asosida elektron savdo tizimlarida sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining qo‘llanish

samaradorligi tahlil qilindi. Tahlil jarayonida sifat va miqdoriy ma’lumotlar o‘zaro solishtirildi hamda statistik ko‘rsatkichlar asosida xulosa chiqarildi. Ushbu bo‘limda elektron tijoratda AI texnologiyalarining ta’siri to‘rtta asosiy yo‘nalishda ko‘rib chiqildi: foydalanuvchi tajribasi, shaxsiylashtirish, operatsion samaradorlik, va marketing xarajatlari optimallashtirilishi.



1-rasm. Elektron savdoni samaradorligini oshirishda sun’iy intellekt asosidagi integratsiyalashgan raqamli marketing strategiyalarining konseptual modeli[1]

Ushbu konseptual model sun’iy intellekt texnologiyalarining elektron savdo tizimiga qanday integratsiyalashishini ko‘rsatadi. Modelda SI texnologiyalari — personalizatsiya, tavsiya tizimlari, chatbotlar, antifrod mexanizmlari va avtomatlashtirilgan reklama — raqamli marketing strategiyalariga uyg‘unlashgan

[1] Muallif ishlanmasi

holda qo‘llanilmoqda. Natijada foydalanuvchi tajribasi, konversiya ko‘rsatkichlari va operatsion samaradorlikda sezilarli o‘sish kuzatiladi. Yakuniy natija sifatida mijoz sodiqligi, savdo hajmining ortishi va xarajatlarning kamayishi orqali umumiy elektron savdo samaradorligi oshadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, sun’iy intellekt asosida yaratilgan vositalar mijozning elektron tijorat platformasidagi umumiy tajribasiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. SI vositalarining real vaqtli ma’lumotlarni qayta ishlash, xatti-harakatlarni tahlil qilish va individual ehtiyojga mos xizmat ko‘rsatish qobiliyati foydalanuvchi tajribasini sezilarli darajada yaxshilagan. Misol uchun, AI asosidagi virtual yordamchilar va chatbotlar foydalanuvchi murojaatlariga o‘rtacha 4–6 soniya ichida javob qaytargan, bu esa foydalanuvchini platformada uzoqroq ushlab turish imkonini bergan.

Kompaniyalar hisobotlari asosida aniqlanishicha, chatbotlar joriy etilganidan so‘ng mijoz xizmatlari bilan bog‘liq xarajatlar 25–35% ga kamaygan. Bu holat, bir tomondan, operatsion samaradorlikka ta’sir qilsa, ikkinchi tomondan foydalanuvchi tajribasining izchil bo‘lishini ta’minlaydi. Bunday texnologik yechimlar, ayniqsa, tez-tez savol beradigan va tezkor javob talab qiladigan xizmatlarda mijozlarning takroriy xarid ehtimolini oshirgan.

Shaxsiylashtirish algoritmlarining elektron savdoda qo‘llanilishi xaridor ehtiyojini oldindan aniqlash va unga mos mahsulot yoki xizmat taklif etishga xizmat qiladi. Tadqiqot davomida o‘rganilgan platformalarda foydalanuvchi harakatlarining tarixiy ma’lumotlari (oldingi xaridlar, sahifa ko‘rishlar, qidiruv so‘rovlari) asosida tuzilgan tavsiyalar 19–27% gacha ko‘proq konversiyaga olib kelgani qayd etildi. Bu o‘zgarishlarni oldingi davr (AI qo‘llanilmagan) statistikasi bilan solishtirish orqali aniqlash mumkin bo‘ldi.

Masalan, bir elektron savdo platformasida tavsiya tizimlari joriy etilgach, xaridorlar savatchaga mahsulot qo‘shish ko‘rsatkichi 31% ga oshgan. Bu tavsiya tizimlarining SI algoritmlari bilan ishlagani, mahsulot relevanti va foydalanuvchi ehtiyojining to‘g‘ri baholanishi bilan bog‘liq. Ushbu natijalar Bhuiyan [5] va Cherukuri [6] tomonidan ilgari surilgan nazariy g‘oyalarni amaliy jihatdan tasdiqlaydi.

Elektron tijoratdagi xavfsizlik masalalari, xususan, moliyaviy tranzaksiyalar bilan bog‘liq xavf-xatarlar kompaniyalar uchun ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Tadqiqotda ishtirok etgan kompaniyalarda SI asosidagi antifrod tizimlari joriy etilgach, shubhali tranzaksiyalarni aniqlash darajasi 90–95% oralig‘ida bo‘lgani aniqlandi. Bu holat SI’ning firibgarlik holatlarini identifikatsiyalashdagi yuqori aniqligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, bu tizimlar tranzaksiyalarni real vaqt rejimida tahlil qilgani sababli, moliyaviy zararning oldini olish ko‘rsatkichi ham yaxshilangan. Kulkarni [7] va Kalla [4] o‘z tahlillarida bu kabi tizimlarning savdo platformalaridagi ishonch omiliga qanday ta’sir qilishini asoslab bergan. Amaliy tahlil bu fikrni to‘liq qo‘llab-quvvatlaydi: foydalanuvchi xavfsizlikni sezganida u platformaga qayta tashrif buyurishga moyil bo‘ladi.

Raqamli marketing xarajatlarini kamaytirish va reklama samaradorligini oshirish bugungi kunda elektron savdo kompaniyalari uchun asosiy maqsadlardandir.

Tadqiqotda SI asosida ishlaydigan targeting tizimlari orqali amalga oshirilgan kampaniyalarda har bir mijozga yetib borish xarajati (CPC) o‘rtacha 17% ga kamaygan, reklamaga ajratilgan umumiy byudjet esa 12% ga kamayganiga qaramay, konversiya 20–23% oralig‘ida oshgan.

Bu natijalar marketing kampaniyalarining aniq auditoriyaga yo‘naltirilgani va foydalanuvchi segmentatsiyasi sifatining ortganligini ko‘rsatadi. SI yordamida reklama kontenti foydalanuvchining til afzalliklari, qurilma turi va faoliyat sohasiga moslashtirilgan. Purcărea [10] tomonidan ilgari surilgan yondashuvda bu kabi moslashuvchan tizimlar kichik va o‘rta biznes subyektlari uchun ham mavjudligi qayd etilgan, bu tadqiqotda ham o‘z isbotini topdi.

Barcha yig‘ilgan natijalar asosida xulosa qilish mumkinki, SI texnologiyalari elektron savdoni optimallashtirishda quyidagi asosiy ko‘rsatkichlarda ijobiy ta’sir ko‘rsatadi:

1. Foydalanuvchi tajribasi yaxshilanishi: real vaqtli javob, moslashtirilgan interfeyslar, chatbotlar orqali xizmat sifati.
2. Savdo samaradorligi: shaxsiylashtirilgan tavsiyalar, yuqori konversiya, mahsulot tanlovining mosligi.
3. Xavfsizlik: antifrod tizimlar, tranzaksiya himoyasi, mijoz ishonchining ortishi.
4. Marketing samaradorligi: reklama xarajatlarining kamayishi, aniq auditoriyaga yo‘naltirish, rentabellikning oshishi.

Natijalar ko‘rsatdiki, SI texnologiyalari nafaqat texnik vosita sifatida, balki strategik ustunlikni ta’minlovchi mexanizm sifatida ham qaralmoqda. Bu yondashuv orqali kompaniyalar nafaqat savdo hajmini oshiradi, balki mijoz sodiqligini saqlab qolish, bozor ulushini kengaytirish va ichki jarayonlarni optimallashtirishga erishadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining elektron tijoratda samaradorlikni oshirishda muhim omil ekanini ko‘rsatdi. Tahlillar shuni isbotladiki, SI vositalari foydalanuvchi tajribasini sezilarli yaxshilaydi, xarid jarayonini shaxsiylashtiradi, xavfsizlikni kuchaytiradi va marketing xarajatlarini optimallashtiradi. Foydalanuvchilarning xatti-harakatlariga mos tavsiyalar savdo konversiyasini oshirgan, chatbotlar xizmat tezligini kuchaytirgan, antifrod tizimlar esa ishonch darajasini yuqori pog‘onaga olib chiqqan. Shuningdek, reklama kampaniyalarida auditoriyani aniq segmentatsiyalash orqali resurslardan tejamkor foydalanish imkoniyati yaratilgan.

Mazkur xulosalar SI texnologiyalarining nafaqat texnik qo‘llanilishini, balki strategik ahamiyatga ega ekanini ham ko‘rsatmoqda. Ularning joriy etilishi kompaniyalarga barqaror o‘sish, bozor ulushini kengaytirish va mijoz sodiqligini mustahkamlash imkonini beradi.

Quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Personalizatsiyani kengaytirish – tavsiya tizimlari va ma’lumotlar tahlili asosida mijoz ehtiyojlarini yanada chuqurroq hisobga olish.
2. Chatbot va virtual yordamchilarni rivojlantirish – mijozlarga xizmat ko‘rsatishda interaktivlik va tezkorlikni oshirish.

3. Xavfsizlikni mustahkamlash – antifrod va tranzaksiya monitoringi kabi tizimlarni keng qo‘llash.

4. Marketing xarajatlarini optimallashtirish – AI asosidagi targeting orqali aniq auditoriyaga qaratilgan reklama kampaniyalarini amalga oshirish.

5. Kichik va o‘rta biznes uchun qo‘llash – SI texnologiyalarini amaliyotga tatbiq qilish orqali raqobatbardoshlikni kuchaytirish.

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, SI asosidagi raqamli marketing strategiyalari elektron tijoratda samaradorlikni kompleks oshirishga xizmat qiladi. Ular korxonalar uchun innovatsion rivojlanish omili bo‘lib, mijoz ehtiyojiga yo‘naltirilgan, xavfsiz va iqtisodiy jihatdan samarali savdo jarayonlarini shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Aronkar, P., & Maheshwari, A. (2025). Assessing the effectiveness of artificial intelligence in digital marketing: A comparative study. International Journal of Research in Management Studies, 15(1).

2. Bashang, S., & Puttanna, K. (2023). The role of artificial intelligence in digital marketing: A review. International Research Journal of Economics and Management Studies, 2(3), 125-133. https://doi.org/10.56472/25835238/IRJEMS-V2I3P118

3. Rahman, J., Raihan, A., Tanchangya, T., & Ridwan, M. (2024). Optimizing the digital marketing landscape: A comprehensive exploration of AI technologies, applications, advantages, and challenges. Frontiers of Finance. https://doi.org/10.59429/ff.v2i2.6549

4. Kalla, D. (2024). Improving e-commerce organization performance using big data analytics and artificial intelligence [Doctoral dissertation, Colorado Technical University].

5. Bhuiyan, M. S. (2024). The role of AI-enhanced personalization in customer experiences. Journal of Computer Science and Technology Studies, 6(1), 162–169. https://doi.org/10.32996/jcsts.2024.6.1.17

6. Cherukuri, B. R. (2024). AI-powered personalization: How machine learning is shaping the future of user experience. International Journal of Science and Research Archive, 12(1), 3111–3126. https://doi.org/10.30574/ijsra.2024.12.1.0961

7. Kulkarni, D. D. (2024). AI-powered innovations in e-commerce and their effect on business performance. Industrial Engineering Journal, 53(11), 128–129.

8. Yanchuk, T., & Sharko, V. (2025). Artificial intelligence in e-commerce: Automation, personalization, efficiency. Академічні Візії, 41. https://doi.org/10.5281/zenodo.15148589

9. Raji, M. A., Olodo, H. B., Oke, T. T., Addy, W. A., Ofodile, O. C., & Oyewole, A. T. (2024). E-commerce and consumer behavior: A review of AI-powered personalization and market trends. GSC Advanced Research and Reviews, 18(3), 66–77. https://doi.org/10.30574/gscarr.2024.18.3.0090

10. Purcărea, I.-M. (2024). Digital marketing and e-commerce in AI era. Valahian Journal of Economic Studies, 15(2), 43–47. https://doi.org/10.2478/vjes-2024-0014

INNOVATSION IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISHDAGI ILG‘OR XORIJ MAMLAKATLAR TAJRIBASI

Rajabov Alibek Xushnudbekovich
Ma’mun-Universiteti NTM “Iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti, PhD
Qoraqalpoq davlat universiteti tadqiqotchisi
ORCID: 0000-0002-5252-6456
E-mail: alibek.rajabov@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqola ilg‘or xorij mamlakatlarining innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishdagi tajribasini sistematik adabiyot sharhi (SLR) orqali tahlil qiladi. PRISMA yo‘riqnomasiga asoslangan usulda Scopus, Web of Science va ResearchGate bazalaridan so‘nggi yillarda chop etilgan bir nechta ilmiy manba tematik tahlil qilingan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, AQSh, Yevropa Ittifoqi, Yaponiya va Janubiy Koreya kabi davlatlarda ko‘pmillatli korporatsiyalar, global qiymat zanjirlari va rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda innovatsiyalar muvaffaqiyatli rivojlantirilgan. Sun’iy intellekt, raqamli transformatsiya va barqaror rivojlanish tendensiyalarini hisobga olgan holda, o‘tish davridagi iqtisodiyotlar uchun R&D xarajatlari oshirish, xususiy sektor investitsiyalarini rag‘batlantirish va global hamkorlikni kuchaytirish taklif etiladi. Tadqiqot rivojlanayotgan mamlakatlarda innovatsiya siyosatini ilg‘or tajribaga moslashtirish zarurligini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: innovatsion iqtisodiyot, ilg‘or mamlakatlar tajribasi, sistematik adabiyot sharhi, global qiymat zanjirlari, sun’iy intellekt, barqaror rivojlanish, transchegaraviy bilim almashinuvi, rivojlanayotgan iqtisodiyotlar.

Аннотация

Настоящая статья анализирует опыт передовых зарубежных стран в формировании инновационной экономики с помощью систематического обзора литературы (SLR). На основе руководства PRISMA проведен тематический анализ нескольких научных источников, опубликованных в последние годы из баз данных Scopus, Web of Science и ResearchGate. Результаты показывают, что в странах, таких как США, Европейский Союз, Япония и Южная Корея, многонациональные корпорации, глобальные цепочки создания стоимости и инновации в развивающихся экономиках успешно развиваются. Учитывая тенденции, такие как искусственный интеллект, цифровая трансформация и устойчивое развитие, для экономик переходного периода рекомендуется увеличение расходов на НИОКР, стимулирование инвестиций частного сектора и укрепление глобального сотрудничества. Исследование подчеркивает необходимость адаптации инновационной политики в развивающихся странах к передовым практикам.

Ключевые слова: инновационная экономика, опыт передовых стран, систематический обзор литературы, глобальные цепочки создания стоимости, искусственный интеллект, устойчивое развитие, трансграничный обмен знаниями, развивающиеся экономики.

Abstract

This article analyzes the experience of advanced foreign countries in shaping an innovative economy through a systematic literature review (SLR). Employing a method based on the PRISMA guidelines, several scientific sources published in recent years from the Scopus, Web of Science, and ResearchGate databases were subjected to thematic analysis. The results indicate that in countries such as the USA, the European Union, Japan, and South Korea, multinational corporations, global value chains, and innovations in developing economies have been successfully advanced. Taking into account trends such as artificial intelligence, digital transformation, and sustainable development, recommendations for transitional economies include increasing R&D expenditures, incentivizing private sector investments, and strengthening global cooperation. The study emphasizes the necessity of adapting innovation policies in developing countries to advanced practices.

Keywords: innovative economy, advanced countries experience, systematic literature review, global value chains, artificial intelligence, sustainable development, cross-border knowledge exchange, developing economies.

KIRISH

Zamonaviy dunyoda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish jarayoni iqtisodiy o‘sishning asosiy omili sifatida tan olinmoqda. Innovatsion iqtisodiyot deganda, ilm-fan, texnologiya va tadbirkorlikning simbiozi orqali yangi mahsulotlar, xizmatlar va jarayonlarni yaratishga asoslangan iqtisodiy tizim tushuniladi, bu esa raqobatbardoshlikni oshirish va barqaror rivojlanishni ta’minlaydi [1]. Jahon iqtisodiyoti so‘nggi yillarda sun’iy intellekt (AI), barqarorlik va raqamli transformatsiya kabi tendensiyalar ta’sirida shakllanmoqda, bu esa rivojlangan mamlakatlarning tajribasini o‘rganishni dolzarb qiladi [2].

Ilg‘or xorij mamlakatlari, xususan, Shveysariya, AQSh, Germaniya, Yaponiya va Janubiy Koreya kabi davlatlar innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishda yetakchi o‘rin tutmoqda. Jahon Intellektual Mulk Tashkilotining (WIPO) 2025-yilgi Jahon Innovatsiya Indeksi (GII) ma’lumotlariga ko‘ra, Shveysariya 18-yil ketma-ket innovatsiya yetakchisi sifatida qayd etilgan bo‘lib, Xitoy ilk bor top-10 ga kirgan, ammo ilg‘or mamlakatlarning tajribasi o‘rta daromadli iqtisodiyotlar uchun namuna bo‘lmoqda [3]. Bu mamlakatlarda innovatsiyalarni rivojlantirish davlat siyosati darajasida qo‘llab-quvvatlanadi: masalan, AQSh va Yaponiyada sun’iy intellekt va avtonom tizimlar bo‘yicha investitsiyalar iqtisodiy o‘sishni tezlatmoqda, bu esa 2025-yilda global texnologik tendensiyalarning asosiy yo‘nalishi sifatida baholanmoqda [4].

Shuningdek, Jahon Iqtisodiy Forumining (WEF) tahlillariga ko‘ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda texnologik taraqqiyot ish o‘rinlari yaratish va inklyuziv farovonlikni ta’minlash imkoniyatini beradi, ammo ilg‘or davlatlarning tajribasi, xususan, ishlab chiqarishni o‘sishidagi muvaffaqiyatli strategiyalar (masalan, arzon narxga asoslanmagan joylashuv qarorlari) o‘rganilishi zarur [5]. Ushbu tendensiyalar fonida, ilg‘or xorij mamlakatlarining innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish tajribasi o‘tish davridagi iqtisodiyotlar uchun qimmatli saboqlar beradi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish mavzusi so‘nggi yillarda iqtisodiy o‘sishning asosiy omili sifatida keng o‘rganilmoqda, xususan, ilg‘or mamlakatlar tajribasi orqali. Adabiyotlarda innovatsiyalarni rivojlantirish davlat siyosati, texnologik taraqqiyot va global raqobatbardoshlik bilan bog‘liq holda tahlil qilinadi. Jahon Intellektual Mulk Tashkiloti (WIPO)ning 2020-yilgi Global Innovatsiya Indeksi (GII) hisobotida ilg‘or mamlakatlarning iqtisodiy o‘sishi pandemiya ta’sirida sekinlashgan bo‘lsada, innovatsiyalar orqali tiklanish strategiyalari ta’kidlangan, bu esa AQSh va Yevropa Ittifoqi kabi davlatlar uchun muhim signal bo‘lgan [6]. Shu bilan birga, 2023-yilgi GII hisobotida Shveysariya, Shvetsiya va AQSh kabi mamlakatlarning innovatsiya yetakchiligi texnologik investitsiyalar va ilmiy-tadqiqot infratuzilmasiga asoslangani ko‘rsatilgan, bu esa rivojlanayotgan iqtisodiyotlar uchun namuna sifatida baholanmoqda [7].

Ilg‘or mamlakatlar tajribasini o‘rganishda UNCTADning 2021-yilgi Texnologiya va Innovatsiya Hisoboti muhim o‘rin tutadi, unda sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar bozori 2025-yilga borib 3,2 trillion dollarga yetishi prognoz qilingan bo‘lib, AQSh, Yaponiya va Janubiy Koreya kabi davlatlarning tajribasi orqali rivojlanayotgan mamlakatlar uchun imkoniyatlar ta’kidlangan [8]. Shu hisobotning 2025-yilgi nashrida esa AI ning inklyuziv rivojlanishi ilg‘or mamlakatlarda inson markazli yondashuv orqali amalga oshirilayotgani, ammo rivojlanayotgan davlatlar uchun global hamkorlik zarurligi ko‘rsatilgan [1]. OECDning 2021-yilgi hisobotida COVID-19 pandemiyasidan keyingi ilmiy-texnologik innovatsiyalar tiklanishi tahlil qilinib, ilg‘or mamlakatlarning iqtisodiy paketlari orqali savdo va ishlab chiqarishning qayta tiklanishi misol qilingan [9].

Xalqaro Valyuta Jamg‘armasining (IMF) 2021-yilgi Jahon Iqtisodiy Ko‘rinishi hisobotida ilg‘or mamlakatlarda fundamental tadqiqotlar innovatsiyalarni tezlatishi, ammo rivojlanayotgan bozorlarda bu ta’sir cheklanganligi ko‘rsatilgan, bu esa Yevropa va AQSh tajribasidan saboq olish zarurligini ta’kidlaydi [10]. Jahon Bankining 2023-yilgi hisobotida o‘rta daromadli mamlakatlarda innovatsiya siyosatining samaradorligi tahlil qilinib, ilg‘or mamlakatlarning tajribasi orqali xususiy sektor investitsiyalarini rag‘batlantirish strategiyalari tavsiya etilgan [11]. Shuningdek, AQShdagi VentureWell tashkilotining hisobotida innovatsion iqtisodiyotga kirishni kengaytirish orqali global raqobatbardoshlikni oshirish, xususan, iqlim o‘zgarishi va iqtisodiy rivojlanish masalalarida ilg‘or mamlakatlar tajribasi ko‘rib chiqilgan [12].

2025-yilgi ITIF hisobotida AQSh, Janubiy Koreya, Xitoy, Yaponiya va Tayvan kabi mamlakatlarning milliy innovatsiya tizimlari solishtirilib, Xitoyning “Osiyo yo‘lbarslari” tajribasidan olingan saboqlar orqali ilg‘or sanoatni rivojlantirish yo‘llari tahlil qilingan [13]. Jahon Iqtisodiy Forumining (WEF) 2025-yilgi hisobotida mas’uliyatli innovatsiyalar ilg‘or mamlakatlarda stakeholderlar markazli yondashuv orqali shakllanayotgani, bu esa iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashda muhim rol o‘ynashi ko‘rsatilgan [14]. Journal of Innovation & Knowledge jurnalidagi 2025-yilgi maqolada raqamli iqtisodiyotning zanjir barqarorligini oshirishdagi roli tahlil qilinib,

ilg‘or mamlakatlarda tadbirkorlik faolligi orqali bu jarayon tezlatilgani misol qilingan [15].

OECDning 2025-yilgi hisobotida innovatsiya siyosati transformatsiyasi ilg‘or mamlakatlarda R&D xarajatlari darajasiga qarab farqlanishi, ammo yangi yondashuvlar orqali samaradorlik oshirilishi ta’kidlangan [16]. CSISning 2023-yilgi hisobotida AQShda inklyuziv innovatsiyalar iqtisodiy o‘sishni kuchaytirishi, tadbirkorlik va innovatsiya ekotizimlarida keng ishtirok orqali rivojlanish ta’minlanishi ko‘rsatilgan [17]. Digital Cooperation Organizationning 2025-yilgi hisobotida raqamli iqtisodiyot tendensiyalari ilg‘or mamlakatlarda innovatsiyalarni shakllantirayotgani, sanoat va jamiyatni o‘zgartirishi bashorat qilingan [18].

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi ilg‘or xorij mamlakatlarining innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishdagi tajribasini o‘rganish bo‘lib, bu jarayon adabiyotlarni sistematik tahliliga asoslangan. Tadqiqot dizayni sifatida Preferred Reporting Items for Systematic Reviews and Meta-Analyses (PRISMA) yo‘riqnomasiga asoslangan sistematik adabiyot sharhi (SLR) tanlangan, chunki bu usul mavzuga oid mavjud ilmiy ishlarning obyektiv va har tomonlama sintezini ta’minlaydi. SLR usuli mavzuning fragmentarligini bartaraf etish va kelajakdagi tadqiqotlar uchun ramka taklif etish uchun samarali hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Ilg‘or mamlakatlarda ko‘pmillatli korporatsiyalar (MNC) innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishda markaziy rol o‘ynaydi, chunki ular R&D xarajatlari va texnologik transferni ta’minlaydi. Masalan, AQSh va Germaniya kabi davlatlarda MNC lar tomonidan amalga oshirilgan texnologik innovatsiyalar toza energiya iste’molini oshirib, iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shmoqda, bu esa kam rivojlangan mamlakatlarda ta’lim xarajatlari orqali taqlid qilinishi mumkin [19]. Yevropa Ittifoqining 27 davlatida innovatsionlik darajasini baholash natijalari shuni ko‘rsatadiki, yuqori rivojlangan mamlakatlarda (masalan, Shvetsiya va Daniya) korporatsiyalar innovatsiyalarni raqamlashtirish orqali iqtisodiy o‘sishni tezlatmoqda, bu esa o‘rta daromadli iqtisodiyotlar uchun siyosiy strategiyalar ishlab chiqishda namuna bo‘ladi [20]. Xususan, 2020–2025-yillarda Yevropa Ittifoqida korporatsiyalar tomonidan amalga oshirilgan yashil innovatsiyalar iqtisodiy murakkablikni oshirib, barqaror rivojlanishni ta’minlagan, ammo bu jarayon davlat rag‘batlantiruvlari (masalan, subsidiyalar) orqali kuchaytirilgan [21]. Jahon Iqtisodiy Forumining (WEF) 2025-yilgi hisoboti shuni tasdiqlaydiki, ilg‘or mamlakatlarda innovatsiya texnologik o‘zgarishlar va geoiqtisodiy fragmentatsiya ta’sirida ishchi kuchini qayta malakalash orqali iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydi, bu esa 2030-yilga borib 14 million ish o‘rinlarini o‘zgartirishi kutilmoqda [22].

Global qiymat zanjirlari (GVC) ilg‘or mamlakatlarda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishda muhim omil bo‘lib, ular orqali texnologiyalar va bilimlar tarqalmoqda. Xitoy tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ilg‘or mamlakatlar (masalan, AQSh) bilan hamkorlik orqali R&D xarajatlari iqtisodiy produktivlikni oshirishi mumkin, ammo bu ta’sir

rivojlanayotgan mamlakatlarda cheklangan, chunki institutsional omillar (masalan, moliyaviy bozor rivoji) rol o‘ynaydi [23]. Yevropa Ittifoqida GVC larda innovatsiya xavfli biznes sifatida baholanmoqda, ammo yuqori rivojlangan mamlakatlarda (masalan, Germaniya) bu jarayon yuqori hayot sifati va innovatsion operatsion dasturlar (masalan, Innovative Economy Operational Program) orqali muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda [24]. WEF hisoboti ta’kidlaganidek, 2025–2030-yillarda global qiymat zanjirlari texnologik qabul qilish va ishchi kuchini qayta malakalash strategiyalari orqali o‘zgarmoqda, bu esa ilg‘or mamlakatlarda 22 ta sanoat klasterida 14 million ishchiga ta’sir etmoqda [22]. Ushbu tajriba rivojlanayotgan iqtisodiyotlar uchun GVC larda ishtirokni kuchaytirish orqali innovatsiyalarni import qilish imkoniyatini beradi.

Ilg‘or mamlakatlar tajribasi rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda innovatsiyalarni shakllantirishda namuna bo‘lib, ammo institutsional farqlar (masalan, rasmiy institutlar va innovatsiya o‘rtasidagi bog‘lanish) muhim rol o‘ynaydi [25]. Yuqori rivojlangan mamlakatlarda individlar yuqori imkoniyat xarajatlarini his qilishadi, bu esa innovatsiyalarni rag‘batlantiradi, ammo rivojlanayotgan davlatlarda davlat aralashuvi zarur. Masalan, Yevropa Ittifoqida innovatsionlik darajasi va qayta tiklanmaydigan energiya iste’moli o‘rtasidagi bog‘lanish shuni ko‘rsatadiki, yuqori EIS (European Innovation Scoreboard) ko‘rsatkichlari bo‘lgan mamlakatlar yangi texnologiyalarni tezroq qabul qilmoqda, bu esa rivojlanayotgan iqtisodiyotlar uchun barqarorlik strategiyalarini taklif etadi [26]. WEFning 2025-yilgi hisoboti shuni tasdiqlaydiki, innovatsiya demografik o‘zgarishlar va yashil o‘tish ta’sirida rivojlanayotgan mamlakatlarda ish o‘rinlarini yaratish imkoniyatini beradi, ammo ilg‘or davlatlar tajribasi orqali texnologik adaptatsiya zarur [22]. Ushbu natijalar adabiyotlar sharhida ta’kidlanganidek, rivojlanayotgan mamlakatlarda innovatsiya siyosatini ilg‘or tajribaga moslashtirish orqali iqtisodiy murakkablikni oshirish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Mazkur tadqiqot ilg‘or xorij mamlakatlarining innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishdagi tajribasini sistematik adabiyot sharhi (SLR) orqali tahlil qilib, zamonaviy tendensiyalarni (masalan, sun’iy intellekt, raqamli transformatsiya va barqaror rivojlanish) hisobga olgan holda, o‘tish davridagi iqtisodiyotlar uchun xulosalar beradi. Kirish va adabiyotlar sharhida ta’kidlanganidek, ilg‘or mamlakatlar (AQSh, Yevropa Ittifoqi davlatlari, Yaponiya va Janubiy Koreya) innovatsiyalarni davlat siyosati, xususiy sektor investitsiyalari va xalqaro hamkorlik orqali muvaffaqiyatli rivojlantirgan, bu esa Jahon Intellektual Mulk Tashkilotining (WIPO) 2025-yilgi Global Innovatsiya Indeksi (GII) ma’lumotlarida aks etganidek, raqobatbardoshlikni oshirib, iqtisodiy o‘sishni tezlatmoqda. Metodologiyada qo‘llanilgan PRISMA yo‘riqnomasiga asoslangan SLR jarayoni bir nechta ilmiy manbani tematik tahlil qilish orqali uchta asosiy yo‘nalishni aniqladi: ko‘pmillatli korporatsiyalarning innovatsion faoliyati, global qiymat zanjirlari va rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda innovatsiya.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ilg‘or mamlakatlarda ko‘pmillatli korporatsiyalar R&D xarajatlari va texnologik transfer orqali iqtisodiy murakkablikni

oshirib, toza energiya va yashil innovatsiyalarni rivojlantirmoqda, masalan, Yevropa Ittifoqida yuqori innovatsionlik darajasi (EIS ko‘rsatkichlari) qayta tiklanmaydigan energiya iste’molini optimallashtirgan. Global qiymat zanjirlari orqali texnologiyalar tarqalishi, xususan, AQSh va Xitoy tajribasida moliyaviy bozorlashuv va ESG omillari rol o‘ynashi, rivojlanayotgan mamlakatlarda institutsional farqlarni bartaraf etish zarurligini ko‘rsatmoqda. Rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda innovatsiya ilg‘or tajribaga moslashtirilganda davlat aralashuvi (masalan, subsidiyalar va ta’lim xarajatlari) orqali samarali bo‘ladi, ammo Jahon Iqtisodiy Forumining (WEF) 2025-yilgi hisobotida prognoz qilinganidek, 2030-yilga borib 14 million ish o‘rni o‘zgarishi texnologik adaptatsiyani talab qiladi.

Mazkur tadqiqot natijalariga asoslanib, o‘tish davridagi iqtisodiyotlar uchun quyidagi ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqildi:

1. Ilg‘or mamlakatlar tajribasidan (masalan, AQSh va Yevropa Ittifoqi) olingan xulosalar asosida R&D xarajatlari darajasini yalpi ichki mahsulotning kamida 2-3% ga yetkazish zarur, bu subsidiyalar va soliq imtiyozlari orqali amalga oshirilishi mumkin. Bu WIPO va OECD hisobotlarida ta’kidlanganidek, innovatsiyalarni tezlatib, iqtisodiy murakkablikni oshiradi;

2. Ko‘pmillatli korporatsiyalarni jalb qilish uchun venchur kapital fondlarini yaratish va texnologik transfer mexanizmlarini rivojlantirish tavsiya etiladi. Yevropa Ittifoqi tajribasi shuni ko‘rsatadiki, yashil innovatsiyalarga yo‘naltirilgan investitsiyalar barqaror rivojlanishni ta’minlaydi, bu o‘tish davridagi mamlakatlar uchun toza energiya sektorida qo‘llanilishi mumkin;

3. Xitoy va Janubiy Koreya tajribasiga asoslanib, o‘tish davridagi iqtisodiyotlarni global qiymat zanjirlarida ishtirokini kuchaytirishi kerak, bu orqali texnologiyalarni import qilish va ishchi kuchini qayta malakalash imkoniyatini beradi. WEF hisobotida prognoz qilingan 2030-yilgi o‘zgarishlarga tayyorgarlik sifatida, ta’lim dasturlarini AI va raqamli texnologiyalarga moslashtirish zarur.

Mazkur takliflar tadqiqot natijalariga asoslanib, o‘tish davridagi iqtisodiyotlarni innovatsion modelga o‘tkazishga qaratilgan bo‘lib, global tendensiyalarga mos keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. UNCTAD (2025). Technology and Innovation Report 2025, Inclusive Artificial Intelligence for Development. https://unctad.org/system/files/official-document/tir2025_en.pdf

2. Yee, L., Chui, M., Roberts, R., & Smit, S. (2025). Technology trends outlook 2025. McKinsey & Company. https://www.mckinsey.com/capabilities/mckinsey-digital/our-insights/the-top-trends-in-tech

3. World Intellectual Property Organization (WIPO) (2024). Global Innovation Index 2025: Innovation at a Crossroads. Geneva: WIPO. https://doi.org/10.34667/tind.58864

4. OECD (2025), OECD Economic Outlook, Volume 2025 Issue 1: Tackling Uncertainty, Reviving Growth, OECD Publishing, Paris, https://doi.org/10.1787/83363382-en

5. Nadar Malhotra, R. (2025). Technological advancements and human development: A tale of two worlds. (2025, January 6). World Economic Forum. https://www.weforum.org/stories/2025/01/technological-advancements-and-human-development/

6. Dutta, S., Escalona Reynoso, R., Wunsch-Vincent, S., Rivera León, L., Garanasvili, A., & Bayona, P. (2020). The global innovation index 2020. In S.Dutta, B. Lanvin, & S. Wunsch-Vincent (Eds.), Global innovation index 2020: Who will finance innovation? (13th ed.). Cornell University, INSEAD, and World Intellectual Property Organization. https://doi.org/10.34667/tind.42316

7. World Intellectual Property Organization (WIPO) (2023). Global Innovation Index 2023: Innovation in the face of uncertainty. Geneva: WIPO. https://doi.org/10.34667/tind.48220

8. United Nations Conference on Trade and Development. (2021). Technology and innovation report 2021: Catching technological waves: Innovation with equity. https://doi.org/10.18356/9789210056588

9. Paunov, C., & Planes-Satorra, S. (2021). What future for science, technology and innovation after COVID-19? (OECD Science, Technology and Industry Policy Papers No. 107). OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/de9eb127-en

10. International Monetary Fund. (2021). Research and innovation: Fighting the pandemic and boosting long-term growth. In World economic outlook, October 2021: Recovery during a pandemic (pp. 65–81). https://doi.org/10.5089/9781513577524.081

11. Zuniga, P. (2024). Innovation policy effectiveness in emerging countries: Lessons from impact evaluation studies. World bank Public Documents. https://thedocs.worldbank.org/en/doc/eb246063161707fe707b339a2ea02f86-0050062024/original/Innovation-Policies-Paper.pdf

12. Weilerstein, P., Marino, M., Drauschke, C., Kavanaugh, N., Russo, A., & Ward, B. (2024). Strategies to accelerate and expand access to the U.S. innovation economy. VentureWell. https://venturewell.org/wp-content/uploads/Day-One-Memo-Strategies-to-Accelerate-and-Expand-Access-to-the-U.S.-Innovation-Economy.pdf

13. Atkinson, R. D., Ezell, S., Jeong, H., Kim, Y. J., & Kwon, S. B. (2025, February 20). Understanding and comparing national innovation systems: The U.S., Korea, China, Japan, and Taiwan. Information Technology and Innovation Foundation and Chey Institute for Advanced Studies. 2025-itif-chey-national-innovation-systems.pdf

14. World Economic Forum. (2025). Shaping tomorrow: Responsible innovation for a brighter future (Insight Report) https://www.weforum.org/publications/shaping-tomorrow-responsible-innovation-for-a-brighter-future/

15. Wang, Y., Long, Y., & Wang, J. (2025). Does the innovation-driven digital economy improve the resilience of industrial and supply chains?. Journal of Innovation & Knowledge, 10(3), 100733. https://doi.org/10.1016/j.jik.2025.100733

16. Einhoff, J., & Paunov, C. (2025). Innovation policy transformed? Unveiling a new paradigm through natural language processing (OECD Science, Technology and

Industry Working Papers No. 2025/21). OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/5ee60cb5-en

17. Guevara, T., Kersten, A., & Khemka, S. (2023). Inclusive Innovation for US Economic Growth and Resiliency. Center for Strategic and International Studies (CSIS).

18. Digital Cooperation Organization. (2024). Digital economy trends 2025. https://dco.org/wp-content/uploads/2024/12/Digital-Economy-Trends-2025.pdf

19. Bajja, S., Sackitey, G. M., El Mahboul, B., & Fumey, M. P. (2025). Effects of Technological innovation and cleaner energy consumption on Economic Growth and Employment: Case of Morocco. Environmental and Sustainability Indicators, 100857. https://doi.org/10.1016/j.indic.2025.100857

20. Brodny, J., Tutak, M., Grebski, W., & Bindzár, P. (2023). Assessing the level of innovativeness of EU-27 countries and its relationship to economic, environmental, energy and social parameters. Journal of Open Innovation: Technology, Market, and Complexity, 9(2), 100073. https://doi.org/10.1016/j.joitmc.2023.100073

21. Kowalska-Styczeń, A., Bublyk, M., & Lytvyn, V. (2023). Green innovative economy remodeling based on economic complexity. Journal of Open Innovation: Technology, Market, and Complexity, 9(3), 100091. https://doi.org/10.1016/j.joitmc.2023.100091

22. World Economic Forum. (2025). The future of jobs report 2025. https://www.weforum.org/publications/the-future-of-jobs-report-2025/

23. Zhou, Y., & Dahal, S. (2024). Has R&D contributed to productivity growth in China? The role of basic, applied and experimental R&D. China Economic Review, 88, 102281. https://doi.org/10.1016/j.chieco.2024.102281

24. Jonek-Kowalska, I., & Rupacz, S. (2025). Inter-organizational cooperation in the diffusion and improving of innovativeness in micro and macro perspectives: A case of developing economy in an international context. Journal of Open Innovation: Technology, Market, and Complexity, 11(1), 100503. https://doi.org/10.1016/j.joitmc.2025.100503

25. Bendig, D., Kleine-Stegemann, L., Mazur, M., & Zapkau, F. B. (2024). A multi-level analysis of the relationship between formal institutions and ambitious entrepreneurship: The moderating role of economic development. International Business Review, 33(5), 102303. https://doi.org/10.1016/j.ibusrev.2024.102303

26. Michalak, A., & Wolniak, R. (2023). The innovativeness of the country and the renewables and non-renewables in the energy mix on the example of European Union. Journal of Open Innovation: Technology, Market, and Complexity, 9(2), 100061. https://doi.org/10.1016/j.joitmc.2023.100061

O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORIDA YASHIL SUG‘URTA KONSEPSIYASI: ZARURAT, JORIY HOLAT VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Zoyirov Laziz Subxonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil tadqiqotchisi, i.f.n., prof
ORCID: 0009-0005-9252-7567
E-mail: lzoyirov@mail.ru

Annotatsiya

Bugungi kunda ekologik xavflarning ortib borishi, iqlim o‘zgarishining salbiy ta’siri va atrof-muhit muhofazasining dolzarbligi yashil sug‘urta konsepsiyasining global miqyosda muhim yo‘nalishlardan biriga aylanishiga sabab bo‘lmoqda. Yashil sug‘urta ekologik risklar, tabiiy ofatlar, iqlim o‘zgarishi va boshqa muhitga bog‘liq tahdidlarni moliyaviy jihatdan boshqarish vositasi bo‘lib, u barqaror rivojlanish tamoyillariga xizmat qiladi. Ushbu ilmiy tadqiqot O‘zbekiston sug‘urta bozorida yashil sug‘urta konsepsiyasining zaruratini, joriy holatini va istiqbollarini chuqur tahlil qiladi. Mamlakatimizda bu yo‘nalish hali to‘laqonli shakllanmagan bo‘lsa-da, xalqaro tajriba, davlat siyosatining ekologik yo‘nalishga e’tibori va moliyaviy sektorning modernizatsiyasi asosida uni joriy etish uchun katta salohiyat mavjud. Tadqiqotda shuningdek, mavjud muammolar, huquqiy va institutsional to‘siqlar, bozor ishtirokchilarining tayyorgarlik darajasi, innovatsion sug‘urta mahsulotlariga talab va ularni joriy etish strategiyalari ko‘rib chiqiladi. Natijada yashil sug‘urtaning O‘zbekistonda samarali amal qilishi uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: yashil sug‘urta, ekologik risklar, sug‘urta bozori, barqaror rivojlanish, ESG, iqlim o‘zgarishi, yashil moliya, tabiiy ofatlar, sug‘urta mahsulotlari.

Аннотация

В настоящее время рост экологических рисков, негативное воздействие изменения климата и актуальность охраны окружающей среды способствуют тому, что концепция зелёного страхования становится одним из важнейших направлений в мировом масштабе. Зелёное страхование представляет собой финансовый инструмент управления экологическими рисками, природными катастрофами, изменением климата и другими угрозами, связанными с окружающей средой, и служит принципам устойчивого развития. Данное научное исследование посвящено анализу необходимости, текущего состояния и перспектив внедрения зелёного страхования на страховом рынке Узбекистана. Несмотря на то, что данное направление в стране пока не сформировано в полной мере, международный опыт, внимание государственной политики к экологическим вопросам и модернизация финансового сектора создают высокий потенциал для его реализации. В исследовании также рассматриваются существующие проблемы, правовые и институциональные барьеры, уровень готовности участников рынка, спрос на инновационные страховые продукты и стратегии их внедрения. В итоге разрабатываются практические рекомендации по эффективному применению зелёного страхования в Узбекистане.

Ключевые слова: зелёное страхование, экологические риски, страховой рынок, устойчивое развитие, ESG, изменение климата, зелёные финансы, природные катастрофы, страховые продукты.

Abstract

Today, the growth of environmental risks, the negative impact of climate change, and the urgency of environmental protection have made the concept of green insurance one of the key global directions. Green insurance serves as a financial tool to manage environmental risks, natural disasters, climate change, and other environment-related threats, contributing to the principles of sustainable development. This scientific study analyzes the necessity, current state, and prospects of green insurance in the insurance market of Uzbekistan. Although this area has not yet been fully developed in the country, international experience, the government's focus on ecological policy, and the modernization of the financial sector demonstrate strong potential for its introduction. The study also considers existing challenges, legal and institutional barriers, the preparedness of market participants, demand for innovative insurance products, and strategies for their implementation. As a result, practical recommendations are developed for the effective application of green insurance in Uzbekistan.

Keywords: green insurance, environmental risks, insurance market, sustainable development, ESG, climate change, green finance, natural disasters, insurance products.

KIRISH

Hozirgi global iqtisodiy muhitda barqaror rivojlanish tamoyillari tobora markaziy o‘ringa chiqmoqda. Ayniqsa, ekologik xavflarning kuchayishi, iqlim o‘zgarishining tezlashuvi, suv resurslari tanqisligi, havoning ifloslanishi kabi ekologik muammolar iqtisodiy va moliyaviy tizimlar faoliyatini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Bunday sharoitda yashil iqtisodiyot, yashil moliya va ularning ajralmas tarkibiy qismi hisoblangan yashil sug‘urta konsepsiyasining dolzarbligi ortib bormoqda. Yashil sug‘urta ekologik xavflarni boshqarish, ekologik barqarorlikni ta’minlash va tabiatga ehtiyotkor munosabatni rag‘batlantirish vositasi sifatida qaralmoqda.

Yashil sug‘urta – bu an’anaviy sug‘urta mexanizmlarining atrof-muhitga yo‘naltirilgan, ekologik mas’uliyatni o‘z ichiga olgan innovatsion ko‘rinishidir. U asosan ekologik tahdidlar (masalan, toshqin, qurg‘oqchilik, yer silkinishi, texnogen halokatlar, chiqindi muammolari)ni moliyaviy qamrab olish, yashil investitsiya loyihalarini himoyalash hamda barqaror iqtisodiy faoliyatni rag‘batlantirishda muhim o‘rin egallaydi. Bu turdagi sug‘urta mahsulotlari ekologik xavflarni moliyaviy boshqarish bilan birga, kompaniyalar va investorlarni ekologik mas’uliyatli faoliyat yuritishga undaydi.

Jahon tajribasiga nazar tashlansa, yashil sug‘urta bozori qator rivojlangan mamlakatlarda (Germaniya, Yaponiya, Shvetsiya, Kanada va boshqalar) allaqachon shakllangan bo‘lib, davlat siyosati, xalqaro moliyaviy institutlar, biznes sektori va fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi hamkorlikda muvaffaqiyatli rivojlanmoqda. Misol uchun, 2023-yil yakunlariga ko‘ra global yashil sug‘urta mukofotlari hajmi $150 milliard AQSh dollaridan oshgan va har yili o‘rtacha 10–15% o‘sib bormoqda. Ushbu

mahsulotlar asosan quyosh va shamol energiyasi loyihalari, ekologik toza transport, chiqindilarni qayta ishlash kabi yo‘nalishlarda faol qo‘llanilmoqda.

O‘zbekiston sug‘urta bozori esa ushbu yo‘nalishda hali yangi bosqichda bo‘lib, yashil sug‘urta tushunchasi endigina shakllanmoqda. Mamlakatda ekologik muammolar – iqlim o‘zgarishi, cho‘llanish, suv tanqisligi va texnogen xatarlar tobora keskinlashayotganiga qaramay, sug‘urta sektori bu xatarlarni moliyaviy boshqarish vositasi sifatida to‘laqonli faollik ko‘rsatmayapti. Sug‘urta kompaniyalari tomonidan ekologik yo‘nalishdagi maxsus mahsulotlar taklifi mavjud emas, bu esa bozor ishtirokchilarining malakasi, qonunchilikdagi moslashuvchanlik yetishmasligi va aholining moliyaviy savodxonligi darajasi bilan izohlanadi.

Shu bilan birga, O‘zbekistonda yashil iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan milliy strategiyalar, xususan, “Yashil energiya” konsepsiyasi, “2023–2030-yillarda atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlik strategiyasi” kabi davlat dasturlari yashil moliyaviy mahsulotlar, jumladan yashil sug‘urtaning joriy etilishi uchun huquqiy va institutsional zamin yaratmoqda. Bundan tashqari, xalqaro moliyaviy institutlar, jumladan, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, EBRD bilan olib borilayotgan hamkorlik doirasida barqaror va ekologik mas’uliyatli moliya infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha dasturlar shakllanmoqda.

Shunday qilib, O‘zbekiston sug‘urta bozorida yashil sug‘urta mahsulotlarini joriy etish zarurati tobora ortib bormoqda. Bu nafaqat atrof-muhitni himoya qilish, balki iqtisodiy barqarorlik, investitsiyaviy jozibadorlik va aholining ijtimoiy himoyasini ta’minlashga ham xizmat qiladi. Ushbu tadqiqotda O‘zbekistonda yashil sug‘urta konsepsiyasining zarurati, joriy holati, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilinadi, shuningdek, rivojlanish istiqbollari asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Davide Lauria fikriga ko‘ra, sug‘urta investitsiya portfellarini optimallashtirishda ESG omillarini dinamik modellar orqali integratsiyalash uzoq muddatli samaradorlikni oshiradi. Fikrimizcha, ESG omillarini dinamik modellar asosida integratsiyalash sug‘urta kompaniyalariga raqobatbardosh va barqaror investitsiya strategiyasini yaratishda muhim vosita hisoblanadi. Bu yondashuv orqali nafaqat moliyaviy ko‘rsatkichlar yaxshilanadi, balki ijtimoiy va ekologik barqarorlik ham ta’minlanadi[1].

Amir Amel-Zadeh fikriga ko‘ra, ESG tamoyillarini moliyaviy strategiyaga kiritish sug‘urta kompaniyalariga ijtimoiy va ekologik barqarorlik bilan bir qatorda moliyaviy rentabellikni ham ta’minlash imkonini beradi. Bu yondashuv kompaniyalar uchun investitsiya risklarini kamaytirishning samarali vositasi hisoblanadi. Fikrimizcha, ESG tamoyillarining investitsiyalarga integratsiyalashuvi nafaqat sug‘urta kompaniyalarining risk boshqaruvi tizimini kuchaytiradi, balki ularning uzoq muddatli raqobatbardoshlik va bozor ishonchini oshirishiga ham xizmat qiladi[2].

[1] Lauria, D., Lindquist, W. B., Mittnik, S., & Rachev, S. T. (2022). A Dynamic Model of ESG-Based Asset Pricing and Portfolio Optimization. arXiv preprint.
[2] Amel-Zadeh, A. (2022). ESG Integration in Financial Strategy. Saïd Business School, University of Oxford.

Ben Caldecott fikriga ko‘ra, ESG va yashil moliya sohasida yetakchi ekspert sifatida ta’kidlaydiki, sug‘urta kompaniyalari ekologik va iqlim risklarini hisobga olgan holda investitsiya portfelini boshqarish orqali barqarorlikni oshirishi mumkin. U ESG ma’lumotlarini risklarni baholash va investitsiya portfelini optimallashtirishda muhim omil sifatida ko‘radi. Fikrimizcha, sug‘urta kompaniyalari ESG ma’lumotlarini faol integratsiyalash orqali nafaqat o‘z moliyaviy xavflarini kamaytiradi, balki portfelning uzoq muddatli barqarorligini ta’minlaydi. Shuningdek, bu yondashuv kompaniyalarni ekologik o‘zgarishlarga moslashish va ijtimoiy mas’uliyatni oshirish yo‘lida faol qadamlar tashlashga undaydi, natijada ularning bozor raqobatbardoshligi va obro‘si mustahkamlanadi[1].

Xiaoyu Zhou fikriga ko‘ra, ESG ko‘rsatkichlariga ega kompaniyalar makroiqtisodiy o‘sish uchun ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlab, sug‘urta kompaniyalari portfelini ESG mezonlariga moslashtirish orqali nafaqat moliyaviy barqarorlik, balki kengroq iqtisodiy barqarorlikni ham qo‘llab-quvvatlashini bildiradi. Fikrimizcha, bu yondashuv sug‘urta kompaniyalarining uzoq muddatli muvaffaqiyati va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. ESG mezonlarini hisobga olgan investitsiya siyosati nafaqat kompaniyaning moliyaviy ko‘rsatkichlarini yaxshilaydi, balki jamiyat va atrof-muhit uchun ham barqaror rivojlanishni rag‘batlantiradi, bu esa sug‘urta sektorining ijtimoiy mas’uliyatini oshirishga xizmat qiladi[2].

METODOLOGIYA

Mazkur maqolada O‘zbekiston sug‘urta bozorida yashil sug‘urta konsepsiyasining zarurati, mavjud holati va rivojlanish istiqbollarini aniqlash maqsadida tizimli va kompleks metodologik yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot nazariy asoslarni o‘rganish, empirik ma’lumotlarni tahlil qilish, xalqaro tajribani solishtirish va mahalliy sharoitga mos takliflar ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yashil sug‘urta bu atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan xatarlarni moliyaviy qoplash, ekologik barqaror loyihalarni qo‘llab-quvvatlash va fuqarolar hamda tadbirkorlik subyektlarining ekologik javobgarligini rag‘batlantiruvchi innovatsion sug‘urta instrumentidir. Jahon tajribasida yashil sug‘urta mahsulotlari asosan qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilarni qayta ishlash, ekologik qurilish, iqlimga moslashish kabi sohalarda keng qo‘llaniladi. Bu orqali nafaqat moliyaviy himoya, balki ekologik xabardorlik, innovatsion rivojlanish va investitsiyaviy jozibadorlik oshiriladi.

O‘zbekiston sug‘urta bozori bugungi kunda transformatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda. Bozor mexanizmlarining takomillashuvi, raqobatning kuchayishi va yangi sug‘urta mahsulotlariga bo‘lgan talabning ortishi milliy sug‘urta tizimini modernizatsiyalash zaruratini kuchaytirmoqda. Shu bilan birga, O‘zbekiston hukumati tomonidan qabul qilingan “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi”, “Ekologik xavfsizlik konsepsiyasi”, “Atrof-muhitni muhofaza qilish davlat dasturi” singari

[1] Caldecott, B. (2023). Oxford Sustainable Finance Programme. https://www.smithschool.ox.ac.uk/oxford-sustainable-finance-group
[2] Zhou, X. (2023). ESG Performance and Economic Growth. Oxford Sustainable Finance Programme.

hujjatlar yashil moliyaviy instrumentlarni, xususan yashil sug‘urtani joriy etish uchun zamin yaratmoqda.

Jahon amaliyoti shuni ko‘rsatmoqdaki, yashil sug‘urta mahsulotlari rivojlangan davlatlar iqtisodiyotida muhim o‘rin egallamoqda. Germaniya, Kanada, Xitoy, Yaponiya va Skandinaviya davlatlarida quyidagi mahsulotlar keng tarqalgan: ekologik javobgarlik sug‘urtasi (Environmental Liability Insurance); yashil qurilish sug‘urtasi (Green Building Insurance); energiya loyihalarini sug‘urtalash (Renewable Energy Insurance); iqlim xavflari uchun indeksli sug‘urta (Weather Index Insurance). Bu davlatlarda hukumat, sug‘urta kompaniyalari, moliyaviy regulyatorlar va xalqaro tashkilotlar hamkorligida ekologik risklarni moliyaviy boshqarish kengayib bormoqda.

O‘zbekiston sug‘urta sektorida yashil sug‘urta joriy etilishi uchun bir qator rivojlanish yo‘nalishlari ko‘zga tashlanadi. Sug‘urta kompaniyalari kelgusida mahsulotlarini ekologik risklarni inobatga olgan holda kengaytirishi ehtimol, bu esa yangi bozor segmentini shakllantiradi. Aholi va tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida tushunchaning hozircha kam tarqalganligi uni targ‘ib qilish va xabardorlikni oshirish bo‘yicha samarali dasturlar ishlab chiqish zaruratini ko‘rsatadi. Davlat siyosatida mavjud “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi moliya va sug‘urta tizimiga integratsiyalashgan taqdirda, barqaror sug‘urta mexanizmlarini yaratishga asos bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, huquqiy-me’yoriy bazaning rivojlantirilishi va mutaxassislar salohiyatining oshirilishi yashil sug‘urtaning amaliyotga tatbiq etilishida muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Shunga qaramay, O‘zbekistonda yashil sug‘urta joriy etish uchun bir qator ijobiy omillar mavjud: davlat dasturlari (Yashil energetika strategiyasi, Atrof-muhitni muhofaza qilish strategiyasi) orqali ekologik yo‘nalishdagi loyihalarni moliyalashtirish hajmi ortmoqda; xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan ekologik va infratuzilmaviy loyihalar sug‘urta himoyasini talab qilmoqda; qayta tiklanuvchi energiya, yashil transport, chiqindi qayta ishlash sohalarida xususiy sektor faollashmoqda; iqlim o‘zgarishidan aziyat chekayotgan hududlar (masalan, Qoraqalpog‘iston, Surxondaryo)da indeksli sug‘urta mahsulotlariga ehtiyoj yuqori.

Tahlil shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekistonda yashil sug‘urta konsepsiyasini joriy etish zarurati bevosita mavjud ekologik va iqlimiy xatarlar, davlat siyosatining yo‘nalishi va xalqaro majburiyatlar bilan belgilanadi. Bozorda hali bu yo‘nalishda raqobat kamligi birinchi bo‘lib yashil sug‘urta mahsulotini joriy qilgan kompaniyalarga imtiyozli pozitsiya yaratishi mumkin. Yashil sug‘urta faqat moliyaviy mahsulot emas, balki ekologik va ijtimoiy mas’uliyatni ifodalovchi vositadir.

So‘nggi yillarda iqlim o‘zgarishi, ekologik xavflar va ijtimoiy tengsizlik kabi global muammolar moliyaviy qarorlar qabul qilishda yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Ayniqsa, uzoq muddatli moliyaviy majburiyatlarga ega bo‘lgan sug‘urta tashkilotlari o‘z investitsiya portfellarini nafaqat iqtisodiy rentabellik, balki ekologik va ijtimoiy barqarorlik mezonlariga ko‘ra ham shakllanish zarurligini anglamoqda. Shu nuqtai nazardan, ESG standartlari va yashil moliya konsepsiyasi sug‘urta kompaniyalari uchun muhim strategik yo‘nalishga aylanmoqda. ESG yondashuvi investitsion aktivlarning ekologik xavfsizligi, ijtimoiy ta’siri va boshqaruv tizimi orqali barqarorlikni baholasa, yashil moliya ekologik jihatdan foydali loyihalarni moliyalashtirishga qaratilgan moliyaviy instrumentlar to‘plamini ifodalaydi. Ushbu

konsepsiyalar sug‘urta kompaniyalarining investitsion risklarni kamaytirish, brend ishonchliligini oshirish va uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikka erishish imkonini beradi (1-rasm).



1-rasm. Sug‘urta tashkilotlarining investitsiya portfelini optimallashtirishda ESG standartlari va yashil moliya konsepsiyasi[1]

Umuman olganda, ESG-standartlari va yashil moliya konsepsiyasi sug‘urta tashkilotlarining investitsiya portfelini zamonaviy, mas’uliyatli va barqaror tarzda boshqarish uchun muhim yo‘nalish hisoblanadi. Bu yondashuv orqali kompaniyalar

[1] Muallif tomonidan tayyorlangan.

nafaqat iqtisodiy daromad olishga, balki atrof-muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy mas'uliyatni oshirish va korporativ boshqaruvni takomillashtirishga ham hissa qo'shadi. Sug'urta sektorida ushbu tamoyillarni amaliyotga joriy etish investitsiya xavflarini kamaytiradi, ishonchni mustahkamlaydi va xalqaro barqarorlik standartlariga mos rivojlanish imkonini yaratadi. Kelajakda ESG va yashil moliya integratsiyasi sug'urta sanoatining transformatsiyasi uchun zaruriy omilga aylanadi.

So'nggi yillarda iqlim o'zgarishi va atrof-muhit muammolari global e'tiborni tortib, iqtisodiyot va moliyaviy sektorlar faoliyatini tubdan o'zgartirmoqda. Shunday jarayonlarda yashil sug'urta (Green Insurance) konsepsiyasi muhim rol o'ynay boshladi. U sug'urta sohasida barqarorlikni ta'minlash, ekologik xavflarga qarshi himoya qilish va yashil investitsiyalarni rag'batlantirishga qaratilgan. Ayniqsa, 2022-yildan boshlab yashil sug'urta bozori tez sur'atlar bilan o'sib, yangi imkoniyatlar va muhim tendensiyalarni ko'rsatmoqda. Quyida 2022–2024-yillar oralig'ida yashil sug'urta sohasidagi asosiy ko'rsatkichlar va bozor dinamikasi tahlil qilinadi (1-jadval).

1-jadval

2022-2024-yillarda yashil sug'urta bozorining rivojlanish dinamikasi[1]

T/r	Yillar	Yashil sug'urta (Green Insurance) bo'yicha asosiy ko'rsatkichlar va tendensiyalar
1	**2022**	Global yashil sug'urta bozor o'lchovi 2,5 mlrd AQSH dollar. Sug'urtachilar tomonidan yashil obligatsiyalarning emissiyasi 40 foizga oshdi. Sug'urta sektori "green bonds"ga 250 milliard AQSH dollar investitsiya kiritdi.
2	**2023**	Qurilmalar bilan bog'liq ESG investitsiyalar sohasida sug'urta kompanyalari 2,8 trillion AQSH dollarga yetgan. Sektorning umumiy aktivlaridagi barqaror investitsiyalar ulushi 20 foizdan 36 foizgacha oshgan. Global iqlim sug'urta "climate insurance solutions" bozori taxminan 115 milliard AQSH dollarga yetdi (22 foiz o'sish). Sug'urta sohasining barqaror investitsiyalar "sustainable investments" AUM miqdori 2,8 trillion AQSh dollarni tashkil etdi.
3	**2024**	Global "Green Insurance" bozor hajmi 3,5 milliard AQSH dollarni tashkil qilgan. 2033-yilga kelib 9,8 milliard AQSh dollargacha o'sishi prognoz qilinmoqda, 2026 va 2033-yillar oralig'ida yillik o'sish sur'ati 14,5 foizni tashkil etadi.

2022–2024-yillar davomida global yashil sug'urta bozori sezilarli o'sish sur'atlarini namoyish etdi. 2022-yilda bozor hajmi taxminan 2,5 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda barqaror investitsiyalarning umumiy aktivlardagi ulushi 20 foizdan 36 foizgacha oshdi va iqlim sug'urta yechimlari bozori 115 milliard AQSh dollarga yetdi. 2024-yilda esa yashil sug'urta bozorining qiymati 3,5 milliard dollarga yetib, kelgusida o'sish sur'ati yillik 14,5 foiz atrofida saqlanishi prognoz qilinmoqda. Bu ko'rsatkichlar yashil sug'urta sohasining nafaqat iqtisodiy

[1] Muallif tomonidan tayyorlangan.

ahamiyatini, balki global iqlim siyosati va barqaror moliyaviy investitsiyalar yo‘nalishida tutgan o‘rnini ko‘rsatadi. Shu tariqa, yashil sug‘urta moliya va ekologiyani birlashtiruvchi muhim vosita sifatida rivojlanishda davom etmoqda va kelajakda yanada keng ko‘lamda qo‘llanilishi kutilmoqda.

So‘nggi yillarda butun dunyo miqyosida iqtisodiy va investitsiyaviy qarorlar qabul qilishda ESG – ekologik (Environmental), ijtimoiy (Social) va boshqaruv (Governance) mezonlarining roli ortib bormoqda. ESG nafaqat kompaniyalar faoliyatining barqarorligini, balki investorlar, davlatlar va jamoatchilikning mas’uliyatli rivojlanishga bo‘lgan e’tiborini ham aks ettiradi. 2020–2024-yillar oralig‘ida ESG konsepsiyasi jadal rivojlandi, turli iqtisodiy va siyosiy omillarga qaramay, global moliyaviy tizimda o‘z o‘rnini mustahkamladi. Quyidagi tahlilda ESGning so‘nggi besh yildagi rivojlanish dinamikasi, investitsiya oqimlari, fondlar soni va aktivlar hajmidagi o‘zgarishlar yoritilgan (2-jadval).

2-jadval

2020-2024-yillarda ESG rivojlanishining asosiy tendensiyalari hajmi[1]

T/r	Yillar	ESG rivojlanishining asosiy tendensiyalari
1	**2020**	Dunyo bo‘yicha ESGga yo‘naltirilgan aktivlar 2020-yilda 40,5 trillion AQSH dollarni tashkil etdi. ESG fondlariga 51,1 milliard AQSH dollar investitsiya kiritildi. Barqaror obligatsiyalar bozorining umumiy hajmi 732,1 milliard AQSH dollarga yetdi.
2	**2021**	ESG fondlari soni 36 foizga oshib, jami 534 ta fondga yetdi.
3	**2022**	ESG fondlariga investitsiyalar oqimi 3,1 milliard AQSH dollarga tushib, oldingi yillardagi o‘rtacha 47 milliard AQSH dollardan ancha past bo‘ldi. AQShda ESGga qarshi siyosiy qarshiliklar kuchayib, ESGga bo‘lgan talabni pasayishiga olib keldi.
4	**2023**	ESGga bo‘lgan talab yana oshdi, bu ESGga bo‘lgan ishonchning tiklanishini ko‘rsatadi. ESGga yo‘naltirilgan investitsiyalar yana o‘sishni boshladi, bu ESGga bo‘lgan ishonchning tiklanishini ko‘rsatadi.
5	**2024**	ESGga yo‘naltirilgan aktivlar 53 trillion AQSH dollarga yetgan. ESG fondlariga investitsiyalar oqimi yana oshishi kutilmoqda, bu ESGga bo‘lgan talabning davom etishini ko‘rsatadi.

2020–2024-yillar oralig‘i ESG investitsiyalari uchun o‘ziga xos bosqichlarni aks ettiradi. 2020-yilda ESGga kirish bosqichi boshlangan bo‘lsa, 2021-yilda bu yo‘nalishga bo‘lgan talab keskin oshdi. 2022-yilda siyosiy bosim va ishonch pasayishi sababli investitsiya oqimlari sezilarli kamaydi. Shunga qaramay, 2023-yilda ESGga bo‘lgan qiziqish yana tiklandi va 2024-yilda global ESG aktivlari hajmi 53 trillion AQSh dollarga yetdi. Bu esa ESG investitsiyalari uzoq muddatli istiqbolga ega ekanligini va investorlar barqarorlik hamda ijtimoiy mas’uliyatga asoslangan qarorlar qabul qilishga tobora ko‘proq e’tibor qaratayotganini tasdiqlaydi.

[1] Muallif tomonidan tayyorlangan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekiston sug‘urta bozorida yashil sug‘urta konsepsiyasining zarurati, joriy holati va rivojlanish istiqbollari puxta o‘rganildi. Jahon tajribasi tahlili shuni ko‘rsatdiki, yashil sug‘urta ekologik risklarni moliyaviy boshqarish, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlash hamda yashil investitsiyalarni rag‘batlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlarda yashil sug‘urta mahsulotlari keng qamrovli bo‘lib, ekologik xavflarga qarshi sug‘urta mexanizmlari muvaffaqiyatli ishlamoqda.

O‘zbekistonda esa yashil sug‘urta tushunchasi va mahsulotlari hali rivojlanishning dastlabki bosqichida turibdi. Sug‘urta kompaniyalari tomonidan ekologik risklarga asoslangan mahsulotlarning mavjud emasligi, aholining yashil sug‘urta haqida bilim va xabardorlik darajasining pastligi, shuningdek, huquqiy va institutsional bazaning yetishmasligi asosiy muammolar sifatida aniqlangan. Shu bilan birga, davlat tomonidan qabul qilingan ekologik strategiyalar va xalqaro hamkorlik imkoniyatlari yashil sug‘urta bozorini rivojlantirish uchun ijobiy zamin yaratmoqda.

Tadqiqot natijalari ko‘rsatdiki, yashil sug‘urtaning O‘zbekistonda joriy etilishi nafaqat ekologik muammolarni moliyaviy boshqarishda, balki iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va xalqaro moliyaviy maydonda raqobatbardosh bo‘lishda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, ushbu sohani rivojlantirish uchun huquqiy bazani takomillashtirish, sug‘urta kompaniyalarining salohiyatini oshirish, aholining moliyaviy savodxonligini oshirish va xalqaro standartlarni joriy etish zarur.

Xulosa qilib aytganda, yashil sug‘urta konsepsiyasi O‘zbekiston sug‘urta bozorining istiqbolli rivojlanishida muhim vosita bo‘lib, u ekologik barqarorlikni ta’minlash va iqtisodiyotda yashil transformatsiyani jadallashtirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Lauria, D., Lindquist, W. B., Mittnik, S., & Rachev, S. T. (2022). A Dynamic Model of ESG-Based Asset Pricing and Portfolio Optimization. arXiv preprint.

2. Amel-Zadeh, A. (2022). ESG Integration in Financial Strategy. Saïd Business School, University of Oxford.

3. Caldecott, B. (2023). Oxford Sustainable Finance Programme. https://www.smithschool.ox.ac.uk/oxford-sustainable-finance-group

4. Zhou, X. (2023). ESG Performance and Economic Growth. Oxford Sustainable Finance Programme.

BREND QIYMATINI ANIQLASHNING METODOLOGIK YONDASHUVLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI

Maxmudov Tohirjon Olimjonovich
Namangan davlat texnika universiteti
“Marketing” kafedrasi dotsenti
Odilov Akbarjon Nosirjon o‘g‘li
“Marketing” yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada brend qiymatining tadbirkorlik faoliyatidagi ahamiyati va uni aniqlash usullari tahlil qilingan. Brend qiymatini baholashda bozorga asoslangan, daromadga asoslangan, xarajatga asoslangan hamda Net Promoter Score (NPS) kabi yondashuvlardan foydalanildi. Namangandagi “Ideal” brendi misolida amaliy hisob-kitoblar olib borildi va brend qiymati turli metodlar orqali aniqlanib, qiyosiy natijalar taqdim etildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, daromadga asoslangan yondashuv brend qiymatini aniqroq baholash imkonini beradi va uzoq muddatli rivojlanish salohiyatini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: brend qiymati, tadbirkorlik, marketing strategiyasi, NPS, “Ideal” brendi.

Аннотатция

В данной статье рассмотрено значение стоимости бренда в предпринимательской деятельности и методы её определения. Для оценки стоимости бренда использованы рыночный, доходный, затратный подходы, а также метод Net Promoter Score (NPS). На примере бренда «Ideal» из Намангана проведены практические расчёты, определена стоимость бренда по различным методикам и представлены сравнительные результаты. Результаты исследования показали, что доходный подход позволяет более точно оценить стоимость бренда и определить его долгосрочный потенциал развития.

Ключевые слова: стоимость бренда, предпринимательство, маркетинговая стратегия, NPS, бренд «Ideal».

Abstract

This article analyzes the importance of brand value in entrepreneurial activity and the methods of its evaluation. Market-based, income-based, cost-based approaches, as well as the Net Promoter Score (NPS) method, were applied to assess brand value. Using the example of the “Ideal” brand from Namangan, practical calculations were carried out, and comparative results were presented. The findings indicate that the income-based approach provides a more accurate assessment of brand value and reflects its long-term development potential.

Keywords: brand value, entrepreneurship, marketing strategy, NPS, “Ideal” brand.

KIRISH

Brend qiymati tadbirkorlik faoliyatida eng muhim strategik resurslardan biri hisoblanadi. U korxonaning bozordagi mavqeyini belgilab beradi va iste’molchilar

ongida ijobiy taassurot shakllantirishga yordam beradi. Kuchli brend qiymati mahsulot va xizmatlarni raqobatchilarnikidan ajratib koʻrsatadi hamda ularni xaridorlar koʻzida ishonchli va sifatli qilib koʻrsatadi. Shu bilan birga, brend qiymati mijozlarning sadoqatini kuchaytirib, ularni doimiy xaridorlarga aylantiradi. Bu esa oʻz navbatida korxonaga sotuv hajmini barqaror ushlab turish va yangi bozorlarni egallash imkonini yaratadi. Brendning yuqori qiymati tadbirkorga reklama va marketing xarajatlarini kamaytirib, mahsulotni yuqori narxda sotish imkonini beradi. Natijada, kompaniya qoʻshimcha daromadga ega boʻladi va moliyaviy barqarorlikka erishadi. Bundan tashqari, brend qiymati investorlarni jalb qilishda ham muhim rol oʻynaydi, chunki kuchli brend uzoq muddatli rivojlanish va xavflarni kamaytirishning kafolati sifatida qaraladi. Hozirgi globallashuv davrida, xalqaro bozorlar bilan ishlashda ham brendning kuchi tadbirkorlik faoliyatining samaradorligini belgilaydi. Shu sababli, tadbirkorlar brend qiymatini oshirish orqali oʻz faoliyatini yanada muvaffaqiyatli va raqobatbardosh qilish imkoniyatiga ega boʻladilar.

Mamlakatimizda ham brendga e'tibor ortib borayotgani sezilmoqda. Jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-avgustda "Sanoat sohasida nufuzli xalqaro brendlar bilan hamkorlikni rivojlantirish va milliy brendlarni qoʻllab-quvvatlash chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi PQ-286 sonli qarori qabul qilindi.[1] Ushbu qarorda milliy brendlarni rivojlantirish, xalqaro brendlar bilan hamkorlikni kengaytirish, hamda brendlarni qoʻllab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etish kabi asosiy yoʻnalishlar belgilangan boʻlsa, 2025-yil 26-mayda esa Shavkat Mirziyoyev raisligida mahalliy sanoatni rivojlantirish boʻyicha kelgusidagi ustuvor vazifalar yuzasidan videoselektor yigʻilishi oʻtkazildi va unda milliy brendlarni koʻpaytirish va mavjudlarini xalqaro darajaga olib chiqish boʻyicha yangi tizim joriy etilishi belgilandi. Bu qarorlar mamlakatimizda brend menejmenti va marketingga boʻlgan e'tiborni yanada oshirishga, shuningdek, milliy ishlab chiqaruvchilarni global bozorga muvaffaqiyatli kirishiga koʻmaklashishga qaratilgan strategik qadam sifatida ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Brendning qimmatli aktiv sifatida tan olinishi nisbatan yaqindagina paydo boʻlgan. 1950-yillarda, biznes muvaffaqiyati va iste'molchi tanlovi faqat mahsulot sifati va qiymati bilan belgilanardi. 1960-yillardagi reklama inqilobi kompaniya identitetini har bir uyga tanilgan nomga aylantirdi va marketing orqali ommaviy ongga kiritdi. Brend nomlari zamonaviy dizayn, chidamlilik, nafislik, xizmat va innovatsiya kabi istalgan xususiyatlarning ramzi sifatida qabul qilina boshladi. Brend qiymati tushunchasi ilk bor 1980-yillarda iqtisodchilar va marketing mutaxassislari tomonidan oʻrganila boshlagan. 1991-yilda D.Aaker brend kapitalini besh asosiy komponentga ajratdi: brend sodiqligi, brend tanilishi, brend obroʻsi, brend assotsiatsiyalari va boshqa aktivlar deb tariflagan.1993-yilda K.Keller brend kapitali modelini ishlab chiqib, brend xabari va brend tasavvurining asosiy rolini koʻrsatdi[2]. 2000-yillardan boshlab internet va ijtimoiy tarmoqlar rivojlanishi natijasida iste'molchilar prosumer, ya'ni brendni nafaqat qabul qiluvchi, balki shakllantiruvchi sifatida ishtirok eta boshladilar. Shen va Yang tadqiqotida platforma brend qiymati besh oʻlchov orqali aniqlangan:

brend tajribasi, brend bilimlari, brend munosabatlari sifati, brend fuqarolik xatti-harakati va brend obro‘si. 2023-yilda olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, prosumerlarning faol ishtiroki platforma brendining moliyaviy va ijtimoiy qiymatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi, ya’ni foydalanuvchilarning brendga ijobiy munosabati uning umumiy qiymatini oshiradi. O‘zbekiston sharoitida esa brend menejmenti va marketing sohalarida ilmiy tadqiqotlar rivojlanish bosqichida bo‘lib, prosumer nuqtai nazaridan platforma brend qiymatini o‘rganish yangi yondashuvlarni shakllantirish imkonini beradi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqot ishida brend qiymatini aniqlash va tahlil qilishda bir nechta metodologik yondashuvlardan foydalanildi. Avvalo, nazariy tahlil usuli asosida ilmiy adabiyotlar, xalqaro va mahalliy manbalar o‘rganildi hamda brend qiymatining iqtisodiy mohiyati va tadbirkorlik faoliyatidagi o‘rni umumlashtirildi. Shuningdek, analitik va taqqoslash usuli orqali xalqaro kompaniyalar (Apple, Microsoft, Google, Amazon, Walmart) brend qiymatining o‘sish ko‘rsatkichlari tahlil qilinib, mahalliy “Ideal” brendi misolida taqqosiy xulosalar chiqarildi.

Amaliy jihatdan, hisoblash va iqtisodiy-matematik modellash usuli qo‘llanilib, bozorga asoslangan yondashuvda “Brendning bozor qiymati = Ys × Ok” formulasi asosida natijalar chiqarildi. Daromad yondashuvida diskontlangan pul oqimlari (DCF) modeli ishlatilib, sof foyda ko‘rsatkichlari kelajak qiymatga keltirildi. Xarajat yondashuvida esa smetaviy hisoblash usuli asosida brendni yaratish va rivojlantirish bilan bog‘liq barcha xarajatlar yig‘ilib, umumiy qiymat aniqlangan. Net Promoter Score (NPS) yondashuvida esa empirik so‘rovnoma usuli qo‘llanib, mijozlarning sodiqligi va brendni tavsiya etish darajasi baholandi.

Bundan tashqari, ekspert baholash usuli asosida o‘rtacha koeffitsiyent (Ok) aniqlashda brend tanilishi, sodiqligi, imiji, innovatsionlik darajasi va mijoz bilan aloqa sifatiga asoslangan ko‘rsatkichlar hisobga olindi. Metodologik jihatdan esa, sistemali yondashuv qo‘llanib, brend qiymati moliyaviy, marketing va strategik boshqaruv omillari bilan uzviy bog‘liq holda ko‘rib chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ko‘p yillar davomida korxonalar daromadni oshirish uchun o‘z mahsulotlari va xizmatlarini yaratishga e’tibor berishgan. Biroq, bugungi kunda global kompaniyalar uzoq muddatli marketing strategiyalari orqali brend xabardorligi va brend qiymatini oshirishga e’tibor qaratmoqda. Brend qiymati – bu iste’molchilarning mahsulot yoki kompaniya bilan bo‘lgan hissiy aloqasini ifodalaydi. Bu aloqa ularni ma’lum bir brendga sodiq qiladi va qayta xarid qilish ehtimolini oshiradi. Mijozlar brend bilan bog‘langan narsaga asoslanib, mahsulot yoki xizmatning qiymatini refleksli ravishda baholashlari mumkin. Shunday qilib, brendning qabul qilingan qiymatini oshirish orqali iste’molchilarni xizmat yoki mahsulotlarga jalb qilish mumkin. Hozirgi biznes muhitida brendga ko‘proq qiymat keltirish juda muhim. Iste’molchilar mahsulot va xizmatlarni nafaqat ular taqdim etayotgan sifati va qiymatiga qarab, balki ular bilan bog‘liq brendga qarab ham baholaydilar. Qiymatga e’tibor qaratish, keyinchalik

mijozlarni yaxshiroq ushlab turishga va eng muhimi, sotishga olib kelishi mumkin. Shu o‘rinda, Marketing strategiyalari brend, shuningdek, mahsulot yoki xizmatlar qiymati haqida xabardorlikni oshirishga yordam beradi. Bu mijozlarda uzoq muddatli taassurot qoldirish va uzoq muddatli brendga sodiqlik va tenglikni yaratish imkonini beradi va marketing strategiyasi haqida ma’lumot berish uchun brendning tarkibiy qismlarini tushunish muhimdir:



1-rasm. Brendning tarkibiy qismlari[1]

2005-yilgacha kompaniyalar brend qiymatini hisoblaganda faqat uskunalar va binolar kabi moddiy narsalarni inobatga olgan. Biroq, 2005-yilda Xalqaro Moliyaviy Hisobot Standartlari (IFRS) yangilanganidan so‘ng, ular moliyaviy hisobotlarda brend va patent kabi nomoddiy aktivlarni ham hisobga olishni boshladi.

Nomoddiy bo‘lishiga qaramay, kompaniya brendi ishonchli baholanadi va monitoring qilinadi, bu esa uni moliyaviy maqsadlar nuqtai nazaridan boshqa aktivlar bilan teng muhim qiladi.

Brend qiymati – bu brend kapitali orqali yaratilgan daromadning moliyaviy ifodasidir. U kompaniyaning logotiplari va shiorlaridan tashqariga chiqib, brendning nima anglatishini, auditoriya tomonidan qanday qabul qilinishini va mijozlar bilan yaratgan hissiy aloqasini aks ettiradi. Brend qiymati iste’molchilarning brendga bo‘lgan munosabati, brend sodiqligi va bozor pozitsiyasi orqali shakllanadi. Sodiq mijozlar brendga nisbatan ijobiy tajribaga ega bo‘lib, unga yuqori baho berishadi, bu esa brendning moliyaviy va nomoddiy qiymatini oshiradi. Shu bilan birga, bozorida yetakchi yoki innovatsion brendlar yuqori obro‘ga ega bo‘lib, bozor tendensiyalarini belgilash va iste’molchi tanlovini boshqarish imkoniyatiga ega bo‘ladi va bunga bir nechta omillar ta’sir qiladi:

1. Brend tan olinish – yuqori tan olinish ijobiy taassurot va bozor ulushini oshiradi.

[1] Muallif ishlanmasi

2. Iste’molchi sodiqligi – yaxshi mijoz aloqalari takroriy xarid va og‘zaki reklama orqali brendni kuchaytiradi.

3. Bozor pozitsiyasi – noyob qiymat va sifat brendga raqobat ustunligi beradi.

4. Moliyaviy natijalar – foyda va daromad qobiliyati brend qiymatini belgilaydi.

5. Sanoat tendensiyalari – iqtisodiy va sanoat o‘zgarishlariga moslashish brend qiymatini oshiradi.

1-jadval

Mashhur texnologiya kompaniyalarining brend qiymati va yillik o‘sish surati (2024-yil hisobida)[6]

Brend	Brend qiymati (mlrd $)	Yillik o‘sish (%)
Apple	**574,5**	+11%
Microsoft	**461,1**	+35%
Google	**413,0**	+24%
Amazon	**356,4**	+15%
Walmart	**137,2**	+42%

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, texnologiya gigantlari brend qiymatida yetakchilik qilmoqda. Apple brendi 574,5 mlrd AQSH dollarga baholanib, barqaror o‘sishni (+11%) namoyish etdi, bu kompaniyaning global bozordagi obro‘si va ishonchliligini ko‘rsatadi. Microsoft esa 461,1 mlrd AQSH dollarlik brend qiymati bilan 35% o‘sishga erishib, tezkor rivojlanayotgan texnologik loyihalar va xizmatlar orqali sezilarli o‘sish ko‘rsatdi. Google va Amazon mos ravishda 413 mlrd AQSH dollar (+24%) va 356,4 mlrd AQSH dollar (+15%) bilan innovatsion xizmatlar orqali kuchli pozitsiyasini saqlab qolmoqda. Qiziqarli jihati, Walmart 137,2 mlrd AQSH dollar bilan eng yuqori yillik o‘sish (+42%)ni qayd etdi, bu an’anaviy chakana savdoning raqamli transformatsiyasi samarasini bildiradi. Apple brend qiymatini strategik innovatsiyalar, ekotizimni diversifikatsiya qilish va yuqori darajadagi menejment orqali oshirmoqda. AI va premium xizmatlarga e’tibor, hamda brend sifatiga sazovor boshqaruv yondashuvi bu o‘sishni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Umuman olganda, texnologiya barqaror qiymatni, an’anaviy savdo esa tez o‘sishni namoyish etmoqda.

“Zaminturkiston” MCHJ kichik biznesdan tortib yirik tadbirkorlikka qadar uzoq yo‘lni bosib o‘tdi, Kompaniya birinchi bo‘lib tadbirkorlikni 1996 yilda tashkil qilingan. 2001 yilda "IDEAL" brendi rasmiy ravishda patentlangan, 2006 yilda esa “Zaminturkiston” MCHJ kompaniyasi tashkil etilgan. kichik biznesdan tortib yirik tadbirkorlikka qadar uzoq yo‘lni bosib o‘tdik, bu yo‘lda ko‘tarilish va pasayishlarni boshdan kechirdik. Tadqiqot ishida “Ideal” brendini bozor qiymatini aniqlashga maqsad qildik.

Brend qiymatini aniqlashda 4 ta asosiy yondashuv mavjud: bozor, daromad, xarajat va NPS (Net Promouter Score) yondashuvlari. Bularning barchasi narxlashning iqtisodiy tamoyillariga asoslanadi va yondashuv tanlovi baholash maqsadi va tabiati bo‘yicha farqlanadi .

Bozorga asoslangan brend bahosi (Market Approach). Bozorga asoslangan baholash brend qiymatini aniqlashda raqobatchilar, bozor ulushi va pozitsiyalarga tayangan usuldir. Korxonalar bozordagi boshqa brendlarni tahlil qilib, ularning

qiymatini o‘z brendi bilan solishtiradi. Bozor ulushi tahlili yordamida brendning kuchi va iste’molchilar orasidagi afzalligi aniqlanadi. Kattaroq bozor ulushi odatda yuqori brend qiymatini bildiradi, chunki bu kompaniya ko‘proq iste’molchilar tomonidan tan olinayotganini ko‘rsatadi. Ko‘p xalqaro metodlarda (masalan, Interbrand usulida) alohida koeffitsiyent olinadi. U odatda 0 dan 1 gacha yoki 0 dan 100 gacha ball bilan baholanadi. Baholash quyidagilar olinadi:

- Brend sodiqligi (Loyalty)
- Taniqlik (Awareness)
- Imij / obro‘ (Reputation)
- Innovatsionlik
- Xaridor bilan aloqa sifati

Bu ballar yig‘ilib, umumiy koeffitsiyent hosil qilinadi: [3]

$$\text{O‘rtacha koeffitsiyent}=\frac{k_1+k_2+\ldots\ldots\ldots+k_n}{n} \quad (1)$$

Bu yerda:
k-o‘xshash korxonalar koeffitsiyenti
n-korxonalar soni

$$\text{Brendning bozor qiymati} = Ys*Ok \quad (2)$$

Bu yerda:
Ys-yillik savdo hajmi
Ok-o‘rtacha koeffitsiyent

Misol uchun Namangandagi “Ideal” brendi (kostyum ishlab chiqaruvchi korxona) misolida koeffitsiyentni qanday aniqlaymiz. Korxona yilga 25 000 donadan ortiq kostyum sotadi.Mahsulotlar narxi 50 dollardan 300 dollarga bo‘lib har birining o‘rtacha narxi: 130 dollar.

Ys = 25 000 × 130 = 3 250 000 dollar (3,25 mln AQSH dollari).

Avval aytganimizdek, o‘rtacha koeffitsiyent bozor ulushi, brend tanilishi, mijozlar sadoqati kabi mezonlarga bog‘liq. Mahalliy darajada mashhur, milliy darajada o‘sib kelayotgan brend sifatida biz Ok = 0,6 – 0,8 oraliqni olishimiz mumkin.

Formulaga ko‘ramiz:

Agar o‘rtacha koeffitsiyent Ok0,6 = 3 250 000 × 0,6 = 1 950 000 dollar

Agar o‘rtacha koeffitsiyent $Ok_{0,8}$ = 3 250 000 × 0,8 = 2 600 000 dollar

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki Namangandagi “Ideal” brendining kostyum segmentidagi bozor qiymati 1,95 mln AQSH dollari – 2,6 mln AQSH dollari oralig‘ida baholanishi mumkin.

Daromadga asoslangan baholash – brenddan tushgan sof daromadga qarab qiymatni aniqlash. Bu brendning joriy qiymatini baholashning eng yaxshi usullaridan biridir. U to‘g‘ridan-to‘g‘ri savdo va marketingning turli xil oqimlari va kanallari orqali brend tomonidan yaratilgan daromadga qaraydi. Buni amalga oshirish uchun yaratilgan barcha daromadlarni ko‘rib chiqib, daromadning qancha miqdori brend orqali kelib tushganini tahlil qilish kerak.

“Ideal” brendi uchun r – diskont stavkasi va brend qiymatini qanday topishni amaliy misolda ko‘rinishi:

$$r_e = r_f + \beta * (R_m - r_f) \quad 3$$

r_f -risk-free stavka -12% (O‘zbekiston davlat obligatsiyalari daromadliligi)
β (beta) – brend yoki kompaniya risk darajasi-1.2
$(R_m - r_f)$ –bozor mukofoti-18%
$r_e = 0.12 + 1.2 * (0.18 — 0.12)$
$r_e = 0.12 + 1.2 * 0.06$
$r_e = 0.12 + 0.072 = 0.192 = 19.2\%$

$$\text{Brend qiymati} = \sum \frac{\text{brendga tegishli sof foyda}}{(1+r)^t} \quad [3] \quad (4)$$

Bu yerda:
r-foiz stavkasi
t-yil
“Ideal” brend qiymatini aniqlash uchun kompaniya ma’lumotlarini tahlil qilamiz.
1) Brendga tegishli sof foyda:
2022-yil:3 mln AQSH dolar
2022-yil: 3.4 mln AQSH dollar
2023-yil: 3.7 mln AQSH dollar
2024-yil: 4 mln AQSH dollar
2) Diskont stavkasi- 19.2% Hisoblash

1-yil uchun: $\frac{3}{(1+0.192)^1} = \frac{3}{1.192}$ =2.51 mln AQSH dollar

2-yil uchun: $\frac{3.4}{(1+0.192)^2} = \frac{3.4}{1.421}$ = 2.39 mln AQSH dollar

3-yil uchun: $\frac{3.7}{(1+0.192)^3} = \frac{3.7}{1.693}$ = 2.18 mln AQSH dollar

Brend qiymati= $\frac{4}{(1+0.192)^4} = \frac{4}{2.018}$ =1.98 mln AQSH dollar

Brend qiymati= 2.51+2.39+2.18+1.98=9.06 mln AQSH dollar

Xarajatga asoslangan baholash (Cost Based Approach). Korxonalar o‘z brendlarini yaratish uchun qancha xarajat ketganini hisoblash orqali o‘z qiymatlarini o‘lchashlari mumkin. Xarajat yondashuvini qo‘llashda aktivni yaratishdagi har bir komponentning xarajati, jumladan ishlab chiquvchining foydasi, savdo belgisi xarajatlari, xodimlar uchun ish haqi, marketing faoliyati va brendni yaratish bilan bog‘liq boshqa xarajatlarni o‘z ichiga oladi. Bu brendning umumiy narxini yoki "qiymatini" beradi. Ammo shuni ta’kidlash kerakki, bu brendning mijozlar uchun bo‘ladigan sifat qiymatini o‘z ichiga olmaydi.

Xarajat usuli bo‘yicha brend qiymatini aniqlashda brend yaratishdagi barcha xarajatlar orqali aniqlanadi. Masalan 2024 yil holatiga “Ideal” erkaklar klassik kiyimlari brendi qiymatini aniqlaymiz. Kompaniya brend qiymati 1996-yildan 2024 yilgacha quyidagi xarajatlarni amalga oshirdi:

- logo va brend rivojlanishi: 25000 AQSH dollar
- web-sayt yaratish: 10000 AQSH dollar
- marketing kampaniyasi: 300000 AQSH dollar
- kostyum shim ishlab chiqarish liniyasini ishlab chiqish: 200000 AQSH dollar

Umumiy xarajat: 25000+10000+30000+200000=265000 AQSH dollar

Xarajat usuli bo‘yicha “Ideal” erkaklar klassik kiyimlari brend qiymati taxminan 265000 dollar bo‘ladi. Bu kompaniya bugungi kundagi brend qiymatini anglatadi.

Net Promouter Score (NPS). NPS mashhur ko‘rsatkich bo‘lib, u bitta oddiy savolni berish orqali mijozlarning sodiqligini o‘lchaydi: "Bizning brendimizni do‘stingiz yoki hamkasbingizga tavsiya etishingiz ehtimoli qanchalik?" Keyin javoblar mijozlarni promouterlar, passivlar yoki qoralovchilar sifatida tasniflash uchun ishlatiladi. Yuqori NPS kuchli brend qiymatini ko‘rsatadi, chunki u ijobiy mijozlar tajribasi va yuqori darajada qoniqishni aks ettiradi. [4]

2-jadval

Kompaniyaning brend qiymatini aniqlashda so‘rovnoma natijasi[1]

№	Savol	Javob variantlari (0–10 ball)	Fikrlangan javoblar taqsimoti
1	Siz “Ideal” brendini do‘stingizga yoki hamkasbingizga tavsiya etasizmi?	0 (umuman emas) – 10 (albatta tavsiya qilaman)	60% — 9–10, 25% — 7–8, 15% — 0–6
2	“Ideal” mahsulotlarining sifatidan qanchalik mamnunsiz?	0 (umuman qoniqmadim) – 10 (juda mamnunman)	55% — 9–10, 30% — 7–8, 15% — 0–6
3	Siz “Ideal” brendidan yana xarid qilmoqchi bo‘lasizmi?	0 (umuman yo‘q) – 10 (albatta qilaman)	65% — 9–10, 20% — 7–8, 15% — 0–6
4	“Ideal” mahsulotlarining narx va sifat nisbatini qanday baholaysiz?	0 (juda past) – 10 (juda yuqori)	50% — 9–10, 35% — 7–8, 15% — 0–6
5	Brendning imiji va ishonchliligini qanday baholaysiz?	0 (ishonchsiz) – 10 (to‘liq ishonchli)	58% — 9–10, 27% — 7–8, 15% — 0–6

100 dan ortiq iste’molchilar orasida o‘tkazilgan NPS so‘rovi natijalariga ko‘ra, “Ideal” brendining iste’molchilar orasida yuqori bahoga ega ekanligi kuzatildi. 1-savol asosida hisoblangan NPS ko‘rsatkichi 45 bo‘lib, bu xalqaro amaliyotda yaxshi natija sifatida e’tirof etiladi. Natijalardan ko‘rinadiki, mijozlarning katta qismi (60%) brendni yaqinlariga tavsiya qilishga tayyor bo‘lgan sodiq iste’molchilardan iborat, bu esa brendning bozorda mustahkam mavqega ega ekanini ko‘rsatadi. Passivlar ulushi 25% ni tashkil etib, ularning ehtiyojlarini yanada chuqurroq o‘rganish va mahsulot taklifini diversifikatsiya qilish orqali promouterlar guruhiga o‘tkazish mumkin. Qoralovchilar 15% atrofida bo‘lib, bu ko‘rsatkich yuqori xavf tug‘dirmasa-da, mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini yanada yaxshilash va narx-sifat nisbatini optimallashtirish orqali kamaytirish zarur.

Umuman olganda, tahlil shuni ko‘rsatadiki, “Ideal” brendi bozor sharoitida barqaror o‘sishga ega bo‘lib, iste’molchilar ongida ishonchli va sifatli brend sifatida shakllanmoqda. Natijalar shuningdek, marketing strategiyalarini kuchaytirish orqali brend sodiqligini yanada oshirish mumkinligini anglatadi.

[1] Muallif ishlanmasi.

Brend qiymatini oshirish jarayoni murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib, uni samarali amalga oshirish uchun bir qator strategik yondashuvlardan foydalanish zarur. Avvalo, brend elementlarida izchillikni ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu iste’molchi ongida barqaror tasavvurni shakllantirib, brendni tanib olishni yengillashtiradi. Shuningdek, iste’molchilar bilan doimiy va ijobiy aloqada bo‘lish brendga nisbatan sodiqlikni oshirishga xizmat qiladi. Raqobatchilardan farqlovchi jihatlarni rivojlantirish esa brendni bozorda alohida mavqega ega qilish imkonini beradi. Bozor sharoitlaridagi o‘zgarishlarga moslashuvchanlikni oshirish ham brendning barqaror rivojlanishi uchun zarur omillardan biridir. Bunga qo‘shimcha ravishda, raqamli aktivlar va ijodiy vositalarni samarali boshqarish brendning zamonaviy talablarga mos ravishda o‘sishini va raqobatbardoshligini ta’minlaydi. Shu bois, ushbu yondashuvlarning uyg‘un qo‘llanishi brend qiymatini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, brend qiymati tadbirkorlik faoliyatida nafaqat moliyaviy barqarorlik va daromadlilikni, balki iste’molchilar ongida brendning mavqeyini mustahkamlashni ham ta’minlaydi. Brend qiymatini aniqlashda qo‘llangan metodologik yondashuvlar – bozorga asoslangan, daromadga asoslangan, xarajatga asoslangan va Net Promoter Score (NPS) usullari – turli burchaklardan baho berish imkonini yaratdi. Bozorga asoslangan baholash orqali brendning raqobatbardoshligi, bozor ulushi va tanilish darajasi aniqlansa, daromad yondashuvi yordamida sof foydani diskontlash orqali kelajakdagi qiymat hisoblab chiqildi. Xarajat yondashuvi brendni yaratish va rivojlantirishga ketgan sarmoyalarni ko‘rsatib berdi, NPS esa mijozlarning sodiqligi va brendga nisbatan hissiy munosabatini o‘lchash imkonini berdi.

Namangandagi “Ideal” brendi misolida olib borilgan hisob-kitoblar shuni ko‘rsatdiki, korxonaning brend qiymati bozorga asoslangan yondashuvda 1,95–2,6 mln dollar oralig‘ida, daromad yondashuvida esa 9,06 mln AQSH dollar atrofida baholanishi mumkin. Xarajat yondashuvi brendni yaratish va rivojlantirishga qilingan sarmoyalar hajmini ko‘rsatib, 245 ming dollar atrofida natija berdi. NPS ko‘rsatkichi esa 45 ga teng bo‘lib, bu iste’molchilarning brendga yuqori darajadagi ishonchi va sodiqligini tasdiqlaydi. Ushbu natijalar shuni anglatadiki, brend qiymatini baholashda faqat moliyaviy emas, balki nomoddiy va marketing jihatlarini ham hisobga olish muhimdir.

Umuman olganda, tadqiqot shuni tasdiqlaydiki, brend qiymati tadbirkorlikning raqobatbardoshligini belgilovchi strategik omil sifatida qaralishi lozim. Brendni rivojlantirish va uning qiymatini oshirish korxona uchun qo‘shimcha daromad manbai bo‘lib, uzoq muddatli barqaror rivojlanishga xizmat qiladi. Qilingan tahlillar asosida, brend qiymatini aniqlashda eng samarali usul sifatida daromadga asoslangan yondashuvni ajratib ko‘rsatish mumkin, chunki u brendning kelgusidagi sof foydasini real iqtisodiy qiymatga keltirish orqali korxonaning uzoq muddatli rivojlanish salohiyatini aniqroq aks ettiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 07-avgust PQ-286-sonli “Sanoat sohasida nufuzli xalqaro brendlar bilan hamkorlikni rivojlantirish va milliy brendlarni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori https://www.lex.uz/uz/docs/-7059241

2. Aaker, D. A. Managing Brand Equity. — New York: The Free Press, 1991. — 299 p. https://ideas.repec.org/a/eee/jbrese/v29y1994i3p247-248.html

3. Keller, K. L. Conceptualizing, Measuring, and Managing Customer-Based Brand Equity // Journal of Marketing. — 1993. — Vol. 57, No. 1. — P. 1–22. https://people.duke.edu/~moorman/Marketing-Strategy-Seminar2015/Session%203/Keller.pdf

4. Main Approaches of Calculating Brand https://alamisharia.co.id/en/blogs/business/brand-value/

5. Net Promoter score https://www.qualtrics.com/experience-management/customer/net-promoter-score/

6. Brand Finance Global 500 hisoboti https://brandfinance.com/insights/global-500-2024-report https://brandirectory.com/reports/global

7. US and China Continue to Dominate Brand Finance Global 500 Ranking https://brandfinance.com/press-releases/us-and-china-continue-to-dominate-brand-finance-global-500-ranking

XUSUSIY OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Gulmatov Bahodir Xabibullayevich
University of Business and Science (UBS)
tadqiqotchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada xususiy oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini boshqarishni takomillashtirish masalalari o'rganilgan. Xususan, Namangandagi *University of Business and Science (UBS)* faoliyati misolida ta'lim sifatining kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari va tahdidlari SWOT-tahlil asosida baholandi. Xalqaro tajribalar — TQM, EFQM Excellence Model tahlil qilinib, ularning milliy sharoitga tatbiq etish imkoniyatlari ko'rsatildi. Shuningdek, Prezident farmonlari, xorijiy va mahalliy olimlar tadqiqotlari asosida ta'lim sifatini boshqarishning metodologik asoslari ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, UBS universiteti misolida sifatni oshirishning innovatsion mexanizmlari ishlab chiqish bo'yicha taklif va tavsiyalar berildi.

Kalit so'zlar: Xususiy oliy ta'lim, ta'lim sifati, boshqaruv tizimi, UBS universiteti, SWOT-tahlil, xalqaro standartlar, TQM, EFQM.

Аннотация

В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования управления качеством образования в негосударственных высших учебных заведениях. На примере деятельности *University of Business and Science (UBS)* в Намангане проведён SWOT-анализ сильных и слабых сторон, возможностей и угроз в обеспечении качества образования. Изучены международные подходы — TQM, EFQM Excellence Model и ISO 21001:2018, а также показаны возможности их адаптации к национальным условиям. Кроме того, на основе указов Президента, исследований зарубежных и отечественных учёных разработаны методологические основы управления качеством образования. По результатам исследования даны предложения и рекомендации по созданию инновационных механизмов повышения качества образования в частных университетах.

Ключевые слова: Частное высшее образование, качество образования, система управления, университет UBS, SWOT-анализ, международные стандарты, TQM, EFQM.

Abstract

This article examines the issues of improving the management of education quality in private higher education institutions. Using the example of the *University of Business and Science (UBS)* in Namangan, a SWOT analysis was conducted to assess the strengths, weaknesses, opportunities, and threats in ensuring educational quality. International approaches — TQM, EFQM Excellence Model, and ISO 21001:2018 — were analyzed, highlighting their applicability to the national context. In addition, based on presidential decrees, as well as the research of foreign and local scholars, methodological foundations for quality management in education were developed. The

study provides practical recommendations for introducing innovative mechanisms to enhance education quality in private universities.

Keywords: Private higher education, quality of education, management system, UBS University, SWOT analysis, international standards, TQM, EFQM.

KIRISH

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonning asosiy maqsadi ta’lim sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish, yoshlarning bilim va ko‘nikmalarini zamonaviy talablar darajasiga ko‘tarishdan iboratdir. Davlat oliy ta’lim muassasalari bilan bir qatorda xususiy oliy ta’lim muassasalari ham faoliyat yuritib, ular ta’lim tizimida raqobat muhitini shakllantirishda muhim rol o‘ynamoqda. Shu bois xususiy oliy ta’lim muassasalarida sifatni boshqarish tizimini samarali tashkil etish va uni doimiy takomillashtirib borish dolzarb masalalardan biridir.

Ta’lim sifati tushunchasi keng qamrovli bo‘lib, u nafaqat o‘quv dasturlarining mazmuni va o‘qituvchilar salohiyatini, balki talabalar bilimini baholash, infratuzilma, ta’lim jarayonida qo‘llanilayotgan pedagogik texnologiyalar, ilmiy faoliyat darajasi va bitiruvchilarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini ham o‘z ichiga oladi [1]. Shu nuqtayi nazardan, xususiy oliy ta’lim muassasalarida sifatni boshqarish mexanizmlarini yaratish va rivojlantirish ta’lim tizimining barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tashabbusi bilan oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ta’lim sifatini oshirish va uni xalqaro standartlarga moslashtirish bo‘yicha qator muhim farmon va qarorlar qabul qilindi. Jumladan, Prezidentining 08.10.2019 yildagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonida oliy ta’lim qamrovini bosqichma-bosqich oshirish, xususiy sektorni keng jalb etish va ta’lim sifatini samarali boshqarish mexanizmlarini shakllantirish masalalari alohida ko‘rsatib o‘tilgan [2]. Bunda ta’lim jarayonida sifat monitoringi tizimini yaratish, talabalar bilimini baholashning zamonaviy usullarini joriy etish va xususiy oliy ta’lim muassasalari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash muhim o‘rin tutadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro tajribada ta’lim sifatini boshqarishda bir qator yondashuvlar mavjud. Deming va Juran kabi sifat menejmenti nazariyachilari esa ta’limda “Total Quality Management (TQM)” tamoyillarini joriy qilish orqali uzluksiz takomillashuvni ta’minlash mumkinligini ilmiy jihatdan asoslab bergan [3]. Shuningdek, Yevropa Ittifoqida keng qo‘llanilayotgan “EFQM Excellence Model” ta’lim muassasalarida samarali boshqaruvni yo‘lga qo‘yish, talabalar ehtiyojlariga moslashuvchan tizim yaratish va natijaviylikni oshirishda keng qo‘llanmoqda [4].

Xalqaro tadqiqotlarda UNESCO va OECD ekspertlari ham ta’lim sifatini baholash mezonlari, akkreditatsiya jarayonlari va xalqaro reytinglarning ahamiyati haqida ilmiy ishlanmalar olib borganlar. Ularning xulosalariga ko‘ra, ta’lim sifatini

samarali boshqarish uchun davlat siyosati, muassasalarning ichki nazorati va mustaqil baholash tizimi uyg‘unlashgan holda ishlashi lozim [5].

Mahalliy olimlardan A. Abduqodirov, B. Khodjayev va S. Nishonovlar O‘zbekistonda oliy ta’lim sifatini oshirish yo‘llarini o‘rganib, ta’limni boshqarishda innovatsion yondashuvlar, pedagogik texnologiyalar va raqamli boshqaruv vositalarini joriy qilish zarurligini ta’kidlaydilar [6]. Shuningdek, ularning xalqaro ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalarida O‘zbekiston ta’lim tizimini xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirish, talabalar bilimini baholashda kredit-modul tizimidan samarali foydalanish va sifat kafolatlashning zamonaviy mexanizmlarini tatbiq etish masalalari yoritilgan [7].

O‘zbekistonlik olimlar xalqaro tadqiqotlarda ham faol ishtirok etishmoqda. Masalan, “QS World University Rankings” va “Times Higher Education” reytinglariga tayyorlangan ilmiy hisobotlarda respublikadagi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini o‘rganishda mahalliy tadqiqotchilar ma’lumotlari asos qilib olingan [8]. Bu esa O‘zbekiston olimlarining ilmiy ishlari xalqaro miqyosda e’tirof etilayotganidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy va mahalliy tadqiqotlarning umumiy mazmuni shuni ko‘rsatadiki, xususiy oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini boshqarishni takomillashtirish uchun xalqaro tajribani chuqur o‘rganish, milliy modelni ishlab chiqish va ichki sifat monitoringi tizimini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

METODOLOGIYA

Ushbu maqolada nazariy, empirik, aralash usullar, statistik ma’lumotlar, Prezident farmonlari, xalqaro tashkilotlar hisobotlari, UBS universiteti faoliyati haqidagi rasmiy manbalari. SWOT-tahlil, qiyosiy tahlil usullari qo`llanilgan.

Xususiy oliy ta’lim muassasalarida sifatni baholashda quyidagi asosiy ko‘rsatkichlar qo‘llaniladi:

- o‘quv dasturlari va ularning zamonaviyligi;
- professor-o‘qituvchilar tarkibining malakasi va ilmiy salohiyati;
- talabalar bilimini nazorat qilish va reyting tizimlari;
- moddiy-texnik baza va raqamli infratuzilma;
- ilmiy tadqiqotlar va xalqaro hamkorlik darajasi;
- bitiruvchilarning bandlik darajasi va ish beruvchilar tomonidan e’tirof etilishi.

Ushbu ko‘rsatkichlarni aniqlashda so‘rovnomalar, intervyular, benchmarking, SWOT-tahlil va boshqa usullardan foydalanish mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan xususiy oliy ta’lim muassasalari ta’lim sifatini boshqarishda qator yutuqlarga erishmoqda. Jumladan, ko‘plab muassasalarda xorijiy professor-o‘qituvchilarni jalb qilish, zamonaviy o‘quv dasturlarini tatbiq etish, raqamli platformalar orqali ta’lim jarayonini boshqarish yo‘lga qo‘yilgan. Biroq mavjud tizimni takomillashtirish uchun bir qator muammolar mavjud. Ularga quyidagilar kiradi:

1. Ta’lim dasturlarining xalqaro me’yorlarga to‘liq mos kelmasligi.

2. Ichki sifat monitoringi tizimlarining yetarli darajada shakllanmaganligi.
3. Talabalar va bitiruvchilar fikrlarini hisobga olish tizimining sustligi.
4. Akkreditatsiya va reyting tizimlarida ishtirok etish ko‘lamining cheklanganligi.

Bu muammolarni bartaraf etish uchun xususiy oliy ta’lim muassasalari quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishlari lozim:

- Ichki sifat kengashlari tashkil etish va muntazam ravishda sifat auditi o‘tkazish.
- Talabalar va ish beruvchilar fikrini tizimli o‘rganish asosida o‘quv dasturlarini yangilab borish.
- Raqamli boshqaruv vositalarini keng joriy etish va sun’iy intellekt asosida sifat monitoringi tizimlarini ishlab chiqish.
- Xalqaro akkreditatsiya markazlari bilan hamkorlikni kuchaytirish hamda ISO 21001:2018 standartini tatbiq etish.

Namangan shahrida joylashgan University of Business and Science “UBS” 2022-yil 5-oktyabrda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan litsenziyalangan nodavlat oliy ta’lim muassasasidir. Bugungi kunda universitetda 49 ta bakalavriat, 14 ta magistratura, va 5 ta doktorantura yo‘nalishlari mavjud, ular mamlakat talablariga mos tarzda tashkil etilgan. Talabalar soni taxminan bugungi kunga kelib 25 mingdan ortiq, professor-o‘qituvchilar (shuningdek doktorantlar) soni ham ancha yuqori — shu jumladan 30 nafardan ortiq doktorantlar faoliyat yuritadi. Universitet Toshkent va Namangan viloyatlarida jami 5 ta zamonaviy kampusga ega bo‘lib, talabalar uchun qulay yotoqxona, kompyuter xonalari, kutubxona va tadbirlar zali mavjud [9].

UBS ta’lim sifatini ta’minlashda bir qancha tizimli chora-tadbirlarni joriy qilmoqda:

Grantlar va stipendiyalar tizimi: Har semestrda o‘qishdagi yuqori natijalarni ko‘rsatgan talabalar uchun grantlar ajratiladi; bugungi kunda 1000 dan ortiq talaba ushbu imkoniyatdan foydalanadi.

Ijtimoiy imtiyozlar: IELTS, CEFR, Milliy til sertifikatiga ega bo‘lgan abituriyentlar uchun kontrakt to‘lovida chegirmalar beriladi. “Friyends” va “Family” dasturlari orqali birga o‘qiydigan talabalar, opa-singil, aka-uka yoki turmush o‘rtog‘i bo‘lganlar uchun 10% chegirmalar mavjud [10].

UBS universiteti xalqaro hamkorlikni keng yo‘lga qo‘ygan. Jumladan:

AQSh, Janubiy Koreya, Germaniya, Turkiya, Rossiya, Malayziya, Qozog‘iston kabi davlatlardagi yetakchi oliygohlar bilan 3+1 va 4+0 qo‘shma dasturlar amalga oshirilmoqda. Misol tariqasida Illinois Institute of Technology, Sejong, Dongshin va Kyungdong universitetlari bilan hamkorliklar bor

UBS’da ta’lim sifati bir necha omil orqali ta’minlanmoqda:

- Zamonaviy moddiy-texnik baza va infratuzilma, ilg‘or o‘quv binalari bilan ta’minlangan kampuslar
- Grant va chegirmalar orqali iqtidorli talabalarni rag‘batlantirish
- Xalqaro hamkorliklar orqali o‘qituvchilar va talabalar mobilitetini ta’minlash
- Diplomi davlat oliygohlaridan farq qilmay, yuridik jihatdan teng ahamiyatga ega [11].

1-jadval

UBS Universiteti ta`lim sifati SWOT-tahlili [12]

S – Kuchli tomonlari (Strengths) • **Keng yo‘nalishlar tanlovi**: 49 ta bakalavriat, 14 ta magistratura va 5 ta doktorantura dasturlari mavjud bo‘lib, ta’lim oluvchilar uchun katta imkoniyat yaratadi. • **Xalqaro hamkorlik**: AQSh, Janubiy Koreya, Germaniya, Turkiya kabi davlatlardagi universitetlar bilan qo‘shma dasturlar (3+1, 4+0) joriy qilingan. • **Moddiy-texnik baza**: 5 ta zamonaviy kampus, raqamli kutubxonalar, kompyuter xonalari, sport va madaniy infratuzilma mavjud. • **Grant va stipendiya tizimi**: talabalarni rag‘batlantirish uchun muntazam grantlar, chegirmalar, “Family” va “Friends” dasturlari mavjud. • **Talabalar soni**: 25 mingdan ortiq talaba tahsil olayotgani uni yirik xususiy OTMlardan biriga aylantiradi.	**W – Zaif tomonlari (Weaknesses)** • **Ilmiy faoliyatning cheklanganligi**: xalqaro ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar soni hali yetarli darajada emas. • **Ichki sifat monitoringi tizimi**: mavjud bo‘lsa-da, uni xalqaro standartlarga (ISO 21001, EFQM) to‘liq uyg‘unlashtirish zarur. • **Professor-o‘qituvchilar tarkibi**: xorijiy o‘qituvchilar jalb qilinayotganiga qaramay, mahalliy ilmiy salohiyatni oshirish va muntazam malaka oshirish tizimini kuchaytirish kerak. • **Pedagogik innovatsiyalar**: ayrim yo‘nalishlarda dars metodologiyalari an’anaviy shaklda qolmoqda.
O – Imkoniyatlar (Opportunities) • **Xalqaro akkreditatsiya olish**: universitet ta’lim dasturlarini xalqaro standartlar asosida akkreditatsiyadan o‘tkazishi orqali raqobatbardoshligini oshirishi mumkin. • **Raqamli ta’lim platformalari**: sun’iy intellekt, AR/VR texnologiyalarini joriy etish orqali ta’lim sifatini oshirish imkoniyati mavjud. • **Ilmiy loyihalarda ishtirok**: xalqaro grantlar va loyihalarda faol qatnashish orqali ilmiy salohiyatni rivojlantirish. • **Mahalliy va xalqaro reytinglarda ishtirok**: UBS’ni QS va Times Higher Education reytinglariga kiritish orqali imidjini ko‘tarish. • **Regional markaz sifatida rivojlanish**: Namanganda joylashgani sababli Farg‘ona vodiysi uchun ta’lim, ilm-fan va biznes markaziga aylanish imkoniyati bor.	**T – Tahdidlar (Threats)** • **Raqobatning kuchayishi**: Toshkent va boshqa viloyatlardagi yirik davlat hamda xususiy OTMlar bilan raqobat. • **Mehnat bozoridagi talablar**: ta’lim dasturlari zamon talablariga mos bo‘lmasa, bitiruvchilarning bandligi past bo‘lishi mumkin. • **Moliyaviy barqarorlik xavfi**: kontrakt asosida ishlovchi nodavlat universitet sifatida iqtisodiy tebranishlar ta’sirida barqarorlik muammolari yuzaga kelishi ehtimoli bor. • **Xalqaro hamkorlikdagi qiyinchiliklar**: geosiyosiy vaziyat yoki tashqi siyosiy omillar hamkorlik loyihalariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Namangandagi University of Business and Science (UBS) o‘zining keng ta’lim yo‘nalishlari, xalqaro hamkorlik dasturlari va zamonaviy infratuzilmasi orqali xususiy oliy ta’lim tizimida muhim o‘rin egallamoqda. Biroq, ta’lim sifatini yanada oshirish uchun ichki sifat monitoringi tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish, ilmiy-

tadqiqot faoliyatini kuchaytirish va professor-o‘qituvchilarning malakasini muntazam oshirish zarur. Shuningdek, xalqaro akkreditatsiya tizimiga faol qo‘shilish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng tatbiq etish, raqamli ta’lim platformalarini rivojlantirish orqali UBS ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishi mumkin. Universitetning asosiy vazifasi nafaqat sifatli kadrlar tayyorlash, balki mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassislar yetishtirishdir. Shu bois, UBS o‘z imkoniyatlaridan oqilona foydalansa, u nafaqat Farg‘ona vodiysida, balki respublika miqyosida ham etakchi xususiy oliy ta’lim muassasalaridan biriga aylanishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xususiy oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini boshqarish tizimi zamon talablariga mos ravishda takomillashtirib borilishi lozim. Bunda xalqaro tajribadan o‘rganish, zamonaviy boshqaruv modellarini joriy etish, raqamli texnologiyalarni keng qo‘llash va ichki sifat monitoringini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ta’lim sifatini boshqarishda talabalar va ish beruvchilar fikrini integratsiyalash, xalqaro akkreditatsiya jarayonida faol ishtirok etish xususiy oliy ta’lim muassasalarining raqobatbardoshligini ta’minlaydi.

Xususiy oliy ta’lim muassasalarida sifatni boshqarishni takomillashtirish bo‘yicha quyidagi takliflarni keltirish mumkin:

1. Har bir muassasada sifatni ta’minlash bo‘yicha ichki reyting tizimini joriy qilish.
2. Pedagogik innovatsiyalar markazlarini tashkil etib, o‘qituvchilar malakasini doimiy oshirib borish.
3. Talabalar bilimini baholashda xalqaro standartlashtirilgan test tizimlaridan foydalanish.
4. Ilmiy faoliyat samaradorligini oshirish uchun grantlar va xalqaro loyihalarda faol ishtirok etish.
5. Bitiruvchilar monitoringini yo‘lga qo‘yib, ularning bandlik darajasini tahlil qilish orqali ta’lim dasturlarini takomillashtirish.

Har bir hususiy oliy ta`lim muassalarda ushbu yo`nalishlarini joriy qilish sifat oshishga ko`maklashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. UNESCO. Education 2030 Framework for Action. Paris, 2015.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-yanvar PF–5618-son Farmoni. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi va 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” https://lex.uz/docs/-4149765
3. Deming W.E. Out of the Crisis. MIT Press, 1986.
4. EFQM. EFQM Excellence Model. Brussels, 2020.
5. OECD. Education at a Glance 2022: OECD Indicators. Paris: OECD Publishing, 2022.
6. Abduqodirov A. Oliy ta’limda sifatni boshqarish muammolari va yechimlari. Toshkent: Fan, 2019.

7. Khodjayev B., Nishonov S. Innovative Approaches in Higher Education Quality Assurance: The Case of Uzbekistan. International Journal of Higher Education, 2021.

8. QS Quacquarelli Symonds. QS World University Rankings Report 2022. London, 2022.

9. University of Business and Science “UBS” ma`lumotlari.

10. https://kun.uz/news/2025/08/13/ubs-universiteti-ozbekistonda-xalqaro-talimni-rivojlantirishda-yangi-bosqich?

11. https://ubsu.uz/uz

12. Muallif tadqiqoti natijalari.

KORXONALAR BREND QIYMATINI ANIQLASHNING ILMIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Maxmudov Tohirjon Olimjonovich
Namangan davlat texnika universiteti
“Marketing” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya

Maqolada korxonalarning brend qiymatini aniqlash masalasi ilmiy-metodologik nuqtai nazardan yoritilgan. Tadqiqotda Namangan viloyatidagi 30 ta korxona misolida so‘rovnoma va ko‘p omilli regressiya tahlili qo‘llanilib, brend sadoqati, tanilish darajasi, reklama xarajatlari va mahsulot sifati omillari asosiy determinantlar sifatida aniqlangan. Natijalar brend sadoqati va tanilish darajasining brend qiymatini belgilashda eng muhim omillar ekanini ko‘rsatdi. Maqolada ishlab chiqilgan metodologiya korxonalarga marketing strategiyasini takomillashtirish, innovatsiyalarni rejalashtirish va bozorga chiqish qarorlarini asoslashda amaliy yordam beradi.

Kalit so‘zlar: Brend qiymati, iste’molchi sadoqati, brend tanilishi, reklama xarajatlari, mahsulot sifati, regressiya tahlili, marketing strategiyasi.

Аннотация

В статье рассмотрена проблема оценки стоимости бренда предприятий с научно-методологической точки зрения. В исследовании на примере 30 компаний Наманганской области использованы анкетирование и многофакторный регрессионный анализ, в результате чего выявлены основные детерминанты — лояльность к бренду, уровень узнаваемости, рекламные расходы и качество продукции. Результаты показали, что лояльность и узнаваемость бренда являются ключевыми факторами при определении его стоимости. Разработанная методология оказывает практическую помощь компаниям в совершенствовании маркетинговых стратегий, планировании инноваций и обосновании решений по выходу на рынок.

Ключевые слова: Стоимость бренда, лояльность, узнаваемость бренда, рекламные расходы, качество продукции, регрессионный анализ, маркетинговая стратегия

Abstract

The article examines the issue of brand valuation in enterprises from a scientific and methodological perspective. Based on a study of 30 firms in the Namangan region, surveys and multiple regression analysis were applied, identifying brand loyalty, brand awareness, advertising expenditure, and product quality as key determinants. The results showed that loyalty and awareness are the most important factors in determining brand value. The proposed methodology provides practical guidance for companies to improve marketing strategies, plan innovations, and justify market entry decisions.

Keywords: Brand value, brand loyalty, brand awareness, advertising expenditure, product quality, regression analysis, marketing strategy.

KIRISH

Korxonalar bozorda barqaror o‘sishga erishish, raqobatchilar orasida o‘z o‘rnini mustahkamlash va iste’molchilar ongida ijobiy imij yaratish uchun brend siyosatini izchil olib borishlari zarur. Shu jarayonda brend qiymatini aniqlash nafaqat marketing strategiyasini shakllantirishda, balki kompaniyaning umumiy moliyaviy salohiyati va bozordagi investitsion jozibadorligini baholashda ham muhim mezon bo‘lib xizmat qiladi. Brend qiymatini hisoblash korxonaga o‘z mahsulot yoki xizmatlarining qadrini aniqlash, mijozlar sadoqatini tahlil qilish va marketing resurslarini samarali taqsimlash imkonini beradi. Bundan tashqari, brend qiymatini to‘g‘ri baholash natijasida kompaniyalar innovatsion qarorlar qabul qilish, yangi bozorlarga chiqish va strategik rivojlanishni rejalashtirishda aniq ma’lumotlarga tayana oladilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan so‘nggi yillarda qabul qilingan farmon va qarorlar milliy iqtisodiyotning barcha sohalarida, xususan, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirishda muhim rol o‘ynadi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini” amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturida raqobatbardosh korxonalarni shakllantirish va ularning ichki hamda tashqi bozorlardagi pozitsiyasini mustahkamlashga alohida e’tibor qaratilgan. [1] Bundan tashqari mamlakatda olib borilayotgan islohotlar natijasida mahalliy mahsulotlarning eksport salohiyatini oshirish, ularning brend qiymatini belgilash va xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar belgilab berildi.

Mazkur qarorlar asosida korxonalarning bozor iqtisodiyoti sharoitida samarali harakat qilishlari, o‘z mahsulot va xizmatlarining raqobatbardoshligini oshirishlari uchun ularning brend qiymatini to‘g‘ri aniqlash va strategik qarorlar qabul qilishda undan foydalanish zaruriyati ortmoqda. Shu nuqtai nazardan, brend qiymatini hisoblashning ilmiy asoslangan metodologiyasini ishlab chiqish korxonalar uchun ustuvor vazifaga aylanmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Brend qiymatini aniqlash masalasi bo‘yicha ko‘plab olimlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan turli yondashuvlar ishlab chiqilgan. Marketolog olimlarda Kotler va Keller o‘zlarining “Marketing Management” asarida brend qiymatini iste’molchilarning ongidagi imij va ularning sadoqati orqali o‘lchash mumkinligini ta’kidlaydilar [2]. Yoo va Donthu esa brend sadoqati, brend tanilishi, brend sifati va brend assotsiatsiyalarining yig‘indisi sifatida brend qiymatini ifodalovchi modelni ishlab chiqqanlar [3]. Aaker brend qiymatini aniqlashda to‘rt asosiy komponent: brend sadoqati, brend tanilishi, qabul qilingan sifat va brend assotsiatsiyalari orqali o‘lchashni taklif qiladi [4].

Kompaniyalar brend qiymatini aniqlash orqali o‘zlarining marketing strategiyasini aniqlaydi, investitsiya jalb qiladi va foydalanuvchilarda ishonch uyg‘otadi. Milliy olimlardan Sh.S. Qodirov, A.N. Jo‘raev va R.R. Nuriddinovlar brend qiymati va raqobatbardoshlik o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ochib berishgan [5].

METODOLOGIYA

Mazkur maqolada tadqiqot metodologiyasi sifatida quyidagi bosqichlar qo‘llanildi ya’ni mavjud adabiyotlar, qonunchilik hujjatlari va ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish orqali asosiy yondashuvlar tahlil qilindi. Ekspert baholash usuli orqali O‘zbekiston bozorida faoliyat yuritayotgan 30 ta korxona rahbarlari va marketing mutaxassislari orasida so‘rovnoma o‘tkazildi va ko‘p omilli regressiya tahlili o‘tkazildi.

Tadqiqotda asosiy o‘zgaruvchilar sifatida quyidagilar olindi:

- Brend sadoqati darajasi (miqdoriy ko‘rsatkich);
- Brendga bo‘lgan ishonch;
- Brend bilan bog‘liq assotsiatsiyalar (sifatli tahlil);
- Marketing xarajatlari hajmi;
- Brendning moliyaviy daromadlarga ta’siri.

Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari brendini qiymatini aniqlash kompleks marketing tadqiqotlari amalga oshirildi. Korxonalar brend qiymatini aniqlashda marketing tadqiqoti o‘tkazishdan maqsad, ushbu korxona bozorni rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash, strategik vazifalar belgilashdan iborat.

Marketing tadqiqotini amalga oshirishda axborotlarni to‘plash usullari hisoblangan ijtimoiy so‘rovnoma, savol-javob va kuzatuv usullaridan keng qo‘llaniladi. Ijtimoiy so‘rovnomada eng ko‘p tarqalgan tadqiqot vositasi anketa so‘rovnoma usulidir. Marketing tadqiqotlarida axborotlarni yig‘ishning samarali va eng ko‘p tarqalgan vositasi sifatida anketa so‘rovnoma usulidan keng foydalaniladi.

So‘rovnomani tayyorlashda Laykert shkalasi (Rensis Likert tomonidan ishlab chiqilgan) [6] o‘lchov birligi ishlatildi. Laykert o‘lchovining chegaraviy nuqtalari “juda yuqori” dan “yo‘q” bo‘lib, so‘rov ishtirokchilaridan beshta javob variantidan birini tanlashlari so‘raladi, masalan: 1=Umuman rozi emasman, 2=Kamroq roziman, 3=Qisman roziman, 4=Asosan roziman, 5=To‘liq roziman tartibida keltirildi.

O‘tkazilgan tadqiqotda korxonada faoliyat yuritayotgan marketologlarning bo‘lgan fikr va mulohazalarini o‘rganuvchi anketali so‘rovnomaning birinchi qismida brend qiymatini belgilashda iste’molchilar brendga bo‘lgan munosabatlari o‘rganildi. So‘rovnomaning ikkinchi qismida iste’molchilarni maishiy xizmatlarga bo‘lgan munosabatlarini aniqlash uchun 5 tadan javob variantli 5 ta savollar orqali ushbu ma’lumotlar so‘ralgan: iste’molchilarning kompaniya brendi sadoqatini ekspert fikri, korxona brend tanilishi, reklama xarajatlari, mahsulot sifat daromadi kabilar o‘rganildi.

Brend qiymatini aniqlashda regressiya tenglamasini tuzish va hisoblash — bu ilmiy asoslangan, statistik yondashuv bo‘lib, quyidagi sabablarga ko‘ra zarur va muhim hisoblanadi. Har bir korxonada brend qiymatiga turli omillar (masalan: mijoz sadoqati, reklama xarajatlari, brend tan olinish darajasi, mahsulot sifati, xizmat ko‘rsatish darajasi va boshqalar) turlicha ta’sir qiladi. Regressiya tahlili ushbu omillarning qaysi biri kuchliroq ta’sirga ega ekanini aniqlash imkonini beradi.

$$Y = \beta_0 + \beta_1 X_1 + \beta_2 X_2 + \cdots + \beta_n X_n + \varepsilon$$

Bu yerda:

Y –asosiy bog‘liq o‘zgaruvchi
X_1- X_n – omillar
β_1-β_n –ta’sir koeffitsiyenti,
ε – xatolik hadidir.

Korxona brend qiymatini aniqlashga ta’sir qiluvchi omillar bo‘yicha so‘rovnoma uchun jadval tuzdik. (1-2-3-4-5-jadvallar)

Iste’molchilar sadoqati brendga bo‘lgan ishonch darajasini aniqlashda muhim mezon hisoblanadi. Bu korxonaning bozordagi barqaror o‘sishi va raqobatchilar orasida ajralib turishiga xizmat qiladi. Sadoqatli mijozlar takroriy xaridlarni amalga oshirib, korxonaga doimiy daromad keltiradi. Brendga sodiq iste’molchilar ijobiy og‘zaki reklama orqali yangi mijozlarni jalb qiladi. Ushbu sadoqatni aniqlash korxonaning marketing strategiyasini takomillashtirish imkonini beradi.

1-jadval

Korxona brendiga iste’molchilar sadoqati[1]

№	Savol	Ball (1–5)
1	Mijozlarimiz doimiy ravishda bizning mahsulotimizni tanlaydi	
2	Mijozlar brendimizni boshqalar bilan solishtirmay tanlaydi	
3	Brendimizga nisbatan mijozlar o‘z sadoqatini bildirgan	
4	Mijozlar yangi mahsulotlarimizni brendga ishonib xarid qiladi	

Brend qiymatini aniqlashda korxonaning brend tanilishi darajasi muhim rol o‘ynaydi. Yuqori tanilish darajasi iste’molchilarning mahsulot yoki xizmatni raqobatchilar orasida tezda ajratib olishiga yordam beradi. Bu holat brendning bozordagi mavqeyini kuchaytiradi va uning moliyaviy qiymatini oshiradi. Tanilish darajasi orqali mijozlar ongida brendga nisbatan ijobiy assotsiatsiyalar shakllanadi. Shuning uchun, brend tanilishining muntazam o‘lchab borilishi korxona qiymatini baholashda asosiy omillardan biri hisoblanadi.

2-jadval

Korxona brend tanilishi[2]

№	Savol	Ball (1–5)
1	Brendimiz bozorning asosiy segmentida yaxshi tanilgan	
2	Mijozlar reklama yoki logotip orqali brendni tezda tanib oladi	
3	Brend nomi raqobatchilardan ajralib turadi	
4	Brend haqida og‘zaki reklama (rekomendatsiya) keng tarqalgan	

Brend qiymatini aniqlashda korxonaning reklama xarajatlari muhim ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Reklama uchun sarflangan mablag‘lar brendning tanilishiga, mijozlar ongida mustahkam o‘rin egallashiga xizmat qiladi. Yuqori reklama investitsiyalari ko‘pincha brend obro‘sini oshiradi va iste’molchilar sadoqatini kuchaytiradi [7]. Reklama xarajatlari orqali brendga bo‘lgan talabni yaratish va raqobatbardoshlikni ta’minlash mumkin bo‘ladi. Shu sababli, brend qiymatini baholashda reklama xarajatlarining hajmi va samaradorligi alohida e’tiborga olinadi.

[1] Muallif ishlanmasi
[2] Muallif ishlanmasi

3-jadval

Korxona reklama xarajatlari[1]

№	Savol	Ball (1–5)
1	Kompaniyamiz muntazam reklama kampaniyalarini o‘tkazadi	
2	Reklama uchun ajratilgan byudjet brendimizni kuchaytirishda yetarli	
3	Reklama vositalari (TV, internet, banner) brendimizni tanitishda samarali	
4	Reklama xarajatlari sotuv ko‘rsatkichlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi	

Brend qiymatini aniqlashda mahsulot sifati asosiy omillardan biri hisoblanadi. Yuqori sifatli mahsulot iste’molchilarda ishonch uyg‘otadi va brendga sadoqatni kuchaytiradi. Sifatli mahsulotlar orqali korxona bozorda ijobiy imijga ega bo‘lib, bu brend qiymatini oshiradi. Mahsulot sifati iste’molchilarning qayta xarid qilish ehtimolini orttiradi va brendning uzoq muddatli muvaffaqiyatini ta’minlaydi. Shu bois, brend qiymatini baholashda mahsulot sifati doimo e’tiborga olinadi.

4-jadval

Korxona mahsulot sifati[2]

№	Savol	Ball (1–5)
1	Mahsulotimiz sifati doimiy yuqori darajada	
2	Mijozlar mahsulot sifati bo‘yicha ijobiy fikr bildiradi	
3	Brendimiz mahsulot sifati bilan ajralib turadi	
4	Sifatni nazorat qilish tizimi ishlab chiqilgan va samarali	

5-jadval

Korxonani brendini yakuniy baholash[3]

№	Savol	Ball (1–5)
1	Korxonamiz brendi raqobatchilarga nisbatan yuqori qiymatga ega	
2	Brendimiz kompaniya obro‘-e’tiboriga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda	
3	Brend qiymatini yanada oshirish strategiyasi mavjud	

Korxonalar brend qiymatini aniqlash uchun ta’sir qiluvchi omillarning farqli jihatlarini aniqlashda regressiya tahlil o‘tkazish uchun to‘plangan so‘rovnomaga asosan 30 ta korxona ma’lumotlari tanlab olindi. Regressiya natijasi asosida kompaniyalar qaysi omillarga ko‘proq e’tibor qaratishi kerakligi haqida asosli qarorlar qabul qilishi mumkin. Masalan, agar mijoz sadoqati brend qiymatiga 40% ta’sir qilayotgan bo‘lsa, korxona bu yo‘nalishga ko‘proq resurs ajratadi. brend qiymatining kelajakdagi holatini oldindan prognoz qilish mumkin. Bu esa strategik rejalashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Respondentlardan 10 tasi to‘qimachilik, 15 tasi tikuvchilik, 5 tasi trikotaj korxonalar tashkil etdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, brend qiymatining eng asosiy omillari sifatida iste’molchilarning sadoqati, brendga nisbatan ishonch va kompaniya

[1] Muallif ishlanmasi
[2] Muallif ishlanmasi
[3] Muallif ishlanmasi

tomonidan olib borilgan reklama faoliyati namoyon bo‘lmoqda. So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, ishtirokchilarning 68 foizi brend tanilishi yuqori bo‘lgan mahsulotlarga nisbatan ko‘proq ishonch bildirganini ma’lum qilishdi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, eng kuchli ta’sirga ega bo‘lgan omillar – bu iste’molchilarning sadoqati (X_3) va brend tan olinish darajasi (X_1) bo‘lib, ular brend qiymatini oshirishda eng muhim omillar hisoblanadi. Regressiya modelining R^2 koeffitsiyenti 0.78 ga teng bo‘lib, bu model brend qiymatining 78% qismini tushuntirishga qodir ekanini anglatadi.

Ko‘p omilli regressiya tahlili asosida quyidagi model tuzildi:

$$BQ = 0.31*BS + 0.25*BT + 0.18R*K + 0.21*MS + \varepsilon$$

Bu yerda:
BQ – Brend qiymati;
BS – Brend sadoqati;
BT – Brend tanilishi;
RK – Reklama xarajatlari;
MS – Mahsulot sifati;
ε – xatolik koeffitsiyenti.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, brend sadoqati va tanilish darajasi brend qiymatiga eng katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, reklama va mahsulot sifati ham muhim omillar hisoblanadi. Statistik tahlil 95% ishonchlilik darajasida o‘tkazilgan bo‘lib, modelning R-kvadrat ko‘rsatkichi 0.79 ni tashkil qildi.

Brend qiymatini hisoblash metodologiyasi sifatida quyidagi bosqichli yondashuv taklif etiladi:

1. Ichki ko‘rsatkichlarni yig‘ish (brendga oid moliyaviy va marketing ma’lumotlar);
2. Iste’molchi fikrlarini yig‘ish (so‘rovnoma, fokus-guruh);
3. Ko‘rsatkichlarni normalizatsiya qilish va baholash;
4. Brend qiymatini yakuniy indeks sifatida hisoblash.

Ushbu metodologiya asosida brend qiymati aniq va xolis o‘lchovga ega bo‘ladi. Bu korxonaga o‘z strategiyasini shakllantirishda yordam beradi, raqobatchilardan ajralib turishiga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Korxonalar uchun brend qiymatini aniqlash nafaqat marketing strategiyasining bir qismi, balki ularning moliyaviy salohiyatini ham belgilovchi muhim omildir. O‘zbekiston Prezidentining tegishli farmon va qarorlari doirasida brend siyosatini takomillashtirish, mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish uchun brend qiymatini hisoblash bo‘yicha yagona metodologiyani joriy qilish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Maqolada taklif etilgan model va metodologiya korxonalarga o‘zlarining bozordagi mavqeyini aniqlash va samarali harakat strategiyasini ishlab chiqishda amaliy yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini” Farmoni https://lex.uz/ru/docs/-5841063

2.Kotler, P., & Keller, K. L. (2016). *Marketing* Management (15th Edition). Pearson Education.

3. Yoo B., & Donthu, N. (2001). Developing and validating a multidimensional consumer-based brand equity scale. Journal of Business Research, 52(1), 1-14.

4. Aaker D. A. (1996). Measuring brand equity across products and markets. California Management Review, 38(3), 102-120.

5. Qodirov, Sh.S., Jo‘raev, A.N., Nuriddinov, R.R. (2021). Brend siyosatini shakllantirishning zamonaviy yondashuvlari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 3(5), 45-53.

6. Malhotra N. Marketing Research: An Applied Orientation.6th edition. Pearson Education. 2010 . 268-269 б.

7. Maxmudov, T. O. Tikuv-trikotaj korxonasi brendini rivojlantirish strategiyasi // Marketing jurnali. — 2024. — № 1. — S. 359–367. https://www.marketingjournal.uz/post/maxmudov-tohirjon-olimjonovich

MINTAQA TURIZM SALOHIYATINI VA UNGA TASIR ETUVCHI OMILLAR

Nasriddinov Husanbek Sadriddin o‘g‘li
University of Business and Science (UBS)
“Menejment” kafedrasi assistenti

Annotatsiya

Ushbu maqolada mintaqa turizm salohiyatining mazmuni va unga ta’sir etuvchi asosiy omillar keng tahlil qilingan. Jahon turizm industriyasining iqtisodiyotdagi ulushi, mintaqaviy turizmning tarixiy-madaniy, tabiiy-geografik, infratuzilmaviy va ijtimoiy-iqtisodiy resurslari yoritilgan. Shuningdek, O‘zbekistonning turistik imkoniyatlari, so‘nggi yillarda sayyohlar oqimining o‘sishi, hunarmandchilik va gastronomik turizmning rivojlanishdagi roli ham ko‘rsatib berilgan. Tadqiqotda turizmning mintaqaviy iqtisodiyotga qo‘shgan hissasi, barqaror rivojlanishga ta’siri va uni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Turizm salohiyati, mintaqaviy rivojlanish, tabiiy resurslar, madaniy meros, infratuzilma, sayyohlar oqimi, hunarmandchilik, gastronomik turizm, barqaror turizm, iqtisodiy ta’sir.

Аннотация

В статье рассматривается сущность туристского потенциала региона и факторы, влияющие на его формирование. Освещены роль туризма в мировой экономике, значение природно-географических, историко-культурных и инфраструктурных ресурсов для развития отрасли. Особое внимание уделено туристическому потенциалу Узбекистана, росту потока туристов в последние годы, роли ремёсел и гастрономического туризма. В исследовании проанализировано влияние туризма на региональную экономику и устойчивое развитие, а также предложены научно-практические рекомендации по дальнейшему совершенствованию сферы.

Ключевые слова: Туристский потенциал, региональное развитие, природные ресурсы, культурное наследие, инфраструктура, туристический поток, ремёсла, гастрономический туризм, устойчивое развитие, экономическое влияние.

Abstract

This article analyzes the essence of regional tourism potential and the key factors influencing its development. It highlights the role of tourism in the global economy, emphasizing the importance of natural, historical-cultural, infrastructural, and socio-economic resources. Special attention is given to Uzbekistan’s tourism potential, the recent growth in tourist arrivals, and the contribution of handicrafts and gastronomic tourism. The study also examines the impact of tourism on regional economic growth, sustainable development, and provides practical recommendations for enhancing the tourism sector.

Keywords: Tourism potential, regional development, natural resources, cultural heritage, infrastructure, tourist flow, handicrafts, gastronomic tourism, sustainable tourism, economic impact.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida turizm sohasining o‘rni juda katta va u tez sur’atlarda rivojlanmoqda. So‘nggi o‘ttiz yil ichida jahon bo‘yicha sayyohlar soni to‘rt barobarga oshib, turizm sohasidan tushgan daromad esa yigirma besh baravarga ko‘paydi. Turizm iqtisodiyotining global ko‘rsatkichlari turizm sanoatini iqtisodiyotning eng yirik tarmoqlaridan biriga aylantirdi. Misol uchun, 2022-yil holatiga ko‘ra, turizm sohasida dunyo bo‘ylab 8 milliondan ortiq odam ish bilan ta’minlangan. Jahon bo‘ylab yiliga bir milliarddan ziyod inson sayohat qilmoqda, bu esa turizm sohasining iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatini ko‘rsatadi.[1]

Shu sababli, mintaqaviy turizm salohiyatini o‘rganish va undagi unga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash zamonaviy iqtisodiy kontekstda juda dolzarbdir. Mintaqalar o‘zining noyob tabiiy, madaniy va tarixiy merosi orqali sayyohlarni jalb etadi va mahalliy iqtisodiyotning rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi. Bu maqolada mintaqa turizm salohiyati va uning shakllanishiga ta’sir qiluvchi omillar tahlil qilinadi, shuningdek turizm sohasining mintaqaviy iqtisodiyotdagi ahamiyati yoritiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Mintaqa turizm salohiyatini va unga ta’sir etuvchi omillar bo‘yicha xorijiy olimlardan R.Butler tomonidan turizm sohasida eng mashhur nazariyalardan biri uning "Tourism Area Life Cycle" (TALC) nazariyasidir. Butler turizm hududlarining rivojlanishiga vaqt o‘tishi bilan bosqichma-bosqich yondashadi: kashf etish, ishtirok etish, rivojlanish, konsolidatsiya, to‘xtash va keyin esa yo‘qolish yoki yangilanish bosqichlari. Ushbu nazariya turizm hududlarining barqarorligini ta’minlash uchun resurslarni tejash va mahalliy jamiyatni qo‘llab-quvvatlash zarurligini ta’kidlaydi. Nazariya turizm manzillarini boshqarish va rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishda keng qo‘llaniladi [2]. Yana bir iqtisodchi olim P. Pearce Madaniy turizm va sayyohlarning psixologik xulq-atvori ustida izlanishlar olib borgan. Uning ishlari sayyohlarning motivatsiyasi, madaniy almashinuv va ularning qaysi turdagi joylarga sayohat qilishini o‘rganishga qaratilgan. Pearce turizmni inson faoliyatining ijtimoiy va madaniy jihatlari bilan bog‘laydi[3]. C. Michael Hall barqaror turizm rivojlanishi va mintaqaviy turizm salohiyatiga ekologik omillarning ta’sirini o‘rganadi. Hallning tadqiqotlari turizmning atrof-muhitga ta’sirini kamaytirish va mintaqaviy resurslardan oqilona foydalanish yo‘llarini aniqlashga qaratilgan [4]. D.Buhalis zamonaviy raqamli texnologiyalar va onlayn platformalarning turizmni rivojlantirishdagi roli haqida ilmiy ishlar olib boradi. Buhalis, raqamli ekotizim va turizm biznesini integratsiya qilish orqali mintaqaviy turizm salohiyatini oshirish strategiyalarini ishlab chiqadi[5].

O‘zbekiston olimlardan U. Otaboyev O‘zbekistonning turizm salohiyatini oshirish, davlat siyosati va infratuzilmani rivojlantirish masalalarini o‘rganadi. Otaboyevning tadqiqotlari mintaqaviy turizmni diversifikatsiya qilish va mahalliy aholi ishtirokini ta’minlashga qaratilgan [6]. G. Ilkhomova empirik tahlillar orqali O‘zbekistondagi turizm rivojlanishini baholaydi, turizm raqobatbardoshligini oshirish va barqarorlikni ta’minlashning mexanizmlarini izlaydi [7]. N.Juraboev mintaqaviy turizm salohiyatini baholash, madaniy merosni saqlash va sayyohlarni jalb qilish omillarini ilmiy izlanishlarda ko‘rib chiqadi.

Bizning nazariy tadqiqotimizda mintaqa turizm salohiyatining mazmuni va mohiyati, ya'ni mintaqaning sayyohlarni jalb qilish qobiliyati va imkoniyatlari, salohiyat shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar: tabiiy resurslar, madaniy-meros obyektlari, infratuzilma, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sharoitlar, turizm salohiyatining iqtisodiy natijalari: sayyohlar oqimi, daromadlar, ish bilan ta'minlash va mintaqaviy barqarorlik, turizm sohasida yuzaga keladigan muammolar va cheklovlar, masalan atrof-muhitga zarar, siyosiy yoki ijtimoiy beqarorlik kabi omillar o'rganilgan.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotning metodologik asosi mintaqa turizm salohiyatini baholash va unga ta'sir etuvchi omillarni kompleks tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, tadqiqot nazariy va amaliy jihatlarni uyg'unlashtirish orqali olib borildi. Tadqiqotda deskriptiv va analitik yondashuvlar, qiyosiy tahlil usuli, statistik ko'rsatkichlarni dinamik tahlil qilish usuli, tizimli yondashuv, empirik metodologik usullar orqali turizm sohasini yanada rivojlantirishga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish, mintaqaviy salohiyatni baholash va samaradorlikni oshirishga qaratilgan bo'lib, olingan natijalar asosida strategik qarorlar ishlab chiqishga imkon beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy global turizm sanoatining o'sishiga bir qator omillar – transport-logistika tizimining modernizatsiyasi, internet va raqamli texnologiyalarning joriy etilishi, onlayn bronlash va to'lov tizimlarining qulayligi, xalqaro hamkorlik va siyosiy barqarorlikning mustahkamlanishi ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, ekologik barqarorlik, madaniy merosni saqlash va mahalliy aholining turizm jarayonidagi faol ishtirokini ta'minlash bugungi kunda global turizm kun tartibidagi asosiy masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Turizm iqtisodiyotining asosiy indikatorlari sayyohlar oqimi, turizm sohasi daromadlari va ish bilan ta'minlanganlar soni hisoblanadi. Jahon bo'yicha 2023 yil ma'lumotlariga ko'ra, global turizm sohasi iqtisodiy jihatdan juda katta ahamiyat kasb qilmoqda: sayyohlar soni yiliga 1.4 milliardga yaqinlashgan, turizmdan tushgan daromadlar 9 trillion AQSh dollaridan oshgan va turizm sohasida 10 millionlab ish o'rinlari yaratilgan [8]. Bu ko'rsatkichlar sohani iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri sifatida ko'rsatadi

1-jadval

Jahon turizm bozorini iqtisodiy ko'rsatgichlari tahlili[1]

Mintaqa	Sayyohlar soni, mln	Turizmdan daromad, mlrd AQSH dollar	Ish o'rinlari, mln
Yevropa	450	620	15.6
Osiyo va Tinch Okeani	390	480	13.2
Shimoliy Amerika	170	430	10.4
Lotin Amerikasi	120	110	3.8
Yaqin Sharq	70	85	3.1
Afrika	65	60	2.7

[1] Muallif ishlanmasi

Bu ma’lumotlar turizm salohiyatining mintaqaviy farqlanishini ko‘rsatmoqda. Yevropada sayyohlar soni eng katta bo‘lib, bu hududdagi tarixiy va madaniy meros, rivojlangan infratuzilma va siyosiy barqarorlik bilan bog‘liq.

Mintaqaviy turizmni rivojlantirishga ta’sir etuvchi asosiy omillar quyidagilar hisoblanadi:

1.Tabiiy va madaniy resurslar .

2.Infratuzilma darajasi.

3.Ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar.

4.Marketing va xalqaro hamkorlik omillari samarali reklama kampaniyalari, turizm ko‘rgazmalari va xalqaro shartnomalar mintaqaviy turizmni rivojlantirishga xizmat qiladi.

So‘nggi yillarda turizm salohiyatining sezilarli oshdi ya’ni 2020-2024 yillarda sayyohlar soni yillik o‘rtacha 12% ga o‘sdi, bu esa xizmatlar sifati yaxshilanishi va davlat siyosatining faol qo‘llab-quvvatlashi bilan bog‘liq. Investitsiyalar asosan tarixiy joylar va ekoturizm zonasiga yo‘naltirilmoqda. Bundan tashqari, mahalliy aholini turizm sohasida ish bilan ta’minlash ham mintaqaviy rivojlanish uchun muhim omil hisoblanadi. Turizmning mintaqaviy iqtisodiyotga kiritgan hissasi 2023 yilda O‘zbekiston yalpi ichki mahsulotining 6,7% ga teng bo‘ldi [9].

O‘zbekistonning turizm salohiyati, eng avvalo, uning tarixiy-madaniy boy merosi bilan ajralib turadi. Bu salohiyatni asosan qadimiy shaharlar – Samarqand, Buxoro va Xivadagi tarixiy majmualar yanada boyitadi. Registon ansambli, Shohi Zinda yodgorliklari, Poyi Kalon masjidi va minorasi, Ark qal’asi hamda Xivadagi Ichan-Qal’a kabi nodir obidalar o‘zining me’moriy go‘zalligi va tarixiy ahamiyati tufayli UNESCOning Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan bo‘lib, ular O‘zbekistonning xalqaro turizm xaritasidagi nufuzini yanada oshiradi.

Mamlakatning turistik imkoniyatlari faqat tarixiy yodgorliklar bilan cheklanmaydi. Tabiiy-geografik sharoiti ham muhim rol o‘ynaydi. Jumladan, Tyan-Shan va Pomir-Olay tog‘ tizmalari, shuningdek, Chotqol, Hisor va Qizilsuv qo‘riqxonalari, Aydarko‘l ko‘li, Sarmishsoy darasi kabi tabiiy maskanlar ekologik hamda sarguzasht turizmi uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Bu jihatlar xorijiy sayyohlar oqimini yanada ko‘paytirishga zamin bo‘lmoqda. Masalan, rasmiy statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2023-yilda O‘zbekistonga 6,6 milliondan ortiq chet ellik turist tashrif buyurgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2016-yildagidan qariyb 2,5 baravar yuqoridir [10].

Turizmning iqtisodiy va madaniy qimmatini yanada oshiruvchi omillardan yana biri – bu milliy hunarmandchilik va gastronomik an’analardir. Xususan, Marg‘ilondagi atlas va adras to‘qimachiligi, Rishtondagi milliy kulolchilik buyumlari, Buxorodagi zardo‘zlik san’ati, Xorazmning yog‘och o‘ymakorligi nafaqat o‘zbek xalqining boy madaniy merosini aks ettiradi, balki turistlar uchun alohida qiziqish uyg‘otadigan iqtisodiy qiymatga ega turistik mahsulotdir. Milliy oshxona, masalan, palov, somsa, shashlik va non mahsulotlari esa gastronomik turizmni rivojlantirishga katta hissa qo‘shadi.

Shu bilan birga, O‘zbekistonning turizm imkoniyatlari to‘liq ishga solinishi uchun ayrim muammolarni hal etish zarur. Ba’zi hududlarda transport va logistika infratuzilmasining rivojlanmaganligi, xizmat ko‘rsatish sifati va xorijiy tillarni biladigan malakali kadrlarning yetishmasligi, shuningdek, ekologik muammolar hamda marketing strategiyalarining sustligi turizmni yanada keng rivojlantirishga to‘sqinlik qilmoqda. Shuning uchun olimlarning fikriga ko‘ra, turizm sohasini rivojlantirishda ekologik barqarorlikni ta’minlash, raqamli texnologiyalarni joriy etish, turistik mahsulotlarni xilma-xillashtirish va kadrlar tayyorlash tizimini mustahkamlash muhim yo‘nalish bo‘lib qolmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekistonda turizmni yanada kengaytirish nafaqat mintaqa iqtisodiyotini diversifikatsiya qilishga, balki yangi ish o‘rinlarini yaratishga, eksportga yo‘naltirilgan xizmatlar hajmini oshirishga va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga katta turtki beradi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonning turizm salohiyati – bu boy tarixiy va madaniy meros, tabiiy resurslar, milliy qadriyatlar hamda zamonaviy infratuzilmaning uyg‘unlashgan majmuasidir. Davlatning oqilona siyosati, xususiy sektor investitsiyalari, raqamli texnologiyalarni keng tatbiq etish va kuchli marketing strategiyalarini amalga oshirish O‘zbekistonning turizm sohasini Markaziy Osiyodagi eng jozibali va raqobatbardosh markazlardan biriga aylantirishga xizmat qiladi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, mintaqaviy turizm salohiyatini to‘liq amalga oshirish uchun quyidagi tavsiyalar muhim:

Transport va kommunikatsiya infratuzilmasini yaxshilash, shu jumladan xalqaro aeroportlar sonini ko‘paytirish;

Madaniy va ekoturizmni rivojlantirish, milliy meros obyektlarini saqlash va targ‘ib qilish;

Turizm xizmatlarini sifatli qilish va professional kadrlar tayyorlash;

Mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish, xalqaro turistlarni jalb qilish uchun integratsiyalashgan marketing kampaniyalarini yuritish;

Siyosiy xavfsizlikni oshirish va ekologik barqarorlikni ta’minlash.

Bu omillar mintaqa turizmining barqaror rivojlanishida asosiy rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, amaliy tadqiqotlar va statistik tahlillar mintaqaviy strategiyalarni mukammal ishlab chiqishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Jahon turizm tashkiloti. Turizm iqtisodiyoti statistikasi bo‘yicha yilgi hisobot. — 2022. — 50 b. https://uz.wikipedia.org/wiki/Jahonda_turizm_tashkiloti

2. Butler R.W. The Concept of a Tourist Area Cycle of Evolution: Implications for Management of Resources // Canadian Geographer. — 1980. — Vol. 24, No. 1. — P. 5-12. — URL: https://www.communityeconomies.org/publications/chapters/butlers-tourism-area-life-cycle-and-its-expansion-creative-economy (01.10.2025)

3. Pearce, P.L. (1982). "The Social Psychology of Tourist Behaviour". Pergamon Press, Oxford, UK. — 234 b.

4. Buhalis, D. (2003). "eTourism: Information Technology for Strategic Tourism Management". Pearson Education, Harlow, England. — 311 p.

5. Buhalis, D. (2003). "eTourism: Information Technology for Strategic Tourism Management". Pearson Education, Harlow, England. — 311 p.

6. U. Otaboyev. Prospects for the Development of Tourism in Uzbekistan // Nordic Research Journal, 2024. — URL: https://research.nordicuniversity.org/index.php/nordic/article/view/854

7. G. Karimova. O‘zbekistonda inklyuziv turizmni konseptual rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari: Dissertatsiya avtoreferati. Tashkent, 2025. — URL: https://www.interaktiv.oak.uz/avtoreferat/3aO18492fO1.file

8. Jahon sayyohlik tashkiloti. UNWTO Tourism Highlights 2023 Edition. — Madrid, 2023. — 88 p. — URL: https://www.unwto.org/statistics.

9. O‘zbekiston Respublikasining Turizm sohasi rivojlanishining Iqtisodiy tahlili. — Ilmiy maqola, 2024. — URL: https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/0085/85_i_20250609_133351_5%20(22).pdf (01.10.2025).

10. World Bank. Tourism Outlook for Central Asia. Washington, 2023.

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OZIQ-OVQAT SANOATI DON MAHSULOTLARI TARMOG‘IDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH: NAZARIY-METODOLOGIK YONDASHUV

Dildora Kurbanova
TDTU dotsenti, i.f.f.d (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida don mahsulotlari tarmog‘ida boshqaruv samaradorligini oshirishning nazariy va metodologik asoslari tahlil qilingan. Tadqiqotda klassik boshqaruv yondashuvlari raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalashuv jarayonida qanday o‘zgarishga uchragani yoritilgan. Strategik rejalashtirish, operatsion boshqaruv, risk-menejment, sifat nazorati va kadrlar boshqaruvi samaradorlikning asosiy yo‘nalishlari sifatida ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, O‘zbekiston don sanoatidagi amaliy tajriba xalqaro ilg‘or uslublar bilan taqqoslab o‘rganilgan. Maqolada ERP, BI, AI va IoT texnologiyalarining boshqaruv tizimiga ta’siri tahlil qilinib, samaradorlikni oshirishga qaratilgan to‘rt bosqichli kompleks model taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: boshqaruv samaradorligi, raqamli transformatsiya, strategik menejment, operatsion boshqaruv, don mahsulotlari tarmog‘i, sun’iy intellekt, risk-menejment, sifat boshqaruvi

Аннотация

В статье рассматриваются теоретико-методологические основы повышения эффективности управления в отрасли зернопродуктов пищевой промышленности в условиях цифровой экономики. Исследование охватывает трансформацию классических управленческих подходов под воздействием цифровых технологий. Выделены пять ключевых направлений повышения эффективности: стратегическое планирование, операционное управление, риск-менеджмент, управление качеством и кадрами. Проведен сравнительный анализ опыта Узбекистана с международными best practices. Особое внимание уделено влиянию ERP-систем, бизнес-аналитики, искусственного интеллекта и интернета вещей на управленческие процессы. В результате предложена комплексная модель повышения эффективности, основанная на системном и поэтапном подходе.

Ключевые слова: эффективность управления, цифровая трансформация, стратегический менеджмент, операционное управление, зернопродуктовая отрасль, искусственный интеллект, риск-менеджмент, управление качеством

Abstract

This article explores the theoretical and methodological foundations for improving management efficiency in the grain processing sector of the food industry

under the conditions of digital transformation. The study examines how classical management approaches are evolving through the integration of digital technologies. Five key areas are highlighted: strategic planning, operational management, risk management, quality control, and human resources. The paper compares Uzbekistan's experience with international best practices. Special emphasis is placed on the role of ERP systems, business intelligence tools, artificial intelligence, and the Internet of Things in enhancing decision-making. A four-level comprehensive model for improving management efficiency is proposed, based on systematic and phased development.

Keywords: management efficiency, digital transformation, strategic management, operational control, grain sector, artificial intelligence, risk management, quality management

KIRISH

Zamonaviy sharoitda don mahsulotlari tarmog‘ida boshqaruv samaradorligi korxonalarning raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanishining asosiy omili hisoblanadi. Peter Drucker ta’kidlaganidek, samaradorlik — bu "to‘g‘ri narsalarni qilish", boshqaruv samaradorligi esa strategik maqsadlarga erishish uchun resurslarni optimal tashkil etish va boshqarish qobiliyatidir.

BMT Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) ma’lumotlariga ko‘ra, jahon aholisining 50 foizdan ortig‘i don mahsulotlarini asosiy oziq-ovqat manbai sifatida iste’mol qiladi. 2030 yilga borib don mahsulotlariga talab 25-30 foiz oshishi kutilayotgan sharoitda, korxonalar boshqaruv tizimlarining samaradorligi tarmoqning global raqobatbardoshligini belgilovchi hal qiluvchi omilga aylanmoqda.

Deloitte tadqiqotlariga ko‘ra, oziq-ovqat sanoatidagi kompaniyalarning 73 foizi raqamli boshqaruv texnologiyalariga investitsiyalarni oshirgan, bu esa boshqaruv paradigmasining tub o‘zgarishidan dalolat beradi. Zamonaviy boshqaruv tizimlariga sun’iy intellekt, big data analytics, IoT va blockchain kabi texnologiyalar faol joriy etilmoqda.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda quyidagi metodlar kompleks qo‘llanilgan:

Nazariy-metodologik tahlil: Boshqaruv nazariyalarining tarixiy rivojlanishini o‘rganish uchun klassik va zamonaviy yondashuvlar taqqosiy tahlil qilindi. Henri Fayolning boshqaruvning asosiy funksiyalari konsepsiyasidan tortib, hozirgi davrdagi raqamli menejment modellarigacha bo‘lgan evolyutsiya sistematik ko‘rib chiqildi.

Tizimli-funksional yondashuv: Don mahsulotlari tarmog‘ida boshqaruv samaradorligini tashkil etuvchi barcha tarkibiy qismlar (strategik, operatsion,

moliyaviy, kadrlar va innovatsion boshqaruv) va ularning o‘zaro ta’siri kompleks tahlil qilindi.

Keng hajmli ma’lumotlar tahlili (Big Data Analytics): 2018-2024 yillar davriga oid xalqaro tashkilotlar (McKinsey, Deloitte, PwC, Boston Consulting Group) hisobotlari, ilmiy tadqiqotlar natijalari va statistik ma’lumotlar tahlil qilindi.

Benchmarking usuli: O‘zbekiston don mahsulotlari korxonalarining boshqaruv ko‘rsatkichlari xalqaro yetakchi kompaniyalar (Cargill, ADM, Bunge Limited) amaliyoti bilan taqqoslandi.

Ekspert baholash metodi: Tarmoq mutaxassislari va boshqaruv konsultantlari fikrini olish orqali nazariy xulosalar amaliy kontekstda tekshirildi.

Modellashtirish metodi: Boshqaruv samaradorligini oshirish uchun kompleks model ishlab chiqildi va uning elementlari o‘zaro bog‘liqligi nuqtai nazaridan tahlil etildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Boshqaruv samaradorligi nazariyasining evolyutsiyasi

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, boshqaruv samaradorligi konsepsiyasi bir necha muhim bosqichlarni bosib o‘tgan:

Klassik davr: Henri Fayol boshqaruvning beshta asosiy funksiyasini (rejalashtirish, tashkil etish, buyruq berish, muvofiqlashtirish, nazorat qilish) aniqladi. Frederick Taylor ilmiy boshqaruv tamoyillarini ishlab chiqib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning matematik usullarini taklif etdi. Bu davrda boshqaruv samaradorligi asosan vazifalarni bajarish tezligi va xarajatlarni kamaytirish bilan o‘lchanardi.

Neoklassik davr: Peter Drucker "boshqaruv amaliyoti" konsepsiyasini kiritib, maqsadlarga ko‘ra boshqarish (Management by Objectives — MBO) yondashuvini ishlab chiqdi. Bu davrda boshqaruv samaradorligi strategik maqsadlarga erishish va tashkilot samaradorligini oshirish bilan bog‘landi.

Zamonaviy davr: Michael Porter raqobat strategiyalari nazariyasini yaratdi. Henry Mintzberg strategik reja va taktik harakatlar o‘rtasidagi muvozanatni ta’kidladi. Robert Kaplan va David Norton Balanced Scorecard metodologiyasini ishlab chiqib, boshqaruv samaradorligini moliyaviy va nomoliyaviy ko‘rsatkichlar kombinatsiyasi orqali baholash tizimini taklif etdilar.

Raqamli davr: Eric Schmidt, Satya Nadella (Microsoft) va boshqa texnologik liderlar raqamli transformatsiya va agile menejment prinsiplarini ilgari surdilar. McKinsey ma’lumotlariga ko‘ra, raqamli boshqaruv texnologiyalarini joriy etgan kompaniyalar boshqaruv samaradorligini o‘rtacha 35-40 foizga oshirgan.

Don mahsulotlari tarmog‘ida boshqaruv samaradorligi ko‘rsatkichlari

Tadqiqot doirasida don mahsulotlari tarmog‘i uchun boshqaruv samaradorligini baholashning kompleks tizimi ishlab chiqildi:

Strategik boshqaruv samaradorligi:

- Strategik maqsadlarga erishish darajasi (target: ≥85%)
- Strategik rejalarning bajarilish koeffitsiyenti (≥0.80)
- Bozor ulushining rejalashtirilingan o‘sish sur’ati (±5% dan kam farq)
- Strategik loyihalarni amalga oshirish muddatlari (muddatida: ≥90%)
- Strategik qarorlar qabul qilish siklining davomiyligi (≤30 kun)

Operatsion boshqaruv samaradorligi:

- Ishlab chiqarish rejalarining bajarilish darajasi (≥95%)
- Operatsion xarajatlarni boshqarish koeffitsiyenti (reja-fakt farqi ≤3%)
- Ishlab chiqarish siklining optimallashtirish darajasi (yillik yaxshilanish ≥7%)
- Xodimlar mehnat unumdorligi o‘sish sur’ati (≥5% yiliga)
- Muammoli vaziyatlarni hal qilish tezligi (o‘rtacha: ≤48 soat)

Risk-menejment samaradorligi:

- Risklarni aniqlash va baholash tizimining to‘liqligi (coverage: ≥90%)
- Riski yumshatish chora-tadbirlarining samaradorligi (≥75%)
- Kun tartibidagi risklarni boshqarish ko‘rsatkichi (≥85%)
- Moliyaviy zaxiralarning etarlilik darajasi (≥15% daromaddan)
- Sug‘urta himoyasi darajasi (kritik aktivlar: 100%)

Sifat boshqaruvi samaradorligi:

- ISO 9001, HACCP standartlariga muvofiqlik darajasi (100%)
- Mahsulot sifati ko‘rsatkichlarining barqarorligi (variatsiya ≤5%)
- Reklamatsiyalar darajasi (≤0.5% yetkazib berishlardan)
- Ichki audit topilmalarining bartaraf etilish sur’ati (≥95% 30 kun ichida)
- Jarayonlarni doimiy yaxshilash tizimining faolligi (yiliga ≥20 loyiha)

Kadrlar boshqaruvi samaradorligi:

- Xodimlar qo‘nimsizligi darajasi (target: ≤10%)
- Kadrlar ta’limi va rivojlanish dasturlarining qamrovi (≥80% xodimlar)
- Xodimlar qoniqish indeksi (≥75%)
- Ichki martaba ko‘tarilish ulushi (≥60% vakansiyalardan)
- Yuqori malakali xodimlarni saqlash koeffitsiyenti (≥90%)

Raqamli texnologiyalarning boshqaruvga ta’siri

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, zamonaviy raqamli texnologiyalar don mahsulotlari tarmog‘ida boshqaruv paradigmasini tub o‘zgartirmoqda:

ERP (Enterprise Resource Planning) tizimlari: SAP, Oracle, Microsoft Dynamics kabi yirik ERP yechimlari korxona resurslarini birlashtirgan holda boshqarish imkonini beradi. McKinsey (2023) ma’lumotlariga ko‘ra, to‘liq integratsiyalashgan ERP

tizimlarini joriy etgan oziq-ovqat kompaniyalari boshqaruv xarajatlarini 18-25 foizga kamaytirgan va qarorlar qabul qilish tezligini 40 foizga oshirgan.

Business Intelligence (BI) va Analytics: Qlik, Tableau, Power BI kabi vizualizatsiya vositalari real vaqt rejimida ma'lumotlarni tahlil qilish va qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Don mahsulotlari tarmog'ida BI sistemalari xomashyo narxlari prognozi, hosildorlik bashorati va sotish tendensiyalarini aniqlashda qo'llanilmoqda.

IoT (Internet of Things) tizimlari: Sensorlar va aqlli qurilmalar orqali don saqlash omborlari (harorat, namlik), ishlab chiqarish liniyalari va logistika jarayonlarini real vaqtda monitoring qilish amalga oshirilmoqda. Bu muammolarni proaktiv aniqlash va tezkor hal etish imkonini beradi.

Sun'iy intellekt va mashina o'rganishi: AI texnologiyalari talab prognozi, inventarizatsiyani optimallashtirish, texnika nosozliklarini bashorat qilish va sifat nazoratida qo'llanilmoqda. Deloitte (2023) ma'lumotlariga ko'ra, AI-ni boshqaruv jarayonlariga integratsiya qilgan kompaniyalar operatsion xarajatlarni 20-30 foizga kamaytirgan.

Blockchain texnologiyasi: Yetkazib berish zanjirini boshqarish va mahsulot kelib chiqishini kuzatishda blockchain shaffoflik va xavfsizlikni ta'minlaydi. Bu ayniqsa eksport operatsiyalarida muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston don mahsulotlari tarmog'idagi boshqaruv amaliyotlari

O'zbekiston don mahsulotlari tarmog'ida boshqaruv tizimlarini modernizatsiya qilish bo'yicha bir qator muhim tadbirlar amalga oshirilmoqda:

Tashkiliy tuzilmaning optimallashtirish: 28 ta don saqlash kompleksida avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari joriy etilgan. Bu markazlashtirilgan monitoring va operativ qarorlar qabul qilish imkonini bermoqda.

Raqamli platformalar joriy etish: 2500 ta GPS texnologiyalari asosida ishlaydigan traktorlar orqali qishloq xo'jaligi texnikasini real vaqtda kuzatish va boshqarish tizimi yaratilgan. Bu resurslardan samarali foydalanish va jarayonlarni optimallashtirish imkonini bermoqda.

Kadrlar malakasini oshirish: O'zbekiston Respublikasi Don va dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti zamonaviy texnologiyalar va boshqaruv amaliyotlari bo'yicha mutaxassislarni tayyorlashni yo'lga qo'ygan.

Bozor barqarorligini ta'minlash**:** Don klasterlari tizimini rivojlantirish orqali vertikal integratsiyani kuchaytirish va yetkazib berish zanjirini optimallashtirish amalga oshirilmoqda.

Biroq, xalqaro best practices bilan taqqoslaganda, quyidagi kamchiliklar aniqlandi:

- ERP tizimlarining to'liq integratsiyasi yetarli emas (faqat 15-20% korxonalarda)

- BI va analytics sistemalaridan foydalanish cheklangan
- Boshqaruv qarorlarida data-driven yondashuvning etishmasligi
- Risk-menejment tizimlarining rivojlanmaganligi
- Xalqaro sifat boshqaruv standartlarining to‘liq joriy etilmaganligi

Boshqaruv samaradorligini oshirishning kompleks modeli

Tadqiqot asosida don mahsulotlari korxonalari uchun boshqaruv samaradorligini oshirishning to‘rt darajali modeli ishlab chiqildi:

I daraja — Diagnostika va baholash:

- Joriy boshqaruv tizimini kompleks audit qilish
- Kamchiliklar va imkoniyatlarni SWOT tahlil orqali aniqlash
- Key Performance Indicators (KPI) tizimini ishlab chiqish
- Benchmarking asosida maqsadli ko‘rsatkichlarni belgilash

II daraja — Strategik rejalashtirish:

- 5 yillik strategik reja ishlab chiqish (vision, mission, strategik maqsadlar)
- Balanced Scorecard metodologiyasini joriy etish
- Risk-menejment strategiyasini shakllantirish
- Raqamli transformatsiya yo‘l xaritasini yaratish

III daraja — Tizim va jarayonlarni optimallashtirish:

- Biznes-jarayonlarni reengineering qilish (BPR)
- ERP va BI sistemalarini joriy etish
- Sifat boshqaruv tizimini (ISO 9001, HACCP) sertifikatlash
- Kadrlar boshqaruv tizimini zamonaviylashtirish (Talent Management)

IV daraja — Doimiy yaxshilash va innovatsiya:

- Kaizen va Lean manufacturing prinsiplarini joriy etish
- Innovatsion loyihalar portfelini boshqarish
- AI va IoT texnologiyalarini bosqichma-bosqich integratsiya qilish
- Best practices almashish uchun xalqaro hamkorlikni rivojlantirish

Boshqaruv samaradorligini oshirishning iqtisodiy ta’siri

Xalqaro tajriba va O‘zbekiston kontekstida hisob-kitoblar shuni ko‘rsatadi:

Qisqa muddatda (1-2 yil):

- Boshqaruv xarajatlarining 12-18% ga kamayishi
- Qarorlar qabul qilish tezligining 25-30% ga oshishi
- Operatsion samaradorlikning 15-20% ga yaxshilanishi
- Xodimlar qo‘nimsizligining 5-7% ga pasayishi

O‘rta muddatda (3-5 yil):

- Umumiy rentabellikning 8-12% ga oshishi
- Bozor ulushining 10-15% ga o‘sishi
- Investitsiyalarni jalb qilish qobiliyatining yaxshilanishi

- Brend qiymatining oshishi

Uzoq muddatda (5+ yil):

- Strategik raqobat ustunliklarini ta’minlash
- Barqaror o‘sish sur’atlarini saqlash
- Xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyati
- Tarmoqda yetakchi pozitsiyaga erishish

Tadqiqot natijalari bir qator muhim xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Birinchidan, boshqaruv samaradorligi konsepsiyasi statik emas, balki dinamik xarakterga ega. Klassik menejment nazariyalari (Fayol, Taylor) zamonaviy sharoitda ham o‘z ahamiyatini saqlamoqda, lekin ular raqamli texnologiyalar bilan to‘ldirilishi zarur. Druckerning "to‘g‘ri narsalarni qilish" tamoyili hamon dolzarb, ammo "to‘g‘ri narsa" tushunchasi o‘zgarmoqda — bugungi kunda bu ma’lumotlarga asoslangan qarorlar, real vaqt monitoringi va tezkor moslashuvchanlikni anglatadi.

McKinsey va Deloitte tadqiqotlari bizning xulosalarimizni tasdiqlaydi: raqamli texnologiyalarni boshqaruvga integratsiya qilgan kompaniyalar sezilarli raqobat ustunliklariga erishmoqda. Biroq, muhim yangilik shundaki, texnologiya o‘zi maqsad emas, balki vosita. Muvaffaqiyatli raqamli transformatsiya uchun texnologiya, jarayonlar va odamlarning uyg‘unligi zarur.

O‘zbekiston kontekstida muhim muammo — boshqaruv tizimlarining fragmentatsiyasi. Ayrim korxonalarda zamonaviy texnologiyalar joriy etilgan bo‘lsa-da, kompleks yondashuv yo‘q. Natijada, raqamli yechimlarning samaradorligi cheklangan bo‘lib qolmoqda. Xalqaro tajriba (Cargill, ADM, Bunge) shuni ko‘rsatadiki, muvaffaqiyat faqat texnologiya emas, balki strategiya, jarayonlar, kadrlar va madaniyatning muvofiqlashtirilgan transformatsiyasida.

Kaplan va Nortonning Balanced Scorecard metodologiyasi don mahsulotlari tarmog‘i uchun juda mos keladi, chunki u moliyaviy ko‘rsatkichlardan tashqari mijozlar, ichki jarayonlar va o‘sish-rivojlanish perspektivalarini ham hisobga oladi. Bizning tadqiqotimiz bu yondashuvni raqamli texnologiyalar bilan boyitadi.

Risk-menejment masalasi alohida e’tiborga sazovor. Don mahsulotlari tarmog‘i ko‘p sonli risklarga duch keladi: iqlim o‘zgarishi, narxlar tebranishi, geosiyosiy omillar. Zamonaviy boshqaruv tizimida predictive analytics va ssenariy rejalashtirish muhim ahamiyatga ega. Biroq, O‘zbekiston korxonalarida bu yo‘nalish yetarli rivojlanmagan.

Tadqiqotning cheklangan tomonlari ham mavjud. Birinchidan, O‘zbekiston korxonalari bo‘yicha batafsil ichki ma’lumotlarning yetishmasligi chuqurroq empirik tahlilga to‘sqinlik qildi. Ikkinchidan, boshqaruv samaradorligini o‘lchashda "yumshoq" omillarning (korporativ madaniyat, liderlik uslubi, innovatsion muhit) miqdoriy baholashi qiyin. Uchinchidan, COVID-19 pandemiyasi va geosiyosiy

inqirozlar ta’sirida ba’zi boshqaruv modellarning samaradorligi o‘zgargan, bu esa uzoq muddatli prognozlarni qiyinlashtiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Nazariy jihatdan: Boshqaruv samaradorligi konsepsiyasi klassik tamoyillardan (Fayol, Taylor, Drucker) zamonaviy raqamli menejmentga (AI, IoT, Big Data) qadar evolyutsiya qilgan. Don mahsulotlari tarmog‘ida samarali boshqaruv strategik, operatsion, risk, sifat va kadrlar boshqaruvining integratsiyalashgan tizimi orqali amalga oshiriladi.

2. Metodologik jihatdan: Ishlab chiqilgan ko‘rsatkichlar tizimi va to‘rt darajali model don mahsulotlari korxonalariga boshqaruv samaradorligini sistematik baholash va yaxshilash imkonini beradi. Balanced Scorecard va KPI metodologiyalari raqamli texnologiyalar bilan kombinatsiyada optimal natijalar beradi.

3. Amaliy jihatdan: O‘zbekiston don mahsulotlari tarmog‘ida boshqaruv modernizatsiyasi boshlangan (GPS texnologiyalar, avtomatlashtirilgan saqlash), ammo kompleks raqamli transformatsiya zarur. ERP va BI sistemalarini joriy etish, risk-menejment tizimini yaratish va kadrlar malakasini oshirish ustuvor vazifalar hisoblanadi.

4. Iqtisodiy jihatdan: Boshqaruv samaradorligini oshirish uchun investitsiyalar qisqa muddatda o‘z-o‘zini qoplash potensialiga ega. Hisob-kitoblarga ko‘ra, 3-5 yillik davr ichida ROI 150-200% ni tashkil etishi mumkin.

Don mahsulotlari korxonalari uchun:

- Boshqaruv tizimini diagnostika qilish va rivojlanish yo‘l xaritasini ishlab chiqish
- ERP sistemalarini bosqichma-bosqich joriy etish (pilot loyiha → to‘liq integratsiya)
- Risk-menejment tizimini yaratish (risklarni identifikatsiya qilish, baholash, monitoring)
- Kadrlar boshqaruvini zamonaviylashtirish (talent management, succession planning)
- Data-driven qarorlar qabul qilish madaniyatini shakllantirish

Don mahsulotlari tarmog‘ida boshqaruv samaradorligini oshirish nafaqat korxonalar raqobatbardoshligini, balki milliy oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga ham xizmat qiladi. Zamonaviy raqamli texnologiyalar, ilg‘or boshqaruv amaliyotlari va xalqaro standartlarni joriy etish orqali tarmoq global raqobatbardoshlik darajasiga ko‘tarilishi mumkin.

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, boshqaruv samaradorligi — bu bir martalik loyiha emas, balki doimiy yaxshilashni talab qiladigan jarayon. Kaizen va Lean management

prinsiplari, data-driven qarorlar qabul qilish madaniyati va innovatsiyalarga ochiqlik zamonaviy boshqaruv tizimining asosiy xususiyatlari hisoblanadi.

O‘zbekiston don mahsulotlari tarmog‘i oldida katta imkoniyatlar va qiyin vazifalar turmoqda. 2030 yilga qadar 25-30 foiz o‘sish prognoziga javob berish uchun nafaqat ishlab chiqarish hajmlarini oshirish, balki boshqaruv samaradorligini tub yaxshilash zarur. Bu yo‘lda xalqaro hamkorlik, texnologik transferlar va best practices almashish muhim rol o‘ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Boston Consulting Group (2023). Digital Transformation in Food Industry. BCG Publications.
2. Deloitte (2023). 2023 Food and Beverage Industry Outlook. Deloitte Insights.
3. Drucker, P. F. (1954). The Practice of Management. Harper & Row.
4. Fayol, H. (1916). Administration Industrielle et Générale (General and Industrial Management). Dunod.
5. Hammer, M., & Champy, J. (1993). Reengineering the Corporation: A Manifesto for Business Revolution. Harper Business.
6. Hashmi, M. S., Kamran, M. A., Bakhsh, K., & Bashir, M. A. (2015). Technical Efficiency And Its Determinants In Wheat Production: Evidence From The Southern Punjab, Pakistan. Journal of Environmental and Agricultural Sciences, 3, 48-55.
7. Kaplan, R. S., & Norton, D. P. (1992). The Balanced Scorecard — Measures That Drive Performance. Harvard Business Review, 70(1), 71-79.
8. McKinsey Global Institute (2023). The State of AI in 2023: Generative AI’s breakout year. McKinsey & Company.
9. Mintzberg, H. (1989). Mintzberg on Management: Inside Our Strange World of Organizations. Free Press.
10. Porter, M. E. (1980). Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors. Free Press.
11. PwC (2023). Global CEO Survey: Food and Agriculture Industry Perspectives. PricewaterhouseCoopers.
12. Taylor, F. W. (1911). The Principles of Scientific Management. Harper & Brothers.
13. United Nations Food and Agriculture Organization (FAO) (2024). The State of Food Security and Nutrition in the World 2024. FAO Publications.
14. World Bank (2024). World Development Report 2024: Digital Technologies for Development. World Bank Group.
15. Wrzaszcz, W., & Prandecki, K. (2015). Economic efficiency of sustainable agriculture. Problems of Agricultural Economics, 343(2), 15-36.

XALQARO SAVDONING SIRKULYAR IQTISODIYOT TAMOYILLARIGA UYG‘UNLASHUVIDA ASOSIY TENDENSIYALAR

Muratova Shohista Nimatullayevna
Bojxona instituti kafedra boshlig‘i, i.f.d., professor
ORCID 0000-0002-8133-9094
E-mail: shohista11@mail.ru

Annotatsiya

Maqolada “yashil” iqtisodiyot doirasida ishlab chiqarilgan sirkulyar tovarlar xalqaro savdosining asosiy tendensiyalari ko‘rib chiqilgan bo‘lib, sirkulyar tovarlar savdosi bilan bog‘liq imkoniyatlar va xavflar tahlil qilingan. Tovarlarni noto‘g‘ri identifikatsiyalash, Uyg‘unlashtirilgan tizim (UT)dagi bo‘shliqlar hamda UT va Bazel konvensiyasining chiqindilar savdosiga oid qoidalari o‘rtasidagi nomuvofiqliklar tovarlar savdosidagi asosiy muammolar sifatida aniqlangan.

Kalit so‘zlar: sirkulyar iqtisodiyot, “yashil” iqtisodiyot, sirkulyar mahsulotlar, xalqaro savdo, sirkulyar xizmatlar, “sirkulyar” savdo oqimi, Uyg‘unlashtirilgan tizim, Bazel konvensiyasi.

Аннотация

В статье рассматриваются основные тенденции международной торговли циркулярными товарами, произведенными в рамках “зеленой” экономики и проанализированы возможности и риски, обусловленные торговлей циркулярными товарами. Некорректная идентификация товара, пробелы Гармонизированной системы (HS), противоречия между HS и положениями Базельской конвенции применительно к торговле отходами определены как основные проблемы в торговле этими товарами.

Ключевые слова: циркулярная экономика, “зелёная” экономика, циркулярная продукция, международная торговля, циркулярные услуги, “циркулярные” торговые потоки, Гармонизированная система, Базельская конвенция.

Abstract

The article examines the main trends in international trade in circular goods produced within the framework of the “green” economy and analyzes the opportunities and risks associated with trade in circular goods. Incorrect identification of goods, gaps in the Harmonized System (HS), contradictions between HS and the provisions of the Basel Convention in relation to waste trade are identified as the main problems in the trade of these goods.

Keywords: circular economy, “green” economy, circular products, international trade, circular services, circular trade flows, Harmonized System, Basel Convention.

KIRISH

Butun dunyoda chiqindilarning hosil bo‘lish sur’ati yil sayin oshib bormoqda. 2020-yilda dunyoda jami 2,24 milliard tonna qattiq chiqindi hosil bo‘lgan. Uning atigi 17 foizi qayta ishlangan. 2050-yilga borib aholining tez sur’atlar bilan o‘sishi va

urbanizatsiya tufayli yillik chiqindilarning vujudga kelishi 2020-yildagiga qaraganda 73 foizga oshib, 3,88 milliard tonnaga yetishi kutilmoqda.

Ma’lumki, sirkulyar iqtisodiyot atrof-muhit ifloslanishining oldini olish bilan bir qatorda, resurslarni tejash, biologik xilma-xillikni asrash, ishlab chiqarish va iste’mol qilishning barqaror modellarini yaratish, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish, ushbu yo‘nalishlarda innovatsiyalarni tatbiq etish, biznesni rivojlantirish va qo‘shimcha ish o‘rinlarini yaratish imkonini beradi.

Mamlakatimizda “yashil” iqtisodiyotga o‘tish choralarini jadallashtirish, “yashil” va inklyuziv iqtisodiy o‘sish modelini targ‘ib qilishga katta e’tibor qaratilmoqda. Bu borada, mamlakatimizda “yashil” iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, “yashil” investitsiyalarni jalb qilish, ekologik inqirozning salbiy ta’sirini yumshatish borasida strategik maqsadlar belgilab olingan.

ADABIYOTLAR SHARHI

Sirkulyar iqtisodiyot hozirgi vaqtda dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida iqtisodiy siyosatning yetakchi yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. 1-rasmda 3964 ta startap va innovatsion kompaniyalar faoliyatini tahlil qilgan Top 8 Circular Economy Trends&Innovations in 2023 hisoboti [1] mualliflari tomonidan 2023-yil boshida sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari keltirilgan.



1-rasm. Sirkulyar iqtisodiyotning asosiy tendensiyalari[1]

Tahlildan ko‘rinib turibdiki, sirkulyar iqtisodiyot rivojlanishining 70%dan ortig‘i sirkulyar mahsulotlar ishlab chiqarish bilan bog‘liq (ya’ni, sirkulyar iqtisodiyot doirasida ishlab chiqarilgan tovarlar). Biroq, ushbu tovarlarning xalqaro savdosi masalalari ma’lum darajada zamonaviy iqtisodiy tahlil doirasidan chetda qolmoqda. [2] ishda ta’kidlanganidek, xalqaro savdo va sirkulyar iqtisodiyot o‘rtasidagi murakkab munosabatlar, shuningdek, ushbu munosabatlardan kelib chiqadigan imkoniyatlar va xavflarni tushunish cheklanganligicha qolmoqda. Ushbu sohadagi

[1] Muallif ishlanmasi

tadqiqotlarning nisbatan kamligini hisobga olgan holda, sirkulyar tovarlar xalqaro savdosining hozirgi holatini ko‘rib chiqish dolzarbdir.

Shuni ta’kidlash kerakki, birlamchi resurslar savdosi pasayish darajasida bo‘lsa ham sirkulyar iqtisodiyotda doimo yuqori talabga ega bo‘ladi, lekin ilmiy jihatdan 100% “sirkulyarlik” imkoniyati mavjud emas. Shuningdek, birlamchi resurslar savdosi “sirkulyar” mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun zarur resurslarni qayta taqsimlash orqali sirkulyar iqtisodiyotga o‘tishni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Ko‘pgina xalqaro savdo operatsiyalari ishlab chiqarishning “yaratish-foydalanish-utilizatsiyalash” tamoyiliga amal qiluvchi chiziqli modeli doirasida ishlab chiqarilgan tovarlarni o‘z ichiga oladi. Bunga xomashyo savdosi, an’anaviy chiziqli faoliyat uchun ishlab chiqarilgan yangi tovarlar, xizmatlar va poligon yoki yoqish uchun mo‘ljallangan chiqindilar bilan savdo qilish kiradi.

Chiziqli oqimlarning ustunligiga qaramay, sirkulyar tovarlar (xizmatlar) savdosi umumiy global savdoning o‘sib borayotgan tarkibiy qismidir. Masalan, 2000-2019-yillarda foydalanilgan tovarlar, ikkilamchi xom ashyo va qayta ishlash uchun chiqindilar savdosi qiymati 230%dan ko‘proqqa oshgan, shu davrda barcha tovarlar eksportining umumiy qiymati taxminan 195%ga oshgan [3].

Sirkulyar savdo oqimlari chiziqli savdoni o‘zgartirishi yoki to‘ldirishi mumkin. Masalan, qayta ishlangan yoki foydalanilgan tovarlar importi yangi ekvivalent tovarlarning importini yoki mahalliy ishlab chiqarishni siqib chiqarishi mumkin. Xuddi shunday, ikkilamchi xom ashyo importi birlamchi buyumlar ishlab chiqarishni almashtirishi yoki to‘ldirishi mumkin. Sirkulyar savdo oqimlari ishlatilgan yoki qayta tiklangan tovarlar yoki ikkilamchi xom ashyolardan foydalanish hisobiga yangi materiallar va mahsulotlarga bo‘lgan talabni kamaytirishi va mamlakat ichidagi sirkulyar o‘tishni qo‘llab-quvvatlash uchun zarur bo‘lgan tovarlardan foydalanishni yaxshilashi mumkin.

Shunga qaramay, mualliflar J.Barrie, M.Schneider-Petsinger, T.Benton [4] tomonidan tayyorlangan hisobotda ta’kidlanganidek, sirkulyar savdo oqimining har bir turi aniq savdo qoidalari va standartlarining yo‘qligi, ta’minot zanjirining shaffofligi va kuzatuvchanligining pastligi va savdo proteksionizmining kuchayishi bilan bog‘liq muammolarga duch kelmoqda.

Sirkulyar savdo oqimlari ma’lum sharoitlarda ta’minot zanjirining buzilishi, chiqindilarni boshqarish uchun qo‘shimcha xarajatlar va mahalliy ishlab chiqarishning zaiflashishi kabi qo‘shimcha xavflarni keltirib chiqarishi mumkin.

METODOLOGIYA

Mazkur maqolada sirkulyar tovarlarning xalqaro savdo xususiyatlari o‘rganilgan. Tadqiqotimiz davomida xalqaro savdoda sirkulyar tovarlar savdosi bilan bog‘liq imkoniyatlar va xavflar monografik tahlil qilindi. “Yashil” iqtisodiyot doirasida ishlab chiqarilgan sirkulyar tovarlar xalqaro savdosining asosiy tendensiyalarini yoritishda tizimli yondashuv, deduksiya va induksiyaning ilmiy usullari, shuningdek, normativ-huquqiy, empirik usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sirkulyar tovarlar, xizmatlar va intellektual mulk mahsulotlari savdosi. Hozirgi vaqtda tayyor “sirkulyar” tovarlarga yuqori bojxona bojlari belgilanmoqda, bu esa narxlarning asossiz o‘sishiga olib keladi. Bunday bojlarning pasayishi yoki bekor qilinishi sirkulyar iqtisodiyotga o‘tishni sezilarli darajada tezlashtiradi. Yuqori bojxona bojlari nafaqat “sirkulyar” tovarlarga, balki ekologik tovarlarning keng doirasiga ham tegishli. Shu sababli Jahon Savdo Tashkiloti (JST)ning bir necha o‘nlab a’zolari ekologik tovarlar to‘g‘risidagi bitimni (Environmental Goods Agreement – EGA) tuzish zarurligini muhokama qila boshladilar [5].

Bir qator tadqiqotlarda “sirkulyar” xizmatlar savdosining kutilayotgan o‘sishi qayd etilgan. Bunda “sirkulyar” xizmatlar deganda, qandaydir tarzda sirkulyar biznes modellari bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatlar, masalan, ikkilamchi xom ashyodan foydalangan holda amalga oshiriladigan xizmatlar, lizing (ijara) va boshqalar tushuniladi. Aslida sirkulyar xizmatlar savdosiga tovarlar savdosiga qaraganda kamroq e’tibor berilgan. Bu tovarlarni sotish bilan solishtirganda xizmatlarga o‘tishning kutilayotgan o‘sishi bilan bog‘liq, chunki kompaniyalar mahsulotga egalik yoki texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash o‘rnini bosuvchi lizing va ijara kabi “mahsulot – xizmat” tizimlariga asoslangan biznes modellarini tobora ko‘proq joriy qilmoqdalar.

1995-yildagi Xizmatlar savdosi bo‘yicha Bosh kelishuv (GATS) xizmatlarni yetkazib berishning to‘rtta usulini belgilab berdi: transchegaraviy savdo (1-usul); chet elda iste’mol qilish (2-usul); chet elda tijorat mavjudligi (3-usul); jismoniy shaxslarning vaqtincha bo‘lishi (4-usul).

Sirkulyar xizmatlar barcha to‘rt usulni o‘z ichiga oladi. Masalan, asbob-uskunalarni masofadan kuzatish, onlayn ilovalar va almashish platformalarini taqdim etish yoki sirkulyar dizayn tajribasi (1-usul) kabi onlayn xizmatlar; ta’mirlash, modernizatsiya qilish, qayta ishlash yoki chiqindilarni boshqarish xizmatlarini ko‘rsatish (2 va 3-usullar); yopiq kontur infratuzilmasi doirasida uskunani yig‘ish, o‘rnatish, texnik xizmat ko‘rsatish, ta’mirlash va sinovdan o‘tkazish (4-usul).

Rivojlanayotgan raqamli transformatsiya va so‘nggi texnologik yutuqlar (masalan, masofaviy monitoring va 5G tarmoqlari orqali real vaqt rejimida aloqa), hatto an’anaviy ravishda geografik jihatdan cheklangan deb hisoblangan xizmatlar ham hozir global miqyosda sotilayotganini anglatadi. Shu tariqa, sirkulyar xizmatlar savdosi muhim rol o‘ynaydi, bu kompaniyalarga butun qiymat zanjiri bo‘ylab sirkulyar faoliyatni amalga oshirish imkonini beradi hamda malaka va texnologiyalarni o‘zlarining xorijdagi sho‘ba korxonalariga samarali o‘tkazish imkonini beradi. Biroq, sirkulyar xizmatlar savdosi hozirda bir qator muammolarga duch kelmoqda, masalan, ikkilamchi materiallar va chiqindilar savdosi bilan bog‘liq yurisdiksiyalar bo‘ylab turli xil qoidalar va xalqaro ma’lumotlarni uzatishdagi cheklovlar.

Sirkulyar tovarlar va xizmatlarning jahon savdosi hajmini baholash ushbu savdo toifasining umume’tirof etilgan ta’rifi yo‘qligi va ma’lumotlar to‘planmaganligi sababli qiyin. Bundan tashqari, qayta ishlash uskunalari va mashinalarining global

bozor qiymati 2019-yilda 852 million dollarni tashkil etdi va 2027-yilga kelib 917,5 million dollargacha o‘sishi kutilmoqda [6].

Ilgari foydalanishda bo‘lgan tovarlar savdosi. Ilgari foydalanishda bo‘lgan tovarlar savdosi uchta asosiy usulda amalga oshirilishi mumkin:

1. To‘g‘ridan-to‘g‘ri qayta foydalanish uchun.
2. Ta’mirlash, qayta tiklash yoki modernizatsiya qilish uchun.
3. Ikkilamchi xom ashyo sifatida foydalanish uchun.

Qayta foydalanish, ta’mirlash, modernizatsiya qilish yoki ikkilamchi xom ashyoga qayta ishlash mumkin bo‘lmagan har qanday ilgari foydalanishda bo‘lgan tovarlar chiqindi sifatida tasniflanishi kerak.

Yuqoridagi mezonlarga muvofiq ilgari foydalanishda bo‘lgan tovarlar savdosi ko‘plab iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy imtiyozlarni beradi. Masalan, bu yangi bo‘lganda sotib olinmaydigan sifatli tovarlarga, ayniqsa, kam ta’minlangan aholi tomonidan egalik qilish imkonini beradi.

Masalan, Yaponiyadan ilgari foydalanishda bo‘lgan poyezd vagonlari eksporti. Mahalliy atrof-muhitni muhofaza qilishning qat’iy qoidalari va poyezdlarni qayta ishlash bilan bog‘liq yuqori xarajatlar tufayli Yaponiya Osiyoda ishlatiladigan harakatlanuvchi tarkibning eng yirik eksportyorlaridan biriga aylandi. Ushbu tovarlarning xaridori Indoneziyaning Jakarta shahri bo‘lib, u 2018-yilga kelib 1500 dan ortiq yapon poyezdi vagonlarini xarid qilgan. Bu taklif shaharning jadal urbanizatsiya tufayli jamoat transportiga bo‘lgan ortib borayotgan talabini qondirishga yordam berdi va mahalliy aholi tomonidan yaxshi kutib olindi, ular ilgari foydalanishda bo‘lgan yuqori sifatli, konditsionerli yapon poyezd vagonlarini afzal ko‘rishdi. Bundan tashqari, ilgari foydalanishda bo‘lgan vagonlarning narxi yangilarini sotib olish narxining taxminan o‘ndan bir qismini tashkil qilgan. Biroq, Jakarta vagonlarga texnik xizmat ko‘rsatish uchun ehtiyot qismlarni olishda ba’zi muammolarga duch kelgan [7].

Bundan tashqari, import qilingan ilgari foydalanishda bo‘lgan tovarlarni ta’mirlash, modernizatsiya qilish yoki qayta ishlash zarurati import qiluvchi mamlakatda sanoat qayta ishlash va ish joylariga talabni keltirib chiqaradi, shuningdek, mahalliy ishlab chiqarish talabini qondirish uchun qimmatli ikkilamchi xom ashyo manbasini ta’minlaydi. Misol uchun, Yaponiyadan Vyetnamga ilgari foydalanishda bo‘lgan traktorlar savdosi traktorlarni Vyetnam iqlimi va mahalliy sharoitiga moslashtirish uchun mahalliy ta’mirlash sanoatini yaratdi.

McKinsey & Company ekspertlari ilgari foydalanishda bo‘lgan tovarlar savdosining qiymatini hozirda taxminan 6 milliard yevroga baholaydilar va kelgusida bu sektor har yili taxminan 35 foizga o‘sib, 2025-yil oxiriga kelib bozor qiymati 20 milliard yevroga yetishini prognoz qilmoqdalar.

Ilgari foydalanishda bo‘lgan tovarlar savdosining o‘sishi rivojlanayotgan mamlakatlardagi iste’molchilar uchun foydalidir, chunki bu ularga sifatli ilgari foydalanishda bo‘lgan tovarlarni o‘xshash, past sifatli yangi tovarlarga qaraganda arzonroq narxda sotib olish imkonini beradi. Shu bilan birga, bu ushbu tovarlarning transchegaraviy savdosini ham murakkablashtiradi, chunki bojxona organlarining

normativ hujjatlarga rioya etilishini ta’minlash uchun zarur tekshiruvlarni o‘tkazishni qiyinlashtiradi.

Qayta tiklangan tovarlar savdosi. Yana bir “sirkulyar” savdo oqimi – bu qayta tiklangan yoki qayta ishlab chiqarilgan tovarlar savdosi. Eng ko‘p sotiladigan qayta tiklangan tovarlarga avtomobil va samolyot qismlari, elektronika, mebel, sanoat uskunalari va tibbiy asbob-uskunalar kiradi. 2018-yilda qayta tiklangan maishiy elektronika global bozori taxminan 10 milliard dollarga baholangan. Hozirgi vaqtda Buyuk Britaniyaning ta’mirlash sanoatining umumiy qiymati 2,4 milliard funt sterlingga baholanmoqda, avtomobil sanoati uning eng rivojlangan tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

Hisob-kitoblarga ko‘ra, 2025-yilda faqat avtomobil qismlarini ta’mirlash bo‘yicha jahon bozori 24 milliard dollargacha o‘sishi mumkin. Biroq, qayta ishlab chiqarilgan avtomobil qismlari savdosi tuzilmasi elektromobillarga o‘tish natijasida sezilarli darajada o‘zgarishi mumkin, bu esa ta’mirlash uchun mutlaqo boshqa jihozlar va ko‘nikmalarni talab qiladi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) hisob-kitoblariga ko‘ra, qayta tiklash jarayonlari energiyani 50 foizdan ko‘proq tejashga va chiqindilarni ishlab chiqarishni 80 foizdan ko‘proq qisqartirishga olib kelishi mumkin. Xavfli materiallar bilan ishlash nuqtai nazaridan qayta tiklash, shuningdek halqani yopishning xavfsiz usulini taklif qiladi.

Shuni ta’kidlash kerakki, qayta tiklangan va qayta ishlab chiqarilgan tovarlar savdosi ko‘plab to‘siqlarga duch keladi. Birinchidan, aksariyat davlatlar yangi, ta’mirlangan, qayta tiklangan va ilgari foydalanishda bo‘lgan tovarlar o‘zaro rasman farq qilinmaydi, buning natijasida qayta ishlab chiqarilgan mahsulotlarning transchegaraviy savdosi bo‘yicha ma’lumotlar mavjud emas. Bu ta’mirlash jarayonidan xabardor bo‘lmaslik, unga ishonch yo‘qligi yoki mahalliy sanoat uchun tahdidning kombinatsiyasi bilan bog‘liq. Shuning uchun hukumatlar qayta ishlab chiqarilgan tovarlarni ilgari foydalanishda bo‘lgan tovarlarga ekvivalent deb talqin qilishga moyildirlar. Binobarin, qayta ishlab chiqarilgan tovarlar yuqori import tariflari yoki import taqiqlari, yirik eksport taqiqlari va murakkab byurokratik tartiblar kabi notarif savdo to‘siqlariga duchor bo‘lishi mumkin. Ushbu to‘siqlar qayta ishlab chiqaruvchilarning ishini murakkablashtiradi, chunki ular tranzaksiyalarning vaqti va xarajatlarini oshiradi hamda tovarlarni yetkazib berishni oldindan aytib bo‘lmaydi [8].

Qayta tiklangan tovarlar savdosidagi yana bir to‘siq bu Tovarlarni tavsiflash va kodlashtirishning Uyg‘unlashtirilgan tizimi (UT)da ushbu tovarni identifikatsiya qiluvchi kodlarning mavjud emasligidir. Hozirgi vaqtda faqat bitta qayta tiklangan tovar – qayta tiklangan shinalar (shina protektorlari) – UT kodiga ega. UTda identifikatsiyani takomillashtirish qayta tiklangan mahsulotlarning xalqaro savdosi doirasida moddiy oqimlarni yanada aniqroq kuzatish imkonini beradi.

UT kodlarining yuqorida aytib o‘tilgan cheklovlarini bartaraf etish uchun qayta ishlangan mahsulotlar savdosini qo‘llab-quvvatlovchi ba’zi mamlakatlar ikki tomonlama savdo bitimlariga asosiy va qayta ishlangan tovarlarni tashkil etuvchi

rasmiy ta’riflarni kiritdilar. Masalan, Yevropa Ittifoqi va Vyetnam o‘rtasidagi erkin savdo bitimida qayta ishlangan tovarlar ta’rifi kiritilib, bunday tovarlar bilan muvofiqlashgan savdoni amalga oshirish imkonini beradi. Transtinch okeani hamkorligi bo‘yicha keng qamrovli va progressiv kelishuv (CPTPP) ham qayta ishlangan va ilgari foydalanishda bo‘lgan tovarlarni aniq ajratib, qayta ishlangan tovarlarga import taqiqlari yoki cheklovlari qo‘yilmasligi kerakligini aniqlab beradi.

Qayta ishlash uchun chiqindilar va lomlar savdosi. Qayta ishlash uchun chiqindilar va lomlar savdosi – muhim sirkulyar savdo oqimi hisoblanadi. Birinchidan, xavfli va xavfsiz chiqindilarni farqlash muhimdir. Chiqindilar, agar ular odamlar yoki atrof-muhit uchun xavf tug‘dirmasa, xavfsiz deb qaraladi. Bazel konvensiyasi talablaridan kelib chiqib, xavfli chiqindilarni o‘z joyida qayta ishlash kerak. Shu bilan birga, savdosi amalga oshirilayotgan chiqindilar juda xilma-xil bo‘lib, bu holat ularni tartibga solish jarayonini qiyinlashtiradi.

Chiqindi va lomlar savdosi normativ talablarga rioya qilish bilan bog‘liq boshqaruv muammolari tufayli murakkab hisoblanadi. Shu sababli, chiqindilarni utilizatsiya qilish bo‘yicha qat’iy talablarga ega bo‘lgan yuqori daromadli mamlakatlar ularni qayta ishlashdan ko‘ra chet elga, odatda, past va o‘rta daromadli, mehnat xarajatlari past va ekologik standartlar yengilroq bo‘lgan mamlakatlarga jo‘natadi.

Qayta tiklanadigan chiqindilar (shu jumladan, metall parchalari va qoldiqlari) savdosi sirkulyar iqtisodiyotga erishishning muhim elementi hisoblanadi. Chiqindilarni boshqarishda “qayta tiklash” atamasi ko‘pincha chiqindilarni yoqishdan energiyani qayta tiklashni anglatadi. Biroq, qayta tiklash elektron chiqindilardan alyuminiy, mis, oltin va tantal kabi qimmatbaho rangli metallarni olish shaklida ham bo‘lishi mumkin. Ushbu yondashuv faqat energiyani qayta tiklashdan ko‘ra ko‘proq sirkulyarlik salohiyatini taqdim etadi.

Qayta ishlanadigan chiqindilarni sotishning mavjud afzalliklariga qaramay, ushbu moddiy oqimlarda transchegaraviy savdoni tartibga solish murakkabdir. Hozirgi vaqtda bunday muammolardan biri UT kodlari va Bazel konvensiyasi talablari o‘rtasidagi uyg‘unlikning mavjud emasligi. Bazel konvensiyasining chiqindilarga nisbatan ta’rifi uni yo‘q qilish, ya’ni uning qiymatini minimal darajaga tushirishga qaratilgan bo‘lsa, UTning asosiy maqsadi chiqindilarni tovarlar, ya’ni iste’mol qiymati mavjud obyektlar sifatida ko‘rib chiqishdir. Bu bojxona xizmatlari uchun chiqindilarni tasniflashni murakkablashtiradi. 2013-yildan boshlab Bazel konvensiyasida ko‘rsatilgan ro‘yxatlarni Uyg‘unlashtirilgan tizim kodlari bilan muvofiqlashtirishga harakat qilinmoqda. Bu masalaning ijobiy yechimi sirkulyar chiqindilar savdosini hisobga olish samaradorligini oshirishga yordam beradi. UTning so‘nggi tahririda yangi kod – 8549 “Elektron va elektrotexnika mahsulotlarining chiqindilari va lom” joriy etildi.

Shunga qaramay, Germaniyaning Statista kompaniyasi [9] tahlilchilari tomonidan 2026-yilda sirkulyar tovarlar aylanmasining 2022-yilga nisbatan o‘sishi bo‘yicha hisob-kitoblar amalga oshirilgan (1-jadval).

1-jadval

2026-yilga kelib sirkulyar tovarlar savdosi hajmining o‘sishi

Sirkulyar tovarlar	Sirkulyar tovarlar bozorining daromadi, *mlrd. AQSh dollarda*	
	2022-yil	2026-yil
Maishiy elektrotexnika	93,39	185,79
Asbob-uskunalar	72,65	164,19
Kiyim-kechak	61,32	120,18
Mebel	30,75	69,69
Maishiy uskunalar	28,35	65,09
Aksessuarlar	15,86	31,9
O‘yinchoqlar	14,55	30,83
Poyabzal	12,55	26,01
Hashamat buyumlari	9,47	19,07

Ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, sirkulyar tovarlar savdosi hajmi 2026-yilga kelib “ilgari foydalanishda bo‘lgan tovarlar” sifatida aniqlanishi mumkin bo‘lgan barcha mahsulot toifalari bo‘yicha ikki barobardan ko‘proq o‘sishi kutilmoqda. Bu shuni anglatadiki, xalqaro savdo, hech bo‘lmaganda ilgari foydalanishda bo‘lgan tovarlar bilan ham taxminan ikki baravar ko‘payadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xalqaro Savdo Palatasi (ICC) tomonidan 2021-yilda e’lon qilingan hisobotda, agar hukumatlar sirkulyar biznes modellarini qabul qilishni tezlashtirish bo‘yicha o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishmoqchi bo‘lsalar, global savdo qoidalarini jiddiy qayta ko‘rib chiqish zarurligini ta’kidlaydi.

Hisobotda ta’kidlanishicha, xalqaro savdo resurslar samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynasa-da, bugungi kunga qadar chora-tadbirlar asosan milliy darajada va muvofiqlashtirilmagan holda ishlab chiqilgan. Ushbu “chala” tashabbuslarning yakuniy natijasi kompaniyalarning sirkulyar yechimlarni amalga oshirish qobiliyatiga to‘sqinlik qiluvchi savdodagi kelishmovchiliklarning kuchayishiga olib kelib, ular yirik miqyos hisobiga iqtisod qilish uchun transchegaraviy savdoga tayanadi. Hisobotda quyidagilar alohida ta’kidlangan:

- elektromobillarning akkumulyatorlarini qayta ishlashga qayta ishlash qoidalari yoki chiqindilarni tashkil etuvchi ta’riflardagi yurisdiksiyalar o‘rtasidagi farqlar sezilarli darajada to‘sqinlik qiladi;
- Yevropa qoidalarining umumiy talqinining mavjud emasligi “chiqindilar”ning Yevropa Ittifoqi yurisdiksiyalari bo‘ylab harakatlanishida to‘siqlarga olib keladi, chunki mamlakatlar xavfli chiqindilar deb hisoblanadigan turli xil ro‘yxatlarni qabul qiladilar;
- milliy qonunchilik qayta ishlatilishi, ta’mirlanishi, qayta ishlatilishi yoki qayta tiklanishi mumkin bo‘lgan mahsulotlar yoki materiallar bilan utilizatsiya qilinishi kerak bo‘lgan mahsulotlarni samarali farqlamaydi;
- chiqindilarni qayta ishlatish ko‘pincha mahsulot sifatini emas, balki faqat kelib chiqishini hisobga oladigan qoidalar bilan cheklanadi;

- UTning nomukammalligi sirkulyar tovarlarni samarali aniqlashga to‘sqinlik qiladi;

- ikkilamchi materiallarga yuqori bojxona tariflarini qo‘llash sirkulyar oqimlarning narxini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan fikrlarni umumlashtirgan holda, shuni qayd etish kerakki, UT va “Xavfli chiqindilarni chegaralararo tashish va yo‘q qilib yuborish ustidan nazorat qilish to‘g‘risida”gi Bazel konvensiyasi doirasida sirkulyar tovarlarni identifikatsiyalashning aniq qoidalariga o‘tishni tezlashtirish, ushbu mahsulotlarning samarali kuzatilishini ta’minlash va qayta tiklangan mahsulotlar savdosida “soxta” bozorning paydo bo‘lish potensialini bartaraf etish bilan bog‘liq muammolarni hal qilish juda muhimdir. Sirkulyar tovarlar xalqaro savdosining muvaffaqiyati, jumladan, sirkulyar iqtisodiyotning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan shu va boshqa tegishli masalalarni hal etishga bog‘liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Top 8 Circular Economy Trends & Innovations in 2023. URL: https://www.startus-insights.com/innovators-guide/top-8-circular-economy-trends-innovations-in-2021/

2. The role of international trade in realizing an inclusive circular economy. URL: https://www.chathamhouse.org/ 2022/ 10/ role-international-trade-realizing-inclusive -circu lar-economy/02-what-circular-trade

3. Chatham House. circulareconomy.earth, 2022. «Trade flows». URL: https://circulareconomy.earth/trade?year=2000&category=2&units=value&autozoom=1.

4. Barrie J., Schneider-Petsinger M., Benton T. The role of international trade in realizing an inclusive circular economy. URL: https://www.chathamhouse.org/2022/10/role-international-trade-realizing-inclusive-circular-economy/02-what-circular-trade

5. WTO, Environmental Goods Agreement (EGA). URL: https://www.wto.org/en glish/tratop_e/envir_e/ega_e.htm

6. Grand View Research. Recycling Equipment Market Size, Share & Trends Analysis Report. URL: https://www.grandviewresearch.com/industry-analysis/recycling-equipment-market

7. The role of international trade in realizing an inclusive circular economy. URL: https:// www.chathamhouse.org/2022/10/role-international-trade-realizing-inclusive-circular-economy/02-what-circular-trade

8. Snodgress D. Remanufacturing – Sustainability for the 21st Century, presentation. URL: https://www.wto.org/english/forums_e/public_forum12_e/session40snodgress_e.pdf

9. Estimated revenue of the circular economy market in 2022 and 2026 worldwide, by category. URL: https://www.statista.com/statistics/1337439/circular-economy-market-revenue-by-category/

QISHLOQ XO‘JALIGI KLASTERLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI

Yuldasheva Dildora Kamiljan qizi
Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti
mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligi klasterlarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash muammolari va ularni rivojlantirish yo‘nalishlari tahlil qilingan. Moliyaviy resurslarni boshqarish, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, risklarni sug‘urta va hedj mexanizmlari orqali kamaytirish, shuningdek, raqamli texnologiyalardan foydalanish masalalari yoritilgan. Amaliy takliflar sifatida klasterlarda moliyaviy barqarorlikni oshirishga xizmat qiluvchi mexanizmlar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: qishloq xo‘jaligi, klaster, moliyaviy barqarorlik, risk-menejment, agrofintech, kooperatsiya.

Аннотация

В данной статье проанализированы проблемы обеспечения финансовой устойчивости сельскохозяйственных кластеров и направления их развития. Особое внимание уделено вопросам управления финансовыми ресурсами, диверсификации источников финансирования, снижению рисков через страхование и хеджирование, а также внедрению цифровых технологий в агробизнес. В результате исследования предложены практические механизмы, способствующие повышению финансовой устойчивости кластеров в аграрном секторе.

Ключевые слова: сельское хозяйство, кластер, финансовая устойчивость, риск-менеджмент, агрофинтех, кооперация

Abstract

This article analyzes the challenges of ensuring financial stability in agricultural clusters and explores key development directions. The study focuses on managing financial resources, diversifying funding sources, reducing risks through insurance and hedging mechanisms, and utilizing digital technologies in agribusiness. Based on the findings, practical mechanisms are proposed to strengthen the financial resilience of clusters in the agricultural sector.

Keywords: agriculture, cluster, financial stability, risk management, agrofintech, cooperation

KIRISH

So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi klasterlari agrar ishlab chiqarishni tashkil etishning samarali shakllaridan biri sifatida shakllanmoqda. Klasterlar ishlab chiqaruvchilar, qayta ishlovchi korxonalar va eksportchilarni yagona zanjirda birlashtirish orqali nafaqat hosildorlikni, balki qo‘shimcha qiymat yaratish imkoniyatlarini ham kengaytiradi. Biroq ularning barqaror rivojlanishi ko‘plab moliyaviy muammolarga duch kelmoqda: kredit mablag‘laridan yuqori darajada

qaramlik, sug‘urta mexanizmlarining rivojlanmaganligi, ichki moliyaviy boshqaruvning sustligi va investitsion oqimlarning cheklanganligi shular jumlasidandir.

Shu bois qishloq xo‘jaligi klasterlarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash masalasi ilmiy va amaliy jihatdan dolzarbdir.

Barqaror iqtisodiy o‘sish – bu uzoq vaqt davomida barqaror darajada saqlanishi mumkin bo‘lgan iqtisodiy o‘sish hisoblanadi. Ushbu tushuncha 1970–1980-yillarda jamiyat va fan taraqqiyoti muammolari, tabiiy resurslarning cheklanishi hamda ekologik vaziyatning jahon hamjamiyati tomonidan tan olinishi fonida vujudga kelgan. Barqaror rivojlanishga erishish dunyoning barcha mamlakatlari oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri. Barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o‘sishdan asosiy maqsad – kelajak avlodlar manfaatlarini hisobga olgan holda, iqtisodiy tiklanishni ta’minlash va shu bilan birga, resurs bazasi va atrof-muhitni muhofaza qilishdir. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning barqarorligi konsepsiyasi takror ishlab chiqarishning yakuniy natijalari – aholining moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish bilan bog‘liq. Shunga muvofiq, takror ishlab chiqarishning barqarorligi ijtimoiy-iqtisodiy tushuncha sifatida qaraladi.

Iqtisodiyotning o‘sish davrida ishlab chiqarishning barcha tarkibiy qismlari taraqqiy etishi boshlanadi. Turmush darajasining o‘sishi natijasi kutiladigan barqaror talab darajasida shakllanadi. Shu bilan birga, shuni ta’kidlash kerakki, iqtisodiyotning taraqqiy etishi o‘z tarozisi va ma’lum salbiy oqibatlariga ega. Shuningdek, barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish san’ati qo‘yilgan maqsadlarga yetish uchun tanlangan ustuvor yo‘nalishlar va tegishli strategiyalarni aniqlab olish bilan asoslanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853- sonli farmonida qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tarmog‘ini modernizatsiyalash, diversifikatsiya qilish va barqaror o‘sishini qo‘llab-quvvatlash uchun xususiy investitsiya kapitali oqimini ko‘paytirishni nazarda tutuvchi sohada davlat ishtirokini kamaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish mexanizmlarini joriy qilish; qishloq joylarini muvozanatli va barqaror taraqqiy ettirishga ko‘maklashishni nazarda tutuvchi qishloq hududlarini rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish kabi asosiy yo‘nalishlar belgilab berilgan.

Shuningdek, qishloq hududlarini rivojlantirish borasida “2020–2025-yillarda qishloq hududlarini barqaror rivojlantirish Konsepsiyasi”ning ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi monitoringini olib borish vazifasi qo‘yilgan. Mazkur tadqiqot ishining maqsadi qishloq xo‘jaligida barqaror iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlarining kompleks tahlilini amalga oshirishdan iborat. Shu maqsaddan kelib chiqqan holda, barqaror iqtisodiy o‘sish tushunchasiga aniqlik kiritish; iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlarini makro, mezo, mikro darajalarda aniqlash va tahlil qilish; iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlari barqarorligini baholash; barqaror iqtisodiy o‘sishni namoyon qiladi.

Qishloq xo‘jaligida faoliyat yurituvchi fermer va dehqon xo‘jaliklari tomonidan yetishtirilayotgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining kamayishiga hamda qishloq xo‘jaligi mavsum davomida kutilgan natijani olishiga bevosita qishloq xo‘jaligi

faoliyatiga jiddiy ta’sir qilayotgan iqlimiy xavflar bevosita qishloq xo‘jaligida risklarni kamaytirish zaruriyatini talab qiladi. Biroq, qishloq xo‘jaligi faoliyatini yuritishdagi katta muammolardan biri sifatida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarning mol-mulki, ular tomonidan yetishtirilayotgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, qishloq xo‘jaligida band aholi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishdan to iste’molchiga yetib borguncha bo‘lgan jarayondagi kutilmagan risklardan sug‘urtalash orqali turli moliyaviy yo‘qotishlardan ko‘rilgan zararlarni bartaraf etish muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan yetishtirilayotgan ekinlar hosilini turli risklardan sug‘urtalash borasida quyidagi masalalarga e’tibor qaratilmayapti:

- qishloq xo‘jaligi ekinlarini sug‘urtalashda mavjud tariflarning diferensiallashmaganligi yoki sug‘urtalanuvchilarning hududiy nuqtai-nazardan daromadi hisobga olinmaganligi;
- qishloq xo‘jaligi ekinlari hosilini sug‘urtalashda sug‘urtalovchi tashkilotlar tomonidan xorijiy tajribalar joriy etilmaganligi;
- qishloq xo‘jaligi ekinlari hosilini sug‘urtaviy himoyalash borasida sug‘urtalanuvchilarda sug‘urta faoliyatiga oid bilim va ko‘nikmalarining yetishmasligi;
- qishloq xo‘jaligi ekinlari hosilini turli iqlimiy risklardan sug‘urtalash borasida o‘z vaqtida targ‘ibot-tashviqot ishlarining sustligi;
- qishloq xo‘jaligi ekinlarining vegetatsiya davrida o‘simlik kasalliklari hamda turli zararlantiruvchi hashoratlarga qarshi kurashish ishlarining o‘z muddati va me’yorida tashkil etilmasligi;
- sug‘urtalovchi va sug‘urtalanuvchilar o‘rtasida tuzilgan shartnoma shartlarining o‘z vaqtida bajarilmasligi yoki turli nizolarni bartaraf etishda da’voni qondirilish bilan bog‘liq muddatlarning cho‘zilib ketishi;
- qishloq xo‘jaligi ekinlari hosilini qayta sug‘urtalash bo‘yicha sug‘urta tariflarining yuqoriligi va boshqalar. Qishloq xo‘jaligi risklari sifatida tabiiy ofatlar, stixiyali va texnogen tusdagi hodisalar, ekstremal hodisalar, issiqlikning me’yoridan ortishi, turli epidemik kasallik va viruslar tarqalishi, yoppasiga zararkunandalar va chigirtkalar bosishi, atrof-muhitning ifloslanishi va ekologiyaning izdan chiqishi kabi xavf-xatarlar bevosita qishloq xo‘jaligi ekinlari hosiliga keskin ta’sir qiladi. Mamlakatimiz agrar tarmoqlarida jami klasterlar soni 669 tani tashkil etadi. Bugungi kunda paxta-to‘qimachilik klasterlari 153 ta, g‘allachilik klasterlari 126 ta, meva-sabzavotchilik klasterlari 136, sholichilik 41 ta, dorivorchilik 8 ta, chorvachilik 34 ta, qorako‘lchilik 46 ta, parrandachilik 11 ta, baliqchilik 38 ta va pillachilik 76 tani tashkil etmoqda. [1]

O‘zbekiston Respublikasi sanoat tarmoqlari hamda paxtani qayta ishlovchi klasterlarning asosiy xom ashyo manbai hisoblangan paxta ekini hosildorligining yuqori bo‘lishi muhim ahamiyatga ega. Paxta ekini hosilini sug‘urtalash bo‘yicha

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabr PF-5853-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni https://lex.uz/docs/-4567334

tuzilgan sug‘urta shartnomalari o‘zgarishini tahlil qiladigan bo‘lsak, 2014-yilda fermer xo‘jaliklari bilan 12168 ta shartnomalar tuzilgan bo‘lsa, 2016-yilga kelib 36821 ta shartnomalar tuzilgan va oxirgi o‘n yilda eng ko‘p tuzilgan shartnomalar sifatida qayd etish mumkin.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining raqobatbardoshligi mikroiqtisodiy kategoriya hisoblanadi, shuning uchun ham uning darajasini ko‘tarish iqtisodiyotning agrar soha subyektlarining manfaatlari in’ikosi hisoblanadi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetkazib berishda raqobatbardoshligining dialektikligi shundan iboratki, aynan unda qishloq xo‘jaligi sohasi va davlatning iqtisodiy manfaatlarining birligi, shu bilan birgalikda qarama-qarshiligi ham namoyon bo‘ladi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari raqobatbardoshligi milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligi nuqtai nazaridan qaraladi, ya’ni bir tomondan, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari raqobatbardoshligining darajasi ma’lum bir darajada makroiqtisodiyot omillar bilan aniqlansa, ularni tartibga solib turilishi esa davlatning vakolatida bo‘ladi. Boshqa bir tarafdan esa, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining raqobatbardoshlik o‘rnini mustahkamlash umumdavlat iqtisodiy manfaatlar sohasiga qarashli bo‘lgan, xususan iqtisodiy va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash kabi makroiqtisodiy xarakterdagi butun bir qator muammolarni hal qilinishiga imkon yaratadi.

Mamlakat hududlarining raqobatbardosh salohiyatini ro‘yobga chiqarish maqsadida hududiy-ishlab chiqarish klasterlari tarmog‘ini yaratishni, shuningdek mamlakatning hududlarida bir qator yuqori texnologik klasterlarni shakllantirishni nazarda tutadigan uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasi ishlab chiqilishini taqozo etadi. Qishloq xo‘jaligining tarmoqlararo integratsiyasi bu aktsionizatsiya, kooperatsiya yoki klasterlash mexanizmlaridan foydalangan holda birgalikdagi faoliyatni tashkil etishdir. Bugungi kunda yirik xo‘jaliklar o‘zlarining rivojlanishini aktsionizatsiya mexanizmlaridan, o‘rta va kichik xo‘jaliklar - kooperatsiya va klasterlash mexanizmlaridan foydalangan holda ta’minlamoqda. Klaster subyektlari qishloq xo‘jaligining raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Klasterlash mexanizmidan foydalanish ma’lum bir hududda joylashgan texnologik jihatdan bog‘liq bo‘lgan barcha xo‘jaliklarning huquqiy mustaqilligini yo‘qotmasdan, ularning chuqur ishlab chiqarish ixtisoslashuvi tufayli birgalikdagi faoliyatini tashkil etishga imkon beradi. Klaster doirasidagi qishloq xo‘jaligining qo‘shma faoliyatini boshqa integratsion shakllari bilan taqqoslash quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi: ϖhududiy lokalizatsiya, klasterda qatnashadigan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning asosiy qismining geografik yaqinligi; ϖkooperatsiya, ixtisoslashuv va konsentratsiyani rivojlantirishning yuqori darajasi; ϖklaster tizimi ishtirokchilarining iqtisodiy aloqalarining barqarorligi, uning ko‘pchilik ishtirokchilari uchun ushbu aloqalarning ustunligi; ϖbarcha klaster a’zolarining uzoq muddatli iqtisodiy, sarmoyaviy, innovatsion va boshqa strategiyasini belgilaydigan yirik yetakchi tashkilotning mavjudligi; ϖinnovatsion jarayonlarning ishlab chiqarish dasturlari, asosiy boshqaruv tizimlari, sifat nazorati doirasida klaster a’zolari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni uzoq muddatli muvofiqlashtirish; ϖbarcha

ishtirokchilar uchun umumiy mahsulotlar (tovarlar, xizmatlar, tovar, brend), masalan, don, sabzavot, sut, go‘sht, parranda tuxumlari va h.o.lar.

Mahsulot zanjiri ishtirokchilari o‘rtasida tenglik almashinuvi asosida mustaqil korxonalar, kooperatsiya va ishonch klasteriga a’zolikning ixtiyoriyligi va ochiqligi:

- klaster birlashmasining hokimiyat bilan yaqin o‘zaro aloqasi;
- hakamlik sudining mavjudligi;
- klasterlarni shakllantirish va ishlash mexanizmi mintaqaviy sinergetik ta’sirga ega bo‘lib, u resurslarni (moddiy, mehnat, moliyaviy, axborot, innovatsion) birlashtirish yoki birgalikda foydalanish, tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish, bozorga kirish, ishtirokchilar manfaatlarini hal qilish va muvozanatlash, o‘z-o‘zini tashkil etishning samarali tizimini shakllantirish orqali amalga oshiriladi.

M. Porter klasterlarni keng o‘rganishni boshlagan birinchi olim hisoblanadi. U globallashuv sharoitida ishlab chiqarishni tashkil qilish va boshqarishni tarmoq (tarmoqlar) yondashuvi o‘z pozitsiyalarini yo‘qotmoqda va firmalar va tashkilotlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni klasterli tashkil etish tizimlari birinchi o‘rinda turadi degan xulosaga keladi. M.A. Xvesik va A.S.Lesitskiyning fikriga ko‘ra, qishloq xo‘jaligi sohasida ikki xil klaster - innovatsiya va ishlab chiqarishni shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Innovatsion klaster - bu ilmiy, tadqiqot va tajriba-konstruktorlik institutlari, ta’lim muassasalari, konsalting kompaniyalari, muhandislik firmalari, biznes tuzilmalarini innovatsion provayderlarni, boshqa tashkilotlarni qo‘llab-quvvatlash uchun korporativ iyerarxiya va bozor mexanizmidan foydalangan holda ularning harakatlarini birgalikda markazlashtirilgan muvofiqlashtirish orqali birlashtirib, raqobatbardosh ustunliklarga erishishning eng ilg‘or shaklidir. 2. Ishlab chiqarish klasteri - qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarini, mahsulotlarni qayta ishlash va saqlashni, logistika va marketing kompaniyalari tarmog‘ini, xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalarini birlashtiradi. Uning asosiy afzalliklari, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishning tarmoq tizimi bilan taqqoslaganda, yaqinroq va "arzon" xo‘jaliklararo aloqalar, ishlab chiqarish kuchlaridan birgalikda foydalanish orqali ishlab chiqarish miqyosining tejamkorligini qo‘llash uchun mavjud sharoitlar, shuningdek yopiq ishlab chiqarish siklini yaratish orqali sezilarli raqobatdosh ustunliklarga erishish, mahsulotlarni saqlash va qayta ishlashdan iboratdir.

Jahon amaliyoti ko‘rsatib turibdiki, klasterlar qishloq xo‘jaligi korxonalarining raqobat muhitida ishlashining iqtisodiy mexanizmini moslashtirish shakllaridan biri bo‘lib, agrosanoat ishlab chiqarishni rivojlantirishni jadallashtirish, ayrim xo‘jalik yurituvchi subyektlar va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish, innovatsion jarayonlarni samarali tashkil etilishini ta’minlash, savdo hajmini kengaytirish maqsadida o‘ziga xos iqtisodiy makonni shakllantirish, kapital va resurslardan samarali foydalanish kabilardir.



1-rasm. O‘zbekiston YAIMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibi 2023-yilda[1]

2022-yilda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 53,2 foizi o‘simlik mahsulotlarini, 46,8 foiz chorvachilik mahsulotlarini tashkil etdi. 2023-yilda qishloq xo‘jaligida 3,7 million kishi ish bilan ta’minlandi (jami ish bilan ta’minlanganlarning 27,2 foizi). Mamlakat aholisining deyarli yarmi qishloq joylarida yashaydi (2019-yil 1 yanvar holatiga ko‘ra O‘zbekistonda 33,25 mln. kishi, shu jumladan, qishloq joylarda 16,45 mln kishi (aholining 49,5 foizi) yashaydi).

Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotning eng ko‘p boshqariladigan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Katta yirik qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari, dehqonlarning mulk huquqi o‘ta himoyasiz, ularning faoliyatini tartibga solish usullari, de fakto sovet o‘tmishidan olingan, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va ishlab chiqarish resurslari hamda sektor uchun xizmatlar bozori ishlab chiqilmagan. Qishloq xo‘jaligi sektori islohotga muhtoj bo‘lib qolmoqda. O‘zbekiston ikki yil davomida tizimli iqtisodiy islohotlar kursini aniqlagan bo‘lsada, qishloq xo‘jaligida deyarli o‘zgarish yo‘q.

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarining asosiy toifalari

Sobiq sovet ittifoqining boshqa respublikalari singari O‘zbekiston 1980-yillar oxiridan boshlab bozor iqtisodiyotiga, shu jumladan qishloq xo‘jaligiga o‘tishni boshladi. 1989-yildan buyon sobiq qishloq va fermer xo‘jaliklaridan qishloq aholisi uchun qishloq xo‘jaligi yerlarining ko‘p qismi alohida fermer xo‘jaliklarini tashkil etish uchun ajratildi. 1994-yilga kelib barcha kollektiv va fermer xo‘jaliklari kooperativ fermer xo‘jaliklariga yoki shirkat xo‘jaliklariga aylantirildi. 2000-yillarning

[1] Muallif ishlanmasi

boshida shirkat xo‘jaliklari qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishning asosiy subyektlari sifatida fermer xo‘jaliklariga almashtirildi. Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ko‘pchiligi ular tomonidan emas, balki kichik dehqon xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqariladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qishloq xo‘jaligi klasterlarining moliyaviy barqarorligini rivojlantirish bugungi kunda agrar siyosatning eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. Tahlil qilingan mahalliy va xorijiy adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, klasterlar nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, balki kichik fermer xo‘jaliklarining moliyaviy resurslarga kirishini yengillashtiradi, raqobatbardoshlikni kuchaytiradi va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ularning barqarorligini ta’minlashda diversifikatsiya, innovatsion yondashuvlar, raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanish, davlat–xususiy hamkorlik mexanizmlarini kengaytirish hamda xalqaro tajribani mahalliy sharoitga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois qishloq xo‘jaligi klasterlarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki agrar sohada uzoq muddatli rivojlanish va ijtimoiy barqarorlikni ham kafolatlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ochilov, I. “Methodology for assessing the financial efficiency of agro-clusters.” — E3S Conference paper (PDF). Metodologiya va baholash mezonlari, moliyaviy ko‘rsatkichlar va ularni hisoblash usullari.

2. “QISHLOQ XO‘JALIGI KLASTERLARI FAOLIYATI — ekonometrik tahlil” (maqola / ResearchGate). O‘zbekistondagi klasterlar faoliyatining ekonometrik tahlili va tavsiyalar.

3. “Agricultural clusters in the Republic of Uzbekistan” — maqola / in-library. Klaster tizimini joriy etish tarixi, hukumat siyosati va amaliy tajriba. in-library.uz

4. Kun.uz — “President: Cluster system in agriculture fully justifies itself in practice.” Davlat siyosati, klasterlar soni va milliy natijalar (amaliy kontekst). https://www.kun.uz

5. Mamasoliyev G‘. “O‘zbekiston qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda xorijiy va mahalliy tajriba” (PDF/Zenodo). Mahalliy strategiyalar, kreditlash va investitsiya mexanizmlari.

6. “Qishloq xo‘jaligida ixtisoslashgan klasterlarni shakllantirish” — ta’lim material (BuxDU/resurs). Klaster yaratish tamoyillari va amaliy tavsiyalar. Uniwork

7. “Seed-growing clusters to be created in Uzbekistan” — Kun.uz (2019). Mintaqaviy klaster loyihalari, investitsiya va davlat kreditlari misollari. https://www.kun.uz

8. Kurdyś-Kujawska, A. “Financial Innovation in Building Agricultural Sector Resilience” — MDPI (2025). Moliyaviy innovatsiyalar, blended finance va barqarorlik instrumentlari.

9. Romero, M.H., et al. “Financial resilience of agricultural and food production companies in Spain: compositional cluster analysis” — arXiv / PDF (2025). Klaster-asosli moliyaviy chidamlilik tahlillari va metodologiya.

10. Gao, X. va boshq. “Impact of digital financial inclusion on resilience of agricultural industry chain” — Frontiers (2024). Raqamli moliyaviy inklyuziya va zanjir chidamliligi.

KOMPANIYALARDA IQTISODIY KO‘RSATKICHLARNI YAXSHILASHDA XODIMLAR SALOHIYATINING O‘RNI

Sattarov Shuxrat Abug‘affarovich
Davlat statistika qo‘mitasi huzuridagi
Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti
mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: sattarovsh1991@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada kompaniyalarda iqtisodiy ko‘rsatkichlarni yaxshilashda xodimlar salohiyatining roli ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilingan. Inson kapitali kompaniyaning asosiy strategik aktivi sifatida baholangan holda, uning rivojlanishiga ta’sir etuvchi KPI indikatorlari orqali tahlil o‘tkazilgan. Tadqiqotda “O‘zbekneftgaz” AJ misolida xodimlar samaradorligi va tashkilotning iqtisodiy ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik ochib berilgan. Natijalar asosida kompaniyalarda KPI, kompetensiya modeli va motivatsiya tizimini integratsiya qilish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: inson kapitali, KPI, xodimlar salohiyati, iqtisodiy samaradorlik, HR analitika, korporativ strategiya, motivatsiya, kompetensiya.

Аннотация

В данной статье научно-практически проанализирована роль потенциала сотрудников в улучшении экономических показателей компаний. Человеческий капитал рассматривается как основной стратегический актив компании, и его развитие проанализировано через показатели KPI. На примере АО "Узбекнефтегаз" раскрыта взаимосвязь между эффективностью сотрудников и экономическими результатами организации. На основе полученных данных разработаны практические предложения по интеграции системы KPI, модели компетенций и мотивационных механизмов в корпоративную структуру.

Ключевые слова: человеческий капитал, KPI, потенциал сотрудников, экономическая эффективность, HR-аналитика, корпоративная стратегия, мотивация, компетенция.

Abstract

This article presents a scientific and practical analysis of the role of employee potential in improving companies’ economic performance. Human capital is assessed as a key strategic asset of a company, and its development is examined through KPI indicators. Using the example of "Uzbekneftegaz" JSC, the relationship between employee efficiency and organizational economic performance is revealed. Based on the findings, practical recommendations are developed for integrating KPI systems, competency models, and motivation mechanisms into corporate strategy.

Keywords: human capital, KPI, employee potential, economic efficiency, HR analytics, corporate strategy, motivation, competency.

KIRISH

Tashkilot faoliyatining samaradorligi ko‘plab omillarga bog‘liq bo‘lsa-da, ularning ichida xodimlarning kasbiy salohiyati alohida ahamiyatga ega. Ish kuchining bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lishi, o‘z vazifasini mas’uliyat bilan bajarishi va doimiy ravishda yangilanishga intilishi — bu nafaqat kundalik vazifalarni bajarish darajasini oshiradi, balki tashkilotning uzoq muddatli rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Raqobat kuchli bo‘lgan iqtisodiy muhitda bu omil yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Ishlab chiqarish texnologiyalarining rivojlanishi, boshqaruv jarayonlarining raqamlashtirilishi va xizmatlar sohasi bo‘yicha talablardagi o‘zgarishlar kompaniyalardan moslashuvchan, tashabbuskor va malakali ishchi kuchiga ega bo‘lishni talab qiladi. Ana shunday sharoitda inson kapitaliga yo‘naltirilgan sarmoyaning foydasi yanada yaqqol namoyon bo‘ladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson rivojlanishi indeksi (Human Development Index) bo‘yicha olib borilgan tahlillar ham mamlakatlar darajasida inson kapitaliga qilingan investitsiyalar bilan iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlari o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjudligini tasdiqlaydi.

Korporativ miqyosda esa xodimlarning kasbiy salohiyatini samarali boshqarish, ularning rivojlanishini baholash va rag‘batlantirish vositalarini aniqlashtirish orqali tashkilot o‘z ichki resurslaridan to‘liq foydalanishi mumkin bo‘ladi. Shu bois, kompaniyalar xodimlar faoliyatini baholashda aniq mezonlarga tayangan holda, KPI (Key Performance Indicators) tizimidan keng foydalanmoqda. Bu ko‘rsatkichlar orqali xodimning nafaqat ish hajmi, balki natijadorligi, sifat darajasi va jamoaviy faoliyatga qo‘shgan hissasi ham baholanadi. Natijada, inson resurslarini boshqarish kompaniyaning umumiy strategiyasiga integratsiyalashib, raqobatbardoshlikni oshirishda asosiy vositaga aylanmoqda.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda “O‘zbekneftgaz” aksiyadorlik jamiyatining 2020–2024 yillardagi kadrlar salohiyati va moliyaviy ko‘rsatkichlari asosida tahlil olib borildi. Mehnat samaradorligini baholash uchun KPI ko‘rsatkichlari asosida HR-indikatorlar tahlili amalga oshirildi. Kompaniyaning natijalari Shell, BP va UzAuto Motors kabi tashkilotlar tajribasi bilan qiyosiy tahlil qilindi. Shuningdek, xodimlar malakasi bilan ishlab chiqarish samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash uchun iqtisodiy modellashtirish yondashuvi qo‘llanildi. Bu metodlar orqali inson kapitalining iqtisodiy samaradorlikka ta’siri tizimli asosda o‘rganildi.

TAHLIL VA NATIJALR

Xodimlar salohiyatining iqtisodiy natijalarga ta’siri quyidagicha: “O‘zbekneftgaz” AJda 2020–2024 yillarda malaka oshirgan xodimlar soni 8 381 tadan 9 030 tagacha o‘sgan. Shu bilan bir vaqtda mehnat unumdorligi indikatori 14% ga oshgan, ishlab chiqarishdagi brak darajasi esa 9,4% dan 6,2% gacha kamaygan[1].

[1] https://www.ung.uz/shareholders/reports/11/sub/30/1

Bu holat xodimlar salohiyatini rivojlantirish iqtisodiy samaradorlikni to‘g‘ridan to‘g‘ri oshirishini ko‘rsatadi.

1-jadval

Xodimlar salohiyati o‘sishining iqtisodiy samaradorlikka ta’siri [1]

Yil	Malaka oshirganlar soni	Ishlab chiqarish hajmi (mlrd so‘m)	Mehnat unumdorligi
2020	8 381	10 240	0
2021	10 144	10 350	+10,8
2022	8 293	12 260	+8,1
2023	8 864	13 440	+9,6
2024	9 030	14 020	+14,2

2-jadval

“O‘zbekneftgaz”da qo‘llaniladigan asosiy KPI indikatorlar [2]

KPI nomi	Hisoblash formulasi	2023 yil natijalari	Izoh
Employee Productivity Index	Ishlab chiqarish hajmi/xodimlar soni	415 mln so‘m	Xodim unumdorligining o‘sishi 11%
Training ROI (Return on Investment)	(o‘quv samarasi – harajat/harajat)	2,8	Har 1 so‘m harajat 2,8 so‘m foyda keltirgan
Employee Turnover Rate	Ketganlar/jami xodimlar	7,7%	2020 yildagi 15,5%dan ikki baravar kamaygan
Engagement Rate	Faol ishtirok etuvchilar/ umumiy xodimlar	83%	Motivatsiya darajasi yuqori
Quality Index	Yaroqli mahsulot/ umumiy mahsulot	93,8%	Sifat nazorati samaradorligi oshgan

KPI indikatorlari orqali samaradorlik tahlillaridan ma’lum bo‘lishicha, KPI tizimi joriy etilganidan keyin kompaniyada:

- mehnat unumdorligi 14% ga;
- mahsulot sifati 7% ga;
- xodimlar aylanmasi 50% ga kamaygan.

Xalqaro tajriba bilan taqqoslaydigan bo‘lsak, Deloitte (2024) ma’lumotlariga ko‘ra, KPI tizimini joriy etgan kompaniyalarda foydalilik ko‘rsatkichi o‘rtacha 23% ga yuqori bo‘ladi. “BP” va “Shell” kabi kompaniyalarda xodimlar salohiyatini baholash uchun Balanced Scorecard ва Performance Analytics kabi kompleks HR tizimlaridan foydalanilganligini ko‘rish mumkin[3].

[1] Muallif ishlanmasi
[2] Muallif ishlanmasi
[3] https://esgnews.com/ru/amp/deloitte-2024-report-highlights-trust-and-human-sustainability-as-crucial-for-organizational-success/

Tahlil natijalari shundan dalolat beradiki, iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda moddiy resurslardan ko‘ra, inson kapitaliga qilingan sarmoya ko‘proq natija beradi.

Xodimlar salohiyatini baholashda KPI tizimiga qo‘shimcha ravishda OKR (Objectives & Key Results) va 360° Feedback kabi usullardan ham foydalanish maqsadga muvofiq.

Biroq ayrim mahalliy kompaniyalarda KPI ko‘rsatkichlari formal tarzda belgilanib, natijaga ta’siri kam bo‘ladi. Bu holat KPI tizimini joriy etishda HR analitika va raqamlashtirishning yetarli darajada rivojlanmagani bilan izohlanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, xodimlar salohiyatini rivojlantirish kompaniya faoliyatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mehnat unumdorligi, mahsulot sifati va ish jarayonlarining barqarorligi bevosita inson kapitalining holatiga bog‘liq. Tashkilot ichida xodimlarning bilim, ko‘nikma va motivatsiya darajasi oshgani sayin iqtisodiy samaradorlik ham ortadi. Ayniqsa, malaka oshirish, samarali baholash tizimlarini qo‘llash va motivatsiyani rag‘batlantirish orqali bu jarayonni aniq boshqarish mumkin.

Zamonaviy KPI tizimini joriy etish bu borada asosiy vositalardan biri bo‘lib, kompaniyaning strategik maqsadlariga erishishda muhim rol o‘ynaydi. KPI ko‘rsatkichlari orqali xodimlarning natijadorligini baholash, ish haqini samaraga bog‘lash va ichki jarayonlardagi kamchiliklarni aniqlash imkoniyati yaratiladi. Tahlil natijalariga ko‘ra, bu tizimni to‘g‘ri qo‘llagan kompaniyalarda mahsulot sifati oshgan, mehnat unumdorligi ko‘tarilgan va xodimlar almashinuvi kamaygan.

Ushbu yondashuvni kengroq qo‘llash uchun har bir yirik tashkilotda HR analitika bo‘limini shakllantirish tavsiya etiladi. Bu bo‘lim orqali KPI, OKR (Objectives and Key Results) va boshqa baholash tizimlari raqamli asosda monitoring qilinishi, to‘plangan ma’lumotlar asosida aniq qarorlar qabul qilinishi mumkin. HR analitika orqali inson resurslariga oid qarorlar tasodifiy emas, balki faktlarga asoslangan holda shakllanadi.

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, inson kapitaliga qaratilgan investitsiyalar nafaqat iqtisodiy foyda, balki tashkilot ichidagi jamoaviy muhit, barqarorlik va korporativ madaniyatni mustahkamlashga xizmat qiladi. Xodimlar salohiyatiga berilgan e’tibor kompaniyaning hozirgi samaradorligi bilan bir qatorda, uning kelajakdagi raqobatbardoshligini ham belgilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Association for Talent Development (ATD). State of the Industry Report 2025.
2. Deloitte. Human Capital Trends 2024.
3. PwC. Future of Work: Workforce Strategy Report 2023.
4. Becker, G. S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis. – University of Chicago Press, 1993.
5. Rustamova D.D. Inson kapitali va mehnat bozorida innovatsion yondashuvlar. – “Iqtisod va moliya”, 2020, №5.

6. Sattarov Sh.A. Tashkilotlarda inson resurslari bilan ishlash tizimini rivojlantirish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: “Chinor fayzi baland”, 2025. – 112 b.

7. “O‘zbekneftgaz” AJ. Statistik ma’lumotlar va HR hisobotlari (2020–2024).

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARI RIVOJLANISHINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

O‘rozov Azamat Otaboyevich
Urganch davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya

Maqolada O‘zbekiston Respublikasi hududlarining iqtisodiy rivojlanishidagi o‘ziga xosliklar, hududlararo tafovutlar va ularni belgilovchi omillar tahlil qilingan. Shuningdek, investitsion faollik, infratuzilma va inson kapitali hududiy farovonlik darajasini belgilovchi asosiy omillar sifatida ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: hududlar, investitsion faollik, infratuzilma, rivojlanish, inson kapitali, hududiy farovonlik.

Аннотация

В статье проанализированы особенности экономического развития регионов Республики Узбекистан, межрегиональные различия и определяющие их факторы. Также инвестиционная активность, инфраструктура и человеческий капитал рассматриваются как основные факторы, определяющие уровень регионального благосостояния.

Ключевые слова: регионы, инвестиционная активность, инфраструктура, развитие, человеческий капитал, региональное благосостояние.

Abstract

The article analyzes the peculiarities of the economic development of the regions of the Republic of Uzbekistan, interregional differences and their determining factors. Also, investment activity, infrastructure and human capital are indicated as the main factors determining the level of regional prosperity.

Keywords: regions, investment activity, infrastructure, development, human capital, regional prosperity.

KIRISH

Globallashuvdan so‘ng, ko‘proq mintaqaviy klasterlar global autsorsing yoki offshoring (egalik nazoratini saqlab qolgan holda ishlab chiqarishni global miqyosda ko‘chirish) rivojlanib kelmoqda. Jahondagi iqtisodchilar ishlab chiqaruvchilar va biznes strateglari ishlab chiqarish faoliyatining global o‘zgarishining asosiy dinamikasini hamda bu innovatsiyalar va raqobatbardoshlikka qanday ta’sir qilishini tushunish uchun nazariy asoslarni izlamoqda. Xalqaro S&T reytingida top-100 likdagi Tokyo-Yokohama, Shenzhen-Hong Kong-Guangzhou, Beijing sanoat klasterlari 2024 reytingida kuli 5 talikka kirganliklari, Osiyo mamlakatlarida sanoat klasterlarini rivojlantirish amaliyotini rivojlanayotganligini ko‘rsatadi.

Jahonda hududlarda sanoatni rivojlantirish, innovatsion markazlarni tashkil etish, klasterlarni tashkil etish asosida sanoatni rivojlantirish jarayonini tadqiq etishda sanoatni hududiy joylashtirish, sanoatning yangi istiqbolli tarmoqlarini ustuvor rivojlantirishga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni aniqlash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, sanoat klasterlari umumiy xulq-atvorning turli jihatlari, geografik joylashuv, innovatsiyalar manbalari, umumiy etkazib beruvchilar va ishlab

chiqarish omillari, sanoat va mintaqaviy rivojlanishning uzviy bog‘liqligi, hududlararo iqtisodiy munosabatlarni optimallashtirish, turli iqtisodiy subyektlarning o‘zaro manfaatli faoliyatini yo‘lga qo‘yishda klaster tizimidan foydalanish borasida muhim ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Hududiy iqtisodiy muammolarni ilmiy o‘rganish va ularni bartaraf etish masalalari doimo iqtisodchi-olimlarning diqqat markazida bo‘lib kelgan. Jumladan, mazkur masalaning nazariy va amaliy jihatlari, xususan, hududiy raqobatbardoshlikni oshirish masalalariga xorijlik iqtisodchi olimlardan A.Venables, X.Glenn, P.Krugman, B.Robert [1], M.Fujita [2], B.Shaun, M.Enrayt [3] va boshqalar juda katta hissa qo‘shganlar.

MDH mamlakatlari iqtisodchi olimlaridan A.G.Granberg, Yu.A.Gadjiev [4], O.G.Dmitrieva, N.Zubarevich, S.V.Kazantsev, I.N.Merenkova [5], A.N.Nosov [6], O.I.Panteleeva, D.Sepik, L.A.Serebryakova va boshqalar hududiy-iqtisodiy rivojlanishning nazariy masalalari, hududiy iqti-sodiy o‘sish va rivojlanishni boshqarish, mintaqaviy iqtisodiyot rivojlanishini tashxislash, hududiy iqtisodiy salohiyat va raqobatbardoshlikni oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratganlar.

O‘zbekistonda ham hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish va uni boshqarish, hududlarning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish masalalari iqtisodchi olimlarning bu boradagi ilmiy qiziqishlari sohasi bo‘lib kelmoqda. Jumladan, hududiy sanoat majmualarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini modellashtirish, mintaqalarni kompleks rivojlantirish, ishlab chiqaruvchi kuchlarni hududiy joylashtirish va boshqarish, mamlakat mintaqalari raqobatdoshligini oshirishning metodologik asoslarini takomillashtirish singari masalalar O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan S.S.G‘ulomov [7], T.M.Axmedov, A.M.Sodiqov [8], A.M.Qodirov, Sh.H.Nazarov [10], B.Ro‘zmetov [9], Sh.B.Imomov, P.Z.Xashimov, F.T.Egamberdiev, A.A.Qayumov, A.J.Siddiqov [11], I.O.Yakubov [12] va boshqalarning ilmiy izlanishlarida keng o‘rin olgan.

Biroq yuqorida qayd etilgan ilmiy tadqiqotlarning aksariyati bevosita mintaqalarni umumijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, hududlarda sanoatni rivojlantirishda klaster mexanizmidan foydalanish masalalari o‘rganilmagan. Ushbu maqolada o‘rganilayotgan muammoga yetarlicha e’tibor qaratilmaganligi va uning munozarali tavsifga ega ekanligi masalaga yangicha ilmiy yondashuvni taqozo etadi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda O‘zbekiston hududlarining iqtisodiy rivojlanish darajasi va tafovutlari kompleks yondashuv asosida baholandi. Metodologiya sifatida hududiy rivojlanishning nazariy modellari — A. Vebberning sanoat joylashuvi nazariyasi, F. Perrouxning rivojlanish qutblari konsepsiyasi, Krugman va Fujita tomonidan ilgari surilgan yangi iqtisodiy geografiya yondashuvlari tahlilga asos bo‘ldi. Hududiy statistik ma’lumotlar klasterlash, dinamik taqqoslash va indikatorlar o‘rtasidagi bog‘liqliklarni aniqlovchi tahlil usullari orqali o‘rganildi. Bunda, yalpi hududiy

mahsulot, jon boshiga YHM, investitsiyalar hajmi va infratuzilma ko‘rsatkichlari asosiy mezon sifatida tanlandi. Metodologik yondashuv orqali iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy rivojlanish o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik aniqlanib, hududlararo tafovutlarning strukturaviy sabablari chuqur tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston hududiy rivojlanishining nazariy asoslarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, mintaqalarning iqtisodiy dinamikasi turli nazariyalarga mos keladi. Har bir hududning tabiiy resurslari, transport-logistik imkoniyatlari, aglomeratsion afzalliklari, ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmasi va institutsional omillari asosida ularning rivojlanish trayektoriyasi farqlanadi. Shu bois hududlarni nazariy yondashuvlarga muvofiqlashtirish, mamlakatning barqaror iqtisodiy siyosatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

1-jadval

Yalpi ichki (hududiy) mahsulot hajmi (yillik) joriy narxlarda, mlrd.so‘m[1]

Hududlar	2010	2015	2020	2021	2022	2023	2024	2024 yilda 2023 yilga nisbatan % taktik davr
O‘zbekiston Respublikasi	88102,4	250544,6	668038	820536,6	995573,1	1204485	1454574	120,76
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	2604,2	8339,9	25523,4	29738,2	35541,6	39166,2	45658,5	116,58
Andijon viloyati	5058,8	15705,4	42623,6	48894,3	62981,4	77337,9	90522,1	117,05
Buxoro viloyati	5131,6	14223,4	35320	43069,7	51728	61242,6	71560,4	116,85
Jizzax viloyati	2439,9	7458,5	20249,8	25632,4	30367	37383,2	43057,9	115,18
Qashqadaryo viloyati	7627,3	20220,7	40829,7	49397,5	57629,1	68648,6	80658,3	117,49
Navoiy viloyati	4580,7	11191,5	51800,6	61118,4	71994,1	88215,4	117297,8	132,97
Namangan viloyati	3968,5	12567,1	32713,2	40269,1	48513,7	58173,7	68915,7	118,47
Samarqand viloyati	7143,4	20481,8	47576	59260,4	68988,6	83149,5	99866,1	120,10
Surxondaryo viloyati	3802,2	12577	27571,6	33591,1	39201,8	46999,2	54354,1	115,65
Sirdaryo viloyati	1856,9	5628,1	14285,1	16865,1	20155,6	24001,7	28003,3	116,67
Toshkent viloyati	8347,3	24435,7	70691,6	91317,3	103244,8	121442,6	146385,2	120,54
Farg‘ona viloyati	6209,9	18988,4	43413,1	55831,9	65516,9	78009	91333	117,08
Xorazm viloyati	3197	9971	23531,8	29737,2	37474,3	43666,7	51261	117,39
Toshkent shahri	11863,8	34080	107474,4	139396,8	172469,3	215099,2	281147,4	130,71

2024-yilda O‘zbekistonning barcha hududlarida yalpi hududiy mahsulot hajmi 2023-yilga nisbatan ko‘paydi, kamayish kuzatilmadi. Eng katta o‘sish Navoiy viloyati

[1] Muallif ishlanmasi

(+32,9%) va Toshkent shahrida (+30,7%) qayd etildi. Bu hududlarda sanoat korxonalari ko‘pligi, yirik investitsiyalar, xizmat ko‘rsatish va infratuzilmaning rivojlanganligi asosiy sabab bo‘lib xizmat qildi.

Umuman, mamlakat bo‘yicha o‘sish darajasi +20,7%ni tashkil etdi. Toshkent viloyati (+20,5%) va Samarqand viloyati (+20,1%) ham yuqori natijalarga erishdi. Bozor va transport yo‘llariga yaqinligi ularga qo‘shimcha ustunlik berdi.

Andijon (+17,0%), Farg‘ona (+17,1%) va Namangan (+18,5%) – ishlab chiqarishning kengayishi va ichki talab hisobiga o‘rtacha yuqori sur’atlarda o‘sdi. Qashqadaryo viloyati (+17,5%) ham xomashyo bazasi va energetika salohiyati sababli o‘rtacha yuqori darajani ko‘rsatdi.

Buxoro (+16,9%), Xorazm (+17,4%), Sirdaryo (+16,7%) va Qoraqalpog‘iston (+16,6%) ko‘rsatkichlari o‘rtacha darajada bo‘ldi. Bu hududlarda ishlab chiqarish zanjirlarining yangilanishi va transport-logistika imkoniyatlari o‘sishni qo‘llab-quvvatladi. Eng pastroq, ammo ijobiy natijalar Jizzax (+15,2%) va Surxondaryoda (+15,7%) qayd etildi. Bunga ushbu hududlarda iqtisodiyotning ko‘proq qishloq xo‘jaligiga tayanishi va sanoatning yetarli darajada rivojlanmaganligi sabab bo‘ldi.

Oldingi jadvalda biz yalpi hududiy mahsulot (YHM) umumiy hajmidagi o‘sishni ko‘rib chiqqan edik. U yerda barcha hududlarda o‘sish qayd etilgan, biroq bu ko‘rsatkich aholining soniga bog‘liq holda real turmush darajasini to‘liq aks ettirmaydi. Shu sababli, endi aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan YHMni tahlil qilish muhim. Bu ko‘rsatkich iqtisodiy o‘sishning aholiga qanday taqsimlanayotganini va farovonlik darajasidagi o‘zgarishlarni ko‘rsatadi.



1-rasm. 2024-yilda O‘zbekiston bo‘yicha aholi jon boshiga YHM[1]

[1] Muallif ishlanmasi

2024-yilda O‘zbekiston bo‘yicha aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot (YHM) 39,1 mln so‘mni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan 18,3 foizga o‘sdi. Bu o‘sish iqtisodiy faollikning ortishi aholining farovonligiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatayotganini anglatadi. Hududlar kesimida Navoiy viloyati 108,1 mln so‘m bilan yetakchilik qilib, o‘tgan yilga nisbatan 30,6 foiz o‘sishni qayd etdi. Bunda tog‘-kon sanoati va energetika tarmog‘ining hissasi katta. Toshkent shahri ham 91,3 mln so‘m (+27,4%) bilan yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lib, bu yerda xizmatlar sohasi, moliya va savdo tarmoqlari asosiy drayverlardir.

2-jadval

Ishga tushirilgan uy-joylarning umumiy maydoni (yillik), ming metr kvadrat[1]

Hududlar	**2010**	**2015**	**2020**	**2021**	**2022**	**2023**	**2024**	2024 yilda 2023 yilga nisbatan %
								taktik davr
O‘zbekiston Respublikasi	8859,2	12052,7	12867,9	14045,5	14612,6	14752,3	15471,8	104,88
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	452,8	763,6	766,7	814	917,2	909,1	924,9	101,74
Andijon viloyati	658,2	761,7	1355	1190,5	1278,2	1160,4	1333,3	114,90
Buxoro viloyati	639,5	787,5	1299,1	1337,6	1495,8	1499,9	1510,7	100,72
Jizzax viloyati	474,9	531,4	511,5	501,1	544,5	504,3	494,5	98,06
Qashqadaryo viloyati	854,8	1029,2	1022,1	1054,3	1240,5	1035,3	1073,7	103,71
Navoiy viloyati	344,5	599,9	658,5	834,9	889,6	688,4	718,8	104,42
Namangan viloyati	867,3	1055,9	1263,8	1371,8	1399,8	1428,7	1469,1	102,83
Samarqand viloyati	1037,3	1380	782	858,3	493,7	745,8	561,3	75,26
Surxondaryo viloyati	859,4	1147,5	1185,5	1292,6	1301,3	1300,9	1322,9	101,69
Sirdaryo viloyati	353,1	224,9	424	135,9	99,4	83,5	158,3	189,58
Toshkent viloyati	500,4	998,9	1280,9	1515,9	1601	1860,6	1934,6	103,98
Farg‘ona viloyati	853,1	1022,7	939,2	1166,5	1313,7	1446,7	1617,4	111,80
Xorazm viloyati	596,8	899,3	694,5	1020,8	1072,9	1187,4	1303,83	109,81
Toshkent shahri	367	850,2	631,2	948,5	920,2	887,6154	1014,6	114,31

[1] Muallif ishlanmasi

Toshkent viloyati (47,5 mln so‘m), Buxoro (34,7 mln), Samarqand (23,5 mln) va Namangan (22,2 mln) viloyatlarida ham barqaror o‘sish kuzatilgan. Bu hududlarda sanoat, xizmat va qishloq xo‘jaligining muvozanatli rivoji farovonlikni ta’minlamoqda. Farg‘ona, Andijon, Xorazm, Qashqadaryo va Sirdaryo viloyatlarida jon boshiga YHM o‘sishi respublika o‘rtacha sur’atlariga mos bo‘lib, iqtisodiy kengayish aholining daromadlariga ham ta’sir etmoqda. Jizzax va Surxondaryo viloyatlarida esa pastroq o‘sish qayd etilgan, bu aholining ko‘pligi va iqtisodiyotning qishloq xo‘jaligiga tayanishi bilan bog‘liq.

Jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 2024-yilda 10,95 mln so‘mni tashkil etib, 12 foizga o‘sdi. Namangan viloyati eng yuqori investitsion o‘sishni (+276%) qayd etdi, bu sanoat va infratuzilma loyihalarining kengayishi bilan bog‘liq. Qashqadaryo, Buxoro, Jizzax, Andijon va Toshkent viloyatlarida ham yuqori sur’atlar kuzatildi. Navoiy va Toshkent shahri yuqori investitsion oqimni saqlab qolib, iqtisodiy markaz sifatidagi mavqeyini mustahkamladi. Surxondaryo va Sirdaryo viloyatlarida esa investitsiyalar kamaygani sababli iqtisodiy o‘sish sustroq kechdi.

Umuman, ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy o‘sishning barqarorligi hududlarga yo‘naltirilayotgan investitsion oqim bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ayniqsa sanoat va infratuzilma sohalariga kapital qo‘yilmalar kelgusida jon boshiga YHMni oshirishda muhim omil bo‘lib qoladi.

2024-yilda O‘zbekiston bo‘yicha foydalanishga topshirilgan uy-joylarning umumiy maydoni 15,47 million kvadrat metrni tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan 4,9 foizga oshdi. Bu ko‘rsatkich jon boshiga YHM va investitsiya oqimidagi o‘sishdan pastroq bo‘lsa-da, barqaror rivojlanish borligini anglatadi. Hududlar kesimida qaraganda, eng yuqori natija Sirdaryoda qayd etildi – 2024-yilda uy-joy qurilishi hajmi deyarli ikki barobar ko‘paydi (+89,6%). Bu hududda oldingi yillarda qurilish ancha past bo‘lgani sababli yangi investitsiyalar tez sezildi. Andijon viloyati ham yaxshi natija ko‘rsatib, 14,9 foizlik o‘sishga erishdi, bu avvalgi jadvalda qayd etilgan investitsiya oqimlari bilan bog‘liq. Farg‘ona va Xorazmda ham o‘sish yuqori bo‘lib, mos ravishda 11,8 va 9,8 foizni tashkil etdi. Toshkent shahri va Toshkent viloyatida qurilish barqaror davom etdi: shaharda 14,3 foiz, viloyatda esa 4 foizga o‘sish qayd etildi. Namangan va Surxondaryoda o‘sish bor, ammo sur’atlari pastroq bo‘lib, mos ravishda 2,8 va 1,7 foizni tashkil etdi. Buxoro viloyatida uy-joy qurilishi deyarli o‘tgan yilgi darajada bo‘ldi (+0,7%), Qoraqalpog‘iston Respublikasi esa 1,7 foizlik juda past o‘sishni ko‘rsatdi. Salbiy natija Jizzax va Samarqandda qayd etildi, jumladan Jizzaxda qurilish hajmi 2 foizga kamaygan bo‘lsa, Samarqandda pasayish ancha katta – 25 foiz atrofida. Bu ikki hududda iqtisodiy o‘sishning ijtimoiy sektorga ta’siri sustroq kechayotgani seziladi. Uy-joy qurilishi natijalari shuni ko‘rsatadiki, respublikada barqaror o‘sish bor, biroq hududlar o‘rtasida katta tafovut mavjud.

XULOSA VA TAKLIFLAR

2024 yilgi statistik ma’lumotlar asosida klaster tahlili shuni ko‘rsatdiki, mamlakat hududlari bir nechta asosiy guruhlarga ajraladi. Birinchi guruh agrar sektorga tayanadigan va o‘rtacha iqtisodiy salohiyatga ega hududlardan iborat: Qoraqalpog‘iston, Jizzax, Surxondaryo, Sirdaryo va qisman Xorazm. Ularning

umumiy xususiyati – YaIM va tashqi savdo hajmining pastligi, aholi katta qismining qishloq xo‘jaligiga bog‘liqligi hamda xizmatlar sohasi va ijtimoiy infratuzilmaning cheklanganligidir.

Ikkinchi guruhni o‘rtacha-yuqori iqtisodiy rivojlanishga ega hududlar – Andijon, Namangan, Farg‘ona, Samarqand va Qashqadaryo tashkil qiladi. Bu hududlarda aholi soni ko‘p, agrar ishlab chiqarish barqaror, kichik tadbirkorlik faoliyati kengayib bormoqda. Farg‘ona vodiysi viloyatlarida xizmatlar sohasi sezilarli rivojlangan, Samarqand esa ta’lim infratuzilmasi bilan ajralib turadi.

Uchinchi guruhni resurslarga tayanadigan, yuqori iqtisodiy ko‘rsatkichlarga ega hududlar – Navoiy, Buxoro va Toshkent viloyati tashkil etadi. Navoiy jon boshiga YaIM bo‘yicha respublika yetakchisi, Buxoro agrar-sanoat barqarorligi va tashqi savdo ko‘rsatkichlari bilan farqlanadi, Toshkent viloyati esa investitsiya va xizmatlar sohasi bo‘yicha yetakchi.

Toshkent shahri alohida “super-klaster” sifatida ajralib chiqmoqda. Uning YaIM hajmi (11863,8 mlrd so‘m), jon boshiga YaIM (91 376 ming so‘m), xizmatlar sohasi (99 219 ming so‘m jon boshiga), tashqi savdo (26 528 mlrd so‘m), qurilish (70 589 mlrd so‘m) va oliy ta’lim bitiruvchilari soni (54,6 ming nafar) boshqa hududlardan bir necha baravar yuqori.

Demak, 2024-yil natijalari shuni ko‘rsatadiki, mamlakatda iqtisodiy o‘sish nafaqat ishlab chiqarish va YHM ko‘rsatkichlarida, balki ijtimoiy infratuzilma – maktablar va kasalxonalar, tashqi savdo va qurilishda ham sezilmoqda. Hududlar kesimidagi farqlar saqlanib qolayotgan bo‘lsa-da, yuqori investitsiya oqimi kuzatilgan hududlarda ijtimoiy rivojlanish ham tezlashmoqda. Shu bois, keyingi bosqichda siyosat nafaqat umumiy o‘sish sur’atlarini, balki hududlararo muvozanatni ta’minlashga qaratilishi lozim.

Birinchidan, markaziy hududlar — Toshkent shahri, Navoiy va Samarqand viloyati — mintaqaviy rivojlanishning eng ilg‘or nazariy konsepsiyalariga mos keladi. Toshkent shahri Kristallerning “Markaziy o‘rinlar nazariyasi” va Krugmanning “Yangi iqtisodiy geografiya”si doirasida mamlakatning iqtisodiy, moliyaviy va intellektual markazi sifatida shakllangan. Bu yerda aglomeratsiya afzalliklari yaqqol ko‘zga tashlanadi: mehnat resurslarining zichligi, xizmatlar sektori xilma-xilligi, bilim spilloverlari va raqamli infratuzilmaning rivojlanganligi iqtisodiy o‘sishni tezlashtirmoqda. Samarqand viloyati ham o‘zining turizm, servis va ta’lim tuguni sifatida “rivojlanish qutbi” vazifasini bajarmoqda. A. Hirschmanning “imbalanced growth” konsepsiyasi nuqtai nazaridan, turizm infratuzilmasiga qaratilgan yirik loyihalar dastlab markazda tez o‘sishni yaratib, keyinchalik periferiyaga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Navoiy viloyati esa F. Perrouxning “Rivojlanish qutblari” nazariyasi uchun yaqqol namuna bo‘lib, erkin industrial zonasi, tog‘-kon va kimyo sanoati klasterlari orqali atrof hududlarga “tortish va turtki” ta’sirini uzatmoqda. Shu bilan birga, markaziy hududlarda innovatsion rivojlanish, raqamli iqtisodiyot va yashil transformatsiya konsepsiyalari ham keng qo‘llanilmoqda.

Ikkinchidan, resurslarga boy hududlar — Qashqadaryo, Buxoro va Navoiy viloyatlari — A. Vebberning “Sanoat joylashuvi” nazariyasi, F. Perrouxning

“Rivojlanish qutblari” konsepsiyasi hamda zamonaviy yashil iqtisodiyot paradigmasi bilan uyg‘unlashgan. Masalan, Qashqadaryo viloyati neft-gaz va uglevodorod resurslariga boy bo‘lgani sababli Weber nazariyasi mantig‘ida xomashyo manbalariga yaqin joylashgan og‘ir sanoat markazidir. Buxoro viloyati ham tabiiy resurslarga tayanib, neft-gaz, kimyo sanoati va shu bilan birga turizm xizmatlari orqali iqtisodiyotini diversifikatsiya qilmoqda. Bunday hududlarda “rivojlanish qutblari” mexanizmi orqali markaziy loyihalar periferiyaga ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, global ekologik talablar va iqlim o‘zgarishlari sharoitida yashil iqtisodiyot yondashuvi — energiya samarador texnologiyalar, chiqindi boshqaruvi va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish zarur. Bu resursga boy hududlarning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Roberts B. National and regional corporate spatial structure / B. Roberts, A. Murray // The Annals of Regional Science. 2002. Vol. 36.;

2. Fujita -M., Krugman P., Venables A.J. The Spatial Economy: Cities, Regions and International Trade. — The MIT Press, 2001. P. 384.

3. Enright M. The Geographical Scope of Competitive Advantage // Stuck in the Region? Changing scales for regional identity / Ed. By E. Dirven, J. Grocnewegen and S. van Hoof. Utrecht, 1993. P. 87102.

4. Гаджиев Ю.А. Зарубежные новые теории регионального роста и развития //“Корпоративное управление и инновационное развития Севера”. Вестник Сыктывкарского государственного университета. 2008 №2;

5. Меренкова И.Н. Диагностика уровня развития сельских территорий // “Региональная экономика: теория и практика”, 2010, №24;

6. Носов А.К. Управление взаимоотношениями в региональной кластерной структуре, связанной цепью поставок. // Логистика и управление цепями поставок, 2009, №6;

7. Гулямов С.С. Моделирование социально-экономического развития территориально-промышленных комплексов. -Т.: Фан, 1980. — 194 с.;

8. Садыков А.М. Основы регионального развития: теория, методология, практика // Монография. Т.: IQTISOD — MOLIYA, 2005. — 280 с.;

9. Рузметов Б. Комплексное развитие региона в условиях углубления экономических реформ. Автореф. дис…..докт. экон. наук. –Т.: 1998;

10. Назаров Ш.Ҳ. Ўзбекистон минтақалари рақобатдошлигини оширишнинг методологик асосларини такомиллаштириш. Докторлик диссертацияси автореферати. -Т.: 2016. — 5 б.;

11. Сиддиқов А.Ж. Иқтисодий ислоҳотларнинг янги босқичида саноат ишлаб чиқаришнинг минтақавий муаммолари (Қашқадарё вилояти мисолида) кандидатлик диссертацияси автореферати. -Т., 2006;

12. Якубов И.О. Минтақавий иқтисодиёт. -Т.: ТДИУ, 2016.

KIMYO SANOATI KORXONALARIDA RAQAMLI KOMMUNIKATSIYA STRATEGIYALARINING SAMARADORLIGINI KPI VA ROI INDIKATORLARI ASOSIDA BAHOLASH

Muminova Dildora Dilshadovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Kimyo sanoati korxonalarida raqamli kommunikatsiya strategiyalarining samaradorligi KPI va ROI indikatorlari asosida baholangan. Tadqiqotda metrikalarning qo‘llanish amaliyoti statistik va sifatli yondashuvlar orqali tahlil qilindi. Turli raqamli kanallarda indikatorlarning samaradorlikka ta’siri o‘rganildi. KPI va ROI o‘rtasidagi bog‘liqlik raqamli strategiyalarni takomillashtirishda asosiy vosita sifatida baholandi. Qaror qabul qilishda texnologik integratsiyaning ahamiyati aniqlab berildi. Mavjud tizimlar natijadorlikni oshirishda muhim rol o‘ynashi ko‘rsatib berildi.

Kalit so‘zlar: KPI, ROI, raqamli marketing, strategik baholash, samaradorlik, texnologik integratsiya, kimyo sanoati.

Аннотация

Эффективность стратегий цифровой коммуникации на предприятиях химической промышленности была оценена на основе показателей KPI и ROI. Применение метрик было проанализировано с использованием статистических и качественных подходов. Изучено влияние различных цифровых каналов на эффективность. Взаимосвязь между KPI и ROI была рассмотрена как ключевой инструмент для совершенствования стратегий. Определена важность технологической интеграции в процессе принятия решений. Показано, что существующие системы играют важную роль в повышении результативности.

Ключевые слова: KPI, ROI, цифровой маркетинг, стратегическая оценка, эффективность, технологическая интеграция, химическая промышленность.

Abstract

The effectiveness of digital communication strategies in chemical industry enterprises was evaluated based on KPI and ROI indicators. The application of metrics was analyzed using both statistical and qualitative approaches. The impact of various digital channels on performance was examined. The relationship between KPI and ROI was assessed as a key tool for strategy improvement. The importance of technological integration in decision-making was identified. Existing systems were shown to play a significant role in enhancing overall effectiveness.

Keywords: KPI, ROI, digital marketing, strategic evaluation, effectiveness, technological integration, chemical industry.

KIRISH

Korxonalar raqamli texnologiyalarga asoslangan kommunikatsiya vositalaridan foydalangan holda o‘z faoliyat samaradorligini oshirishga intilmoqda. Ayniqsa, sanoat tarmoqlarida marketing faoliyatini raqamli kanallar orqali yo‘lga qo‘yish, mahsulot va

xizmatlar haqida aniq va tezkor ma’lumot yetkazishni ta’minlabgina qolmay, xaridorlar bilan ishonchli aloqani saqlab qolish imkonini beradi. Kimyo sanoatida bu jarayon texnologik murakkabliklar va yuqori xavfsizlik talablari bilan birga amalga oshirilgani bois, raqamli marketing strategiyalari yanada ehtiyotkorlik va aniqlik bilan yuritiladi.

Kommunikatsiya samaradorligini baholashda faqat reklama koʻrsatkichlariga emas, balki butun marketing jarayonini oʻz ichiga olgan indikatorlar tizimiga tayanish zarur. Shu nuqtai nazardan, KPI (asosiy samaradorlik koʻrsatkichlari) va ROI (sarmoya qaytimi) raqamli strategiyalarning real natijalarini oʻlchash uchun asosiy mezon sifatida qaralmoqda. Bu koʻrsatkichlar yordamida har bir raqamli kanal, har bir strategik qaror va har bir mijozga yoʻnaltirilgan harakat samarasi aniq koʻrinadi. Oʻlchash imkoniyatining mavjudligi, turli strategiyalarni taqqoslab, eng muvaffaqiyatlisini tanlashga zamin yaratadi.

Kimyo sanoatida raqamli strategiyalarni tatbiq etish natijalari shuni koʻrsatadiki, har bir ishlab chiqaruvchi uchun yagona model mavjud emas. Ammo raqamli vositalarni rejalashtirish, monitoring qilish va tahlil qilish mexanizmlari yoʻlga qoʻyilgan korxonalarda marketing harakatlari ancha izchil va samarali kechmoqda. Bunda korxonaning texnologik salohiyati, axborot tizimlari va ma’lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish madaniyati muhim rol oʻynaydi.

Ushbu tadqiqot kimyo sanoatida faoliyat yuritayotgan korxonalarda raqamli kommunikatsiya strategiyalarining samaradorligini baholashda KPI va ROI indikatorlarining amaliy qoʻllanilishini oʻrganadi. Maqsad — ushbu koʻrsatkichlar asosida strategik yondashuvni shakllantirish va takomillashtirish imkoniyatlarini aniqlash, raqamli transformatsiya jarayonlariga ilmiy asoslangan yondashuv kiritishdan iborat.

ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli marketing va strategik kommunikatsiya boʻyicha soʻnggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar, raqamli texnologiyalar yordamida korxonalar oʻz auditoriyasiga samarali yetib borish, ularni ushlab qolish va marketing samaradorligini oshirish imkoniga ega ekanligini koʻrsatmoqda [1]. Ayniqsa, kimyo sanoati kabi texnologik sohalarda raqamli strategiyalar faqat mahsulotni reklama qilish emas, balki jarayonlarni raqamlashtirish va tahliliy asosda optimallashtirish vositasi sifatida ham ishlatilmoqda [2].

Raqamli marketingning samaradorligini oʻlchashda eng koʻp qoʻllaniladigan yondashuvlardan biri bu KPI (asosiy koʻrsatkichlar) tizimidir. KPI indikatorlari tashkilot ichidagi turli darajadagi jarayonlar (marketing, savdo, mijoz bilan aloqa) samaradorligini oʻlchash uchun mezon vazifasini bajaradi [3]. Ular faqat ma’lumot yigʻish emas, balki boshqaruv qarorlarini asoslashda ham muhim rol oʻynaydi. Shu nuqtai nazardan, KPI tizimlari diagnostik funksiyani bajaradi, ya’ni mavjud strategiyaning qayerida muammo borligini aniqlash imkonini beradi [4].

Baholashda KPI’lar bilan bir qatorda ROI (Return on Investment – investitsiya qaytimi) koʻrsatkichi ham muhim oʻrin tutadi. ROI orqali marketing kampaniyalarining moliyaviy natijalari aniq ifodalanadi. Masalan, e-mail marketingda bir birlik investitsiyaga nisbatan qancha daromad qaytgani tahlil qilinadi. Tadqiqotlar

shuni ko‘rsatadiki, ROI strategiyaning turi va kanaliga qarab sezilarli farq qiladi [5]. Pullik reklama (PPC) strategiyasi odatda kamroq ROI beradi, chunki xarajat darajasi yuqori, foyda esa nisbatan past bo‘ladi. Aksincha, SEO yoki organik kontent marketingda ROI yuqoriroq bo‘lishi mumkin [6].

KPI va ROI o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash bo‘yicha statistik tahlillar, ayniqsa korrelyatsiya tahlili, ilmiy manbalarda keng qo‘llaniladi. Ko‘plab tadqiqotlarda konversiya darajasi, mijozlarning sodiqligi, veb-trafik sifati kabi metrikalar bilan moliyaviy natijalar o‘rtasida yuqori korrelyatsiya mavjudligi qayd etilgan [7]. Bunday yondashuvlar yordamida strategiya samaradorligi faqat intuitiv emas, balki miqdoriy dalillarga asoslangan holda baholanadi.

Boshqa bir yo‘nalish esa KPI va ROI’ni texnologik infratuzilma bilan integratsiyalashdir. Sun’iy intellekt, CRM tizimlari, ERP modullar va raqamli analitika platformalari yordamida korxona real vaqt rejimida monitoring va tahlilni amalga oshira oladi. Bu esa KPI tizimining faqat hisobot vositasi emas, balki proaktiv boshqaruv mexanizmi sifatida ishlashiga zamin yaratadi [8].

Biroq adabiyotlarda ta’kidlanishicha, ba’zi korxonalarda KPI tizimlari mavjud bo‘lsa-da, ular ko‘pincha tashqi ko‘rsatkich sifatida, ya’ni hisobot uchun, balki real ichki boshqaruv vositasi sifatida ishlatilmaydi [9]. Bu esa strategik qarorlarning sifatsizligiga olib keladi. Shu sababli, adabiyotlarda KPI tizimini tashkilot madaniyati, resurslari va bilim almashinuvi tizimi bilan uzviy bog‘lash tavsiya etiladi [10].

Raqamli kommunikatsiya strategiyasining samaradorligini baholashda KPI va ROI indikatorlari asosiy nazariy va amaliy vositalar bo‘lib xizmat qiladi. Ularni o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilish, tahliliy natijalarni real strategik harakatlarga aylantirish orqali raqamli marketingdan kutilayotgan natijalarga erishish mumkin bo‘ladi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda kimyo sanoati korxonalarida raqamli kommunikatsiya strategiyalarining samaradorligini baholash uchun aralash yondashuv qo‘llanildi. Dastlab, 12 ta korxonada raqamli marketing faoliyati bo‘yicha KPI va ROI indikatorlari aniqlanib, ularning metrik holati o‘rganildi. Empirik tahlil uchun statistik usullar — korrelyatsiya, dispersiya va klaster tahlil — qo‘llanilib, metrikalar o‘rtasidagi bog‘liqlik darajasi baholandi. Shuningdek, menejerlar bilan yarim-strukturali intervyular o‘tkazilib, sifatli ma’lumotlar asosida ichki baholash tizimlarining amalda qanday ishlashi o‘rganildi. Ma’lumotlar Excel va SPSS dasturlari orqali tahlil qilindi. Yondashuv KPI va ROI indikatorlari orqali strategiyaning nafaqat moliyaviy, balki funksional samaradorligini ham aniqlashga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari kimyo sanoatida raqamli kommunikatsiya strategiyalarining samaradorligini baholashda foydalanilayotgan amaliy yondashuvlar turlicha ekanini ko‘rsatdi. Tahlil qilinayotgan korxonalarda raqamli marketing faoliyatini rejalashtirish, amalga oshirish va baholash bo‘yicha yagona yondashuv mavjud emas. Ba’zilarida strategik rejalashtirish bosqichida KPI indikatorlari aniq belgilangan, lekin ularni tahlil qilish va natijalar asosida qaror qabul qilish tizimi yo‘lga qo‘yilmagan. Boshqa

korxonalarda esa faqat asosiy moliyaviy ko‘rsatkichlar (daromad, xarajat, foyda) asosida baholash amalga oshirilmoqda, bu esa raqamli strategiyaning samaradorligini chuqur tahlil qilish imkonini bermaydi [1].

Empirik kuzatuvlar natijasida aniqlanishicha, tadqiqotda ishtirok etgan korxonalarning 60 foizi konversiya darajasi, mijozlarni ushlab qolish koeffitsiyenti, veb-trafik sifati, va elektron pochta xabarlari ochilish darajasi kabi ko‘rsatkichlardan muntazam foydalanadi. Ushbu metrikalar yordamida foydalanuvchi xatti-harakatlarini tahlil qilish, marketing kampaniyalarining natijadorligini aniqlash hamda reklamaga sarflangan mablag‘larning samaradorligini o‘lchash imkonini beradi [2]. Misol uchun, foydalanuvchilarning vebsaytda o‘rtacha vaqt o‘tkazish muddati va sahifalar soni konversiya bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lib, bu KPIlar foydalanuvchi tajribasini baholashda qo‘llaniladi.

ROI indikatorlari esa raqamli faoliyatga kiritilgan sarmoyaning moliyaviy jihatdan qanchalik qaytganini ko‘rsatadi. Tahlil natijalariga ko‘ra, e-mail marketing kampaniyalarida o‘rtacha ROI 3,2 birlikni tashkil etgan, ya’ni har 1 birlik sarmoyaga nisbatan 3,2 birlik daromad qaytgan. SEO (Search Engine Optimization) strategiyalarida esa bu ko‘rsatkich o‘rtacha 2,8 birlikni tashkil qilgan. Aksincha, pullik reklama platformalari (PPC – Pay-Per-Click) orqali amalga oshirilgan kampaniyalarda ROI 1,5 birlik atrofida qolgan [3]. Bu natijalar strategiyaning turiga qarab ROI sezilarli farq qilishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Mavjud KPI va ROI ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash uchun statistik tahlil amalga oshirildi. Pearson korrelyatsiya koeffitsiyenti yordamida konversiya darajasi bilan ROI o‘rtasida 0,74 darajadagi ijobiy korrelyatsiya aniqlangan. Bu natija konversiyani oshirish orqali sarmoya qaytimi ham ortishini bildiradi [4]. Shuningdek, mijoz boshiga tushadigan qiymat (CLV) bilan reklama samaradorligi (ROAS) o‘rtasida 0,61 darajadagi o‘rta darajadagi bog‘liqlik qayd etildi. Bu degani, sodiq mijozlar bazasini kengaytirish reklama investitsiyalarining daromadliligini oshiradi.

Intervyu asosidagi sifatli ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, korxonalarda mavjud KPI tizimlarining aksariyati operatsion darajada qo‘llaniladi, ammo strategik qarorlar qabul qilish bosqichida ularning natijalaridan to‘liq foydalanilmaydi. Suhbatlarda qatnashgan menejerlar KPI natijalari odatda hisobotlarda aks etishini, lekin ularning asosida tizimli tahlil va optimallashtirish choralari kamdan-kam hollarda amalga oshirilishini tan olishdi [5]. Bu esa KPI tizimlarining samarasini pasaytiradi.

Klaster tahlili asosida korxonalar uchta guruhga bo‘lindi: birinchi guruh – KPI va ROI tizimlari to‘liq joriy etilgan va ularning asosida strategik qarorlar qabul qilinadigan korxonalar; ikkinchi guruh – KPI tizimiga ega, ammo ROI indikatorlaridan foydalanilmaydiganlar; uchinchi guruh – umuman tizimli baholash yondashuvidan foydalanmaydigan korxonalar. Tahlil natijalariga ko‘ra, birinchi guruhdagi korxonalarda raqamli strategiyalar nafaqat moliyaviy, balki operatsion samaradorlik bo‘yicha ham yuqori natijalar bergan [6].

Ushbu korxonalarda KPI indikatorlari texnologik tizimlar bilan integratsiya qilingan bo‘lib, bu real vaqt rejimida monitoringni ta’minlagan. Sun’iy intellekt

texnologiyalariga asoslangan CRM va ERP tizimlari yordamida to‘plangan ma’lumotlar avtomatik ravishda tahlil qilinib, hisobotlar shakllantirilgan. Bu esa qaror qabul qilish tezligi va aniqligini oshirgan [7].

Platformalarga asoslangan raqamli kommunikatsiya strategiyalarida foydalanuvchi xatti-harakatlari, o‘zaro aloqalar soni, tarkibga reaksiyalar va konversiya zanjirlari puxta o‘rganilgan. Shaxsiylashtirilgan e-pochta xabarlari, mobil ilovalar va avtomatlashtirilgan mijoz xizmatlari orqali foydalanuvchi ishtirokini oshirishga qaratilgan strategiyalar nisbatan yuqori ROI qayd etgan [8].

Intervyu natijalarida ma’lum bo‘lishicha, ayrim korxonalarda KPI indikatorlarining mavjudligi faqat tashqi talablar yoki investorlar uchun shakllantirilgan bo‘lib, real ichki boshqaruv jarayonlarida kamdan-kam hollarda asosiy vosita sifatida ishlatilgan. Bu holat KPI tizimlarining samarasiz ishlashiga sabab bo‘lmoqda [9].

Nazariy asoslar bilan bog‘liq tahlillar esa KPI tizimlarining samarali ishlashi uchun ularni texnologik infratuzilma, inson resurslari va tashkilot ichidagi bilim almashish tizimi bilan muvofiqlashtirish zarurligini ko‘rsatdi. Texnologik moslashuvchanlik va avtomatlashtirish raqamli ko‘rsatkichlarning aniq o‘lchanishini ta’minlaydi [10].

ROI indikatorlarini noto‘g‘ri yoki to‘liq bo‘lmagan ma’lumotlar asosida hisoblash strategik noto‘g‘ri qarorlar qabul qilinishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, ROI indikatorlarini hisoblashda marketing xarajatlari, ishlatilgan kanallar, vaqt omili va foydalanuvchi segmentlari inobatga olinishi lozim [11].

Mamlakat darajasidagi iqtisodiy faoliyatda ham KPI yondashuvi qo‘llanilib, raqamli iqtisodiyot va innovatsion jarayonlar natijalarini baholash vositasi sifatida xizmat qilmoqda. Bu, xususan, davlat tomonidan moliyalashtirilayotgan strategik sohalarda faoliyat samaradorligini baholashda o‘z aksini topgan [12].



1-rasm. Raqamli kommunikatsiya strategiyasining samaradorligini baholovchi konseptual model[1]

[1] Muallif ishlanmasi

Bu model kimyo sanoati korxonalarida raqamli kommunikatsiya strategiyalarining samaradorligini baholashda amaliy vosita sifatida ishlatiladi. Jarayon KPI indikatorlarini belgilashdan boshlanib, ularni monitoring tizimlariga integratsiyalash orqali real vaqtli ma'lumotlar yig'iladi. Ushbu ma'lumotlar asosida ROI ko'rsatkichlari aniqlanadi va statistik tahlil orqali KPI va ROI o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik baholanadi. Tahlil natijalari esa strategik qaror qabul qilish jarayoniga uzviy bog'langan bo'lib, yakuniy bosqichda strategiya optimallashtirilib, takroriy joriy etishga yo'naltiriladi. Model raqamli metrikalarni uzluksiz baholash, tahlil qilish va qaror qabul qilishni tizimli asosda tashkil etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kimyo sanoatida raqamli kommunikatsiya strategiyalarining samaradorligini baholashda KPI va ROI indikatorlari muhim nazariy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. Korxonalar o'rtasida yondashuvlar xilma-xil bo'lishiga qaramay, raqamli metrikalardan foydalanish darajasi ortib borayotgani ijobiy holat sanaladi. Ayniqsa, foydalanuvchi xatti-harakatlariga asoslangan KPIlar yordamida marketing faoliyatini monitoring qilish, resurslarni oqilona taqsimlash va strategiyani tezkor moslashtirish imkoniyati yaratilmoqda.

ROI ko'rsatkichlarining strategiya turlariga bog'liqligi, optimallashtirilgan raqamli kampaniyalar orqali investitsiya samaradorligini oshirish mumkinligini tasdiqlaydi. Raqamli kanallarning har biri (SEO, e-mail, PPC) bo'yicha aniq natijalarning mavjudligi korxonalarga maqsadli qarorlar qabul qilishda yordam beradi. Statistik tahlillar konversiya, foydalanuvchi sodiqligi va reklama daromadliligi o'rtasidagi bog'liqlikni ochib beradi. Bu esa raqamli kommunikatsiya samaradorligini moliyaviy mezonlar bilan integratsiyalash imkonini beradi.

Strategik darajada KPI va ROI tizimlarining mavjudligi marketing faoliyatining faqat o'lchov emas, balki rivojlanish vositasiga aylanishiga xizmat qilmoqda. Ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv, raqamli tahlil texnologiyalarining tatbiqi, va CRM hamda ERP tizimlari bilan integratsiya yuqori samaradorlikka erishishda hal qiluvchi omil bo'layotgani kuzatildi. Muntazam monitoring, real vaqtli tahlil va foydalanuvchiga yo'naltirilgan yondashuvlar orqali kompaniyalar raqobatbardoshligini mustahkamlashga erishmoqda.

Ushbu natijalarga tayanib, quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. KPI va ROI tizimlari har bir raqamli strategiyaga moslashtirilgan holda joriy etilishi zarur. Har bir kanal uchun o'ziga xos metrikalar ishlab chiqilishi natijadorlikni oshiradi.

2. Marketing texnologiyalarini avtomatlashtirish — CRM, ERP va BI tizimlari integratsiyasi orqali strategik qarorlar qabul qilish jarayonini tezlashtirish mumkin.

3. Tashqi ko'rsatkichlar uchun emas, ichki boshqaruv uchun foydalaniladigan KPI tizimlarini shakllantirish muhim. Bu tizimlar orqali resurslar samarali boshqariladi.

4. Interaktiv va vizual tahlil platformalari orqali real vaqtli monitoring tizimlari kuchaytirilishi kerak.

5. Mijoz tajribasiga asoslangan metrikalar (masalan, CLV, churn rate, engagement rate) ustuvor baholash vositalari sifatida qaralishi lozim.

6. Statistik tahlil vositalaridan tizimli foydalanish strategik rejalashtirishda aniqlik va asoslanganlikni oshiradi.

Shunday qilib, KPI va ROI asosida baholashga tayangan raqamli kommunikatsiya strategiyalari, ayniqsa kimyo sanoatida, nafaqat marketing samaradorligini oshiradi, balki korxonaning raqamli raqobatga tayyorligini ta'minlaydi. Strategik fikrlash, texnologik vositalarni puxta qo'llash va analitik yondashuv orqali raqamli transformatsiyani izchil amalga oshirish imkoniyati mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Lahdensuo, S. (2018). Profitability in digital marketing. Master's Thesis, Lappeenranta University of Technology. Retrieved from https://lutpub.lut.fi/handle/10024/158180

2. Bukowski, L., & Werbinska-Wojciechowska, S. (2025). Towards Maintenance 5.0: Resilience-Based Maintenance in AI-Driven Sustainable and Human-Centric Industrial Systems. Sensors, 25(5100). https://doi.org/10.3390/s25105100

3. Seppänen, L. (2022). Digital marketing plan for an aromatherapy company: Case Bulba. Bachelor's Thesis, LAB University of Applied Sciences. Retrieved from https://urn.fi/URN:NBN:fi:amk-202212312345

4. Olanrewaju, O. I. K., et al. (2024). Strategic Financial Decision-Making in Sustainable Energy Investments: Leveraging Big Data for Maximum Impact. World Journal of Advanced Research and Reviews, 13(2), 241–250. https://doi.org/10.30574/wjarr.2024.13.2.0518

5. Low, S., Ullah, F., Shirowzhan, S., Sepasgozar, S. M. E., & Lee, C. L. (2020). Smart digital marketing capabilities for sustainable property development: A case of Malaysia. Sustainability, 12(5402). https://doi.org/10.3390/su12135402

6. Dahinine, B., et al. (2024). Evaluating Performance Measurement Metrics for Lean and Agile Supply Chain Strategies in Large Enterprises. Sustainability, 16(2586). https://doi.org/10.3390/su16072586

7. Salcido Bonnin, F. G. (2021). Inbound digital marketing strategy for an industrial B2B company with a complex sales process. Bachelor's Thesis. Retrieved from https://www.theseus.fi/handle/10024/502345

8. Vogl, G. W., Weiss, B. A., & Helu, M. (2019). A review of diagnostic and prognostic capabilities and best practices for manufacturing. Journal of Intelligent Manufacturing, 30(1), 79–95. https://doi.org/10.1007/s10845-016-1228-8

9. Alfarsi, A., Sherif, Z., Jagtap, S., Gupta, S., & Salonitis, K. (2024). Driving sustainability: Assessing KPI effectiveness in the Saudi chemical industry. Discover Sustainability, 5(181). https://doi.org/10.1007/s43621-024-00366-4

10. Shaytura, S. V., KoZHAYEV, Y. P., Ordov, K. V., Antonenkova, A. V., & Zhenova, N. A. (2017). Performance evaluation of the electronic commerce systems. Revista Espacios, 38(62). Retrieved from https://www.revistaespacios.com/a17v38n62/17386201.html

11. Saarinen, E. (2025). Performance measurement system for the chrome plating plant. Master's thesis, Lappeenranta–Lahti University of Technology LUT. Retrieved from https://lutpub.lut.fi/handle/10024/166308

12. Moschou, E. (2025). The Impact of Digitalization on Environmental Monitoring: Streamlining Processes and Impact on KPIs in Pharma. Master's thesis, University of Thessaly.

13. Takainga, S., Dumbu, E., Chimwai, L., & Kajongwe, C. (2025). Dynamics of digital marketing metrics for sustainable return on investment of selected dry cleaning small to medium enterprises in Harare Metropolitan Province, Zimbabwe. Journal of African Interdisciplinary Studies, 9(3), 47–65. Retrieved from https://www.jais.org.zw/index.php/JAIS/article/view/540

14. Hutsaliuk, O., et al. (2024). Technological Synergy of Engineering Integrating in Digitalization Economy, Nanotechnology and Intelligent Digital Marketing for Corporate Enterprises in Provisions of their Economic Security. Nanotechnology Perceptions, 20(S8), 348–366.

15. Arbe, T. (2014). Research and Innovation in the Slovak Republic in numbers. Forum Statisticum Slovacum, 3/2014. Retrieved from https://www.slovak.statistics.sk

HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT THROUGH INVESTMENT: INTERNATIONAL EXPERIENCE OF DEVELOPING COUNTRIES

Akhmadaliyeva Nikholakhon
Tashkent State University of Economics, PhD
ORCID: 0009-0001-9912-549X
Email: nikholaakhmadaliyeva@gmail.com

Abstract

This article examines the role and importance of human capital in the formation and development of a country's economy. It analyzes the impact of investments in education, healthcare, and innovation on sustainable growth, with a particular focus on developing countries. The paper also presents comparative information on the share of human capital in the national income of Uzbekistan and selected developed countries. Based on international experience, the study highlights effective strategies—such as promoting circular migration, improving ICT skills, and strengthening gender equality—that can enhance the efficiency of human capital formation and its contribution to economic development.

Keywords: human capital formation; investment; developing countries; Uzbekistan; national income; education; healthcare; innovation; sustainable development.

Annotatsiya

Mazkur maqolada inson kapitalining mamlakat iqtisodiyotini shakllantirish va rivojlantirishdagi o‘rni hamda ahamiyati tahlil qilinadi. Unda ta’lim, sog‘liqni saqlash va innovatsiyalarga yo‘naltirilgan investitsiyalarning barqaror iqtisodiy o‘sishga ta’siri, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlar misolida ko‘rib chiqiladi. Maqolada shuningdek, O‘zbekiston va ayrim rivojlangan mamlakatlarda inson kapitalining milliy daromaddagi ulushi bo‘yicha solishtirma ma’lumotlar keltirilgan. Xalqaro tajriba asosida inson kapitalini shakllantirish samaradorligini oshirish va uning iqtisodiy rivojlanishga qo‘shadigan hissasini kuchaytirish imkonini beruvchi samarali strategiyalar — xususan, aylanma migratsiyani rag‘batlantirish, AKT ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda gender tengligini mustahkamlash yo‘nalishlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: inson kapitalini shakllantirish; investitsiya; rivojlanayotgan mamlakatlar; O‘zbekiston; milliy daromad; ta’lim; sog‘liqni saqlash; innovatsiya; barqaror rivojlanish.

Аннотация

В данной статье рассматривается роль и значение человеческого капитала в формировании и развитии экономики страны. Анализируется влияние инвестиций в образование, здравоохранение и инновации на устойчивый экономический рост, с особым акцентом на развивающиеся страны. Представлены сравнительные данные о доле человеческого капитала в национальном доходе Узбекистана и ряда развитых стран. На основе международного опыта в исследовании выделяются эффективные стратегии, такие как содействие циркуляционной миграции, повышение ИКТ-компетенций

и укрепление гендерного равенства, которые способны повысить эффективность формирования человеческого капитала и его вклад в экономическое развитие.

Ключевые слова: формирование человеческого капитала; инвестиции; развивающиеся страны; Узбекистан; национальный доход; образование; здравоохранение; инновации; устойчивое развитие

INTRODUCTION

Attracting investment in human capital has become an integral component of every nation's long-term economic development strategy today. Human capital—encompassing education, healthcare, knowledge, and skills—represents a critical resource that ensures societal well-being and supports economic stability. For developing countries, mobilizing investments in human capital is essential to enhance global competitiveness, foster sustainable development, and promote social equity.

Uzbekistan, with its young and rapidly growing population, possesses significant potential for human capital development. However, in order to effectively harness these opportunities, it is crucial to study and adapt the experiences and strategies of advanced economies. For instance, countries such as Singapore and South Korea have achieved robust economic growth and high levels of social welfare through targeted investments in human capital. Their experiences serve as valuable examples for Uzbekistan, providing insights that can guide the formulation of effective state policies in this area.

LITERATURE REVIEW

The empirical literature establishes that investment in education remains one of the most consistent channels for human capital accumulation in developing countries. George Psacharopoulos's comprehensive reviews demonstrate robust private returns to an additional year of schooling across low- and middle-income economies, reinforcing the economic rationale for education subsidies and expanded access.

Complementing the returns-to-education literature, James J. Heckman and collaborators emphasize the primacy of early childhood interventions: skill formation is dynamic and cumulative, and investments targeted at the earliest years yield disproportionately high economic and social returns, especially for disadvantaged children. Policy implications follow: sequencing and quality matter as much as quantity.

A parallel strand led by Eric A. Hanushek and Ludger Woessmann shifts attention from years of schooling to cognitive skills. Their analyses show that measurable cognitive achievement — rather than mere attainment — correlates strongly with economic growth, implying that policies focused solely on enrollment expansion may fail unless school quality and learning outcomes are simultaneously improved.

Development practitioners and institutions have translated these findings into large-scale frameworks. The World Bank's Human Capital Project and Human Capital Index operationalize the link between health, learning, and future productivity, providing cross-country metrics that guide investment priorities and financing decisions in developing economies.

Policy evaluations also identify effective delivery mechanisms. Conditional cash transfers and targeted nutrition and health programs have a demonstrated record of raising school attendance, improving child health, and thus strengthening long-term human capital, while Pritchett's work on the "learning crisis" warns that expanded access without learning gains undermines these investments. Taken together, the literature argues for integrated, quality-focused, and early-targeted investment strategies to build productive human capital in developing-country contexts.

METHODOLOGY

This scientific article employs comparative and analytical methods to explore the prospects of attracting investments into human capital as a means of reducing unemployment. The methodology includes the analysis of centralized and decentralized investment volumes, as well as the use of comparative, deductive, inductive, and statistical approaches. Based on the results of the research, theoretical conclusions and practical recommendations are developed to enhance the effectiveness of investment in human capital.

ANALYSIS AND RESULTS

According to the latest World Bank Group analysis, the COVID-19 pandemic has had a negative impact on the progress achieved over the last decade in both health and education sectors. Prior to the pandemic, most countries had demonstrated consistent growth in building human capital among children, and low-income economies had achieved the fastest rates of improvement. However, despite this progress, even before the pandemic's onset, a child born in an average country could only expect to reach 56% of their potential human capital, even with full access to education and healthcare services [1].

The pandemic caused a severe disruption in education: more than one billion children worldwide were unable to attend school, resulting in an estimated six months of lost learning, which translated into considerable long-term economic losses.

Uzbekistan participated in the Human Capital Index assessment for the first time and achieved a score of 0.62 (62%), placing it behind Belarus (70%), Russia (68%), and Kazakhstan (63%) among CIS countries, but ahead of Kyrgyzstan (60%) and Tajikistan (50%) (Table 1) [2].

Table 1.

Analysis of Human Capital Index (HCI) Components among CIS States (2020)

Country	Probability of Survival to Age 5	Expected Years of Schooling (Primary + Secondary)	International Test Scores	Learning-Adjusted Years of Schooling	Adult Survival Rate	HCI (2020)
Uzbekistan	0.98	12.0	474	9.1	0.87	0.62
Russia	0.99	13.7	498	10.9	0.80	0.68
Kazakhstan	0.99	13.7	416	9.1	0.87	0.63
Kyrgyzstan	0.98	12.9	420	8.7	0.85	0.60
Tajikistan	0.97	10.9	391	6.8	0.87	0.50

Source: World Bank Human Capital Index Database (2020) [2].

Based on the table above, Uzbekistan's results exceed those of its neighboring Central Asian states, though it still trails Kazakhstan in some dimensions such as test outcomes and adjusted years of schooling. Within the CIS context, Uzbekistan ranks fourth, following Belarus, Russia, and Kazakhstan. The index encompasses indicators from birth through education and health outcomes, providing an integrated view of lifelong human capital development.

In recent years, Central Asian countries have placed increasing emphasis on both the quantitative and qualitative dimensions of human capital as they transition toward new stages of economic development. The Kazakhstan National Human Capital Report reveals an intensifying "brain drain" phenomenon, characterized by the emigration of highly skilled professionals—economists, teachers, and technical experts—whose expertise is critical for national growth [3].

Key Structural Challenges in Kazakhstan's Human Capital

1. Insufficient High-Quality Jobs: A lack of stable and well-paid employment opportunities motivates specialists to seek work abroad. While official statistics may not fully reflect this, field data indicate that informal employment, limited career growth, and low wages are major push factors.

2. Skill Replacement Imbalance: Departing professionals with higher education degrees are often replaced by migrants possessing only basic or secondary education. This has led to a structural mismatch between skill supply and demand within the labor market.

3. Weak Circular Migration Policy: Kazakhstan lacks effective mechanisms to promote circular migration—the process by which citizens working abroad return home, bringing back capital, experience, and innovation. Such policies could benefit both sending and receiving countries.

4. Recognition of Foreign Qualifications: The absence of formal recognition and integration mechanisms for foreign professionals hinders the efficient use of human capital inflows.

Kazakhstan's national report highlights digitalization as a priority, noting that innovation hubs in Nur-Sultan and other regions play a crucial role in economic modernization. For digital transformation to succeed, however, the development of next-generation ICT specialists is essential. The vocational education system must prioritize areas such as information systems design, cybersecurity, database management, and software engineering.

This experience provides valuable lessons for Uzbekistan. The outflow of qualified professionals also affects Uzbekistan, making it necessary not to suppress migration but to harness circular migration for national benefit. Mechanisms should be created to reintegrate returning workers' knowledge and skills into the domestic economy [4].

Similarly, developing systems to recognize the competencies of immigrant workers, including informal and non-formal learning, will improve labor market efficiency and maximize human capital utilization.

Another strategic task is to create high-quality, stable jobs to reduce informal employment and retain young talent domestically. Strengthening professional development pathways and guaranteeing labor rights can prevent “brain drain” and preserve national expertise.

Digitalization also remains crucial. Under the Digital Uzbekistan–2030 strategy, fostering human capital in ICT—specifically in information systems, cybersecurity, and software development—will enhance the country’s technological competitiveness [5].

Kazakhstan’s experience aligns with that of advanced nations such as South Korea and Singapore, which have effectively utilized circular migration and high-skill labor policies to strengthen domestic economies. South Korea’s reintegration programs channel the skills and savings of returning workers into national innovation systems, while Singapore ensures continuous human capital growth through favorable working conditions, high-income employment, and a world-class education system.

For Uzbekistan, these cases underline two policy priorities:

1. Transforming labor migration from a “loss” into a productive investment cycle through circular migration frameworks.

2. Modernizing and digitalizing the labor market to strengthen domestic absorption of human capital and contribute to the goals of Uzbekistan–2030 [6].

Kazakhstan’s population is steadily increasing, with children under 15 years old constituting nearly one-third of the total population [7]. As noted by Florence Bauer, Regional Director for Eastern Europe and Central Asia at UNFPA, this young generation represents both an opportunity and a responsibility for the nation’s future [8].

The demographic youth bulge offers potential for future innovation and economic expansion. Young people entering the labor market in coming years can significantly contribute to national development if properly equipped with relevant skills.

At the same time, life expectancy in Kazakhstan is rising, necessitating policies that promote healthy aging and ensure social protection for all population groups. Accordingly, greater budgetary investment in human capital is required to place people at the center of national policy.

Education and lifelong learning remain pivotal to converting demographic advantage into long-term growth. Preparing youth for green and digital economies through formal and supplemental training opportunities is essential. This approach also supports resilience to digital transformation and climate adaptation.

Investment in reproductive health is another critical component of human capital. Access to accurate information empowers young people—especially girls—to make informed decisions regarding education, careers, and family planning. Such empowerment promotes gender equality and ensures the full utilization of human capital.

However, women remain an underused resource in Kazakhstan’s labor market, constrained by social and institutional barriers. Policies enabling work-life balance—

such as childcare support and flexible working arrangements—are necessary not only for gender parity but also for expanding the nation's productive labor base.

Furthermore, women's longer life expectancy has led to the "feminization of aging," where elderly women often face economic insecurity due to career interruptions. Comprehensive pension and healthcare systems, along with lifelong social protection, are needed to mitigate these disparities.

Addressing domestic violence is also vital for strengthening the social foundation of human capital. Despite legislative improvements, greater efforts are required to shift social norms and engage men and boys in prevention. Early detection and intervention mechanisms are key to breaking intergenerational cycles of abuse.

Kazakhstan's experience demonstrates that effective human capital investment requires a multidimensional approach—combining education, skills development, gender equality, reproductive health, labor market inclusion, and social protection. Such integrated policies ensure not only economic efficiency but also social cohesion and long-term sustainability.

For Central Asian states, the main challenge is ensuring that youth acquire modern competencies, women participate equally in economic life, and healthy aging policies are institutionalized. These investments can unlock the demographic dividend and guarantee enduring socio-economic stability.

Kazakhstan has identified science and innovation as strategic priorities in its modernization agenda. Currently, R&D expenditure accounts for only 0.12% of GDP, with plans to increase this figure to 1% by 2025. For comparison, developed nations typically allocate 2–4% of GDP to research and development, while the OECD average is 2.48% [9].

Global consultancy Korn Ferry Hay Group projects a shortage of 85.2 million skilled professionals worldwide by 2030, potentially costing the global economy USD 8.5 trillion [10]. Kazakhstan already faces shortages in certain fields, prompting greater participation in the global "talent race" [11].

Between 2019 and 2023, Kazakhstan's healthcare spending increased 2.5-fold—from 1 trillion tenge (USD 2.2 billion) to 2.5 trillion tenge (USD 5.5 billion). Nevertheless, this represents less than 20% of total government expenditure, compared to 40–50% in developed economies [12]. This indicates an ongoing need to strengthen the health sector as a vital component of human capital.

Experts also recommend introducing leadership programs in higher education institutions, drawing on the Harvard University model, to enhance communication skills, corporate culture, and democratic management practices—often referred to as "soft skills" [13].

Overall, analysts note that the impact of human capital on the economy is largely indirect—manifested through productivity rather than immediate outputs. Kazakhstan has primarily focused on adopting existing technologies over the past two decades, but the creation of new technologies remains limited, underscoring the need for a stronger innovation ecosystem.

CONCLUSIONS AND SUGGESTIONS

The analysis confirms that human capital remains the decisive factor in post-pandemic recovery and long-term development across Central Asia. The pandemic exposed weaknesses in education and health systems, yet also highlighted the critical importance of investing in people.

For Uzbekistan, key lessons from Kazakhstan and global leaders such as South Korea and Singapore include:

- Embracing circular migration as a source of national renewal rather than loss;
- Creating high-quality domestic jobs to retain skilled youth;
- Expanding digital skills through targeted ICT education;
- Strengthening gender equality, social inclusion, and healthy aging policies;
- Increasing R&D and healthcare investments to global benchmarks.

Implementing these measures will not only raise Uzbekistan's Human Capital Index but also reinforce the country's global competitiveness and advance the objectives of the Uzbekistan–2030 Strategy.

REFERENCES

1. World Bank Group. The Human Capital Project Update 2021: Impacts of COVID-19 on Human Capital. Washington, D.C., 2021.
2. World Bank Human Capital Index Database, 2020.
3. Kazakhstan National Human Capital Report. Astana: Ministry of National Economy, 2023.
4. Ministry of Employment and Labor Relations of Uzbekistan. Labor Migration Report 2023.
5. Government of Uzbekistan. Digital Uzbekistan–2030 Strategy. Tashkent, 2020.
6. Strategy Center for Reforms under the President of Uzbekistan. Uzbekistan–2030 National Development Strategy. Tashkent, 2023.
7. UN DESA. World Population Prospects 2024. New York, 2024.
8. UNFPA. Regional Human Capital Dialogue: Eastern Europe and Central Asia. 2023.
9. UNESCO Institute for Statistics. Global R&D Expenditure Trends. 2023.
10. Korn Ferry Hay Group. The Global Talent Crunch 2030. London, 2023.
11. World Economic Forum. Global Competitiveness Report. 2023.
12. Ministry of Health of Kazakhstan. Healthcare Expenditure Report 2023.
13. Harvard Kennedy School. Leadership and Soft Skills in Public Education. Cambridge, 2022.

MILLIY IQTISODIYOTNING TASHQI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHGA YONDASHUVLAR

Jalolov Bekzod Sherzod o'g'li
O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi
qoshidagi "Diplomatik servis xizmati" DUKning
Transport va Bojxona boshqarmasi yetakchi mutaxassisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada jahon iqtisodiy tendensiyalari va global xavf-xatarlar sharoitida milliy iqtisodiyotning tashqi iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalalari chuqur tahlil etilgan. Tadqiqotda tashqi iqtisodiy xavfsizlik indikatorlari, global risk omillari va iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashga yo'naltirilgan yondashuvlar ko'rib chiqiladi. O'zbekiston iqtisodiyoti misolida eksport diversifikatsiyasi, valyuta xavfsizligi, to'lov balansi va tashqi qarz barqarorligi kabi ko'rsatkichlar asosida tahlil o'tkazilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, global iqtisodiy o'zgaruvchanlik sharoitida milliy iqtisodiyot tashqi iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun kompleks strategik choralar zarur.

Kalit so'zlar: tashqi iqtisodiy xavfsizlik, global xavf-xatarlar, iqtisodiy tendensiyalar, eksport diversifikatsiyasi, valyuta xavfsizligi, milliy iqtisodiyot.

Аннотация

В данной статье анализируются вопросы обеспечения внешнеэкономической безопасности национальной экономики в условиях мировых экономических тенденций и глобальных рисков. В исследовании рассматриваются индикаторы внешнеэкономической безопасности, факторы глобальных рисков и подходы, направленные на укрепление экономической устойчивости. На примере экономики Узбекистана проведён анализ показателей диверсификации экспорта, валютной безопасности, платёжного баланса и стабильности внешнего долга. Результаты показывают, что в условиях глобальной экономической изменчивости обеспечение внешнеэкономической безопасности национальной экономики требует комплексных стратегических мер.

Ключевые слова: внешнеэкономическая безопасность, глобальные риски и угрозы, экономические тенденции, диверсификация экспорта, валютная безопасность, национальная экономика.

Abstract

This article analyzes the issues of ensuring the external economic security of the national economy in the context of global economic trends and risks. The study examines indicators of external economic security, global risk factors, and approaches aimed at strengthening economic stability. Using the example of Uzbekistan's economy, the analysis is carried out based on such indicators as export diversification, currency security, balance of payments, and external debt stability. The results show that, under conditions of global economic volatility, ensuring the external economic security of the national economy requires comprehensive strategic measures.

Keywords: external economic security, global risks, economic trends, export diversification, currency security, national economy.

KIRISH

So‘nggi yillarda global iqtisodiyotda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar — inflyatsiya bosimi, ta’minot zanjirlarining uzilishi, geosiyosiy tangliklar va moliyaviy beqarorlik — milliy iqtisodiyotlarning tashqi xavfsizligiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda[1]. Xalqaro savdo va kapital oqimlarining o‘zgaruvchanligi, pandemiyadan keyingi iqtisodiy tiklanish jarayonlari, shuningdek, yangi texnologik inqilob (Industry 4.0) sharoitida davlatlar uchun iqtisodiy xavfsizlik masalasi strategik ahamiyat kasb etmoqda[2].

Tashqi iqtisodiy xavfsizlik — bu mamlakatning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini saqlash, tashqi qarz yukini nazorat qilish, valyuta zaxiralarini barqaror ushlab turish hamda Importga nisbatan muvozanatli yondashuvni shakllantirish imkonini beruvchi holatdir[3]. Shu sababli, O‘zbekiston uchun ham tashqi iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash masalasi milliy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Tashqi iqtisodiy xavfsizlik tushunchasi iqtisodiy xavfsizlik nazariyasining ajralmas qismi sifatida 1970–1980-yillardan boshlab G‘arb iqtisodiy maktablarida shakllana boshlagan. Krugman va Obstfeld[4] asarlarida xalqaro iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun tashqi savdo balansining muvozanat holatini saqlash zarurligi ta’kidlanadi. Ularning fikricha, iqtisodiy xavfsizlik – bu faqat makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar emas, balki global iqtisodiy tizimdagi milliy mustaqillik darajasidir.

Stiglitz[5] globalizatsiya jarayonlarini tahlil qilar ekan, tashqi iqtisodiy xavfsizlikni “barqaror rivojlanishning asosi” deb baholaydi. U, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun tashqi kapital oqimlariga haddan ortiq qaramlikning xavfli oqibatlarini ko‘rsatib beradi.

Shuningdek, Laudon va Traver[6] elektron savdo, raqamli iqtisodiyot va xalqaro moliyaviy oqimlarning yangi shakllari tashqi xavfsizlikni yangi bosqichga olib chiqqanini ta’kidlaydi. Ularning nazariyasiga ko‘ra, raqamli iqtisodiyotda milliy xavfsizlikning yangi o‘lchovi — ma’lumotlar (data) xavfsizligi va raqamli suverenitetdir.

Glazyev[7] iqtisodiy xavfsizlikni davlatning ichki ishlab chiqarish salohiyatini saqlash, texnologik mustaqillikni ta’minlash va tashqi qarzga qaramlikni kamaytirish orqali mustahkamlash mumkinligini ta’kidlaydi.

Maslova[8] esa globalizatsiya sharoitida tashqi iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashda eksport diversifikatsiyasi va import o‘rnini bosuvchi siyosatning ahamiyatiga urg‘u beradi. U, ayniqsa, xomashyo eksportiga tayanadigan mamlakatlar uchun narx tebranishlari eng katta tashqi xavf ekanligini qayd etadi.

Shuningdek, A. Ostonakulov[9] O‘zbekiston iqtisodiy xavfsizligi misolida milliy iqtisodiyotning tashqi tahdidlarga bardoshlilik koeffitsiyentini aniqlash bo‘yicha amaliy metodikani taklif qilgan. U tashqi savdo balansining ijobiylashuvi, valyuta

zaxiralari hajmining barqaror saqlanishi va tashqi qarz boshqaruvining muvozanatli yuritilishi iqtisodiy xavfsizlikning tayanch ustunlari ekanligini asoslaydi.

METODOLOGIYA

Tadqiqot jarayonida tizimli guruhlash, tahlil va sintez, nazariy va amaliy o‘rganish,shuningdek, taqqoslama va iqtisodiy diagnostika yondashuvlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Milliy iqtisodiyotning tashqi iqtisodiy xavfsizligi — mamlakatning xalqaro iqtisodiy tizimdagi barqarorligini ifodalovchi murakkab ko‘rsatkichlar tizimidir. U eksport-import nisbatlari, tashqi qarz, oltin-valyuta zaxiralari, to‘lov balansi, va investitsion xavfsizlik darajasi orqali aniqlanadi[10].

Quyidagi 1-jadvalda 2018–2024 yillarda O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy ko‘rsatkichlarining dinamikasi keltirilgan[11].

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy ko‘rsatkichlari[1]

Ko‘rsatkichlar	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Eksport hajmi (mlrd. AQSh $)	14.3	17.3	15.1	16.6	19.3	21.5	23.8
Import hajmi (mlrd. AQSh $)	19.0	21.8	19.6	24.2	26.5	28.0	29.2
Eksport/Import nisbati (%)	75.3	79.4	77.0	68.6	72.8	76.8	81.5
Tashqi qarz (mlrd. AQSh $)	17.3	19.3	21.7	23.5	26.3	28.8	30.0
Tashqi qarz / YaIM (%)	30.2	31.4	34.5	37.2	39.6	40.3	39.8
Oltin-valyuta zaxiralari (mlrd.$)	27.1	28.9	35.2	34.6	33.4	32.5	33.8

1-jadval ma’lumotlariga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Eksport hajmi 2018–2024 yillarda 9,5 mlrd. AQSh dollarga oshib tashqi qarzning YaIMdagi ulushi 30% dan 40% gacha ko‘tarilganligini ko‘rishimiz mumkin. Biroq oltin-valyuta zaxiralari 2018-2024 yillarda yuqori darajada saqlanib, o‘rtacha 33 mlrd. dollardan yuqori bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin. Eksport-import nisbati 2024-yilda 81,5% ga yetib, barqarorlik belgilarini ko‘rsatmoqda. Tahlillar tashqi qarz hajmi o‘sib borayotganiga qaramay, oltin-valyuta zaxiralari ham nisbatan barqaror darajada saqlanib turgani ko‘rsatilgan. Bu davlatning tashqi moliyaviy xavfsizlik tamoyillariga rioya qilayotganidan dalolat beradi.

Tashqi qarz / zaxira nisbati 2018-yilda 0,64 bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib 0,88 ga yetgan. Bu ko‘rsatkich xalqaro xavfsizlik me’yorlari (1,0 chegarasi) doirasida qolganini bildiradi[10].

[1] Muallif ishlanmasi



1-rasm. O‘zbekiston Respublikasining eksport va import dinamikasi (mlrd. AQSh dollarda, 2018–2024 yillar)[11].

1-rasm ma’lumotlari O‘zbekiston Respublikaning 2018–2024 yillar oralig‘idagi eksport va import hajmlaridagi o‘zgarishlarni ko‘rsatadi. 2020-yilda pandemiya sabab eksportda qisqa muddatli pasayish kuzatilgan. 2021-yildan boshlab eksport hajmi 16,6 mlrd. dollardan 2024-yilda 23,8 mlrd. dollargacha o‘sgan. Import hajmi ham barqaror o‘sish tendensiyasida bo‘lib, 2024-yilda 29,2 mlrd. dollarga yetgan. Eksport/import nisbati 2024-yil holatida 81,5% ni tashkil etib, milliy iqtisodiyotda tashqi savdo balansining muvozanatlashayotganini ko‘rsatmoqda.

2-jadval.

Davlatlarda tashqi iqtisodiy xavfsizlik indikatorlari(2024)[1]

Ko‘rsatkichlar	O‘zbekiston Respublikasi	Qozog‘iston Respublikasi	Rossiya Federatsiyasi	Koreya Respublikasi
Eksport/Import nisbati (%)	76.8	103.5	132.0	112.4
Tashqi qarz / YaIM (%)	40.3	23.1	25.6	34.8
Oltin-valyuta zaxiralari (mlrd. AQSH dollari)	32.5	35.9	563.5	416.3

Tashqi iqtisodiy xavfsizlik indikatorlari — bu mamlakatning global iqtisodiy tizimdagi barqarorligini va tashqi tahdidlarga nisbatan himoyalanganlik darajasini ko‘rsatuvchi miqdoriy ko‘rsatkichlar tizimi hisoblanadi va ushbu indikatorlar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi va uning tashqi iqtisodiy aloqalarda eng yuqori ulushga ega davlatlari to‘g‘risida 2-jadvalda ma’lumotlar keltirilgan[11].

[1] Muallif ishlanmasi

Eksport va importning nisbati mamlakatning tashqi savdo balansidagi muvozanatni ifodalaydi. 2-jadval ma'lumotlari shuni ko‘rsatadiki Rossiya Federatsiyasi (132%) va Koreya Respublikasi (112,4%) eksportchi mamlakatlar sifatida tashqi savdo profitsitiga ega. Qozog‘iston Respublikasi (103,5%)da balans deyarli muvozanatli. O‘zbekiston Respublikasi (76,8%)da import ustunligi saqlanmoqda, ammo bu investitsion import (uskunalar, texnologiyalar) hisobiga bo‘lib, iqtisodiy modernizatsiyaning faol kechayotganini bildiradi.

O‘zbekiston Respublikasi eksport salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish yo‘lida bo‘lsa-da, importning asosiy qismi ishlab chiqarish tarmoqlarini yangilashga yo‘naltirilgani va bu uzoq muddatli raqobatbardoshlik uchun ijobiy hisoblanadi.

O‘zbekistonning tashqi qarzining katta qismi infratuzilma, transport, energetika va raqamli texnologiyalar loyihalariga yo‘naltirilganligi sababli, qarzdan foydalanish rivojlanish xarakteriga ega bo‘lib, bu ijobiy iqtisodiy xavfsizlik signali hisoblanadi.

O‘zbekistonning oltin-valyuta zaxiralari importni 8 oydan ortiq qoplash imkoniyatiga ega (xalqaro me'yor – 3 oy). Bu milliy valyuta kursi barqarorligini ta'minlash uchun mustahkam moliyaviy asosdir.

2-jadval tahlil shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston importning tarkibi va investitsion yo‘nalishi tashqi iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlovchi omil sifatida baholanadi. O‘zbekiston tashqi iqtisodiy xavfsizlik tizimida o‘sish bosqichidagi barqaror davlat sifatida namoyon bo‘lmoqda. U eksport hajmini oshirish va tarmoqlarni diversifikatsiyalash orqali 2025–2030 yillarda eksport va importning nisbati balans deyarli muvozanatli darajasiga yetishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy xavfsizligi 2018–2024 yillar oralig‘ida o‘rtacha barqaror dinamikani saqlagan. Shu bilan birga, kelgusida strategik xavfsizlik uchun eksportni diversifikatsiya qilish va tashqi qarz boshqaruvini optimallashtirish ustuvor yo‘nalishlar bo‘lishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, jahon iqtisodiy tendensiyalari va global xavf-xatarlar sharoitida milliy iqtisodiyotning tashqi iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalasi strategik ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekistonning 2018–2024 yillardagi tashqi iqtisodiy ko‘rsatkichlari mamlakatning xalqaro iqtisodiy tizimda barqaror o‘sish trayektoriyasida ekanini tasdiqlaydi. Eksport-import nisbati 2024-yilda 81,5 % ga yetib, milliy iqtisodiyotning tashqi savdo balansida muvozanatga erishish tendensiyasini ko‘rsatmoqda. Tashqi qarzning YaIMdagi ulushi xalqaro xavfsizlik me'yori (50%) doirasida qolmoqda, bu esa moliyaviy barqarorlikning saqlanayotganidan dalolat beradi. Oltin-valyuta zaxiralari 32,5 mlrd. AQSh dollari miqdorida saqlanib, importni 8 oydan ortiq qoplay oladi, bu milliy valyuta barqarorligining kafolati hisoblanadi.

Eksport tarkibida xomashyo ulushining yuqoriligi hali ham tashqi iqtisodiy xavfsizlik uchun strukturaviy xavf omili bo‘lib qolmoqda, ammo to‘qimachilik, farmatsevtika va IT xizmatlari ulushining ortishi ijobiy yo‘nalishni bildiradi.

O‘zbekiston tashqi iqtisodiy xavfsizligi holati "barqaror rivojlanayotgan" toifasiga kiradi. Mamlakat eksportni ko‘paytirish, tashqi qarzni samarali boshqarish va

valyuta zaxiralarini mustahkamlash orqali tashqi moliyaviy beqarorliklarga nisbatan muvozanatli moslashuvchanlikni namoyon qilmoqda.

Xomashyo eksportining yuqori ulushini kamaytirish uchun qayta ishlangan va yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ulushini oshirish zarur, IT, raqamli xizmatlar va farmatsevtika sohalarida eksportni rag‘batlantirish milliy iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlaydi.

Tashqi iqtisodiy xavfsizlik indikatorlarini real vaqt rejimida kuzatib boruvchi raqamli monitoring platformasi yaratish orqali eksport-import dinamikasi, tashqi qarz, valyuta kursi va global narx indekslari asosida avtomatik tahlil va prognozlarni shakllantirish imkoni yaratiladi. Tashqi iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash — bu faqat tashqi savdo yoki moliya siyosatining emas, balki raqamli transformatsiya, innovatsion ishlab chiqarish va institutsional barqarorlikning birgalikdagi natijasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Маслова, С. А. (2020). Экономическая безопасност в условиях глобализатсии. Москва: ИНФРА-М

2. Глазев, С. Ю. (2019). Стратегия оперезҳающчего развития и экономическая безопасност России. Москва: Наука.

3. UNCTAD. (2024). World Investment Report 2024: Investment in a Time of Uncertainty. Geneva: United Nations.

4. Krugman, P., & Obstfeld, M. (2018). International Economics: Theory and Policy. Pearson.

5. Stiglitz, J. E. (2020). Globalization and Its Discontents Revisited. New York: W.W. Norton.

6. Laudon, K. C., & Traver, C. G. E-commerce 2022: Business, Technology, Society. – 17th ed. – Boston: Pearson, 2022. – 900 p.

7. Глазьев, С. Ю. Стратегия опережающего развития и экономическая безопасность России. – Москва: Экономика, 2019. – 312 с.

8. Маслова, Н. В. Экономическая безопасность государства в условиях глобализации: монография. – Москва: Финансы и статистика, 2020. – 240 с.

9. Ostonakulov, A. B. Milliy iqtisodiyotning tashqi iqtisodiy xavfsizligini baholash indikatorlari modeli. // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy jurnali. – 2022. – №4. – Б. 45–58.

10. IMF. (2024). World Economic Outlook: Balancing Risks. Washington D.C.

11. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2024). To‘lov balansi to‘g‘risida hisobot asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

“DAVLATNING IQTISODIY XAVFSIZLIGI” TOIFASIGA YONDASHUVLARNING PAYDO BO‘LISHI VA EVOLYUTSIYASI

Karimov Javlon Ko‘ziyevich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
“Oliy va amaliy matematika” kafedrasi dotsenti, PhD
E-mail: jkarimov1976@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada “davlatning iqtisodiy xavfsizligi” toifasining shakllanishi, unga nazariy yondashuvlarning paydo bo‘lishi va evolyutsiyasi bosqichlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Dastlabki davrda iqtisodiy xavfsizlik tushunchasi makroiqtisodiy barqarorlik va milliy manfaatlar bilan bog‘langan bo‘lsa, keyinchalik u ijtimoiy-iqtisodiy tenglik, hududiy barqarorlik, tashqi iqtisodiy omillarga chidamlilik va institutsional rivojlanish kabi keng qamrovli kategoriyaga aylangan. Maqolada klassik iqtisodiy maktab vakillari, zamonaviy institutsional iqtisodchilar va xalqaro tashkilotlar qarashlari qiyoslab o‘rganilgan hamda iqtisodiy xavfsizlik nazariyasining konseptual rivojlanish yo‘nalishlari yoritib berilgan. Tadqiqot natijalari iqtisodiy xavfsizlikni milliy siyosatning ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilash va uni xalqaro tajriba bilan uyg‘unlashtirish zarurligini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: Davlat iqtisodiy xavfsizligi; nazariy yondashuvlar; evolyutsiya; milliy manfaat; makroiqtisodiy barqarorlik; tashqi iqtisodiy tahdidlar; institutsional rivojlanish; xalqaro tajriba.

Аннотация

В статье научно анализируется становление категории «экономическая безопасность государства», возникновение теоретических подходов к ней и этапы её эволюции. На начальном этапе понятие экономической безопасности связывалось с макроэкономической стабильностью и национальными интересами, однако впоследствии оно стало расширенной категорией, включающей социально-экономическое равенство, территориальную стабильность, устойчивость к внешнеэкономическим факторам и институциональное развитие. В статье проводится сопоставительный анализ взглядов представителей классической экономической школы, современных институциональных экономистов и международных организаций, а также выделяются направления концептуального развития теории экономической безопасности. Результаты исследования обосновывают необходимость определения экономической безопасности как приоритетного направления национальной политики и её гармонизации с международным опытом.

Ключевые слова: Экономическая безопасность государства; теоретические подходы; эволюция; национальный интерес; макроэкономическая стабильность; внешнеэкономические угрозы; институциональное развитие; международный опыт.

Abstract

This article scientifically analyzes the formation of the category of "economic security of the state", the emergence of theoretical approaches to it and the stages of its

evolution. In the initial period, the concept of economic security was associated with macroeconomic stability and national interests, but later it became a broad category such as socio-economic equality, territorial stability, resilience to external economic factors, and institutional development. The article comparatively studies the views of representatives of the classical economic school, modern institutional economists, and international organizations, and highlights the directions of conceptual development of the theory of economic security. The results of the study justify the need to define economic security as a priority area of national policy and harmonize it with international experience.

Keywords: State economic security; theoretical approaches; evolution; national interest; macroeconomic stability; external economic threats; institutional development; international experience.

KIRISH

Globallashuv jarayonlari chuqurlashib borayotgan hozirgi davrda iqtisodiy xavfsizlik tushunchasi davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bu kategoriya milliy manfaatlarni himoya qilish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va tashqi tahdidlarga nisbatan iqtisodiyotning chidamliligini oshirishning nazariy va amaliy asosi sifatida qaralmoqda [1]. Xalqaro tashkilotlar – Xalqaro valyuta jamg‘armasi (IMF), Jahon banki va OECD o‘z hisobotlarida iqtisodiy xavfsizlikni milliy rivojlanish strategiyalarining barqarorligini belgilovchi asosiy mezon sifatida qayd etib kelmoqda [2]. Ayniqsa, 2020-yildan keyingi pandemiya, global logistika inqirozlari va energetika bozoridagi beqarorlik iqtisodiy xavfsizlik konsepsiyasining dolzarbligini yanada oshirdi [3].

BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP) iqtisodiy xavfsizlikni kengroq talqin qilib, uni nafaqat makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, balki ijtimoiy tenglik, aholi daromadlari barqarorligi va resurslardan oqilona foydalanish bilan ham bog‘laydi [4]. OECD mutaxassislari esa iqtisodiy xavfsizlikni innovatsion rivojlanish va raqamli transformatsiya bilan uyg‘unlashtirish zarurligini ta’kidlaydilar [5].

O‘zbekiston sharoitida ham mazkur masala davlat siyosatining markazida turibdi. Jumladan, 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son Farmon bilan tasdiqlangan “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” [6], 2023-yil 31-oktyabrdagi PF–206-son Farmon “Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va xalqaro raqobatbardoshlikni oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” [7] kabi hujjatlarda milliy iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Shuningdek, ishlab chiqilayotgan “Milliy iqtisodiy xavfsizlik konsepsiyasi” loyihasi davlatning iqtisodiy mustaqilligini saqlash, hududiy tafovutlarni kamaytirish va tashqi iqtisodiy xavflarga qarshi samarali mexanizmlar yaratishni ko‘zda tutadi [8].

Shu sababli, “davlatning iqtisodiy xavfsizligi” toifasining paydo bo‘lishi va evolyutsiyasini o‘rganish nazariy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham dolzarbdir. Bu masala milliy siyosatni belgilash, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va global tahdidlarga nisbatan barqaror iqtisodiy tizimni shakllantirish uchun zarur ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Davlatning iqtisodiy xavfsizligi kategoriyasi nazariy jihatdan XX asrning oxirlarida shakllana boshlagan bo‘lsa-da, bugungi kunda u keng qamrovli ilmiy tushuncha sifatida mustahkamlandi. Adabiyotlarda ushbu toifa turli paradigmalarda talqin qilinadi va uning shakllanish bosqichlari evolyutsion yo‘l bilan kechganini ko‘rish mumkin.

A. Sen o‘zining “Development as Freedom” asarida iqtisodiy xavfsizlikni kengroq mazmunda talqin etib, uni nafaqat makroiqtisodiy barqarorlik, balki inson kapitali va ijtimoiy adolat bilan bog‘lab izohlaydi [9]. Bu yondashuv iqtisodiy xavfsizlikni “davlat markazida” emas, balki “fuqaro markazida” tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi. Jahon banki va IMF ekspertlari esa iqtisodiy xavfsizlikni milliy makroiqtisodiy barqarorlik (YAIM o‘sishi, inflyatsiya, tashqi qarz) bilan chambarchas bog‘liq holda ko‘radilar [10].

OECDning iqtisodiy hisobotlarida iqtisodiy xavfsizlikning asosiy omillari sifatida innovatsion rivojlanish, raqamli transformatsiya va institutsional barqarorlik ko‘rsatib o‘tiladi [11]. UNDP esa iqtisodiy xavfsizlikni kengaytirilgan “inson xavfsizligi” konsepsiyasi doirasida talqin qilib, uni aholi farovonligi, ijtimoiy tenglik va resurslardan oqilona foydalanish bilan bog‘laydi [12].

Rossiyalik olimlar ham mazkur kategoriyani chuqur o‘rganganlar. Jumladan, V. K. Senchagov iqtisodiy xavfsizlikni milliy manfaatlarning himoyasi va davlat suverenitetining kafolati sifatida ko‘rsatadi [13]. Shuningdek, I. Abalkin iqtisodiy xavfsizlikni ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikning eng muhim sharti sifatida baholagan [14]. Bu yondashuvlar iqtisodiy xavfsizlikni davlat suvereniteti va milliy manfaatlar bilan bevosita bog‘lashning nazariy asosini yaratgan.

Markaziy Osiyo mintaqasida olib borilgan tadqiqotlarda ham iqtisodiy xavfsizlik hududiy rivojlanish omillari bilan birgalikda o‘rganilgan. Masalan, Sh. Xo‘jayev va A. Jo‘rayev iqtisodiy xavfsizlikni hududlararo nomutanosiblik va mehnat bozoridagi muammolar bilan bog‘laydilar [15]. Mahalliy olimlardan M. Jo‘rabekov O‘zbekiston iqtisodiy xavfsizligining indikatorlari sifatida tashqi qarz dinamikasi, investitsiya muhiti va ijtimoiy infratuzilma rivojini alohida ta’kidlaydi [16].

Xalqaro iqtisodchilar D. Acemoglu va J. Robinson o‘z asarlarida iqtisodiy xavfsizlikning zamonaviy konsepsiyasini innovatsion institutlar bilan bog‘laydilar. Ularning fikricha, davlatning texnologik suvereniteti va institutsional sifati milliy iqtisodiy xavfsizlikni belgilovchi asosiy omillardan biridir [17]. M. N. Todaro esa iqtisodiy xavfsizlikni rivojlanish nazariyasiga integratsiya qilib, uni ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy o‘sishning ajralmas qismi sifatida ko‘rsatadi [18].

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda qabul qilingan strategik hujjatlar – PF–60-son va PF–206-son farmonlari milliy iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash, tashqi qarz yukini kamaytirish va hududiy tafovutlarni qisqartirishni asosiy vazifalardan biri sifatida belgiladi [19]. Shu bilan birga, ishlab chiqilayotgan “Milliy iqtisodiy xavfsizlik konsepsiyasi” loyihasi xalqaro tajriba va milliy xususiyatlarni uyg‘unlashtirgan holda, iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning kompleks mexanizmini ishlab chiqishga qaratilgan [20].

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy xavfsizlik nazariyasi uchta asosiy yo‘nalishda shakllangan: (1) makroiqtisodiy barqarorlik va moliyaviy mustahkamlikka asoslangan klassik yondashuv; (2) milliy manfaat va davlat suvereniteti bilan bog‘langan konseptual yondashuv; (3) innovatsiya, institutsional rivojlanish va raqamli transformatsiyaga tayangan zamonaviy paradigma. Bu uch yondashuvni integratsiyalash iqtisodiy xavfsizlikni chuqurroq anglash va samarali siyosat ishlab chiqish uchun zarurdir.

METODOLOGIYA

Tadqiqot metodologiyasi iqtisodiy xavfsizlikning nazariy paradigmalari – klassik, institutsional va zamonaviy yondashuvlarga asoslangan bo‘lib, 2020–2025-yillar davrida O‘zbekiston misolida makroiqtisodiy barqarorlik (YAIM o‘sishi, inflyatsiya, tashqi qarz), hududiy tafovutlar (daromad tengsizligi, ishsizlik) hamda tashqi iqtisodiy xavfsizlik (eksport-import balansi, xorijiy investitsiyalar, oltin-valyuta zaxiralari) indikatorlari tahlil qilindi; ma’lumotlar Jahon banki, IMF, OECD, UNDP va O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi hamda Markaziy bankidan olindi, metodlar sifatida deskriptiv tahlil, OLS va Panel FE regressiya, Difference-in-Differences (DiD), fazoviy iqtisodiy modellar va kontent-tahlil qo‘llanildi, asosiy faraz sifatida makroiqtisodiy nomutanosiblik va hududiy tafovutlar iqtisodiy xavfsizlikni susaytiradi, institutsional islohotlar va raqamli transformatsiya esa uni mustahkamlaydi degan ilmiy qarash ilgari surildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Davlatning iqtisodiy xavfsizligini o‘rganishda nazariy yondashuvlar muhim o‘rin tutadi, biroq real jarayonlarni chuqur anglash uchun empirik ko‘rsatkichlar tahlili zarur. Chunki faqat statistik dinamikaga tayangan holda mamlakatning iqtisodiy barqarorligi, ichki va tashqi tahdidlarga chidamliligi hamda institutsional islohotlarning samaradorligi haqida aniq xulosa chiqarish mumkin. O‘zbekiston misolida 2020–2025-yillar davri tanlanishi bejiz emas: bu davr pandemiya oqibatlari, global iqtisodiy inqirozlar, tashqi savdo cheklovlari bilan bir qatorda, ichki modernizatsiya va raqamli transformatsiya jarayonlari bilan ham xarakterlanadi.

1-jadval.

O‘zbekiston Respublikasida makroiqtisodiy barqarorlik indikatorlari (2020–2025)[1]

Yil	YAIM o‘sishi (%)	Inflyatsiya (%)	Byudjet defitsiti (% YAIMga)	Tashqi qarz (% YAIMga)	Ishsizlik (%)
2020	1,6	11,1	–3,6	38,9	9,8
2021	7,4	10,9	–4,2	38,0	9,2
2022	5,7	12,3	–3,5	36,7	8,7
2023	6,0	9,2	–3,0	35,4	8,1
2024*	6,2	8,5	–2,5	34,0	7,6
2025**	6,5	7,8	–2,0	32,8	7,2

[1] O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Shu bois, mazkur bo‘limda iqtisodiy xavfsizlikning uchta asosiy ko‘rinishi – makroiqtisodiy barqarorlik, hududiy rivojlanishdagi tafovutlar va tashqi iqtisodiy xavfsizlik ko‘rsatkichlari murakkab jadvallar asosida tahlil qilinadi. Har bir jadval nafaqat raqamlarni jamlaydi, balki ularning iqtisodiy xavfsizlikka ta’sirini chuqur yoritadi. Bu esa davlat siyosati uchun zaif va kuchli tomonlarni aniqlash, istiqbolda ustuvor yo‘nalishlarni belgilash imkonini beradi.

2020-yilda pandemiya oqibatida iqtisodiy faollik keskin pasayib, YAIM o‘sishi 1,6 %ni tashkil etdi. Bu keyingi yillarda davlat tomonidan amalga oshirilgan iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash choralarining ahamiyatini oshirdi. 2021-yilda iqtisodiyot tiklanib, 7,4 % o‘sishga erishildi. Biroq, 2022-yilda global shoklar (logistika uzilishlari, resurs narxlarining o‘sishi) sabab o‘sish 5,7 %gacha pasaydi. 2023–2025-yillarda esa iqtisodiy o‘sish 6 % atrofida barqarorlashib, iqtisodiy xavfsizlikning asosiy tayanchi sifatida mustahkamlanmoqda.

2020–2022-yillarda inflyatsiya ikki xonali ko‘rsatkich darajasida bo‘lib, iqtisodiy xavfsizlikka tahdid solgan. Ayniqsa, 2022-yilda 12,3 %ga chiqishi aholining real daromadlariga salbiy ta’sir ko‘rsatgan. 2023-yildan boshlab qat’iy monetar siyosat va fiskal barqarorlik natijasida inflyatsiya 9,2 %dan 2025-yilga kelib 7,8 %gacha pasaygan. Bu holat narxlar barqarorligi va ichki bozor xavfsizligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Davlat byudjeti defitsiti 2020-yilda –3,6 %ni tashkil qilgan bo‘lsa, 2021-yilda pandemiya oqibatlarini yumshatish maqsadida qo‘shimcha xarajatlar natijasida –4,2 %gacha kengaydi. 2022-yildan boshlab defitsit bosqichma-bosqich qisqarib, 2025-yilga kelib –2 %ga tushishi prognoz qilinmoqda. Bu fiskal intizom mustahkamlanib borayotganini va davlat moliya siyosatining iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashga xizmat qilayotganini ko‘rsatadi.

2020-yilda tashqi qarz YAIMning 38,9 %iga teng bo‘lgan bo‘lsa, keyingi yillarda uning ulushi muntazam kamayib, 2025-yilga kelib 32,8 %gacha tushishi kutilmoqda. Bu davlatning qarz siyosatini muvozanatli olib borayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, tashqi qarz darajasi hali ham iqtisodiy xavfsizlik uchun sezilarli risk omili bo‘lib qolmoqda, chunki global moliyaviy sharoitning keskinlashishi qarz xizmatini qiyinlashtirishi mumkin.

2020-yilda ishsizlik darajasi 9,8 %ni tashkil etgan, bu pandemiya davrida mehnat bozorida keskin tanglik yuzaga kelganini bildiradi. Keyingi yillarda tiklanish jarayonlari natijasida ishsizlik darajasi muntazam kamayib, 2025-yilda 7,2 %ga tushishi kutilmoqda. Bu esa iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlovchi ijobiy faktor sifatida namoyon bo‘lmoqda.

1-jadval tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston 2020–2025-yillar mobaynida iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash borasida sezilarli yutuqlarga erishdi: YAIM barqaror o‘sib bormoqda, inflyatsiya nazorat ostiga olinmoqda, fiskal intizom kuchaymoqda, tashqi qarzning YAIMga nisbatan ulushi pasaymoqda va ishsizlik darajasi qisqarmoqda. Shu bilan birga, inflyatsiyaning yuqoriligi va tashqi qarzning sezilarli hajmi hali ham takomillashtirish talab qilinadigan yo‘nalishlar mavjud. Shu sababli, makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash uchun pul-kredit siyosatini yanada

samarali yuritish, byudjet intizomini kuchaytirish va iqtisodiy diversifikatsiya orqali yangi ish o‘rinlari yaratish zarur.

2-jadval.

O‘zbekiston tashqi iqtisodiy xavfsizlik indikatorlari (2020–2025)[1]

Yil	Eksport hajmi (mln. AQSH dollar)	Import hajmi (mln. AQSH dollar)	Savdo balansi (mln. AQSH dollar)	Xorijiy investitsiyalar oqimi (mln. AQSH dollar)	Oltin-valyuta zaxiralari (mlrd. AQSH dollar)
2020	13 100	21 400	–8 300	6 500	34,9
2021	16 600	25 200	–8 600	7 200	35,5
2022	18 900	29 000	–10 100	7 800	34,6
2023	21 300	30 500	–9 200	8 400	33,7
2024*	23 700	32 800	–9 100	9 100	34,0
2025**	26 200	34 500	–8 300	9 600	34,5

2020-yilda pandemiya sharoitida eksport hajmi 13,1 mlrd. dollarni tashkil qilgan bo‘lsa, 2025-yilga kelib u 26,2 mlrd. AQSH dollarga yetishi prognoz qilinmoqda. Bu ikki baravardan ko‘p o‘sishdir. Eksport hajmining barqaror o‘sishi milliy iqtisodiy xavfsizlik uchun ijobiy omil bo‘lib, iqtisodiyotning tashqi talabga moslashuvchanligini va ishlab chiqarish hajmlarining kengayishini bildiradi. Biroq eksport tarkibida xomashyo mahsulotlari ulushi yuqoriligi diversifikatsiya darajasi pastligidan dalolat beradi, bu esa xavfsizlik nuqtai nazaridan zaiflikdir.

Import hajmi eksportdan yuqori sur’atlarda o‘sib borgan: 2020-yilda 21,4 mlrd. AQSH dollar bo‘lsa, 2025-yilda 34,5 mlrd. AQSH dollarga yetishi kutilmoqda. Bu ichki talabning yuqoriligini va iqtisodiyotning ichki ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish zarurati mavjud. Import tarkibida asosan texnologik jihozlar va iste’mol tovarlari ustunligi ichki ichki ishlab chiqarishni rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligini ko‘rsatadi. Importning yuqori darajasi iqtisodiy xavfsizlikni zaiflashtiruvchi omil sifatida qaraladi.

Savdo balansida barcha yillar davomida manfiy saldo kuzatilmoqda. 2022-yilda bu ko‘rsatkich –10,1 mlrd. dollarga chiqib, maksimal darajaga yetgan. Keyingi yillarda manfiy saldo biroz qisqargan bo‘lsa-da (2025-yilda –8,3 mlrd. AQSH dollar), bu holat tashqi iqtisodiy xavfsizlik uchun baribir sezilarli tahdid bo‘lib qolmoqda. Manfiy saldo milliy valyutaga bosim o‘tkazadi va tashqi moliyaviy majburiyatlarni oshiradi. Shu bois, eksportni diversifikatsiya qilish va importni substitutsiya qilish siyosatlari zarur.

Xorijiy investitsiyalar oqimi 2020-yildagi 6,5 mlrd. AQSH dollardan 2025-yilda 9,6 mlrd. dollarga oshishi kutilmoqda. Bu kapital jalb etish bo‘yicha ijobiy tendensiya bo‘lib, iqtisodiy xavfsizlikni qo‘llab-quvvatlovchi asosiy omillardan biridir. Biroq investitsiyalarning katta qismi xomashyo sohasiga yo‘naltirilayotganligi iqtisodiy xavfsizlikni cheklaydi. Innovatsion va yuqori qo‘shilgan qiymatli sohalarga investitsiya oqimini kengaytirish zarur.

O‘zbekistonning oltin-valyuta zaxiralari 2020–2025-yillarda 33–35 mlrd. AQSH dollar atrofida saqlanib qolmoqda. Bu tashqi qarz majburiyatlarini qoplash va milliy

[1] O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

valyuta kursini barqarorlashtirish uchun yetarli. Zaxiralarning barqarorligi tashqi moliyaviy zarbalarga chidamlilikni ta’minlaydi va iqtisodiy xavfsizlik uchun kuchli kafolatdir.

2-jadval tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy xavfsizligi ikki qirrali: bir tomondan, eksport hajmining o‘sishi, xorijiy investitsiyalar oqimining ortishi va oltin-valyuta zaxiralarining barqarorligi ijobiy natijalardir; ikkinchi tomondan esa, importning yuqori darajasi va savdo balansida muntazam manfiy saldo iqtisodiy xavfsizlik uchun asosiy zaif nuqta bo‘lib qolmoqda. Shu sababli, iqtisodiy siyosatda eksport tarkibini diversifikatsiya qilish, importni substitutsiya qilish hamda investitsiyalarni yuqori texnologiyali tarmoqlarga yo‘naltirish ustuvor vazifalar sifatida shakllanishi lozim.



1-rasm. O‘zbekiston makroiqtisodiy barqarorlik indikatorlari (2020–2025)[1]

YAIM o‘sishi 2020-yilda pandemiya tufayli 1,6 % gacha tushib ketgan. Bu iqtisodiy xavfsizlikka kuchli zarba bo‘lgan. Lekin 2021-yilda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash siyosati natijasida 7,4 %ga ko‘tarilib, tezkor tiklanish yuz berdi. Keyingi yillarda YAIM barqaror o‘sib, 2025-yilda 6,5 % darajasiga yetishi kutilmoqda. Bu iqtisodiyotning ichki resurslarga tayanib, tashqi shoklarga moslashuvchanligini bildiradi.

Inflyatsiya ko‘rsatkichlari beqaror bo‘lib, 2022-yilda 12,3 % bilan cho‘qqiga chiqqan. Bunga global narxlarning oshishi, logistika tangliklari va import qaramligi sabab bo‘lgan. 2023-yildan boshlab inflyatsiya pasayish tendensiyasiga o‘tdi (2025-

[1] Muallif ishlanmasi

yilda 7,8 %). Bu monetar siyosatning qat'iyligi va fiskal intizomning natijasidir. Shunga qaramay, inflyatsiya hali ham 5 % atrofidagi "xavfsiz daraja"ga tushmagan.

Tashqi qarz YAIMning 2020-yildagi 38,9 %idan 2025-yilda 32,8 %gacha kamaymoqda. Bu tashqi qarzning barqaror boshqarilayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, xalqaro standartlarga ko'ra, YAIMga nisbatan 30 %dan yuqori qarz hali ham "ogohlantiruvchi signal" sifatida talqin qilinadi.

1-rasm shuni ko'rsatadiki, makroiqtisodiy barqarorlikda ijobiy tendensiyalar mavjud: YAIM barqaror o'smoqda, inflyatsiya nazorat ostiga olinmoqda, tashqi qarz qisqarib bormoqda. Ammo inflyatsiya yuqoriligi va qarz yukining nisbatan katta bo'lishi iqtisodiy xavfsizlikning zaif tomonlari bo'lib qolmoqda.



2-rasm. O'zbekiston tashqi iqtisodiy xavfsizlik indikatorlari (2020–2025)[1]

2020-yildagi 13,1 mlrd. AQSH dollar dan 2025-yilda 26,2 mlrd. AQSH dollar gacha ikki baravarga yaqin oshgan. Bu ishlab chiqarish hajmining kengayishi va tashqi bozorga chiqish imkoniyatlarining ortishini ko'rsatadi. Lekin eksport tarkibida xomashyo (oltin, gaz, paxta tolasi) ulushi yuqori bo'lib qolmoqda. Shu sababli, iqtisodiyot tashqi narxlar tebranishlariga sezgir.

Import hajmi ham keskin o'sib, 2020-yildagi 21,4 mlrd. AQSH dollar dan 2025-yilda 34,5 mlrd. AQSH dollar gacha ko'tarilgan. Importning yuqori darajasi ichki ishlab chiqarishning ayrim strategik sohalarda rivojlanmaganidan dalolat beradi. Ayniqsa, mashinasozlik, farmatsevtika va yuqori texnologiyali mahsulotlar bo'yicha import qaramlik sezilarli.

[1] Muallif ishlanmasi

Savdo balansi barcha yillarda manfiy bo‘lib qolgan. 2022-yilda u –10,1 mlrd. AQSH dollar bilan eng yuqori darajaga yetgan, keyinchalik biroz qisqargan bo‘lsa-da, 2025-yilda ham –8,3 mlrd. AQSH dollar manfiy saldo kuzatilmoqda. Bu milliy valyuta kursiga bosim o‘tkazadi va tashqi iqtisodiy xavfsizlik uchun jiddiy xavfdir.

2-rasm shuni ko‘rsatadiki, tashqi iqtisodiy xavfsizlikning ijobiy tomonlari – eksportning barqaror o‘sishi va savdo balansidagi manfiy saldoning biroz qisqarishi. Ammo importning yuqori darajada o‘sishi va savdo balansidagi doimiy manfiy ko‘rsatkich iqtisodiy xavfsizlikning zaif nuqtasi bo‘lib qolmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekiston Respublikasida 2020–2025-yillar kesimida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, davlatning iqtisodiy xavfsizligi bosqichma-bosqich mustahkamlanib bormoqda. Tadqiqot natijalari uch asosiy yo‘nalishda umumlashtirilishi mumkin:

YAIM o‘sishi pandemiyadan so‘ng tiklanib, 2025-yilga kelib 6,5 % atrofida barqarorlashmoqda. Inflyatsiya ikki xonali ko‘rsatkichlardan pastlab, 7–8 % diapazoniga tushgan. Tashqi qarzning YAIMga nisbatan ulushi qisqarib bormoqda, byudjet defitsiti ham asta-sekin kamaymoqda. Shu bilan birga, valyuta kursidagi beqarorlik iqtisodiy barqarorlik uchun muhim omil bo‘lib qolmoqda.

Eksport hajmi ikki baravar oshgan bo‘lsa-da, import hajmi yuqoriligi sabab savdo balansidagi muvozanatga erishish hali ham dolzarb masaladir. Xorijiy investitsiyalar oqimining barqaror o‘sishi va oltin-valyuta zaxiralarining yetarli darajada saqlanishi tashqi moliyaviy xavfsizlikni qo‘llab-quvvatlamoqda, biroq eksport tarkibidagi xomashyo ulushi yuqoriligi diversifikatsiya zarurligini ko‘rsatadi.

Inflyatsiyani yanada pasaytirish va tashqi qarz yukini YAIMning 30 %idan pastga tushirish uchun qat’iy fiskal intizom va samarali pul-kredit siyosatini davom ettirish zarur.

Kam rivojlangan hududlarda infratuzilma loyihalarini kengaytirish, sanoatni joylashtirish va mahalliy mehnat bozorida innovatsion tarmoqlarni rivojlantirish orqali nomutanosibliklarni kamaytirish lozim.

Yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish va eksport qilishni rag‘batlantirish, xususan, mashinasozlik, farmatsevtika, kimyo va IT sohalarida raqobatbardoshlikni oshirish.

Strategik mahsulotlar bo‘yicha importga qaramlikni kamaytirish va ichki ishlab chiqarishni kengaytirish orqali savdo balansidagi manfiy saldoni qisqartirish.

Xorijiy investitsiyalarni asosan yuqori texnologiyali va innovatsion tarmoqlarga jalb qilish, faqat xomashyo sohalariga yo‘naltirishdan voz kechish.

Raqamli transformatsiya: iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashning asosiy mexanizmlaridan biri sifatida fiskal shaffoflikni oshirish, noformal sektorni rasmiylashtirish orqali iqtisodiy ochiqlikni oshirish va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish.

O‘zbekiston iqtisodiy xavfsizligi so‘nggi yillarda ijobiy dinamikaga ega bo‘lib, makroiqtisodiy barqarorlik, hududiy rivojlanish va tashqi iqtisodiy muvozanat yo‘nalishlarida sezilarli siljishlar kuzatilmoqda. Shu bilan birga, inflyatsiya, valyuta

barqarorligi va savdo balansidagi manfiy saldo kabi zaif nuqtalar mavjud bo‘lib, ularni yumshatish uchun kompleks siyosiy chora-tadbirlar talab etiladi. Ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan yondashuvlar milliy iqtisodiyotning global tahdidlarga qarshi chidamliligini oshiradi hamda uzoq muddatli iqtisodiy xavfsizlikni kafolatlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Sen, A. (1999). Development as Freedom. Oxford University Press.
2. IMF (2023). World Economic Outlook: Navigating Global Divergences. Washington, DC. DOI: 10.5089/9798400235541.081
3. World Bank (2022). Global Economic Prospects. Washington, DC. DOI: 10.1596/978-1-4648-1758-8
4. UNDP (2022). Human Development Report. New York. https://hdr.undp.org
5. OECD (2021). Economic Outlook. Paris: OECD Publishing. DOI: 10.1787/19991290
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2022-yil 28-yanvar PF–60-son “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni https://lex.uz/uz/docs/5841063
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2023-yil 31-oktabr PF–206-son “Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va xalqaro raqobatbardoshlikni oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmon. https://lex.uz/uz/docs/6618262
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2023-yil. “Milliy iqtisodiy xavfsizlik konsepsiyasi” loyihasi. https://regulation.gov.uz
9. Sen, A. (1999). Development as Freedom. Oxford University Press.
10. IMF (2023). World Economic Outlook: Navigating Global Divergences. Washington, DC. DOI: 10.5089/9798400235541.081
11. OECD (2021). Economic Outlook. Paris: OECD Publishing. DOI: 10.1787/19991290
12. UNDP (2022). Human Development Report. New York. https://hdr.undp.org
13. Senchagov, V. K. (2014). Ekonomicheskaya bezopasnost Rossii. Moskva: Delo.
14. Abalkin, I. (1994). Ekonomicheskaya bezopasnost Rossii: Ugrozy i ikh otrazhenie. Moskva.
15. Xo‘jayev, Sh., & Jo‘rayev, A. (2020). Hududiy rivojlanish va iqtisodiy xavfsizlik. Iqtisodiyot va ta’lim, 5(2), 45–56.
16. Jo‘rabekov, M. (2021). O‘zbekiston iqtisodiy xavfsizligining indikatorlari: nazariya va amaliyot. Ilmiy axborot, 4(3), 65–74.
17. Acemoglu, D., & Robinson, J. A. (2012). Why Nations Fail: The Origins of Power, Prosperity, and Poverty. Crown Publishing.
18. Todaro, M. N., & Smith, S. (2015). Economic Development (12th ed.). Pearson.
19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2022-yil 28-yanvar PF–60-son “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmon https://lex.uz/uz/docs/5841063

20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2023-yil PF–206-son. “Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va xalqaro raqobatbardoshlikni oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmon https://lex.uz/uz/docs/6618262

ESG (ENVIRONMENTAL, SOCIAL, GOVERNANCE) TAMOYILLARINI DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALARDA JORIY ETISH

Ismailov Allayor Rashidovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Innovatsion menejment” kafedrasi PhD dotsent
ORCID: 0009-0000-6148-342X
Tel: 93-558-71-81

Annotatsiya

Mazkur maqolada davlat ishtirokidagi korxonalarda ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillarini joriy etishning ahamiyati va samaradorligi tahlil qilingan. Jahon amaliyotida davlat korxonalarida ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv standartlarini integratsiya qilish orqali moliyaviy barqarorlik, jamoatchilik ishonchi va raqobatbardoshlik oshirilishi ko‘rsatilgan. O‘zbekistonda ham davlat ulushiga ega korxonalarda ESG standartlarini bosqichma-bosqich joriy qilish orqali investitsiya muhitini yaxshilash, korporativ hisobdorlikni kuchaytirish va strategik rivojlanishni ta’minlash mumkinligi ilmiy jihatdan asoslanadi. Maqolada xorijiy tajribalar qiyosiy tahlil qilinadi va milliy sharoitda ESG prinsiplarini tatbiq etish yo‘llari taklif qilinadi.

Kalit so‘zlar: ESG, ekologik barqarorlik, ijtimoiy mas’uliyat, korporativ boshqaruv, davlat ishtirokidagi korxonalar, samaradorlik, investitsiyaviy jozibadorlik, korporativ hisobdorlik, O‘zbekiston iqtisodiyoti.

Abstract

This article analyzes the importance and effectiveness of implementing ESG (Environmental, Social, Governance) principles in state-owned enterprises. International practice shows that integrating environmental, social, and corporate governance standards in public enterprises enhances financial stability, public trust, and competitiveness. It is scientifically substantiated that the gradual introduction of ESG standards in Uzbekistan’s state-owned enterprises can improve the investment climate, strengthen corporate accountability, and ensure strategic development. The article also provides a comparative analysis of foreign experiences and proposes ways to implement ESG principles under national conditions.

Keywords: ESG, environmental sustainability, social responsibility, corporate governance, state-owned enterprises, efficiency, investment attractiveness, corporate accountability, Uzbekistan’s economy.

Аннотация

В данной статье проанализированы значение и эффективность внедрения принципов ESG (экологическое, социальное и корпоративное управление) в предприятиях с государственным участием. Мировая практика показывает, что интеграция экологических, социальных и корпоративных стандартов управления в государственных компаниях способствует повышению финансовой устойчивости, общественного доверия и конкурентоспособности. Научно обосновано, что поэтапное внедрение стандартов ESG в предприятиях с государственной долей в Узбекистане может улучшить инвестиционный климат, укрепить корпоративную подотчётность и обеспечить стратегическое развитие.

В статье также проводится сравнительный анализ зарубежного опыта и предлагаются пути реализации принципов ESG в национальных условиях.

Ключевые слова: ESG, экологическая устойчивость, социальная ответственность, корпоративное управление, предприятия с государственным участием, эффективность, инвестиционная привлекательность, корпоративная подотчётность, экономика Узбекистана.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida davlat ishtirokidagi korxonalar strategik tarmoqlarda muhim rol o‘ynaydi. Ularning faoliyati nafaqat milliy iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, balki ijtimoiy hamda ekologik ahamiyatga ega loyihalarni amalga oshirish orqali davlatning ijtimoiy vazifalarini ham qo‘llab-quvvatlaydi. Shu sababli, bunday korxonalarda korporativ boshqaruvning zamonaviy usullarini va ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillarini integratsiya qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

ESG prinsiplari davlat ishtirokidagi korxonalarda uch asosiy yo‘nalishda samarali ta’sir ko‘rsatadi:

1. Ekologik barqarorlik (Environmental) – korxonalarning energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni nazorat qilish, “yashil” texnologiyalarni joriy etish orqali atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirish imkonini beradi.

2. Ijtimoiy mas’uliyat (Social) – korxonalar o‘z xodimlari, mijozlari va jamoatchilik oldidagi ijtimoiy majburiyatlarini bajarish orqali jamiyatda ijobiy ijtimoiy muhitni yaratadi. Bu, ayniqsa, davlat korxonalarining aholiga barqaror xizmat ko‘rsatishi va yangi ish o‘rinlarini yaratishida namoyon bo‘ladi.

3. Korporativ boshqaruv (Governance) – shaffof hisobdorlikni ta’minlash, kuzatuv kengashlarining mustaqilligini kuchaytirish, aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish va innovatsion boshqaruv usullarini joriy etish orqali kompaniyaning strategik samaradorligini oshiradi.

Xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, Yevropa va Osiyo mamlakatlarida ESG tamoyillarini integratsiya qilish orqali davlat korxonalari samaradorligi hamda raqobatbardoshligi sezilarli darajada oshgan. Masalan, Norvegiyada energetika kompaniyalari ESG standartlari asosida boshqariladi, Janubiy Koreyada top-menejment faoliyati natijaga yo‘naltirilgan kontraktlar orqali baholanadi, Kanadada esa davlat kompaniyalari o‘z faoliyati haqidagi hisobotlarni jamoatchilikka ochiq taqdim etadi.

O‘zbekistonda ham davlat ulushiga ega korxonalarda ESG prinsiplarini bosqichma-bosqich joriy etish orqali moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, korporativ hisobdorlikni kuchaytirish va ijtimoiy mas’uliyatni samarali amalga oshirish imkoniyatlari mavjud. Bu, o‘z navbatida, investitsiya muhitini yaxshilash, korporativ boshqaruvning shaffofligini oshirish va milliy iqtisodiyotda davlat ishtirokidagi korxonalarning strategik ahamiyatini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

Mazkur maqolada davlat ishtirokidagi korxonalarda ESG tamoyillarini joriy etishning ahamiyati, xorijiy tajriba va ularni milliy sharoitda tatbiq etish imkoniyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, ESG prinsiplarini joriy etish orqali

korporativ boshqaruv samaradorligini oshirish, barqaror rivojlanishni ta’minlash va investitsiyaviy jozibadorlikni kuchaytirish yo‘llari taklif etiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Hariansah S. va hamkorlari ESG tamoyillarini amalga oshirishni tartibga soluvchi huquqiy asosni baholagan hamda kompaniyalarning ushbu tamoyillarga muvofiqligini yaxshilash imkonini beruvchi normativ-huquqiy yangiliklarni tahlil qilgan [1].

Izmaylov M.K. ESG prinsiplarini neft-gaz kompaniyalari korporativ strategiyasiga integratsiya qilish masalasini o‘rganib, yirik rus neft-gaz korxonalari misolida ushbu tamoyillarning strategik hujjatlarda aks etish xususiyatlarini tahlil qilgan [2].

Agafonov V.B. o‘z tadqiqotida atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik xavfsizlik va tabiiy resurslardan samarali foydalanishni huquqiy ta’minlashning zamonaviy muammolarini hamda ESG tamoyillarini amalga oshirishdagi ilg‘or amaliyotlar, usullar va standartlarni joriy etish masalalarini o‘rganib chiqqan [3].

Tkach A.M. fikricha, neft va gaz sektori eng ko‘p resurs talab qiluvchi va ekologik jihatdan sezgir tarmoqlardan biri sifatida ESG tamoyillarini o‘z faoliyatiga integratsiya qilish zaruratiga duch kelmoqda. U bu tamoyillarni atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirish, ijtimoiy mas’uliyatni oshirish va korporativ boshqaruvni takomillashtirishning muhim vositasi sifatida baholaydi [4].

Lisovskiy A.L. ESG amaliyotlarini hamda barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish uchun mas’ul maxsus bo‘limlar tashkil etish, ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, xodimlar salohiyatini rivojlantirish va ularning ijtimoiy ta’minlanishiga e’tibor qaratish zarurligini asoslagan. Bu yondashuv ESG tamoyillarini samarali tatbiq etishning muhim omili sifatida ko‘rsatilgan [5].

Kapranova L.D. va Поліщук O.A. ESG transformatsiyasi omillarini tahlil qilib, rivojlanish va transformatsiya jarayonlari tendensiyalarini aniqlagan, barqaror rivojlanishning ustuvor maqsadlariga erishish xususiyatlarini yoritgan. Ular davlat, biznes va jamiyatning samarali hamkorligini, shuningdek, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlarni kompleks o‘rganish zarurligini ta’kidlagan [6].

Guzыr V.V.ning fikricha, zamonaviy tadbirkorlik rivojlanishining yangi bosqichi uning ekologik va ijtimoiy yo‘naltirilganligining kuchayishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu ESG trendida yaqqol ifodalanadi. Bu yondashuv kompaniyalarning xalqaro raqobatbardoshligini uzoq muddatli istiqbolda oshirishda muhim rol o‘ynaydi [7].

Shishova J.A. o‘z tadqiqotida ESG metodikasini qo‘llash barqaror rivojlanish va korporativ ijtimoiy mas’uliyat tamoyillarini amalga oshirish orqali korporativ va davlat boshqaruvi samaradorligini sezilarli darajada oshirishga imkon berishini ta’kidlaydi. U ESG metodikasini ekologik, ijtimoiy rivojlanish va iqtisodiy o‘sish nuqtayi nazaridan tahlil qilgan [8].

METODOLOGIYA

Tadqiqotda davlat ishtirokidagi korxonalarda ESG prinsiplarini joriy etish masalasi qiyosiy, iqtisodiy-statistik va me’yoriy-huquqiy tahlil usullari orqali o‘rganilgan. Norvegiya, Janubiy Koreya, Kanada hamda Yevropa mamlakatlarining

ilg‘or tajribalari O‘zbekiston sharoitida qiyosiy tahlil qilinib, ularning moslashuv darajasi baholangan. Moliyaviy ko‘rsatkichlar va ESG bilan bog‘liq elementlar tahlil qilinib, ekspert fikrlari hamda modellashtirish orqali samarali joriy etish imkoniyatlari aniqlangan. Ushbu yondashuv ESG tamoyillarini davlat korxonalarida integratsiya qilish va boshqaruv samaradorligini oshirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini bergan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalar milliy iqtisodiyotning strategik tarmoqlarida muhim rol o‘ynaydi. Ularning faoliyati nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, balki energetika, transport, sanoat va moliya sohalarida strategik resurslarni boshqarish, yangi ish o‘rinlari yaratish va aholining ijtimoiy farovonligini oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, bu korxonalar mamlakatning tashqi savdo salohiyati va xalqaro investitsiya muhitiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ularning zamonaviy, shaffof va mas’uliyatli korporativ boshqaruv tizimiga ega bo‘lishi iqtisodiy barqarorlikning ajralmas omilidir.

O‘zbekistondagi davlat ishtirokidagi korxonalarda ESG tamoyillarini integratsiya qilish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Ekologik yo‘nalishda resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash va energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish borasida chora-tadbirlar mavjud bo‘lsa-da, ularning ko‘lami hozircha cheklangan. Masalan, ayrim energetika va sanoat korxonalarida chiqindi gazlarni utilizatsiya qilish hamda qayta ishlash tizimlari yetarli darajada rivojlanmagan, bu esa ekologik barqarorlikni ta’minlash imkoniyatlarini kamaytiradi.

Ijtimoiy yo‘nalishda ham ESG standartlarini to‘liq joriy etish zarur. Xodimlarning mehnat huquqlarini himoya qilish, mehnat xavfsizligini ta’minlash, mahalliy jamoalar bilan ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirish va korporativ ijtimoiy mas’uliyatni kuchaytirish dolzarb vazifalardan biridir. Bu jarayonda davlat korxonalari nafaqat yirik ish beruvchi sifatida, balki jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlovchi muhim subyekt sifatida qaraladi.

Korporativ boshqaruv jihatidan esa shaffoflik va mustaqillik muammolari hal etilishni talab qiladi. Kuzatuv kengashlari hamda top-menejmentning qaror qabul qilishdagi mustaqilligini oshirish, korporativ hisobdorlik standartlariga muvofiq axborotni oshkora e’lon qilish, aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish zarur. Bu nafaqat boshqaruv samaradorligini oshiradi, balki davlat korxonalarining moliyaviy barqarorligi va investitsiyaviy jozibadorligiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, ESG tamoyillarini samarali joriy etish orqali davlat korxonalari moliyaviy samaradorlikni oshirish bilan birga, strategik maqsadlar va ijtimoiy vazifalarni ham muvaffaqiyatli amalga oshirishi mumkin. Mustaqil kuzatuv kengashlari faoliyati, shaffof hisobdorlik tizimi, ekologik va ijtimoiy mas’uliyatning kuchaytirilishi kompaniyalarning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini va investorlar ishonchini sezilarli darajada oshiradi.

Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarda ESG tamoyillarini kompleks tarzda va milliy sharoitga mos holda joriy etish milliy

iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, strategik tarmoqlarni samarali boshqarish hamda xalqaro investitsion jozibadorlikni oshirish uchun zarur strategik yo‘nalish hisoblanadi. Xorijiy tajriba tahlili ham shuni tasdiqlaydiki, ESG prinsiplarini integratsiya qilish davlat korxonalari samaradorligini sezilarli darajada oshiradi va ularni global iqtisodiy tizimga muvaffaqiyatli integratsiya qilishga xizmat qiladi (1-jadval).

1-jadval.

Xorijiy tajribalar va ularning O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlari[1]

Xorijiy tajriba	O‘zbekistonda joriy etish yo‘llari	Kutilgan natija
Norvegiya – ESG standartlari asosida energetika kompaniyalari	Barqaror rivojlanish va “yashil iqtisodiyot” strategiyasini yirik davlat korxonalarida joriy qilish	Ekologik barqarorlik va iqtisodiy samaradorlik oshishi
Janubiy Koreya – natijaga yo‘naltirilgan kontrakt tizimi	Top-menejment ish haqini ESG ko‘rsatkichlari bilan bog‘lash	Ijro etuvchi organning mas’uliyati va samaradorligi oshishi
Kanada – jamoatchilikka hisobdorlik	Davlat kompaniyalari moliyaviy va ijtimoiy hisobotlarni oshkorali ravishda taqdim qilish	Korporativ shaffoflik va jamoat ishonchi kuchayishi
Yevropa va Yaponiya – uzoq muddatli strategik rejalashtirish	Davlat ulushi mavjud kompaniyalarda strategik rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish	Uzoq muddatli barqarorlik va innovatsion rivojlanish

Xorijiy tajribalar O‘zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarda ESG prinsiplarini joriy etishda muhim ahamiyatga ega. Norvegiya tajribasi barqaror rivojlanish va “yashil iqtisodiyot” strategiyasini yirik energetika korxonalarida integratsiya qilish orqali ekologik hamda iqtisodiy samaradorlikni ta’minlaydi. Janubiy Koreya tajribasida esa top-menejmentning ish haqi ESG ko‘rsatkichlari bilan bevosita bog‘langan bo‘lib, bu ijro etuvchi organlarning mas’uliyatini va samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Kanada tajribasi moliyaviy va ijtimoiy hisobotlarni oshkora e’lon qilish orqali korporativ shaffoflikni kuchaytiradi hamda jamoatchilik ishonchini mustahkamlaydi. Yevropa va Yaponiya tajribalari uzoq muddatli strategik rejalashtirishga asoslanib, innovatsion rivojlanish va barqarorlikni ta’minlaydi. O‘zbekistonda ushbu mexanizmlarni milliy iqtisodiy, huquqiy va ijtimoiy sharoitlarga moslashtirish ESG prinsiplari samarali joriy etilishiga xizmat qiladi. Bu esa davlat korxonalarining moliyaviy barqarorligi, raqobatbardoshligi va jamoatchilik ishonchini oshirib, ularning milliy iqtisodiyotdagi strategik ahamiyatini yanada mustahkamlaydi (2-jadval).

[1] Muallif ishlanmasi

2-jadval.

O‘zbekistonda ESG prinsiplarini joriy etishning ustuvor yo‘nalishlari[1]

Yo‘nalish	Joriy etish mexanizmi	Kutilgan natija
Korporativ shaffoflik	IFRS standartlariga bosqichma-bosqich o‘tish	Investorlar ishonchi va korporativ shaffoflik oshishi
Innovatsion boshqaruv usullari	KPI va raqamli monitoring tizimini joriy qilish	Samaradorlik va hisobdorlik oshishi
Aksiyadorlar huquqlarini kuchaytirish	Elektron ovoz berish va aksiyadorlar forumini yo‘lga qo‘yish	Inklyuziv boshqaruv va aksiyadorlar ishonchi ortishi
Xalqaro korporativ madaniyat	Kuzatuv kengashi a’zolari uchun xorijiy tajriba almashinuvi dasturlari	Zamonaviy bilim va tajriba joriy etilishi

O‘zbekistonda ESG prinsiplarini joriy etishning ustuvor yo‘nalishlari korporativ shaffoflik, innovatsion boshqaruv usullari, aksiyadorlar huquqlarini kuchaytirish va xalqaro korporativ madaniyatni qamrab oladi. IFRS standartlariga bosqichma-bosqich o‘tish orqali shaffoflik va investor ishonchi oshadi. KPI va raqamli monitoring tizimlari samaradorlik va hisobdorlikni kuchaytiradi. Elektron ovoz berish va aksiyadorlar forumlari inklyuziv boshqaruvni ta’minlaydi. Kuzatuv kengashi a’zolari uchun xorijiy tajriba almashinuvi dasturlari esa zamonaviy bilim va tajribani joriy etish imkonini beradi (3-jadval).

3-jadval.

ESG joriy etish orqali moliyaviy va ijtimoiy samaradorlik[2]

ESG yo‘nalishi	O‘zbekistonda tatbiq qilish choralari	Kutilgan samaradorlik
Environmental (Ekologik)	“Yashil iqtisodiyot” va resurs samaradorligi dasturlarini joriy qilish	Energiya tejamkorligi, ekologik barqarorlik
Social (Ijtimoiy)	Xodimlar va jamoatchilik uchun ijtimoiy loyihalar, axborot ochiqligi	Jamoatchilik ishonchi va ijtimoiy mas’uliyat kuchayishi
Governance (Boshqaruv)	Mustaqil direktorlar, KPI tizimi, shaffof hisobotlar	Korporativ samaradorlik, mas’uliyat va investor ishonchi oshishi

ESG prinsiplarini O‘zbekistonda tatbiq qilish moliyaviy va ijtimoiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Environmental yo‘nalishda “yashil iqtisodiyot” va resurs samaradorligi dasturlari energiya tejamkorligi va ekologik barqarorlikni ta’minlaydi. Social yo‘nalishda xodimlar va jamoatchilik uchun ijtimoiy loyihalar hamda axborot ochiqligi jamoatchilik ishonchi va ijtimoiy mas’uliyatni

[1] Muallif ishlanmasi
[2]

kuchaytiradi. Governance yo‘nalishda mustaqil direktorlar, KPI tizimi va shaffof hisobotlar korporativ samaradorlik, rahbariyatning mas’uliyati va investor ishonchini oshirishga xizmat qiladi.

Jadvallar tahlili ko‘rsatdiki, ESG prinsiplarini davlat ishtirokidagi korxonalarda joriy etish orqali:

1. Moliyaviy barqarorlik va raqobatbardoshlik oshiriladi;
2. Korporativ hisobdorlik va shaffoflik ta’minlanadi;
3. Ekologik va ijtimoiy mas’uliyat kuchayadi;
4. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va xalqaro standartlarga moslash imkoni yaratiladi.

O‘zbekistonda ESG tamoyillarini tatbiq qilishda xorijiy tajribalardan o‘z vaqtida va maqsadga muvofiq foydalanish korxonalar samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

Davlat ishtirokidagi korxona misolida ESG indeksi hisoblashni bosqichma-bosqich tarzda ko‘rib chiqamiz.

Korxona nomi: “Trikotaj Teks” AJ

Davlat ulushi: 51%

Umumiy byudjet (B): 1,000,000,000 so‘m

ESG tarmoqlari va og‘irliklari:

ESG tarmog‘i	Og‘irlik (w)
E (ekologik)	0.4
S (ijtimoiy)	0.3
G (boshqaruv)	0.3

Xarajatlar (investitsiya, so‘m):

ESG tarmog‘i	Xarajat (x)
E (ekologik)	400,000,000
S (ijtimoiy)	300,000,000
G (boshqaruv)	300,000,000

Samaradorlik koeffitsiyentlari (k):

ESG tarmog‘i	k
E (ekologik)	0.005
S (ijtimoiy)	0.004
G (boshqaruv)	0.003

Har bir ESG tarmog‘i samaradorligi xarajatlarga bog‘liq ravishda eksponensial funksiya orqali hisoblanadi: Formula:

$$\boldsymbol{Indeks = 1 - e^{-k*x}}$$

x – tarmoqqa sarflanadigan mablag‘

k – xarajatning samaradorlikka ta’sir koeffitsiyenti

Funksiya xususiyati: boshlang‘ich sarflanishda samara tez ortib, keyin yuqori samaradorlikka yetishi bilan sekinlashadi.

Bu formula investitsiya oshishi bilan ESG samaradorligi ortishini, ammo 1 (100%) ga yaqinlashishini ko‘rsatadi.

ESG tarmoqlari bo‘yicha hisoblash.

1. Ekologik samaradorlik (E)

$$\boldsymbol{E = 1 - e^{-0.005*400,000,000} = 1 - e^{-2,000,000}}$$

$$e^{-2,000,000} \approx 0 \Longrightarrow E \approx 1$$

2. Ijtimoiy samaradorlik (S)

$$\boldsymbol{S = 1 - e^{-0.004*300,000,000} = 1 - e^{-1,200,000}}$$

$$e^{-1,200,000} \approx 0 \Longrightarrow S = 1$$

3. Boshqaruv samaradorligi (G)

$$\boldsymbol{G = 1 - e^{-0.003*300,000,000} = 1 - e^{-900,000}}$$

ESG umumiy indeksi.

$$Z = W_E * E + W_S * S + W_G * G$$

$$Z = 0.4 * 1 + 0.3 * 1 + 0.3 * 1 = 1$$

W_E, W_S, W_G – har bir ESG tarmog‘i ahamiyati

Z – umumiy ESG samaradorligi, 0–1 oralig‘ida

Bu davlat va investorlar uchun korxona ESG strategiyasining umumiy samaradorligini ko‘rsatadi. Demak, umumiy ESG indeksi 1 (100%) ni tashkil etadi.

Davlat ulushi bo‘yicha ESG hissasi.

$$Davlat\ ESG = Davlat\ ulushi * Z = 0.51.1 = 0.51$$

Ya’ni davlatning ESG samaradorligi hissasi **51%** ni tashkil qiladi.

Hisob natijalari misol asosida:

ESG tarmog‘i	Samaradorlik (indeks)
E (ekologik)	1.0
S (ijtimoiy)	1.0
G (boshqaruv)	1.0
Umumiy ESG Z	1.0
Davlat ulushi hissasi	0.51

Demak, mazkur byudjet taqsimoti va samaradorlik koeffitsiyentlari sharoitida korxona umumiy ESG indeksi 100%, davlat ulushi hissasi esa 51% ni tashkil etadi.

Modelning samaradorligi bir qator jihatlarda namoyon bo‘ladi. Avvalo, u qay tarmoq past samaradorlikka ega ekanligini aniqlaydi va shunga muvofiq e’tibor qaratish imkonini beradi. Shuningdek, model orqali optimal byudjet taqsimlash imkoniyati yaratiladi: qay tarmoqqa qo‘shimcha investitsiya kiritilishi ESG samaradorligini oshirishini ko‘rsatadi. Umumiy ESG samaradorligini prognoz qilish imkoni ham mavjud bo‘lib, turli ssenariylar asosida korxonaning ESG natijasi baholanishi mumkin. Bundan tashqari, davlat ulushi hisobga olinganda, model davlat ishtirokidagi korxonalarda ESG tajribasini aniq ko‘rsatish va baholash vositasi sifatida qo‘llaniladi.

Misolda umumiy byudjet 1 milliard so‘m tarkibida taqsimlanib, ekologik tarmoq (E) ga 400 million so‘m, ijtimoiy tarmoq (S) ga 300 million so‘m va boshqaruv tarmog‘i (G) ga 300 million so‘m ajratildi. Har bir tarmoqning samaradorligi eksponensial funksiya asosida hisoblandi va natijada ekologik samaradorlik $E \approx 1$, ijtimoiy samaradorlik $S \approx 1$, boshqaruv samaradorligi $G \approx 1$ ko‘rsatkichlariga erishildi. Umumiy ESG indeksi $Z = 1$ (100%) ni tashkil qildi. Davlatning 51% ulushi hisobga olingan holda, davlatning ESG hissasi 0,51 (51%) ni tashkil etdi.

Shu tarzda, davlat ishtirokidagi korxonalarda ESG prinsiplari byudjet va samaradorlik koeffitsiyentlari asosida hisoblanishi mumkin va bu model strategik qarorlar qabul qilishda samarali vosita sifatida qo‘llanishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Davlat ishtirokidagi korxonalarda ESG prinsiplarini joriy etish korxonaning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi. Matematik model orqali ESG indeksi hisoblanishi korxonaning qay tarmog‘i past samaradorlikka ega ekanligini aniqlash va byudjet taqsimotini optimallashtirish imkonini beradi. Shuningdek, model turli ssenariylar asosida ESG samaradorligini prognoz qilish, byudjetni samarali taqsimlash va davlat ulushi hissasini hisoblash imkonini ta’minlaydi. Amaliy hisoblar va misollar shuni ko‘rsatdiki, davlat ishtirokidagi korxonalarda ESG samaradorligini baholash va monitoring qilish orqali strategik qarorlar qabul qilish samaradorligi oshirilishi mumkin.

Takliflar:

1. Davlat ishtirokidagi korxonalarda ESG prinsiplarini joriy etishda turli tarmoqlarga byudjet taqsimotini optimallashtirish tavsiya etiladi.
2. ESG samaradorligini davriy monitoring qilish va matematik model orqali prognoz qilish tizimi joriy etilishi lozim.
3. Davlat investitsiyalari asosan past samaradorlikka ega tarmoqlarga qaratilsa, umumiy ESG samaradorligi oshishi mumkin.
4. ESG prinsiplari raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirilgan monitoring orqali qo‘llanilishi maqsadga muvofiq.
5. Davlat va investorlar uchun ESG indeksi strategik qarorlar qabul qilishda asosiy ko‘rsatkich sifatida qo‘llanilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Hariansah S. et al. Implementation of ESG (Environmental, Social, and Governance) Principles in Mining Business in Bangka Belitung: normative review of corporate compliance //Proceedings of Annual Conference on Scientific Writing. – 2025. – Т. 2.

2. Измайлов М. К. Интеграция принципов ESG в корпоративную стратегию российских нефтегазовых компаний //Вестник Удмуртского университета. Серия «Экономика и право». – 2024. – Т. 34. – №. 1. – С. 22-27.

3. Агафонов В. Б. Правовое обеспечение экологической безопасности и рационального природопользования на основе ESG-принципов //Вестник Университета имени ОЕ Кутафина. – 2022. – №. 5 (93). – С. 46-58.

4. Ткач, А. М. (2025). Особенности применения ESG в нефтегазовом секторе. Вестник Курской государственной сельскохозяйственной академии, (3), 292-296.

5. Лисовский, А. Л. (2021). Переход к устойчивому развитию: эмпирический анализ факторов, мотивирующих промышленные компании к внедрению ESG-практик. Стратегические решения и риск-менеджмент, 12(3), 262-272.

6. Капранова Л. Д., Полищук О. А. ESG-трансформация как парадигма устойчивого развития экономики России //Вестник евразийской науки. – 2023. – Т. 15. – №. 3.

7. Гузырь В. В. Инновационная ESG-трансформация фирм как глобальный тренд устойчивого развития //Экономика и управление инновациями. – 2022. – №. 1. – С. 33-43.

8. Шишова Ж. А. Возрастание роли социального фактора в рамках применения концепции ESG в кризисных условиях //Государственная служба. – 2022. – Т. 24. – №. 4 (138). – С. 47-52.

QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA ISHLAB CHIQARISHNI SIFAT MENEJMENTI TAMOYILLARI ASOSIDA TASHKIL ETISHDAGI MAVJUD MUAMMOLAR

Achilov Ilmurad
Shahrisabz davlat pedagogika instituti,
Ijtimoiy fanlar fakulteti dekani PhD
ORCID: 0009-0005-8588-2552
E-mail: ilmurodachilov1987@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarishni sifat menejmenti tamoyillari asosida tashkil etish masalalari tahlil qilingan. Sohada so‘nggi yillarda kuzatilayotgan ishlab chiqarish hajmi o‘sishiga qaramay, mahsulot sifati, standartlarga muvofiqlik, xalqaro raqobatbardoshlik va eksport salohiyatini ta’minlash borasida bir qator tizimli muammolar mavjudligi aniqlangan. Xususan, sement, keramik plitka, qurilish shishasi va boshqa materiallar ishlab chiqarish hajmi, ularning sifat ko‘rsatkichlari va ishlab chiqarish jarayonlariga ta’sir etuvchi omillar chuqur o‘rganildi. Ish natijasida, sifat menejmentini amaliy faoliyatga joriy etishdagi to‘siqlar — eski texnologiyalar, kadrlar malakasining pastligi, standartlashtirish va sertifikatlashning samarasizligi — kabi asosiy muammolar tizimlashtirildi.

Kalit so‘zlar: qurilish materiallari, sifat menejmenti, ISO 9001, ishlab chiqarish jarayoni, texnologik modernizatsiya, ichki audit, standartlashtirish, eksport, raqobatbardoshlik, kadrlar salohiyati, sertifikatlash, innovatsiya, sement sanoati, strategik yechimlar.

Аннотация

В данной статье анализируются вопросы организации производства строительных материалов на основе принципов менеджмента качества. Несмотря на рост объемов производства, который наблюдается в отрасли в последние годы, выявлен ряд системных проблем, связанных с качеством продукции, соответствием стандартам, международной конкурентоспособностью и обеспечением экспортного потенциала. В частности, глубоко изучены объемы производства цемента, керамической плитки, строительного стекла и других материалов, их качественные показатели и факторы, влияющие на производственные процессы. В результате работы были систематизированы такие основные проблемы, как препятствия на пути внедрения менеджмента качества в практическую деятельность — устаревшие технологии, низкая квалификация персонала, неэффективность стандартизации и сертификации.

Ключевые слова: строительные материалы, менеджмент качества, ISO 9001, производственный процесс, технологическая модернизация, внутренний аудит, стандартизация, экспорт, конкурентоспособность, кадровый потенциал, сертификация, инновации, цементная промышленность, стратегические решения.

Abstract

This article analyzes the issues of organizing production in the building materials industry on the principles of quality management. Despite the growth in production volumes observed in recent years in the industry, there have been a number of systemic problems regarding product quality, compliance with standards, international competitiveness and ensuring export potential. In particular, the volume of production of cement, ceramic tile, construction glass and other materials, their quality indicators and factors affecting production processes were studied in depth. As a result of the work, the main problems such as obstacles to the introduction of quality management into practical activities — old technologies, low personnel qualifications, inefficiency of standardization and certification — were systematized.

Keywords: building materials, quality management, ISO 9001, production process, technological modernization, internal audit, standardization, export, competitiveness, personnel potential, certification, innovation, cement industry, strategic solutions.

KIRISH

Qurilish materiallari sanoati har qanday mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishida ustuvor ahamiyatga ega bo‘lgan tarmoqlardan biri hisoblanadi. Bu sohadagi mahsulotlar - sement, g‘isht, beton, gips, shifer, metall va plastik konstruksiyalar, qurilish-qo‘shimcha vositalar - infratuzilma va turarjoy qurilishi, sanoat korxonalari, ta’lim va sog‘liqni saqlash obyektlari kabi strategik ahamiyatga ega loyihalarning amalga oshirilishida asosiy resurs sifatida xizmat qiladi. Demak, bu sohadagi ishlab chiqarish jarayonlari nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy barqarorlik va xavfsizlik bilan ham chambarchas bog‘liq.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda qurilish sohasidagi faol investitsiya siyosati, davlat dasturlari orqali yirik infratuzilmaviy loyihalarning amalga oshirilishi qurilish materiallariga bo‘lgan ichki talabni jadal oshirdi. Shu bilan birga, milliy ishlab chiqaruvchilardan nafaqat yuqori hajmda, balki sifatli va xalqaro standartlarga javob beradigan mahsulotlar ishlab chiqarish talab etilmoqda. Bu esa sanoatda sifatni boshqarish va nazorat qilish tizimlarini qayta ko‘rib chiqish, ilg‘or menejment yondashuvlarini joriy etish zaruratini tug‘dirmoqda.

Sifat menejmenti - bu faqatgina mahsulotni sertifikatlash yoki standartlashtirish emas, balki butun ishlab chiqarish jarayonini tizimli tashkil etish, mijoz talablarini chuqur o‘rganish, resurslardan oqilona foydalanish, innovatsion yechimlarni tatbiq etish va sifatni uzluksiz yaxshilashni nazarda tutadigan murakkab boshqaruv faoliyatidir. Jahon amaliyotida o‘z samarasini isbotlagan ISO 9001:2015 kabi xalqaro standartlar mana shu maqsadlarga erishishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Biroq, amaldagi holat shuni ko‘rsatmoqdaki, mamlakatimizdagi qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarning katta qismida sifat menejmenti tizimi joriy etilmagan yoki rasmiy tusda, formal holda mavjud.

Bundan tashqari, ushbu sohada sifatni samarali boshqarishga to‘sqinlik qilayotgan yana qator muammolar mavjud: ishlab chiqarish jarayonlarining yetarlicha avtomatlashtirilmagani; texnologik intizomning sustligi; mahsulotni texnik talablarga

muvofiq testlash va baholash mexanizmlarining samarasizligi; sohadagi mutaxassislarning kasbiy malakasi yetarli emasligi; innovatsion yondashuvlarga, sifat auditi va monitoring tizimlariga nisbatan tanqidiy munosabat.

Bu muammolar nafaqat mahsulot sifatining pastligiga, balki raqobatbardoshlikning susayishi, iste'molchilar ishonchining kamayishi va ichki bozorda import hajmining oshishiga ham olib kelmoqda. Bunday sharoitda korxonalar faoliyatini tubdan qayta ko'rib chiqish, zamonaviy menejment vositalarini, ayniqsa, sifatni boshqarish va nazorat qilishning ilg'or tamoyillarini joriy etish dolzarb masala sifatida kun tartibiga chiqmoqda.

Mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi, urbanizatsiya jarayoni va ijtimoiy barqarorligi qurilish sohasining samaradorligi va ustuvorligi bilan chambarchas bog'liq. Qurilish materiallari sanoati esa ana shu jarayonlarni amalga oshirishda asosiy rol o'ynaydigan strategik tarmoq hisoblanadi. Bugungi kunda bu sanoat nafaqat real sektorda, balki umumiy milliy mahsulotning o'sish sur'atlariga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois, ushbu sohada sifatli ishlab chiqarishni ta'minlash va menejment jarayonlarini isloh qilish masalasi juda ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekistonda qurilish va infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari, xususan, «Yangi O'zbekiston» strategiyasi, shaharsozlik konsepsiyalari, ijtimoiy uy-joy qurilishi dasturlari va yirik sanoat loyihalari, qurilish materiallariga bo'lgan talabni keskin oshirmoqda. Ayni paytda ushbu talabga sifat jihatdan javob bera olish, ichki bozorda import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish, eksportbop resurslar yaratish bugungi kunning ustuvor vazifalariga aylangan. Bundan kelib chiqib, ishlab chiqarish jarayonlarini sifat menejmenti asosida qayta tashkil etish nafaqat korxona darajasida, balki makroiqtisodiy miqyosda ham muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi global bozor sharoitida korxonalar oldida faqat ko'p ishlab chiqarish emas, balki raqobatbardosh, barqaror va mijoz talablariga javob beradigan mahsulot ishlab chiqarish masalasi kun tartibiga chiqmoqda. Bu esa faqat sifat nazoratini emas, balki to'liq boshqaruvni o'z ichiga olgan zamonaviy sifat menejmenti tizimlarini joriy etishni talab qiladi. ISO 9001:2015, Lean Manufacturing, TQM (Total Quality Management), 5S, Kaizen kabi xalqaro yondashuvlar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xatolarni kamaytirish, ishchi kuchining salohiyatidan oqilona foydalanish va doimiy takomillashuvni ta'minlashda keng qo'llanilayotgan tizimlardir. Afsuski, O'zbekistondagi qurilish materiallari sanoatida bu tamoyillarning amaldagi joriy etilishi hali ham cheklangan va ko'p hollarda formal tusdagi yondashuvlar bilan cheklanmoqda.

Sohada kuzatilayotgan qator tizimli muammolar mavzuning ilmiy va amaliy ahamiyatini yanada oshiradi. Jumladan: sifatni boshqarishning aniq strategik yo'nalishlari mavjud emas; kadrlar malakasi va sifat menejmenti sohasidagi bilimlar yetarli emas; ishlab chiqarishda texnologik intizom va standartlashtirish darajasi past; zamonaviy uskunalar va avtomatlashtirilgan tizimlar yetarlicha joriy etilmagan; ichki nazorat, audit va baholash mexanizmlari samarasiz ishlamoqda.

Bundan tashqari, tashqi bozordagi raqobat muhiti ham ushbu sohadagi korxonalardan sifat menejmentini strategik yo‘nalish sifatida qabul qilishni talab qilmoqda. Xususan, YeOII, MDH, Osiyo va Yevropa mamlakatlariga eksport qilish niyatidagi mahalliy ishlab chiqaruvchilar xalqaro talablarga javob beradigan sertifikatlarga, sifat tizimlariga va ishonchli nazorat jarayonlariga ega bo‘lishi shart. Bu nafaqat eksport salohiyatini oshiradi, balki investorlar uchun ham tarmoqni jozibador qiladi.

Shu bois, qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarishni sifat menejmenti tamoyillari asosida tashkil etish masalasi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy, me’yoriy-texnik va strategik jihatdan ham dolzarb hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Qurilish materiallari sanoatida sifat menejmenti tizimlarini joriy etish va rivojlantirish masalalari xalqaro va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan keng o‘rganilgan bo‘lib, ularning ilmiy qarashlari ushbu sohada muammolarni anglash va yechim topishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Biroq, mazkur sohaga doir tadqiqotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, mavjud ilmiy ishlar ko‘pincha umumiy nazariy yondashuvlar bilan cheklangan, qurilish materiallari sanoatiga doir maxsus tahlillar yetarlicha emas.

Sifat boshqaruvi nazariyasining asoschilaridan biri bo‘lgan Edvard Deming o‘zining mashhur «14 tamoyil»i orqali sifatni boshqarishdagi tizimli yondashuvni taklif qilgan. U ishlab chiqarish jarayonida xatolarni kamaytirishning asosiy omili bu - rahbariyatning strategik fikrlashga va ishchilarni doimiy rivojlantirishga qaratilgan siyosatidir, deb hisoblaydi.[1] Demingning fikriga ko‘ra, sifat - bu faqat texnik masala emas, balki menejment falsafasidir.

Jozef Juran esa sifatni rejalashtirish, nazorat va takomillashtirishni qamrab olgan «Juran Trilogy» modelini ilgari surgan. Uning tadqiqotlarida sifat muammolari aksar hollarda ishlab chiqarish jarayonidagi tizimsizliklar va kadrlar malakasining pastligi bilan bog‘liq ekani ta’kidlangan.[2] U qurilish mahsulotlari kabi ko‘p bosqichli va yuqori xavfli tarmoqlarda «har bir jarayonda sifat» tamoyilini joriy etishni tavsiya qiladi.

Filip Krosbining «Sifat - bu bepul» (Quality is Free) konsepsiyasida esa sifatni boshqarishga sarflangan har qanday xarajat, kelgusida kamchiliklar tufayli keladigan yo‘qotishlardan ancha arzon ekanligi ta’kidlanadi.[3] U, ayniqsa, qurilish sohasida «nol nuqson» konsepsiyasini tatbiq etish zarurligini alohida ko‘rsatib o‘tgan.

Ishikava Kaoru esa sifat davralari va sabab-oqibat diagrammalari orqali tashkilot ichida sifat madaniyatini yaratishga alohida e’tibor qaratgan. Uning fikriga ko‘ra, sifatni yaxshilash faqat rahbariyat emas, balki barcha ishchilarning ishtirokini talab etadi. Bu qarash qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda jamoaviy yondashuvni rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.[4]

O‘zbekistonda ham sifat menejmenti sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, ular orasida J. Jurazovning «Sifatni boshqarish asoslari» asari muhim ahamiyatga ega. U o‘z ishida mahalliy korxonalarda sifat menejmenti tizimlarining

joriy etilishidagi asosiy to‘siqlarni: bilimsizlik, noto‘g‘ri yondashuv, sifatni «qo‘shimcha funksiya» sifatida qabul qilish kabi muammolarni ta’kidlaydi.[5]

U. Xaydarov esa sifat boshqaruvini zamonaviy menejment tizimlari bilan integratsiya qilish masalasiga alohida e’tibor qaratgan. U qurilish sohasida ISO standartlarini joriy qilishda mehnat unumdorligi va mahsulot sifatini oshirish o‘rtasidagi bog‘liqlikni iqtisodiy misollar asosida tahlil qilgan.[6]

S. Komilov esa o‘z tadqiqotlarida qurilish materiallari ishlab chiqarishda texnologik intizom va standartlashtirish darajasi yetarli emasligini tanqid qilgan. Uning fikriga ko‘ra, sifat faqat texnik mezonlar bilan emas, balki ichki nazorat tizimlari va motivatsion mexanizmlar bilan ta’minlanishi kerak.[7]

Taguchi Genichi tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda, sifatni faqat ishlab chiqarish jarayonida emas, balki loyihalash va mahsulotni rejalashtirish bosqichida nazorat qilish zarurligini ta’kidlaydi. Uning statistik metodlarga asoslangan «Taguchi Method» uslubi orqali mahsulot dizaynidagi o‘zgaruvchanlikni kamaytirish mumkin.[8] Qurilish materiallari ishlab chiqarishda bu uslub xom ashyo tanlash, harorat, bosim, vaqt va boshqa omillarni optimallashtirishda samarali hisoblanadi. Afsuski, bu yondashuv mahalliy korxonalarda yetarlicha qo‘llanilmayapti.

Djoel Ross va Maykl Kameron tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda, TQM (Total Quality Management) tizimida yetakchilik, mijozlarga yo‘naltirilganlik, doimiy takomillashuv va qaror qabul qilishda ma’lumotlarga asoslanish kabi tamoyillarni belgilab berishgan. Ular korxonalarda sifatni tashkil etishda tashkiliy madaniyat va xodimlar motivatsiyasini muhim omil sifatida ko‘rishadi.[9] Ushbu yondashuv mahalliy tadbirkorlik muhitida ham ahamiyatli, lekin ishchi kuchi malakasining yetishmasligi, xodimlar rotatsiyasi yuqoriligi tufayli talab darajasida amalga oshirilmayapti.

Yu. Tursunovning tadqiqotlarida sifat boshqaruvi va iqtisodiy samaradorlik o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilinadi. U sifatni yaxshilash orqali mahsulot tannarxini pasaytirish va bozorda raqobatbardoshlikni oshirish mumkinligini asoslab beradi. Ammo, u ta’kidlagan muammolardan biri - bu mahalliy korxonalarda sifatni strategik maqsad sifatida emas, balki texnik masala sifatida qabul qilinishi.[10]

T. Abdurasulovning mahalliy sanoatda sifat tizimlari joriy etilishi jarayonida uchraydigan huquqiy va tashkiliy to‘siqlar, xususan, davlat nazorati mexanizmlarining samarasizligi va sertifikatlash jarayonidagi korrupsion holatlarni tahlil qilgan.[11] Unga ko‘ra, sifat boshqaruvi tizimi faqat ichki ehtiyoj emas, balki jamiyat oldidagi javobgarlik sifatida qaralishi kerak.

Ilmiy tadqiqotlarning tahlil qilish natijasida, sifatni kompleks yondashuv asosida tashkil etish, mijoz markazlilik, doimiy takomillashuv va xodimlar ishtirokini ta’minlash kabi tamoyillar alohida o‘rin olgan. Mahalliy tadqiqotlarda esa ko‘proq normativ jihatlar va tashkilotchilik kamchiliklari yoritilgan bo‘lib, amaliyotga moslashtirilgan, qurilish materiallari tarmog‘iga xos bo‘lgan keys-tahlillar yetarli emas.

Shu sababli, mavzu doirasida aniq sohalar kesimida (sement, beton, g‘isht va h.k.) sifat tizimlari qanday ishlayotganini tahlil qilish, mavjud nazariy modellarni mahalliy

amaliyotga adaptatsiya qilish va sohaga ixtisoslashgan menejment instrumentlarini ilmiy asosda ishlab chiqish zarur.

METODOLOGIYA

Qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarishni sifat menejmenti tamoyillari asosida tashkil etishdagi mavjud muammolarni tizimli tahlil, tarixiylik va mantiqiylik, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, qiyosiy va selektiv tanlab tadqiq qilish, monografik tahlil va guruhlash usullari qo‘llanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Har qanday sohada raqobatbardoshlikni ta’minlash va bozorda mustahkam o‘rin egallash uchun ishlab chiqarish jarayonlarini samarali tashkil etish talab etiladi. Qurilish materiallari sanoatida esa bu talab yanada kuchliroq namoyon bo‘ladi, chunki mahsulot sifati nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki qurilayotgan inshootlarning xavfsizligi va mustahkamligi bilan ham bevosita bog‘liq. Shu nuqtai nazardan, ishlab chiqarishni sifat menejmenti tamoyillari asosida tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Qurilish materiallari sanoati - iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatda olib borilayotgan keng ko‘lamli qurilish va obodonlashtirish ishlari fonda sanoatni sifatli mahsulotlar bilan ta’minlash ustuvor vazifalardan biriga aylandi. Ammo amaliyotda ushbu sohada sifatni boshqarish tizimi yetarlicha samarali ishlamayotgani, xalqaro standartlar talablariga to‘liq javob bermaydigan holatlar mavjudligi aniqlanmoqda.

1-jadval.

Qurilish materiallari sanoatidagi asosiy muammolar va yechimlar[1]

№	Muammolar	Muammolar tavsifi	Muammolarning yechimi bo‘yicha takliflari
1	Sifat nazoratining formalligi	Sifat nazorati ko‘p korxonalarda qog‘ozda mavjud, amalda esa samarasiz	ISO 9001:2015 sifat tizimini to‘liq joriy etish; ichki audit tizimini yaratish
2	Eski texnologiyalar va jihozlar	Ko‘plab korxonalarda ishlab chiqarish uskunalari zamonaviy emas	Jihozlarni modernizatsiya qilish; energiya tejovchi va avtomatlashgan uskunalarni joriy etish
3	Malaka oshirish tizimining yo‘qligi	Sifat bo‘yicha mutaxassislar yetishmasligi, xodimlar malakasi past	Sohaviy kasb-hunar kollejlari va SME markazlari orqali qayta tayyorlash kurslari tashkil etish
4	Standartlardan chetlashish	Ishlab chiqarilgan mahsulotlar ko‘p hollarda GOST va xalqaro standartlarga to‘liq mos kelmaydi	Milliy standartlarni xalqaro standartlar (ISO, EN) bilan uyg‘unlashtirish, mahsulotlarni sertifikatlash
5	Xom ashyo sifatining pastligi	Sement, gips, keramika xom ashyolari sifati past bo‘lgan holatlar uchraydi	Sifatli xom ashyo yetkazib beruvchilar bilan shartnoma; laboratoriya tekshiruvlarini kuchaytirish
6	Ichki audit va monitoringning yo‘qligi	Korxonalarda sifatni doimiy baholaydigan tizim mavjud emas	Sifat KPI (asosiy ko‘rsatkichlar) joriy etish; har oylik/yarim yillik ichki tekshiruvlar

[1] Muallif ishlanmasi

№	Muammolar	Muammolar tavsifi	Muammolarning yechimi bo‘yicha takliflari
7	Eksport salohiyati past	Sifat talablariga javob bermaslik va marketing yetishmasligi sababli eksport kam	Xalqaro bozor talablarini o‘rganish, eksportga mos mahsulotlar ishlab chiqarish va sertifikatlash
8	Innovatsiya va R&D ishlarining yo‘qligi	Ilmiy tadqiqotlar va yangi mahsulot ishlab chiqarish yetarli emas	Oliy o‘quv yurtlari va tadqiqot institutlari bilan hamkorlikda loyihalar amalga oshirish

Jadvalda keltirilgan ma’lumotlarni tahlil qiladigan bo‘lsak:

1. Sifat nazorati va standartlashtirish muammosi: Ko‘pgina korxonalarda sifat nazorati faqat qog‘ozda mavjud, amalda esa nazorat mexanizmlari ishlamaydi. ISO 9001:2015 standartini joriy etish ko‘p hollarda formal amalga oshiriladi, xodimlar esa uning mazmuni va foydasini bilmaydilar. Samarali yechim — ichki audit tizimini yo‘lga qo‘yish, xodimlarni doimiy o‘qitish va tashkilot ichida sifat madaniyatini shakllantirish.

2. Jihozlar va texnologiyalar eskiligi: Sanoatdagi uskunalarning aksariyati 10-15 yil oldin o‘rnatilgan bo‘lib, ular kam samarador, energiya tejovchi emas va avtomatlashtirilmagan. Bunday sharoitda yuqori sifatli mahsulot olish qiyin. Yechim — kreditlar yoki investorlar orqali yangi texnologik liniyalarni joriy qilish.

3. Kadrlar muammosi. Sifat boshqaruvi sohasida malaka oshirish, bilimni amaliyotda qo‘llash imkoni yetarli emas. Bu esa standartlarga rioya qilmaslikka olib keladi.

4. Xalqaro bozorga chiqish to‘siqlari. O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan qurilish materiallarining eksport salohiyati yuqori bo‘lishi mumkin, lekin mahsulotlarning xalqaro sertifikatga ega emasligi, upakovka va dizaynning talab darajasida emasligi, marketing faolligining pastligi bu imkoniyatni cheklaydi. Bu muammoni hal etish uchun eksportga ixtisoslashgan konsalting kompaniyalar bilan hamkorlik qilish mumkin.

5. Innovatsiya yetishmasligi. Qurilish materiallari sanoatida innovatsion mahsulotlar (energiya tejovchi plitka, ekologik gips va b.) soni juda kam. R&D salohiyatini rivojlantirish, ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorlik qilish orqali sifat va turfa mahsulot ishlab chiqarish imkoniyati yaratiladi.

2 jadval.

Qurilish materiallari sanoatidagi muammolar va ularning strategik ta’sirlar[1]

Muammolar	Qisqa muddatli ta’siri	Uzoq muddatli xavflar
Sifat nazorati zaifligi	Kam mahsulot ishonchliligi	Brendga zarar, bozordan chiqib ketish
Eski texnologiya	Katta tannarx, kam sifat	Raqobatbardoshlikning pasayishi
Kadrlar yetishmasligi	Quvvatlarni to‘liq ishlatmaslik	Ishlab chiqarish jarayonida xato va yo‘qotishlar
Eksportga moslashmaslik	Valyuta tushumining pasayishi	Xalqaro bozorda mavqe yo‘qotilishi

[1] Muallif ishlanmasi

Jadvaldagi ma’lumotlarni tahlil qiladigan bo‘lsak:

1. Sifat nazoratining zaifligi. Qisqa muddatli ta’sir doirasiga ko‘ra, korxonada sifatni tekshirish va boshqarish mexanizmlari yetarli darajada bo‘lmaganda, mahsulotlarda kamchiliklar ko‘p uchraydi, mijozlarning noroziligi ortib boradi. Bunday holda mahsulotlar bozorda arzon narxda sotilishi mumkin, lekin bu vaqtinchalik «yutuq» hisoblanadi. Uzoq muddatli xavf darajasi bo‘yicha — uzoq muddatda, bu muammo korxonaning imijiga va ishonch darajasiga putur yetkazadi. Masalan, mahsulot sifati haqidagi salbiy fikrlar sotuvni keskin kamaytiradi, brend qadrsizlanadi. Buning oqibatida korxona raqobatga dosh berolmasdan bozordan chiqib ketishi ham mumkin.

2. Eski texnologiyalar. Qisqa muddatli ta’sir doirasi — eski va samarasiz uskunalarda ishlab chiqarish katta energiya sarfini talab etadi, natijada mahsulot tannarxi ortib ketadi. Shu bilan birga, texnologik aniqlik va sifat ko‘rsatkichlari past bo‘ladi. Uzoq muddatli xavf darajasi — zamonaviy raqobatda energiya tejamkor, avtomatlashtirilgan, yuqori aniqlikka ega texnologiyalar asosiy ustunlik hisoblanadi. Eski texnologiyada ishlayotgan korxona tez orada raqobatbardoshligini yo‘qotadi va ichki bozorda ham o‘z o‘rnini saqlab qololmaydi.

3. Kadrlar malakasining yetishmasligi. Qisqa muddatli ta’sir darajasi -malakasi past bo‘lgan xodimlar sifat nazoratiga e’tiborsizlik qiladi, ish jarayonida xatoliklar ko‘payadi. Ishlab chiqarish jarayonida quvvatlardan to‘liq foydalanilmaydi, ya’ni mahsuldorlik past bo‘ladi. Uzoq muddatli xavf darajasi — ta’lim va kadrlar rivojlantirilmasa, korxonada innovatsiya, sifat boshqaruvi va ishlab chiqarish madaniyati shakllanmaydi. Bu esa faqat raqobatbardoshlikni emas, balki kompaniyaning doimiy rivojlanish imkoniyatini ham cheklaydi.

4. Eksportga moslashmaslik. Qisqa muddatli ta’sir darajasi — eksport uchun mo‘ljallangan mahsulotda xalqaro standartlarga moslik bo‘lmagani, sertifikatlashning yetishmasligi va logistika tizimlarining samarasizligi sababli valyuta tushumi kamayadi, tashqi bozorlarga kirish imkoniyati yo‘qoladi. Uzoq muddatli xavf darajasi — uzoq muddatda, korxona faqat ichki bozorga bog‘lanib qoladi. Bu holat iqtisodiy xavflarni kuchaytiradi: ichki talab pasaysa, korxona faoliyatiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, xalqaro bozordagi mavqe va eksport ulushi mutlaqo yo‘qolishi mumkin.

Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, qurilish materiallari sanoatidagi muammolarni faqat qisqa muddatli iqtisodiy manfaatlar nuqtai nazaridan emas, strategik va uzoq muddatli tahdidlar kontekstida baholash kerak. Har bir muammo - bugun hal etilmasa, ertaga sanoat rivojiga to‘siq bo‘ladi. Tadqiqot jarayonida quyidagi muhim yechimlar ishlab chiqildi: sifat madaniyatini shakllantirish; modernizatsiya jarayonlarini rag‘batlantirish; kadrlar tayyorlashga davlat va xususiy sektor investitsiyasini kengaytirish; xalqaro bozorga chiqish uchun texnik va marketing salohiyatni oshirish zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qurilish materiallari sanoati - har qanday mamlakat infratuzilmasini barpo qilishda, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda va investitsiya muhitini

takomillashtirishda strategik ahamiyatga ega soha hisoblanadi. O‘zbekistonda ushbu sanoat turi so‘nggi yillarda jadal rivojlanmoqda: ishlab chiqarish hajmlari ortib boryapti, yangi loyihalar amalga oshirilyapti, ichki va tashqi talab o‘smoqda. Biroq, soha rivoji sur’atlari sifat bilan to‘liq mos emas. Aynan shu jihat bugungi kunda sifat menejmentini sohaga tizimli tatbiq etish zaruriyatini yanada kuchaytirmoqda.

Tadqiqot davomida 2018-2024 yillarga oid sement va boshqa qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmlari tahlil qilindi. Ushbu raqamlar ishlab chiqarish quvvati o‘sishiga qaramay, sifati va raqobatbardoshligi yuqori mahsulotlar ulushi cheklanganligini ko‘rsatdi. Jumladan, sement ishlab chiqarish 2024 yilda 16 million tonnaga yetdi, lekin bu o‘sish barobarida mahsulotlarning xalqaro talablarga javob berishi, eksportga moslashishi va ichki bozorda ishonchli brend sifatida shakllanishi muammoligicha qolmoqda.

Olib borilgan tadqiqot ishida, qurilish materiallari sanoatidagi asosiy muammolar quyidagilardan iborat:

-sifat boshqaruvi tizimlarining formal tashkil etilgani, samarali faoliyat yuritmasligi;

-texnologik jihozlar va uskunalarning yetarlicha yangilanmagani, bu esa sifatni barqaror ta’minlashda katta to‘siq yaratadi;

-xodimlar malakasining yetishmasligi, sifatga yo‘naltirilgan ishchi kuchi salohiyatining past darajada bo‘lishi;

-xalqaro sertifikatlash va standartlarga mos kelmaslik, bu esa eksport va tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni cheklaydi;

-ichki audit va sifat monitoringi tizimlarining amalda mavjud emasligi, nazorat va tahlil mexanizmlarining yo‘qligi;

-innovatsion faoliyatning sustligi, ya’ni yangi mahsulot turlari, materiallar va sifat parametrlarini rivojlantiruvchi tadqiqotlar deyarli olib borilmayapti.

Mazkur muammolarning har biri nafaqat sohadagi ichki samaradorlikni pasaytiradi, balki umumiy iqtisodiy siyosatga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Binobarin, sohaga sifat menejmentining ilg‘or, xalqaro amaliyotlarga mos, joylashgan, tizimli va inson kapitaliga asoslangan modellarini tatbiq etish dolzarb vazifadir.

Tadqiqot natijasida quyidagi tavsiyalar va strategik yo‘nalishlar belgilandi:

1. Sifat menejmenti tizimini qayta ko‘rib chiqish - ISO 9001:2015 standartini amaliy faoliyatga mos holda qayta joriy etish, uning asosiy tamoyillari bo‘yicha xodimlarni tayyorlash, javobgarlikni aniq belgilash.

2. Jihozlarni yangilash va raqamlashtirish - avtomatlashtirilgan nazorat vositalari, raqamli ishlab chiqarish dispetcherizatsiyasi va “aqlli zavod” tamoyillariga o‘tish.

3. Malaka va ta’lim tizimini kuchaytirish - kasbiy qayta tayyorlash kurslari, sifat bo‘yicha xalqaro treninglar, dual ta’lim dasturlari va universitet-ishlab chiqarish hamkorligi asosida kadrlar salohiyatini oshirish.

4. Eksportbop mahsulotlar tayyorlash - xalqaro sertifikatlash, ekologik tozalik, energiya tejamkorlik, va dizayn kabi talablarga javob beradigan mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish.

5. Ichki audit tizimini joriy etish - har chorakda sifat ko‘rsatkichlari tahlili, KPI asosida baholash, ichki audit va ta’sirchan monitoring faoliyatini standartlashtirish.

6. R&D (Research & Development) salohiyatini rivojlantirish - ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorlikda yangi mahsulot turlari, sifatni oshirish texnologiyalari, alternativa xom ashyolar bo‘yicha tadqiqotlar olib borish.

Qurilish materiallari sanoatidagi sifat muammosini hal qilish uchun oddiy texnik choralar yetarli emas - bu sohada tizimli, davomli, innovatsion va inson kapitaliga asoslangan yondashuvlar talab etiladi. Sifat menejmentini faqat texnik reglament yoki shartnoma ichida emas, madaniyat darajasiga ko‘tarish, ya’ni har bir ishchi, mutaxassis va rahbarning fikrida sifat bo‘yicha mas’uliyat shakllanishi zarur.

Buning uchun esa davlat siyosati, xususiy tashabbus va ta’lim sohalari o‘rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Aynan shundagina, soha nafaqat ishlab chiqarish hajmlari, balki mahsulot sifatining yuqori darajasi bilan ham milliy va xalqaro bozorda muvaffaqiyat qozonadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Deming, W. E. (1986). Out of the Crisis. MIT Center for Advanced Engineering Study.

2. Juran, J. M. (1999). Juran’s Quality Handbook (5th ed.). McGraw-Hill.

3. Crosby, P. B. (1979). Quality is Free: The Art of Making Quality Certain. McGraw-Hill.

4. Ishikawa, K. (1985). What is Total Quality Control? The Japanese Way. Prentice Hall.

5. Jurazov J. (2019). Sifatni boshqarish asoslari. Toshkent: “Fan va texnologiya”.

6. Xaydarov U. (2021). Ishlab chiqarishda menejment tizimlari. Toshkent: “Iqtisodiyot”.

7. Komilov S. (2020). “Qurilish materiallari ishlab chiqarishda sifat nazoratining takomillashuvi”, Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali, №4, 2020.

8. Taguchi, G. (1993). Taguchi on Robust Technology Development: Bringing Quality Engineering Upstream. ASME Press.

9. Ross, J. E., & Cameron, M. J. (2006). Total Quality Management: Text, Cases, and Readings. CRC Press.

10. Tursunov, Yu. (2019). Korxonalarda sifatni boshqarishda innovatsion yondashuvlar. Toshkent: “Iqtisod” nashriyoti.

11. Abdurasulov, T. (2022). Sifat nazorati va ishlab chiqarishda standartlashtirish: muammo va yechimlar. “Ta’lim va Iqtisod” jurnali, №2, 33–40-betlar.

INVESTITSION SALOHIYATNI OSHIRISH ORQALI MINTAQALARNI IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Qobilov Anvar Eshpo‘lotovich
Qashqadaryo viloyat hokimining yoshlar siyosati,
ijtimoiy rivojlantirish va
ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari
ORCID 0000-0001-6019-7771
E-mail: kobilovanvar@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada O‘zbekistonda mintaqalarning investitsion salohiyatini oshirish orqali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash masalalari tahlil qilingan. Investitsiya muhitining tarkibiy qismlari, investitsion siyosatning amaliy yo‘nalishlari, xorijiy tajriba va milliy amaliyot asosida taklif va tavsiyalar ilgari surilgan. Shuningdek, hududlar kesimidagi investitsiya faoliyati tahlil qilinib, infratuzilmani rivojlantirish, kadrlar salohiyatini oshirish va innovatsiyani joriy qilishning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: investitsiya, investitsion salohiyat, mintaqaviy rivojlanish, xorijiy sarmoya, iqtisodiy siyosat, innovatsiya, infratuzilma.

Аннотатсия

В стате проанализированы вопросы обеспечения сотсиально-экономического развития регионов Узбекистана за счёт повышения их инвестиционного потенсиала. Рассмотрены составные элементы инвестиционной среды, практические направления инвестиционной политики, а также представлены предложения и рекомендатсии на основе зарубежного опыта и натсионалной практики. Кроме того, проанализирована инвестиционная активност по регионам, освещено значение развития инфраструктуры, повышения кадрового потенсиала и внедрения инноваций.

Ключевые слова: инвестиции, инвестиционный потенсиал, регионалное развитие, иностранные инвестиции, экономическая политика, инновации, инфраструктура.

Abstract

The article analyzes the issues of ensuring the socio-economic development of the regions of Uzbekistan through the enhancement of their investment potential. It examines the structural components of the investment environment, practical directions of investment policy, and provides proposals and recommendations based on international experience and national practice. In addition, the article analyzes investment activity across regions and highlights the importance of infrastructure development, human capital improvement, and the implementation of innovations.

Keywords: investment, investment potential, regional development, foreign investment, economic policy, innovation, infrastructure.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida kechayotgan global integratsiya jarayonlari, raqobatning kuchayishi va resurslar uchun kurash har bir mamlakatdan o‘z iqtisodiy salohiyatini

muntazam ravishda oshirish, iqtisodiy tizimni modernizatsiya qilish va investitsiya muhitini yaxshilashni taqozo etmoqda. Bugungi kunda har bir davlatning iqtisodiy qudrati va barqaror o‘sish sur’atlari, avvalo, uning investitsion faolligi, sarmoyalarni jalb etish imkoniyati hamda mavjud salohiyatdan samarali foydalanish darajasi bilan belgilanadi.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida mintaqalarda investitsion faollikni oshirish va hududiy iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash masalasi alohida e’tibor markazida turibdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev rahbarligida qabul qilingan 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” doirasida mamlakatda investitsiya muhitini yaxshilash, xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlash, xorijiy sarmoyani keng jalb etish va mintaqalarni jadal rivojlantirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Strategiya doirasida umumiy qiymati 100 trln so‘mdan ortiq bo‘lgan yirik investitsiya loyihalari ishga tushirildi [1]. Bu jarayonlarda nafaqat davlat, balki xususiy biznes, mahalliy hokimiyat organlari va xalqaro moliya institutlari faol ishtirok etmoqda.

Shu bilan birga, amaldagi holat tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, investitsiyalarning hududiy taqsimlanishida hali ham nomutanosibliklar mavjud. Masalan, Toshkent shahri, Navoiy va Toshkent viloyatlari mamlakatdagi umumiy investitsiyalarning katta qismini to‘g‘ridan-to‘g‘ri jalb etib, iqtisodiy jihatdan ilgarilab ketgan bo‘lsa, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Jizzax, Sirdaryo va Surxondaryo viloyatlarida investitsiya faolligi nisbatan past darajada qolmoqda. Bu esa hududlar o‘rtasida iqtisodiy faollikning bir xil emasligi, infratuzilmaning notekis rivojlanganligi va aholi bandligidagi farqlarni keltirib chiqarmoqda.

2025-yilning yanvar-mart oylarida O’zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti va ijtimoiy sohasini rivojlantirish uchun barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 120,4 trillion so’m asosiy kapitalga investitsiyalar o’zlashtirildi. Bu 2024-yilning mos davriga nisbatan 107,9 foizni tashkil etadi. Mutlaq ko’rsatkichlarda o’sish 15,9 trillion so’mni tashkil etdi [2].

Investitsiya salohiyatining pastligi ayrim hududlarda ishsizlik darajasining yuqori bo‘lishiga, iqtisodiy infratuzilmaning zaifligiga, ta’lim va innovatsiya sohalariga sarmoya yetishmasligiga olib kelmoqda. Bu holat o‘z navbatida ijtimoiy barqarorlikka ta’sir qilib, aholi turmush darajasini pasaytiradi. Shu sababli, investitsiya siyosatini takomillashtirish, sarmoyadorlar uchun qulay muhit yaratish, hududiy salohiyatdan samarali foydalanish va investitsiya faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biriga aylanmoqda.

Shunday qilib, maqolaning asosiy maqsadi - O‘zbekiston mintaqalarida investitsion salohiyatni oshirish orqali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash imkoniyatlarini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

ADABIYOTLAR SHARHI

Mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida investitsion salohiyatni oshirish masalasi bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, investitsiya iqtisodiy o‘sishning eng muhim drayverlaridan biri hisoblanadi. O‘zbek va xorijiy olimlar bu yo‘nalishda turli nazariy va amaliy yondashuvlarni ilgari surganlar.

Masalan, iqtisodchi olimlar I.Fayziev va M.Jumaniyozovlar o‘z tadqiqotlarida hududiy rivojlanishning barqarorligini ta’minlash uchun investitsion muhitni takomillashtirish, mahalliy resurslardan samarali foydalanish va infratuzilmaviy bazani kengaytirish zarurligini ta’kidlaydilar [3]. Ularning fikricha, investitsion salohiyatni baholashda tabiiy, moliyaviy, mehnat va innovatsion omillar bir-biri bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qilinishi lozim.

Shuningdek, professor A.V. Biktemirov va V.Ye. Kossov (Rossiya) o‘z ishlarida investitsion muhitni yaxshilashda davlatning tartibga solish funksiyasi muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatganlar. Ular davlat siyosati orqali sarmoyadorlar uchun kafolatlar yaratish, infratuzilmaga sarmoya kiritish va soliq imtiyozlarini joriy etish orqali investitsion faollikni oshirish mumkinligini ta’kidlaydilar [4].

Xorijiy tadqiqotchilardan M.Porterning “milliy raqobat afzalliklari” nazariyasida ham hududiy rivojlanishning asosi sifatida investitsiya muhiti, innovatsiya va klasterlashuv jarayonlariga alohida e’tibor qaratilgan. Uning fikricha, mamlakat yoki hududning raqobatbardoshligi to‘g‘ridan-to‘g‘ri sarmoya kiritish imkoniyatlari va iqtisodiy muhitning shaffofligi bilan bog‘liq [5].

O‘zbekiston olimlaridan Sh.Xodiev va B.Asadovlar “investitsiya siyosati va iqtisodiy o‘sish” mavzusidagi tadqiqotlarida investitsiya faolligini oshirishda davlat-xususiy sheriklik (PPP), erkin iqtisodiy zonalar va raqamli boshqaruv tizimlarining rolini yoritib berganlar [6]. Ular fikricha, hududiy rivojlanishning samaradorligi sarmoyadorlar uchun yaratilgan huquqiy va institutsional kafolatlarga bog‘liq.

Bundan tashqari, Jahon banki va BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP)ning tahlillarida ham O‘zbekistonda hududiy investitsiya muhitini rivojlantirish uchun moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, kadrlar salohiyatini oshirish va innovatsiya infratuzilmasini yaratish zarurligi ta’kidlanadi [7].

Qisqacha aytganda, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti investitsion salohiyat bilan bevosita bog‘liq. Ilmiy manbalardagi umumiy xulosa shundan iboratki, hududlar iqtisodiy o‘sishining asosiy drayveri - bu investitsiya muhitining barqarorligi, infratuzilmaning rivojlanganligi va davlatning samarali investitsiya siyosati hisoblanadi.

METODOLOGIYA

Ushbu maqolada “Investitsion salohiyatni oshirish orqali mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yo‘llari” mavzusi doirasida ilmiy izlanishlar olib borishda zamonaviy iqtisodiy tahlil usullari, tizimli va qiyosiy yondashuvlar, statistik tahlil hamda iqtisodiy modellashtirish metodlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Investitsion salohiyat - bu muayyan hudud yoki mamlakat iqtisodiyotining investitsiyalarni jalb etish va ulardan samarali foydalanish qobiliyatini ifodalovchi iqtisodiy kategoriyadir. U nafaqat mavjud resurslar va imkoniyatlar majmuasini, balki investitsiya jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan huquqiy, institutsional, ijtimoiy va infratuzilmaviy sharoitlarni ham o‘z ichiga oladi. Ya’ni, investitsion salohiyat hududning iqtisodiy salohiyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Bugungi global iqtisodiyot sharoitida investitsion salohiyatni baholash davlat siyosatida, xususan, mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Hududdagi ishlab chiqarish quvvatlari, tabiiy resurslar, mehnat zaxiralari va infratuzilma darajasi investitsiyalarni jalb etish imkoniyatini belgilaydi. Shu boisdan investitsion salohiyatni oshirish har bir hududning strategik maqsadlaridan biri sifatida qaraladi.

Investitsion salohiyat, avvalo, quyidagi asosiy tarkibiy elementlar orqali namoyon bo‘ladi:

- tabiiy resurslar salohiyati;
- inson kapitali va mehnat salohiyati;
- infratuzilma holati;
- moliyaviy va institutsional muhit.

Investitsion salohiyatning ahamiyati shundaki, u nafaqat kapital qo‘yilmalar hajmini belgilaydi, balki hududdagi ishsizlik darajasi, aholi daromadlari, ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanishi va iqtisodiy barqarorlik kabi ko‘rsatkichlarga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Investitsiya muhitini yaxshilash orqali yangi ish o‘rinlari yaratiladi, mahalliy ishlab chiqarish korxonalari zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlanadi va eksport salohiyati kengayadi.

Shu boisdan, investitsion salohiyatni to‘g‘ri baholash va uni oshirish bo‘yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish O‘zbekistonning mintaqaviy iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mintaqaviy darajada investitsiya siyosati hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy nomutanosiblikni kamaytirish, zaif rivojlangan hududlarni qo‘llab-quvvatlash va ularni milliy iqtisodiyotning barqaror tarkibiy qismiga aylantirishda muhim o‘rin tutadi. Shu jihatdan, har bir hududning tabiiy, iqtisodiy va inson resurslariga asoslangan holda investitsiya siyosatini ishlab chiqish talab etiladi.

Mintaqaviy investitsiya siyosatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- hudud iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish;
- yangi ish o‘rinlari yaratish va aholi daromadlarini oshirish;
- innovatsiya va yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarishni rivojlantirish;
- infratuzilmani modernizatsiya qilish va xizmatlar sohasini kengaytirish.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda davlat tomonidan investitsiya muhitini yaxshilash bo‘yicha bir qator samarali islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan: Davlat-xususiy sheriklik tizimi joriy etildi. Bu orqali infratuzilmaviy loyihalarni moliyalashtirishda xususiy sektorning ishtiroki kengaydi. Masalan, energetika, transport va sog‘liqni

saqlash sohalarida bir qator yirik loyihalar amalga oshirildi. “Bir darcha” tamoyili asosida sarmoyadorlarga xizmat ko‘rsatish markazlari tashkil etildi, bu investitsiya jarayonlarini soddalashtirdi va byurokratik to‘siqlarni kamaytirdi. Erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) faoliyati kengaytirildi, ular orqali sarmoyadorlar uchun soliq va bojxona imtiyozlari yaratildi. Ayniqsa, Navoiy, Jizzax va Angren zonalaridagi loyihalar mamlakat sanoat salohiyatini oshirishda muhim o‘rin tutmoqda.

2023 yilda O‘zbekiston iqtisodiyotiga jalb qilingan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi 10 milliard AQSh dollaridan ortiqni tashkil etdi, bu 2017 yilga nisbatan qariyb uch barobar ko‘pdir. Bu ko‘rsatkich mamlakatda investitsiya siyosatining samaradorligini, iqtisodiy barqarorlik va xorijiy sarmoyadorlar ishonchining ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, mamlakatda hududiy investitsiya dasturlari joriy etilgan bo‘lib, ular orqali har bir viloyatning tabiiy va iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqib sarmoya yo‘nalishlari belgilab beriladi. Masalan, Qashqadaryo viloyatida neft-gaz va kimyo sanoatiga, Namanganda to‘qimachilik va oziq-ovqat mahsulotlariga, Surxondaryoda qishloq xo‘jaligiga yo‘naltirilgan loyihalar amalga oshirilmoqda.

1-jadval

Investitsiyalarning tarmoq yo‘nalishlari bo‘yicha taqsimoti[1]

№	Iqtisodiy faoliyat turi	Investitsiya hajmi (trln so‘m)	Ulushi (%)
1	Ishlab chiqarish sanoati	33,1	27,5
2	Elektr ta’minoti, gaz ta’minoti	20,0	16,6
3	Tog‘-kon sanoati	13,6	11,3
4	Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	12,4	10,3
5	Uy-joy qurilishi	9,5	7,9
6	Tashish va saqlash	5,3	4,4
7	Ulgurji va chakana savdo	3,0	2,5
8	Sog’liqni saqlash	2,1	1,7

1-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston iqtisodiyotida investitsiyalarning asosiy qismi ishlab chiqarish sanoatiga to‘g‘ri keladi. Umumiy hajm 96,9 trillion so‘mni tashkil etib, bu mamlakatda sanoatlashuv jarayonining jadallashayotganini ko‘rsatadi. Eng katta ulush ishlab chiqarish sanoatida – 33,1 trillion so‘m yoki 27,5 foizni tashkil etgan. Bu yo‘nalishdagi sarmoyalar yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, texnologik yangilanishlarni amalga oshirish va eksportga yo‘naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirishga qaratilgan. Elektr ta’minoti, gaz, bug‘ va konditsiyalash tizimlariga 20,0 trillion so‘m (16,6%) investitsiya yo‘naltirilgan bo‘lib, bu energetika infratuzilmasini modernizatsiya qilish va iqtisodiyotning barcha sohalarini energiya bilan barqaror ta’minlashga xizmat qiladi. Tog‘-kon sanoatiga 13,6 trillion so‘m (11,3%) mablag‘ yo‘naltirilgan bo‘lib, bu tabiiy resurslardan samarali foydalanish va yangi konlarni o‘zlashtirish imkonini beradi. Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligiga 12,4 trillion so‘m (10,3%) investitsiya kiritilgan, bu esa agrar sohani modernizatsiyalash, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish hamda oziq-ovqat

[1] Muallif ishlanmasi

xavfsizligini mustahkamlashga qaratilgan. Umuman olganda, investitsiyalarning tarmoq kesimidagi taqsimoti mamlakatda ishlab chiqarish, energetika va agrar tarmoqlar ustuvor yo‘nalish sifatida saqlanib qolayotganini, xizmat ko‘rsatish sohasi ulushini oshirish esa iqtisodiyotning diversifikatsiyasini kuchaytirish imkonini berishini ko‘rsatadi.

2-jadval

Xorijiy investitsiyalarning tarmoq yo‘nalishlari bo‘yicha taqsimoti[1]

№	Iqtisodiy faoliyat turi	Ulushi (%)
1	Ishlab chiqarish sanoati	32,2
2	Elektr va gaz ta’minoti	22,7
3	Tog‘-kon sanoati	13,0
4	Qishloq xo‘jaligi	9,7
5	Qurilish	5,0
6	Tashish va saqlash	4,1
7	Suv ta’minoti va kanalizatsiya	1,7
8	Axborot va aloqa	1,0
9	Ko‘chmas mulk bilan operatsiyalar	0,6
10	Boshqa faoliyat turlari	10,0

2-jadvalga ko‘ra, xorijiy investitsiyalarning asosiy qismi ishlab chiqarish sanoatiga (32,2%) va elektr hamda gaz ta’minotiga (22,7%) to‘g‘ri keladi. Tog‘-kon sanoati (13%) va qishloq xo‘jaligi (9,7%) ham muhim ulushga ega. Qurilish (5%) hamda tashish va saqlash (4,1%) sohalari infratuzilmani rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Qolgan sohalar - suv ta’minoti, aloqa va ko‘chmas mulkka sarmoya nisbatan kam bo‘lib, xorijiy investitsiyalar asosan sanoat va energetika tarmoqlarida jamlangan.

Shunday qilib, investitsiya siyosati mintaqaviy rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Uning samarali amalga oshirilishi natijasida hududlar o‘rtasida iqtisodiy nomutanosiblik kamayadi, yangi ishlab chiqarish tarmoqlari shakllanadi, eksport salohiyati kengayadi va aholi farovonligi yuksaladi. Quyidagi jadvalda hududlar kesimida investitsiyalarning taqsimlanishi keltirib o‘tilgan.

3-jadval

Xududlar kesimida investitsiyalarning taqsimlanishi[2]

Viloyat	Investitsiya hajmi (trln so‘m)	Hissa (%)	Asosiy yo‘nalish
Toshkent sh.	32,5	24,3	Sanoat, xizmatlar
Navoiy	15,1	11,3	Kimyo, energiya
Samarqand	12,4	9,3	Turizm, oziq-ovqat
Farg‘ona	10,7	8,1	To‘qimachilik, mashinasozlik
Surxondaryo	5,9	4,2	Agroishlab chiqarish
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	3,8	2,9	Qishloq xo‘jaligi

[1] Muallif ishlanmasi
[2] O‘zbekiston Respublikasi Milliy ststistika qo’mitasi hisobotlariyordamida muallif ishlanmasi, 2024 yil.

3-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, investitsiyalarning hududiy taqsimlanishida katta tafovut mavjud. Eng yuqori investitsiya hajmi Toshkent shahri hissasiga to‘g‘ri kelib, 32,5 trln so‘m yoki umumiy sarmoyalarning 24,3 foizini tashkil etmoqda. Bu holat poytaxtning sanoat va xizmatlar sohasidagi yuqori salohiyati, infratuzilmaning rivojlanganligi hamda sarmoyadorlar uchun qulay muhit mavjudligi bilan izohlanadi. Eng past ko‘rsatkich Qoraqalpog‘iston Respublikasiga to‘g‘ri kelib, 3,8 trln so‘m (2,9%) ni tashkil etadi va sarmoyalar asosan qishloq xo‘jaligi sohasida yo‘naltirilgan. Umuman olganda, jadval ma’lumotlari mamlakatda investitsiyalarning hududiy nomutanosib taqsimlanganini, poytaxt va sanoat markazlariga sarmoya oqimi yuqori, iqtisodiy jihatdan qashshoqroq hududlarda esa sarmoya faolligi pastligini ko‘rsatadi. Bu esa mintaqalarda investitsiya siyosatini muvozanatlashtirish va kam qamrab olingan hududlarga rag‘batlantiruvchi choralar joriy etish zarurligini anglatadi.

Dunyo amaliyoti shuni ko‘rsatmoqdaki, investitsiya salohiyatini oshirish va mintaqaviy rivojlanishni ta’minlash uchun davlatning faol ishtiroki, maqsadli dasturlar va xususiy sektor bilan hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Rivojlangan va jadal o‘sish yo‘liga kirgan mamlakatlar tajribasi shuni tasdiqlaydiki, investitsiya muhitini yaxshilash nafaqat iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiradi, balki hududiy tengsizlikni ham kamaytiradi. Shu nuqtai nazardan Janubiy Koreya va Turkiya misolidagi modellar O‘zbekiston uchun juda dolzarb hisoblanadi.

Janubiy Koreya tajribasi. Janubiy Koreya XX asrning ikkinchi yarmida industrializatsiya jarayonini jadal sur’atlarda amalga oshirgan mamlakat sifatida tanilgan. 1970-yillarda “sanoat klasterlari” va “eksportga yo‘naltirilgan iqtisodiyot” konsepsiyasi joriy etilib, davlat iqtisodiy jarayonlarning asosiy boshqaruvchisi sifatida harakat qilgan. Hukumat maxsus iqtisodiy zonalar va sanoat hududlarini tashkil etib, infratuzilmani davlat hisobiga qurgan, xususiy biznes esa ishlab chiqarish va eksport loyihalariga sarmoya kiritgan.

Bu tizim “chiroyli simbioz” (ya’ni davlat va xususiy sektor manfaatlarining uyg‘unligi) asosida amalga oshgan bo‘lib, qisqa vaqt ichida mamlakatda sanoat ishlab chiqarishi bir necha barobar oshgan. Eksport salohiyati 1965–1985 yillar davomida 100 barobarga o‘sgan, Koreya dunyodagi yetakchi elektronika, avtomobil va kema qurish davlatlaridan biriga aylangan.

Bu modelning asosiy afzalliklari quyidagicha:

- davlat tomonidan infratuzilmaviy dastaklar yaratilishi (portlar, yo‘llar, elektr tarmoqlari);
- tarmoqlararo kooperatsiyani rivojlantirish orqali innovatsiya muhitini shakllantirish;
- eksportni rag‘batlantiruvchi soliq va bojxona imtiyozlari tizimi.

Turkiya tajribasi. Turkiya tajribasi esa investitsiyalarni jalb qilishda “erkin iqtisodiy zonalar” modelining samaradorligini yaqqol namoyon etadi. 1980-yillardan boshlab mamlakatda iqtisodiy liberallashuv siyosati olib borilib, tashqi sarmoya uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

Erkin iqtisodiy zonalarda sarmoyadorlar uchun qulay shart-sharoitlar ta’minlandi:

- soliq va bojxona to‘lovlaridan to‘liq yoki qisman ozod qilish;

• foydani erkin repatriatsiya (tashqaridan mamlakatga yoki teskari yo‘nalishda olib chiqish) huquqi;
• yer maydonlarini arzon ijaraga berish;
• ma’muriy ruxsat jarayonlarini qisqartirish.

Natijada Turkiyaning Izmir, Istanbul va Antaliya kabi hududlarida erkin zonalar orqali yuzlab xorijiy kompaniyalar faoliyat boshladi. Bu zonalar mamlakat sanoatining eksport salohiyatini oshirishda, yangi texnologiyalarni jalb etishda va ishsizlikni kamaytirishda muhim rol o‘ynadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekiston uchun mazkur mamlakatlar tajribasi qator jihatlar bilan ahamiyatlidir. Birinchidan, Janubiy Koreya tajribasidan kelib chiqib, hududlarda sanoat klasterlari va innovatsion texnoparklarni rivojlantirish maqsadga muvofiq. Bu mahalliy ishlab chiqarishni chuqurlashtirish, hududlar o‘rtasidagi kooperatsiyani kuchaytirish hamda eksportga yo‘naltirilgan tarmoqlarni shakllantirish imkonini beradi.

Ikkinchidan, Turkiya tajribasidan kelib chiqqan holda, erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini yanada kengaytirish va ularni real sektorga yaqinlashtirish zarur. Hududlarda yangi erkin sanoat va investitsiya zonalarini tashkil etish orqali sarmoyadorlarga qulay muhit yaratish mumkin.

Mazkur tajribalardan kelib chiqqan holda O‘zbekiston uchun quyidagi amaliy choralar tavsiya etiladi:

• har bir viloyatda maxsus “investitsiya ofisi” tashkil etish orqali mahalliy va xorijiy sarmoyadorlarga axborot, huquqiy va tashkiliy yordam ko‘rsatish;
• hokimliklar huzurida investitsiya bo‘yicha kengashlar tuzish orqali loyihalarni muvofiqlashtirish, mahalliy ehtiyojlarga mos dasturlarni ishlab chiqish;
• sarmoyadorlar uchun yagona elektron platforma orqali barcha ruxsat, imtiyoz va shartnomalarni rasmiylashtirish tizimini yo‘lga qo‘yish;
• investitsiya loyihalari samaradorligini baholash uchun reytingov tizim joriy etish va natijalarni ochiq e’lon qilish;
• zaif rivojlangan hududlar uchun maqsadli soliq va kredit imtiyozlari berish orqali sarmoya oqimini muvozanatlashtirish.

Shunday qilib, xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, investitsiya siyosatining samaradorligi davlatning faol ishtiroki, xususiy sektor bilan teng hamkorlik va boshqaruv jarayonlarining shaffofligiga bog‘liq. O‘zbekistonda ushbu yo‘nalishdagi islohotlarni izchil davom ettirish orqali hududiy iqtisodiy rivojlanishni tezlashtirish va mamlakatning investitsiya salohiyatini yangi bosqichga ko‘tarish mumkin.

Investitsion salohiyatni oshirishning amaliy yo‘nalishlari. Infratuzilmani rivojlantirish - bu investitsiya faoliyatining asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Hududlarda zamonaviy yo‘llar, transport kommunikatsiyalari, elektr va suv ta’minoti, shuningdek, tezkor internet tarmoqlarining mavjudligi sarmoyadorlar uchun qulay muhit yaratadi. Infratuzilmaviy baza rivojlanmagan hududlarda sarmoya oqimi sust bo‘ladi, shuning uchun davlat va xususiy sektor hamkorligida infratuzilma loyihalarini amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

Innovatsiya va ta’lim tizimini rivojlantirish - zamonaviy iqtisodiyotning asosiy drayveridir. Har bir hududda texnoparklar, innovatsion markazlar va startap inkubatorlarini tashkil etish orqali yoshlar va tadbirkorlar uchun yangi imkoniyatlar yaratiladi. Shu bilan birga, kasbiy ta’lim muassasalarining soni va sifati oshirilishi, bozor talabiga mos mutaxassislar tayyorlanishi investitsiya loyihalarining samaradorligini ta’minlaydi.

Mahalliy xomashyo bazasidan foydalanish - importga bog‘liqlikni kamaytiradi va ichki resurslardan samarali foydalanishni rag‘batlantiradi. Bu yo‘nalishda hududlarning tabiiy va iqtisodiy imkoniyatlarini chuqur tahlil qilish, mahalliy mahsulotni qayta ishlash sanoatini rivojlantirish muhim. Ichki xomashyo manbalariga tayanish qiymat zanjirini mamlakat ichida saqlab qolish, yangi ish o‘rinlari yaratish va eksport imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Ushbu tahlillardan ko‘rinib turibdiki, mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash va investitsion salohiyatni oshirish uchun ilmiy asoslangan, kompleks va uzviy amaliy chora-tadbirlarni joriy etish zarur. Shu munosabat bilan quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish mumkin:

Hududiy investitsiya dasturlarini ilmiy asosda shakllantirish;

- Investitsiya loyihalarini raqamli platforma orqali monitoring qilish;
- Kam sarmoya jalb qilingan tumanlarda soliq va bojxona imtiyozlarini kengaytirish;
- Ijtimoiy sohalar (ta’lim, tibbiyot, ekologiya)ga xususiy sarmoya jalb qilish mexanizmlarini yaratish;
- Davlat-xususiy sherikligi asosida “yashil iqtisodiyot” loyihalarini joriy etish.

Xulosa qilib aytganda, mintaqalarning investitsion salohiyatini oshirish - bu nafaqat iqtisodiy o‘sishni ta’minlash vositasi, balki aholining turmush darajasini yaxshilash, yangi ish o‘rinlari yaratish va mamlakatning global raqobatbardoshligini kuchaytirishning muhim strategik yo‘nalishidir. Shu bois investitsiya siyosatini ilmiy asosda takomillashtirish va uni amaliy mexanizmlar bilan ta’minlash - O‘zbekistonning yaqin istiqboldagi barqaror taraqqiyoti uchun asosiy ustuvor vazifa hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar PF–60-son “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. https://lex.uz/uz/docs/-5841063

2. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi hisobotlari, 2024 yil.

3. Porter M. The Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1990.

4. Xonkeldiev Sh. “Mintaqaviy iqtisodiy siyosat va investitsiya faoliyati”. – T.: Fan, 2022.

5. World Bank. Investing in Regional Development: Policy Lessons, 2023.

“YASHIL IQTISODIYOT” TAMOYILLARI ASOSIDA IQTISODIY XAVFSIZLIK SOHASIDA BOSHQARUV QARORLARINI ASOSLASHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI

Ibrogimov Sherzodbek Xalimjon o‘g‘li
Namangan davlat texnika universiteti
“Iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti,
iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori
ORCID: 0009-0000-2604-8422
E-mail: ibrogimovsherzodbek@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash jarayonida “yashil iqtisodiyot” tamoyillariga asoslangan boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va ularni innovatsion yondashuvlar orqali takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqotda ekologik barqarorlik, resurslardan oqilona foydalanish, energiya samaradorligini oshirish hamda uglerod izini qisqartirish iqtisodiy xavfsizlikning muhim omili sifatida talqin etiladi. Shuningdek, milliy iqtisodiyot tarmoqlarida ekologik xavflarni baholash va ularni kamaytirish bo‘yicha ilg‘or boshqaruv mexanizmlari, raqamli texnologiyalarni qo‘llash hamda “yashil” innovatsiyalarni joriy etishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Maqolada iqtisodiy siyosatni shakllantirishda kompleks yondashuv asosida qarorlar qabul qilishning ilmiy asoslari ishlab chiqilgan hamda O‘zbekiston iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlash yo‘lida “yashil” rivojlanish modelining ustuvor roli asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Iqtisodiy xavfsizlik, innovatsion boshqaruv, barqaror rivojlanish, ekologik samaradorlik, raqamli transformatsiya, resurs tejash, boshqaruv qarorlari, ekologik tahdidlar.

Аннотация

В данной статье проанализированы вопросы разработки управленческих решений, основанных на принципах «зелёной экономики», и их совершенствования на основе инновационных подходов в процессе обеспечения экономической безопасности. В исследовании экологическая устойчивость, рациональное использование ресурсов, повышение энергоэффективности и сокращение углеродного следа рассматриваются как важнейшие факторы экономической безопасности. Кроме того, освещены теоретические и практические аспекты применения передовых механизмов управления, оценки и снижения экологических рисков в национальных отраслях экономики, а также внедрения цифровых технологий и «зелёных» инноваций. В статье разработаны научные основы принятия решений на основе комплексного подхода к формированию экономической политики и обоснована приоритетная роль модели «зелёного» развития в укреплении экономической безопасности Узбекистана.

Ключевые слова: экономическая безопасность, инновационное управление, устойчивое развитие, экологическая эффективность, цифровая

трансформация, ресурсосбережение, управленческие решения, экологические угрозы.

Abstract

This article analyzes the development of management decisions based on the principles of the green economy in the context of ensuring economic security and explores their improvement through innovative approaches. The research interprets ecological sustainability, rational use of resources, increased energy efficiency, and carbon footprint reduction as key factors in economic security. Furthermore, it highlights both theoretical and practical aspects of assessing environmental risks in national economic sectors, applying digital technologies, and introducing green innovations. The article also develops the scientific foundations for adopting decisions within economic policy using an integrated approach and substantiates the priority role of the green development model in strengthening Uzbekistan's economic security.

Keywords: economic security, innovative management, sustainable development, ecological efficiency, digital transformation, resource saving, management decisions, environmental threats

KIRISH

Boshqaruv qarorlarini asoslashning zamonaviy innovatsion yondashuvlaridan biri masofadan zondlash usullari va Geografik axborot tizimlari modellashtirishdan foydalanish orqali ma'lumot olishdir. Geografik axborot tizimlari obyektlarni vizuallashtirish va natijalarni modellashtirish imkonini beradi. Ekologik tahdidlar sharoitida iqtisodiy xavfsizlik sohasida boshqaruv qarorlarini asoslash uchun hududning tabiiy xususiyatlari to‘g‘risida ham, ushbu ta'sirni oluvchilarga - aholiga, iqtisodiyotning nozik turlariga, masalan, qishloq xo‘jaligi, turizm va boshqalarga salbiy texnogen ta'sir darajalari to‘g‘risida fazoviy mahalliylashtirilgan ma'lumotlar talab qilinadi.

Amalda ma'lum xususiyatlarni lokalizatsiya qilish hududiy modellashtirishning uchta usuli nuqtalar, kontur chiziqlari, maydonlar bilan amalga oshiriladi. Qoida tariqasida, ma'lumotlarning bir qismi ko‘pincha mahalliylashtirilmaydi va ko‘rsatilgan usullarning har biri texnologik xususiyatlarga ega. Xususan, hududlardan foydalangan holda fazoviy xususiyatlarni modellashtirish texnologiyasi rayonlashtirish turiga qarab tubdan farq qilishi mumkin. Turli usullar bilan mahalliylashtirilgan ma'lumotlarni umumlashtirish murakkab jarayon bo‘lib, uning natijalari ba'zan ishonchliligiga shubha tug‘diradi.

Geografik axborot tizimlarni modellashtirish uchun ma'lumot to‘plashning ikkinchi muammosi - bu aholi, iqtisodiyot va salbiy texnogen ta'sir, hududning tabiiy xususiyatlari to‘g‘risidagi ma'lumotlarning hududiy tuzilishi. Bunday ma'lumotlar turli shakllarda taqdim etilishi mumkin, lekin asosan tabiiy sharoit va resurslar haqidagi sintetik ma'lumotlar mintaqaviy fizik-geografik rayonlashtirish yoki tipologik landshaft rayonlashtirish shaklida taqdim etiladi. Ko‘pgina maxsus ma'lumotlar fazoviy bo‘lmagan shaklda taqdim etilishi mumkin. Aholi soni, tabiatdan foydalanish va texnogen ta'sir to‘g‘risidagi ma'lumotlar odatda ma'muriy-hududiy bo‘linishning

milliy va mintaqaviy darajalari sifatida qo‘llaniladigan sun’iy hududlar tomonidan taqdim etiladi.

Mahalliy miqyosda mahalliylashtirish birliklari yerdan foydalanish hududlari, sanitariya zonalari, dalalarning ish joylari va boshqalar hisoblanadi. GISni modellashtirishning kompyuter texnologiyalarini joriy etishda bir tomondan axborotning obyektivligi muammosi hal qilinsa, ikkinchi tomondan uning ishonchliligiga qo‘yiladigan talablar oshiriladi. Buning sababi “badiiy” bosqichning yo‘qligi bo‘lib, unda kartografik ma’lumotlarni badiiy va ilmiy qayta ko‘rib chiqish jarayonida mutaxassis uchun aniq bo‘lgan noaniqliklar bartaraf etiladi. Ma’muriy qarorlarni ekologik jihatdan asoslashning uslubiy muammolariga tabiiy va ma’muriy rayonlashtirish chegaralarining beqarorligi, rayonlashtirish texnologiyasiga normativ talablarning yo‘qligi, ekologik baholashning ko‘p yondashuvliligi, ko‘p parametrliligi, standartlashtirilgan ishonchli baholash mezonlarining yo‘qligi kiradi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Adabiyotlar taxlil qiladigan bo’lsak A.V.Vahobov, SH.X.Hojiboqiev, T.K.Iminov, A.Isadjanov, E.A.Mo‘minova, N.To‘xliyev, T.M.Axmedov, A.T.Yusupov, A.M.Sodiqov, A.A.Soliyev, A.A.Qayumov, F.Egamberdiyev, A.A.Abdusalyamov, A.B.Nizomov, B.Ro‘zmetov, D.SH.Yavmutov, F.M.Raxmatullayeva, A.A.Qulmatov[1] kabi olimlarning tadqiqotlarida “yashil iqtisodiyot”ning xususiyatlari, uning barqaror rivojlanishdagi ahamiyati masalalari bayon qilingan, barqaror va kompleks rivojlantirish masalalarining nazariy-metodologik asoslarini, hududlarda ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirish, hududning resurs salohiyatidan samarali foydalangan holda atrof-muhit muhofazasini iqtisodiy jihatdan to‘g‘ri tashkil etish masalalarini tadqiq etishgan.

METODOLOGIYA

Tadqiqot metadologiyasi sifatida fazoviy taxlildan foydalangan holatda “Yashil iqtisodiyot” tamoyillari asosida iqtisodiy xavfsizlik sohasida boshqaruv qarorlarini asoslashning innovatsion yondashuvlari yoritilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil qilish uchun tabiiy va ma’muriy-iqtisodiy hududlar bo‘yicha taqsimlangan ma’lumotlarni birlashtirish kerak. Bunday integratsiya usuli - xaritani ma’muriy yoki xo‘jalik birliklari chegaralari - asosan ma’lum bir ierarxik darajadagi landshaft tipologik birliklari - tabiiy hududlar xaritasiga qo‘yishdir. Tabiiy va ma’muriy-xo‘jalik chegaralari xaritalarini qo‘shib qo‘yish va hududlarni ham tabiiy xususiyatlar, ham chiqindilar, oqizmalar, yerlarning antropogen o‘zgarishi va boshqalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan to‘ldirish natijasida ma’lum darajadagi tabiiy-antropogen tipologik hududiy tizimlarning yangi integral konturlari shakllanadi.

Tabiiy xususiyatlari va texnogen yuklarning turlari hamda darajalari bo‘yicha nisbatan bir hil bo‘lgan bu tizimlarni o‘rganish, tavsiflash va tasniflash mumkin. O‘zbekiston Respublikasining butun hududini doimiy muntazam ekologik tadqiqotlar bo‘lmagan taqdirda, bilvosita ko‘rsatkichlar yordamida hududdagi ekologik vaziyatni fazoviy tahlil qilish va baholash mumkin. Bunday ko‘rsatkichlar, birinchi navbatda,

tabiiy muhitning turli tarkibiy qismlarining ifloslanishi, tabiiy resurs salohiyatining o‘zgarishi, aholi salomatligi va demografik ko‘rsatkichlardir. Buning uchun rasmiy statistik ma’lumotlardan foydalaniladi.

Axborot to‘plash va ma’muriy bo‘linishga asoslangan hududiy umumlashtirish tizimlari tabiiy muhit va tabiiy resurslar holatidagi mintaqaviy farqlarni aniqlash uchun yaroqsiz. Boshqa tomondan, atrof-muhitning holati to‘g‘risida rasmiy statistik ma’lumotlardan tashqari boshqa ma’lumotlarga ega bo‘lmagan holda, ma’muriy bo‘linish bo‘yicha ifloslantiruvchi moddalarning turlari va kontsentratsiyasining landshaft, tabiiy hamda iqtisodiy farqlarini hisobga olgan holda fazoviy tahlil qilish mumkin. Iqtisodiyotning ekologik o‘zgarishi sharoitida iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha boshqaruv qarorlarini asoslash uchun heterojen ma’lumotlarni sintez qilish tadqiqot maqsadini aniqlash uchun maxsus ishlab chiqilgan vazifalar; baholash mezonlari; tahlil omillari; tahlil parametrlarining algoritmi bo‘yicha amalga oshiriladi. Ekologik vaziyatni fazoviy tahlil qilish va baholash omillarining asosiy guruhlariga quyidagilar kiradi:

-tabiiy landshaftlarning fizik-kimyoviy sharoitlari;

-tabiiy-xo‘jalik tizimlarining antropogen o‘zgarishi (tabiatdan foydalanish turlari bo‘yicha, haydaladigan yerlar foizi, texnologik sikllarga jalb qilingan yerlarning qishloq xo‘jaligini o‘zlashtirish);

- tabiiy muhitning ifloslanishi (o‘simliklarni himoya qilish va oziqlantirishning kimyoviy vositalaridan foydalanish, yer usti hamda chiqindi suvlari va atmosferaning sirt qatlamini sanoat korxonalari chiqindilari bilan ifloslanishi, radiatsiyaviy fon).



1-rasm. Hududning ekologik holatini baholash quyidagi parametrlar bo‘yicha amalga oshiriladi[1]

Ma’muriy tuman doirasidagi ekologik o‘zgarishlarni baholash metodologiyasiga ko‘ra, tabiiy tizimlarning xususiyatlari va atrof-muhitga texnogen ta’siri aniqlanadi.

[1] Muallif ishlanmasi

Landshaft turlari ma’muriy okrug hududi uchun, ma’muriy-xo‘jalik birliklari sifatida esa qishloq xo‘jaligi xo‘jaliklari va aholi punktlari hududlari uchun belgilanadi.

Ushbu parametrlarning har birining aniqlangan miqdoriy xususiyatlariga asoslanib, ma’lum bir parametrning umuman ekologik vaziyatga salbiy ta’sirini aniqlaydigan koeffitsient hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining Namangan viloyatining hududlaridagi ekologik vaziyatni fazoviy tahlil qilish va baholash bunday tadqiqotga misol bo‘la oladi.

1-jadvalda keltirilgan ma’lumotlar asosida ta’kidlash joizki, ortacha landshaftni saqlash koeffitsienti 0.56 ga teng bo‘lib, bu viloyatda tabiiy muvozanat o‘rtacha darajada saqlanayotganligidan dalolar beradi. Tog‘li hududlarda bu ko‘rsatkich yuqoriroq (1-jadval).

1-jadval

Namangan viloyati tumanlarining tabiiy va iqtisodiy hududiy tizimlarini ekologik baholash koeffitsientlari[1]

№	Tuman nomi	Tabiiy landshaft turi	Landshaftni saqlash qobiliyati koeff.	Antropogen o‘zgaruvchanlik (bal)	Koeff.	Buzilgan yerlar ulushi (%)	Koeff.	Tumanlar guruhlanishi	Texnogen ifloslanish koeff.	Radiatsion ifloslanish (Ci/km²)	Koeff.
1	Namangan shahri	Urban	0.35-0.50	0,70-0.85	1.1-1.2	13,7	0.5-0.7	Kuchli o‘zgar.	1.10-1.45	2.9-3.2	0.75-0.80
2	Davlatobod	Urban									
3	To‘raqo‘rg‘on	Urban-dashtli									
4	Uychi	Dashtli									
5	Mingbuloq	Dashtli									
6	Mingbuloq	Dashtli									
7	Chortoq	Tog‘oldi	0.51-0.69	0.55-0.84	0.90-1.0	7.2	0.40	O‘rta	0.85-1.00	2.2-2.8	0.58-0.74
8	Pop	Tog‘li					0,36-0.45	O‘rta			
9	Norin	Dashtli					0.50	O‘rta			
10	Uchkurgan	Tog‘oldi					0.45	O‘rta			
11	Kosonsoy	Tog‘li					0.40	O‘rta			
3	Chust	Tog‘li	0.70-0.75	0.45-0.54	0.80-0.89	4.5	0.30-0.35	Barqaror	0.75-0.84	2.0-2.1	0.50-0.57
8	Yangiqo‘rg‘on	Tog‘li									

Antropogen o‘zgaruvchanlik o‘rtacha 0.65 ga tengligi qayd etilgan. Bu esa inson faoliyatini ta’siri sezilarli bo‘lib, bu ayniqsa urban (shahar) tumanlarda o‘z aksini topmoqda. Buzilgan yerlar ulushi Namangan viloyati bo‘yicha o‘rtacha 8.5% ga teng bo‘lib, bu nisbatan yuqori, melioratsiya va yer tiklash ishlari talab etiladi.

Quyida yuqori antropogen bosim (ya’ni ehtimoliy ekologik stress) ga ega bo‘lgan tumanlar va ishonchli ma’lumotlariga asoslanadi. Eng yuqori antropogen bosim Namangan shahri— 713,385 (2025 taxmin) — katta shahar, aloqa va sanoat markazi → yuqori antropogen bosimga ega. Chust tumani — 291,430 — qishloq/shaxar aralash, aholisi katta. To‘raqo‘rg‘on— 250,727 — yuqori aholili tuman.

[1] Muallif ishlanmasi

Yangiqo‘rg‘on — 241,788; Pop — 239,799; Uychi — 237,543 — bular ham yuqori antropogen bosim guruhidan joy oldi.

O‘rta antropogen bosimga esa Kosonsoy, Norin, Uchkurgan — aholisi o‘rtacha-yuqori, ayrim qishloq hududlari kirdi. Nisbatan past antropogen bosimga esa, Mingbuloq, Chortoq — aholisi nisbatan kamroq va tog‘oldi/dasht hududlar va aralash bo‘lganligidan — antropogen bosimi pastroq guruhga kirishini tavsiflaydi.

Texnogen ifloslanish koeffitsienti - 1.04 teng va dunda sanoat hamda transport chiqindilari o‘rtacha yuqori darajada bo‘lib, viloyatda har doim favqulotda vaziyatlarga tayyorgarlik ko‘rib borishini taqozo etadi. Radiatsion fon (2.58 Ci/km²) — normal ekologik chegarada bo‘lsada, ammo shahar atroflarida biroz ortgan (Pop tumanidagi uran konini mavjudligi). Berilgan ma’lumotlardan foydalangan holda, Namangan viloyati tumanlari bo‘yicha tabiiy va iqtisodiy hududiy tizimlarni iqtisodiy va ekologik baholash haritasi Python dasturi “Namangan Gis Map”(Ilova C) fayli asosida tuziladi (2-rasm).



2-rasm. Namangan viloyati tumanlari bo‘yicha tabiiy va iqtisodiy hududiy tizimlarni ekologik baholash ko‘rsatkichlari[1]

Bu rasmda keltirilgan Namangan viloyati hududlarning tabiiy va iqtisodiy hududiy tizimlarni ekologik bahosi turli ranglarda berilgan bo‘lib, qizil — juda yuqori antropogen bosim (Namangan shahri, Chust, To‘raqo‘rg‘on), sariq-qizil — yuqori (Yangiqo‘rg‘on, Pop, Uychi), sariq — o‘rta (Kosonsoy, Norin, Uchkurgan) va yashil — past (Mingbuloq, Chortoq, Koson tumanlari) holatlar bilan tasvirlangan.

Belgilangan landshaftlarning akkumulyatsiya qobiliyatini baholash texnogen ifloslantiruvchi moddalar to‘planishini ekologik baholash usullari bilan amalga oshiriladi. Landshaftning har bir turi uchun texnogen ifloslantiruvchi moddalarni to‘plash qobiliyati darajasiga qarab baholash koeffitsienti hisoblanadi. Bunda ma’lum

[1] Muallif ishlanmasi

bir parametr bo‘yicha kritik diapazondagi tuproqlarning maksimal akkumulyatsiya effektiga to‘g‘ri keladigan tabiiy fizik-kimyoviy xossalari hisobga olinadi.

O‘rganilayotgan hudud uchun texnogen kelib chiqadigan kimyoviy ifloslantiruvchi moddalar - og‘ir metallar va radionuklidlarning maksimal to‘planishiga olib keladigan muhim diapazonlardagi asosiy xarakteristikalar 1-jadvalda keltirilgan. Buzilgan qishloq xo‘jaligi yerlarini baholash quyidagi formula bo‘yicha hisoblangan koeffitsient bo‘yicha amalga oshiriladi:

$$L=Sg/Sp \quad (1)$$

bu yerda: Sg - alohida fermer xo‘jaligining maydoni; Sp - alohida fermadagi buzilgan yerlar maydoni. Sanoat korxonalari chiqindilari hajmining ta’sirini baholash uchun emissiya ulushi ko‘rsatkichi hisoblanadi. Bu aholi punktidagi sanoat chiqindilari ulushining butun hududdagi chiqindilarning umumiy hajmiga nisbati sifatida aniqlanadi:

$$V=V_{Sch.}/V_{USch} \quad (2)$$

Bu yerda: $V_{Sch.}$ – aholi punktida sanoat chiqindilari hajmi; V_{USch} – butun hududdagi sanoat korxonalari tomonidan chiqindilar hajmi. Aholi punktidagi chiqindilar hajmining belgilangan ulushidan kelib chiqib, hududning texnogen ifloslanish koeffitsienti hisoblanadi.

Radiatsion ifloslanishning ekologik ta’sir koeffitsienti radiatsiyaviy ifloslanishning belgilangan zonasi asosida hisoblanadi. Tabiiy va iqtisodiy tizimlar hududlarini aniqlash uchun xarita yoki erdan foydalanish tuzilmasining sxemasi tabiiy landshaft turlarining xaritasi yoki sxemasi ustiga qo‘yiladi. Aynan ular uchun ekologik vaziyatning taxminiy koeffitsienti individual ekologik koeffitsientlarni ko‘paytirish yo‘li bilan hisoblanadi. Ekologik vaziyat tabiiy va antropogen hududiy tizimlarning har bir turi uchun hisoblangan koeffitsientlar bo‘yicha tartiblangan holda tavsiflanadi (2-jadval).

2-jadval

Ekologik vaziyatning sintetik hisoblangan koeffitsientlari[1]

Sintetik koeffitsient diapazoni	Ekologik vaziyatning xususiyatlari
1,00–1,30	Qulay
1,31–1,60	Qoniqarli
1,61–1,90	Noqulay
1,91–2,20	Qoniqarsiz
> 2,21	Xavfli

Yuqoridagi 2-rasm fazoviy tahlil va ekologik vaziyatni baholashda tipologik sintez protsedurasining natijasidir. Namangan viloyatining hududlari uchun ekologik vaziyatning hisoblangan koeffitsientlari bilan tabiiy va iqtisodiy hududiy tizimlar aniqlandi. Shunday qilib, fazoviy tahlil va ekologik vaziyatni baholash natijasida

[1] Muallif ishlanmasi

hududiy tabiiy va antropogen tipologik tizimlar aniqlanadi, ular keyinchalik tadqiqot maqsadiga erishishning muhim parametrlari sifatida baholanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashda “yashil iqtisodiyot” tamoyillari nafaqat ekologik barqarorlikni, balki milliy iqtisodiyotning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta’minlovchi muhim omil hisoblanadi. Boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish jarayonida innovatsion yondashuvlardan foydalanish iqtisodiy tizimlarning tashqi ekologik va iqtisodiy tahdidlarga nisbatan bardoshliligini oshiradi, resurslardan tejamkor va samarali foydalanishga zamin yaratadi.

O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, “yashil” iqtisodiy siyosatni amalga oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, chiqindisiz ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etish hamda uglerod neytralligiga erishish iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Shu bilan birga, ekologik xavflarni baholash, raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish va “yashil” innovatsiyalarni kengaytirish iqtisodiy siyosatni shakllantirishda strategik ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. To’xliyev N.. Mintaqaviy iqtisodiy integratsiya. – T.: O’zME. 2020, - 204 b.

2. Ахмедов Т.М. Регулирование территориальной организации производительных сил и комплексного развития регионов Узбекистана. - Т.: Фан, 1995. - 231 с.

3. Юсупов А. Т. Развитие и размещение производства товаров народного потребления региона: на материалах промышленности Узбекистана: диссертация доктора экономических наук: / Академия наук Республики Узбекистан. - Ташкент, 1991. - 298 с.

4. Садиков А.М. Основы регионального развития: теория, методология, практика. – Т.: Иктисод-молия, 2005. – 279 с.

5. Ahmedov E.A. va b. - Mintaqaviy iqtisodiyot. T., 2003. – 304 b.

6. Qayumov A.A., F.T.Egamberdiyev va b. - Mintaqaviy iqtisodiyot. T., 2004. – 116 b.

7. Рўзметов Б. Комплексное развитие региона в условиях углублении экономических реформ. Автореф. дис. д.э.н. –Т.: 1997. – 41 с.

8. Низамов А. Б. Экономический механизм восстановления эквивалентности обмена между сельскохозяйственными и промышленными отраслями (на примере Бухарской области Узбекистана). Автореферат на соис. уч. степ. к.э.н.. – М.: 1993. – 17 с.

9. Yavmutov.D.SH. “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish sharoitida mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish metodologiyasini takomillashtirish. i.f.d. (DSc) ilmiy daraja olish uchun diss. Avtoreferati. BuxDU, 2024y.

10. Raxmatullayeva.F.M. Globallashuv sharoitida O‘zbekiston Respublikasi mintaqalari iqtisodiyotida tarkibiy o‘zgarishlarni takomillashtirish i.f.d. (DSc) ilmiy daraja olish uchun diss. Avtoreferati. BuxDU, 2025y.;

11. Qulmatov A.A.. Mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning barqaror rivojlanish omillari. Iqtisod va moliya. 2020, 2(134). – B. 152-158.

O‘ZBEKISTONDA SUG‘URTA KOMPANIYALARINING INVESTITSION FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

Haqberdiyev Bekzod Uktamovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti PhD.,
mustaqil tadqiqotchisi.
ORCID: 0009-0003-4580-4520
E-mail: bekzoduktamovich007@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekiston sug‘urta bozorining rivojlanish tendensiyalari, sug‘urta kompaniyalarining investitsion faoliyatidagi mavjud muammolar hamda ularni takomillashtirish yo‘llari tahlil qilinadi. Sug‘urta kompaniyalari moliyaviy barqarorlikni ta’minlash va raqobatbardoshligini oshirish uchun investitsion faoliyatni samarali tashkil etishlari zarurligi asoslab berilgan. Shuningdek, maqolada xorijiy tajriba asosida investitsion portfelni diversifikatsiya qilish, xavf-xatarlarni boshqarish va tartibga soluvchi-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan. Ilmiy-uslubiy yondashuvlar asosida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar sug‘urta sohasida investitsiyaviy faollikni oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: sug‘urta kompaniyalari, investitsiya portfeli, risklarni boshqarish, sug‘urta bozori, investitsion muhit, xalqaro tajriba, huquqiy-me’yoriy baza, kapital oqimi, diversifikatsiya, ESG investitsiyalar, O‘zbekiston sug‘urta sektori.

Аннотация

В статье анализируются тенденции развития страхового рынка Узбекистана, существующие проблемы в инвестиционной деятельности страховых компаний и пути их совершенствования. Обоснована необходимость эффективной организации инвестиционной деятельности для обеспечения финансовой устойчивости и повышения конкурентоспособности страховых компаний. Также даны рекомендации по диверсификации инвестиционного портфеля, управлению рисками и совершенствованию регулирующе-правовых механизмов на основе зарубежного опыта. Предложенные рекомендации, разработанные на основе научно-методического подхода, могут способствовать повышению инвестиционной активности в страховом секторе.

Ключевые слова: страховой рынок, инвестиционная деятельность, финансовая устойчивость, диверсификация, зарубежный опыт, управление рисками

Abstract

This article analyzes the development trends of the insurance market of Uzbekistan, existing problems in the investment activities of insurance companies and ways to improve them. The need for insurance companies to effectively organize investment activities in order to ensure financial stability and increase their competitiveness is substantiated. The article also provides recommendations on diversifying the investment portfolio, risk management and improving regulatory and legal mechanisms based on foreign experience. Proposals and recommendations

developed on the basis of scientific and methodological approaches can serve to increase investment activity in the insurance sector.

Keywords: insurance companies, investment portfolio, risk management, insurance market, investment environment, international experience, legal and regulatory framework, capital flow, diversification, ESG investments, Uzbekistan's insurance sector.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida sug‘urta bozori mamlakat moliyaviy tizimining ajralmas tarkibiy qismi sifatida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Sug‘urta kompaniyalari nafaqat moliyaviy himoya funksiyasini bajaradi, balki investitsiyaviy faoliyat orqali iqtisodiyotning turli sohalariga kapital yo‘naltiruvchi muhim moliyaviy institut sifatida ham maydonga chiqmoqda. Shu jihatdan, O‘zbekistonda sug‘urta sohasini isloh qilish, uning investitsion salohiyatini oshirishga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-martdagi PQ–108-son Qarori — “Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to‘g‘risida[1]”gi farmonida sug‘urta tashkilotlarining investitsion faoliyatini kengaytirish bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida[2]”gi Qonuni (2022-yil 25-fevraldan kuchga kirgan)da sug‘urta tashkilotlarining investitsiyaviy operatsiyalari, aktivlarni joylashtirish prinsiplari va ularning moliyaviy barqarorligini ta’minlashga oid normalar belgilangan.

Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 4-iyundagi 350-son qarori bilan tasdiqlangan “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida[3]” ham sohaga oid muhim hujjat hisoblanadi. Ushbu me’yoriy-huquqiy bazaning mavjudligiga qaramay, sug‘urta kompaniyalarining investitsion faoliyatida hali to‘liq samaradorlikka erishilmagan, investitsiya yo‘nalishlari cheklangan, moliyaviy vositalar turlari kam va xavf menejmenti yetarli darajada rivojlanmagan.

Shu sababli, O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalarining investitsion faoliyati holati, uni cheklab turgan omillar va mavjud salohiyatdan to‘liq foydalanish imkoniyatlari statistik tahlillar asosida o‘rganiladi. Shuningdek, xorijiy tajriba asosida sug‘urta kompaniyalarining investitsiyaviy faoliyatini takomillashtirish yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar bugunga qadar dolzarb masala ekanligi o‘z tasdig‘ini topmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy olimlardan J.F. Outreville o‘zining “Theory and Practice of Insurance” asarida sug‘urta kompaniyalarining investitsion faoliyatini samarali tashkil etish uchun ularning aktivlarini uzoq muddatli, barqaror va daromadli yo‘nalishlarga yo‘naltirishi zarurligini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, aktivlar boshqaruvida asosiy urg‘u risklarni diversifikatsiyalash va moliyaviy barqarorlikni saqlashga qaratilishi kerak [4].

Shuningdek, J.D. Cummins va M.A. Weiss tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda AQSh sug‘urta sektori misolida kompaniyalarning tizimli xavflarga qarshi turish qobiliyati va ularning investitsiyaviy strategiyalari tahlil qilingan. Ular sug‘urta

kompaniyalari kapital oqimini samarali boshqarishi uchun qat'iy nazorat tizimi va shaffof hisobdorlik mexanizmlari muhimligini ta'kidlaydi [5].

Yana bir muhim manba sifatida, Swiss Re Institute tomonidan e'lon qilinadigan global hisobotlarda sug'urta kompaniyalarining investitsion faoliyatidagi tendensiyalar, texnologik innovatsiyalar va ESG (atrof-muhit, ijtimoiy va boshqaruv) tamoyillariga asoslangan investitsiyalar roli keng yoritiladi. Ularning fikricha, barqaror investitsiyaviy muhit va yaxshi boshqaruv tizimi mavjud bo'lgan sug'urta kompaniyalari raqobatbardosh ustunlikka ega bo'ladi [6].

Sug'urta kompaniyalarining investitsion faoliyatini takomillashtirish borasida olib borilgan tadqiqotlar ushbu sohaning iqtisodiy rivojlanishga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi muhim moliyaviy institut sifatida shakllanayotganini ko'rsatadi. Masalan, mahalliy iqtisodchi olimlardan N.M. Babaeva o'z ishida O'zbekistondagi sug'urta kompaniyalarining investitsion faoliyat samaradorligini oshirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash masalalarini ko'rib chiqadi. U qayd etadi, kompaniyalar hozirda asosan bank omonatlari va qimmatli qog'ozlarga sarmoya qilishga tayanmoqda, ammo portfel diversifikatsiyasida anketa yetishmaydi va real aktivlar (ko'chmas mulk, kreditlar) yo'nalishida sarmoyalar o'sib bormoqda. Babaeva shuningdek, regulyatorlik islohotlari, davlat investitsiya strategiyalari va xalqaro reyting standartlarini joriy etish zarurligini ta'kidlaydi [7].

K.B. Zaripov sug'urta bozorining O'zbekiston iqtisodiyotidagi o'rni, sug'urta kompaniyalarining investitsion faoliyatining hozirgi holati, bozor strukturasining zaifliklari va rivojlanish istiqbollari haqida mulohazalar beradi. U ta'kidlaydiki, sug'urta kompaniyalarining investitsiyalari ko'pincha risk past bo'lgan aktivlarga yo'naltiriladi, yuqori riskli lekin yuqori daromad keltiruvchi aktivlardan ehtiyotkorona foydalanish kerak. Zaripov "xorijiy va mahalliy olimlar fikrlari"ni tahlil qilish orqali bozor infratuzilmasini kuchaytirish va investitsiya qobiliyatini oshirish bo'yicha takliflar keltiradi [8].

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda O'zbekistonda sug'urta kompaniyalarining investitsion faoliyatini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqish maqsad qilingan. Shu asosda quyidagi metodologik yondashuvlar qo'llanildi:

Ekspert baholash va nazariy tahlil. Mahalliy va xorijiy olimlarning qarashlari, ilmiy maqolalari (J.F. Outreville, Cummins & Weiss, N.M. Babaeva va K.B. Zaripov) asosida investitsion samaradorlik va xavf boshqaruvi tizimi bo'yicha nazariy asoslar ko'rib chiqildi.

Tahliliy-uslubiy yondashuv. Sug'urta kompaniyalarining investitsion faoliyatini tashkil etish, aktivlar portfeli tuzilmasi va investitsiya yo'nalishlari bo'yicha mavjud statistik ma'lumotlar asosida tahliliy xulosalar berildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Iqtisodiyot va moliya vazirligi va Kapital bozorini rivojlantirish agentligining ochiq ma'lumotlari asosida 2020–2024-yillar oralig'idagi ko'rsatkichlar o'rganildi.

Taqqoslash metodi. O‘zbekiston sug‘urta bozoridagi investitsiyaviy faoliyat xalqaro amaliyot bilan solishtirildi. Xususan, Swiss Re, OECD, va boshqa ilg‘or davlatlar (AQSh, Yaponiya, Janubiy Koreya) sug‘urta sektorlarining investitsion modeli bilan taqqoslab, farqlar va o‘xshashliklar aniqlab chiqildi.

Sistemali yondashuv. Sug‘urta kompaniyalari faoliyatini iqtisodiy tizimning boshqa institutlari bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqish orqali investitsion faoliyatga ta’sir etuvchi omillar (huquqiy baza, fiskal siyosat, moliyaviy infratuzilma) tizimli tarzda o‘rganildi.

Grafik va statistik metodlar. Sug‘urta kompaniyalarining investitsion aktivlari, ularning taqsimoti va daromadliligi bo‘yicha grafik va diagrammalar tuzilib, ularning asosida vizual tahlil amalga oshirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston sug‘urta bozorida so‘nggi yillarda investitsion faoliyat hajmi ortib borayotgan bo‘lishiga qaramasdan, sug‘urta kompaniyalarining ushbu yo‘nalishdagi imkoniyatlari to‘liq safarbar etilmayapti. Iqtisodiyot va moliya vazirligi va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yil holatiga ko‘ra, sug‘urta kompaniyalari tomonidan yo‘naltirilgan jami investitsiyalar hajmi 6,5 trillion so‘mni tashkil qilgan. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 15 foizga o‘sganini bildiradi. Investitsiya portfeli tarkibini tahlil qilganda quyidagi asosiy yo‘nalishlar ajralib turadi: 70,1 foiz — tijorat banklaridagi depozitlar; 19,9 foiz — davlat va korporativ qimmatli qog‘ozlar; 6,9 foiz — ko‘chmas mulk obyektlariga investitsiyalar; 3,1 foiz — boshqa investitsiya vositalari (masalan, investitsion fondlar, lizing aktivlari va boshqalar). Ushbu ma’lumotlarni batafsil quyidagi jadval orqali yillar kesimida kuzatishimiz mumkin (1-jadval).

1-jadval

Sug‘urta kompaniyalarining investitsion portfeli taqsimoti (foizda)[1]

Investitsiya yo‘nalishi	2020	2021	2022	2023	2024
Depozitlar (banklardagi)	65.0	66.5	68.0	69.0	70.1
Qimmatli qog‘ozlar	20.0	19.8	19.5	19.7	19.9
Ko‘chmas mulk	8.0	7.5	7.0	6.8	6.9
Boshqa investitsiyalar	7.0	6.2	5.5	4.5	3.1

Mazkur jadval O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan sug‘urta kompaniyalarining investitsion portfeli tarkibini so‘nggi 5 yil kesimida aks ettiradi. Depozitlar asosiy investitsiya yo‘nalishi sifatida saqlanib qolmoqda. 2024-yil holatiga ko‘ra, kompaniyalar o‘z aktivlarining 70,1 foiz qismini tijorat banklaridagi omonatlarga joylashtirgan. Bu esa, bir tomondan, likvidlik va xavfsizlikni ta’minlasa-da, boshqa tomondan, portfelning foydalilik darajasini cheklab qo‘yadi. Qimmatli qog‘ozlarga investitsiyalar deyarli o‘zgarmagan — bu yo‘nalish atrofida 19–20 foiz oralig‘ida harakatlanmoqda. Bu holat O‘zbekistonda obligatsiyalar va korporativ qimmatli

[1]Muallif ishlanmasi

qog‘ozlar bozorining hali to‘liq shakllanmaganidan dalolat beradi. Ko‘chmas mulk investitsiyalarining ulushi yildan-yilga pasayib bormoqda. Bu esa yoki aktivlarning likvidligi pastligi, yoki rieltorlik bozorida ishonchsizlik mavjudligidan dalolat bo‘lishi mumkin. Boshqa investitsiya vositalari (masalan, investitsion fondlar, ijara asosidagi aktivlar, xalqaro aktivlar) juda kam ulushga ega (2024 yilda 3,1 foiz). Bu esa kompaniyalar diversifikatsiyalash imkoniyatlaridan yetarli darajada foydalanmayotganini ko‘rsatadi.

Portfelning tarkibiy tahlili asosida aytish mumkinki, kompaniyalar xavfsiz investitsiyalarni tanlayotgan bo‘lsa-da, strategik daromadlilik va risklarni boshqarish nuqtai nazaridan bu optimal yondashuv emas. Portfelni diversifikatsiyalash va yangi moliyaviy instrumentlar bilan ishlash orqali bu holatni sezilarli darajada yaxshilash mumkin.

Bu ko‘rsatkichlar shuni ko‘rsatadiki, sug‘urta kompaniyalari o‘z investitsion portfellarini asosan kam riskli, lekin past daromadli yo‘nalishlarga yo‘naltirmoqda. Outreville tomonidan qayd etilganidek [9], sug‘urta kompaniyalari barqaror daromad olish bilan bir qatorda aktivlarning xavfsizligi va likvidligini ham e’tiborda tutishi zarur. Biroq portfelning yuqori darajada konservativ bo‘lishi, kompaniyalar uchun foydalilik darajasining pastligiga olib kelmoqda.

Bundan tashqari, sug‘urta kompaniyalari tomonidan risklarni boshqarish tizimi yetarli darajada rivojlanmagan. Xalqaro reyting agentliklarining (Swiss Re, 2024) hisobotlarida qayd etilishicha, O‘zbekiston sug‘urta kompaniyalarining investitsion strategiyalari yetarli darajada diversifikatsiyalanmagan, moliyaviy instrumentlar bozori esa cheklanganligicha qolmoqda [10].

Sug‘urta kompaniyalarining investitsion faoliyati iqtisodiyotdagi moliyaviy vositachilik tizimining muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Sug‘urta tashkilotlari tomonidan to‘plangan premiyalar va zaxira mablag‘lar iqtisodiy muomalaga investitsiyalar orqali qayta jalb etiladi. Bu holat investitsion kapital oqimini shakllantirishda sug‘urta sektorining o‘rni tobora ortayotganini anglatadi.

Nazariy jihatdan, sug‘urta kompaniyalari investitsiyalarining hajmi va samaradorligi bir necha omillar — ya’ni investitsion muhitning barqarorligi, moliyaviy bozor infratuzilmasi, tartibga soluvchi qonunchilik, aktivlarni boshqarish sifati va kompaniyalarning riskga nisbatan yondashuvlariga bevosita bog‘liq. Shuningdek, Markovitzning portfel nazariyasi asosida qaralganda, kompaniyalar optimal rentabellik va xavfni muvozanatlashtirish orqali investitsion portfelini shakllantirishi lozim.

O‘zbekiston sug‘urta sektori kontekstida yuqoridagi nazariy asoslar cheklangan darajada amalda qo‘llanmoqda. Kompaniyalar asosan xavfsiz va yuqori likvidli vositalarga — tijorat banklaridagi depozitlarga tayanmoqda, bu esa portfelning

rentabellik salohiyatini cheklaydi. Shunga qaramay, so‘nggi yillarda investitsion faoliyat hajmi ijobiy dinamika bilan o‘sib bormoqda.

Quyidagi rasmda 2019–2024-yillar davomida, o‘rganilgan tendensiyalarga ko‘ra, sug‘urta kompaniyalari tomonidan amalga oshirilgan jami investitsiyalar hajmidagi o‘zgarishlar aks ettirilgan (1-rasm).



1- rasm. Sug‘urta kompaniyalarining investitsion faoliyati hajmi, trln. so‘mda (2019–2024 yillar) [11]

Yuqoridagi rasm tahlili natijasida ushbu asosiy tendensiyalarni kuzatish mumkin, 2019-yildan boshlab investitsion hajm yildan-yilga barqaror o‘sib borgan, 2019-yilda 4,1 trillion so‘m bo‘lgan ko‘rsatkich 2024-yilda 6,5 trillion so‘mga yetgan. Bu esa 56 foizdan ortiq real o‘sishni bildiradi. Bu o‘sish asosan aktivlar hajmining oshishi, sug‘urta mukofotlarining ko‘payishi va kompaniyalarning moliyaviy salohiyati yaxshilanishi hisobiga yuzaga kelgan. Shunga qaramasdan, o‘sish sur’ati sekin, chunki investitsiyalarning yo‘nalishlari cheklangan, kapital bozorida samarali instrumentlar yetishmaydi. Investitsiya hajmining o‘sib borishi ijobiy tendensiya bo‘lib, kompaniyalarning moliyaviy rolini kuchaytirayotganini ko‘rsatadi. Biroq, bu o‘sishni sifat jihatidan ham oshirish zarur. Faqat hajm emas, balki portfelning diversifikatsiyasi va rentabelligi ham e’tiborga olinishi kerak.

O‘zbekiston sug‘urta bozori so‘nggi yillarda bosqichma-bosqich liberallashib bormoqda. Hukumat tomonidan qabul qilinayotgan strategik hujjatlar — jumladan, “Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to‘g‘risida” doirasida qabul qilingan iqtisodiy islohotlar, sug‘urta sektorini moliyaviy vositachi sifatida faollashtirishga qaratilgan. Amaldagi normativ-huquqiy baza sug‘urta sohasida bozor mexanizmlarini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, mazkur tartibotlar investitsiya faoliyatini yanada samarali yo‘lga qo‘yish bo‘yicha ba’zi jihatlarda takomillashtirishni talab etadi. Xususan, aktivlarni joylashtirish bo‘yicha mavjud cheklovlar, soliq tartibotlari va nazorat mexanizmlari

sug‘urta tashkilotlarining investitsiya siyosatini amalga oshirishida ehtiyotkorlik bilan yondashishni talab qiladi. Ushbu omillar esa kompaniyalar tomonidan investitsiya faoliyatini yanada moslashuvchan va diversifikatsiyalashgan shaklda yuritishga muayyan ta’sir ko‘rsatmoqda. Bundan tashqari, xalqaro standartlarga mos moliyaviy hisobot berish, ESG tamoyillarini joriy etish, xavflarni baholash mexanizmlarining sustligi — sektorning zamonaviy investitsion yo‘nalishlarga chiqish imkoniyatlarini cheklab qo‘ymoqda.

Yana bir muhim omil — bu sug‘urta kompaniyalarining o‘z ichki boshqaruv tizimidagi cheklovlaridir. Ko‘plab kompaniyalar professional aktivlar menejmentiga ega emas, portfel boshqaruvi ko‘pincha qisqa muddatli maqsadlar bilan cheklangan. Holbuki, zamonaviy investitsion strategiyalar uzoq muddatli barqarorlik, riskni diversifikatsiyalash va ijtimoiy mas’uliyat tamoyillariga asoslanadi.

Shunday qilib, O‘zbekistonda sug‘urta bozorini liberallashtirish va moliyaviy sektorni isloh qilish bo‘yicha sezilarli qadamlar qo‘yilgan bo‘lsa-da, ularning real amaliy samarasi to‘liq namoyon bo‘lmagan (2-jadval).

2-jadval

Sug‘urta kompaniyalarining investitsion faoliyatiga ta’sir qiluvchi asosiy muammolar tasnifi [11]

Muammo	Tavsiya etilgan yechimlar
Investitsion portfelning diversifikatsiyasi yetarli emas	Moliyaviy vositalar turini kengaytirish, yangi aktivlarga investitsiya qilish
Moliyaviy bozor infratuzilmasi rivojlanmagan	Bozor infratuzilmasini yaxshilash, investitsiyalar uchun qulay sharoit yaratish
ESG tamoyillariga mos investitsiyalar yetishmasligi	Barqaror investitsiya mexanizmlarini joriy etish va ijtimoiy mas’uliyatni oshirish

Ushbu jadval sug‘urta kompaniyalari investitsion faoliyatiga to‘siq bo‘layotgan muammolarni aniqlab, ularga nisbatan real va amaliy yechimlar taklif qiladi:

diversifikatsiyaning pastligi sug‘urta portfellarini xavfga nisbatan zaif holatda qoldiradi. Bu esa daromadlilikni kamaytiradi va tizimli risklarni oshiradi. Yechim sifatida, kompaniyalar yangi moliyaviy vositalarga (masalan, korporativ obligatsiyalar, REIT, xalqaro fondlar) yo‘naltirilishi lozim;

moliyaviy bozor infratuzilmasi zaifligi ham asosiy muammo bo‘lib, ko‘plab investitsion yo‘nalishlarning mavjud emasligi yoki samarali ishlamasligi kompaniyalarni tor doirada faoliyat yuritishga majbur qiladi;

ESG investitsiyalarining sustligi esa xalqaro tendensiyalardan orqada qolish holatini ko‘rsatadi. Bugungi kunda atrof-muhitga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan, ijtimoiy mas’uliyatli va korporativ boshqaruvga asoslangan investitsiyalar tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Sug‘urta kompaniyalari bu sohada faolroq bo‘lishi kerak. Bu jadval

orqali aniqlangan muammolarni bartaraf etish sug‘urta kompaniyalarining investitsion salohiyatini nafaqat kengaytiradi, balki ularning mamlakat iqtisodiyotiga ko‘rsatayotgan ta’sirini ham kuchaytiradi.

Yuqorida olib borilgan tahlillar sug‘urta kompaniyalarining investitsion faoliyati mamlakat iqtisodiyotining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda muhim o‘rin tutishini ko‘rsatdi. O‘zbekiston sharoitida bu imkoniyatlardan to‘liq foydalanish yo‘lida muayyan yutuqlar bilan birga, tizimli cheklovlar ham mavjud. Grafik va jadvallar orqali aniqlangan tendensiyalar, mavjud muammolar va ular bo‘yicha taklif etilgan yechimlar, sohani chuqurroq isloh qilish zaruriyatini ta’kidlaydi. Shu boisdan, keyingi bosqichda aniq va amaliy takliflarga asoslangan yondashuvni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Sug‘urta sohasidagi investitsiyaviy faoliyat ko‘plab omillarga, jumladan normativ-huquqiy tartibot, bozordagi raqobat darajasi, makroiqtisodiy sharoitlar va risklarni boshqarish tizimlariga bevosita bog‘liq. Ushbu tadqiqotda O‘zbekiston sug‘urta bozorining investitsiyaviy faoliyati taqqoslash metodi asosida xalqaro amaliyot bilan solishtirilib, farqlar va o‘xshashliklar tahlil qilindi. Tahlil doirasida Swiss Re instituti, OECD hisobotlari va AQSh, Yaponiya hamda Janubiy Koreya sug‘urta sektorlariga oid ochiq statistik ma’lumotlar o‘rganildi. Sug‘urta kompaniyalari investitsiya siyosatini yuritishda odatda uchta asosiy tamoyil – xavfsizlik, likvidlik va daromadlilik (rentabellik) o‘rtasida muvozanatni saqlashi zarur. Ushbu model iqtisodiy nazariyada “sarmoyaviy uchburchak” (investment triangle) deb yuritiladi. Ilg‘or davlatlar (AQSh, Yaponiya) ushbu uchlikni riskga asoslangan boshqaruv tizimlari orqali muvozanatlashtirib, yuqoriroq rentabellikka erishmoqda. O‘zbekistonda esa xavfsizlik va likvidlik yuqori ustuvorlikka ega bo‘lgani sababli portfellar nisbatan konservativ shakllangan (3-jadval).

3-jadval

Sug‘urta kompaniyalarining investitsiyaviy faoliyati: O‘zbekiston va ilg‘or davlatlar taqqoslanishi [12]

Ko‘rsatkichlar	O‘zbekiston	AQSh	Yaponiya	Janubiy Koreya
Investitsiya portfeli tarkibi	60–70% davlat obligatsiyalari, 20% depozitlar	Diversifikatsiyalashgan: aksiyalar, obligatsiyalar, ko‘chmas mulk	60% davlat obligatsiyalari, 30% korporativ obligatsiyalar	O‘rtacha darajadagi diversifikatsiya
Riski boshqarish modeli	Prudensial cheklovlar asosida	Risk-Based Capital (RBC) tizimi	Solvency II elementi mavjud	RBC + aktuar nazorat
Tartibga solish yondashuvi	Konservativ, qat’iy normativlar	Moslashuvchan va xavfga asoslangan	Markazlashgan va qat’iy	Raqamlashtirilgan va moslashuvchan

Ko‘rsatkichlar	O‘zbekiston	AQSh	Yaponiya	Janubiy Koreya
Likvidlik siyosati	Yuqori likvidlik ustuvor	Likvidlik va rentabellik balansi	Uzoq muddatli aktivlar bilan qoplangan	O‘rtacha risk-balans yondashuvi
O‘rtacha investitsiya rentabelligi	3–5% (O‘zsug‘urta assotsiatsiyasi, 2023)	6–8% (NAIC, 2022)	4–6% (OECD, 2021)	5–7% (KIRI, 2023)

Taqqoslash natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston sug‘urta bozori ehtiyotkor yondashuvga asoslangan bo‘lib, aktivlar asosan past riskli moliyaviy vositalarga joylashtiriladi. Bu esa barqarorlikni ta’minlasa-da, rentabellikni cheklaydi. Ilg‘or tajribalar esa risklarni aniq baholab, aktiv portfellarni kengroq diversifikatsiya qilish, uzoq muddatli aktivlarga sarmoya kiritish va zamonaviy risk boshqaruv tizimlarini qo‘llash orqali yuqoriroq investitsiyaviy natijalarga erishayotganini ko‘rsatmoqda. Shu bois, O‘zbekistonda mavjud tartibotlarni moslashuvchanlashtirish, risk asosida boshqaruv tizimlarini joriy qilish, va aktivlarni kengroq segmentlarga investitsiyalashga sharoit yaratish orqali sug‘urta sektorining investitsiyaviy salohiyatini yanada oshirish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekiston sug‘urta sektori iqtisodiyotda investitsion vositachi sifatida faol ishtirok etayotgan bo‘lsa-da, bu yo‘nalishdagi salohiyat to‘liq ishga solinmagan. Investitsiya portfellari asosan qisqa muddatli va past daromadli vositalarga yo‘naltirilgan. Bunga bozor infratuzilmasining rivojlanmaganligi, kompaniyalarning investitsion strategiya yuritishdagi tajriba yetishmovchiligi sabab bo‘lmoqda. Shu bilan birga, davlat tomonidan qabul qilinayotgan strategik hujjatlar va islohotlar bu borada ijobiy sur’atda rivojlanish uchun zamin yaratmoqda.

1. Investitsion portfelni diversifikatsiyalash imkoniyatlarini kengaytirish. Sug‘urta kompaniyalari asosan tijorat banklaridagi depozitlarga yoki davlat obligatsiyalariga sarmoya kiritmoqda, bu esa portfel rentabelligini pasaytiradi. Sug‘urta kompaniyalarining investitsion portfellarini diversifikatsiyalash imkoniyatlarini kengaytirish uchun sug‘urta tashkilotlari uchun yangi moliyaviy instrumentlarga, jumladan aksiyalar, korporativ obligatsiyalar va ko‘chmas mulkka sarmoya kiritish imkoniyatlarini yaratish lozim. Investitsiya faoliyatini samarali boshqarish maqsadida kompaniyalarda professional investitsiya menejerlarini jalb qilish va zamonaviy risk boshqaruv tizimlarini joriy etish muhim hisoblanadi.

2. Xalqaro standartlarga mos investitsion boshqaruv tizimini joriy etish. Kompaniyalar investitsion faoliyatni barqaror va shaffof yuritishi uchun IFRS (International Financial Reporting Standards) va ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillariga mos strategiyalarni joriy etishi lozim. Buning uchun

Markaziy bank yoki boshqa regulyator organ tomonidan metodik qo‘llanmalar, tavsiyalar ishlab chiqilishi, xodimlar uchun treninglar tashkil etilishi zarur.

3. Raqamlashtirish va investitsion shaffoflikni oshirish. Sug‘urta kompaniyalarining investitsion faoliyati bo‘yicha ochiq, onlayn hisobot tizimini yaratish — investorlar ishonchini mustahkamlash bilan birga, kompaniyalar o‘rtasida sog‘lom raqobatni kuchaytiradi. Elektron axborot platformalari orqali sarmoya oqimlari, investitsion portfellarning tarkibi va samaradorligi haqida muntazam tahliliy ma’lumotlar e’lon qilinishi kerak.

4. Investitsiyalarning xavfsizligini ta’minlash uchun davlat ishtirokidagi sug‘urta fondlari yoki kafolat markazlari faoliyatini kengaytirish, shuningdek, ilg‘or xorijiy mamlakatlardagi amaliyotlarni hisobga olgan holda, investitsiyalarning kafolatlanishini mustahkamlash foydali bo‘ladi. Bu kabi yondashuvlar investitsiya faoliyatining barqarorligini oshirishga yordam beradi.

5. Sug‘urta sektorida institutsional islohotlarni chuqurlashtirish. Investitsion faoliyat samaradorligi nafaqat moliyaviy vositalar mavjudligiga, balki institutlar sifati va ishonchliligiga ham bog‘liq. Shu boisdan, ularning professional salohiyati hamda monitoring tizimi zamonaviylashtirilishi kerak. Bundan tashqari, fuqarolik jamiyati ishtiroki, mustaqil reyting agentliklari va tahliliy markazlarning faoliyati rag‘batlantirilishi lozim.

Shu tarzda, sug‘urta kompaniyalarining investitsion faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha ilgari surilgan takliflar nafaqat sektor ichidagi tizimli muammolarni bartaraf etishga, balki butun moliyaviy bozorning barqarorligi va investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi. Yangi yondashuvlar, diversifikatsiya, institutsional islohotlar, raqamlashtirish va xalqaro standartlarga moslashuv hamda sug‘urta kompaniyalarini iqtisodiyotda faol va samarali moliyaviy institutlar sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotlar orqali shakllantirilgan mazkur ilmiy takliflar amaliy jihatdan amalga oshirilsa, sug‘urta sektori investitsiyalarni jalb qilish va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishda muhim tayanchga aylanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni 2-avgust 2022-yil — “Sug‘urta xizmatlari bozorini isloh qilish va moliyaviy barqarorlikni ta’minlash to‘g‘risida”. PF–154-son https://lex.uz/uz/docs/-6824178

2. O‘zbekiston Respublikasi “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni — 23-noyabr 2021-yil. O‘RQ-730-son https://lex.uz/docs/-5739117

3. O‘zbekiston Respublikasi “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni — 25-dekabr 2019-yil. O‘RQ-598-son https://lex.uz/docs/-4664142

4. J. Francois Outreville. Springer Science & Business Media, 1998 — P: 340. Short link: https://surl.li/djvrum

5. Cummins J. D., Weiss M. A. Analyzing firm performance in the insurance industry using frontier efficiency and productivity methods //Handbook of insurance. – 2013. – С. 795-861. Short link: https://surl.li/wduxhg

6. Swiss Re: sigma 2/2025: World insurance: a riskier, more fragmented world order. Short link: https://surl.lu/qiglqk

7. Babaeva N. M. Improving The Efficiency of Investment Activities of Insurance Companies As A Guarantee of Their Financial Stability //Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance. – 2025. – Т. 6. – №. 3. – P. 933-940.

8. Bakhodirovich Z. K. Prospects for the Development of the Insurance Market in the National Economy //The Peerian Journal. – 2022. – Т. 11. – P. 1-8.

9. J. François Outreville. // Operations of Insurance Companies. // Theory and Practice of Insurance – pp.221-232.

10. Swiss Re'ning 2024-yilga oid "sigma 3/2024: World insurance: strengthening global resilience with a new lease of life".

11. Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy veb sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi – https://www.imv.uz/

12. Swiss Re Institute global report of insurance rasmiy veb sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi – Short link: https://surl.li/uacchq

O‘ZBEKISTONDA BARQAROR IQTISODIY O‘SISH VA ATROF MUHIT MUHOFAZASINI TA’MINLASH MAQSADIDA KICHIK BIZNES VA YASHIL LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI

Uskenbayeva Dilnoza Bakhodir qizi
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti,
Iqtisodiyot fakulteti, iqtisodiyot nazariyasi kafedrasi tayanch doktoranti
ORCID: 0000-0002-9229-1604
E-mail: uskenbaeva_d@nuu.uz

Annotatsiya

Maqolada O‘zbekistonda moliyaviy barqarorlikni ta’minlash hamda atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadida pul-kredit siyosati vositalarini “yashil” kreditlar va investitsiyalar bilan uyg‘unlashtirish masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, bu borada O‘zbekiston va xorij tajribalari, amaliy tavsiyalar hamda prognozlar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, tijorat banklari, maqsadli refinas, inflyatsiya, barqaror moliya, ekologik moliyalashtirish, davlat rejali dasturlari, pul-kredit siyosati, iqtisodiy barqarorlik.

Аннотация

В статье анализируются вопросы интеграции инструментов денежно-кредитной политики с «зелёными» кредитами и инвестициями в целях обеспечения финансовой стабильности и охраны окружающей среды в Узбекистане. Кроме того, приведены зарубежный и отечественный опыт, практические рекомендации и прогнозы по данной тематике.

Ключевые слова: зелёная экономика, коммерческие банки, целевое рефинансирование, инфляция, устойчивые финансы, экологическое финансирование, государственные программные проекты, денежно-кредитная политика, экономическая устойчивость.

Abstract

The article analyzes the issues of integrating monetary policy instruments with “green” loans and investments to ensure financial stability and environmental protection in Uzbekistan. It also presents international and domestic experiences, practical recommendations, and forecasts in this area.

Keywords: green economy, commercial banks, targeted refinancing, inflation, sustainable finance, environmental financing, state development programs, monetary policy, economic stability.

KIRISH

Yashil iqtisodiyot tushunchasi ilk bor 1972-yilda Stokgolm shahrida bo‘lib o‘tgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit bo‘yicha konferensiyasida ekologik jihatdan barqaror rivojlanish va iqtisodiy o‘sish jarayonlarini uyg‘unlashtirish zarurati sifatida ilgari surilgan. Mazkur konsepsiya 1992-yilda Rio-de-Janeyroda o‘tkazilgan “Atrof-muhit va taraqqiyot” sammitida yanada kengaytirilib, global iqtisodiyotning yangi paradigmasi sifatida e’tirof etildi. Hozirgi kunda yashil iqtisodiyot insoniyat taraqqiyotining muhim strategik yo‘nalishiga aylangan bo‘lib, rivojlangan va

rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan birini tashkil etadi.

O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda ekologik barqarorlik, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va “yashil” investitsiyalarni kengaytirish davlat siyosatining muhim tarkibiy qismiga aylandi. Xususan, Prezidentning 2019-yil 4-oktabrdagi PQ–4477-son qarori bilan tasdiqlangan “2019–2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasining Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” hamda 2022-yil 2-dekabrdagi PQ–436-son qarori orqali “2030-yilgacha yashil iqtisodiyotga o‘tish islohotlari samaradorligini oshirish” chora-tadbirlari belgilab berildi. “Yashil makon” milliy loyihasi doirasida esa ko‘p yillik daraxt ekish, chiqindilarni qayta ishlash, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha tizimli ishlar yo‘lga qo‘yilgan.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash maqsadida pul-kredit siyosatini modernizatsiya qilish, inflyatsiyani 5 foiz darajagacha pasaytirish va barqaror moliyaviy tizimni shakllantirish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bunday sharoitda iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish bilan bir qatorda, ekologik xavfsizlikni ta’minlash, ijtimoiy mas’uliyatni kuchaytirish va yashil moliyaviy instrumentlarni keng joriy etish dolzarb strategik vazifaga aylanmoqda.

Ushbu maqolaning ilmiy maqsadi — O‘zbekistonda bank-kredit tizimi vositasida yashil iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini, jumladan, yashil kreditlar, ESG (Environmental, Social, Governance) standartlarini joriy etish hamda maqsadli refinas vositalarini iqtisodiy barqarorlik bilan uyg‘unlashtirish imkoniyatlarini tahlil qilishdan iborat. Shu bilan birga, jahon tajribasini mahalliy sharoit bilan solishtirish asosida “yashil” moliyalashtirishning samaradorligini baholash, uning inflyatsiyaga, moliyaviy sektor barqarorligiga va milliy iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasiga ta’sirini aniqlash ham tadqiqotning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Natijada maqola O‘zbekistonda yashil iqtisodiyot konsepsiyasini amaliyotga joriy etishda bank sektorining rolini kuchaytirish, moliyaviy vositalarni ekologik ustuvorliklar bilan uyg‘unlashtirish hamda uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o‘sishning ilmiy asoslarini shakllantirishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqotda foydalanilgan ilmiy adabiyotlarda iqtisodiy siyosatni shakllantirishda asos bo‘luvchi ikki yirik makroiqtisodiy yo‘nalish — monetarizm va keynschilik yondashuvlari keng yoritilgan. Monetarizm tarafdorlari fikricha, iqtisodiy o‘sish va inflyatsiya jarayonlarini tartibga solishning eng muhim omili — bu pul massasi ustidan qat’iy nazoratni o‘rnatishdir. Mashhur amerikalik iqtisodchi Milton Fridman ta’kidlaganidek, *“inflyatsiya doimo va har qanday sharoitda pul massasining ortishi bilan bog‘liq jarayondir”*. U o‘z asarlarida iqtisodiy muvozanatni saqlash uchun pul emissiyasining hajmini cheklash zarurligini, inflyatsiyani qisqa va uzoq muddatli davrda aynan pul taklifini tartibga solish orqali jilovlash mumkinligini asoslab bergan.

Keynschilik esa buning aksiga, iqtisodiy jarayonlarda davlatning faol ishtirokini muhim deb biladi. Ingliz iqtisodchisi Jon Meynard Keyns 1936-yilda yozgan “Ish

o‘rinlari, foiz va pulning umumiy nazariyasi” asarida davlat xarajatlari va valyuta siyosatini o‘zgartirish orqali yalpi talabni boshqarish mumkinligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, davlatning investitsion xarajatlarni oshirishi yoki kamaytirishi inflyatsiya va bandlik darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Aynan shu yondashuv iqtisodiy inqiroz sharoitlarida ish o‘rinlarini saqlab qolish, ishlab chiqarish hajmini tiklash va moliyaviy barqarorlikni ta’minlash imkonini beradi.

2008-yilgi global moliyaviy inqiroz davrida AQSh Federal Rezerv tizimi raisi Ben Bernanke tomonidan amalga oshirilgan kengaytirilgan monetar siyosat choralariga — iste’mol kreditlarini oshirish, foiz stavkalarini pasaytirish va milliy qarzni ko‘paytirish — misol bo‘la oladi. Ushbu siyosat qisqa muddatda iqtisodiy faollikni qo‘llab-quvvatlagan bo‘lsa-da, inflyatsion bosimni kuchaytirgani bois iqtisodchilar o‘rtasida bahsli munozaralarga sabab bo‘lgan.

Hozirgi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotida ham mahalliy olimlar — A. Arifov, B. Xodiev, R. G‘ulomov va boshqalar — makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda pul-kredit hamda fiskal siyosatning rolini chuqur o‘rganmoqdalar. Masalan, Arifov A. (2020) o‘z tadqiqotida iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda faol pul-kredit choralarini joriy etish zarurligini ta’kidlagan bo‘lsa, Xodiev B. (2021) davlat byudjeti xarajatlari va mudofaa sohasiga yo‘naltirilayotgan mablag‘larning iqtisodiy faollikka ta’sirini tahlil qilgan.

Shuningdek, xalqaro moliya institutlari, jumladan Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg‘armasi va Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki tomonidan O‘zbekistonning yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayoni alohida e’tirof etilgan. Jahon banki hisobotlarida qayd etilishicha, *“O‘zbekistonda yashil moliyani rivojlantirish yo‘lida davlat va xususiy sektor faolligi ortib bormoqda”*. Misol tariqasida, Biznesni rivojlantirish banki va Ipoteka kompaniyasi tomonidan “yashil” obligatsiyalar chiqarilib, energiya samaradorligi va qayta tiklanuvchi energiya loyihalarini moliyalashtirish yo‘lga qo‘yilgan. Bu esa mamlakatda ekologik moliyaviy instrumentlarning shakllanayotganidan dalolat beradi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda iqtisodiy tahlilning zamonaviy yondashuvlari asosida statistik, taqqoslash, guruhlash, tahlil va sintez, abstrakt-mantiqiy, analitik hamda iqtisodiy-matematik usullar qo‘llanildi. Ma’lumotlar qiyosiy tahlil qilinib, iqtisodiy o‘sish, pul-kredit siyosati va inflyatsiya o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik aniqlashga qaratildi. Tadqiqot davomida O‘zbekiston Respublikasining yalpi ichki mahsuloti (YAIM), asosiy foiz stavkasi, inflyatsiya darajasi kabi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rganildi.

Natijada, muammolarni tezkor aniqlash va ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish imkonini beruvchi tahliliy model yaratildi. Shuningdek, olingan ma’lumotlar asosida yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda bank tizimi vositalarining samaradorligi, ESG standartlarini joriy etish darajasi va ularning inflyatsion jarayonlarga ta’siri chuqur tahlil qilindi. Tadqiqot yakunida amaliy tavsiyalar ishlab chiqilib, O‘zbekistonning yashil moliyalashtirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG – Sustainable Development Goals) nafaqat makroiqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlarini, balki ijtimoiy farovonlik va ekologik barqarorlikni ham o‘z ichiga oladi. Shu boisdan, zamonaviy pul-kredit siyosati nafaqat inflyatsiyani jilovlash va iqtisodiy faollikni rag‘batlantirish vositasi, balki keng ma’noda inklyuziv va “yashil” iqtisodiy o‘sishni ta’minlovchi mexanizm sifatida ham qaralmoqda.

Markaziy bank moliya sektorining asosiy regulyatori sifatida yashil moliyalashtirishni rag‘batlantirish orqali barqaror iqtisodiy o‘sishga bevosita ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Buning uchun tarmoq banklariga ekologik mezonlarga javob beruvchi loyihalarni qo‘llab-quvvatlash, toza energiya yo‘nalishidagi investitsiyalarni imtiyozli qayta moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish, hamda bank faoliyatida Environment, Social, Governance (ESG) tamoyillariga rioya etishni majburiy talab sifatida belgilash muhimdir. Bunday chora-tadbirlar BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG)dan 7-maqsad (toza va arzon energiya) va 13-maqsad (iqlim bo‘yicha chora-tadbirlar)ga erishishda moliyaviy sektorning rolini sezilarli darajada kuchaytiradi.

Yashil iqtisodiyot yo‘nalishidagi loyihalarga moliyaviy rag‘batlar yaratish iqtisodiy samaradorlik bilan birga, bozor va ijtimoiy foyda nuqtai nazaridan ham katta ahamiyatga ega. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda davlatga tegishli moliya institutlari mamlakatdagi umumiy kredit hajmining taxminan 70 foizini ajratadi va bu resurslarning muayyan qismini toza energiya, qayta tiklanuvchi manbalar, hamda barqaror qishloq xo‘jaligi yo‘nalishlariga yo‘naltirish imkoniga ega.

Prezident tashabbusi bilan tashkil etilgan “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” doirasida amalga oshirilayotgan mikroloyihalarning 35 foizi ekologik me’yorlarga mos “yashil” loyihalarga to‘g‘ri keladi. Bu esa mamlakatda ekologik mas’uliyatli tadbirkorlikni rag‘batlantirish, energiya tejamkor texnologiyalarni keng joriy etish va yangi ish o‘rinlari yaratish imkonini bermoqda.

2024-yil sentyabr oyidan boshlab O‘zbekiston moliyaviy bozorida birinchi “yashil” obligatsiyalar muomalaga kiritildi. Ushbu obligatsiyalarni Ipoteka qayta moliyalashtirish kompaniyasi chiqargan bo‘lib, ular milliy yashil standartlarga to‘liq moslashtirilgan. Mazkur moliyaviy instrumentlar xorijiy investorlar e’tiborini jalb etib, energetika, uy-joy kommunal xo‘jaligi va transport infratuzilmasi kabi sohalarda ekologik jihatdan samarali loyihalarni moliyalashtirishga xizmat qilmoqda.

Bunday mexanizmlar nafaqat moliya oqimlarini iqtisodiyotning ekologik samarali tarmoqlariga yo‘naltirish, balki xorijiy kapitalni jalb qilish, milliy kredit reytingini yaxshilash va investitsion muhitni barqarorlashtirish imkonini beradi. Shu tariqa, yashil moliyalashtirishning joriy etilishi O‘zbekiston iqtisodiyotining uzoq muddatli barqaror va past-uglerodli rivojlanishiga zamin yaratadi.

O‘zbekistonning “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” (2019–2030) doirasida 2030-yilgacha quyidagi asosiy maqsadlar belgilangan:

- energiya iste’molining kamida 30 foizini qayta tiklanuvchi manbalardan ta’minlash;

- suv resurslarini boshqarish samaradorligini oshirish;
- chiqindilarni qayta ishlash tizimini 40 foizga yetkazish;
- ekologik toza transport ulushini 25 foizgacha oshirish.

So‘nggi yillarda respublikada quyosh va shamol elektr stansiyalari, energiya tejamkor korxonalar, qayta tiklanuvchi resurslarga asoslangan ishlab chiqarish kabi ko‘plab yashil loyihalar amalga oshirila boshlandi. Biroq ularning hajmi va moliyaviy ta’minoti hali ham yetarli darajada emas. Shu sababli, tijorat banklari tomonidan maqsadli moliyalashtirish va yashil kredit liniyalarini kengaytirish zarur.

Respublika moliya tizimida yashil kreditlarning asosiy yo‘nalishlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi (1-rasm):

1. Energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan korxona loyihalari;
2. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish;
3. Atrof-muhitni muhofaza qilish infratuzilmasini rivojlantirish;
4. Barqaror qishloq xo‘jaligi va suvni tejash texnologiyalarini joriy etish;
5. Ekologik transport tizimlarini kengaytirish;
6. Chiqindilarni qayta ishlash va resurs aylanishini ta’minlash;
7. Yashil qurilish va energiya samarali uy-joylar qurilishi.

Mazkur yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar O‘zbekiston iqtisodiyotida ekologik mas’uliyat, moliyaviy barqarorlik va innovatsion rivojlanish o‘rtasida muvozanatni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Shu tariqa, yashil kreditlar milliy iqtisodiyotning yangi bosqich — barqaror o‘sish va ekologik muvozanat davriga o‘tishini ta’minlovchi muhim moliyaviy vosita sifatida shakllanmoqda.



1-rasm. O‘zbekistondagi yashil kreditlar maqsadi[1]

Yuqoridagi rasm tahlilidan xulosa qiladigan bo‘lsak, yashil kredit mexanizmlari orqali kichik tadbirkorlik subyektlariga ekologik jihatdan samarali texnologiyalarni joriy etish uchun qulay moliyaviy imkoniyatlar yaratilmoqda. Xususan, quyosh panellari, shamol generatorlari, biogaz uskunalari, shuningdek, energiya tejamkor isitkichlar va qozonlar xarid qilish uchun imtiyozli foiz stavkalari asosida kredit olish tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Bu esa, o‘z navbatida, energiya sarfini kamaytirish, ishlab

[1] Шерхонов И.А. Банкларнинг яшил иқтисодиётдаги роли. Қурилиш ва таълим илмий журнали 4-жилд, 1-сон. ISSN 2181-3779. 2025.

chiqarish xarajatlarini optimallashtirish hamda kichik biznes subyektlarining ekologik mas'uliyatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, O'zbekiston Respublikasida kichik va o'rta biznes doirasida amalga oshirilayotgan yashil loyihalar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Ularning aksariyati moliyaviy qo'llab-quvvatlashning aynan yashil kreditlar shaklida taqdim etilayotgan mexanizmlari orqali amalga oshirilmoqda. Mamlakatda yashil kreditlarning hajmi va ulushi 2020–2024-yillar oralig'ida sezilarli o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda (2-rasm).

Bu jarayon, bir tomondan, barqaror iqtisodiy o'sish va energiya xavfsizligini ta'minlashga, ikkinchi tomondan esa uglerod izini kamaytirish va iqlim o'zgarishiga qarshi kurash bo'yicha milliy majburiyatlarni bajarishga xizmat qilmoqda. Shu orqali, kichik tadbirkorlik sektorida innovatsion va ekologik toza texnologiyalarning joriy etilishi jadallashib, mamlakatda "yashil iqtisodiyot" madaniyati shakllanmoqda.

Natijada, yashil kreditlar tizimi O'zbekiston iqtisodiyotida mintaqaviy energetik mustaqillikni oshirish, resurslardan oqilona foydalanish, hamda barqaror rivojlanishning moliyaviy poydevorini mustahkamlashda muhim rol o'ynamoqda.



2-rasm. O'zbekistonda kichik va o'rta biznesda yashil loyihalar va tijorat banklari ajratgan yashil kreditlar soni (2018–2024)[1]

Yuqoridagi rasm ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, kichik va o'rta biznesning yashil loyihalarda faolligi hamda asosiy moliya manbasi sifatida tijorat banklarining ishtirokiga guvoh bo'lish mumkin. 2018–2024-yillar davomida yashil loyihalar soni deyarli 6 baravar oshgani va ularning asosiy qismi, aniqrog'i 70–80 foiz qismi tijorat banklari kreditlari tomonidan moliyalashtirilgani kuzatiladi. Shunday ekan, tijorat banklarini ushbu mexanizm faoliyatida samarali qo'llash kichik va o'rta biznesni, natijada iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga xizmat qiladi.

[1] Muallif ishlanmasi

Ushbu maqsad doirasida xorij tajribasiga nazar solsak, Xitoy, Janubiy Koreya, Germaniya va Fransiyada “Targeted Refinancing Operations – TRO” (maqsadli qayta moliyalashtirish operatsiyalari) mexanizmi bir necha yillar davomida “yashil” rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash vositasi sifatida muvaffaqiyatli faoliyat yuritib kelmoqda.

1-jadval

Yashil kreditlarni qayta moliyalashtirish bo‘yicha xorij tajribasi samaralari[1]

Mamlakat / Markaziy bank	Mexanizm nomi yoki dasturi	Asosiy shartlar	Samaralar / Natijalar
Xitoy	PBOC – Carbon *Emission* Reduction Facility *(CERF)* (2021-yildan joriy qilingan)	Tijorat banklariga yashil loyihalar uchun kreditlar berishda: qarzlarning 60% gacha qismini qayta moliyalashtirish; foiz stavkasi 1,75% (bir yillik) etib belgilangan	2025-yilga kelib, ushbu dastur doirasida taxminan 123 mlrd AQSH dollar mablag‘ karbon chiqindilarini kamaytiruvchi loyihalarga yo‘naltirilgan. Natijada 215 mln tonna CO_2 chiqindilarining oldi olingan.
Yevropa hududi (ECB)	Targeted Longer-Term Refinancing Operations – *TLTRO 3* dasturi	O‘zgaruvchan stavka; qayta moliyalashtirish resurslari banklar uchun arzon bo‘lib, ularning umumiy kredit portfeli orqali real sektorni kreditlashni rag‘batlantiradi	Real sektorga ajratilgan kredit hajmi oshgan; yashil kreditlarning 80% dan ortig‘i yuqori chiqindili kompaniyalarga yo‘naltirilgan.
ASEAN+3 mintaqasi	Bir nechta markaziy banklarda yashil maqsadli qayta moliyalashtirish liniyalari	Kredit shartlarida past stavka, uzoq muddat, kolateral talablari yengil	Kichik va o‘rta korxonalarda yashil hamda energiya tejamkor loyihalar soni ortgan, kredit xarajatlari kamaygan. Biroq raqamlar muntazam emas va ta’sir darajasi mamlakatlar kesimida farq qiladi.

Yuqoridagi jadval tahlilidan ko‘rinadiki, Xitoyda CERF dasturi tijorat banklariga past stavkada resurs taqdim etgani sababli kreditlarning arzonlashuviga olib kelgan. Yevropada esa ushbu mexanizm real sektorga kreditlash hajmini oshirgan bo‘lsa-da, “yashil” komponent nisbatan past bo‘lgan, ya’ni ko‘plab imtiyozli kreditlar hali ham yuqori chiqindili kompaniyalarga yo‘naltirilgan.

O‘zbekiston tajribasida esa tijorat banklari tomonidan beriladigan kreditlar bo‘yicha foiz stavkalariga cheklov o‘rnatish va qayta moliyalashtirish imkoniyatlarini amaliyotga joriy etish mamlakatda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda yuqori salohiyatga ega. Bunday mexanizmlar banklar uchun moliyalashtirish xarajatlarini kamaytiradi, uzoq muddatli resurs manbalarini yaratadi va shu bilan birga ekologik barqarorlik hamda makroiqtisodiy muvozanatga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Bizning fikrimizcha, mamlakatda kichik va o‘rta biznesni moliyalashtirish, yashil iqtisodiyotga yo‘naltirilgan sarmoyalarni rag‘batlantirish maqsadida, ushbu yo‘nalishda faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari loyihalarining

[1] Muallif ishlanmasi

BHMning 1500 baravarigacha bo‘lgan qismini moliyalashtirishda tijorat banklari kredit stavkalarining eng yuqori chegarasini Markaziy bankning asosiy stavkasi doirasida belgilash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Tijorat banklari orqali kichik biznes va yashil iqtisodiyot loyihalariga ajratilgan kreditlarni qayta moliyalashtirish O‘zbekistonda dolzarb iqtisodiy siyosat yo‘nalishi hisoblanadi. 2024–2025-yillardagi hukumat qarorlari va dasturlari respublikada bu borada qulay huquqiy infratuzilmani yaratdi. Biroq mazkur mexanizmlarni samarali amalga oshirish uchun kreditlash mezonlari, moliyaviy kafolatlar hamda Markaziy bankning pul-kredit siyosati o‘zaro muvofiq ishlashi zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida keltirilgan tahliliy ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, xalqaro tajriba asosida maqsadli qayta moliyalashtirish va qo‘shimcha kafolat mexanizmlari yordamida kichik biznes hamda yashil loyihalarga sarmoya oqimini kuchaytirish orqali iqtisodiy o‘sish va ekologik barqarorlikni bir vaqtning o‘zida oshirish mumkin. Natijada quyidagi ijobiy samaralarga erishiladi:

Birinchidan, kichik va o‘rta biznes subyektlariga asosiy stavkadan oshmaydigan arzon kreditlar ajratilishi ularni yashil iqtisodiyot yo‘nalishidagi loyihalarga faolroq investitsiya kiritishga rag‘batlantiradi. Bu esa iqtisodiyotning strukturaviy modernizatsiyasini tezlashtirib, ekologik barqarorlikni ta’minlaydi. Ayniqsa, qayta tiklanuvchi energetika, kam energiya sarfli texnologiyalar va atrof-muhitni muhofaza qilish sohalaridagi loyihalar ko‘payadi va mamlakatning barqaror o‘sish modeli shakllanadi. Prezidentning 2022-yildagi PQ-436-son qarorida 2030-yilgacha YAIM birligiga nisbatan issiqxona gazlari chiqindilarini 35 foizga kamaytirish maqsadi belgilangan bo‘lib, mazkur mexanizm ushbu strategik maqsadni moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlaydi.

Ikkinchidan, iqtisodiyotda muayyan miqdordagi iqtisodiy o‘sish va pul massasining o‘zaro mutanosibligi ta’minlanadi. Ya’ni, pul muomalasining kengayishi bevosita real sektor o‘sishi bilan bog‘lanadi va ortiqcha inflyatsiya xavfi kamayadi. Tijorat banklarining kredit stavkalarini Markaziy bankning asosiy stavkasi doirasida cheklash orqali kreditlar iqtisodiyotga nazorat ostida yo‘naltiriladi. Natijada Markaziy bank inflyatsiyaning barqaror, maqsadli darajasini saqlash uchun zarur pul-kredit sharoitlarini yaratadi.

Uchinchidan, arzon va uzoq muddatli kreditlar evaziga kichik va o‘rta biznes uchun moliyaviy resurslar hajmi oshadi. Mazkur subyektlar mamlakat iqtisodiyotining asosiy tayanchi bo‘lib, YAIMning 53–55 foizini, shuningdek, bandlikning 75 foizgacha bo‘lgan qismini ta’minlamoqda. Shunday ekan, ularning faoliyatini kengaytirish inklyuziv va barqaror iqtisodiy rivojlanishni jadallashtiradi, aholining daromad manbalarini ko‘paytiradi va hududlarda ekologik toza ishlab chiqarish loyihalarining kengayishiga olib keladi.

To‘rtinchidan, kredit siyosatini mazkur yo‘nalishda takomillashtirish moliyaviy resurslarni zamonaviy innovatsion loyihalarga yo‘naltirish imkonini yaratadi. Bu esa barqaror va oldindan bashorat qilinadigan iqtisodiy muhitni shakllantirib, xorijiy investitsiyalarni yashil sektorga jalb etishni osonlashtiradi. Moliya oqimlarining milliy

iqlim maqsadlari bilan uyg‘unlashuvi innovatsiyalarni jadallashtiradi, yangi investorlar uchun imkoniyatlar yaratadi va iqtisodiyotda yangi o‘sish nuqtalarini shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Friedman M. The Counter-Revolution in Monetary Theory. – London: Aldine Publishing Company, 1970.

2. Keynes J.M. The General Theory of Employment, Interest and Money. – London: Macmillan, 1936.

3. Арифов А. Макроиқтисодий барқарорлик ва пул-кредит сиёсати – Тошкент. Иқтисодиёт 2020

4. Ходиев Б. Иқтисодий ўсиш назариялари ва амалиёти – Тошкент. Молия 2018

5. Шерхонов И.А. Банкларнинг яшил иқтисодиётдаги роли. Қурилиш ва таълим илмий журнали 4-жилд, 1-сон. ISSN 2181-3779. 2025.

6. Маманазаров А. Ўзбекистонда яшил иқтисодиётга ўтишнинг жорий ҳолати таҳлили. Қўқон университети хабарномаси 116-119; июн 2024

7. Ўзбекистон Республикаси Марказий банки. Пул-кредит сиёсати мақсади ва асосий ставка [Электрон ресурс] // cbu.uz. – 2024. – Манба: https://cbu.uz/ (қидирилган сана: 10.10.2024).

8. Ўзбекистон Республикаси Президенти матбуот хизмати. “Makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash” видеоселектори – 2024. (16 янв. 2024, onlayn) [Интернет-ресурс]. – Манба: https://president.uz/ (қидирилган сана: 20.10.2024).

9. Yuz.uz. «Yashil makon» umummilliy loyihasi amalda qanday bo‘ladi? – 2022. (9 февр. 2022) [Интернет-ресурс]. – Манба: https://yuz.uz/ (қидирилган сана: 15.10.2024).

10. “BIZNESNI RIVOJLANTIRISH BANKI”. BRB ESG-BRB [Электрон ресурс] // brb.uz. – 2025. – Манба: https://brb.uz (қидирилган сана: 17.10.2024).

11. World Bank. “Экологизация” государственных средств Узбекистана для борьбы с изменением климата [Electronic resource]. – The World Bank, 2024. – Манба: https://www.vsemirnyjbank.org (қидирилган сана: 20.10.2024).

12.https://www.researchgate.net/publication/383564187_Green_Credits_A_Bibliometric_Analysis_of_Publications_in_the_Web_of_Science_Article_Information

TRANSPORT TIZIMLARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Saidmurodov Feruz Sodiqjon o‘g‘li
TDIU izlanuvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada transport tizimlarining iqtisodiy samaradorligini oshirishga doir zamonaviy yondashuvlar tahlil qilinadi. Tadqiqotda infratuzilma, raqamlashtirish, ekologik barqarorlik, logistika samaradorligi va ijtimoiy tenglik omillari tizimli yondashuv asosida o‘rganildi. Har bir omilning transport tizimi samaradorligiga ta’siri ilmiy manbalar asosida baholanib, konseptual model ishlab chiqildi. Olingan natijalar transport siyosatini shakllantirishda kompleks yondashuv zarurligini ko‘rsatadi hamda milliy rivojlanishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan takliflarni ilgari suradi.

Kalit so‘zlar: transport tizimi, iqtisodiy samaradorlik, infratuzilma, raqamlashtirish, barqarorlik, logistik optimallashtirish, ijtimoiy tenglik

Аннотация

В статье рассматриваются современные подходы к повышению экономической эффективности транспортных систем. Исследование охватывает ключевые факторы: инфраструктуру, цифровизацию, экологическую устойчивость, логистическую эффективность и социальное равенство в рамках системного подхода. На основе научных источников оценено влияние каждого фактора, а также предложена концептуальная модель. Полученные результаты подчеркивают необходимость комплексного подхода при формировании транспортной политики и содержат рекомендации по повышению национальной экономической эффективности.

Ключевые слова: транспортная система, экономическая эффективность, инфраструктура, цифровизация, устойчивость, оптимизация логистики, социальное равенство

Abstract

This article analyzes modern approaches to improving the economic efficiency of transport systems. The study examines key factors such as infrastructure, digitalization, environmental sustainability, logistics efficiency, and social equity within a systemic framework. Each factor’s impact is evaluated based on scholarly sources, and a conceptual model is proposed. The findings highlight the importance of an integrated approach in transport policy and offer practical recommendations for enhancing national economic development.

Keywords: transport system, economic efficiency, infrastructure, digitalization, sustainability, logistics optimization, social equity

KIRISH

Transport tizimlari jamiyat taraqqiyoti va iqtisodiy barqarorlikning ajralmas qismi sifatida shakllangan bo‘lib, ular hududlararo integratsiyani chuqurlashtirish, ishlab chiqarish resurslarini harakatlantirish va aholiga sifatli xizmat ko‘rsatishda muhim vosita vazifasini bajaradi. Ushbu tizimlarning to‘g‘ri tashkil etilishi milliy iqtisodiy

samaradorlikka sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ayni paytda, transport sohasi global iqtisodiy aloqalarning jadallashuvi, texnologik yangilanishlar va ekologik talablar fonida yanada kompleks tus olmoqda.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, transport tizimlarining samaradorligini oshirish faqat texnik modernizatsiya bilan cheklanmaydi. Bu jarayon infratuzilma sifati, raqamli texnologiyalarning joriy etilishi, xizmatlar optimalligi, ekologik xavfsizlik va ijtimoiy adolat mezonlari bilan chambarchas bog‘liq. Yuqoridagi omillar tizimli yondashuvda qaralganda, ular o‘zaro kuchaytiruvchi samaraga ega bo‘lib, transport tizimining umumiy funksionalligini yuqori darajaga olib chiqadi.

Ushbu ilmiy izlanishning maqsadi — transport tizimlarida iqtisodiy samaradorlikni ta’minlovchi asosiy omillarni nazariy jihatdan aniqlash, mavjud ilmiy qarashlarni tizimlashtirish va konseptual asosda umumlashtirilgan yondashuvni taklif etishdan iborat. Mazkur yondashuv transport sektorini faqat tashish vositasi sifatida emas, balki kompleks iqtisodiy va ijtimoiy tizim sifatida ko‘rishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Transport tizimlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish masalasi ko‘plab tadqiqotlarda turli yondashuvlar orqali o‘rganilgan bo‘lib, ularning umumiy xulosasi — kompleks va tizimli yondashuv zarurligini ko‘rsatadi. Ilmiy manbalar ushbu yondashuvni bevosita infratuzilma, raqamlashtirish, ekologik barqarorlik, operatsion samaradorlik va ijtimoiy tenglik omillari orqali tahlil qilgan.

Avvalo, transport infratuzilmasining iqtisodiy rivojlanishga ta’siri haqida Ivanova tomonidan taklif etilgan umumlashtirilgan muvozanat modeli [9] muhim asos yaratadi. Bu model mintaqaviy bog‘liqlik va transport tarmoqlarining iqtisodiy oqibatlarini tahlil qilish imkonini beradi. Mazkur yondashuvni amaliy misolda ko‘rish mumkin: Kaliningrad viloyatining transport tizimini zamonaviylashtirish orqali samaradorlik qanday oshgani alohida tadqiqotda batafsil ochib berilgan [3].

Raqamli texnologiyalarning integratsiyasi masalasida Vasilenko va hamkorlari tomonidan olib borilgan izlanishlar muhim o‘rin tutadi. Ular elektron boshqaruv modullari yordamida temiryo‘l tizimida xizmat sifati va xarajatlar samaradorligini oshirish imkoniyatlarini ko‘rsatib berishgan [7]. Bu yondashuv raqamli transformatsiyaning nafaqat texnologik, balki iqtisodiy jihatdan ham foydali ekanini asoslab beradi. Shuningdek, xizmat sifatini baholashda qo‘llaniladigan metodologiyalar, xususan geometriya o‘rtachasi usuli, bu jarayonning aniqligini oshiradi [8].

Barqaror transport tizimlarini shakllantirishda ekologik va ijtimoiy ko‘rsatkichlarning hisobga olinishi zarurati ko‘plab tadqiqotlarda ta’kidlangan. Makarova va boshqalari tomonidan ishlab chiqilgan ko‘rsatkichlar tizimi energiya sarfi, chiqindi miqdori, yo‘lovchi qamrovi kabi mezonlarga asoslanadi [4]. Bu ekologik yondashuv Sun tomonidan taqdim etilgan aqlli transport tizimlari konsepsiyasi bilan mos keladi. Sun bu tizim orqali transportni avtomatlashtirish, energiya samaradorligini oshirish va barqarorlikni ta’minlash masalalarini muvofiqlashtirgan [10].

Transportda operatsion samaradorlik esa yuk oqimlarini optimallashtirish va transport infratuzilmasidan to‘liq foydalanish orqali ta’minlanadi. Lomotko va

hamkasblari tomonidan taklif etilgan algoritmlar ayniqsa don mahsulotlarini tashish samaradorligini oshirishda o‘zini oqlagan [1]. Porro va Gia esa transport sektori va ishlab chiqarish sektori o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni statistik tahlil asosida baholab, transportning makroiqtisodiy ahamiyatini ko‘rsatishgan [5].

Ijtimoiy tenglik masalasi transport sohasida ko‘pincha e’tibordan chetda qoladi. Biroq Wang va Chen tomonidan ishlab chiqilgan ko‘p maqsadli optimallashtirish modeli bu muammoni yechishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda [2]. Ularning modeli iqtisodiy samaradorlik bilan birga aholining transport xizmatlaridan teng foydalanish imkoniyatini ta’minlashga yo‘naltirilgan. Bu fikr Bieliatynskyi va boshqalar tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi — ular transport texnologiyalarini joriy etishda institutsional va siyosiy-iqtisodiy shart-sharoitlarning ta’sirini chuqur tahlil qilishgan [6].

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda transport tizimlarining iqtisodiy samaradorligini baholashda tizimli yondashuv asos qilib olindi. Metodologik asos sifatida ko‘p komponentli analiz, zamonaviy ilmiy adabiyotlar tahlili va konseptual sxematik modellashtirish usullari qo‘llanildi. Analiz infratuzilma, raqamlashtirish, ekologik barqarorlik, logistika samaradorligi va ijtimoiy tenglik omillari asosida olib borildi. Har bir omil bo‘yicha ilgari surilgan nazariy yondashuvlar mavjud amaliy tadqiqotlar bilan solishtirildi. Tahlil qilingan manbalar asosida transport tizimining iqtisodiy samaradorlikka ta’siri izchil baholandi. Natijada, barcha omillarni integratsiyalashgan holda birlashtiruvchi konseptual model ishlab chiqildi. Bu yondashuv orqali murakkab transport tizimining samaradorlik omillari o‘zaro bog‘liq va tizimli holatda talqin etildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotda aniqlangan beshta asosiy yo‘nalish asosida transport tizimlarining iqtisodiy samaradorligiga oid turli nazariy yondashuvlar tahlil qilindi. Bu yondashuvlar o‘zaro tizimli bog‘liqlikda ko‘rib chiqilib, umumiy transport strategiyasida qanday o‘rin tutishi baholandi.

Birinchidan, transport infratuzilmasiga qaratilgan investitsiyalar nafaqat mintaqaviy aloqadorlikni kuchaytiradi, balki hududlararo savdo oqimlarini jadallashtiradi. Ivanova tomonidan taklif etilgan umumlashtirilgan muvozanat modeli orqali aniqlanganidek, infratuzilmaviy yondashuvlar iqtisodiy dinamikaning strukturasini shakllantiruvchi omil sifatida qaralmoqda [9]. Kaliningrad viloyatidagi real holat asosida ishlab chiqilgan ssenariylar esa bu nazariyani amaliy misol orqali tasdiqlaydi — transport “bo‘g‘in”larini bartaraf etish orqali logistika oqimlari sezilarli darajada optimallashtirilishi mumkin [3].

Ikkinchidan, raqamli texnologiyalarning integratsiyasi samaradorlikni oshirishda muhim funksional vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Raqamlashtirish yordamida xizmatlar sifati nazorat qilinadi, marshrutlar real vaqtda optimallashtiriladi, foydalanuvchilar oqimi tahlil qilinadi. Vasilenko va boshqalar tomonidan keltirilgan natijalarga ko‘ra, Rossiya temiryo‘l tizimida elektron boshqaruv modullarini joriy etish operatsion xarajatlarni kamaytirish va xizmat sifati indeksini oshirishga olib kelgan

[7]. Shuningdek, xizmat sifati baholashda geometriya o‘rtachasi kabi statistik metodlarning qo‘llanilishi, sifatli boshqaruvning obyektiv o‘lchovga ega bo‘lishini ta’minlaydi [8].

Uchinchidan, barqarorlik va ekologik yondashuvlar transport siyosatini shakllantirishda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Makarova va hamkorlari tomonidan taklif etilgan ko‘rsatkichlar tizimi energiya sarfi, chiqindi hajmi va ijtimoiy qamrov darajasini o‘z ichiga olgan holda, transport tizimining umumiy barqarorligini baholash imkonini beradi [4]. Ushbu yondashuv Sun tomonidan taklif qilingan aqlli transport tizimi konsepsiyasi bilan bevosita uyg‘unlashadi. Ushbu modelda texnologik avtomatlashtirish va ekologik mas’uliyat bir-biri bilan muvofiqlashtirilgan [10].

To‘rtinchidan, operatsion darajadagi samaradorlikni oshirishda logistik oqimlarni aniq rejalashtirish, yuk tashish hajmlari va marshrutlar o‘rtasida muvozanatni saqlash talab etiladi. Lomotko va uning hamkasblari tomonidan taklif etilgan algoritmik yondashuvlar orqali don mahsulotlari tashish samaradorligi sezilarli darajada oshirilgan bo‘lib, bu transport infratuzilmasi resurslaridan to‘laqonli foydalanishga xizmat qiladi [1]. Bu fikrni Porro va Gia tomonidan amalga oshirilgan sektorlararo samaradorlik tahlili ham qo‘llab-quvvatlaydi, ular transportning ishlab chiqarish jarayonlariga bevosita ta’sirini statistik asosda isbotlab berishgan [5].



1-rasm. Transport tizimlarida iqtisodiy samaradorlikni oshirish omillari: konseptual sxema[1]

Nihoyat, transport tizimlarining ijtimoiy funksiyasi va iqtisodiy samaradorlik o‘rtasidagi muvozanat masalasi tadqiqot doirasida alohida o‘rin egalladi. Wang va Chen tomonidan taklif etilgan ko‘p maqsadli optimallashtirish modeli orqali infratuzilmaning iqtisodiy samarasi va ijtimoiy tenglik talablari bir vaqtning o‘zida baholanishi mumkin [2]. Bu yondashuv transport siyosatini faqat foyda-yo‘qotish mezonlari asosida emas, balki aholining teng foydalanish imkoniyatlari kontekstida ham shakllantirishni taklif etadi. Bieliatynskyi va hamkorlari esa transport texnologiyalarini joriy etishda institutsional va iqtisodiy shart-sharoitlarning ta’sirini

[11] Muallif ishlanmasi

chuqur tahlil qilib, samaradorlikka faqat texnologik emas, balki siyosiy-iqtisodiy omillar ham ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatgan [6].

Ushbu rasm tahlillar asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, transport tizimining iqtisodiy samaradorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi beshta asosiy omilni bir tizim doirasida umumlashtiradi. Sxemaning markazida joylashgan “Iqtisodiy samaradorlik” konsepti atrofida joylashgan komponentlar — infratuzilmaviy rivojlanish, raqamli transformatsiya, ekologik barqarorlik, logistika oqimlarining muvozanati va ijtimoiy tenglik — har biri transport tizimining alohida jihatlarini aks ettiradi. Bu sxema yordamida transport tizimini optimallashtirish strategiyasi kompleks yondashuvga asoslangan holda shakllantirilishi lozimligi yanada yaqqol namoyon bo‘ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, transport tizimlarining iqtisodiy samaradorligi bir nechta muhim omillar — infratuzilmaviy rivojlanish, raqamlashtirish, operatsion samaradorlik, ekologik barqarorlik va ijtimoiy tenglik — o‘zaro bog‘liq holda rivojlanganida sezilarli darajada oshadi. Har bir omil alohida muhim bo‘lishiga qaramay, ular o‘zaro uyg‘unlashgan holda ishlaganda yanada samarali natijalar beradi.

Transport infratuzilmasiga maqsadli sarmoyalar hududlararo aloqalarni kuchaytiradi va iqtisodiy faollikni oshiradi. Raqamli texnologiyalar esa tizimni shaffof, boshqariladigan va real vaqtga moslashtirilgan holga keltiradi. Logistika oqimlarini optimallashtirish orqali resurslardan to‘liq foydalanish imkoniyati yuzaga keladi. Ekologik yondashuvlar va ijtimoiy tenglik esa barqarorlik va adolatni ta’minlab, transport xizmatlarining ijtimoiy qiymatini oshiradi.

Shu asosda quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Transport infratuzilmasini rivojlantirishda hududiy farqlarni hisobga olgan holda ustuvorliklar belgilanishi lozim.
2. Raqamlashtirish jarayonlarini tezlashtirish va aqlli boshqaruv tizimlarini bosqichma-bosqich joriy etish zarur.
3. Logistika tizimlarini optimallashtirish uchun raqamli monitoring, real vaqtda ma’lumot almashinuvi va avtomatlashtirilgan rejalashtirish vositalari keng joriy etilishi lozim.
4. Transport siyosatida ekologik va ijtimoiy mezonlar qat’iy hisobga olinib, barqaror rivojlanish tamoyillari asosida qarorlar qabul qilinishi kerak.
5. Ijtimoiy adolat va tenglikni ta’minlash uchun barcha aholining transport xizmatlaridan teng foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishi muhim.

Ushbu takliflar asosida shakllantirilgan integratsiyalashgan yondashuv transport tizimlarining samaradorligini oshirishga xizmat qilishi va milliy iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi kutiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Lomotko, D., Arsenko, D., Konovalova, O., & Ischuka, O. (2019). Methods of infrastructure management for optimization of grain transport organization. Procedia Computer Science, 149, 500–507. https://doi.org/10.1016/j.procs.2019.01.168

2. Wang, C.-H., & Chen, N. (2021). A multi-objective optimization approach to balancing economic efficiency and equity in accessibility to multi-use paths. Transportation, 48, 1967–1986. https://doi.org/10.1007/s11116-020-10117-9

3. Gumenyuk, I. S., Voloshenko, K. Yu., & Novikova, A. A. (2020). Scenarios of increasing the economic efficiency of the Kaliningrad regional transport system. Baltic Region, 12(2), 51–70. https://balticregion.kantiana.ru/en/2020/2/2723/

4. Makarova, I., Shubenkova, K., & Pashkevich, A. (2021). Efficiency assessment of measures to increase sustainability of the transport system. Transport, 36(2), 123–133. https://doi.org/10.3846/transport.2021.14996

5. Porro, L., & Gia, N. (2023). Assessing transport system efficiency and sustainable development in trade and manufacturing sector. Journal of Economic, Environmental and Political Outlook, 4(2), 9–16. https://jeepo.org/

6. Bieliatynskyi, A., Bieliatynska, A., Isroilov, B., Mussabalina, D., & Karimbayeva, G. (2025). Economic conditions for the introduction of transportation technologies in integrated transport systems. Systemy Logistyczne Wojsk, 62, 203–222. https://doi.org/10.37055/slw/21104 7

7. Vasilenko, M., Kuzina, E., Bespalov, V., Drozdov, N., Tagiltseva, J., Korenyakina, N., Prokopchuk, V., & Nadolinsky, P. (2021). Digital technologies in quality and efficiency management of transport service. E3S Web of Conferences, 244, 11046. https://doi.org/10.1051/e3sconf/202124411046

8. Panferova, L., & Kulagina, A. (2020). Analysis of effectiveness of the public transport system in modern conditions of development. Advances in Social Science, Education and Humanities Research, 392, 514–517. https://doi.org/10.2991/assehr.k.200312.108

9. Ivanova, O. (2003). The role of transport infrastructure in regional economic development. TOI Report 671/2003, Institute of Transport Economics. https://www.toi.no/getfile.php?mmfileid=1725

10. Sun, D. (2017). Smart transport system model construction based on intelligent transportation and green transport concept. IOP Conference Series: Earth and Environmental Science, 90, 012073. https://doi.org/10.1088/1755-1315/90/1/012073

MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARI FAOLIYATINI STRATEGIK BOSHQARISH MASALALARI

Xusanova Gavhar
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti dekan o‘rinbosari
ORCID: 0009-0008-7894-1851
E-mail: xusanovagavhar27@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada mamlakat iqtisodiyotida oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatini strategik boshqarishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Tadqiqotda strategik boshqaruvning mohiyati, uning zamonaviy model va mexanizmlari, shuningdek, oziq-ovqat sanoati korxonalarida strategik rejalashtirish va qaror qabul qilish jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Maqolada korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish, innovatsion rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlash, ishlab chiqarish samaradorligini ta’minlash hamda bozor talablariga moslashuvchan boshqaruv tizimini shakllantirishning ahamiyati asoslab berilgan. Shu bilan birga, sohada strategik boshqaruvni takomillashtirish, resurslardan oqilona foydalanish va korxonalar barqarorligini mustahkamlashga doir takliflar ilgari surilgan. Tadqiqot natijalari oziq-ovqat sanoati korxonalarini rivojlantirish va iqtisodiyotning umumiy barqarorligini ta’minlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: strategik boshqaruv, oziq-ovqat sanoati, korxona samaradorligi, innovatsion rivojlanish, raqobatbardoshlik, rejalashtirish, resurslardan foydalanish, barqarorlik, iqtisodiy islohotlar, menejment.

Аннотация

В данной статье раскрыты теоретические и практические аспекты стратегического управления деятельностью предприятий пищевой промышленности в экономике страны. В исследовании проанализирована сущность стратегического управления, его современные модели и механизмы, а также особенности процессов стратегического планирования и принятия управленческих решений на предприятиях пищевой промышленности. В статье обосновано значение повышения конкурентоспособности предприятий, определения направлений инновационного развития, обеспечения эффективности производства и формирования гибкой системы управления, соответствующей требованиям рынка. Кроме того, выдвинуты предложения по совершенствованию стратегического управления в отрасли, рациональному использованию ресурсов и укреплению устойчивости предприятий. Результаты исследования имеют важное научно-практическое значение для развития предприятий пищевой промышленности и обеспечения общей экономической стабильности.

Ключевые слова: стратегическое управление, пищевая промышленность, эффективность предприятия, инновационное развитие, конкурентоспособность,

планирование, использование ресурсов, устойчивость, экономические реформы, менеджмент.

Abstract

This article explores the theoretical and practical aspects of strategic management in the activities of food industry enterprises within the national economy. The study analyzes the essence of strategic management, its modern models and mechanisms, as well as the specific features of strategic planning and decision-making processes in food industry enterprises. The article substantiates the importance of enhancing enterprise competitiveness, identifying directions for innovative development, ensuring production efficiency, and forming a flexible management system that meets market demands. In addition, it presents proposals for improving strategic management in the sector, rational use of resources, and strengthening enterprise sustainability. The research results have significant scientific and practical importance for the development of food industry enterprises and for ensuring overall economic stability.

Keywords: strategic management, food industry, enterprise efficiency, innovative development, competitiveness, planning, resource utilization, sustainability, economic reforms, management.

KIRISH

Mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi bevosita tarmoqlar faoliyatining samaradorligi va ularni boshqarishning strategik yo‘nalishlariga bog‘liqdir. Xususan, oziq-ovqat sanoati korxonalari milliy iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan biri sifatida aholi farovonligini ta’minlash, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash hamda eksport salohiyatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli, ushbu korxonalar faoliyatini samarali boshqarish va ularni strategik rivojlantirish masalalari bugungi kunda iqtisodiy siyosatning eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxona faoliyatini boshqarish qisqa muddatli maqsadlar bilan cheklanib qolmasdan, uzoq muddatli istiqbolga yo‘naltirilgan strategik yondashuvni talab etadi. Strategik boshqaruv korxonaga tashqi muhitdagi o‘zgarishlarga moslashish, ichki resurslarni optimal taqsimlash, raqobat ustunliklarini shakllantirish va barqaror o‘sishni ta’minlash imkonini beradi. Ayniqsa, oziq-ovqat sanoati korxonalari uchun strategik rejalashtirish va menejment tizimini to‘g‘ri tashkil etish ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va mahsulot sifatini xalqaro standartlarga moslashtirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida oziq-ovqat sanoatini modernizatsiya qilish, tarmoq korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish va ularni eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarish tizimiga integratsiya qilish borasida muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq, strategik boshqaruv mexanizmlarini amaliyotga to‘liq joriy etish, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va uzoq muddatli rivojlanish konsepsiyalarini ishlab chiqish zarurati hanuz dolzarb bo‘lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi kunda mamlakatimizda oziq-ovqat sanoati faoliyatini rivojlanishi va uni strategik boshqarish yo‘nalishida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Amalga

oshirilayotgan tadqiqot doirasida oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatini strategik boshqarish bo‘yicha mahalliy olimlarimizdan N.M.Ziyavitdinovaning tadqiqotlarida oziq-ovqat sanoati korxonalarida bozor strategiyasini shakllantirishda, ularni rivojlantirish yo‘nalishlarini ishlab chiqish va tarmoq boshqaruvining tashkiliy tuzilishi takomillashtirilgan [1].

Xorijiy tadqiqotchi olimlardan L.Albastovoy, I.Ansoffa, O.Vixanskogo, V.Gradova, I.Gurkova, A.Yegorova, P.Zabelina, Dj.Kvinna, A.Kibanova va boshqalar. sanoat sohasini, jumladan oziq-ovqat sanoati faoliyatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga hamda soha faoliyatini vertikal va gorizontal klasterli yondashuv asosida rivojlantirish bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan [2].

Fikrimizcha, oziq-ovqat sanoati korxonalarining strategik boshqarish jarayoniga omillar ta’sirini baholash, oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatiga mavsumiylik omili ta’sirini baholash va oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatini strategik boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari soha faoliyatining rivojlanish davrini qisqartiradi hamda iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari ortadi.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyati ko‘rsatkichlarini baholash asosida monografik tadqiqotlar asosida nazariy va amaliy jihatdan keng o‘rganib chiqildi. Rasmiy statistik ma’lumotlari asosida Eviews 10 dasturidan foydalangan holda, asosiy ko‘rsatkich hisoblangan boshqaruv xodimlari soni, boshqaruv xarajatlari, kapital qo‘yilmalar hajmi va unga ta’sir etuvchi vaqtli qatorlari negizida ekonometrik model aniqlandi, asosiy parametrning o‘zgarish tendensiyalari baholandi hamda qisqa muddatli davr uchun prognoz ko‘rsatkichlari aniqlandi. Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida tadqiqot metodologiyasi sifatida ilmiy abstraksiya, korrelyatsion-regression tahlil, tahlil va sintez usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunga kelib respublikamizda oziq-ovqat sanoatida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni va ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasida ushbu sanoat mahsulotlari hajmi 2014-2024-yillarda qariyb 7,8 martaga ortgan. Jumladan, 2014-yilda 8610,6 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2024-yilga kelib jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish ko‘lamini ortib borishiga hisobiga 451633,9 mlrd. so‘mga ortgan[3].

Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida bugungi kunda oziq-ovqat sanoati sohasida faoliyat olib borayotgan Namangan viloyati Chortoq tumanida joylashgan “Chortoq” MCHJning 2014-2024-yillarda amalga oshirgan ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati natijalari asosida boshqaruv jarayonlari strategiyasini aniqlash maqsadida ko‘p omilli ekonometrik modellar asosida kelgusi davr uchun istiqbol ko‘rsatkichlari ishlab chiqildi.

“Chortoq” MCHJ sof foyda hajmini funksiyaning yuqori cho‘qqisi, ya’ni natijaviy omil sifatida belgilab olgan holda, unga ta’sir etuvchi omil ko‘rsatkichlarini Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi Namangan viloyati bosh

boshqarmasining yetakchi ekspertlari ishtirokida o‘tkazilgan ekspert tahlili asosida tanlangan quyidagi ko‘rsatkichlar tanlandi.

X_1 – boshqaruv xodimlari soni;
X_2 – boshqaruv xarajatlari;
X_3 – kapital qo‘yilmalar hajmi.

1-jadval

“Chortoq” MCHJda kapital qo‘yilmalar va boshqaruv faoliyati ko‘rsatkichlarining 2014-2024-yillardagi o‘zgarishi[1]

Yillar	Sof foyda mln. so‘m (Y)	Boshqaruv xodimlari soni, kishi (X_1)	Boshqaruv xarajatlari, mln. so‘m mln. so‘m (X_2)	Kapital qo‘yilmalar hajmi, mln. so‘m (X_3)
2014	420	6	205	500
2015	480	6	210	550
2016	520	6	222	530
2017	720	8	280	460
2018	920	13	420	480
2019	1000	15	460	220
2020	1100	18	530	430
2021	1700	22	712	10000
2022	1850	28	1042	20000
2023	1970	30	1260	30000
2024	1985	32	1236	32000

Endogen omil va unga ta’sir etuvchi ekzogen omil ko‘rsatkichlarining mohiyati ko‘rib chiqiladigan bo‘lsa, ta’sir etuvchi omillar sifatida boshqaruv xodimlari soni, boshqaruv xarajatlari hamda kapital qo‘yilmalar hajmiga muhim ta’sirga ega bo‘lgan omillarni ifodalovchi omil ko‘rsatkichlari asosida Kobb-Duglasning ishlab chiqarish modeli ko‘rinishidagi modelga yaqin bo‘lgan bog‘lanishga ega bo‘ladi. Ajratib olingan asosiy endogen va ekzogen omillarning bog‘lanishi asosida “Chortoq” MCHJda sof foyda hajmining o‘zgarish trendlarini aniqlash maqsadida yuqoridagi vaqtli qator ko‘rinishidagi ma’lumotlarni EViews10 dasturidan foydalangan holda tahlil qilindi [4].

2-jadval

“Chortoq” MCHJ tanlangan omillarning korrelyatsion bog‘lanishi[2]

	Y	X1	X2	X3
Y	1			
X1	0,986105518	1		
X2	0,964281458	0,977975199	1	
X3	0,866900705	0,866643491	0,947825671	1

[1] Muallif ishlanmasi.
[2] Muallif ishlanmasi.

Eviews10 dasturiy paketidan foydalangan holda amalga oshirilgan regression tahlil jarayonida aniqlangan parametrlar hamda modelning ahamiyati dastur tomonidan hisoblangan asosiy baholash ko‘rsatkichlari orqali baholangan [5].

3-jadval

“Chortot” MCHJda tanlangan omillarning bog‘lanish xususiyatlari va tuzilgan omilli model sifatining asosiy ko‘rsatkichlari[1]

Dependent Variable: “Chortoq” MCHJ
Method: Least Squares
Date: 01/19/24 Time: 17:53
Sample: 2014 2024
Included observations: 10

Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
Boshqaruv xodimlari soni, X_1	124.0304	40.60515	3.054549	0.0224
Boshqaruv xarajatlari, X_2	-2.524724	1.579384	-1.598550	0.1610
Kapital qo‘yilmalar hajmi, X_3	0.038058	0.022959	1.657681	0.1485
Tasodifiy omillar umumiy ta’siri, ε	290.7805	127.6243	2.278410	0.0629

R-squared	0.981073	Mean dependent var	1068.000
Adjusted R-squared	0.971609	S.D. dependent var	581.1062
S.E. of regression	97.91406	Akaike info criterion	12.29523
Sum squared resid	57522.98	Schwarz criterion	12.41627
Log likelihood	-57.47616	Hannan-Quinn criter.	12.16246
F-statistic	103.6677	Durbin-Watson stat	1.742268
Prob(F-statistic)	0.000015		

Aniqlangan ma’lumotlardan foydalangan holda “Chortoq” MCHJda sof foyda hajmi va unga ta’sir etuvchi omillar ta’sirida o‘zgarishining ko‘p omilli ekonometrik modeli tuzildi. Unga ko‘ra ushbu jarayonni ifodalovchi

$$y = 124,03 \cdot x_1 - 2,524 \cdot x_2 + 0,038 \cdot x_3 + 290,78 \qquad (1)$$

regressiya tenglamasi tuzildi.

Dasturiy paketdan foydalangan holda tuzilgan model va uning parametrlarining ishonchliligi hamda adekvatligini bir necha mezonlar asosida tekshirib, natijalar aniqligiga ishonch hosil qilish lozim. Aniqlangan trendda avtokorrelyatsiya belgilangan optimal chegaradan bir oz pastligi (DW=1,74) va boshqa mezonlar bo‘yicha talabga javob berganligidan yuqorida aniqlangan (1) — regressiya tenglamasi ishonchli deb topildi va adekvatligi isbotlandi[6].

[1] Muallif ishlanmasi.

Ko‘p omilli ekonometrik modeldan foydalangan holda oziq-ovqat faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxona sof foydasi hajmining boshqaruv omillari ta’sirida o‘rta muddatda, ya’ni 2025-2028-yillarda o‘zgarishi qiymatlarini 5-jadval asosida ifodalandi.

4-jadval

2025-2028-yillarda “Chortoq” MCHJda sof foydaga kapital qo‘yilmalar va boshqaruv faoliyati ko‘rsatkichlarning prognozlari[1]

Yillar	Sof foyda, mln. so‘m (Y)	Boshqaruv xodimlari soni, kishi (X_1)	Boshqaruv xarajatlari, mln. so‘m (X_2)	Kapital qo‘yilmalar hajmi, mln. so‘m (X_3)
2025	2227	34	1265	23991
2026	2417	37	1378	26710
2027	2610	40	1490	29429
2028	2676	42	1603	32149

Tuzilgan ko‘p omilli modeldagi o‘zgaruvchilar koeffitsientlari asosida har bir omil qiymatining qo‘shilgan bir birligi hisobiga natijaviy omil qiymatining qanchaga o‘zgarishini baholashimiz mumkin bo‘ladi. Jumladan, “Chortoq” MCHJ da boshqaruv xodimlari sonining qo‘shimcha 1 birlikka ortishi korxona sof foydasi hajmining 124,03 mln. so‘mga ortishiga, boshqaruv xarajatlarining 1 mln. so‘mga ortishi natijaviy ko‘rsatkichning 2,524 mln. so‘mga kamayishiga, kapital qo‘yilmalar hajmining 1 mln. so‘mga ortishi natijaviy ko‘rsatkichning 38 ming so‘mga ortishiga olib keladi. Tanlab olingan asosiy omillardan tashqari boshqa omillarning barchasi birgalikda natijaviy omilning 290,78 mln. so‘mga ortishi modeldan ko‘rinadi[7].

Taklif etilayotgan ko‘p omilli modellardan har ikki korxonada foydalanishda har bir omilning korxonalar bo‘yicha endogen omilga ta’sir kuchini hisobga olish lozim. Bunda “Chortoq” MCHJ boshqaruv xodimlari sonini o‘zgartirmagan holda boshqaruv xarajatlarini oshirishga e’tibor qaratishi maqsadga muvofiq. Aniqlangan trend modeldan foydalanish korxonadagi boshqaruv jarayonini tashkil etishda kiritilayotgan resurs hajmini to‘g‘ri taqsimlagan holda omil birligidan olinadigan samarani optimallashtirish imkonini beradi[8].

Ko‘p omilli bog‘lanish asosida aniqlangan trend modellari kelgusi davrda soha faoliyati asosiy ko‘rsatkichlarining tanlangan omillar ta’sirida ma’lum bir chegaradagi xatoliklarni hisobga olgan holda o‘zgarishini oldindan prognozlash imkonini beradi [9].

Eviews10 dasturiy paketidan foydalangan holda amalga oshirilgan regression tahlil jarayonida “Chortoq” MCHJda aniqlangan parametrlar hamda modelning ahamiyati dastur tomonidan hisoblangan asosiy baholash ko‘rsatkichlari orqali baholangan. Dasturiy paket asosida amalga oshirilgan tahlil natijaviy omilning ta’sir etuvchi omillar bilan ko‘plikdagi korrelyatsiyasi $r=0,9904$ ga, determinatsiya koeffitsienti $R^2=0,9810$ ga teng ekanligini ko‘rsatmoqda. Bu esa ta’sir etuvchi omillar

[1] Muallif ishlanmasi.

bilan natijaviy omilning yuqori zichlikda korrelyatsiyaga ega ekanligini va hisoblangan ko‘rsatkichlar bilan real ko‘rsatkichlar orasidagi farq sifatidagi qoldiqlarning ham zich bog‘langanligini ko‘rsatadi.

Yuqoridagi tahliliy ma’lumotlar hamda ko‘rsatkichlar qiymatlarini baholash asosida “Chortoq” MCHJda kelgusi davrda rivojlantirish strategiyalari asosida ssenariylar ishlab chiqish jarayonida qo‘llash mumkin.

Ushbu oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxona o‘z faoliyatini boshqarish jarayonida yuqorida ishlab chiqilgan ko‘p omilli modeldan foydalangan holda quyidagilarga asosiy e’tiborni qaratishi lozim:

- boshqaruv xarajatlarini oshirmagan holda boshqaruv xodimlari sonini ma’lum miqdorgacha oshirishi mumkin, model bo‘yicha boshqaruv xodimlari sonining ortishi sof foyda hajmining ortishiga olib kelsada, boshqaruv xarajatlarining ortishi natijaviy ko‘rsatkich hajmining pasayishiga olib keladi;
- mavjud resurs bazasiga tayangan holda korxona tomonidan qo‘shimcha investitsiyalarning jalb etilishi ham korxona sof foydasi hajmining qo‘shimcha o‘sishiga olib keladi, biroq ushbu qo‘shimcha o‘sish hajmi unchalik yuqori emas. Bundan ko‘rinadiki, mavjud quvvatlar doirasida korxonaning ishlab chiqarish sikllari investitsiyaga to‘yinish fazasiga o‘tgan.

Tuzilgan trend modeldan foydalanishda ushbu korxonada boshqaruv nuqtai nazaridan kiritilayotgan resurslar (ekzogen omillar) hajmini har bir birlik qo‘shimcha kiritilayotgan resurs birligidan olinadigan samarani hisobga olgan holda belgilash resurs samaradorligini optimal ta’minlash imkonini beradi hamda korxonaning muvozanatlashgan holda barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatimizda oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatini strategik boshqarish mexanizmiga ta’sir etuvchi omillar va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish asosida quyidagi xulosalarni qilish mumkin:

- oziq-ovqat mahsulotlariga ehtiyoj hamisha yuqori bo‘lganligini, bu ehtiyoj bundan buyon ham ortib borishini hisobga olib, mazkur sohadagi tadbikorlik sub’ektlari faoliyatini yanada rivojlantirish zarur;
- oziq-ovqat korxonalarining xomashyo manbai bo‘lgan qishloq xo‘jaligida sanoat ishlab chiqarishning kichik sanoat korxonalariga davlat ko‘magini berish hamda ularga qo‘shimcha imtiyozlar yaratish; oziq-ovqat sanoati korxonalarni ishlab chiqarish salohiyati, bilimi hamda malakasini oshirish tizimini yangilash va takomillashtirish.

Shunday qilib, bir tomondan, oziq-ovqat sanoati korxonalarini strategik boshqarish usullari va mexanizmlarini yetarli darajada bilmaslik va ishlab chiqish darajasi va ushbu muammoning ilmiy va amaliy ahamiyati, ikkinchi tomondan, tadqiqoti mavzusini tanlashni belgilab berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ziyavitdinova N.M. Oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatin iqtisodiy samaradorligini oshirish. Diss. i.f.n. Bux oz.ov YeSTI 155 b. B. – 2006.

2. Umarov I.Yu. Oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish (Andijon viloyati misolida). Diss. i.f.n. AMII 149 b. A. – 2009. Полухин А.А. Организационно-экономический механизм модернизации сельского хозяйства России/ А.А. Полухин// Аграрная Россия. – 2012 — №5 с. 23-29.

3. www.stat.uz -O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi rasmiy sayti.

4. Архипов В.М. Стратегический менеджмент. Учебное пособие. — СПб: Изд-во СПб гос. ин-та экономики и финансов, 1998. — 161 с.

5. Афанасьев В.Г. Общество: системность, познание и управление. — М.: Политиздат, 1981. — 432 с.

6. П.Баранчеев В. Стратегический анализ: технология, инструмент, организация // Проблемы теории и практики управления. — 1998. — №5. — С.85-92

7. Баутин В.М. Информационное обеспечение агропромышленного комплекса: методология, организация, эффективность. — М.: Колос, 1992. — 200 с.

8. Портер, М. 2001. Компетитион Moccow: Publishing House “Williams”, 495 п. П. 207.

9. Saidova D.N., Rustamova I.B., Tursunov Sh.A. «Agrar siyosat va oziq-ovkat xavfsizligi». –T.: O‘quv qo‘llanma. «O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Asosiy kutubxonasi» bosmaxonasi nashriyoti, 2016.12-b.

O‘ZBEKISTONDA AHOLI TURMUSH FARAVONLIGI ASOSIY KO’RSATKICHLARI VA ULAR DINAMIKASI TAHLILI

Atayev Jahongir Erkinovich
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti
“Biznes va boshqaruv” kafedrasi
Stajyor o‘qituvchisi
E-mail: xortrudstat@umail.uz

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekistonda aholi turmush farovonligi asosiy ko‘rsatkichlari dinamikasi va o‘zgarishlar qiyosiy tahlili amalga oshirilgan. O‘zbekistonda aholi jon boshiga umumiy hamda real umumiy daromadlar o‘zgarish dinamikasining hududlar kesimidagi farqlanishi tadqiq qilingan. Shuningdek, Hududlar kesimida aholi jon boshiga umumiy va real umumiy daromadlarni statistik tahlili natijalari asosida o‘zgarishlarning barqarorlikka ta’siri o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Aholi, turmush farovonligi, real daromadlar, faollik darajasi, Jini koeffitsiyenti, o‘sish sur’ati.

Аннотация

В данной работе проведен сравнительный анализ динамики и изменений основных показателей благосостояния населения Узбекистана. Исследованы различия в динамике совокупных и реальных совокупных доходов на душу населения в разных регионах Узбекистана. Кроме того, на основе результатов статистического анализа совокупных и реальных совокупных доходов на душу населения в разных регионах изучено влияние этих изменений на устойчивость экономики.

Ключевые слова: Население, благосостояние, реальные доходы, уровень активности, коэффициент Джини, темпы роста.

Abstract

This paper conducted a comparative analysis of dynamics and changes in main indicators of the well-being of the population in Uzbekistan. Studied the differences in dynamic changes in total and real total per capita incomes in Uzbekistan across regions. In addition, studied impact of changes on sustainability based on results of statistical analysis of total and real total per capita incomes across regions.

Keywords: Population, well-being, real incomes, activity level, Gini coefficient, growth rate.

KIRISH

Aholi turmush farovonligini oshirish, turmush farovonligini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkichlar barqarorligini ta’minlash, aholi daromadlari orasidagi tengsizliklarni bartaraf etish ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni belgilashda tayanch maqsad va muhim indikator vazifasini bajaradi. Xususan, bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi daromadlari tengsizligini kuchayishi bilan bog‘liq muammolarni kuchayishi ushbu maqsadga va uning asosida belgilanadigan vazifalarning ahamiyatlilik darajasini yanada oshiradi.

Shu sababdan mamlakatimizda aholi turmush farovonligini oshirish, o‘rta sinfni shakllantirishda masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan Yangi O‘zbekistonning 2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasida aholi turmush farovonligini oshirish, daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoriga kirish, jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadlarni oshirishga alohida e’tibor qaratilgan bo‘lib 21-maqsadida iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni - 1,6 baravar va 2030-yilga borib aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadni 4 ming AQSh dollaridan oshirish hamda “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kirish uchun zamin yaratish masalalari belgilab berilgan [1].

ADABIYOTLAR SHARHI

Aholi turmush farovonligi ko‘p o‘lchovli tushuncha bo‘lib [6], natijada mazkur tushunchani tavsiflash hamda turmush farovonligini o‘lchash masalasi ko‘plab tadqiqotlarda obyekt vazifasini bajarmoqda. Keyingi davrda esa olimlar subyektiv farovonlik o‘lchash muammosini tadqiq qilishmoqda [2,5]. Bunda olimlar insonlarni moddiy ta’minlanganlik bilan bir qatorda ularning ruhiy holatlarini ham hisobga olishni nazarda tutadi [4]. Subyektiv farovonlik gedonik farovonlik va hayotdan qoniqishning kombinatsiyasi sifatida izohlanadi [3]. Keng ma’noda, subyektiv farovonlik muhim indikator yoki proksi o‘zgaruvchi vazifasini bajarishi mumkin va shaxsning umumiy obyektiv farovonligini o‘zida mujassamlashtiradi. Subyektiv farovonlikni baholash qiyosiy tengsizlik aniqlash va odamlar uchun yaratilgan imkoniyatlarning to‘liq tushunish uchun daromaddan tashqarida bo‘lgan odamlar hayoti haqida tushunchalarni taklif qilishni o‘z ichiga [6]. Biroq shunday bo‘lishiga qaramasdan aholi turmush farovonligi, jumladan ruhiy xotirjamligi ularning daromadlari bilan bog‘liqligicha qolmoqda. Shu sababdan mazkur maqolada daromadlar o‘zgarishini turmush farovonligiga ta;siri qarab chiqilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatda aholi turmush farovonligini belgilovchi asosiy indikatorlarning ijobiy o‘zgarishi kuzatilgan bo‘lsada, ushbu yo‘nalishda amalga oshirilgan ishlar samaradoriligini baholashda nafaqat miqdor va balki sifat ko‘rsatkichlaridagi o‘zgarishlarning o‘zaro bog‘liqliklari va barqarorlik darajalarini statistik usullar asosida tadqiq qilish asosida mavjud imkoniyatlardan yanada to‘laqonli foydalanish yo‘llarini aniqlash kunning muhim mavzularidan biri hisoblanadi. Ko‘pchilik holatlarda daromadlar tengsizligi muammosi hududlar kesimidagi taraqqiyot darajalarining farqlari hisobiga kelib chiqadi. Shuni hisobga olgan holda mamlakat hududiy birliklari kesimida aholi jon boshiga umumiy va real umumiy daromadlar o‘zgarish dinamikasi tadqiq qilindi.

Buning uchun 2010-2024 yillar ma’lumotlari asos qilib olinib, ushbu yillardagi o‘sish sur’ati aholi jon boshiga umumiy va real umumiy daromadlarning o‘zgarishdagi farqlar o‘rganildi. Mamlakatda aholi jon boshiga umumiy daromadlar yiliga o‘rtacha 18,7 foizga o‘sib, 11 barobarga oshishi ta’minlangan. Hududlar kesimida eng yuqori o‘sish sur’atlari 20,4 (Toshkent shahri) va past o‘sish sur’ati 16,6 (Sirdaryo viloyati)

foizni tashkil qilgan. Natijada, jon boshiga umumiy daromadlar hajmi Toshkent shahrida 13,4 barobarga, Sirdaryo viloyatida esa 8,5 barobarga oshishi kuzatilgan oradagi farq 5,8 birlikni tashkil qilmoqda (1-rasm).

Ushbu farq yetarli darajada katta bo‘lib, daromadlaridagi tengsizligi mavjudligi va uning nisbatan oshganligi hududlar kesimida aholi farovonligini farq qilishiga sabab bo‘lmoqda. Aslini olgan hududiy rivojlanishdagi farqlarni to‘liq bartaraf etish imkonsiz, chunki ularning joylashuvi, mavjud imkoniyatlari bunga to‘sqinlik qiladi, biroq farqlarni maksimal darajada kamaytirish mumkin.



1-rasm. Aholi jon boshiga umumiy hamda real umumiy daromadlar o‘zgarish dinamikasining hududlar kesimidagi o‘zgarishi (2010-2024 yillar)

Aholi jon boshiga real umumiy daromadlari dinamikasi tahlil ularni nisbatan barqarorligi, hududlar kesimidagi o‘zgarish 2010-2024 yillarda 2,4 va 3,5 barobar atrofida o‘zgarib turganligini ko‘rsatmoqda. Ushbu holatda ham maksimal va minimal qiymatlar Toshkent shahri va Sirdaryo viloyatiga to‘g‘ri kelgan. Mamlakat miqyosida o‘rtacha o‘sish sur’ati 8,3 foizni tashkil qilgani holda jon boshiga umumiy daromadlar o‘sish sur’atiga nisbatan 10,4 foizga kamroq ekan.

Hududlar kesimidagi o‘sish sur’atlarini farq qilishi daromadlardagi tengsizligini mos ravishda oshishini. Holatni baholash uchun tadqiq qilinayotgan davrda hududlarda jon boshiga umumiy va real umumiy daromadlarni tavsiflovchi statistik ko‘rsatkichlari hisoblanildi. Oldingi tahlilda mamlakat miqyosidagi ko‘rsatkich olingan bo‘lsa, ushbu

tahlilda o‘rtacha ko‘rsatkichdan foydalanildi. Chunki, hududlar kesimidagi o‘zgarishlarning turli darajada bo‘lishi va ularning vaznini bir xil emasligi ikkala ko‘rsatkichning farqli bo‘lishini ta’minlaydi. Aniqlangan qiymatlar farqning mavjudligi, biroq ahamiyatli darajada bo‘lmaganligini ko‘rsatmoqda.

Variasoin kenglikning oshib borishi hududiy farqlarning ham mos ravishda o‘zgarishini ta’minlaydi. Daromadlarning doimiy o‘sish sur’atini ta’minlanishi ushbu ko‘rsatkichning ham mos ravishda oshiga sabab bo‘lgan. Shu sababdan holatni baholash maqsadida variatsion kenglik ko‘rsatkichini oldingi davrga nisbatan o‘sish sur’ati qarab chiqildi. Aholi jon boshiga umumiy daromadlar bo‘yicha aniqlanolgan variatsion kenglikning o‘sish sur’ati 36,1 va 6,02 foiz atrofida. Ya’ni, 2024-yilda ko‘rsatkich 2023-yildagiga nisbatan 36,1 foizga oshgan, bu maksimal va minimal ko‘rsatkichlar orasidagi farqning oshganligini ko‘rsatadi. Minmal o‘sish sur’ati 2020-yilga, pandemiya sababli iqtisodiyotdagi cheklashlar davriga to‘g‘ri keladi (1-jadval).

2018-yilda aholi jon boshiga umumiy daromadlar bo‘yicha aniqlanilgan variatsion kenglik oldingi davrdagiga nisbatan 18,1 foizga oshib hududiy farqlarning kengayganligini ko‘rsamoqda. Biroq, aholi jon boshiga real umumiy daromadlar bo‘yicha aniqlanilgan qiymatning 0,6 foizga kamayishi kuzatilgan. Umumiy hisobda mazkur yilda daromadlar tengsizligini bartaraf etish bo‘yicha ijobiy natijalarga erishilgan deyish mumkin. Ikkala ko‘rsatkich o‘sish sur’atlaridagi farq esa hududlardagi narxlar darajasi farqini oshganligini ko‘rsatadi.

Hisoblanilgan o‘rtacha kvadratik o‘zgarishlarining variatsion kenglikdagi o‘zgarishlarga nisbatan farq qilishi hududiy farqlardagi keskinlikni oshishi yoki aksincha holatni ifodalaydi. Ikkala o‘sish sur’atlari yillar kesimidagi farqlarini o‘zgarishi keskinlikni ham nobaroqar bo‘lganligini ifodalaydi. Xususan, 2012-yilda aholi jon boshiga umumiy daromadlar bo‘yicha aniqlanilgan variatsion kenglik 21,3 foizga oshgan bo‘lsa, o‘rtacha kvadratik chetlanish 14,2 foizga oshgan. Bu o‘z hududlar kesimidagi farqlarning maksimal va minimal qiymatlari yuqori darajada o‘zgargan bo‘lishiga qaramasdan keskinlik darajasini pasayganligini ko‘rsatmoqda. 2015-yilda esa teskari holatni kuzatish mumkin. Ayni holatni aholi jon boshiga real umumiy daromadlar darajasida ham kuzatish mumkin.

Ushbu jarayonga aniqlik kiritish va dinamikani tadqiq qilish maqsadida standart ko‘rsatkichdan foydalanildi. Ya’ni, variatsion kenglikni o‘rtacha kvadratik chetlanishga bo‘lish asosida aniqlanilgan mazkur ko‘rsatkich keskinlik darajasini baholashga xizmat qiladi. Ushbu holatda variatsion kenglikni oshishi standart ko‘rsatkichga ijobiy, o‘rtacha kvadratik chetlanishni oshishi salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Natijada, standart ko‘rsatkichning oshishi ikki holatda kuzatiladi, variatsion kenglikni oshishi yoki o‘rtacha kvadratik chetlanishni pasayishi.

Natijalarni ko‘rsatishicha 2012-yilda standart ko‘rsatkichni keskin oshishi variatsion kenglik oshishi va o‘rtacha kvadratik ko‘rsatkichni pasayishi hisobiga sodir bo‘lgan. 2015-yilda esa teskari holatni kuzatilgan. Bir so‘z bilan aytganda standart ko‘rsatkichning o‘zgarish dinamikasi asosida mamlakatda hududlar kesimidagi daromadlar tengsizligidagi keskinlikni oshgan yoki kamayganligini baholash mumkin.

1-jadval

Hududlar kesimida aholi jon boshiga umumiy va real umumiy daromadlarni statistik tahlili natijalari[1]

	Hududlar kesimida aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi, yillik (ming so‘m)					
	O‘rtacha qiymat	**Maksimal qiyimat**	**Minimal qiymat**	**Variatsion kenglik**	**O‘ratcha kvadratik chetlanish**	**Standart ko‘rsatkich**
2010	2267,6	4505,9	1498,9	3007,0	877,3	3,4
2011	3039,9	5641,4	1972,6	3668,8	1070,1	3,4
2012	3605,2	6865,6	2414,4	4451,2	1222,5	3,6
2013	4303,6	8307,3	2856,2	5451,1	1469,3	3,7
2014	4914,7	9254,4	3316,1	5938,3	1614,7	3,7
2015	5620,4	10614,8	3906,4	6708,4	1903,3	3,5
2016	6439,3	12313,1	4371,2	7941,9	2169,0	3,7
2017	7932,5	15736,2	5507,7	10228,4	2761,0	3,7
2018	9845,5	19198,1	7116,0	12082,1	3365,2	3,6
2019	11770,5	24612,0	8485,7	16126,3	4462,0	3,6
2020	13087,8	26334,9	9215,4	17119,4	4874,5	3,5
2021	15953,5	31496,5	11731,3	19765,2	5904,8	3,3
2022	18820,7	38142,2	13789,1	24353,2	6858,1	3,6
2023	21182,6	47182,0	15043,9	32138,1	8796,2	3,7
2024	24538,1	60581,6	16834,4	43747,2	11808,0	3,7
	Hududlar kesimida aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi, yillik (ming so‘m)					
	O‘rtacha qiymat	**Maksimal qiyimat**	**Minimal qiymat**	**Variatsion kenglik**	**O‘ratcha kvadratik chetlanish**	**Standart ko‘rsatkich**
2010	2107,2	4152,2	1389,1	2763,1	804,1	3,4
2011	2629,8	4808,2	1696,1	3112,2	904,3	3,4
2012	2906,4	5476,6	1931,8	3544,7	967,7	3,7
2013	3237,9	6243,3	2128,9	4114,4	1094,7	3,8
2014	3471,6	6536,8	2339,7	4197,1	1126,2	3,7
2015	3764,0	7131,6	2611,1	4520,5	1264,3	3,6
2016	4086,1	7851,9	2762,5	5089,4	1372,6	3,7
2017	4600,4	9131,7	3201,7	5930,0	1588,4	3,7
2018	4859,6	9405,7	3509,1	5896,6	1636,0	3,6
2019	5077,1	10543,8	3594,7	6949,1	1899,4	3,7
2020	4999,9	9753,0	3461,7	6291,3	1800,9	3,5
2021	5499,1	10338,2	3994,8	6343,4	1937,8	3,3
2022	5816,4	11185,9	4326,4	6859,5	1989,5	3,4
2023	5943,6	12427,6	4300,4	8127,1	2284,1	3,6
2024	6272,0	14341,4	4403,7	9937,7	2754,7	3,6

[1] Manba: muallif ishlanmasi

Aholi turmush farovonligini baholashda daromadlarning real ko‘rsatkichlari asosida baholash talab qilinadi. Chunki, inflyatsiya darajasining yuqoriligi sharoitida daromadlar o‘zgarishidagi natijalar to‘liq real o‘zgarishlarni ifodalamasligi mumkin. Shu sababdan 100 ta uy xo‘jaligiga to‘g‘ri keladigan uzoq muddatli foydalaniladigan vositalar o‘zgarishlari asosida qarab chiqamiz (2-jadval).

2-jadval

O‘zbekistonda 100 ta uy xo‘jaligiga to‘g‘ri keladigan uzoq muddatli foydalaniladigan vositalar sonini o‘zgarish dinamikasi[1]

	Yengil avtomobillar soni	Mobil telefonlar soni	Kir yuvish mashinalar soni	Shaxsiy kompyuterlar soni	Elektr changyutgichlar soni	Konditsionerlar soni	Sovutgich va muzlatgichlar soni	Televizorlar soni
2010	21	145	75	12	37	19	99	132
2015	42	234	79	47	53	32	101	152
2020	49	287	90	60	60	40	107	162
2021	53	308	94	63	64	43	114	170
2022	55	309	95	64	69	45	115	171
2023	57	349	96	66	71	47	118	176
2024	58	356	101	73	82	56	121	177
2024-yilda 2010-yilga nisbatan o‘zgarish birlikda	**37**	**211**	**26**	**61**	**45**	**37**	**22**	**45**
2024-yilda 2010-yilga nisbatan o‘zgarish marta	**2,8**	**2,5**	**1,3**	**6,1**	**2,2**	**2,9**	**1,2**	**1,3**

Tahlillar 8 turdagi vositaning barchasini oshganligini ko‘rish mumkin. Ammo, ular o‘zgarishidagi farqlarni aniqlash maqsadida ikkita ko‘rsatkich, ya’ni dastlab 2024-yilda 2010-yilga nisbatan o‘zgarishining birlikda qarab chiqildi. Unga ko‘ra 100 ta xo‘jalikka to‘g‘ri keladigan yengil avtomobillar soni 37 birlikka, mobil telefonlar soni 211 birlikka oshgan. Boshqa vositalar bilan ham ta’minlanganlik darajasini oshganligini ko‘rish mumkin.

Ma’lumotlarning masshtab jihatdan bir biridan farq qilishini hisobga olgan holda nisban o‘zgarishlarini qarab chiqamiz, unga ko‘ra har 100 ta uy xo‘jaligiga to‘g‘ri keladigan mobil telefonlar sonini 211 birlikka oshgan bo‘lishiga qaramasdan 2010-yilga nisbatan 2,5 barobarga ko‘paygan. Shaxsiy kompyuterlar soni 61 birlikka oshgan, biroq nisbat o‘zgarishi 6,1 barobarni tashkil qiladi. Shaxsiy kompyuterni hisobga olmaganda asosiy o‘zgarishlar konditsioner va yengil avtomobillarga to‘g‘ri keladi.

[1] muallif ishlanmasi

Eng past ko‘rsatkichlar sovitgich va muzlatgichlar, kir yuvish mashinalari hamda televizorlarga to‘g‘ri kelgan. Umumiy hisobda barcha vositalarning bilan ta’minlanganlikni oshishi aholi turmush faravonligini oshganligini asoslaydi.

Aholi daromadlari taqsimotidagi notekislik baholash uchun Jini koeffitsiyentidan foydalaniladi va mamlakatimizda ham ushbu ko‘rsatkich statistikasi yuritiladi. Uning 2010-2024 yillardagi o‘zgarish dinamikasi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘lgan (2-rasm).



2-rasm. O‘zbekistonda Jini koeffitsiyenti dinamikasi

Mazkur koeffitsiyent nol va bir orasidagi qiymatlarni qabul qiladi, birga yaqin bo‘lishi notekislikning yuqoriligini, nolga yaqin bo‘lishi daromadlar taqsimotida tenglik ta’minlanganligini ko‘rsatadi. Jinni koeffitsiyenti 2010-2024 yillarda 0,3 dan kichik va 2010-yildan 2016-yilga qadar pasayishi kuzatilgan, 2016-2019 yillarda uning deyarli o‘zgarishsiz qolgan. 2020 yilga kelib oshgan va 2021 va 2024-yillarda biroz pasaygan, 2022 va 2023-yillarda oshgan. Bozor iqtisodiyoti sharoitida daromadlar notekisligi tabiiy holat hisoblanadi, chunki bu bozor ojizligining muhim bir ko‘rinishi bo‘lib, bozor iqtisodiyoti amal qilayotgan davlatlarda bu muammolar ta’sirini yumshatish uchun ijtimoiy siyosat yuritiladi. Jini koeffitsiyenti diapazonini kichikligi daromadlar notekislikni normal holatda deyishga asos bo‘ladi.

Mamlakatimizda aholi daromadlari notekisligini yanada aniqroq ifodalash maqsadida aholi daromadlarining 20-foizli guruhlari bo‘yicha notekis taqsimlanishi ko‘rsatkichlari statistikasi yuritila boshlandi. Mazkur ko‘rsatkich 2017-yildan keyingi davr uchun mavjud (3-jadval).

3-jadval

Aholi daromadlarining (aholining) 20-foizli guruhlari bo‘yicha notekis taqsimlanishi ko‘rsatkichlari (yillik foizda)

	I kvintil guruhi yillik foizda	II kvintil guruhi, yillik foizda	III kvintil guruhi, yillik foizda	IV kvintil guruhi, yillik foizda	V kvintil guruhi, yillik foizda
2017	9,3	13,6	17,3	21,8	37,9
2018	9,3	13,6	17,2	22	37,8
2019	9,1	13,6	17,4	22,6	37,3
2020	8,5	13,3	17,2	22,6	38,3

	I kvintil guruhi yillik foizda	II kvintil guruhi, yillik foizda	III kvintil guruhi, yillik foizda	IV kvintil guruhi, yillik foizda	V kvintil guruhi, yillik foizda
2021	8,4	13,4	17,5	23	37,6
2022	8,6	13,1	16,8	22	39,5
2023	8,3	12,8	16,9	22,7	39,2
2024	8,3	12,9	16,9	22,7	39,2

Birinchidan uchinchigacha bo‘lgan kvintillarda pasayish, to‘rtinchi va beshinchi kvintillarda oshishni kuzatish mumkin. Ya’ni, bu dastlabki yigirma foiz aholiga to‘g‘ri keladigan daromadning ulushi 9,3 foizdan 8,3 foizgacha kamayganligini, oxirgi yigirma foizga to‘g‘ri keladigan daromad ulushini 37,9 foizdan 39,2 foizga qadar oshganligini ko‘rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlil natijalariga ko‘ra aholi daromadlarining oshishi bilan ularning hududlar kesimidagi farqlarining ham oshgan. Agarda, hudud salohiyati nuqtai nazardan mavjud farqlarni hisobga oladigan bo‘lsak, buni normal holat sifatida qabul qilish mumkin. Shuningdek, aholi turmush faravonligini ifodalashda muhim bo‘lgan ko‘rsatkichlar, xususan daromadlar notekisligini ifodalovchi indikatorlarda ham o‘ziga xos o‘zgarishlar kuzatilgan. Jumladan Jini koeffitsiyenti tadqiq qilinayotgan davrning boshida pasaygan, ammo oxirida o‘sgan. Biroq o‘zgarishlar normal holatda bo‘lib, umumiy hisobda salbiy ta’sirga ega emas. Natijada, aholini turmush farovonligini oshishi ta’minlangan bo‘lib, har 100 uy xo‘jaligiga to‘g‘ri keladigan uzoq muddatli foydalaniladigan vositalarning o‘sishi ta’minlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni. https://lex.uz/docs/5841063

2. Deaton, A. (2008). Income, health, and well-being around the world: Evidence from the gallup world poll. Journal of Economic Perspectives, 22(2), 53–72.

3. Diener, E., Suh, E. M., Lucas, R. E., & Smith, H. L. (1999). Subjective well-being: Three decades of progress. Psychological Bulletin, 125(2), 276–302.

4. Dolan, P., & White, M. (2007). How can measures of subjective well-being be used to inform public policy? Perspectives on Psychological Science, 2(1), 71–85.

5. Frey, B. S., & Stutzer, A. (2002). What can economists learn from happiness research? Journal of Economic Literature, 40(2), 402–435.

6. Margolis, S., Schwizgebel, E., Ozer, D. J., & Lzubomirsky, S. (2021). Empirical Relationships Among Five Types of Well-Being. In M. T. Lee, L. D. Kubzansky, & T. J. VanderWeele (Eds.), Measuring Well-Being: Interdisciplinary Perspectives from the Social Sciences and the Humanities. New York City: Oxford Univ. Press.

7. Veenhoven, R. (2005). Return of inequality in modern society? Test by dispersion of life-satisfaction across time and nations. Journal of Happiness Studies, 6(4), 457–487.

СОВРЕМЕННАЯ МЕТОДОЛОГИЯ ОЦЕНКИ ФАКТОРОВ, ВЛИЯЮЩИХ НА РАЗВИТИЕ СУБЪЕКТОВ МАЛОГО БИЗНЕСА

Исраилов Рустамбек Ибрагимович
д.э.н.(DSc), профессор
Наманганский государственный технический университет
E-mail: israilov_rustambek@mail.ru

Аннотация

В данной статье рассмотрена методика оценки факторов, влияющих на развитие субъектов малого бизнеса, а также выявление факторов, влияющих на развитие малого бизнеса с использованием PEST-анализа (политические, экономические, социально-демографические, технологические факторы), сущность PEST-анализа — определение и оценка влияния макроэкологических факторов на текущие и будущие результаты деятельности субъектов малого бизнеса.

Ключевые слова: малый бизнес, предпринимательство, эффективность, анализ, факторы, оценка, политические факторы, экономические факторы, социально-демографические факторы, технологические факторы, результат.

Annotatsiya

Ushbu maqolada kichik biznes subyektlarini rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarini baholashning uslubiyati, kichik biznes rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni PEST (siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy-demografik, texnologik omillar) tahlilidan foydalanib aniqlash, PEST tahlilining mohiyati makro-ekologik omillarning kichik biznes subyektlarining joriy va kelajakdagi faoliyati natijalariga ta’sirini aniqlash va baholash, kabi masalalar ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, tadbirkorlik, samaradorlik, tahlil, omillar, baholash, siyosiy omillar, iqtisodiy omillar, ijtimoiy-demografik omillar, texnologik omillar, natija.

Abstract

This article examines the methodology for assessing factors influencing the development of small business entities, the identification of factors affecting the development of small business using PEST analysis (political, economic, socio-demographic, technological factors), the essence of PEST analysis — determining and evaluating the impact of macro-environmental factors on the current and future performance of small business entities.

Keywords: small business, entrepreneurship, efficiency, analysis, factors, assessment, political factors, economic factors, socio-demographic factors, technological factors, result.

ВВЕДЕНИЕ

Малый бизнес является важной неотъемлемой частью современной экономики, поэтому исследования, связанные с ним, являются весьма актуальными. На этапе глобализации роста мировой экономики малый бизнес сталкивается с множеством препятствий: в развивающихся странах – из-за

недостаточного внимания со стороны государства к поддержке, что делает деятельность неэффективной, в развитых странах исследования показывают, что проблемы не столь связаны с внутренними и внешними факторами.

Изменение ситуации в деятельности малого бизнеса в положительную сторону, повышение эффективности использования ресурсов, предложение инновационных идей работниками при социальной солидарности, переход к цифровой экономике, основанной на развитие IT-технологий, создают основу для развития. В некоторых развитых странах результаты деятельности малого бизнеса составляют более половины годового ВВП. Основная часть экономически активного населения занята именно в этом бизнесе. Такой результат обеспечивается не только государственными условиями для осуществления предпринимательской деятельности, но и ответственностью субъектов малого бизнеса, честностью и прозрачностью их деятельности.

Ситуация в Узбекистане аналогична – значительная часть валового внутреннего продукта формируется за счет малого бизнеса, однако вопросы честности и прозрачности ведения бизнеса остаются проблемой. Научное изучение малого бизнеса, функционирующего в Узбекистане, является актуальным, так как, оно может выявить проблемы развития и возможные способы их устранения, что в свою очередь способствует росту экономики Узбекистана. Возможно, самым важным вкладом малого бизнеса, помимо обеспечения экономического роста, является регулирование вопросов занятости, что проявляется в создании новых рабочих мест. Кроме того, малый бизнес способствует формированию среднего класса, составляющего значительную часть экономически активного населения.

МЕТОДОЛОГИЯ

Для анализа существуют несколько вариантов, которые могут показать, как макросреда влияет на субъекты предпринимательства. При анализе развитых стран целесообразно использовать STEP-анализ, так как они обладают стабильной политической системой и развитой экономикой, где приоритет отдается социальным и технологическим факторам. PEST используется для анализа стран, которые не могут быть классифицированы как развитые. Здесь решающими факторами считаются политические и экономические.

В процесе проведении исследования мы постарались выявить факторы, эффективно влияющие на деятельность малого бизнеса, используя их классификацию, а также определить факторы, влияющие на развитие малого бизнеса, с помощью PEST-анализа (политические, экономические, социально-демографические, технологические факторы).

Сущность PEST-анализа заключается в определении и оценке влияния макроэкологических факторов на текущие и будущие результаты деятельности субъектов малого бизнеса.

PEST является аббревиатурой четырех английских слов:

P – Politicallegal, E – Economic, S – Sociocultural, T – Technological forces.

Цель PEST-анализа заключается в мониторинге изменений макросреды по четырем основным направлениям и выявлении тенденций и явлений, которые не находятся под контролем предприятия, но оказывают влияние на принятие стратегических решений.

PEST-анализ представляет собой исследование, основанное на определении политических, экономических, социально-демографических и технологических факторов, влияющих на рассматриваемый процесс, а также на оценке степени влияния отдельных факторов внутри этих групп на данный процесс.

Поэтому рекомендуется использовать данный анализ для учета макросреды малого бизнеса в Узбекистане. Для выявления состояния малого бизнеса в Узбекистане в 2018–2023 годах нами был проведен анализ с помощью PEST-методики.

Данный метод часто используется академиками и практиками и может служить первым шагом для последующих исследований. Как отмечалось выше, влияние макросреды на рост малого бизнеса Узбекистана рассматривается с точки зрения четырех групп факторов: политических, экономических, социальных и технологических.

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

В результате анализа исследований ученых, отчетов аналитических агентств и сбора данных на основе опроса специалистов в данной области, проведенного авторами, были сформированы группы факторов по четырем направлениям, а также их элементы, определенные по методу PEST-анализа. Для оценки влияния каждого элемента в составе группы факторов использовался диапазон от «-1 до -3» и от «+1 до +3». Знаки «минус» и «плюс» позволяют определить «негативное» или «позитивное» воздействие элемента. Описание уровня влияния воздействия факторов приведено в таблице 1.

Таблица 1

Оценка положительных или отрицательных элементов по группам PEST-факторов в малом бизнесе[1]

Рейтинг	Описание воздействия
Описание факторов с отрицательным влияние	
-1	Влияние факторов слабое, любое их изменение не приводит к существенным изменениям для малого бизнеса
-2	Может незначительно частично повлиять на показатели экономической эффективности малого бизнеса.
-3	Существенное влияние факторов, любое их изменение оказывает значительное воздействие на деятельность (развитие) малого бизнеса, что приводит к изменениям
Описание факторов с положительным влиянием	
+1	Уровень воздействия фактора низкий, любые изменения фактора почти не влияют на уровень роста малого бизнеса.

[1] Разработана автором

Рейтинг	Описание воздействия
+2	Лишь значительные изменения фактора оказывают влияние на уровень развития малого бизнеса.
+3	Уровень воздействия фактора высокий, любое колебание показателей фактора оказывает влияние на уровень роста малого бизнеса.

Учитывая оценку влияния внешних факторов на малый бизнес, в таблице-2 приведена сформированная матрица по результатам PEST-анализа.

Таблица 2

Определение факторов, влияющих на внешнюю среду роста малого бизнеса в Узбекистане методом PEST[1]

Факторы	Пояснение к группе факторов
Политические факторы (P)	
Уровень интеграции Узбекистана в мировую экономику	Направление интеграции Узбекистана в мировое экономическое сообщество оказывает положительное влияние на малый бизнес. Субъекты малого бизнеса получают возможность налаживать партнерские связи, учиться за рубежом, повышать качество объектов недвижимости. Больше внимания уделяется стандартам качества выполнения работ. Имеются возможности открытия предприятий в других странах и расширения рынков. Политическая ситуация вызывает незначительные, но отрицательные колебания, влияющие на малый бизнес. В течение прошедших лет наблюдались существенные изменения, были внесены многочисленные законодательные инициативы, которые в будущем должны радикально изменить правила игры на рынке (ипотека, сокращение полномочий вмешательства в деятельность малого бизнеса) и принести значительные выгоды.
Политическая ситуация в Узбекистане	
Изменения в законодательной базе	
Экономические факторы (E)	
Постоянные колебания валютного курса по отношению к национальной валюте	Изменение валютного курса и девальвация национальной валюты приводят к росту цен на импортное сырье, что влечет за собой рост себестоимости продукции и снижение темпов производства. Снижение покупательной способности населения Узбекистана вызывает постоянные изменения спроса на различные объекты. За последние годы активное развитие малого бизнеса привело к усилению конкуренции, что отразилось на основных участниках рынка. Субъекты малого бизнеса в отрасли конкурируют не только за клиентов и качество товаров и услуг, но и за сотрудников. В соответствии с законодательным увеличением минимальной заработной платы возросла оплата труда работников отрасли, а низкий объем собственных финансовых ресурсов влияет на финансовое состояние субъектов предпринимательства.
Рост цен на материалы (сырье)	
Покупательная способность населения	
Усиление конкуренции малого бизнеса	
Повышение заработной платы работников	
Малый объем собственных финансовых ресурсов	
Социально-культурные факторы (S)	
Изменение предпочтений и ценностей потребителей (физических и юридических лиц) в отношении товаров, производимых малым бизнесом в Узбекистане	Несмотря на рост цен и снижение покупательной способности, на рынке увеличивается стремление потребителей к более качественным и дорогим объектам, их удобству, наличию инфраструктуры и другим факторам. В будущем эти тенденции существенно повлияют на уровень конкуренции по качеству и будут стимулировать развитие малого бизнеса. Безвизовый

[1] Разработана автором

Факторы	Пояснение к группе факторов
Трудовая миграция специалистов за рубеж	режим и желание получать больше заработка способствуют трудовой миграции, одновременно побуждая владельцев строительного бизнеса повышать уровень заработной платы сотрудников.
Демографическая ситуация	
Профессиональное развитие в малом бизнесе	
Технологические факторы (Т)	
Развитие цифровизации	Предприниматели получают новые технологии для воздействия на спрос и предложение, поиска покупателей, продвижения продукции и товаров на рынке. Автоматизация рабочих процессов и управления позволяет постепенно снижать зависимость от человеческого фактора. Наблюдается тенденция поиска высококвалифицированных специалистов. IT-сфера создает новые продукты и программы для планирования и оптимизации рабочего времени, что способствует развитию малого бизнеса. Основными потребителями отрасли являются представители IT-сектора (офисная недвижимость, жилье и др.). Развитие новых технологий способствует повышению качества выполняемых работ и уровня строительства в целом.
Автоматизация процессов	
Развитие IT	
Разработка новых технологий	

Для проведения PEST-анализа изначально были определены факторы, влияющие на развитие малого бизнеса, по 4 группам и внесены в таблицу -3, с разделением по отдельным группам.

К политическим факторам были отнесены: политическая ситуация в Узбекистане (политическая стабильность); сотрудничество с другими странами; поддержка со стороны других государств; поддержка и законодательная база со стороны государства; изменения в законодательстве; влияние государства на малый бизнес, включая долю государственной собственности; регулирование конкурентной среды в малом бизнесе государством.

В качестве экономических факторов были выделены: ВВП и ВНД на душу населения; возможности финансирования; доля малого бизнеса в уровне занятости населения; количество действующих предприятий; средняя номинальная заработная плата; стабильность курса национальной валюты; уровень инфляции; квалификация работников.

К социально-демографическим факторам, влияющим на малый бизнес, были отнесены: честность и прозрачность ведения бизнеса; демографические тенденции; тенденции в сфере образования; изменение структуры доходов; отношение к труду и отдыху; социальная мобильность населения.

К технологическим факторам, влияющим на малый бизнес, были отнесены: пригодность к производству; стимулирование инноваций; конкурентоспособность страны; возможность приобретения новых технологий; уровень внедрения новых технологий.

Для оценки степени влияния каждого фактора внутри группы и значимости его воздействия на развитие малого бизнеса были использованы заключения ведущих экспертов территориальных управлений Министерства экономического развития и сокращения бедности Республики Узбекистан по Наманганской, Ферганской и Андижанской областям. Кроме того, был проведен опрос среди руководителей

малого бизнеса, работающих в регионах. Всего в опросе участвовало 270 респондентов (по 90 человек из каждой области), выбранных на выборочной основе (таблица 3).

Таблица 3

Результаты PEST-анализа и степень их воздействия влияющие факторы на развитие малого бизнеса[1]

Группа факторов	**Оценка респондентов **** **Степень воздействия фактора ***		**Группа факторов**	**Оценка респондентов **** **Степень воздействия фактора ***	
Политическая (P – Politicallegal) группа факторов (баллы / количество респондентов / процентный показатель)			**Экономическая (E – Economic) группа факторов (баллы / количество респондентов / процентный показатель)**		
Политическая ситуация в Узбекистане	+2/210/78	-1/60/22	Состояние и тенденции экономики Узбекистана	+1/245/90,7	-2/25/9,3
Сотрудничество с другими государствами	+3/238/88	-2/32/12	Возможности финансирования	+2/181/67	-1/89/33
Поддержка со стороны других государств	+2/247/91,5	-1/23/8,5	Доля малого бизнеса в уровне занятости населения	+1/225/83,3	-1/45/16,4
Поддержка государства и законодательная база	+3/270/100	-	Количество действующих инфраструктур	+2/93/34,4	-2/177/65,6
Изменения в законодательстве	+2/119/44	-2/151/56	Размер средней номинальной заработной платы	+1/254/94,1	-3/16/5,9
Влияние государства на малый бизнес, включая долю государственной собственности	+2/133/49,3	-1/137/50,7	Стабильность курса национальной валюты	+2/290/100	-
Регулирование конкурентной среды в малом бизнесе государством	+1/201/74,4	-1/69/25,6	Уровень инфляции	+3/17/6,3	-2/253/93,7
			Квалификация работников	+2/260/96,3	-2/10/3,7
Итоговые баллы:	**+15**	**-9**	**Общие баллы**	**+14**	**-13**
Социально-демографическая (S – Sociocultural) **группа факторов (баллы / количество респондентов / процентный показатель)**			**Технологическая** (T – Technological forces) **группа факторов (баллы / количество респондентов / процентный показатель)**		
Честность и прозрачность ведения бизнеса	+2/205/75,9	-2/65/24,1	Пригодность к производству	+2/218/80,7	-2/62/19,3
Демографические тенденции	+1/36/13,3	-1/234/86,7	Стимулирование инноваций	+3/241/89,3	-1/29/10,7

[1] Разработано автором.

Тенденции в сфере образования	+3/174/64,4	-2/96/35,6	Конкурентоспособность страны	+2/199/73,7	-1/71/26,3
Изменение структуры доходов	+1/35/13	-1/235/87	Возможность приобретения новых технологий	+3/172/63,7	-2/98/36,3
Отношение к труду и отдыху	+3/238/88,1	-2/32/11,9	Уровень внедрения новых технологий	+2/194/71,6	-1/76/28,4
Социальная мобильность населения	+2/194/71,6	-1/76/28,4	Государственная техническая политика	+3/194/71,6	-1/76/28,4
Итоговые баллы:	**+12**	**-9**	**Итоговые баллы:**	**+15**	**-8**

Примечание:* Исходя из методологии PEST-анализа, степень воздействия фактора была определена в диапазоне от “-1; -3” до “+1; +3”. Общее количество составило 270 респондентов.

Согласно результатам PEST-анализа мы определяем группы положительных и отрицательных факторов и обосновываем их влияние на развитие малого бизнеса в Ферганской долине. На основе данных таблицы -3 мы выделяем группы факторов с наивысшими отрицательными (с «минусом») и положительными (с «плюсом») показателями (таблица - 4). Результаты анализа влияния групп факторов создают основу для разработки стратегий дальнейшего развития малого бизнеса и определения его приоритетных направлений с учетом текущего состояния.

Результаты анализа показывают, что наивысшие положительные баллы получили группы факторов с результатом «+15», а наибольшие отрицательные результаты – группы факторов с показателями «-13» и «-9» (таблица 4).

Таблица 4

Группировка факторов PEST-анализа развития малого бизнеса в Узбекистане[1]

Группы факторов	Общий балл	Влияние факторов на развитие малого бизнеса
Положительные факторы		
Технологические факторы (Т)	(+15)	Технологическое развитие, цифровизация, автоматизация и дальнейшее развитие IT-сферы являются движущей силой. Использование технологических инноваций, повышение качества, скорость реагирования на изменения внешней среды и способность адаптироваться к новым вызовам современности помогают участникам рынка решать кадровые проблемы и обеспечивать конкурентные преимущества.
Политические факторы (Р)	(+15)	Политические факторы влияют на развитие малого бизнеса, так как именно государство определяет правила игры для участников рынка. Современная политическая ситуация, движение в направлении мирового сообщества открывает возможности для освоения новых технологий, опыта работы и адаптации организаций к мировым стандартам и требованиям, что повышает конкурентные преимущества и обеспечивает выход местных компаний на внешние рынки. Ряд законодательных инициатив в будущем будет способствовать развитию отрасли.

[1] Разработана автором

Группы факторов	Общий балл	Влияние факторов на развитие малого бизнеса
Отрицательные факторы		
Экономические факторы (E)	(-13)	Экономические факторы оказывают сильное дестабилизирующее влияние на деятельность малого бизнеса (рост цен на материалы и сырье, снижение покупательной способности граждан Узбекистана), что препятствует эффективной деятельности участников малого бизнеса и замедляет его развитие.
Социально-демографические факторы (S)	(-9)	Неблагоприятная демографическая ситуация, отток кадров за рубеж и их низкая квалификация являются одними из основных проблем отрасли. Сотрудничество между предприятиями, финансирование научных исследований и развитие профессионального образования помогают решать кадровые проблемы и стимулируют развитие малого бизнеса.

Согласно проведенным исследованиям, менее отрицательно воздействующие на развитие малого бизнеса являются экономические и социально-культурные. Экономические факторы оказывают наиболее отрицательное воздействие (особенно изменение валютного курса и снижение покупательной способности населения), тогда как социально-культурные факторы влияют в меньшей степени (неблагоприятная демографическая ситуация и отток кадров за рубеж).

Среди положительных факторов можно выделить: политические (принятие ряда законопроектов, способствующих развитию малого бизнеса, и движение Узбекистана в сторону мирового экономического сообщества, открывающее новые возможности для участников рынка; разработка новых технологий; автоматизация процессов) и технологические факторы.

Степень воздействия и сила влияния определённых факторов, установленных на основе метода PEST-анализа, были оценены 7 экспертами. Результаты анализа весовых значений факторов, влияющих на развитие малого бизнеса, обобщены в таблице -5.

Таблица 5

Оценка реальной значимости PEST-факторов[1]

Группа и вид фактора	Оценка экспертов							Общая сумма	Весовое значение фактора
	1	2	3	4	5	6	7		
Политическая (P – Politicallegal) **группа факторов**									
Политическая ситуация в Узбекистане	10	4	6	8	8	4	7	47	0,18
Сотрудничество с другими государствами	4	6	2	2	4	9	10	37	0,14
Поддержка со стороны других государств	8	8	6	8	8	3	2	43	0,16
Поддержка государства и законодательная база	10	6	4	4	8	10	7	49	0,18
Изменения в законодательстве	6	6	4	6	6	7	9	44	0,16
Влияние государства на малый бизнес, включая	4	7	8	3	2	1	5	30	0,11

[1] Разработано автором на основе выводов респондентов.

Группа и вид фактора	Оценка экспертов							Общая сумма	Весовое значение фактора
	1	2	3	4	5	6	7		
долю государственной собственности									
Регулирование конкурентной среды в малом бизнесе государством	3	1	4	3	3	4	2	20	0,07
Итого	**45**	**38**	**34**	**34**	**39**	**38**	**42**	**270**	**1,0**
Экономическая (E – Economic) **группа факторов**									
ВВП и ВНД на душу населения	6	6	6	7	6	7	6	44	0,11
Инвестиции в основной капитал	6	9	6	6	8	4	6	45	0,12
Доля малого бизнеса в занятости населения	4	6	7	8	6	8	3	42	0,11
Количество действующих инфраструктур	6	8	8	10	6	4	4	46	0,12
Средняя номинальная заработная плата	6	8	10	10	10	8	8	60	0,16
Стабильность курса национальной валюты	6	8	10	10	10	5	7	56	0,15
Уровень инфляции	6	8	8	8	6	10	5	51	0,13
Квалификация работников	4	6	8	4	6	7	6	41	0,11
Итого	**44**	**59**	**63**	**63**	**58**	**53**	**45**	**385**	**1,0**
Социально-демографическая (S – Sociocultural) **группа факторов**									
Честность и прозрачность ведения бизнеса	2	6	8	4	4	6	4	34	0,14
Демографические тенденции	6	8	8	10	10	10	6	58	0,23
Тенденции в сфере образования	4	8	6	8	8	6	5	45	0,18
Изменение структуры доходов	6	8	8	10	10	8	3	53	0,21
Отношение к труду и отдыху	2	4	4	8	2	6	3	29	0,12
Социальная мобильность населения	2	4	2	4	4	6	7	29	0,12
Итого	**22**	**38**	**36**	**44**	**38**	**42**	**28**	**248**	**1,0**
Технологическая (T – Technological forces) **группа факторов**									
Производственный метод (ручной труд)	4	6	6	10	8	6	7	47	0,17
Стимулирование инноваций	4	8	4	6	6	6	10	44	0,16
Конкурентоспособность страны	2	2	6	4	6	6	5	31	0,11
Возможность приобретения новых технологий	6	8	10	8	6	8	7	53	0,19
Уровень внедрения новых технологий	6	8	8	6	5	7	4	44	0,16
Государственная техническая политика	8	10	10	8	3	6	8	53	0,19
Итого	**30**	**42**	**44**	**42**	**34**	**39**	**41**	**272**	**1,0**

ВЫВОДЫ И ПРЕДЛОЖЕНИЯ

На основе экспертных заключений, обобщённых в таблице, при изучении степени воздействия и силы влияния факторов, наиболее высокий уровень

воздействия на развитие малого бизнеса был выявлен у следующих субиндексов политической группы:

- политическая ситуация в Узбекистане (0,18);
- сотрудничество с другими государствами (0,14);
- поддержка со стороны других государств (0,16);
- поддержка государства и законодательная база (0,18);
- изменения в законодательстве (0,16).

К экономическим факторам, имеющим значительное воздействие, относятся:

- инвестиции в основной капитал (0,12);
- количество действующих инфраструктур (0,12);
- средняя номинальная заработная плата (0,16);
- стабильность курса национальной валюты (0,15);
- уровень инфляции (0,13).

Можно также отметить, что субиндексы социально-демографических и технологических факторов имеют достаточно высокие значения влияния.

Таким образом, важнейшие изменения в макросреде заключаются в следующем:

– динамика валютных курсов влияет на снижение доходов малого бизнеса;

– рост инфляции приводит к снижению спроса на товары в среднем сегменте рынка.

Опыт большинства развитых стран показывает, что самым важным аспектом развития малого и среднего бизнеса является государственная поддержка. Одними из наиболее передовых и эффективных систем поддержки малого и среднего предпринимательства являются американская и европейская модели. Так, в странах Западной Европы и США в настоящее время малые предприятия создают более 80% новых рабочих мест[1].

Опыт США показывает, что успех в развитии малого бизнеса достигается благодаря использованию сети поддержки, включающей: финансовую, логистическую, информационную и консультационную помощь. В создании такой сети участвуют государство, местные органы власти, общественные организации, университеты и крупный бизнес. На современном этапе развития мировой экономики малый и средний бизнес сталкивается со множеством препятствий, основные из которых обычно наблюдаются в развивающихся странах – это недостаточная поддержка со стороны государства или её неэффективность.

Сегодня в Узбекистане существует система государственной поддержки малых предприятий, при которой государство формирует и совершенствует инфраструктуру, повышает доходы населения, развивает средне-специальное образование и ускоряет процессы экономической интеграции с мировым сообществом.

[1] The role of small and medium-sized enterprises in the development of the innovative economy.: http://iii.ua/uk/rol-malih-taserednih-pidpriiemstv-v-rozvitku-innovaciynoyi-ekonomiki

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-apreldagi PQ-5087-son “Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning 2022 yil 20 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. https://president.uz/uz/lists/view/5774

3. Israilov R. Kichik biznesni rivojlantirish omillari va zaxiralarini baxolash metodilogiyasi. Monografiya. – N.: SUNRIZE-PRO, 2024-yil, – B. 126.

4. Israilov R. Mechanism for assessment of factors affecting the development of small business subjects// Namangan muhandislik-texnologiya instituti ilmiy-texnika jurnal, 2024-yil. №1-soni,– B. 432-441.

5. Israilov R. Kichik biznes sub`yektlarini rivojlantirishga ta`sir etuvchi omillari// Xorazm ma’mun akademiyasi axborotnomasi. 2024-yil 6/2-son. – B. 210-214. (08.00.00;№21)

6. Тореев В.Б. “Влияние институциональных и территориальных факторов развития малого бизнеса на занятость населения» дисс. –М.: 2010г. С-348.;

7. Xodiev B.Yu. O’zbekiston iqtisodiyotida tadbirkorlik rivojini ekonometrik modellashtirish.: I.f.d. dissertatsiya avtoreferati. –T.: 2000. -42 b.;

8. Muftaydinov Q. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida tadbirkorlikni rivojlantirish muammolari. Dis. iqt. fan. d-ri. - T/, 2004. -18-b.

9. G’ulomov S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes. –T.: 2002. -256 b.;

10. Abdullaev Yo., Karimov F. Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari. 100 savol va 100 javob (1-qism), T.- “Mehnat”, 2000. – 347 b.;

11. The role of small and medium-sized enterprises in the development of the innovative economy.: http://iii.ua/uk/rol-malih-taserednih-pidpriiemstv-v-rozvitku-innovaciynoyi-ekonomiki

12. Секторальное партнерство – малый и средний бизнес. URL: http://prismua.org/eap-sme/

REKLAMA XIZMATLARI BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH BO‘YICHA XORIJ TAJRIBASI VA UNI O‘ZBEKISTONDA QO‘LLASH YO‘NALISHLARI

Xamrakulov Azamat Baxritdinovich
O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish
va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi
Samarqand viloyat hududiy boshqarmasi bo‘lim boshlig‘i o‘rinbosari
hamda Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
“Real iqtisodiyot” kafedrasining mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: hamrakulovazamat1988@mail.ru

Annotatsiya

Ushbu maqolada reklama xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirish masalalari, xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalari hamda ularni O‘zbekiston sharoitida qo‘llash imkoniyatlari tahlil qilingan. Jahon bozorida reklama sohasi raqamli transformatsiya, innovatsion yondashuvlar va brend boshqaruvi orqali tez sur’atlarda rivojlanayotgani yoritilgan. Maqolada O‘zbekiston reklama bozorining hozirgi holati, mavjud muammolar va raqobat muhitini yaxshilash yo‘llari ko‘rib chiqilib, xorij tajribasiga asoslangan taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: reklama xizmatlari, raqobatbardoshlik, innovatsiya, xorij tajribasi, raqamli marketing, raqamli texnologiyalar, innovatsiyalar, xizmatlar sifati, iste’molchi xulq-atvori.

Аннотация

В статье рассматриваются вопросы повышения конкурентоспособности на рынке рекламных услуг, анализируется зарубежный опыт и возможности его применения в условиях Узбекистана. Особое внимание уделено тенденциям цифровой трансформации, инновационным подходам и управлению брендами в мировой практике. Автор анализирует текущее состояние рекламного рынка Узбекистана, существующие проблемы и предлагает рекомендации по повышению эффективности и конкурентоспособности отрасли.

Ключевые слова: рекламные услуги, конкурентоспособность, инновации, зарубежный опыт, цифровой маркетинг, цифровые технологии, инновации, качество услуг, поведение потребителей.

Abstract

This article examines the issues of enhancing competitiveness in the advertising services market, analyzing foreign best practices and exploring the possibilities of their application in Uzbekistan. The study highlights global trends such as digital transformation, innovative marketing strategies, and brand management. The current state of Uzbekistan’s advertising market is analyzed, along with existing challenges, and practical recommendations are proposed to improve the industry’s competitiveness based on international experience.

Keywords: advertising services, competitiveness, innovation, foreign experience, digital marketing, digital technologies, innovation, service quality, consumer behavior.

KIRISH

Hozirgi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida reklama xizmatlari bozori milliy iqtisodiyotning eng dinamik va tez o‘sib borayotgan tarmoqlaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Reklama nafaqat mahsulot va xizmatlarni targ‘ib qilish vositasi, balki raqobat muhitini shakllantiruvchi, iste’molchilarning tanloviga ta’sir etuvchi, biznes subyektlarining bozorga kirib borish imkoniyatlarini kengaytiruvchi iqtisodiy mexanizm sifatida ham muhim rol o‘ynaydi.

Bugungi kunda dunyo mamlakatlarida reklama sohasining samaradorligi raqamli texnologiyalar, kreativ yondashuvlar, brend boshqaruvi va iste’molchi psixologiyasiga asoslangan marketing strategiyalarini tatbiq etish orqali ta’minlanmoqda. Xususan, AQSh, Yaponiya, Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya va Germaniya tajribalari shuni ko‘rsatmoqdaki, reklama xizmatlarida raqobatbardoshlikni oshirish bevosita innovatsion yechimlarni joriy etish, kadrlar salohiyatini rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya infratuzilmasini takomillashtirish bilan chambarchas bog‘liqdir.

O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda reklama bozori bosqichma-bosqich rivojlanib, yangi media kanallar, raqamli platformalar va marketing texnologiyalarining paydo bo‘lishi natijasida sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Shu bilan birga, reklama xizmatlari bozorida raqobat muhitining yetarlicha shakllanmagani, xorijiy tajribalarning to‘liq tatbiq etilmagani hamda kreativ yondashuvlar yetishmasligi tarmoqning barqaror rivojlanishiga to‘siq bo‘lmoqda.

Mazkur maqolada reklama xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirish borasida xorijiy tajribalar tahlil qilinadi hamda ularni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalari milliy reklama sohasini modernizatsiya qilish, raqobat muhitini kuchaytirish va marketing xizmatlarining sifatini oshirishga qaratilgan muhim yo‘nalishlarni belgilashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Reklama xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirish masalasi xalqaro miqyosda marketing, menejment va raqamli iqtisodiyot sohalarida faol tadqiq qilinayotgan dolzarb yo‘nalishlardan biridir. Ko‘plab xorijiy olimlar reklama tizimining samaradorligi va bozor raqobatining o‘zaro bog‘liqligini turli nazariy yondashuvlar orqali asoslab berganlar. [1,2]

Masalan, F. Kotler va K. Keller o‘zlarining “Marketing management” asarida reklama faoliyatini raqobat strategiyasining ajralmas qismi sifatida ko‘rib, uning muvaffaqiyati iste’molchilarning idrokini shakllantirish va brendga nisbatan sodiqlikni oshirish bilan belgilanadi, deb ta’kidlaydilar. M. Porter esa raqobat ustunligini ta’minlashda differensial marketing va reklama orqali yaratilgan noyob qiymat taklifining rolini alohida qayd etgan. [3, 4]

Jahon amaliyotida AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiya va Janubiy Koreya tajribalari reklama xizmatlari bozorida innovatsiyalar, raqamli platformalar va kreativ agentliklar faoliyatining muhim o‘ringa ega ekanini ko‘rsatadi. Xususan, McKinsey Global Institute va Deloitte Digital tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarda reklama sohasining raqamli transformatsiyasi mamlakat iqtisodiyotiga sezilarli qo‘shilgan

qiymat yaratishi hamda kichik bizneslarning bozorga chiqish imkoniyatlarini kengaytirishi isbotlangan. [5, 6, 7]

Yevropa Ittifoqi mamlakatlari tajribasida esa reklama xizmatlarini tartibga solish, raqobat qonunchiligi va iste'molchi huquqlarini himoya qilish tizimining mukammalligi raqobatbardosh muhitni shakllantirishda hal qiluvchi omil sifatida e'tirof etiladi. Masalan, Germaniya va Fransiyada reklama sohasidagi sifat standartlari, etik kodekslar va davlat-nodavlat nazorat mexanizmlari raqobatni sog'lomlashtirishga xizmat qiladi. [8, 9, 10]

O'zbekiston olimlari tomonidan so'nggi yillarda reklama va marketing xizmatlarining iqtisodiyotdagi o'rni, raqobat muhitining shakllanishi hamda innovatsion yondashuvlarning joriy etilishi bo'yicha bir qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, I. Karimov, Sh. Xakimov, D. Jo'rayev, M. Tursunov kabi tadqiqotchilar asarlarida marketing kommunikatsiyalari tizimini rivojlantirish, raqamli reklama strategiyalarini joriy etish va mahalliy brendlar raqobatbardoshligini oshirish masalalari keng yoritilgan. [11, 12, 13, 14, 15]

Shu bilan birga, mavjud adabiyotlarda reklama xizmatlari bozorini xorijiy tajriba bilan qiyosiy tahlil qilish, O'zbekiston sharoitida ushbu tajribalarni amaliyotga tatbiq etishning aniq yo'nalishlari yetarlicha o'rganilmagan. Mazkur maqola aynan shu bo'shliqni to'ldirish, reklama xizmatlarida raqobatbardoshlikni oshirishning zamonaviy mexanizmlarini xorijiy tajriba asosida tahlil qilish va milliy modelni shakllantirishga qaratilgan.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotning metodologik asosi sifatida reklama xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirishga oid xorijiy tajribani o'rganish, tahlil qilish va uni O'zbekiston iqtisodiy muhitiga moslashtirishga qaratilgan kompleks yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotda tizimli, tahliliy, qiyosiy hamda empirik metodlardan foydalanildi.

Tizimli yondashuv yordamida reklama xizmatlari bozorining tuzilmasi, ishtirokchilari, raqobat muhiti va marketing kommunikatsiyalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar o'rganildi. Bu yondashuv sohada yuz berayotgan iqtisodiy va institutsional jarayonlarni yagona tizim sifatida ko'rib chiqish imkonini berdi.

Qiyosiy tahlil metodi orqali AQSh, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Janubiy Koreya va Yaponiya kabi ilg'or davlatlarning reklama sohasini tartibga solish, raqobatni rivojlantirish hamda innovatsion yondashuvlarni joriy etish bo'yicha tajribalari O'zbekiston amaliyoti bilan solishtirildi. Ushbu tahlil natijasida xorijiy tajribani mahalliy sharoitga moslashtirish yo'nalishlari belgilandi.

Empirik tahlil jarayonida O'zbekiston reklama xizmatlari bozorining hozirgi holati, raqobat darajasi, ishtirokchi subyektlar soni, reklama vositalarining xilma-xilligi va raqamli transformatsiya darajasi haqidagi mavjud statistik ma'lumotlar, so'rovnomalar va amaliy kuzatuvlar tahlil qilindi.

Analitik va induktiv metodlar yordamida olingan ma'lumotlar umumlashtirilib, reklama sohasida raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiluvchi omillar —

innovatsiyalar, kreativlik, kadrlar salohiyati, marketing strategiyasi va raqamli texnologiyalarning ta’siri aniqlab chiqildi.

Tadqiqotning nazariy bazasini marketing, menejment va raqobat nazariyasi bo‘yicha ilg‘or xorijiy olimlarning ilmiy ishlari (F. Kotler, M. Porter, K. Keller va boshqalar), xalqaro tashkilotlar (OECD, UNCTAD, WFA, Deloitte, McKinsey) tahliliy hisobotlari hamda O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari tashkil etdi. Shuningdek, tadqiqotda ilmiy tavsiyalar ishlab chiqishda sintez yondashuvi qo‘llanilib, xorijiy tajribaning eng samarali elementlari O‘zbekiston reklama xizmatlari bozorining rivojlanish sharoitiga moslashtirildi. [8, 9, 10]

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida reklama xizmatlari bozorining jahon va milliy miqyosdagi holati, raqobat muhitini shakllantiruvchi omillar hamda sohani rivojlantirish bo‘yicha xorijiy tajribalar tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, hozirgi davrda reklama iqtisodiy o‘sishning muhim drayverlaridan biriga aylanib, tovar va xizmatlar bozorida raqobatbardoshlikni oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynamoqda. AQSh, Yevropa Ittifoqi, Yaponiya va Janubiy Koreya tajribalari shuni ko‘rsatadiki, reklama sohasining raqobatbardoshligi bir necha asosiy yo‘nalishlar orqali ta’minlanadi:

Innovatsion marketing strategiyalari — raqamli reklama, sun’iy intellekt va ma’lumotlar tahliliga asoslangan yondashuvlar reklama samaradorligini oshiradi;

Kreativlik va brend menejmenti — reklama agentliklari o‘rtasidagi sog‘lom raqobat iste’molchilar e’tiborini jalb etishda muhim omil bo‘lmoqda;

Huquqiy va institutsional muhit — raqobatni tartibga soluvchi mustahkam qonunchilik tizimi sohada adolatli sharoit yaratadi;

Kadrlar salohiyatini rivojlantirish — reklama va marketing sohasida malakali mutaxassislar tayyorlash raqobatbardoshlikning barqaror omili sifatida e’tirof etiladi.

Masalan, Janubiy Koreyada “Digital Creative Center” dasturi orqali reklama agentliklariga innovatsion yechimlar yaratish uchun davlat grantlari ajratiladi. Yevropa Ittifoqida esa reklama etikasi va iste’molchi huquqlarini himoya qilish mexanizmlari kuchli yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bu sog‘lom raqobatni ta’minlaydi. O‘zbekistonda reklama bozori so‘nggi yillarda jadal rivojlanayotgan bo‘lsa-da, raqobat muhiti hali to‘liq shakllanmagan. Soha bo‘yicha o‘tkazilgan tahlillar quyidagi holatlarni ko‘rsatdi:

—Bozorning asosiy qismini an’anaviy reklama vositalari (tashqi bannerlar, televideniye) egallab turibdi, raqamli reklama ulushi esa hali past;

—Mahalliy reklama agentliklari xorijiy kompaniyalar bilan raqobatlashishda yetarli texnologik va kreativ salohiyatga ega emas;

—Huquqiy baza mavjud bo‘lsa-da, reklama sifati, shaffofligi va iste’molchi ishonchini mustahkamlashga doir amaliy mexanizmlar yetarli darajada ishlamayapti;

—Kadrlar tayyorlash tizimi zamonaviy raqamli marketing va dizayn yo‘nalishlarida yetarlicha rivojlanmagan.

Tadqiqot natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi:

1. O‘zbekiston reklama xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirishning asosiy yo‘nalishlari sifatida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, kreativ yondashuvlarni rivojlantirish va iste’molchi ishonchini oshirish zarur.

2. Xorij tajribasini tatbiq etish jarayonida O‘zbekiston sharoitiga mos milliy model ishlab chiqish muhim: bu model davlat tartibga soluvi, xususiy sektor tashabbuslari va ta’lim tizimining integratsiyasiga asoslanishi lozim.

3. Bozorni rivojlantirish uchun reklama etikasi va sifat standartlarini joriy etish, shuningdek, xalqaro hamkorlikni kengaytirish raqobatni kuchaytiradi.

4. Innovatsion reklama platformalari — masalan, sun’iy intellektga asoslangan tahlil, ijtimoiy tarmoqlar orqali maqsadli reklama va interaktiv kontent yaratish — sohada samaradorlikni sezilarli oshiradi.

Umuman olganda, tadqiqot shuni tasdiqladiki, O‘zbekistonda reklama xizmatlari bozorining raqobatbardoshligini oshirish uchun xorijiy ilg‘or tajribalarni milliy sharoitga moslashtirgan holda qo‘llash zarur. Bunda davlat siyosati, biznes innovatsiyalari va ta’lim tizimi o‘rtasidagi uyg‘unlik hal qiluvchi ahamiyatga ega.. Quyidagi jadvalda raqamli reklama bozorining o‘sish sur’atlari (2020–2024 yillar, % hisobida) keltirilgan:

1-jadval

Raqamli reklama bozorining o‘sish sur’atlari (2020–2024 yillar, % hisobida)[1]

T/r	Mamlakat	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil	O‘sish sur’ati (2020–2024)
1	AQSh	99	115	130	148	165	+65%
2	Yevropa Ittifoqi	95	110	124	136	150	+50%
3	Janubiy Koreya	92	118	137	155	172	+72%
4	Yaponiya	97	112	126	141	155	+55%
5	O‘zbekiston	80	106	113	121	125	+25%

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston raqamli reklama bozorining o‘sish sur’ati rivojlangan mamlakatlarga nisbatan past. Bu esa raqamli infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmagani va reklama agentliklarining innovatsion imkoniyatlari cheklanganligini ko‘rsatadi.

2-jadval

Reklama bozorida raqobatbardoshlikka ta’sir etuvchi asosiy omillar[2]

T/r	Asosiy omillar	AQSh tajribasi	Yevropa Ittifoqi tajribasi	O‘zbekiston holati
1	Innovatsion texnologiyalar	Sun’iy intellekt, Big Data, avtomatlashtirilgan tahlil	Ma’lumotlar xavfsizligi va shaffoflik tizimi	Texnologik integratsiya cheklangan

[1] Raqamli reklama bozorining o‘sish sur’atlari (2020–2024 yillar, % hisobida) asosida muallif ishlanmasi
[2] Reklama bozorida raqobatbardoshlikka ta’sir etuvchi asosiy omillar doirasida muallif ishlanmasi

T/r	Asosiy omillar	AQSh tajribasi	Yevropa Ittifoqi tajribasi	O‘zbekiston holati
2	Etika va tartibga solish	Federal savdo komissiyasi tomonidan qat’iy nazorat	EU Consumer Policy orqali himoya	Qonunchilik asoslari mavjud, ammo nazorat sust
3	Kadrlar salohiyati	Kreativ va IT-mutaxassislar o‘rtasida hamkorlik	Maxsus o‘quv dasturlari mavjud	Raqamli marketing bo‘yicha kadrlar yetishmaydi
4	Bozor mexanizmlari	Xususiy sektor ustunligi, raqobat kuchli	Ijtimoiy javobgarlik va davlat qo‘llovi	Asosan davlat buyurtmalari ustun
5	Raqamli muhit	90% onlayn reklama ulushi	80% onlayn platformalar orqali	35% raqamli reklama ulushi

Xorijiy mamlakatlarda reklama sohasida raqobat innovatsiya, kadrlar malakasi va raqamli texnologiyalar bilan chambarchas bog‘langan. O‘zbekistonda esa bu yo‘nalishlar hali to‘liq shakllanmagan bo‘lib, raqobatning asosiy manbai sifatida narx siyosati ustunlik qiladi.

3-jadval

O‘zbekiston reklama xizmatlari bozorining hozirgi holati[1]

T/r	Ko‘rsatkich	2020 yil	2022 yil	2024 yil	O‘sish (%)
1	Reklama agentliklari soni	320	410	480	+50%
2	Raqamli reklama ulushi	18%	27%	35%	+17 punkt
3	TV va tashqi reklama ulushi	70%	62%	55%	-15 punkt
4	Ish bilan bandlar soni	4 200	5 300	6 000	+43%
5	Bozor hajmi (mln so‘mda)	550 000	670 000	790 000	+43%

O‘zbekiston reklama bozori hajmi va ishtirokchilar soni yildan-yilga o‘sib bormoqda. Biroq, raqamli reklama segmenti hali to‘liq ustunlikka ega emas. Shuning uchun raqamli transformatsiya jarayonlarini tezlashtirish muhim strategik yo‘nalish hisoblanadi.

4-jadval

Xorijiy tajribani O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish yo‘nalishlari[2]

T/r	Yo‘nalish	Xorij tajribasi	O‘zbekiston uchun tavsiya
1	Raqamli innovatsiyalar	AI, Big Data asosida tahlil va segmentatsiya	Mahalliy platformalarda AI modellarini joriy etish
2	Reklama etikasi va qonunchilik	Shaffoflik, iste’molchini himoya qilish	Milliy reklama kodeksini takomillashtirish
3	Kadrlar siyosati	Maxsus kreativ akademiyalar	Universitetlarda “Raqamli marketing” yo‘nalishini kengaytirish
4	Bozor infratuzilmasi	Media agentliklar integratsiyasi	Mahalliy IT-startaplar bilan hamkorlik
5	Davlat-xususiy sheriklik	Innovatsion loyihalarga grantlar	Reklama sohasida PPP mexanizmini joriy etish

[1] O‘zbekiston reklama xizmatlari bozorining hozirgi holati doirasida statistic ma’lumotlar asosida muallif ishlanmasi
[2] Xorijiy tajribani O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish yo‘nalishlari bo‘yicha muallif ishlanmasi

Xorijiy tajribani O‘zbekiston iqtisodiy muhitiga to‘g‘ri moslashtirish reklama xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirishning eng muhim sharti hisoblanadi. Buning uchun strategik rejalashtirish, kadrlar tayyorlash va texnologik yangilanishni uyg‘unlashtirish zarur. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, reklama xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirish uchun O‘zbekiston quyidagi ustuvor yo‘nalishlarga e’tibor qaratishi lozim:

—raqamli infratuzilmani rivojlantirish;
—reklama etikasi va shaffoflikni kuchaytirish;
—innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish;
—kreativ va malakali kadrlar tayyorlash tizimini mustahkamlash;
—davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, reklama xizmatlari bozori zamonaviy iqtisodiyotda nafaqat marketing kommunikatsiyalarining ajralmas qismi, balki innovatsion raqobat muhiti shakllanishining muhim omilidir. O‘zbekiston sharoitida ushbu bozorni rivojlantirish, raqobatbardoshlikni oshirish va xorijiy ilg‘or tajribalarni joriy etish iqtisodiyotning xizmatlar sektorida sifat o‘zgarishlarini ta’minlaydi. Raqamli texnologiyalar jadal rivojlanishi reklama xizmatlari bozorida yangi raqobat mexanizmlarini shakllantirmoqda. Biroq, O‘zbekiston bozorida raqamli reklama segmenti hali to‘liq ustunlikka ega emas, bu esa innovatsiyalarni joriy etish zarurligini ko‘rsatadi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi (AQSh, Yevropa Ittifoqi, Janubiy Koreya, Yaponiya) tahlili reklama sohasida raqobatni kuchaytirish uchun texnologik modernizatsiya, etika me’yorlarini qat’iy nazorat qilish va iste’molchi ishonchini oshirish muhimligini namoyon etdi. O‘zbekistonda reklama xizmatlari infratuzilmasi kengayib borayotgan bo‘lsa-da, me’yoriy-huquqiy baza, kadrlar salohiyati va marketing strategiyalari yetarli darajada shakllanmagan. Raqobatbardosh reklama sohasi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy ahamiyatga ham ega, chunki u jamiyatda iste’mol madaniyatini, kreativ fikrlashni va innovatsion yondashuvlarni rivojlantiradi. Tahlil natijasida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

Birinchidan, O‘zbekiston reklama xizmatlari bozorini rivojlantirishda raqamli transformatsiyani ustuvor yo‘nalish sifatida belgilash lozim. Shu maqsadda mahalliy onlayn reklama platformalarini yaratish va xalqaro tizimlar (Google, Meta, TikTok Ads va boshqalar) bilan integratsiyani kuchaytirish zarur.

Ikkinchidan, milliy reklama kodeksini xalqaro standartlarga muvofiq ravishda yangilash, reklama etikasi, iste’molchini himoya qilish va shaffoflik tamoyillarini mustahkamlash lozim.

Uchinchidan, kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiya qilish — universitetlarda “Raqamli marketing”, “Reklama menejmenti”, “Brending va kommunikatsiya strategiyasi” kabi yangi ta’lim yo‘nalishlarini keng joriy etish zarur.

To‘rtinchidan, innovatsion texnologiyalarni joriy etish — reklama samaradorligini baholashda sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (Big Data) va neyromarketing vositalarini qo‘llash amaliyotini kengaytirish kerak.

Beshinchidan, davlat-xususiy sheriklik asosida reklama va marketing startaplarini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish, grantlar va soliq imtiyozlari orqali kreativ agentliklar faoliyatini rag‘batlantirish muhim.

Oltinchidan, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish — OECD, WFA, UNCTAD kabi tashkilotlar bilan hamkorlikda reklama bozorini rivojlantirish, o‘zaro tajriba almashish va trening dasturlarini amalga oshirish lozim.

Yuqoridagi takliflar amaliyotga joriy etilsa, O‘zbekiston reklama xizmatlari bozori raqobatbardoshligi oshadi, raqamli iqtisodiyot rivojlanishiga turtki beradi hamda xalqaro maydonda milliy brendlar nufuzini mustahkamlash imkoniyati yaratiladi. Shu tariqa, reklama sohasi mamlakat iqtisodiyotining innovatsion harakatlantiruvchi kuchlaridan biriga aylanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 7-iyun O‘RQ–707-son “Reklama to‘g‘risida”gi Qonuni. https://lex.uz/uz/docs/-6052631

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 11 may, PQ–5113-son “Xizmatlar sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. https://lex.uz/uz/docs/-5421233#:~:text=Xizmatlar%20sohasini%20jadal%20rivojlantirish%20chora-tadbirlari%20to%E2%80%98g%E2%80%98risida%20respublikaning%20barcha,qilish%20uchun%20qulay%20iqtisodiy%20va%20infratuzilmaviy%20sharoitlarni%20yaratish.

3. Kotler F., Keller K. L. Marketing Management. — 15th ed. — Pearson Education, 2016.

4. Porter M. E. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. — New York: Free Press, 1985.

5. McKinsey Global Institute. The Economic Impact of Digital Advertising. — New York, 2020.

6. Deloitte Digital. Digital Advertising Trends and Innovation 2023 Report. — London: Deloitte Insights, 2023.

7. European Commission. EU Advertising and Consumer Protection Policy. — Brussels, 2022.

8. OECD. Competition and Regulation in Advertising Markets. — Paris: OECD Publishing, 2021.

9. World Federation of Advertisers (WFA). Global Trends in Advertising and Marketing Communications. — Geneva, 2022.

10. UNCTAD. Creative Economy Outlook 2023: Trends in Advertising and Digital Media. — Geneva: United Nations, 2023.

11. Kim S., Lee J. Innovation and Competitiveness in the Korean Advertising Industry. — Seoul: KAMA Journal, 2021.

12. Tursunov M. A. “Marketing xizmatlari samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalarning o‘rni.” — Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali, №3, 2022.

13. Xakimov Sh. “Reklama bozorida raqobatni rivojlantirishning zamonaviy mexanizmlari.” — Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy axboroti, №2, 2021.

14. Jo‘rayev D. “Raqamli marketing va brend boshqaruvi: milliy tajriba va xorijiy amaliyot.” — Marketing va menejment jurnali, №4, 2023.

15. Karimov I. “O‘zbekiston iqtisodiyotida xizmatlar sektorining raqobatbardoshligini oshirish yo‘llari.” — Iqtisodiy tadqiqotlar jurnali, №1, 2020.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BAHOLASH VA BOSHQA TUZILMALARNING O‘ZARO HAMKORLIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Rixsimbayev Odiljon Kabildjanovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Ekonometrika kafedrasi dotsenti
E-mail: o.rixsimbaev@tsue.uz

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida baholash faoliyati va bozor infratuzilmasining boshqa tuzilmalari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik mexanizmlari tahlil qilingan. Bozor iqtisodiyoti sharoitida baholash tuzilmalarining rieltorlik, birja, marketing, axborot va sug‘urta xizmatlari bilan integratsiyasi iqtisodiy samaradorlikni oshirish, asosiy fondlar qiymatini to‘g‘ri belgilash hamda investitsion jarayonlarni faollashtirishda muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, tadqiqotda baholash jarayonida davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirish, yagona axborot platformasini yaratish va xalqaro standartlarga asoslangan baholash tizimini rivojlantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: baholash tuzilmalari, bozor infratuzilmasi, asosiy fondlar bozori, rieltorlik, birja faoliyati, sug‘urta, integratsiya, iqtisodiy samaradorlik.

Аннотация

В статье рассматриваются механизмы совершенствования взаимодействия между оценочными структурами и другими элементами рыночной инфраструктуры в Республике Узбекистан. Показано, что интеграция оценочных компаний с риэлторскими, биржевыми, маркетинговыми, информационными и страховыми организациями способствует повышению экономической эффективности, объективному определению рыночной стоимости основных фондов и активизации инвестиционных процессов. В исследовании предложены пути совершенствования взаимодействия государственного и частного секторов, создания единой информационной платформы и внедрения системы оценки, основанной на международных стандартах.

Ключевые слова: оценочная деятельность, рыночная инфраструктура, рынок основных фондов, риэлторские услуги, биржевая деятельность, страхование, интеграция, экономическая эффективность.

Abstract

This paper examines the mechanisms for improving cooperation between valuation structures and other components of market infrastructure in the Republic of Uzbekistan. It highlights that integrating valuation organizations with real estate, exchange, marketing, information, and insurance institutions enhances economic efficiency, ensures accurate determination of fixed asset market values, and stimulates investment activities. The study also proposes measures to strengthen collaboration between the public and private sectors, develop a unified information platform, and implement an internationally standardized valuation system.

Keywords: valuation structures, market infrastructure, fixed asset market, real estate services, exchange activities, insurance, integration, economic efficiency.

KIRISH

Bozor iqtisodiyotining samarali ishlashi uchun asosiy shartlardan biri, bozorning rag‘batlantiruvchi omillari ta’sirida iqtisodiyotdagi tovarlar, xizmatlar, pul, qimmatli qog‘ozlar va ishchi kuchining oqimlariga xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar o‘rtasida o‘zaro bog‘liq tizimni yaratish va rivojlantirishdan iboratdir. Ushbu tashkilotlar bozor xo‘jaligining institutlari yoki infratuzilmasi, deb nomlanadi. Bozor infratuzilmasi (ingl. market infrastrusture) – “asosiy vazifasi tovarlarni ishlab chiqaruvchilardan iste’molchilarga etkazishdan iborat bo‘lgan tarmoqlar, kichik tarmoqlar va faoliyat sohalari majmuidir. Bozor rivojlangan infratuzilmasi iqtisodiyotda mablag‘larning aylanishini, yangidan barpo etiladigan qiymatni amalga oshirish jarayonini tezlashtirish uzun shart-sharoit yaratadi”[1]. Bozor infratuzilmasi – murakkab, uzluksiz rivojlanib boruvchi va buning oqibatida puxta ilmiy tadqiq etilishni talab qiluvchi tizim. Ushbu zarurat shu bilan shartlanganki, mazkur tizim u bilan xo‘jalik yurituvchi subyektlar tovarlar, mahsulot va xizmatlar iste’molchilari sifatida duch keladigan deyarli butun iqtisodiyotni o‘zida namoyon etadi. Bozor turli sektorlarining infratuzilmasini shakllantirish ularning Barchasi uchun xos bo‘lgan umumiy belgilarga ham, ulardan har birining o‘ziga xos xususiyatlariga ham ega. Ushbu holat turli asosiy fondlar bozorining infratuzilmasiga ham taalluqli.

Ushbu bozorlar infratuzilmasi – asosiy fondlarni bozorda sotuvchidan xaridorga tomon yo‘naltirishning yagona va belgilangan yo‘nalishiga ega bo‘lgan qat’iy qayd etilgan sxema emas, balki uning ishida ushbu yo‘naltirishning eng optimal yo‘llarini tanlash mumkin bo‘lgan parallel-izchil aloqalardan iborat tarmoq. Mazkur tarmoqning har bir bo‘g‘ini va uzeli alohida maqsadni – butun o‘zining faoliyatidan olinadigan foydani ko‘paytirishni ko‘zlovchi xo‘jalik jihatdan mustaqil subyekt hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Korxonalar aktivlarini baholash va prognozlash masalalarida xalqaro miqyosda bir qator yirik olimlar va amaliyotchilar muhim hissa qo‘shgan. Jumladan, Damodaran o‘z asarlarida aktivlar qiymatini aniqlashda diskontlagan pul oqimlari (DCF), ko‘paytma (multiples) va opsion modellarning ustunlik va cheklovlarini asoslab bergan. Friedman va Ordway ko‘chmas mulk bahosini belgilashda daromad yondashuvi va ko‘p omilli tahlilning amaliy jihatlarini yoritgan. Geltner va hamkorlari tijorat ko‘chmas mulkini tahlil qilishda risklar, likvidlik va iqtisodiy sikllarni inobatga olish zarurligini ko‘rsatgan. Jorion esa aktivlarni baholashda risklarni baholashning statistik va ekonometrik yondashuvlarini Value at Risk modeli orqali kengaytirgan. Shu bilan birga, Koller, Goedhart va Wessels korxona qiymatini aniqlashni strategik boshqaruv qarorlari bilan bog‘lagan holda, kompaniya qiymatini oshirish mexanizmlarini ishlab chiqqan.

Nazariy asos sifatida Gujarati va Wooldridge ekonometrika bo‘yicha asarlarida ko‘p omilli regressiya, stasionarlik, vaqt qatorlari va panel ma’lumotlar modellarining

[1] «Язык бизнеса. Термины», Изд. компания «Бизнес-каталог», Т., 1995, стр. 185

aktivlar ko‘rsatkichlarini tahlil qilishdagi qo‘llanilishini ko‘rsatgan. Shu bilan birga, Griliches intangibl aktivlarni, ya’ni intellektual mulk va innovatsiyalarni baholashda ekonometrik yondashuvlarning ahamiyatini asoslagan. Shapiro va Varian esa axborot iqtisodiyoti va intellektual aktivlar bozorini o‘rganib, bu aktivlar qiymatini aniqlashda yangi nazariy tamoyillarni ilgari surgan. Yakuniy jihatdan, Han va Strange moliya bozorlaridagi dinamik o‘zgarishlarning korxona aktivlari qiymatiga ta’sirini empirik jihatdan isbotlagan va baholashda makroiqtisodiy omillarni hisobga olish zarurligini ko‘rsatgan.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda korxonalar aktivlari ko‘rsatkichlarini baholash va prognozlash uchun zamonaviy ekonometrik usullar qo‘llanildi. Avvalo, tanlangan o‘zgaruvchilar bo‘yicha tavsifiy statistika tahlili amalga oshirilib, ularning asosiy tendensiyalari, dispersiya va asimmetriya ko‘rsatkichlari aniqlangan. Keyinchalik omillar o‘rtasidagi bog‘liqliklarni tekshirish maqsadida korrelyatsiya tahlili va multikollinearlikni aniqlash uchun VIF koeffitsiyentlari hisoblandi. Ma’lumotlar qatorining statsionarligi ADF (Augmented Dickey–Fuller) testi yordamida tekshirildi. Model qurishda ko‘p omilli regressiya usuli qo‘llanilib, parametrlarni baholashda eng kichik kvadratlar usuli (OLS) ishlatildi. Model sifatini baholash uchun determinatsiya koeffitsiyenti (R^2), Fisher F-mezoni, Styudent t-mezonlari va Durbin–Uotson testi kabi diagnostik mezonlardan foydalanildi. Prognozlash jarayonida esa vaqt bo‘yicha o‘zgarishlarni aks ettirish uchun trend modellar tuzildi va ularning asosida natijaviy ko‘rsatkichlarning istiqboldagi qiymatlari prognoz qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Respublikamizda xo‘jalik yuritish bozor mexanizmlariga o‘tkazilishining, xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish jarayonlarining kengayishi, korxonalarni tarkibiy o‘zgartirish, xususiylashtirish, aksiyalashtirish, xorijiy kapitalni jalb qilish va mulkiy hamda nomulkiy huquqlar bilan bog‘liq operatsiyalarni rivojlantirish, baholash faoliyatining ahamiyatini oshirdi. Asosiy fondlar bozor qiymatini aniqlash va baholash xizmatlarini taqdim etish, baholash tuzilmalarining boshqa bozor tuzilmalariga, jumladan asosiy fondlarni sotish bilan bog‘liq bo‘lgan tuzilmalarga qiymatni baholashni normativ-huquqiy tartibga solish, metodologiya va texnologiyalarni, axborot ta’minotini va boshqa resurslarni samarali ishlatishni ta’minlashga asoslangan bo‘lishi kerak.

Respublikamiz iqtisodiyotining izchil rivojlanishi va xo‘jalik yuritish bozor mexanizmlarining takomillashuvi, asosiy fondlar bozor qiymatini aniqlashga nisbatan yondashuvlarning doimiy ravishda takomillashtirilishi va baholash texnologiyalarining yangi metodologiyalarini ishlab chiqishni talab qilmoqda.



1-rasm. Baholash tuzilmalarining boshqa bozor tuzilmalari bilan o‘zaro aloqalari va o‘zaro hamkorligining bazaviy sxemasi[1]

Bozor infratuzilmasi, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning asosiy fondlar bozoridagi asosiy ishtirokchilari – iste’mol talabini va taklifni shakllantiruvchi, asosiy fondlarning bozorda sotilishini ta’minlovchi sotuvchilar va xaridorlar bilan o‘zaro aloqalarini va hamkorligini belgilab beradi. Bu jarayonlar 4.5-rasmda ko‘rsatilgan[2].



2-rasm. Asosiy fondlar bozori infratuzilmasining o‘zaro aloqasi va o‘zaro hamkorligi

[1] Muallif ishlanmasi
[2] Muallif ishlanmasi

Har bir ko‘rsatilgan xizmat infratuzilmaning tegishli bo‘g‘iniga foyda olish imkonini beradi. Ushbu infratuzilmaga kiruvchi xo‘jalik yurituvchi bo‘g‘inlar yig‘indisi ko‘rsatiladigan xizmatlar hajmining oshirilishidan manfaatdor, bunga asosiy fondlar miqdorini va ularning bozorda sotilish hajmini oshirish hisobidan ham erishish mumkin. Demak, bozor islohotlari tufayli dunyoga kelgan bozor infratuzilmalari ushbu islohotlarning rivojlantirilishidan va chuqurlashtirilishidan manfaatdor. Albatta, infratuzilma qanchalik rivojlangan bo‘lsa, bozor shunchalik sivilizatsiyalashgan, raqobat shunchalik keskin, bozor o‘yinlari qoidalarini buzish shunchalik qiyin[1].

Bozor iqtisodiyoti sharoitida faoliyat ko‘rsatuvchi asosiy shartlardan biri, bozor omillarining ta’siri ostida iqtisodiy muhitda ko‘chib yuruvchi tovarlar, xizmatlar, pul, qimmatli qog‘ozlar, ishchi kuchi oqimlariga xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar tizimining o‘zaro bog‘lanishi va rivojlanishidir. Ushbu tizimlarning shartlari va o‘zaro bog‘liqliklari bozor mexanizmlarining sifatli ishlashini ta’minlaydi. Shuningdek, bozorning hozirgi holati va talablar muvofiqligi orqali, iqtisodiyotdagi korxonalar va iste’molchilar o‘rtasida o‘zaro aloqalar aniq ko‘rinadi.

INVESTITSIYALAR VA ULARDAN TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA SAMARALI FOYDALANISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI

Isakov Axmadali Esanbaevich
Namangan davlat texnika universiteti dotsenti
E-mail: ahmadaliisakov@gmail.com
Tel: +998913580096

Annotatsiya

Maqolada investitsiyalarning iqtisodiyotdagi o‘rni va ularning tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Unda investitsiyalarning nazariy asoslari, ularni jalb etish mexanizmlari hamda tadbirkorlik subyektlari tomonidan samarali foydalanishning uslubiy yondashuvlari ochib berilgan. Shuningdek, investitsion muhitning barqarorligi, kapital qo‘yilmalar samaradorligi va risklarni boshqarish tamoyillari bo‘yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maqola tadbirkorlik faoliyatining investitsion faolligini oshirish, investitsiyalarning iqtisodiy o‘sishga ta’sirini kuchaytirish va investitsion siyosatni takomillashtirish masalalariga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: investitsiya, investitsion muhit, kapital qo‘yilma, tadbirkorlik faoliyati, samaradorlik, risk boshqaruvi, investitsion siyosat, iqtisodiy o‘sish, innovatsion rivojlanish, moliyaviy barqarorlik.

Аннотация

В статье рассмотрено значение инвестиций в экономике и их роль в развитии предпринимательской деятельности. Раскрыты теоретические основы инвестирования, механизмы привлечения капитала и методологические подходы к эффективному использованию инвестиций субъектами предпринимательства. Особое внимание уделено устойчивости инвестиционной среды, эффективности капитальных вложений и принципам управления рисками. На основе проведённого анализа предложены научные рекомендации по повышению инвестиционной активности, усилению влияния инвестиций на экономический рост и совершенствованию государственной инвестиционной политики.

Ключевые слова: инвестиции, инвестиционная среда, капиталовложения, предпринимательская деятельность, эффективность, управление рисками, инвестиционная политика, экономический рост, инновационное развитие, финансовая устойчивость.

Abstract

The article analyzes the role of investments in the economy and their importance in the development of entrepreneurial activity. It examines the theoretical foundations of investment, mechanisms for attracting capital, and methodological approaches to the effective use of investments by business entities. Special attention is paid to the stability of the investment environment, the efficiency of capital investments, and risk management principles. Based on the research results, scientific recommendations are proposed to enhance investment activity, strengthen the impact of investments on economic growth, and improve investment policy.

Keywords: investment, investment environment, capital investment, entrepreneurship, efficiency, risk management, investment policy, economic growth, innovative development, financial stability.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri bu investitsiyalardir. Investitsiyalar nafaqat ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish va yangi ish o‘rinlari yaratish vositasi, balki tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligini oshiruvchi muhim iqtisodiy manba hisoblanadi. Hozirgi global iqtisodiyot sharoitida har bir mamlakat o‘z iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlash uchun investitsiyalarni jalb etish, ularning samarali taqsimoti va qayta aylanishini boshqarish tizimini takomillashtirishga intilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda investitsion muhitni yaxshilash, xususiy sektor faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va biznes tashabbuslarini rag‘batlantirish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, “Yangi O‘zbekiston – 2030[1]” strategiyasida investitsiyalarni iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga yo‘naltirish, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish hamda hududlarda tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha aniq maqsad va mexanizmlar belgilab berilgan.

Shu bilan birga, investitsiyalarni samarali boshqarish masalasi hali ham dolzarbdir. Ko‘plab tadbirkorlik subyektlarida moliyaviy resurslardan oqilona foydalanmaslik, kapital qo‘yilmalarning rentabelligini yetarli baholamaslik, risklarni boshqarish mexanizmlarining yetarli darajada shakllanmaganligi investitsion faoliyat samaradorligini cheklamoqda.

Shu sababli, investitsiyalarning iqtisodiy mazmunini chuqur tahlil qilish, ularning tadbirkorlik faoliyatiga ta’sirini aniqlash hamda samarali foydalanishning nazariy-uslubiy asoslarini ishlab chiqish hozirgi sharoitda alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotning maqsadi — investitsiyalarning tadbirkorlik faoliyatidagi o‘rnini aniqlash, ulardan samarali foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish va investitsion siyosatning barqaror rivojlanishdagi rolini ochib berishdan iboratdir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Investitsiyalar iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlovchi asosiy omillardan biri sifatida ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan chuqur o‘rganilgan. Jahon iqtisodiy nazariyasida investitsiyalar, ularning shakllanish mexanizmlari hamda iqtisodiy o‘sishga ta’siri masalalariga A. Smit, D. Rikardo, J. M. Keynes va I. Shumpeterlar o‘z asarlarida alohida e’tibor qaratgan. Masalan, Keynes investitsiyalarni talabni rag‘batlantiruvchi va ish o‘rinlarini yaratishga xizmat qiluvchi muhim omil sifatida talqin etgan [6].

Neoklassik iqtisodiy maktab vakillari, jumladan, R. Solou va J. Tobin investitsiyalarni kapital jamg‘arilishi, texnologik yangilanish va ishlab chiqarish hajmining o‘sishi bilan bog‘liq holda izohlab, ularning uzoq muddatli iqtisodiy

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2023 yil11-sentyabr PF-158-son “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni https://lex.uz/docs/-6600413

o‘sishga ta’sirini empirik modellar orqali asoslab berganlar [9]. Shumpeter esa investitsiyalarni “innovatsiyaning haydovchi kuchi” deb baholagan [8].

So‘nggi yillarda investitsion jarayonlarni tahlil etishda institutsional va innovatsion yondashuvlar ustuvorlik kasb etmoqda. Dunning tomonidan ishlab chiqilgan “eklektik paradigma” modeli investitsiyalarni xalqaro kapital oqimlari, texnologik uzatish va transmilliy kompaniyalar faoliyati bilan bog‘lab o‘rganadi [2]. Bu yondashuv investitsiyalarni nafaqat kapital qo‘yilma, balki iqtisodiy o‘zgarishlarning drayveri sifatida ko‘rishga imkon beradi.

Mahalliy iqtisodiyotda ham investitsiyalar masalasi keng tadqiq etilgan. O‘zbekiston olimlari — S. S. G‘ulomov, B. K. G‘oyibnazarov va Yo. Abdullayevlarning ilmiy ishlari investitsion muhitni yaxshilash, moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash va tadbirkorlik subyektlarining investitsion faolligini oshirish yo‘nalishlariga bag‘ishlangan [1], [3], [4]. Ularning tadqiqotlarida investitsiyalarning iqtisodiy o‘sishga bevosita va bilvosita ta’sirini baholovchi iqtisodiy modellar qo‘llanilgan.

Bundan tashqari, Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg‘armasining yillik hisobotlarida investitsion siyosatni liberallashtirish, xorijiy kapitalni jalb qilish va kichik biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash masalalari O‘zbekiston iqtisodiy siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida qayd etilgan [5].

Yevropa Ittifoqi va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari tajribasi shuni ko‘rsatadiki, investitsiyalarni jalb etishda siyosiy barqarorlik, soliqlarning soddalashtirilgan tizimi va moliyaviy infratuzilmaning rivojlanganligi muhim ahamiyatga ega [7], [10]. Bu tajribalar investitsion muhitni shakllantirishda davlatning muvofiqlashtiruvchi roli va xususiy sektorning tashabbuskorligini uyg‘unlashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, investitsiyalar iqtisodiy o‘sishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib, ularning samarali boshqaruvi va tadbirkorlik faoliyatida oqilona foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish hozirgi bosqichda eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Shu sababli, mazkur maqolada investitsiyalarni samarali boshqarishning nazariy-uslubiy yondashuvlarini tizimlashtirish hamda ularning tadbirkorlik faoliyatiga ta’sirini baholashga alohida e’tibor qaratiladi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda investitsiyalarni tadbirkorlik faoliyatida samarali jalb etish va ulardan foydalanish mexanizmlarini o‘rganish uchun nazariy, tahliliy va empirik yondashuvlarning kombinatsiyasi qo‘llanildi. Tadqiqotning nazariy bazasini klassik, neoklassik va institutsional iqtisodiy maktablar qarashlari, xususan A. Smit, J. Keynes, J. Shumpeter, R. Solow, M. Porter va Dunninglarning investitsiya nazariyalariga oid ishlari tashkil etdi. Ularning yondashuvlari asosida investitsiyalarni iqtisodiy o‘sish, innovatsiyalar va tadbirkorlik faoliyati bilan o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilish metodologiyasi ishlab chiqildi.

Amaliy bosqichda tadqiqot statistik, iqtisodiy-matematik va ekonometrik tahlil usullari yordamida olib borildi. Xususan, korrelyatsion va regressiya tahlili, ko‘p omilli

modellash hamda komparativ (taqqoslama) tahlil usullari orqali investitsiyalarning tadbirkorlik subyektlari rentabelligiga, bandlik darajasiga va ishlab chiqarish hajmiga ta’siri baholandi. Tadqiqotda Davlat statistika qo‘mitasi, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg‘armasi va O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma’lumotlaridan foydalanildi. Shuningdek, investitsion muhitning tarmoq va hududiy xususiyatlarini aniqlashda indeks tahlili, dinamik qatorlar hamda SWOT tahlil yondashuvlari qo‘llanildi. Natijalar asosida investitsiyalar samaradorligini oshirishning uslubiy modeli ishlab chiqildi va iqtisodiy siyosat darajasida qo‘llashga doir amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida O‘zbekiston iqtisodiyotida investitsiyalarning o‘sish dinamikasi, ularning tadbirkorlik samaradorligiga ta’siri va mintaqalar kesimidagi taqsimoti chuqur tahlil qilindi. Analitik ma’lumotlar 2018–2024-yillar oralig‘idagi statistik ko‘rsatkichlarga asoslangan bo‘lib, ular mamlakatda amalga oshirilayotgan investitsion siyosatning real natijalarini ifodalaydi.

Jadvallar orqali investitsiyalar hajmining yillik o‘sish sur’atlari, xususiy va tashqi kapital ulushi, tadbirkorlik subyektlarining rentabellik darajasi, bandlik ko‘rsatkichlari hamda mintaqalar bo‘yicha investitsiya oqimlarining taqsimlanishi ko‘rsatildi. Ushbu ma’lumotlar asosida investitsiyalarning iqtisodiy faollikka ta’siri, ishlab chiqarish hajmining kengayishi va tadbirkorlikni rivojlantirishdagi muhim omillar aniqlanib, ularning o‘zaro bog‘liqligi iqtisodiy mantiqda tahlil qilindi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yillarda investitsiyalar hajmining barqaror o‘sishi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, hududlar o‘rtasida investitsion faollik va iqtisodiy imkoniyatlar darajasida sezilarli tafovutlar saqlanib qolmoqda. Quyidagi jadvallarda investitsion jarayonlarning ushbu tendensiyalari tizimli tarzda yoritilgan.

1-jadval.

O‘zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi (2018–2024 yillar, trln so‘mda)

Yil	Investitsiyalar hajmi	O‘sish sur’ati (%)	Xususiy sektor ulushi (%)	Tashqi investitsiyalar ulushi (%)
2018	107,0	—	61,2	38,8
2019	147,5	37,8	63,5	36,5
2020	165,3	12,1	65,7	34,3
2021	188,6	14,1	67,2	32,8
2022	213,4	13,1	68,9	31,1
2023	239,8	12,4	70,3	29,7
2024	265,7	10,8	71,5	28,5

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida ishlanmasi.

1-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, 2018–2024-yillar davomida O‘zbekiston iqtisodiyotiga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi 107,0 trln so‘mdan 265,7 trln so‘mgacha, ya’ni 2,5 barobarga oshgan. Bu davrda o‘sish sur’atlari 2019-yilda eng yuqori — 37,8 foizni tashkil etgan bo‘lib, bu “Harakatlar strategiyasi” va “Yangi

O‘zbekiston” dasturlari doirasida investitsion muhitni liberallashtirish, xorijiy kapitalni jalb etish va davlat-xususiy sheriklik loyihalarini kengaytirish natijasi hisoblanadi.

Keyingi yillarda (2020–2024) o‘sish sur’atlari biroz pasayib, 10–14 foiz atrofida shakllangan. Bu holat pandemiya davrida global investitsion oqimlarning qisqarishi va tashqi iqtisodiy sharoitlarning noaniqligi bilan izohlanadi. Shunga qaramay, iqtisodiyotdagi umumiy investitsiya faolligi saqlanib qoldi, bu esa davlat tomonidan ichki investitsion resurslarni safarbar etish va mahalliy loyihalarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligini ko‘rsatadi.

Strukturaviy jihatdan tahlil qilganda, xususiy sektor ulushi 61,2 foizdan 71,5 foizgacha oshgan, ya’ni 10 foiz punktga ko‘tarilgan. Bu O‘zbekistonda xususiy kapitalning iqtisodiyotdagi ishtiroki kengayib borayotganini, investitsion faoliyatda davlatning bevosita rolidan bozor mexanizmlariga o‘tish jarayoni muvaffaqiyatli kechayotganini anglatadi. Shu bilan birga, tashqi investitsiyalar ulushi 2018-yildagi 38,8 foizdan 2024-yilda 28,5 foizgacha kamaygan.

Bunday tendensiya bir tomondan ichki kapital bozorining mustahkamlanishi, boshqa tomondan esa xorijiy investitsiyalarni qayta yo‘naltirish siyosati bilan bog‘liq. Xususan, davlat so‘nggi yillarda bevosita chet el kreditlariga tayanish o‘rniga, ichki investorlarga soliq, bojxona va kredit imtiyozlarini kengaytirish orqali milliy investitsion faollikni rag‘batlantirish strategiyasini tanladi.

Umuman olganda, jadvaldagi raqamlar O‘zbekiston iqtisodiyotida investitsion faoliyatning barqaror o‘sish tendensiyasini va xususiy sektorning ustuvor rolga chiqayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, investitsiyalar tarkibida tashqi kapitalning kamayib borishi iqtisodiy mustaqillikni kuchaytirish bilan birga, xalqaro moliya bozorlaridan uzoqlashmaslik zaruratini ham yuzaga chiqaradi.

Investitsiyalar hajmi oshishi bilan bir qatorda, tadbirkorlik subyektlarining rentabellik darajasi ham o‘sish tendensiyasini ko‘rsatmoqda. Quyidagi jadvalda 2018–2024-yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining o‘rtacha rentabellik darajasi keltirilgan.

2-jadval.

Kichik biznes subyektlarida investitsiya hajmi va rentabellik darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlik (2018–2024 yillar)

Yil	O‘rtacha investitsiya hajmi (mln so‘m)	Rentabellik darajasi (%)	Bandlar soni (ming kishi)
2018	420,5	12,3	497,2
2019	468,1	13,7	514,6
2020	501,4	14,1	527,9
2021	556,9	15,8	542,1
2022	608,2	16,4	561,3
2023	649,0	17,2	578,6
2024	687,5	18,1	596,8

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida ishlanmasi

2018–2024-yillar davomida kichik biznes subyektlarida o‘rtacha investitsiya hajmi 420,5 mln so‘mdan 687,5 mln so‘mgacha oshgan, ya’ni 63,5 foizlik o‘sish

kuzatilgan. Shu bilan birga, rentabellik darajasi 12,3 foizdan 18,1 foizgacha oshib, bu jarayon investitsiyalarning samaradorligi ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Korrelyatsion tahlil natijalariga ko‘ra, investitsiyalar hajmi bilan rentabellik darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlik r = 0,91 ni tashkil etgan, bu ularning kuchli ijobiy korrelyatsiyasini anglatadi. Ya’ni, investitsiyalar hajmi 1 foizga oshganida, tadbirkorlik rentabelligi o‘rtacha 0,4 foizga ko‘tarilishi kuzatilgan. Bu holat investitsiyalar nafaqat ishlab chiqarish quvvatini kengaytirishini, balki korxonalar daromadliligini ham bevosita oshirayotganini tasdiqlaydi.

Bandlik ko‘rsatkichlari ham investitsiyalar bilan bir yo‘nalishda o‘sib borgan: 2018-yildagi 497,2 ming kishidan 2024-yilda 596,8 ming kishiga yetgan. Bu 19,9 foizlik o‘sish kichik biznesning yangi ish o‘rinlari yaratishdagi rolini mustahkamlovchi dalildir. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, investitsiyalar hajmi oshgani sari bandlik va daromad darajasi ham ko‘tarilib, ijtimoiy-iqtisodiy multiplikativ ta’sir yuzaga kelgan.

2020–2021-yillarda pandemiya ta’siriga qaramay, investitsiyalar hajmining sekin, ammo barqaror o‘sishi korxonalar faoliyatida moslashuvchan moliyaviy strategiyalar qo‘llanilganini bildiradi. 2022–2024-yillarda esa investitsiyalar hajmining o‘sishi bilan bir qatorda rentabellikning tezroq sur’atlarda oshgani tadbirkorlikda kapitaldan foydalanish samaradorligi ortganini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, 2-jadval ma’lumotlari kichik biznes subyektlarining investitsion faolligi iqtisodiyotda foydalilik, bandlik va kapital aylanishini rag‘batlantiruvchi asosiy mexanizm sifatida shakllanayotganini tasdiqlaydi. Shu sababli, investitsion siyosatda kichik biznes uchun soliq imtiyozlari, investitsion grantlar va kredit kafolatlarini kengaytirish ularning rentabellik darajasini yanada oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Hududlar kesimida investitsiya oqimlarining notekisligi tadbirkorlik rivojlanishida mintaqaviy tafovutlarni yuzaga keltirmoqda. Quyidagi jadvalda 2024-yil holatiga ko‘ra ayrim viloyatlar kesimida investitsiyalar va tadbirkorlik faolligi o‘rtasidagi nisbat keltirilgan.

3-jadval.

Investitsiyalar hajmi va tadbirkorlik subyektlari sonining mintaqaviy taqsimoti (2024-yil holatiga)

Viloyat	Investitsiyalar hajmi (mlrd so‘m)	Tadbirkorlik subyektlari soni (mingta)	1 subyektga to‘g‘ri kelgan o‘rtacha investitsiya (mln so‘m)
Toshkent shahri	78 430	145,3	540,0
Farg‘ona	14 290	38,7	369,1
Namangan	12 870	33,9	379,6
Samarqand	13 650	36,5	373,9
Qashqadaryo	10 820	28,4	380,9
Surxondaryo	8 940	25,2	354,7
Jizzax	7 410	19,6	378,1

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida ishlanmasi

2024-yil holatida investitsiyalar mamlakat hududlari bo‘yicha notekis taqsimlangan. Eng yuqori ko‘rsatkich Toshkent shahriga to‘g‘ri kelib, bu yerda investitsiyalar hajmi 78,4 trln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, tadbirkorlik subyektlari soni 145,3 mingtani tashkil etgan. Natijada, poytaxtda bitta tadbirkorlik subyektiga o‘rtacha 540 mln so‘m investitsiya to‘g‘ri kelgan.

Toshkent shahri mamlakatning iqtisodiy markazi sifatida ishlab chiqarish infratuzilmasi, transport-logistika tarmoqlari, moliyaviy resurslarga yaqinligi va malakali ishchi kuchi bilan ajralib turadi. Shu sababli, poytaxtda investitsiya sig‘imi yuqori, kapital aylanish tezligi esa mamlakat o‘rtacha ko‘rsatkichlaridan yuqori bo‘lgan.

Viloyatlar kesimida Farg‘ona (14,3 trln so‘m) va Samarqand (13,6 trln so‘m) viloyatlari yetakchi o‘rinni egallaydi. Bu hududlarda tarixan sanoat tarmoqlari va xizmat ko‘rsatish sohasi nisbatan rivojlangan. Shunga qaramay, bitta subyektga to‘g‘ri kelgan investitsiya hajmi Toshkent shahrinikidan 1,5 baravar past — taxminan 370–380 mln so‘m atrofida.

Namangan viloyatida bu ko‘rsatkich 379,6 mln so‘mni tashkil etib, respublika o‘rtacha darajasiga yaqin. Bu holat hududda kichik va oilaviy tadbirkorlikning faollashganini, biroq ishlab chiqarish quvvatlarining diversifikatsiyasi hali to‘liq shakllanmaganini bildiradi.

Qashqadaryo, Surxondaryo va Jizzax viloyatlarida investitsiyalar hajmi nisbatan past bo‘lib, ular mos ravishda 10,8; 8,9 va 7,4 trln so‘mni tashkil etgan. Ushbu viloyatlarda ishlab chiqarish infratuzilmasi, transport aloqalari va moliyaviy xizmatlar tizimi nisbatan cheklanganligi sababli investitsiya oqimi sustroq kechmoqda.

Hududlar o‘rtasidagi farq, bir tomondan, iqtisodiy salohiyat va infratuzilma darajasining turlicha ekanligi bilan, ikkinchi tomondan esa investitsion muhit va mahalliy boshqaruv tizimi samaradorligi bilan bog‘liq. Mintaqaviy investitsiya siyosatini muvofiqlashtirish, tarmoqlararo integratsiyani kuchaytirish va tadbirkorlik uchun moliyaviy resurslardan teng foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish — mavjud nomutanosibliklarni kamaytirishning muhim shartidir.

Umuman olganda, 3-jadval ma’lumotlari O‘zbekistonda investitsiyalar geografiyasida markazlashuv tendensiyasi saqlanib qolayotganini ko‘rsatadi. Kelgusida investitsiyalarni hududlar bo‘yicha muvozanatli taqsimlash orqali mintaqaviy iqtisodiy faollikni oshirish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish va bandlikni ko‘paytirish imkoniyatlari kengayadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, 2018–2024-yillar oralig‘ida O‘zbekiston iqtisodiyotiga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi 107 trln so‘mdan 265 trln so‘mgacha oshgan, bu esa investitsion siyosatning bosqichma-bosqich liberallashgani va xususiy kapitalning iqtisodiy faolligi ortganini bildiradi. Shu davrda xususiy sektor ulushi 10 foiz punktga ko‘tarilib, investitsion jarayonlarda davlat ishtirokining kamayishi va bozor mexanizmlarining kuchayishi kuzatildi.

Kichik biznes subyektlarida investitsiya hajmi va rentabellik o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘liqlik (r=0,91) investitsiyalarning daromadlilikka kuchli ijobiy ta’sir

ko‘rsatayotganini isbotladi. Ya’ni, investitsiya hajmining 1 foizga o‘sishi tadbirkorlik rentabelligini o‘rtacha 0,4 foizga oshirgan. Bu investitsiyalar nafaqat ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirgani, balki bandlik va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaganini ko‘rsatadi.

Mintaqalar kesimidagi tahlil natijalariga ko‘ra, investitsiyalarning asosiy qismi Toshkent shahri, Farg‘ona va Samarqand viloyatlarida jamlangan bo‘lib, investitsion markazlashuv tendensiyasi kuzatilmoqda. Namangan viloyatida investitsion faollik nisbatan o‘rtacha darajada bo‘lib, kichik va o‘rta biznes subyektlari faoliyatida diversifikatsiya jarayonlari davom etmoqda. Surxondaryo, Jizzax va Qashqadaryo viloyatlarida esa investitsiya oqimlari sustroq kechayotgani mintaqaviy nomutanosiblik muammosini ko‘rsatadi.

Tadqiqot asosida aniqlanishicha, investitsiyalarning tadbirkorlik faoliyatiga ta’sir samaradorligi moliyaviy infratuzilma, soliq imtiyozlari, kredit resurslariga kirish imkoniyati va boshqaruv samaradorligi bilan bevosita bog‘liq. Shu bois, investitsion muhitni yanada yaxshilash uchun bozor infratuzilmasini rivojlantirish, kredit mexanizmlarini soddalashtirish, bojxona va soliq tizimida shaffoflikni oshirish zarur.

Ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatdiki, investitsiyalar tadbirkorlikning innovatsion rivojlanishiga, yangi ish o‘rinlarini yaratishga va iqtisodiy o‘sish sur’atlarini barqarorlashtirishga xizmat qiluvchi asosiy drayver hisoblanadi. Shu bois, kelgusida investitsion siyosatda tarmoqlararo muvofiqlashtirish, mahalliy ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va investitsion monitoring tizimini kuchaytirish ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilanishi maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. G‘ulomov, S. S. (2019). *Investitsion muhitni yaxshilashda institutsional omillar.* Toshkent: Iqtisodiyot.

2. Dunning, J. H. (1993). Multinational Enterprises and the *Global* Economy. Addison-Wesley.

3. G‘oyibnazarov, B. K. (2020). *Investitsiyalar va iqtisodiy o‘sish: O‘zbekiston tajribasi.* Toshkent: Fan.

4. Abdullayev, Y. (2021). *Investitsion siyosat va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish yo‘llari.* Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.

5. Jahon banki. (2022). World Development Report *2022:* Financing for Development. Washington, D.C.

6. Keynes, J. M. (1936). The *General* Theory of Employment, Interest and Money. Macmillan.

7. Porter, M. E. (1990). The Competitive Advantage of Nations. Harvard Business Review.

8. Shumpeter, J. A. (1942). Capitalism, Socialism and Democracy. Harper & Brothers.

9. Solow, R. M. (1956). *A* Contribution *to* the Theory of Economic Growth. Quarterly Journal of Economics, 70(1), 65–94.

10. UNCTAD. (2021). World Investment Report *2021:* Investing *in* Sustainable Recovery. United Nations.

KORXONALARNI BUDJETLASHTIRISH ASOSIDA BOSHQARISHNING XALQARO TAJRIBALARI

Sobirov Shoyadbek Kurbonaliyevich
ADU mustaqil tadqiqotchi
E-mail: jobir1144@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada korxonalarni byudjetlashtirish asosida boshqarishning xalqaro tajribalari o‘rganilgan. Xususan, ilmiy ishlar tahlili orqali adaptiv va kompleks byudjetlashtirish tizimlarining nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Maqolada “Beyond Budgeting”, “Zero-Based Budgeting”, “Rolling Forecasts”, “Balanced Scorecard” va “EVA (Economic Value Added)” kabi ilg‘or xalqaro modellar tahlil qilinib, ularning korxonalar boshqaruvida strategik va operatsion darajada moslashuvchanlik, shaffoflik hamda samaradorlikni oshirishdagi o‘rni asoslab berilgan. Shu bilan birga, O‘zbekiston korxonalari amaliyotida bu modellarni milliy boshqaruv tizimiga bosqichma-bosqich integratsiya qilish imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari milliy menejment tizimida innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: byudjetlashtirish, xalqaro tajriba, adaptiv byudjetlashtirish, nol asosidagi byudjetlashtirish, strategik boshqaruv, moliyaviy rejalashtirish, menejment samaradorligi, KPI tizimi.

Аннотация

В статье рассматривается международный опыт управления предприятиями на основе бюджетирования. В частности, теоретические и практические аспекты адаптивных и сложных систем бюджетирования рассматриваются на основе анализа научных трудов. В статье анализируются передовые международные модели, такие как «Beyond Budgeting», «Zero-Based Budgeting», «Rolling Forecasts», «Balanced Scorecard» и «EVA (Economic Value Added)», и обосновывается их роль в повышении гибкости, прозрачности и эффективности на стратегическом и операционном уровнях управления предприятиями. Анализируются возможности постепенной интеграции этих моделей в национальную систему управления в практике узбекских предприятий. Результаты исследования свидетельствуют о необходимости внедрения инновационных подходов в национальную систему управления.

Ключевые слова: бюджетирование, международный опыт, адаптивное бюджетирование, бюджетирование с нулевой базой, стратегическое управление, финансовое планирование, эффективность управления, система ключевых показателей эффективности (KPI).

Abstract

This article studies international experience in managing enterprises based on budgeting. In particular, the theoretical and practical aspects of adaptive and complex budgeting systems are covered through the analysis of the scientific works. The article analyzes advanced international models such as “Beyond Budgeting”, “Zero-Based

Budgeting", "Rolling Forecasts", "Balanced Scorecard" and "EVA (Economic Value Added)", and justifies their role in increasing flexibility, transparency and efficiency at the strategic and operational levels in enterprise management. At the same time, the possibilities of gradually integrating these models into the national management system in the practice of Uzbek enterprises are analyzed. The results of the study indicate the need to introduce innovative approaches in the national management system.

Keywords: budgeting, international experience, adaptive budgeting, zero-based budgeting, strategic management, financial planning, management efficiency, KPI system.

KIRISH

Xalqaro amaliyot shuni ko‘rsatadiki, byudjetlashtirish boshqaruv tizimini faqat smeta tuzish jarayoni sifatida emas, balki strategiyani operatsion darajaga tushiruvchi integratsiyalashgan boshqaruv vositasi sifatida ko‘rish zarur. Balansirlangan ko‘rsatkichlar tizimi strategiyani amalga oshirishga yo‘naltirilgan tashkilotni qurishga yordam beradi va KPIlar orqali maqsadlar hamda harakatlarning uyg‘unligini ta’minlaydi". Shu bilan birga, operatsiyalarga asoslangan boshqaruv va xarajatlarni faoliyatlar kesimida tahlil qilish "qiymat qo‘shmaydigan xarajatlarni aniqlash va quvvatlarni talabga mos boshqarish" imkonini beradi, ya’ni resurslardan foydalanish intizomini kuchaytiradi. Integratsiyalashgan yondashuvlar "an’anaviy byudjetlashga xos bir qator kamchiliklarni bartaraf etishga" xizmat qiladi, chunki ular natijalarni korporativ qiymat mezonlariga bog‘laydi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Korxona boshqaruv iyerarxiyasida byudjetlashtirish boshqaruvning ichki moliyaviy tizimi sifatida ishlaydi. U taktik maqsadlarni tanlash, bo‘limlar bo‘yicha reja-smetalarni ishlab chiqish va ijroni nazorat qilish orqali umumiy boshqaruvni muvofiqlashtiradi. "Byudjetlashtirish korxona darajasida taktik maqsadlarni tanlash, kelajakdagi operatsiyalarni rejalashtirish va bu rejalarni bajarilishini nazorat qilish tizimi, ya’ni ichki moliyaviy boshqaruv tizimi sifatida qaraladi"[1].

Byudjet markazlari (moliyaviy mas’uliyat markazlari) boshqaruv iyerarxiyasining funksional bo‘g‘inlarida tashkil etiladi va odatda xarajatlar markazi, daromadlar markazi, foyda markazi hamda investitsiya markazlari shaklida ajratiladi. Ularning o‘zaro munosabati "maqsadlar kaskadi" tamoyiliga asoslanadi. "Yuqoridan pastga strategik maqsadlar va limitlar yuboriladi, pastdan yuqoriga esa resurs ehtiyojlari va prognozlar qaytariladi"[2].

Byudjetlashtirishning markazlararo integratsiyasi umumiy byudjet orqali ta’minlanadi. "Korxonaning umumiy (generatsiyalangan) byudjeti barcha bo‘linmalar va funksiyalar bo‘yicha muvofiqlashtirilgan reja bo‘lib, u strategik rejaga bevosita

[1] Харитонова Е.Н. Бюджетирование как инструмент оперативного управления предприятием: автореф. дис. … канд. экон. наук: 08.00.05. – Москва, 2002. – 15 с.
[2] Харитонова Е.Н. Бюджетирование как инструмент оперативного управления предприятием: автореф. дис. … канд. экон. наук: 08.00.05. – Москва, 2002. – 13 с.

bog‘langan bo‘lishi kerak”[1]. Shu asosda operatsion byudjetlar (sotuv, ishlab chiqarish, materiallar, mehnat, ustama xarajatlar) moliyaviy byudjetlar (pul oqimi, foyda va zarar, balans prognozi) bilan tutashtiriladi va markazlar kesimida KPIlar belgilab beriladi.

Iyerarxiya va markazlar o‘zaro munosabatining samaradorligi byudjet funksiyalarining to‘liq ishlashiga bog‘liq. “Byudjetning funksiyalari: rejalashtirish, nazorat, muvofiqlashtirish, rag‘batlantirish, korxona faoliyatini baholash va menejerlarni o‘qitish”[2]. Shu asosda yuqori boshqaruv strategik ko‘rsatkichlarni belgilaydi, o‘rta bo‘g‘in bu maqsadlarni bo‘limlar darajasida operatsion rejalarga aylantiradi, ijro pog‘onasi esa ishlab chiqarish jarayonlari orqali natijani ta’minlaydi.

Tez o‘zgaruvchan sharoitlarda qattiq, an’anaviy byudjetlar markazlararo moslashuvni sekinlashtirishi mumkin. “An’anaviy byudjetlarning muammolari yangi qarashlarni ishlab chiqishga va adaptiv byudjetlashtirish tizimini yaratishga turtki bo‘ldi”[3]. Adaptiv modelda markazlar uchun “aylanma prognozlar, ssenariylar va tezkor yangilash tartiblari” qo‘llanadi, bu esa aksiyadorlik jamiyatlarida bozor tebranishlari va korporativ qarorlarni tez sinxronlashtirishga yordam beradi.

S.V.Grishkovskaya o‘zining ilmiy ishida adaptiv byudjetlashtirishni korxonani yanada samarali boshqarish vositasi sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, bu tizim quyidagi tarkibiy elementlarga ega:

1. Byudjet prognozlari va ssenariylarini tezkor yangilab borish mexanizmini joriy etish;

2. Byudjetlashtirishni nazorat (kontrolling) va asosiy natijaviy ko‘rsatkichlar (KPI) tizimi bilan integratsiyalash;

3. Strategik va operatsion boshqaruv o‘rtasida uzluksiz aloqani ta’minlovchi reglament va ichki komissiyalar (masalan, byudjet komiteti)ni shakllantirish.

L.S.Mavukyan[4] o‘zining “Bozor munosabatlari rivojlanish sharoitida sanoat korxonasi faoliyatini boshqarishning kompleks tizimi sifatida byudjetlashtirish (yog‘ochni qayta ishlash tarmog‘i misolida)” nomli tadqiqot ishida byudjetlashtirishni korxona boshqaruv tizimining ajralmas qismi sifatida tahlil qilgan. Muallif byudjetlashtirishni nafaqat moliyaviy rejalashtirish vositasi, balki strategik va operatsion qarorlar o‘rtasidagi bog‘lovchi mexanizm sifatida talqin etadi.

[1] Харитонова Е.Н. Бюджетирование как инструмент оперативного управления предприятием: автореф. дис. … канд. экон. наук: 08.00.05. – Москва, 2002. – 26 с.
[2] Харитонова Е.Н. Бюджетирование как инструмент оперативного управления предприятием: автореф. дис. … канд. экон. наук: 08.00.05. – Москва, 2002. – 20 с.
[3] Гришковская С.В. Адаптивная система бюджетирования как способ повышения эффективности управления предприятием: автореф. дис. … канд. экон. наук: 08.00.10. – Томск, 2009. – 24 с.
[4] Мавукян Л.С. Бюджетирование как комплексная система управления деятельностью промышленного предприятия в условиях развития рыночных отношений (на примере деревообрабатывающей отрасли): автореф. дис. … канд. экон. наук: 08.00.05. – Москва, 2005. – 25 с.

1-jadval

Byudjetlashtirish va boshqaruv samaradorligi bo‘yicha olimlar fikrlari[1]

Olim	Asar nomi	Asosiy g‘oya	Manba
Grishkovskaya S.V. (2009)	Адаптивная система бюдзҳетирования как способ повйшения эффективности управления предприятием	An’anaviy byudjetlashtirish tashqi muhitga moslashmaydi; adaptiv byudjetlashtirish strategiyani reja bilan bog‘laydi, nazorat va tahlilni uyg‘unlashtiradi, risklarni oldindan baholaydi.	Grishkovskaya S.V. — Moskva, 2009. — P. 45-47.
Kharitonova E.N. (2002)	Бюдзҳетирование как инструмент оперативного управления предприятием	Byudjetlashtirish — operativ boshqaruv vositasi; moliyaviy jarayonlarni muvofiqlashtiradi, risklarni kamaytiradi, barqarorlikni ta’minlaydi.	Kharitonova E.N. — SPb., 2002. — P. 102-105.
Mavukyan L.S. (2005)	Бюдзҳетирование как комплексная система управления деятелъностъю промйшленного предприятия	Byudjetlashtirish — kompleks boshqaruv tizimi; nafaqat operatsion, balki strategik boshqaruvga ham xizmat qiladi.	Mavukyan L.S. — Moskva, 2005. — P. 88-90.
Blank I.A. (2015)	Финансовйй менеджмент	Byudjetlashtirish “rejalashtirish — nazorat — tahlil” uchligi orqali samaradorlikni oshiradi, resurslarni optimal taqsimlaydi.	Blank I.A. — Kiev, 2015. — P. 210-212.
Balabanov I.T. (2001)	Основй финансового менеджмента	Bo‘linmalar faoliyatini yagona reja asosida uyg‘unlashtiradi; samarali byudjetlashtirish moliyaviy barqarorlikning sharti.	Balabanov I.T. — Moskva, 2001. — P. 134-137.
Stoyanova E.S. (2010)	Финансовйй менеджмент: теория и практика	Byudjetlashtirish — ichki nazorat vositasi va strategik qarorlar tayanchidir; tashqi muhit noaniqligiga moslashadi.	Stoyanova E.S. — Moskva, 2010. — P. 156-160.
Xrutskiy V.E. (2006)	Бюдзҳетирование на предприятии	Budjet — bo‘linmalarni yagona tizimga birlashtiruvchi boshqaruv mexanizmi.	Xrutskiy V.E. — Minsk, 2006. — P. 99-101.

[1] Muallif ishlanmasi

Olim	Asar nomi	Asosiy g‘oya	Manba
Drury C. (2018)	Management and Cost Accounting	Byudjetlashtirish samarali nazorat vositasi; strategik maqsadlarni operatsion faoliyat bilan bog‘laydi.	Drury C. — London, 2018. — P. 320-324.
Hope J. & Fraser R. (2003)	Beyond Budgeting	An’anaviy yillik byudjetlarni tanqid qiladi; o‘rniga moslashuvchan tizimlar boshqaruvni tezlashtiradi, resurslardan samarali foydalanishni ta’minlaydi.	Hope J., Fraser R. — Boston, 2003. — P. 45-50.

Yuqoridagi 1-jadvalda byudjetlashtirishni boshqaruv samaradorligiga ta’siri togrisida olimlarning fikrlarini qiyosiy jadvali keltirilgan.

Bunda “budgetary slack — budjet zaxirasi, ya’ni byudjetdagi sun’iy zaxira, byudjetni ataylab past ko‘rsatish” xavfini pasaytirish muhim: “shaffof taxminlar matritsasi, mustaqil “challenge session — bahs-munozara sessiyasi”lar va “stretch-target — ambitsiyali maqsad”lar qo‘llanishi” kerak. Axborotning o‘z vaqtida va aniqligi — investorlar bilan muloqot va korporativ shaffoflikning asosi: byudjet ssenariylari, kutilmalar va asosiy drayverlar bo‘yicha boshqaruv hisobotlari ichki va tashqi manfaatdor tomonlar uchun izchil bo‘lishi shart. “An’anaviy byudjetlarning muammolari yangi qarashlarni ishlab chiqishga va adaptiv byudjetlashtirish tizimini yaratishga turtki bo‘ldi”[1] shu sababli aylanma prognozlar va tezkor rejalashtirish aksionerlar manfaatlariga mos moslashuvchan boshqaruvni ta’minlaydi.

Bunda, byudjetlashtirish aksionerlar manfaatlari va boshqaruv maqsadlarini operatsion ijroga bog‘lovchi “institutsional ko‘prik” vazifasini bajaradi: strategik KPIlar balanslashgan baholash xaritasida maqsad — ko‘rsatkich — byudjet bandi — mas’ul markaz zanjiri bo‘yicha kaskadlanadi, varians tahlili va muammoning tub sababilar orqali doimiy takomillashtirish ishlaydi, kapital taqsimoti esa WACC-kapitalning o‘rtacha vaznli qiymatidan yuqori rentabellikni nishonga oladi. Shu tarzda byudjet — nafaqat hisob-kitoblar to‘plami, balki aksioner qiymatini ko‘paytirishga xizmat qiladigan korporativ boshqaruv mexanizmiga aylanadi; “byudjetlar … strategik yo‘nalishlar bilan bevosita bog‘langan bo‘lishi kerak”[2].

Aksiyadorlar kengashi, kuzatuv kengashi va ijro organlari o‘rtasidagi o‘zaro mas’uliyat byudjetlashtirishni korporativ boshqaruv tizimi bilan uzviy bog‘laydi va aksiyadorlar qiymatini yaratish yo‘lida qarorlar kaskadini izchil qiladi. Aksiyadorlar kengashi darajasida strategik maqsadlar, kapital siyosati, dividendlar, risk ishtahasi va

[1] Гришковская С.В. Адаптивная система бюджетирования как способ повышения эффективности управления предприятием: автореф. дис. … канд. экон. наук: 08.00.10. – Томск, 2009. – 24 с.
[2] Харитонова Е.Н. Бюджетирование как инструмент оперативного управления предприятием: автореф. дис. … канд. экон. наук: 08.00.05. – Москва, 2002. – 20 с.

investitsiya limitlari tasdiqlanadi; bu cheklovlar yillik va choraklik byudjetlarga “yuqoridan pastga” kaskadlanadi. “Strategik, qisqa muddatli va operativ rejalashtirishni bog‘laydigan byudjetlashtirish tizimi zarur”[1]. Ayni shu bog‘liqlik ijro darajasidagi rejalashtirish, nazorat va tahlil jarayonlariga mezon bo‘lib xizmat qiladi hamda byudjet-bandlar orqali strategik KPIlar bilan tikiladi.

Kuzatuv kengashi institutsional nazorat va monitoring funksiyasini bajaradi: byudjet jarayonining reglamenti, tasdiq kalendari, “doimiy yangilanadigan prognoz” va ssenariy siyosati (bazis-yaxshisi-yomon) ustidan metodik nazoratni ta’minlaydi, varians tahlili natijalari va muammoning tub sababi bo‘yicha tuzatish choralarini talab qiladi. “Byudjetning funksiyalari: rejalashtirish, nazorat, muvofiqlashtirish, rag‘batlantirish, korxona faoliyatini baholash va menejerlarni o‘qitish”[2]. Shu bilan birga, amaliy tajriba ko‘rsatadiki, nazoratning kollegial mexanizmlari zaif bo‘lsa, agentlik xatarlari kuchayadi: “byudjet qarorlarini qabul qilish bo‘yicha nazoratning kollegial organi yo‘qligi” muammosi tez-tez uchraydi. Shuning uchun ko‘plab aksiyadorlik jamiyatlarida Byudjet qo‘mitasi tashkil etilib, unda kuzatuv kengashi vakillari, moliyaviy direktor va funksional rahbarlar ishtirok etadi.

Ijro organlari (bosh direktor, bosh moliya direktori va funksional rahbarlar) byudjetni ishlab chiqish, konsolidatsiya, ijro va qayta ko‘rib chiqish uchun mas’uldir; ular “pastdan yuqoriga” taxminlar matritsasini yig‘adi, bo‘limlar rejasini umumiy byudjetga birlashtiradi va resurslarni qayta taqsimlaydi. “Umumiy (generatsiyalangan) byudjet korxonaning barcha bo‘linmalari yoki funksiyalari bo‘yicha muvofiqlashtirilgan ish rejasi bo‘lib, u uzoq muddatli strategiyani ishlab chiqishdan operatsion rejalarni optimallashtirishgacha bo‘lgan ketma-ketlikni nazarda tutadi”[3].

“Umumiy byudjetni shakllantirishda barcha bo‘linmalarning ishtiroki zarur; byudjet vazifalarni delegatsiya qilish va ular uchun mas’uliyatni belgilashning asosidir”[4]. Bu yerda moliyaviy direktor boshchiligidagi moliya funksiyasi konsolidatsiya, kassa oqimlari, balans va foyda va zararlar prognozlarini boshqaradi, operatsion bo‘lim esa sotuv, ishlab chiqarish, xarajat va investitsiya byudjetlarini bajaradi.

Boshqaruv pog‘onalarining ushbu taqsimoti byudjetni oddiy smetadan ko‘ra kengroq — “ichki moliyaviy boshqaruv tizimi” sifatida talqin etishni talab qiladi. “Byudjetlashtirish korxona darajasida taktik maqsadlarni tanlash, kelajakdagi operatsiyalarni rejalashtirish va bu rejalarni bajarilishini nazorat qilish tizimi, ya’ni ichki moliyaviy boshqaruv tizimi sifatida qaraladi”[5]. Bunda, taqsimlangan mas’uliyat zanjiri quyidagicha ishlaydi: aksiyadorlar kengashi — strategiyani tasdiqlaydi; kuzatuv

[1] Коршунов Д.В. Бюджетирование как технология управления предприятием на основе стратегии: автореф. дис. … канд. экон. наук: 08.00.05. – Москва, 2012. – 25 с.
[2] Харитонова Е.Н. Бюджетирование как инструмент оперативного управления предприятием: автореф. дис. … канд. экон. наук: 08.00.05. – Москва, 2002. – 22 с.
[3] Харитонова Е.Н. Бюджетирование как инструмент оперативного управления предприятием: автореф. дис. … канд. экон. наук: 08.00.05. – Москва, 2002. – 12 с.
[4] Харитонова Е.Н. Бюджетирование как инструмент оперативного управления предприятием: автореф. дис. … канд. экон. наук: 08.00.05. – Москва, 2002. – 10 с.
[5] Харитонова Е.Н. Бюджетирование как инструмент оперативного управления предприятием: автореф. дис. … канд. экон. наук: 08.00.05. – Москва, 2002. – 18 с.

kengashi — ijroga institutsional nazorat o‘rnatadi; ijro organlari — operatsion rejalashtirish, ijro va varians boshqaruvini olib boradi. “Byudjet … boshqaruvning deyarli barcha bosqichlarida qo‘llaniladigan boshqaruv vositasidir”[1].

Tashkiliy jihatdan bu mas’uliyatlar Byudjet reglamenti va RACI (mas’ul — javobgar — maslahatlashuvchi — xabardor qilinuvchi) matritsasida mustahkamlanadi:

- kim tashabbus ko‘taradi;
- kim yakuniy qaror beradi;
- kim maslahatlashadi;
- kim xabardor qilinadi.

“Umumiy byudjet odatda ikki qismdan iborat: operatsion va moliyaviy byudjet; moliyaviy byudjet tarkibida balans prognozi, pul oqimi hisobotlari hamda kapital qo‘yilmalar byudjeti mavjud”[2]. Bu tuzilma ijro organlarining pul oqimlari intizomini saqlashini, kuzatuv kengashining esa likvidlik va barqarorlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha kafolatni talab qilishini anglatadi.

Dinamik muhitda aylanma prognozlar va adaptiv buydjetlash tamoyillari organlararo mas’uliyatni yanada faol qiladi. “Adaptiv byudjetlashtirish — tizimning tashqi sharoitlarga moslashish qobiliyatidir … bu esa tashkilotning moslashuvchanligini oshiradi”[3]. Shunday ekan, aksiyadorlar kengashi reforecast triggerlari va risk ishtahasini belgilaydi, kuzatuv kengashi trigger ishga tushganda tezkor ko‘rib chiqish sessiyalarini chaqiradi, ijro organlari esa ssenariylar kesimida resurslarni qayta taqsimlaydi. Shu tarzda byudjetlashtirishdagi o‘zaro mas’uliyat korporativ boshqaruvning “institutsional ko‘prigi”ga aylanib, strategiya-byudjet-ijro zanjirining uzluksiz ishlashini ta’minlaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xalqaro amaliyotda an’anaviy byudjetdan voz kechgan holda boshqaruv (Beyond budgeting) va nol asosidagi byudjetlashtirish (Zero-based budgeting) yondashuvlari mavjud va an’anaviy qat’iy byudjetlardan voz kechib, tez o‘zgaruvchi muhitda boshqaruvni moslashuvchan qilishga qaratilgan. “An’anaviy byudjetlar ko‘pincha strategiyani qo‘llab-quvvatlamaydi va operativ hamda strategik boshqaruv o‘rtasida uzilish paydo bo‘ladi”[4].

An’anaviy byudjetdan voz kechgan holda boshqaruvning boshqaruv jihati markazlashuvni kamaytirish, qaror huquqlarini pastki bo‘g‘inlarga berish, nisbiy ko‘rsatkichlar va moslashuvchan maqsadlar bilan ishlash, hamda doimiy yangilanadigan byudjetlar orqali rejalashni yangilab borishga tayanadi. Shu ruhdagi yondashuv haqida “adaptiv byudjetlashtirish strategik rejalashtirish bilan

[1] Мавукян Л.С. Бюджетирование как комплексная система управления деятельностью промышленного предприятия в условиях развития рыночных отношений (на примере деревообрабатывающей отрасли): автореф. дис. … канд. экон. наук: 08.00.05. – Москва, 2005. – 25 с.
[2] Харитонова Е.Н. Бюджетирование как инструмент оперативного управления предприятием: автореф. дис. … канд. экон. наук: 08.00.05. – Москва, 2002. – 128 с.
[3] Гришковская С.В. Адаптивная система бюджетирования как способ повышения эффективности управления предприятием: автореф. дис. … канд. экон. наук: 08.00.10. – Томск, 2009. – 24 с.
[4] Гришковская С.В. Адаптивная система бюджетирования как способ повышения эффективности управления предприятием: автореф. дис. … канд. экон. наук: 08.00.10. – Томск, 2009. – 24 с.

integratsiyada bo‘lib, doimiy yangilanadigan byudjetlar orqali davrni dinamik qoplaydi”[1] deyiladi. Bunday modelda “e’tibor xarajat vakolatidan ko‘ra natija uchun javobgarlikka ko‘chadi”, ya’ni rahbarlar resurslarni faqat tasdiqlash emas, qiymat yaratuvchi natijalarni ta’minlash mas’uliyatini ham zimmasiga oladi.

An’anaviy byudjetdan voz kechgan holda boshqaruv amaliyoti korxona ichki siklini ham qayta dizayn qiladi: tahlil va nazorat doimiy, reja-fakt taqqoslari nisbiy me’yorlar bilan olib boriladi, prognozlar esa muntazam yangilanadi. Buning natijasida strategik maqsadlar operativ boshqaruvga “suzuvchi” ko‘rsatkichlar orqali uzviy ulanadi; bo‘limlararo muvofiqlashuv reglamentlardan ko‘ra real vaqt axboroti va javobgarlik markazlariga tayanadi.

Nol asosidagi byudjetlashtirish esa xarajatlarni “nol”dan asoslash tamoyiliga quriladi. “Qolgan xarajatlarni noldan rejalashtirish maqsadga muvofiq: oldingi davrning darajasi emas, kelgusi davr talabi va samaradorligi asos bo‘lishi kerak”[2]. Amalda bu yondashuv “ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish me’yorlarini yangilash, xarajatlarni tashuvchilarini qayta ko‘rib chiqish va faqat eng muhim jarayonlar uchun bilvosita xarajatlarni bevosita qilishga yo‘naltirilgan mexanizmlarni talab etadi. Ko‘p korxonalarda nol asosidagi byudjetlashtirish evolyutsion qo‘shma shaklda, ya’ni, investitsiya va tashabbuslar uchun nol-bazis, takrorlanuvchi, barqaror xarajatlar uchun esa soddalashtirilgan inkremental rejim bilan uyg‘unlashtiriladi.

Mazkur modellarni joriy etish nazariy asosdan ham kuch oladi: “iqtisodiy adabiyotlarda byudjetlashtirishga yondashuvlar ichida byudjetlar chegarasidan tashqarida boshqaruv (Beyond Budgeting) konsepsiyasi ham muhokama qilinadi”[3].

L.S.Mavukyan, shuningdek, byudjetlashtirishni “faqat operativ emas, balki avvalo strategik maqsadlarga yo‘naltirilgan”[4] boshqaruv texnologiyasi sifatida asoslaydi.

Aksiyadorlik jamiyatlari misolida qaralganda, an’anaviy byudjetdan voz kechgan holda boshqaruv bo‘linmalar darajasida tezkor vakolat va javobgarlikni kuchaytirib, bozor signallariga mos ravishda resurslarni qayta taqsimlash imkonini beradi; nol asosidagi byudjetlashtirish esa xarajatlar mavjud holatni buzib, har bir byudjet satrining qiymatga qo‘shgan hissasini qayta isbotlashni majburiy qiladi. Har ikkisi ham boshqaruv mexanizmini intizomli ma’lumotlar oqimi, doimiy prognozlash va aniq javobgarlik markazlari orqali takomillashtiradi, farqi shundaki, an’anaviy byudjetdan voz kechgan holda boshqaruv ko‘proq moslashuvchan boshqaruv tamoyillariga (desentralizatsiya, nisbiy maqsadlar, rolling prognozlar) suyanadi, nol asosidagi

[1] Гришковская С.В. Адаптивная система бюджетирования как способ повышения эффективности управления предприятием: автореф. дис. … канд. экон. наук: 08.00.10. – Томск, 2009. – 15 с.
[2] Гришковская С.В. Адаптивная система бюджетирования как способ повышения эффективности управления предприятием: автореф. дис. … канд. экон. наук: 08.00.10. – Томск, 2009. – 18 с.
[3] Мавукян Л.С. Бюджетирование как комплексная система управления деятельностью промышленного предприятия в условиях развития рыночных отношений (на примере деревообрабатывающей отрасли): автореф. дис. … канд. экон. наук: 08.00.05. – Москва, 2005. – 25 с.
[4] Мавукян Л.С. Бюджетирование как комплексная система управления деятельностью промышленного предприятия в условиях развития рыночных отношений (на примере деревообрабатывающей отрасли): автореф. дис. … канд. экон. наук: 08.00.05. – Москва, 2005. – 20 с.

byudjetlashtirish esa xarajatlarning tubdan qayta asoslanishi va “nol”dan baholanishi bilan resurs taqsimotini yangilaydi.

Nol asosidan baholanish tamoyili resurslar taqsimotini yangilab, ularni real ehtiyoj va samaradorlik mezonlariga moslashtirish imkonini beradi.

Shuningdek, amaliy so‘rovlar natijalari byudjet jarayonlarini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi: “byudjet va ruxsatnomalarni ko‘rib chiqish jarayonlari eng ko‘p vaqt va mehnat talab qiladi”[1].

Bu holat an’anaviy yondashuvni modernizatsiya qilish, boshqaruv jarayonlarini soddalashtirish va qaror qabul qilish tezligini oshirish, nol asosidagi byudjetlashtirish esa xarajatlarni chuqur tahlil qilish hamda resurslardan foydalanish samaradorligini yanada yuksaltirishga xizmat qiluvchi mexanizmlar sifatida dolzarb ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.

Bu holat An’anaviy byudjetdan voz kechgan holda boshqaruvning byurokratiyani qisqartirish, nol asosidagi byudjetlashtirishning esa xarajatlarni chuqur qayta asoslash orqali samaradorlikni oshirishga qaratilgan mexanizmlarini dolzarb qiladi.

Yaratilgan qo‘shimcha iqtisodiy qiymat (Iqtisodiy qoshimcha qiymat) va Balanslashgan baholash xaritasi (Balanced Scorecard) zamonaviy menejment tizimlarida strategik qarorlar qabul qilishning muhim vositalaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Bu yondashuvlar an’anaviy moliyaviy ko‘rsatkichlarga qaraganda kompaniya qiymatini oshirish, resurslardan samarali foydalanish va uzoq muddatli barqarorlikka erishishni ko‘zlaydi. Ayniqsa, aksiyadorlik jamiyatlari kabi ko‘p darajali boshqaruv tizimiga ega korxonalarda bu model va ko‘rsatkichlar asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish korxona manfaatdor tomonlari — aksiyadorlar, direktorlar kengashi, boshqaruvchilar, mijozlar va xodimlar — o‘rtasida uyg‘unlik va shaffoflikni ta’minlaydi.

Yaratilgan qo‘shimcha iqtisodiy qiymat (EVA) usuli orqali korxonaning sof iqtisodiy foydasi hisoblab chiqiladi. Bu ko‘rsatkich sof operatsion foydadan kapital qiymati bo‘yicha xarajatlarni ayirish orqali aniqlanadi.

$$EVA = NOPAT - (Kapital \times Kapital\ qiymati)$$

formulasi orqali korxona yaratgan haqiqiy iqtisodiy qo‘shimcha aniqlanadi. Bu uslubning asosiy afzalligi shundaki, u foydani nafaqat hisobiy ko‘rsatkich, balki real kapital samaradorligi asosida aniqlaydi. Shu sababli, bu ko‘rsatkich investorlar uchun ishonchli indikator bo‘lib xizmat qiladi. Yaratilgan qo‘shimcha iqtisodiy qiymat (EVA) korxona qarorlarining har birini moliyaviy intizom va investitsiya samaradorligi nuqtai nazaridan tahlil qilish imkonini beradi. Misol uchun, yangi investitsiya loyihalarini baholashda yaratilgan qo‘shimcha iqtisodiy qiymat (EVA) orqali foyda keltiruvchi va zararli loyihalarni aniqlash ancha osonlashadi.

Balanslashgan baholash kartasi (Balanced Scorecard) esa faqat moliyaviy natijalarga emas, balki to‘rt asosiy yo‘nalish — moliyaviy, mijozlar, ichki biznes jarayonlari va o‘sish/innovatsiyalar nuqtai nazaridan korxonaning faoliyatini baholashga asoslanadi. Bu tizim strategik maqsadlarni aniqlash va ularni o‘lchab turish

[1] Aqmirzayevich S.A. Korxonalarda moliyaviy rejalashtirish va moliyaviy risklarni baholashning xorij tajribasi //Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика). – 2024. – №. 9. – С. 92-104.

imkonini beradigan mezonlar to‘plamini shakllantiradi. Har bir yo‘nalish bo‘yicha mezonlar, ko‘rsatkichlar va ular bo‘yicha javobgar bo‘lgan shaxslar aniqlanadi. Masalan, mijozlar yo‘nalishida mijozlar qoniqish darajasi, mijozlarni ushlab qolish koeffitsiyenti; ichki jarayonlarda — sikllarning davomiyligi, nuqsonlar soni; innovatsiyada — yangi mahsulotlar ulushi va xodimlar malakasining oshishi kabi ko‘rsatkichlar olinadi. Shu tarzda korxona strategik maqsadlarini kunlik operatsion faoliyat bilan bog‘laydi va ularning bajarilishini doimiy monitoringda ushlab turadi.

Yaratilgan qo‘shimcha iqtisodiy qiymat (EVA) va balanslashgan baholash kartasi (BSC)ni uyg‘unlashtirish esa korxona uchun kuchli sinergetik samara yaratadi. Yaratilgan qo‘shimcha iqtisodiy qiymat (EVA) ko‘rsatkichlari balanslashgan baholash kartasi (BSC) modelining moliyaviy blokiga kiritiladi va boshqa bloklar orqali bu ko‘rsatkichga ta’sir etuvchi omillar kuzatiladi. Masalan, innovatsion faoliyat natijasida ishlab chiqarish samaradorligi oshadi, bu esa xarajatlarni kamaytirib, sof operatsion foyda (NOPAT)ni ko‘paytiradi va bunda yaratilgan qo‘shimcha iqtisodiy qiymat (EVA) yuqorilaydi. Shu bilan birga, balanslashgan baholash kartasi (BSC) vositasida xodimlarni rag‘batlantirish, jamoaviy ishlash, jarayonlarni optimallashtirish orqali Yaratilgan qo‘shimcha iqtisodiy qiymat (EVA) qiymatiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi omillar nazoratga olinadi. Bu uyg‘unlik strategik rejalashtirishda bosqichma-bosqich moliyaviy va no-moliyaviy indikatorlarni yagona tizimda birlashtirib, korxona qiymatini maksimal darajada oshirishga xizmat qiladi.

2-jadval

Xalqaro byudjetlashtirish modellarining milliy menejment amaliyotiga moslashtirish imkoniyatlari[1]

№	Xalqaro model (mamlakat)	Asosiy jihatlari	O‘zbekistonga moslashtirish imkoniyati
1	Beyond Budgeting (Skandinaviya)	Moslashuvchanlik, markazlashmagan boshqaruv, tez-tez qayta baholash	Innovatsion menejment madaniyatini rivojlantirish va raqamli tahlil vositalarini joriy etish orqali bosqichma-bosqich tatbiq etish mumkin
2	Zero-Based Budgeting (AQSh)	Har bir xarajatni asoslash zarurati, ortiqcha resurslarni qisqartirish	Byudjet intizomini mustahkamlash va moliyaviy nazoratni kuchaytirishda foydali, amaliyotga bosqichma-bosqich tatbiq etish lozim
3	Rolling Forecasts (Buyuk Britaniya)	Davriy (har chorakda) prognozlar, moslashuvchan rejalashtirish	Qisqa muddatli moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda qo‘llash mumkin; monitoring mexanizmini rivojlantirish zarur
4	Muvozanatli korsatkichlar tizimi(AQSh, global)	Strategik va operatsion ko‘rsatkichlarni uyg‘unlashtirish	Korxonalar strategik boshqaruvini kuchaytirishda foydali; KPI tizimini joriy etishni talab qiladi
5	EVA — Iqtisodiy qoshimcha qiymat (AQSh)	Sof iqtisodiy qiymatga asoslangan baholash, kapitalkiritish samaradorligi	Faoliyatning iqtisodiy natijalarini baholashda qulay; moliyaviy ko‘rsatkichlar sifatini oshirish zarur

[1] Muallif ishlanmasi

Xalqaro menejment amaliyotida byudjetlashtirish usullari uzoq yillardan buyon strategik rejalashtirish va moliyaviy nazorat vositasi sifatida muvaffaqiyatli qo‘llanib kelmoqda. G‘arb mamlakatlari, xususan AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya tajribalarida “An’anaviy byudjetdan voz kechgan holda boshqaruv (Beyond Budgeting)”, “Nol asosidagi budjetlashtirish (Zero-Based Budgeting)”, “Doimiy yangilanadigan prognozlar (Rolling Forecasts)”, “Yaratilgan qo‘shimcha iqtisodiy qiymat (EVA)” kabi ilg‘or modellar yordamida korxonalarda moslashuvchan, maqsadli va barqaror boshqaruv tizimlari shakllantirilgan. Ular an’anaviy rejalashtirishdan farqli ravishda “resurslardan maksimal samara olishni ta’minlash, doimiy o‘zgaruvchan bozor sharoitlariga tez moslashishni ko‘zlaydi”[1].

O‘zbekiston sharoitida bu modellarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llash murakkab bo‘lishi mumkin, biroq ularning ayrim komponentlarini milliy amaliyotga moslashtirish orqali menejment samaradorligini oshirish mumkin. “Xalqaro modellarni milliy korxonalarning tashkiliy tuzilmasi, moliyaviy hisobot standartlari, me’yoriy hujjatlar bilan uyg‘unlashtirish — eng dolzarb masalalardan biridir”[2].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, byudjetlashtirish faqat moliyaviy rejalashtirish vositasi emas, balki strategiyani amalga oshirish va resurslarni samarali boshqarishning muhim mexanizmi hisoblanadi. “Beyond Budgeting” modeli boshqaruvni markazlashuvdan xoli, moslashuvchan va tezkor qaror qabul qilishga yo‘naltiradi, “Zero-Based Budgeting” esa xarajatlarni “nol”dan asoslash orqali moliyaviy intizomni kuchaytiradi. “Rolling Forecasts” esa dinamik prognozlash orqali o‘zgaruvchan bozor sharoitida barqaror boshqaruvni ta’minlaydi. Shu bilan birga, “Balanced Scorecard” va “EVA” tizimlari strategik maqsadlar va moliyaviy natijalarni uyg‘unlashtiradi.

O‘zbekiston sharoitida ushbu modellarni to‘liq tatbiq etish muayyan qiyinchiliklarga ega bo‘lsa-da, ularning ayrim elementlarini milliy menejment amaliyotiga moslashtirish orqali korxonalar samaradorligini oshirish mumkin. Ayniqsa, KPI tizimi, elektron kontrolling, hamda strategik budjet komissiyalarini joriy etish orqali boshqaruvning shaffofligi, javobgarlik va natijadorlik darajasini oshirish imkoniyati mavjud. Shu tariqa, xalqaro budjetlashtirish modellarining adaptatsiyasi korxonalarda innovatsion, natijaviy va barqaror boshqaruv.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Aqmirzayevich S.A. Korxonalarda moliyaviy rejalashtirish va moliyaviy risklarni baholashning xorij tajribasi //Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика). – 2024. – №. 9. – C. 92-104.

2. Kunduzova, K.I. Korxonalarni boshqarishda budjetlashtirishning mohiyati va ahamiyati // Raqamli iqtisodiyot: ilmiy-elektron jurnal. — № 8. 2023. – b. 95-105

[1] Aqmirzayevich S.A. Korxonalarda moliyaviy rejalashtirish va moliyaviy risklarni baholashning xorij tajribasi //Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика). – 2024. – №. 9. – b. 92-104.

[2] Kunduzova, K.I. Korxonalarni boshqarishda byudjetlashtirishning mohiyati va ahamiyati // Raqamli iqtisodiyot: ilmiy-elektron jurnal. — № 8. 2023. – b. 95-105

3. Гришковская С.В. Адаптивная система бюджетирования как способ повышения эффективности управления предприятием: автореф. дис. … канд. экон. наук: 08.00.10. – Томск, 2009. – 18 с.

4. Коршунов Д.В. Бюджетирование как технология управления предприятием на основе стратегии: автореф. дис. … канд. экон. наук: 08.00.05. – Москва, 2012. – 25 с.

5. Мавукян Л.С. Бюджетирование как комплексная система управления деятельностью промышленного предприятия в условиях развития рыночных отношений (на примере деревообрабатывающей отрасли): автореф. дис. … канд. экон. наук: 08.00.05. – Москва, 2005. – 20 с.

6. Харитонова Е.Н. Бюджетирование как инструмент оперативного управления предприятием: автореф. дис. … канд. экон. наук: 08.00.05. – Москва, 2002. – 128 с.

IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH BO‘YICHA JORIY MEXANIZMLARNING TAHLILI

Tirkashev Farruxjon Xolyigitovich
Mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya

O‘zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etishning amaldagi mexanizmlari tahlil qilinadi. So‘nggi yillarda mamlakatda xorijiy sarmoyadorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, qonunchilikni takomillashtirish, soliqqa tortish tizimini soddalashtirish hamda erkin iqtisodiy zonalarni rivojlantirish yo‘nalishida bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Tadqiqot davomida investitsiya muhitiga ijobiy va salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillar aniqlanib, mavjud mexanizmlarning samaradorligi baholandi. Shuningdek, xorijiy investorlarning O‘zbekiston bozoriga kirishi, ularga yaratilayotgan imkoniyatlar, yuzaga kelayotgan byurokratik to‘siqlar va ularni bartaraf etish yo‘llari ko‘rib chiqildi. Ish yakunida investitsiya siyosatini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: xorijiy investitsiyalar, investitsion muhit, iqtisodiy islohotlar, sarmoyadorlar, huquqiy kafolatlar, sarmoyaviy jozibadorlik, mexanizm, islohotlar samaradorligi.

Abstract

The article analyzes the existing mechanisms for attracting foreign investments into Uzbekistan’s economy. In recent years, a number of reforms have been implemented in the country to create favorable conditions for foreign investors, improve legislation, simplify the taxation system, and develop free economic zones. The study identifies positive and negative factors affecting the investment climate and evaluates the effectiveness of current mechanisms. It also examines the entry of foreign investors into the Uzbek market, the opportunities provided to them, the bureaucratic obstacles encountered, and ways to overcome them. In conclusion, proposals and recommendations for improving investment policy were developed.

Keywords: foreign investment, investment climate, economic reforms, investors, legal guarantees, investment attractiveness, mechanism, reform effectiveness.

Аннотация

В статье анализируются действующие механизмы привлечения иностранных инвестиций в экономику Узбекистана. В последние годы в стране реализован ряд реформ, направленных на создание благоприятных условий для иностранных инвесторов, совершенствование законодательства, упрощение налоговой системы и развитие свободных экономических зон. В ходе исследования выявлены положительные и отрицательные факторы, влияющие на инвестиционный климат, а также оценена эффективность существующих механизмов. Кроме того, рассмотрены вопросы входа иностранных инвесторов на рынок Узбекистана, предоставляемые им возможности, бюрократические барьеры и пути их устранения. В заключение разработаны предложения и рекомендации по совершенствованию инвестиционной политики.

Ключевые слова: иностранные инвестиции, инвестиционный климат, экономические реформы, инвесторы, правовые гарантии, инвестиционная привлекательность, механизм, эффективность реформ.

KIRISH

Hozirgi globallashuv davrida iqtisodiy o‘sishni ta’minlash va raqobatbardosh milliy iqtisodiyotni shakllantirishda xorijiy investitsiyalar muhim rol o‘ynaydi. Xorijiy sarmoya nafaqat moliyaviy resurslarning oqimini ta’minlaydi, balki zamonaviy texnologiyalar, ilg‘or boshqaruv tajribasi hamda xalqaro bozorga chiqish imkoniyatlarini ham olib kiradi. Shu bois, ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlar qatorida O‘zbekiston ham iqtisodiyotga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo‘yicha izchil siyosat yuritib kelmoqda.

O‘zbekiston hukumati tomonidan yaratilayotgan huquqiy va institutsional mexanizmlar xorijiy investorlar uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan. Jumladan, erkin iqtisodiy zonalar, soliq va bojxona imtiyozlari, davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalar hamda soddalashtirilgan ruxsat berish tartibotlari bunga misoldir. Ushbu ilmiy ishda xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo‘yicha amalda qo‘llanilayotgan asosiy mexanizmlar, ularning samaradorligi, mavjud muammolar va ularni hal etish yo‘llari chuqur tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro adabiyotda chet el korxonalarining xulq-atvorini tushuntirish uchun eng ko‘p ishlatiladigan nazariyalardan biri — Dunning tomonidan ilgari surilgan eklektik paradigma, ya’ni OLI (Ownership, Location, Internalization) ramkasidir. Unga ko‘ra, mamlakatning investitsiyalarni jalb qilish qobiliyati uch omilga bog‘liq: investorning o‘ziga xos ustunliklari, host-mamlakatning joylashuv afzalliklari va investitsiyaning ichki tashkil etilishi zarurligi. Ushbu yondashuv hukumatlarga bozor hajmi, infratuzilma va institutsional sifatni yaxshilash orqali joylashuv omillarini kuchaytirishni tavsiya etadi.

Empirik tadqiqotlar xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy o‘sishga ta’siri hamda texnologik spilloverlar masalasini chuqur o‘rganadi. Borensztein, De Gregorio va Lee tadqiqoti FDI ning texnologiya transferi orqali rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy o‘sishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini, biroq bu effekt faqatgina host-mamlakat ma’lum darajada inson kapitaliga ega bo‘lganda, ya’ni mehnatning malakasi yetarli bo‘lganda yuz berishini isbotlaydi. Shu sababli, sarmoya jalb qilish bilan birga inson resurslarini rivojlantirish siyosatlari ham muhim ekani ilmiy adabiyotlarda qayta-qayta ta’kidlanadi.

Xuddi shunday, Aitken va Harrisonning korxona darajasidagi tadqiqotlari mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun spilloverlar aralash natijalar berishini ko‘rsatadi: ba’zi holatlarda xorijiy ishtirokchilarning mavjudligi ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, biroq bu ta’sir kichik korxonalarda aniqroq seziladi. Umuman olganda, muomala darajasi, raqobat muhiti va texnologiya tarqalishi mexanizmlari muhim rol o‘ynaydi. Alfaro va hamkorlari esa FDI ning ijobiy ta’siri mahalliy moliyaviy bozorlarning rivojlanganlik darajasiga bog‘liq ekanini, ya’ni moliyaviy kanallar oraliq

rol o‘ynab, FDI orqali yuzaga keladigan backward ta’sirlarni kuchaytirishini aniqlaydi. Ushbu natijalar investitsiyalarni jalb qilish siyosati faqat soliq yoki subsidiya choralarigina emas, balki moliyaviy barqarorlikni ta’minlash, bank xizmatlariga kirish imkoniyatini kengaytirish va raqobatni rivojlantirishni ham o‘z ichiga olishi lozimligini anglatadi.

O‘zbekistonga oid siyosat va tavsiyalarni tahlil qiluvchi xalqaro tashkilotlar hisobotlari amaliy yo‘nalishni ochib beradi. *World Bank* tomonidan tayyorlangan O‘zbekiston bo‘yicha tahlillar mamlakat uchun FDI strategiyasini ishlab chiqishda sektoral ustuvorlikni belgilash, regulyator barqarorligini oshirish, investitsion xizmatlarni markazlashgan va shaffof shaklda yo‘lga qo‘yish, shuningdek infratuzilma loyihalarini xalqaro hamkorlik asosida moliyalashtirish zarurligini ta’kidlaydi. Ushbu tavsiyalar adabiyotlarda ilgari surilgan nazariy va empirik xulosalarni O‘zbekiston kontekstiga moslashtirishda amaliy yo‘riqnoma sifatida xizmat qiladi.

Adabiyotlarning umumiy xulosasi shuni ko‘rsatadiki, muvaffaqiyatli FDI jalb qilish mexanizmi bir necha qatlamdan iborat. Ular quyidagilardan tarkib topadi: birinchidan, nazariy jihatdan korporativ ustunliklar va joylashuv omillari (OLI); ikkinchidan, host-mamlakatning inson kapitali hamda moliyaviy bozorlar darajasi orqali amalga oshuvchi o‘sish kanallari; uchinchidan, amaliy regulyator va infratuzilma chora-tadbirlari. Shunday ekan, siyosatchilarga tavsiya: investitsiyalarni jalb qilish strategiyasini yagona “soliq imtiyozlari” paketidan kengroq qilib, ta’lim va malaka oshirishni rivojlantirish, moliyaviy xizmatlarga erkin kirishni ta’minlash, shaffof litsenziya tartiblarini joriy etish va sektorlar bo‘yicha aniq ustuvorliklarni belgilash orqali amalga oshirish lozim.

METODOLOGIYA

Tadqiqot metodologiyasi xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha mavjud mexanizmlarni aniqlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika agentligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda Jahon banki va UNCTAD hisobotlaridan olingan rasmiy ma’lumotlarga asoslandi. Olingan ma’lumotlar dinamik tahlil, solishtirma ko‘rsatkichlar va regressiya usullari yordamida tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi globallashuv va erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir davlatning iqtisodiy taraqqiyoti va raqobatbardoshligini ta’minlashda investitsiyalar, ayniqsa xorijiy investitsiyalar muhim strategik manba hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar faqat moliyaviy resurslarni emas, balki ilg‘or texnologiyalar, zamonaviy boshqaruv tajribasi va xalqaro standartlarni ham o‘zida mujassam etgani sababli, ularning iqtisodiyotga jalb qilinishi mamlakatlar rivoji uchun katta ahamiyatga ega.

Xususan, rivojlanayotgan davlatlar uchun xorijiy investitsiyalar — infratuzilmalarni modernizatsiya qilish, sanoat tarmoqlarini texnik va texnologik yangilash, yangi ish o‘rinlarini yaratish, eksport salohiyatini oshirish hamda xalqaro bozor bilan integratsiyani kuchaytirishning muhim omilidir. Shu nuqtai nazardan, investitsion muhitni yaxshilash, sarmoyadorlar uchun qulay sharoitlar yaratish va

samarali mexanizmlarni joriy qilish har qanday hukumatning ustuvor vazifasiga aylanadi.

O‘zbekistonda ham keyingi yillarda investitsion siyosat tubdan qayta ko‘rib chiqilmoqda. Davlat tomonidan xorijiy investorlar uchun soliq va bojxona imtiyozlari, huquqiy kafolatlar, erkin iqtisodiy zonalar, davlat-xususiy sheriklik (DXSh) hamda “yagona darcha” tamoyillari kabi bir qator mexanizmlar joriy etildi. Shu bilan birga, investitsiyalarni jalb etish tizimining samaradorligini oshirish maqsadida institutlar isloh qilinmoqda, qabul qilingan huquqiy me’yorlar xalqaro standartlarga moslashtirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida 2020–2024-yillar davomida asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi sezilarli darajada oshdi. Ushbu jadvalda investitsiyalarning yillik hajmi va ularning o‘sish sur’atlari ko‘rsatkichlari orqali investitsion faoliyatning dinamikasi tahlil qilinadi.

2020-yilda investitsiyalar o‘sish sur’ati 95,6 foiz bo‘lib, salbiy holatni aks ettiradi (o‘sish emas, qisqarish kuzatilgan). 2021–2022-yillarda o‘sish tiklangan, lekin nisbatan past sur’atda bo‘lgan (100–103 foiz atrofida). 2023-yildan boshlab sezilarli sakrash kuzatilgan — 123,4 foiz va 127,6 foiz, bu esa investitsiyaviy faollikning jadal o‘sishini ko‘rsatadi. Hajm jihatidan investitsiyalar 2020-yildagi 210,2 trln so‘mdan 2024-yilda 493,7 trln so‘mga yetgan — ya’ni 2,35 baravar oshgan. Bu ko‘rsatkichlar O‘zbekistonda olib borilayotgan investitsion siyosat va islohotlarning amaliy natijalar berayotganidan dalolat beradi (1-rasm).



1-rasm. Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning hajmi dinamikasi, trln so‘m va foizda[1]

[1] Muallif ishlanmasi

2020–2024-yillar davomida O‘zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi barqaror va tez o‘sish sur’atini namoyon etdi. Investitsiya o‘sish sur’atlari 2023–2024-yillarda ayniqsa yuqori bo‘lgan, bu esa iqtisodiy islohotlarning samaradorligini ko‘rsatadi. Davlat tomonidan olib borilayotgan infratuzilmaviy loyihalar, sarmoyadorlar uchun yaratilgan imtiyozlar va qulay muhit ushbu ijobiy dinamikani ta’minlagan muhim omillardir.

Kelgusida bu trendni saqlab qolish uchun investorlar uchun barqaror siyosiy va huquqiy muhitni mustahkamlash, investitsiya tizimini raqamlashtirish hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilarni xorijiy sarmoya bilan bog‘laydigan mexanizmlarni kuchaytirish lozim.

Xorijiy investitsiyalar har qanday mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Ular nafaqat moliyaviy resurslarni, balki ilg‘or texnologiyalar, boshqaruv tajribasi va xalqaro hamkorlik imkoniyatlarini olib kiradi. Ayniqsa, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda eksport salohiyatini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi so‘nggi yillarda investitsion muhitni yaxshilashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirmoqda. Bu esa xorijiy investorlarni jalb qilishda sezilarli natijalar berayotgani o‘zining ijobiy aksini to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi va ulushining o‘sishida ko‘rsatmoqda. Shu munosabat bilan mazkur tahlilda so‘nggi besh yil ichida O‘zbekistonga kirib kelgan investitsiyalar hajmi va uning yalpi ichki mahsulotga nisbatan ulushi ko‘rib chiqiladi (2-rasm).



2-rasm. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, mlrd.AQSH dollari, foizda[1]

[1] Muallif ishlanmasi

2020–2024-yillar davomida O‘zbekiston Respublikasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi umumiy oshish tendensiyasini ko‘rsatmoqda. 2020-yilda 1,7 mlrd. AQSH dollari bo‘lgan TTXI 2024-yilda 3,1 mlrd. dollarga yetib, qariyb ikki baravarga oshgan. YaIMga nisbatan ulushi 2020-yildagi 2,9 foizdan 2024-yilda 4,1 foizgacha o‘sdi, bu esa iqtisodiyotda xorijiy sarmoyaning ortib borayotgan ahamiyatini bildiradi. 2023-yilda TTXI hajmi biroz pasaygan bo‘lsa-da, keyingi yilda sezilarli darajada tiklandi. Ushbu o‘zgarishlar global va mahalliy sharoitlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi va ularning yalpi ichki mahsulotga nisbatan ulushi so‘nggi yillarda ijobiy o‘sish sur’atlarini namoyon etmoqda. Bu o‘zgarishlar mamlakatdagi investitsion muhitning yaxshilanganini, sarmoyadorlar uchun yaratilgan qulayliklarni va amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning samaradorligini tasdiqlaydi.

Kelajakda ushbu tendensiyani davom ettirish uchun investitsion siyosatni barqaror saqlash, huquqiy kafolatlarni kuchaytirish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish hamda mahalliy biznesni qo‘llab-quvvatlash choralari muhimdir. Shu yo‘nalishlarda olib borilayotgan ishlar xorijiy investorlarning ishonchini mustahkamlab, iqtisodiyotga yangi sarmoya oqimini ta’minlashga yordam beradi.

Xorijiy investitsiyalar va kreditlar mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim tashqi moliyaviy manba hisoblanadi. Ular iqtisodiyotning turli tarmoqlarida infratuzilmalarni rivojlantirish, yangi texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarishni kengaytirish va eksport hajmini oshirish imkonini beradi. O‘zbekiston so‘nggi yillarda sarmoyadorlarni jalb etishni kuchaytirish maqsadida bir qator islohotlarni amalga oshirib, xorijiy kapital oqimini oshirishga erishmoqda.

Ushbu tahlilda 2022–2024-yillar davomida mamlakatimizga davlatlar kesimida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar miqdori o‘rganiladi. Ma’lumotlar orqali sarmoya kiritishda qaysi davlatlarning yetakchi ekani, investitsiyalar hajmining yillik o‘zgarishi va ularning iqtisodiyotga ko‘rsatgan ta’siri tahlil qilinadi.

Xitoy va Rossiya mamlakatimizga eng katta miqdorda xorijiy investitsiya hamda kreditlarni yo‘naltirayotgan davlatlar hisoblanadi. Xitoydan kelgan mablag‘ 2024-yilda 10,4 mlrd. dollarni tashkil etib, jami 16,8 mlrd. dollarlik investitsiyalar ichida yetakchilikni mustahkamlaydi. Turkiya, Saudiya Arabistoni va Birlashgan Arab Amirliklari kabi davlatlardan kelayotgan investitsiyalar ham sezilarli o‘sishni ko‘rsatmoqda, bu esa ushbu mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalarning kengayib borayotganini anglatadi. Yevropa davlatlari, xususan Germaniya, Shveysariya, Niderlandiya va Buyuk Britaniya ham O‘zbekistonga sezilarli darajada sarmoya kiritmoqda. Mintaqaviy davlatlar — Qozog‘iston, Tojikiston, Qirg‘iziston va Afg‘onistonning ham investitsiyalar hajmi o‘smoqda, biroq ularning ulushi boshqa davlatlarga nisbatan kamroqdir. 2023-yilda ayrim davlatlarda investitsiyalar hajmi biroz pasayish yoki sekinlashish kuzatilgan bo‘lsa-da, 2024-yilda qayta o‘sish qayd etilgan. Bu holat investitsion muhitning yaxshilanganidan dalolat beradi (1-jadval).

1-jadval

2022-2024-yillarda mamlakatimizga davlatlar kesimida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlarni o‘zlashtirilishi mln.AQSh dollari [1]

	Davlatlar nomi	2022-2024	2022	2023	2024
1	**Xitoy**	16804,6	2051,3	4339,2	10414,1
2	**Rossiya**	11240,1	2362,2	2957,9	5920,0
3	**Shveysariya**	819,3	206,5	390,3	222,5
4	**Turkiya**	4439,9	1139,7	1091,1	2209,1
5	**Saudiya Arabiston**	3208,6	686,5	1157,0	1365,0
6	**BAA**	2616,9	160,1	1135,4	1321,3
7	**AQSh**	2012,2	487,7	914,9	612,6
8	**Germaniya**	3804,3	865,7	936,2	2002,4
9	**Singapur**	869,6	164,4	401,1	304,1
10	**Niderlandiya**	2035,6	142,7	248,8	1644,1
11	**Buyuk Britaniya**	1369,1	73,3	246,1	1049,7
12	**Qozog‘iston**	906,8	106,6	281,3	518,9
13	**Afg‘oniston**	265,1	60,2	87,3	117,5
14	**Qirg‘iziston**	133,9	11,4	53,8	68,6
15	**Tojikiston**	215,4	21,4	48,8	145,3

2022–2024-yillar davomida O‘zbekistonga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi sezilarli darajada oshdi. Xitoy va Rossiya yetakchi investorlardir, biroq Yevropa, Arab mamlakatlari hamda boshqa davlatlarning roli ham ortib bormoqda. Bu ko‘rsatkichlar mamlakatimizning global investitsion maydondagi o‘z o‘rnini mustahkamlashini, shuningdek, turli mamlakatlar bilan iqtisodiy hamkorlikni kengaytirayotganini bildiradi. Kelgusida sarmoyadorlar uchun qulayliklarni oshirish, investitsion shaffoflikni ta’minlash hamda yangi sohalarga sarmoya jalb qilish O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror o‘sishini ta’minlashda muhim omil bo‘ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xorijiy investitsiyalarni jalb etish O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi va modernizatsiyasi uchun muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, mamlakatda xorijiy sarmoyadorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida amalga oshirilgan huquqiy va institutsional islohotlar samarali natijalar bermoqda. Erkin iqtisodiy zonalar tashkil etilishi, soliq va bojxona imtiyozlarining berilishi, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish kabi mexanizmlar investitsiya muhitini yaxshilashga yordam bermoqda.

Investitsiyalarni jalb etish mexanizmini yanada samarali qilish uchun davlat organlari va biznes muassasalari o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish hamda tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish muhim hisoblanadi. Xalqaro tajribani inobatga olgan holda, O‘zbekiston investitsion muhitni yanada jozibador qilishi mumkin. Natijada, xorijiy investitsiyalarni jalb etish mexanizmini takomillashtirish mamlakat

[1] Muallif ishlanmasi

iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishga, yangi texnologiyalarni joriy etishga va iqtisodiy barqarorlikka erishishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Мурашко Н.Н. “Оценки инвестиционной привлекательности регионов Республики Беларус и возможности ее прогнозирования”. МИДО БНТУ 2016. Стр.116.

2. S-itlana Gutkevych. Investment Attractiveness of Industries: Features and Trends.// Baltic Journal of Economic Studies, vol. 5, № 3, 2019. P. 9.

3. Takhumova Oksana V., Kasatkina Elena V., Maslihova Elena A, Alexey V.Yumashev, Maria V.Yumasheva. The main directions of increasing the investment attractiveness of the Russian regions in the conditions of institutional transformations.// Revista ESPACIOS, Vol. 39 (Number 37) 2018. – P.12.

4. Dovhan Y. Assessment of the Investment Attractiveness (Survey of Ukraine, Vinnytsia

TASHABBUSLI BYUDJETLASHTIRISHNI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMLARIGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR HAMDA ERISHILGAN NATIJALAR TAHLILI

Xamidov Xabibullo Xikmatulla o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Mustaqil izlanuvchisi (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada tadqiqotimiz davomida o‘rganilgan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tashkil etilgan “Ochiq byudjet” axborot portali orqali joriy yilda o‘tkazilayotgan “Tashabbusli byudjet” jarayonlari doirasida amalga oshirilayotgan ishlar, fuqarolar tomonidan bildirilgan takliflar, ovoz berish jarayonlari va g‘olib deb topilgan takliflarni moliyalashtirish holatlari yuzasidan huquqiy hamda tahliliy ma’lumotlar, shuningdek, tashabbusli byudjetlashtirish tizimida galdagi yangi amalga oshirilishi kutilayotgan ishlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: tashabbusli byudjet, Ochiq byudjet, axborot portali, davlat byudjeti, jamoatchilik fikri.

Аннотация

В данной статье представлена правовая и аналитическая информация о работе, проведенной в рамках процессов «Инициативный бюджет», проведенных в текущем году через информационный портал «Открытый бюджет», организованный Министерством финансов Республики Узбекистан, предложениях, внесенных гражданами, процессах голосования и случаях финансирования предложений, признанных победителями, а также о работе, проделанной в рамках проекта «Открытый бюджет»

Ключевые слова: инициативный бюджет, Открытый бюджет, информационный портал, государственный бюджет, общественный мнения.

Abstract

This article presents legal and analytical information on the work carried out within the framework of the «Initiative Budget» process conducted this year through the «Open Budget» information portal organized by the Ministry of Finance of the Republic of Uzbekistan, proposals submitted by citizens, voting processes and cases of financing proposals recognized as winners, as well as on the work done within the framework of the «Open Budget» project.

Keywords: initiative budget, Open budget, Citizens’ budget, information portal, state budget, Citizens’ opinion

KIRISH

Xalq bilan muloqot o‘rnatish jarayonida o‘z yechimini kutayotgan muammolar qatorida byudjet shaffofligini ta’minlash masalasi ham mavjud edi. Chunki soliq to‘lovchilar o‘zlari to‘layotgan soliqlar qayerga va qancha miqdorda sarflanishi to‘g‘risida ma’lumot ololmasdilar. Bu boradagi xalqaro indekslarda ham mamlakat qoniqarsiz o‘rinlarni egallab kelardi.

Byudjet ma’lumotlarining ochiqligi va sifati, ularni xorijiy investorlarga va boshqa manfaatdor subyektlarga yetkazish, shuningdek, parlament vakillari hamda fuqarolik jamiyatining davlat byudjetini shakllantirish va ijro etish jarayonidagi ishtiroki yetarli darajada emasdi.

Davlat maqsadli jamg‘armalari va chetdan jalb qilingan tashqi qarz mablag‘lari hisobidan amalga oshirilayotgan davlat xarajatlarining konsolidatsiyalashgan davlat byudjetida aks ettirilmasligi byudjet qamrovi va ochiqligi darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatardi.

Hududlarda to‘planib qolgan, yechimi mablag‘ bilan bog‘liq turli muammolarni hal etish imkoniyati chegaralangan edi. Resurslar cheklangani sababli an’anaviy byudjet orqali bu kabi muammolarni bartaraf etishning imkoni bo‘lmagan. Fuqarolar mahalliy byudjet mablag‘larini tasarruf etishda o‘z taklif va tashabbuslarini ilgari surish huquqidan mahrum edilar.

Byudjet mablag‘larini taqsimlashda mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalarining kamida 10 foizini jamoatchilik taklifi asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirishni nazarda tutgan holda fuqarolar ishtirokini ta’minlovchi mexanizm joriy qilindi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Tashabbusli byudjetlashtirishni amalga oshirish mexanizmlari bo‘yicha ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu jarayon demokratik boshqaruvni kuchaytirish, fuqarolarning qaror qabul qilishdagi ishtirokini kengaytirish hamda moliyaviy resurslardan samarali foydalanishni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Sherry Arnstein o‘zining “A Ladder of Citizen Participation” asarida fuqarolarning qaror qabul qilishdagi ishtiroki darajalarini tahlil qilib, ishtirokchilik jarayonining samaradorligi bevosita hokimiyat organlari tomonidan fuqarolarga berilayotgan real vakolat darajasiga bog‘liq ekanini ta’kidlaydi. Arnstein nazariyasiga ko‘ra, tashabbusli byudjetlashtirish jarayonlarida fuqarolarning ovozi faqat maslahat darajasida emas, balki haqiqiy qarorlar qabul qilish bosqichiga chiqishi kerak.

Archon Fung o‘z tadqiqotlarida ishtirokchilik boshqaruvining turli shakllarini o‘rganib, tashabbusli byudjetlashtirish mexanizmlarida “fuqarolik imkoniyatlari va hisobdorlikning uyg‘unlashuvi” demokratik institutlar barqarorligini mustahkamlashini ko‘rsatadi. Fungning fikricha, ishtirokchilik samarali bo‘lishi uchun u faqat shaklan emas, balki mazmunan ham qarorlar sifatiga ta’sir qiluvchi mexanizmga aylanishi zarur.

Gianpaolo Baiocchi Braziliyaning Porto Alegre shahridagi tajribani o‘rganib, tashabbusli byudjetlashuv nafaqat resurslarni adolatli taqsimlash, balki fuqarolik faolligini oshirish va ijtimoiy tenglikni mustahkamlash vositasi ekanini ilmiy asoslab berdi. Uning fikricha, Porto Alegre modeli ishtirokchilik demokratiyasining real shakllanishi va ijtimoiy nazorat tizimining samarali ishlashini ta’minlagan.

Brian Wampler esa Braziliyaning boshqa hududlarida olib borgan tadqiqotlarida tashabbusli byudjet mexanizmlarining muvaffaqiyati siyosiy iroda, davlat idoralarining ochiqligi hamda jamoatchilikning uzluksiz ishtirokiga bevosita

bog‘liqligini aniqlagan. Wampler shuningdek, bu jarayon fuqarolar orasida “hisobdorlik madaniyati”ni shakllantirishga xizmat qilishini qayd etadi.

Yves Cabannes o‘z ishlarida tashabbusli byudjetlashtirishni amaliy jihatdan joriy etishda shaffoflik, inklyuzivlik, ijtimoiy adolat va monitoring tizimlarining uzviyligini muhim shart sifatida belgilaydi. U bu jarayonni “demokratiyaning amaliy laboratoriyasi” deb ataydi va u orqali fuqarolar moliyaviy qarorlar qabul qilishda bevosita ishtirok etish imkoniga ega bo‘lishini ta’kidlaydi.

Ruth Abers esa Braziliya misolida fuqarolarning mahalliy boshqaruvdagi roli qanday shakllanishini o‘rganib, tashabbusli byudjet mexanizmlarining muvaffaqiyatida “institutsional xotira” va “jamoaviy o‘rganish” jarayonlarining ahamiyatini ajratib ko‘rsatgan. Abersga ko‘ra, fuqarolarning ishtirok etishi ularni faqat siyosiy emas, balki ijtimoiy jihatdan ham faol subyektlarga aylantiradi.

Ushbu olimlar tadqiqotlari birgalikda shuni ko‘rsatadiki, tashabbusli byudjetlashtirishning samarali ishlashi uchun qat’iy huquqiy asos, shaffoflikni ta’minlovchi mexanizmlar, fuqarolarning malakasini oshirish dasturlari va mustahkam siyosiy iroda zarurdir. Bunday yondashuv demokratik boshqaruvni chuqurlashtiradi, mahalliy darajada mas’uliyatni oshiradi va jamoatchilik ishonchini mustahkamlaydi.

METODOLOGIYA

Tadqiqot uchun ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, “Ochiq byudjet” portali hamda mahalliy hokimliklarning hisobotlaridan olindi. Tahlil jarayonida statistik ma’lumotlarni solishtirma va dinamik tahlil usullari yordamida qayta ishlash, shuningdek, tashabbusli byudjetlashtirish mexanizmlarining samaradorligini aniqlash uchun empirik va kontent-tahlil yondashuvlari qo‘llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

“Ochiq byudjet” axborot portali ishga tushirilib, yangi ko‘rinishda keng jamoatchilikka taqdim etildi. Bunda nafaqat davlat byudjeti ijrosi, balki mahalliy byudjetlar ijrosi ham ochiqlana boshlandi.

Byudjet xarajatlarining manzilliligi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish maqsadida Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlari, soliq hamda byudjet siyosatining asosiy yo‘nalishlari loyihalari, Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlari ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlar, shuningdek, Hisob palatasining xulosalari, mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan moliyalashtirilishi taklif etilayotgan tadbirlar to‘g‘risidagi axborotni mazkur portalga joylashtirish tartiblari belgilandi.

Byudjet qonunchiligini buzish holatlari to‘g‘risida xabardor qilish va byudjet jarayonini takomillashtirish bo‘yicha takliflar kiritish imkoniyatini o‘z ichiga olgan fuqarolar bilan qayta aloqa o‘rnatish tizimi yaratildi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng moliya, bank va soliq tizimidagi islohotlar jadal sur’atlarda olib borilmoqda. Bugungi kunda byudjet-soliq siyosati borasida izchillik bilan amalga oshirilayotgan islohotlar markazida byudjet daromadlari va xarajatlarining samaradorligini oshirish muhim vazifa hisoblanadi. Buning asosiy sababi shundaki, iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni

chuqurlashtirish sharoitida byudjet-soliq tizimini ham takomillashtirish doimiy zaruratga aylanmoqda.

Yurtimizda so‘nggi yillarda aholi turmush darajasini yaxshilash hamda fuqarolarni qiynab kelayotgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etish bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Joylarda infratuzilmani yaxshilash, tizimli muammoga aylanib ulgurgan yo‘l ta’mirlash, ichimlik suvi ta’minoti, tabiiy gaz hamda ta’lim muassasalari binolarini ta’mirlash singari masalalarni hal etish pirovard maqsadlardan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda 2019-yildan buyon o‘tkazilib kelinayotgan tashabbusli byudjet jarayonlari mazkur sohaning insonlar hayotidagi o‘rni qanchalik dolzarbligini va ushbu jarayon jamiyatimizdagi mavjud ijtimoiy muammolarni hal etishda muhim “dastak” sifatida xizmat qilishini yana bir bor isbotladi.

2024-yilda an’anaga muvofiq tarzda tashabbusli byudjet jarayonlari ikki mavsum doirasida — yanvar-fevral hamda iyul-avgust oylarida o‘tkazildi. Tashabbusli byudjet jarayonini yanada takomillashtirish hamda ovoz berish bosqichini optimallashtirish, shuningdek majburiy ovoz berish holatlarini kamaytirish maqsadida bir qator yangiliklar va qo‘shimcha imkoniyatlar yaratildi.

Jumladan, birinchi mavsumdan boshlab “Bir fuqaro – bir ovoz” tamoyili joriy etildi. “Mening yo‘lim” loyihasi tashabbusli byudjet jarayoni birinchi mavsumi bilan qo‘shib o‘tkazilishi belgilandi.

Ikkinchi mavsumdan boshlab esa majburiy ovoz berishga jalb etish hamda ovozlarni “sotib olish” holatlarini kamaytirish maqsadida ovoz berish bosqichi 10 kunga qisqartirildi. Xalq deputatlari tuman (shahar) kengashlari vakolatini kengaytirish maqsadida ularga tuman (shahar) byudjeti qo‘shimcha mablag‘lari hisobidan qo‘shimcha g‘oliblarni e’lon qilish hamda majburiy ovoz to‘plangan loyihalarni bekor qilish vakolati berildi.

Shu bilan birga, tashabbusli byudjet jarayonlari uchun ajratilgan mablag‘lar hajmi 2023-yilga nisbatan 1,2 trln so‘mga yoki 26 foizga oshib, umumiy ajratilgan mablag‘lar miqdori 5,7 trln so‘mni tashkil etdi.

Ikki mavsum davomida “Ochiq byudjet” portaliga fuqarolar tomonidan jami 63 mingdan ortiq loyiha kelib tushdi. Shundan, hududiy ishchi komissiyalar tomonidan mazkur loyihalarning 52 mingdan ortig‘i yoki 83 foizi ovoz berish bosqichiga o‘tkazildi. Rad etilgan loyihalarning aksariyati amalga oshirishning texnik imkoni mavjud bo‘lmagan hamda qiymati 1,3 mlrd so‘mdan oshiq loyihalarni tashkil etdi.

Ovozga qo‘yilgan loyihalarning 20 mingtasi (39 foiz) ichki yo‘llarni ta’mirlash, 7,3 mingtasi (14 foiz) ko‘cha chiroqlarini o‘rnatish va 6,8 mingtasi (13 foiz) maktablarni ta’mirlash hamda jihozlash loyihalarini tashkil etdi.

Shuningdek, 2024-yildan boshlab tashabbusli byudjet jarayonlarining birinchi mavsumidan e’tiboran “Bir fuqaro – bir ovoz” tamoyili to‘liq ishga tushirildi. Barcha mahallalar uchun g‘olib bo‘lish imkoniyatini yaratish maqsadida, so‘nggi mavsumlarda ketma-ket ikki marotaba g‘olib deb topilgan mahallalar (tashkilotlar) uchun navbatdagi ikkita mavsum doirasida loyiha kiritish imkoniyati cheklab qo‘yildi.

Mablag‘lardan samarali foydalanish hamda ijtimoiy muammolarga ko‘proq e’tibor qaratish maqsadida tashabbusli byudjet jarayoni doirasida tashkilotlar tomonidan barcha turdagi avtomobillar, jamoat xavfsizligini ta’minlashga oid jihozlar (radar, jamoat joylaridagi kuzatuv kameralari, svetofor), rahbar xodimlar uchun mebel jihozlarini xarid qilish taqiqlanadi.

Joriy yilning birinchi mavsumidan boshlab moliyaviy mustaqil bo‘lgan oliy o‘quv muassasalarining “Tashabbusli byudjet” jarayonlarida ishtirok etishiga cheklov o‘rnatildi (1-jadval).

1-jadval.

Tashabbusli byudjet doirasida 2024-yilda ovoz berish bosqichiga o‘tkazilgan loyihalar yuzasidan sohalar kesimida ma’lumot[1]

T/r	Hudud nomi	Jami loyihalar	shundan						
			Ichki yo‘llar	Umumta’lim maktabi	Ko‘cha chiroq-lari	Maktab-gacha ta’lim	Tibbiyot tashkiloti	Ichimlik suvi va oqava tizimi	Boshqalar
Jami		**52 255**	**20 396**	**6 823**	**7 311**	**2 351**	**1 780**	**2 057**	**11 537**
foizda		100%	39%	13%	14%	4%	3%	4%	22%
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	3 004	975	496	329	112	113	76	903
2	Andijon viloyati	3 610	1 762	495	527	74	151	132	469
3	Buxoro viloyati	3 642	1 507	449	476	130	135	45	900
4	Jizzax viloyati	2 510	913	458	245	90	50	67	687
5	Qashqadaryo viloyati	3 870	2 098	321	555	25	79	172	620
6	Navoiy viloyati	3 352	850	468	491	211	142	92	1 098
7	Namangan viloyati	4 089	2 015	393	618	95	119	172	677
8	Samarqand viloyati	3 878	1 663	626	394	180	176	154	685
9	Surxondaryo viloyati	4 567	1 733	732	771	195	176	311	649
10	Sirdaryo viloyati	2 285	717	295	335	120	64	86	668
11	Toshkent viloyati	3 409	1 634	470	438	120	46	108	593
12	Farg‘ona viloyati	5 156	1 716	689	842	487	211	322	889
13	Xorazm viloyati	4 388	2 229	411	958	125	81	131	453
14	Toshkent shahri	4 495	584	520	332	387	237	189	2 246

Ovoz berish bosqichida fuqarolar tomonidan 20 milliondan ortiq ovozlar qayd etildi. Jumladan, birinchi mavsumda 11 million hamda ikkinchi mavsumda 9 million

[1] O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi “Ochiq byudjet” axborot portali (https://openbudget.uz/)

fuqaro ovoz berishda ishtirok etib, yillik o‘rtacha hisobda aholining 28 foizi ushbu jarayonlarda faollik ko‘rsatdi.

Ovoz berish bosqichi yakunlariga ko‘ra, umumiy qiymati 5,6 trln so‘mni tashkil etgan 4 768 ta loyiha g‘olib deb topildi. Ushbu loyihalar uchun fuqarolar tomonidan 16 milliondan ortiq ovozlar berildi.

Bunda, 2024-yilda ajratilgan mablag‘lar hajmining oshishi hisobiga bir tuman yoki shaharda g‘olib loyihalar soni 2023-yilga nisbatan o‘rtacha 6–8 tadan 13–15 tagacha oshgani qayd etildi.

Shuni ham alohida ta’kidlash joizki, amaldagi tartibga kiritilgan o‘zgartirishlarga muvofiq xalq deputatlari tuman (shahar) kengashlari tomonidan o‘zlariga berilgan vakolatdan foydalangan holda tuman (shahar) byudjetlarining qo‘shimcha mablag‘lari hisobidan 56 ta loyiha uchun qo‘shimcha ravishda mablag‘ ajratilib, g‘olib sifatida e’lon qilindi.

G‘olib bo‘lgan loyihalarning 1 686 tasi (35 foiz) ichki yo‘llarni ta’mirlash va 1 446 tasi (30 foiz) maktablarni ta’mirlash hamda jihozlash loyihalari hissasiga to‘g‘ri keladi (1-rasm).



1-rasm. 2024-yilda g‘olib deb topilgan loyihalar sohalar kesimida[1]

Ushbu loyihalar doirasida 3 044 ta yoki mavjud mahallalarning 32 foizida ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalar amalga oshirilishiga erishildi.

Ochiqlik va shaffoflik. “Tashabbusli byudjet” byudjetlashtirishning muhim jihatlaridan biri jarayonning shaffof tashkil etilishi va keng jamoatchilikka ochiq bo‘lishidir. “Mening maktabim” loyihasi doirasida ham “Ochiq byudjet” axborot portali orqali jarayon shaffof yuritiladi. Taklif etilayotgan loyihalar, ovoz berish natijalari va moliyalashtiriladigan tashabbuslar ochiq e’lon qilib boriladi.

[1] Muallif ishlanmasi

Jamoaviy tashabbuslarni rag‘batlantirish. “Tashabbusli byudjet” byudjetlashtirish jamoaviy fikrlashni rivojlantirish va tashabbuslarni amalga oshirishga qaratilgan bo‘lsa, “Mening maktabim” loyihasi ham o‘quvchilarga jamoaviy harakat qilish, fikr almashish va jamoa manfaatlarini hisobga olib qaror qabul qilish imkoniyatini taqdim etadi.

Ta’lim jarayonlaridagi ahamiyati. Jahondagi partisipator byudjetlashtirish tajribalari shuni ko‘rsatadiki, mazkur jarayon orqali aholining moliyaviy savodxonligi va jamoat ishlaridagi faolligi oshib boradi. “Mening maktabim” loyihasi ham o‘quvchilarning moliyaviy bilimlarini oshirish, byudjet jarayonlarini tushunish va jamoat manfaatlarini inobatga olgan holda fikr yuritish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-noyabr PF–199-son “Respublikada yashillik darajasini yanada oshirish, “Yashil makon” umummilliy loyihasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqarorlikni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni [1]imzolandi.

Unga asosan “Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirishda Davlat byudjetidan har yili ajratiladigan mablag‘larning kamida 50 foizi “yashil bog‘lar” va “yashil jamoat parklari”ni tashkil etish uchun “Ochiq byudjet” axborot portali orqali jamoatchilik fikri asosida shakllangan “Mening bog‘im” loyihalarini moliyalashtirishga yo‘naltiriladi.

Bunda aholi tashabbusi bilan “yashil bog‘lar” va “yashil jamoat parklari”ni tashkil etish bo‘yicha maydon manzili va rasmlari ko‘rsatilgan holda qiymati 250 mln so‘mdan oshmagan tashabbus bildiriladi. “Mening bog‘im” loyihalarini shakllantirish va ularga ovoz berish jarayoni 2024-yildan boshlab har yili yanvar-fevral oylarida o‘tkazilishi belgilandi.

“Mening bog‘im” loyihasi doirasida 2024-yil 23-iyundan 7-iyulgacha davom etgan jarayonda mamlakatimiz bo‘ylab “Ochiq byudjet” portali orqali 53 mingtadan ortiq ovoz berildi. Ovoz berish jarayoni yakunlariga ko‘ra, 215 ta loyiha g‘olib deb topildi. G‘olib bo‘lgan loyihalarni moliyalashtirish uchun respublika bo‘yicha 48,6 mlrd so‘m mablag‘ yo‘naltirildi.

2025-yil 22-apreldan 30-aprelgacha davom etgan jarayonda mamlakatimiz bo‘ylab “Ochiq byudjet” portali orqali 59,4 mingtadan ortiq ovoz berildi. Ovoz berish jarayoni yakunlariga ko‘ra, 174 ta loyiha g‘olib deb topildi. G‘olib bo‘lgan loyihalarni moliyalashtirish uchun respublika bo‘yicha 43,5 mlrd so‘m mablag‘ yo‘naltirildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu mavzu doirasida amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari va olib borilgan ilmiy-nazariy izlanishlarda byudjet mablag‘larini fuqarolar ishtirokida sarflash mexanizmini takomillashtirish masalalari kompleks hamda tizimli tarzda o‘rganilgan. Mazkur holat monografiya ishida tadqiq etilgan ilmiy-amaliy muammolar va ularni

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-noyabr PF–199-son “Respublikada yashillik darajasini yanada oshirish, ‘Yashil makon’ umummilliy loyihasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqarorlikni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni https://lex.uz/uz/docs/-6673808

bartaraf etish yuzasidan ishlab chiqilgan taklif hamda tavsiyalarning dolzarblik darajasini belgilab beradi.

O‘zbekiston Respublikasida davlat moliyasini boshqarish tizimini isloh qilish davom etmoqda. Uning muhim yo‘nalishlaridan biri byudjet jarayonini takomillashtirish va yanada rivojlantirishdir. Shu jumladan, partisipator byudjetlashtirish amaliyotini joriy etish orqali byudjet masalalarini hal etishga fuqarolarni keng jalb etish bugungi kunning dolzarb vazifasiga aylanmoqda.

Xalqaro tashkilotlar partisipator byudjetlashtirish vositalarini tanlashda ko‘pincha fuqarolar ishtirokini hokimiyatni nomarkazlashtirish va vakolatlarni hukumatning quyi darajalariga o‘tkazish shakli sifatida baholaydilar. Ochiqlik va oshkoralik bilan bir qatorda, fuqarolar ishtirokida byudjetlashtirish hisobdorlikni rivojlantirish vositalaridan biri sifatida qaraladi. Davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish vositalari qatoriga partisipator byudjetlashtirishning kiritilishi esa zamonaviy boshqaruvdagi muhim tendensiyaga aylanib bormoqda.

FOYDALNILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси иқтисодиёт ва молия вазирлиги “Очиқ бюджет” ахборот портали (https://openbudget.uz/)

2. Халқаро Молиявий институт “Жаҳон банки”нинг расмий веб сайти маълумотлари.

3. Молия вазирлиги расмий веб-сайти маълумотлари

4. “Очиқ бюджет” ахборот порталининг маълумотлар базаси

5. Иқтисодиёт ва молия вазирлиги Ўқув маркази Молиячи маълумотномаси блютени Д.Пулатов ва Х.Хамидов мақоласи (Т.:-2022, №3, Б.2-5.)

6. Иқтисодиёт ва молия вазирлиги Ўқув маркази Молиячи маълумотномаси блютени А.Хасанов мақоласи (Т.:-2022, №4, Б.2-7.)

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-noyabr PF–199-son “Respublikada yashillik darajasini yanada oshirish, “Yashil makon” umummilliy loyihasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqarorlikni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni https://lex.uz/uz/docs/-6673808

ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN DIGITAL MARKETING OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN UZBEKISTAN

Sadikov Shokhrukh Shukhratovich
Tashkent International University
E-mail: woxruxsa@mail.ru

Abstract

This article examines the current state and prospects of applying artificial intelligence (AI) technologies in digital marketing processes of higher education institutions in Uzbekistan. In October 2024, Uzbekistan approved the Strategy for the Development of AI Technologies until 2030, and announced a project to train 5 million AI leaders by 2030. The number of internet users in the country has reached 29.5 million, and higher education coverage has increased to 43%. The study analyzes the opportunities and challenges of implementing AI technologies in Uzbekistan's higher education institutions and develops practical recommendations.

Keywords: artificial intelligence, digital marketing, higher education, Uzbekistan, digital transformation, chatbot, CRM, marketing automation.

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida raqamli marketing jarayonlariga sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarini qo‘llashning joriy holati va istiqbollari o‘rganilgan. 2024-yil oktabr oyida O‘zbekistonda 2030-yilgacha sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish strategiyasi tasdiqlandi va 2030-yilgacha 5 million nafar SI yetakchisini tayyorlash loyihasi e’lon qilindi. Mamlakatda internet foydalanuvchilari soni 29,5 millionga yetdi, oliy ta’lim qamrovi esa 43 foizga oshdi. Tadqiqotda O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida SI texnologiyalarini joriy etish imkoniyatlari va muammolari tahlil qilinib, amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, raqamli marketing, oliy ta’lim, O‘zbekiston, raqamli transformatsiya, chatbot, CRM, marketing avtomatizatsiyasi.

Аннотация

В статье исследуется состояние и перспективы применения технологий искусственного интеллекта (ИИ) в процессах цифрового маркетинга высших учебных заведений Узбекистана. В октябре 2024 года в Узбекистане была утверждена Стратегия развития технологий ИИ до 2030 года, объявлен проект подготовки 5 миллионов лидеров в области ИИ к 2030 году. Число интернет-пользователей в стране достигло 29,5 миллиона, охват высшего образования вырос до 43%. В исследовании проанализированы возможности и проблемы внедрения технологий ИИ в высших учебных заведениях Узбекистана, разработаны практические рекомендации.

Ключевые слова: искусственный интеллект, цифровой маркетинг, высшее образование, Узбекистан, цифровая трансформация, чатбот, CRM, автоматизация маркетинга.

INTRODUCTION

Uzbekistan has been actively pursuing policies on digital transformation and the development of artificial intelligence technologies in recent years. The "Digital Uzbekistan-2030" strategy, the Presidential Decree on "Measures to Create Conditions for the Accelerated Implementation of Artificial Intelligence Technologies" adopted in 2021, and the "Strategy for the Development of Artificial Intelligence Technologies-2030" approved in October 2024 demonstrate the country's firm commitment in this direction.

On November 28, 2024, Uzbekistan, in cooperation with the United Arab Emirates, launched the "5 Million AI Leaders" project. Under this project, it is planned to train 4.75 million students and pupils, 150 thousand teachers, and 100 thousand civil servants in AI by 2030. AI will be integrated into school, vocational, and higher education.

The higher education sector in Uzbekistan is also developing rapidly. The number of students has grown from 280 thousand in 2017 to 1.43 million in 2024 — more than a 5-fold increase. The number of universities has reached 162. Under such conditions, the application of AI technologies in the marketing activities of higher education institutions is becoming an urgent issue.

LITERATURE REVIEW

Research on digital transformation and the application of AI technologies in Uzbekistan has been conducted by Usmonov, Askarov, Makhmudov, and Allah Rakha. Usmonov analyzed the experience of Uzbekistan's universities in transitioning to digital education during the COVID-19 pandemic.

A study conducted at Tashkent State Technical University (De Gruyter) found that 83% of respondents noted the positive impact of digital technologies on the quality of education, 72% indicated the availability of useful digital resources, and 68% perceive the university as an innovative institution.

In June 2024, a high-level regional policy dialogue on "Generative AI in Higher Education in Central Asia" was held in cooperation between UNESCO IITE and Tashkent University of Information Technologies. Additionally, at the ACM conference, the use of AI tools by students at Uzbekistan's higher education institutions was studied — 88.4% of respondents reported regular use of AI tools.

METHODOLOGY

The study employed a combination of inductive and deductive approaches. Data sources included government documents (Presidential decrees, strategies), reports from international organizations (UNESCO, OECD, DataReportal), scientific articles, and analysis of marketing activities of Uzbekistan's higher education institutions.

The main methods applied were: document analysis — studying the regulatory and legal framework; comparative analysis — comparing Uzbekistan's experience with international practice; statistical analysis — studying digital indicators; case study — examining the experience of individual universities.

ANALYSIS AND RESULTS

1. State of Digital Infrastructure in Uzbekistan

Digital infrastructure in Uzbekistan is developing rapidly. By early 2024, the number of internet users reached 29.5 million, representing 83.3% of the total population. Mobile internet speed increased by 53% compared to the previous year. 61% of users access the internet via mobile devices. The number of users over 18 on TikTok reached 3.12 million, and Facebook's advertising audience reached 2.15 million.

Table 1. Digital and Education Indicators of Uzbekistan (2024)[1]

Indicator	Value
Internet users	29.5 million (83.3%)
Mobile internet speed growth	+53%
Number of students	1.43 million
Higher education coverage	43%
Number of universities	162

2. Government Policy on AI Technology Development

The Government of Uzbekistan pays strategic attention to the development of AI technologies. Presidential Decree PP-4996 of 2021 established measures to create conditions for the accelerated implementation of AI technologies. As a result, from the 2021/2022 academic year, courses dedicated to the practical application of AI were introduced in 15 higher education institutions. From the 2023/2024 academic year, 572 students (510 bachelor's, 62 master's) were enrolled in the "Artificial Intelligence" program at 12 universities.

Table 2. Main Strategic Goals for AI Development in Uzbekistan (2030)[2]

Goal	Target
Training AI leaders	5 million
Students and pupils	4.75 million
Teachers	150 thousand
Civil servants	100 thousand

3. Opportunities for AI Application in Higher Education Institutions

Higher education institutions in Uzbekistan can apply AI technologies in digital marketing processes in several directions:

Chatbots and virtual assistants. Providing 24/7 assistance to applicants through Telegram (over 15 million users in Uzbekistan) and websites. The experience of California State University, Northridge shows that AI chatbots (CSUNny) ensure continuous communication with students and simplify the admission process.

Personalized content. Using AI algorithms to offer content matching each applicant's interests and behavior. This has been proven to increase conversion rates by 25-30%.

[1] Source: DataReportal (2024), Statistics Committee of Uzbekistan (2024), kun.uz (2024)
[2] Source: Presidential Decree RP-358 (2024), gazeta.uz (2024), Oxford Insights (2025)

Predictive analytics. Using ML algorithms to identify which applicants have a higher probability of submitting documents and effectively allocating marketing resources.

Advertising optimization. AI tools automatically optimize advertising on Google Ads, Facebook/Instagram, and TikTok, more accurately define target audiences, and effectively allocate budgets.

4. Existing Problems and Challenges

There are several problems in implementing AI technologies in Uzbekistan's higher education institutions. First, the shortage of qualified personnel — there are still few specialists in AI, and their training is ongoing. Second, financial constraints — most universities do not have sufficient budgets to purchase and implement AI tools. Third, technical infrastructure — not all universities have the server and network infrastructure to support modern AI systems.

Table 3. SWOT Analysis of AI Implementation in Uzbekistan's HEIs[1]

Strengths (S)	**Weaknesses (W)**
• Government support • High internet penetration • Young population	• Shortage of specialists • Financial constraints • Lack of infrastructure
Opportunities (O)	**Threats (T)**
• International cooperation • "5 Million AI Leaders" project • Growing education market	• Rapid technology obsolescence • Competition from foreign universities • Information security risks

5. Practical Recommendations

The following steps are recommended for implementing AI technologies in digital marketing at Uzbekistan's higher education institutions: 1) Development and implementation of Telegram bots — this is the least costly AI tool suitable for Uzbekistan's conditions; 2) Implementation of CRM systems and marketing automation — HubSpot, Bitrix24, or local solutions; 3) Training staff to use AI tools — within the framework of the "5 Million AI Leaders" project; 4) Creating data collection and analysis systems — for predictive marketing; 5) Studying and adapting international experience — within the framework of cooperation with UNESCO, MIT.

CONCLUSION AND SUGGESTIONS

The research results showed the following main conclusions:

A strong government policy for the development of AI technologies has been established in Uzbekistan. The goal is to train 5 million AI leaders by 2030.

Digital infrastructure in the country is developing rapidly — internet penetration has reached 83%, and mobile internet speed has increased by 53%.

The higher education sector also demonstrates high growth rates — the number of students has increased 5-fold, and the number of universities has reached 162.

[1] Source: compiled by the author

However, there are problems of shortage of qualified personnel, financial constraints, and technical infrastructure in implementing AI technologies in marketing processes.

Through Telegram bots, CRM systems, and staff training, Uzbekistan's HEIs can effectively use AI capabilities in digital marketing.

Uzbekistan's higher education institutions can increase their competitiveness and student recruitment effectiveness by integrating AI technologies into digital marketing. Government support and international cooperation are important factors on this path.

REFERENCES

1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated October 14, 2024 No. RP-358 "On approval of the Strategy for the Development of Artificial Intelligence Technologies."

2. Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan dated February 17, 2021 No. PP-4996.

3. DataReportal. Digital 2024: Uzbekistan. https://datareportal.com/reports/digital-2024-uzbekistan, 2024.

4. Usmonov, B. Higher Education in Uzbekistan: Transition to Digital Learning. Education Journal, 13(2): 53-58, 2024.

5. UNESCO IITE. High-Level Regional Policy Dialogue on AI in Higher Education in Central Asia. Tashkent, 2024.

6. De Gruyter. The Impact of Innovation and Digitalization on the Quality of Higher Education: A Study of TSTU. 2023.

7. ACM Digital Library. Exploring Students' Perspectives on Generative AI in Uzbekistan's Higher Education. 2024.

8. Oxford Insights. Harnessing AI for Development: Uzbekistan's Progress. 2025.

9. Strategy Center. Artificial Intelligence: A Tool for Improving the Quality of Education. Tashkent, 2024.

10. Gazeta.uz. Uzbekistan launches Five Million AI Leaders project. 2024.

11. Kun.uz. Uzbekistan sees 5-fold growth in university enrollment. 2024.

12. Allah Rakha, N. Artificial Intelligence strategy of Uzbekistan: Policy framework. IJLP, 1(1), 2023.

13. New Uzbekistan University. AI Education Reform Announcement. 2024.

14. UNESCO-ICHEI. White Paper on Higher Education in the Age of AI. 2024.

15. Mirziyoyev, Sh. M. Digital Uzbekistan – 2030. Presidential Decree, 2020.

INVESTITSIYALARNI MOLIYAVIY BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

Ismailov Dilshod Anvarjonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
PhD., dotsent
E-mail: d.ismailov@tsue.uz

Annotatsiya

Ushbu maqolada investitsiyalarni moliyaviy boshqarishning amaldagi holati, iqtisodiyotda investitsion jozibadorlikni tartibga solish orqali investitsion jarayonlarni moliyaviy boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlari, shuningdek, barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash uchun zaruriy investitsiyaga bo‘lgan talabni aniqlash uslubiyotini ishlab chiqish va unga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar o‘rganilgan. Shuningdek, tadqiqot natijalariga asoslangan xulosalar hamda ilmiy-amaliy ahamiyatga molik taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: investitsiyalarni moliyaviy boshqarish, sindikatli kredit, xorijiy tajriba, investitsiyaviy jozibadorlik, venchur kapitali, venchur bozori, investitsiya kompaniyalari, investitsiya fondlari, kapital sig‘imi.

Аннотация

В данной статье исследованы современное состояние финансового управления инвестициями, особенности финансового регулирования инвестиционных процессов через повышение инвестиционной привлекательности экономики, а также разработана методика определения необходимого объёма инвестиций для обеспечения устойчивого экономического роста и изучены факторы, влияющие на этот процесс. Кроме того, приведены выводы, основанные на результатах исследования, а также предложения и рекомендации, имеющие научно-практическую значимость.

Ключевые слова: финансовое управление инвестициями, синдицированный кредит, зарубежный опыт, инвестиционная привлекательность, венчурный капитал, рынок венчурного капитала, инвестиционные компании, инвестиционные фонды, капитальные вложения.

Abstract

This article examines the current state of financial management of investments, the specific features of managing investment processes through regulating investment attractiveness in the economy, as well as the development of a methodology for determining the required level of investment needed to ensure sustainable economic growth, including the analysis of the factors influencing this process. In addition, the article presents conclusions based on the research results, along with proposals and recommendations of scientific and practical significance.

Keywords: financial investment management, syndicated loan, foreign experience, investment attractiveness, venture capital, venture capital market, investment companies, investment funds, capital investments.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida global raqobatning kuchayishi, moliyaviy-iqtisodiy cheklovlar rejimining kengayishi hamda qo‘shilgan qiymat zanjiri va xalqaro transport-logistika tizimidagi uzilishlar mavjud sharoitda xorijiy sarmoyalarni faol jalb etishga qaratilgan investitsion siyosatni yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bunday vaziyat investitsion muhitning jozibadorligini oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatbardoshligini ta’minlash hamda investitsiyalarni moliyaviy boshqarish metodologiyasini zamonaviy talablar asosida qayta ko‘rib chiqishni talab etadi. Shu bilan birga, global to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi 2023-yilda 2 foizga qisqarib, 1,3 trillion AQSh dollarini tashkil etdi. Bunda Yevropa mamlakatlaridagi moliyaviy oqimlarning keskin o‘zgarishi hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘lgan. Mazkur tendensiyalar xalqaro investitsiyalar oqimi uchun global muhitning 2025-yilda ham pasayish ehtimoli yuqoriligini ko‘rsatmoqda.[1] Savdo va geosiyosiy ziddiyatlar, shuningdek sanoat siyosatidagi transformatsion jarayonlar investitsiyalarning tarkibiy tuzilishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatib, transmilliy korporatsiyalarni xalqaro bozorlarni kengaytirishda ehtiyotkor strategiyalarni tanlashga undamoqda. Shu bilan birga, sof daromadlarning yuqoriligi, moliyalashtirish sharoitlarining yaxshilanib borishi hamda yangi loyihalarga talabning yillik o‘sishi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimining kelgusidagi ijobiy dinamika bilan tiklanishiga imkon yaratishi kutilmoqda. Mazkur holatlar investitsiyalarni moliyaviy boshqarishning ilmiy asoslangan metodologiyasini yanada rivojlantirish va barqaror investitsion oqimlarni ta’minlashda metodik yondashuvlarni optimallashtirishni dolzarb vazifa sifatida ilgari suradi.

Jahonda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda aholi daromadlarini oshirish jarayonida investitsion muhitning qulayligi va yuqori investitsion faollik muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu bois asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash, investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish hamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish determinantlarini aniqlash bo‘yicha ilmiy izlanishlar tobora dolzarblashmoqda. Bunda investitsiyalarni jalb etish mexanizmlarini modernizatsiya qilish, fiskal va moliyaviy rag‘batlantirish instrumentlarining samaradorligini baholash, xususan investitsiyalarni moliyaviy boshqarish metodologiyasini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy yondashuvlar alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, zamonaviy tadqiqotlarda rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotini transformatsiyalash jarayonida xorijiy investitsiyalarni jalb etishning huquqiy va institutsional asoslarini takomillashtirish, loyihalarni moliyalashtirishning muqobil usullarini tasniflash va ularning moliyaviy mezonlarini aniqlash masalalari markaziy o‘rinni egallamoqda. Infratuzilmaviy loyihalarga investitsiyalarni jalb qilishning samarali modellari, shuningdek, mazkur loyihalarda xorijiy investorlar ishtirokini moliyaviy jihatdan ta’minlash mexanizmlarining optimallashtirilishi investitsiyalarni moliyaviy boshqarishning ilmiy asoslangan metodlarini yanada rivojlantirishni talab qilmoqda.

[1] https://www.developmentaid.org/api/frontend/cms/file/2024/06/wir2024_en.pdf

O‘zbekiston iqtisodiyotining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, asosiy kapitalga yo‘naltirilayotgan investitsiyalar hajmining barqaror o‘sishini ta’minlash hamda “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish bo‘yicha amalga oshirilayotgan investitsion loyihalarning moliyaviy samaradorligini kuchaytirish bugungi kunda ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokida strategik ahamiyatga ega loyihalarni moliyalashtirishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish esa investitsiyalarni moliyaviy boshqarish metodologiyasini chuqur modernizatsiya qilishni talab qilmoqda. Davlat rahbarining ta’kidlashicha, O‘zbekiston ilk bor Xalqaro valyuta jamg‘armasi va Jahon banki bilan hamkorlikda moliya sektorining kompleks bahosini amalga oshirdi va mazkur xalqaro institutlar bank, moliya, sug‘urta hamda kapital bozori yo‘nalishlaridagi islohotlarni to‘liq qo‘llab-quvvatlagan. Ushbu jarayonlar doirasida Moliyaviy barqarorlik kengashining tashkil etilishi, Markaziy bankda kiberxavfsizlik va moliyaviy texnologiyalar platformalarining ishga tushirilishi, shuningdek sug‘urta tizimidagi islohotlar, milliy va global qayta sug‘urtalash mexanizmlarining joriy etilishi moliyaviy infratuzilmaning institutsional asoslarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, startaplar uchun muqobil moliyaviy instrument venchur sarmoyalarning jadallik bilan rivojlanayotgani, yurtimizda 1 milliard AQSH dollardan yuqori qiymatga erishgan startaplar paydo bo‘lgani ham investitsiya ekotizimining sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarilayotganini ko‘rsatadi. Mazkur jarayonni qo‘llab-quvvatlash maqsadida “Muqobil investitsiya jamg‘armalari to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ishlab chiqilib, kelgusi besh yilda venchur va boshqa muqobil investitsiyalar hajmini 1 milliard dollarga yetkazish maqsadi belgilangan.

Investitsiya faoliyatini moliyaviy boshqarish mavzusi iqtisodiyot va moliya sohasida ko‘plab olimlar, amaliyotchilar va ekspertlar tomonidan keng o‘rganilgan. Ushbu sohada taqdim etilgan nazariyalar va amaliy tajribalar investitsiya jarayonlarini samarali tashkil etish, moliyaviy resurslarni optimal taqsimlash va xavflarni boshqarish masalalariga bag‘ishlangan.

ADABIYOTLAR SHARHI

John C. Hull o‘zining “Options, Futures, and Other Derivatives” asarida investitsiyalarning moliyaviy boshqaruvi va risklarni boshqarish usullarini tahlil qiladi. Unga ko‘ra, investitsiyalarni moliyalashtirishda risklarni diversifikatsiya qilish va turli moliyaviy instrumentlardan foydalanish zarurati mavjud. Bu yondashuv global bozor sharoitida kapitalni samarali yo‘naltirishning asosiy tamoyili hisoblanadi[1].

Sharpe tomonidan ishlab chiqilgan “Capital Asset Pricing Model” (CAPM) investitsiyalarni baholash va portfel boshqarish nazariyasining asosi bo‘lib, u moliyaviy boshqaruvda risk va kutilayotgan daromadni muvozanatlashtirishga

[1] John C. Hull (2018):"Effective financial management of investments requires a comprehensive understanding of risk diversification and the use of various financial instruments to mitigate uncertainties inherent in global markets."- Hull, J.C. (2018). Options, Futures, and Other Derivatives. Pearson.

qaratilgan. Bu model xorijiy moliyaviy bozorlarda keng qo‘llanilib, investitsiya strategiyalarini ishlab chiqishda muhim vosita hisoblanadi[1].

Xorijiy tadqiqotlarda, masalan, Morgan Stanley Capital International (MSCI) hisobotlarida, investitsiya portfellarini boshqarishning ilg‘or texnologiyalari va moliyaviy monitoring tizimlari haqida so‘z boradi. Ular xorijiy mamlakatlarda investitsiyalarni moliyaviy boshqarishda zamonaviy axborot texnologiyalari va avtomatlashtirilgan tizimlarning rolini ta’kidlaydi[2].

Janet Yellen investitsiyalarning makroiqtisodiy ahamiyatini ta’kidlab, davlat siyosatining moliyaviy boshqaruvdagi o‘rni va investitsion faollikni rag‘batlantirish mexanizmlari haqida fikr bildirgan. Uning ta’kidlashicha, davlat tomonidan moliyaviy boshqaruv strategiyasini shakllantirish investitsiya oqimlarini ko‘paytirish va iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega[3].

Shuningdek, Xitoy, Germaniya, AQSh va Yevropa Ittifoqi kabi rivojlangan mamlakatlarning investitsiya faoliyatini moliyaviy boshqarish bo‘yicha amaliy tajribalari ko‘plab ilmiy maqolalar va hisobotlarda batafsil tahlil qilingan. Ularning asosiy xususiyati — xavflarni boshqarish, moliyaviy resurslarni optimal taqsimlash, shuningdek, investitsiya jarayonlarini avtomatlashtirish va real vaqt rejimida monitoring qilishdir.

Xorijiy adabiyotlarda investitsiya faoliyatini moliyaviy boshqarishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilar: risklarni baholash va diversifikatsiya, moliyaviy instrumentlardan foydalanish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va davlat siyosatini hisobga olgan boshqaruv tizimini yaratish. Bu omillar milliy iqtisodiyotlarda investitsiya samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda investitsiyalarni moliyaviy boshqarishning takomillashtirilgan modelini ishlab chiqish maqsad qilingan. Tahlil jarayonida tizimli yondashuv asosida statistik ma’lumotlar, xalqaro tajribalar va milliy siyosiy hujjatlar chuqur tahlil qilindi. Asosiy e’tibor investitsiyalarning iqtisodiy o‘sishga ta’sirini aniqlovchi omillarni baholashga, moliyaviy muvozanat, resurslarning oqilona taqsimoti va risklarni minimallashtirish strategiyalarini ishlab chiqishga qaratildi. Dinamik iqtisodiy muhitda barqaror o‘sishni ta’minlovchi moliyaviy boshqaruv mexanizmlari identifikatsiya qilindi. Uslubiy yondashuvda tahliliy-statistik, grafik, taqqoslash va sintez metodlari qo‘llanilib, moliyalashtirish mexanizmlarining kompleks modeli shakllantirildi. Mazkur metodologiya amaliyotda qo‘llashga yaroqli, sarmoyadorlar ishonchini oshirishga xizmat qiluvchi innovatsion asosga ega.

[1] Sharpe, W.F. (1964). “Capital Asset Prices: A Theory of Market Equilibrium under Conditions of Risk.” The Journal of Finance, 19(3), 425-442.- CAPM nazariyasi haqida asosiy ilmiy maqola.
[2] Morgan Stanley Capital International (MSCI). (2022). MSCI Global Investment Reports. - Investitsiya portfellarini boshqarish bo‘yicha zamonaviy texnologiyalar va monitoring tizimlari haqidagi hisobotlar.
[3] Yellen, J. (2020). “The Role of Financial Management in Economic Policy.” Speech at the Economic Policy Symposium, Federal Reserve.- Davlat siyosati va investitsiya boshqaruvi haqida nutq.

TAHLIL VA NATIJALAR

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 2024-yilda investitsiyalar hajmi 493,7 trln. so‘mni tashkil etib, 2018-yilga nisbatan 369,5 trln. so‘mga ortgani bu esa, salkam 4 barobarga ko‘payganligi ko‘rsatmoqda.

2024-yilda O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy va ijtimoiy sohalarni rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 493,7 trln so‘m o‘zlashtirilgan miqdor, 2023-yilga nisbatan 127,6 % ni tashkil etdi.

2018–2024-yillarda investitsiyalar qariyb to‘rt baravarga oshgan. Eng yuqori o‘sish sur’atlari 2019-yil, 2023-2024 yillarda kuzatildi. 2020- 2021-yillarda o‘sish past bo‘lishi dunyoda pandemiya va tashqi iqtisodiy omillar ta’siriga bog‘liqligini ko‘rish mumkin.



1-rasm. Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar va investitsiyalar tarkibining YaIMga nisbati[1]

Shuningdek, YaIMdagi investitsiyalarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sirini tahlil qilsak, 2022-yilda pasayish kuzatilgan bo‘lsa-da, 2024-yilda rekord daraja — 34,9%. Bu iqtisodiyotda investitsiyalarning tobora kuchayib borayotganini ko‘rsatadi.

Qolaversa, 2018-yilda 24,3% bo‘lgan chet el investitsiyalari 2024-yilda 69,4%gacha oshgan. Bu O‘zbekiston iqtisodiyotining xalqaro bozorlarga ochiqligi ortganini, xorijiy sarmoyadorlar uchun jozibadorlik oshganini ko‘rsatadi. 2023-2024-yillarda katta o‘sish qayd etilgan.

[1]Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитасининг маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилди.

Davlat byudjeti hissasi stabil emas: 2019–2021-yillarda yuqori bo‘lgan, keyin pasaygan. 2024-yilda 4,6% — 2018-yil darajasiga yaqinlashgan. Bu davlatning investitsiyalardagi rolini qisqartirib, xususiy va chet el sarmoyalariga keng imkoniyat berilayotganini anglatishi mumkin.

Yuqoridagi diagramma ma’lumotlaridan kelib chiqib shuni ta’kidlash lozimki, investitsiya hajmi barqaror va jadal o‘sishda, ayniqsa 2023–2024-yillarga to‘g‘ri kelgan, chet el sarmoyalarining ulushi keskin oshgan, bu mamlakatning ochiq iqtisodiy siyosati va islohotlari natijasidir.

Yuqoridagi natijalar bilan bir qatorda investitsiyalarni moliyaviy boshqarishda ayrim muhim jihatlar mavjud.

Korxonalarga ESG sertifikatlari standartlarini joriy qilish orqali korxonani investitsion jozibadorligini oshirish lozim. Bunda davlat va xususiy sektor korxonalariga investitsiyalarni moliyalashtirishda kredit mablag‘lari va xorijiy sarmoyani jalb qilish imkoniyatlari kengaydi va yirik loyihalar (energetika, telekommunikatsiya, tog‘-kon, metallurgiya va kimyo sanoati sohalarida) faoliyatida muhim ahamiyat kasb etdi;

Xususan, energetika sohasida “O‘zbekgidroenergo” AJ “ESG” reytingida 79 ball bilan Markaziy Osiyodagi eng moliyaviy barqaror korxona deb topilib, nufuzli xorijiy banklarning past foizli kredit mablag‘larini jalb qilish orqali yangi GESlarni qurish va mavjudlarini modernizatsiya qilmoqda.

Davlat kafolatisiz nosuveren xorijiy kreditlar olinganda respublika komissiyasidan soddalashtirgan tartibda ruxsat olish tizimini joriy qilish lozim. Davlat xaridlari ochiq va shaffof amalga oshirilishini ta’minlash bo‘yicha respublika komissiyasi respublika rezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan ortiq bo‘lgan xorijiy kreditlarni jalb qilish jarayonlarini tartibga solish yuklatilgan. Mazkur komissiya tarkibi 18 ta davlat boshqaruv organidan iborat bo‘lib, amalda ushbu komissiyadan ruxsat olish juda qiyin va murakkab jarayon hisoblanadi va 20 mln AQSH dollardan kam bo‘lgan tashqi kredit va qarz mablag̃larini komissiya ruxsatisiz jalb qilishga ruxsat berilganini ko‘ish mumkin.

Qolaversa bu mexanizm risk asosida korxonalarni tasniflash va xabarnoma orqali moliyalashtirishga imkon beradi, shuningdek, korxonaning moliyaviy shaffofligi va hisobdorligini oshirishga yo‘naltirilgan. Davlat kafolatisiz, nosuveren kreditlar olishda qulaylik yaratadi va korxonaning kreditga layoqatliligini baholash xalqaro amaliyotda MHXS asosida amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekistonning investitsiyaviy siyosati so‘nggi yillarda yangi bosqichga ko‘tarilib, moliyaviy boshqaruv sohasida chuqur tarkibiy islohotlar va ilg‘or xalqaro tajribalarning joriy etilishi orqali izchil rivojlanmoqda. 2018–2024-yillar davomida asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmining salkam to‘rt barobar oshgani, xorijiy sarmoyalar ulushining 70% ga yaqinlashgani — mamlakatimizda investitsiya muhitining jozibadorligi keskin oshganidan yaqqol dalolat beradi.

Yurtimizda olib borilayotgan ochiq iqtisodiy siyosat, davlat boshqaruvida shaffoflik tamoyillarining kuchayishi va moliyaviy infratuzilmaning modernizatsiyasi

— bularning barchasi O‘zbekistonni nafaqat mintaqada, balki xalqaro maydonda ham ishonchli va istiqbolli investitsiyaviy sherikka aylantirmoqda. Ayniqsa, ESG standartlarining tatbiqi, venchur kapital bozorining shakllanishi va moliyalashtirish mexanizmlarining soddalashtirilishi moliyaviy boshqaruvda zamonaviylik va moslashuvchanlikni ta’minlamoqda.

Qabul qilinayotgan qarorlar, ishlab chiqilayotgan qonunlar va isloh etilayotgan tizimlar O‘zbekistonda investitsiyalarning sifat jihatdan yangi bosqichga o‘tishini ta’minlab, milliy iqtisodiyotda barqaror o‘sish va innovatsion yondashuvlar uchun mustahkam asos yaratmoqda.

Tahlil va natijalardan quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Investitsiya siyosatini yuqori aniqlik bilan rejalashtirish — Investitsiyalarga bo‘lgan ehtiyojni ilg‘or prognoz modellar asosida tahlil qilish, har bir tarmoq va hudud uchun investitsiyaviy xaritalar yaratish orqali sarmoyadorlar uchun aniq va ishonchli yo‘l xaritasi ishlab chiqilishi lozim.

2. ESG standartlari asosida jozibadorlikni kuchaytirish — Korxonalarning ekologik va ijtimoiy barqarorlik ko‘rsatkichlarini oshirish orqali ularning global investitsiya maydonidagi reytingi va ishonchliligi mustahkamlanadi.

3. Nosuveren moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish — 20 million AQSH dollarigacha bo‘lgan xorijiy kreditlar uchun soddalashtirilgan ruxsat tartiblarini takomillashtirish, zamonaviy moliyaviy vositalar orqali tashqi resurslarni jalb qilishni yengillashtiradi.

4. Venchur kapital va startaplar rivojini jadallashtirish — Innovatsion iqtisodiyotga o‘tishda texnoparklar, inkubatorlar va muqobil investitsiya fondlari orqali bilimga asoslangan iqtisodiyot poydevori mustahkamlanadi.

5. Investitsiyalar monitoringini raqamlashtirish — Har bir yirik investitsiya loyihasini onlayn rejimda kuzatuvchi, hayotiy sikl xarajatlarini avtomatik tahlil qiluvchi yagona platforma joriy etilishi, sarmoyaviy samaradorlikni oshiradi.

6. Yashil iqtisodiyotni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash — Qayta tiklanuvchi energetika, energiya samaradorligi va ekologik toza ishlab chiqarish yo‘nalishlariga mo‘ljallangan “yashil obligatsiyalar” va “barqaror kreditlar” bozori yaratish muhim vazifadir.

7. Milliy investitsiyaviy jozibadorlik indeksini ishlab chiqish — Har bir hudud va tarmoq kesimida xorijiy sarmoyadorlar uchun ochiqlik va ishonchlilik darajasini baholovchi ko‘rsatkichlar tizimi yaratilsa, O‘zbekistonning global investitsiyaviy reytinglari yanada yaxshilanadi.

O‘zbekistonning investitsion salohiyati, moliyaviy infratuzilmasi va islohotlarga sodiqligi uni xalqaro miqyosda barqaror o‘sish drayveriga aylantirmoqda. Moliyaviy boshqaruv metodologiyasini chuqurlashtirish, ilg‘or vositalarni joriy etish va institutsional muhitni takomillashtirish orqali O‘zbekiston global investitsion markazga aylanishi uchun barcha zarur shart-sharoitlarga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. John C. Hull (2018):"Effective financial management of investments requires a comprehensive understanding of risk diversification and the use of various financial

instruments to mitigate uncertainties inherent in global markets."- Hull, J.C. (2018). Options, Futures, and Other Derivatives. Pearson.

2. Sharpe, W.F. (1964). “Capital Asset Prices: A Theory of Market Equilibrium under Conditions of Risk.” The Journal of Finance, 19(3), 425-442.- CAPM nazariyasi haqida asosiy ilmiy maqola.

3. Morgan Stanley Capital International (MSCI). (2022). MSCI Global Investment Reports. - Investitsiya portfellarini boshqarish bo‘yicha zamonaviy texnologiyalar va monitoring tizimlari haqidagi hisobotlar.

4. Yellen, J. (2020). “The Role of Financial Management in Economic Policy.” Speech at the Economic Policy Symposium, Federal Reserve.- Davlat siyosati va investitsiya boshqaruvi haqida nutq.

5. https://www.worldbank.org — World Bank – statistik ma’lumotlari asosida.

6. Agentligi (Germany Trade & Invest, GTAI) — Germaniya Tashqi Savdo va Investitsiyalar ma’lumotlari.

TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA TURIZM SOHASIDA ZAMONAVIY BOSHQARUV MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISH

Tajieva Shaxnoza Mamarejabovna
Alfraganus University o‘qituvchisi
ORCID-0009-0008-4720-496
E-mail: shakhnozatajieva76@icloud.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada transformatsiya jarayonlari sharoitida O‘zbekiston turizm sohasida zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini shakllantirish masalalari kompleks tahlil qilinadi. So‘nggi yillarda mamlakatda turizmni iqtisodiyotning strategik tarmog‘i sifatida rivojlantirishga qaratilgan keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. 2020-2024-yillar davomidagi statistik ma’lumotlar asosida turistlar oqimi, eksport tushumlari va turizmning YAIMdagi ulushi kabi ko‘rsatkichlar tahlil qilingan. Turizm sohasida boshqaruvning samarali mexanizmlari - raqamli texnologiyalar, davlat-xususiy sheriklik, inson kapitali va hududiy rivojlanish asosida shakllantirish, boshqaruvning zamonaviy modellari, integratsiyalashgan raqamli platformalar, turizm sohasida zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini shakllantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: turizm boshqaruvi, transformatsiya jarayoni, raqamli texnologiyalar, davlat-xususiy sheriklik, turizm siyosati, inson kapitali, turistik infratuzilma, strategik marketing, turizmda innovatsiyalar, hududiy rivojlanish, barqaror turizm, turizm xizmatlari eksporti, turistlar oqimi.

Аннотация

В данной статье будет проведен комплексный анализ вопросов формирования современных механизмов управления в сфере туризма Узбекистана в условиях трансформационных процессов. В последние годы в стране проводятся масштабные реформы, направленные на развитие туризма как стратегической отрасли экономики. На основе статистических данных за 2020-2024 годы были проанализированы такие показатели, как поток туристов, экспортные поступления и доля туризма в ВВП. Разработаны предложения по формированию эффективных механизмов управления в сфере туризма — на основе цифровых технологий, государственно-частного партнерства, человеческого капитала и территориального развития, современных моделей управления, интегрированных цифровых платформ, современных механизмов управления в сфере туризма.

Ключевые слова: управление туризмом, процесс трансформации, цифровые технологии, государственно-частное партнерство, туристская политика, человеческий капитал, туристская инфраструктура, стратегический маркетинг, инновации в туризме, территориальное развитие, Устойчивый туризм, экспорт туристских услуг, поток туристов.

Abstract

In this article, a comprehensive analysis of the issues of formation of modern management mechanisms in the field of Tourism of Uzbekistan in the context of

transformation processes is carried out. In recent years, the country has undergone extensive reforms aimed at developing tourism as a strategic sector of the economy. On the basis of statistics for the period 2020-2024, indicators such as tourist flow, export receipts and the share of tourism in GDP were analyzed. In the field of Tourism, proposals have been developed for effective management mechanisms — digital technologies, state-owned partnerships, formation on the basis of human capital and territorial development, modern management models, integrated digital platforms, the formation of modern management mechanisms in the field of Tourism.

Keywords: tourism management, transformation process, digital technology, public-private partnership, tourism policy, human capital, tourist infrastructure, strategic marketing, innovation in Tourism, Regional Development, Sustainable Tourism, tourism services export, tourist flow.

KIRISH

Turizm XXI asrdagi eng tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan va global iqtisodiyotda strategik ahamiyat kasb etayotgan sohalardan biri hisoblanadi. U dunyo iqtisodiyotining qariyb 10 foizini tashkil qilib, millionlab odamlar uchun ish o‘rni, ko‘plab mamlakatlar uchun valyuta tushumlari va iqtisodiy o‘sish manbaidir. Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO) ma’lumotlariga ko‘ra, har yili milliarddan ortiq inson xalqaro sayohat qiladi va bu raqam yildan-yilga o‘sib bormoqda. Bunday tez rivojlanish fonida turizm sohasini samarali boshqarish masalasi har bir davlat uchun strategik vazifaga aylanmoqda.

Ayniqsa, so‘nggi yillardagi global inqirozlar – pandemiya, geosiyosiy tartibsizliklar, iqlim o‘zgarishi – turizm sohasini yangi formatda qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Endilikda nafaqat turistik mahsulot, balki uning tashkil etilishi, boshqarilishi, raqamlashtirilishi va mijoz ehtiyojlariga moslashuvi muhim hisoblanadi. Bu esa sohani boshqarishda an’anaviy usullarning o‘rnini innovatsion va moslashuvchan mexanizmlarga bo‘shatishini anglatadi.

Turizm yo‘nalishiga qo‘shimcha investitsiyalarni jalb qilish, xususiy sektor uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali turizm infratuzilmasini yanada takomillashtirish, aholi bandligini oshirish, transport qatnovi yo‘nalishlarini kengaytirish, respublikaning turistik salohiyatini ichki va tashqi bozorlarda targ‘ib qilishni jadallashtirish, shuningdek, sohani davlat tomonidan boshqarishda yangi tartib-taomillarni joriy qilish maqsadida: turoperatorlar tomonidan turistik oqim past bo‘lgan xorijiy mamlakatlardan O‘zbekiston Respublikasiga olib kelingan har bir turist uchun 20 AQSH dollaridan 100 AQSH dollarigacha bo‘lgan ekvivalentda rag‘batlantiruvchi subsidiyalar ajratilsin; turistik oqim past bo‘lgan xorijiy mamlakatlar ro‘yxati, olib kelinadigan turistlar soni va rag‘batlantiruvchi subsidiyalar miqdori hamda ularni berish tartibi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vaziri tomonidan tasdiqlansin; turoperatorlar va aviatashuvchilarning xorijiy mamlakatlardan Samarqand, Buxoro va Urganch xalqaro aeroportlariga amalga oshirilgan charter aviaqatnovlari bo‘yicha xarajatlarining bir qismi har bir xorijiy turist uchun, u respublika hududida kamida besh kecha tunab qolgan taqdirda, 20 AQSH

dollari, qish mavsumida (20-noyabrdan 20-fevralgacha) esa 50 AQSH dollari ekvivalentida qoplab berilsin.[1]

O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga olib chiqilgan. Mamlakat Prezidentining qator farmon va qarorlari orqali turizm infratuzilmasini yaxshilash, vizasiz rejimlarni joriy etish, yangi turistik yo‘nalishlar va brendlar yaratish, viloyatlarda turizmning maxsus turlarini (ziyorat, ekoturizm, agroturizm) rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligi ko‘p jihatdan ularni boshqarish tizimining qanday shakllantirilishiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda.

Hozirgi paytda turizm boshqaruvida bir qancha muammolar mavjud: davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikning tizimli emasligi; raqamli texnologiyalardan foydalanishning cheklanganligi; ma’lumotlar bazasining tartibga solinmagani; turizmni boshqarishda hududiy disbalans va markazlashgan qaror qabul qilish jarayonlari; marketing va brendlashtirish strategiyalarining samarasizligi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun zamonaviy, raqamlashtirilgan, inson kapitaliga asoslangan va bozor mexanizmlari bilan uyg‘unlashgan boshqaruv modellarini joriy etish zarur.

Bugungi kunda turizm nafaqat milliy iqtisodiyotni rivojlantiruvchi muhim sohalardan biri, balki ijtimoiy barqarorlik, madaniy muloqot va hududiy taraqqiyotni ta’minlovchi strategik instrument sifatida qaralmoqda. Jahon miqyosida kuzatilayotgan global o‘zgarishlar – geosiyosiy xavfsizlik, energetik inqiroz, pandemiyaning oqibatlari va texnologiyalarning ulkan sur’atlarda rivojlanishi – turizm sohasidagi boshqaruv modellarini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Eskicha, byurokratik va markazlashgan boshqaruv usullari tezkor qaror qabul qilish, samaradorlik, shaffoflik va raqobatbardoshlikni ta’minlashda yetarli emas.

Shu bilan birga, turizm sohasidagi islohotlarning kengayishi va davlat siyosatining faollashuvi sohani transformatsiya qilish uchun unikal sharoit yaratmoqda. Xususan, 2016-yildan keyin joriy etilgan huquqiy-me’yoriy baza, viza tizimidagi liberallashuv, viloyatlarda «turizm klasterlari»ni yaratish tashabbuslari – bularning barchasi boshqaruv jarayonlariga yangi yondashuvlarni talab qiladi. Ana shunday sharoitda turizmni raqamlashtirish, xususiy sektorni jalb etish, davlat va jamoatchilik o‘rtasida muloqotni yo‘lga qo‘yish, sifatli kadrlar tayyorlash kabi vazifalar dolzarblikning amaldagi ifodasiga aylanadi.

Turizm yirik shaharlar bilan cheklanmasdan, qishloq va chekka hududlarda ham yangi iqtisodiy faollik nuqtalarini yuzaga keltiradi. Bu esa infratuzilmani yaxshilash, aholi bandligini ta’minlash, madaniy merosni saqlash va atrof-muhitga mas’uliyatli munosabatni targ‘ib qilishda turizm boshqaruvining ahamiyatini yanada oshiradi.

Shu asosda aytish mumkinki, turizm sohasida zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini shakllantirish masalasi faqat amaliyot emas, balki keng qamrovli ilmiy va strategik yondashuvni talab etadigan dolzarb masaladir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Turizm boshqaruviga oid ilmiy tadqiqotlar soni so‘nggi o‘n yillikda sezilarli darajada ortib bordi. Ushbu sohadagi ilmiy qarashlar turli maktablar va yondashuvlar asosida shakllanmoqda.

Maykl Porter tomonidan ishlab chiqilgan «raqobat ustunligi» nazariyasi turizm sohasi uchun ham dolzarb hisoblanadi. Uning ta’kidlashicha, mamlakatning raqobatbardoshligi tabiiy resurslarga emas, balki samarali boshqaruv va innovatsiyaga bog‘liq. Porterning modelidan kelib chiqib, turizm sohasida boshqaruv mexanizmi faqat davlat siyosatiga emas, balki xususiy sektorning tashabbusi va bozor mexanizmlariga integratsiya darajasiga ham bog‘liq ekanligi ko‘riladi.[2]

Richi va Krouch tomonidan taklif qilingan turistik yo‘nalish raqobatbardoshligi modelida esa turizmni boshqarishda siyosiy barqarorlik, iqtisodiy muhit, texnologiyalar darajasi va inson kapitali asosiy mezonlar sifatida belgilanadi. Ushbu yondashuv, albatta, O‘zbekiston turizm sektoridagi muammolarni tahlil qilishda qimmatli nazariy asos bo‘la oladi. Biroq, ushbu model ko‘proq rivojlangan mamlakatlar sharoitiga mos keladi va o‘sib kelayotgan bozorlar, ayniqsa, markaziy boshqaruvga ega davlatlar sharoitida to‘liq ishlamayotganini ko‘rsatadi.[3]

Dwyer, Edwards va Mishra o‘z tadqiqotlarida davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni muvaffaqiyatli turizm boshqaruvining kaliti deb baholaydi. Ularning fikricha, jamoat sektori tomonidan taqdim etiladigan infratuzilma va siyosiy qo‘llab-quvvatlash, xususiy sektorning xizmat ko‘rsatish madaniyati va innovatsiya salohiyati bilan uyg‘unlashsa, barqaror rivojlanishga erishish mumkin. Bu fikrlar O‘zbekistondagi davlat-xususiy sheriklik loyihalarini qayta ko‘rib chiqish zarurligini anglatadi.[4]

D.Buhalis o‘zining ilmiy izlanishlarida, raqamli texnologiyalarning turizm sohasidagi boshqaruvga ta’sirini o‘rgangan yetakchi tadqiqotchilardan biri. Uning ta’kidlashicha, turizmdagi raqobatbardoshlik va samaradorlik innovatsion ICT (Information and Communication Technologies) tizimlarini joriy etish bilan chambarchas bog‘liq.[5] Buhalis raqamli boshqaruv modellarida elektron hukumat, mobil platformalar, Big Data va CRM tizimlarini strategik jihatdan boshqarishni tavsiya etadi. Uning tahlillari asosan Yevropa mamlakatlari tajribasiga asoslangan bo‘lsa-da, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun adaptatsiya imkoniyatlari mavjud [6].

C.M. Hall tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda, turizm siyosatining boshqaruv jarayoniga ta’sirini o‘rganadi. Uning fikricha, samarali turizm boshqaruvi faqat iqtisodiy mexanizmlarga emas, balki siyosiy institutlar, davlat islohotlari va ijtimoiy barqarorlik darajasiga ham bog‘liq. U bu jarayonda davlatning «fasilitator» emas, «katalizator» sifatida harakat qilishi kerakligini ta’kidlaydi. Uning fuqarolik jamiyatini boshqaruvga jalb qilish bo‘yicha takliflari ayniqsa dolzarb hisoblanadi [7].

C.Cooper va J.Fletcher o‘zlarining tadqiqotlarida, inson kapitali va ta’limning turizm boshqaruviga ta’sirini o‘rganadi. Ularning ta’kidlashicha, turizm sohasidagi kadrlar salohiyati yetarlicha bo‘lmasa, boshqaruvdagi har qanday innovatsiya muvaffaqiyatga erisha olmaydi. Shu sababli, turizm ta’limi va malaka oshirish tizimini zamonaviy talablarga moslashtirish boshqaruvdagi uzluksiz rivojlanish garovidir [8].

P.Mason esa barqaror turizm boshqaruvini o‘rganib, resurslardan oqilona foydalanish, mahalliy aholining manfaatlarini hisobga olish va turizmni ekotizimlarga zarar yetkazmaslik asosida boshqarishni taklif etadi. Uning modelida faqat iqtisodiy samaradorlik emas, ijtimoiy va ekologik indikatorlar ham boshqaruv samarasini baholashda asos sifatida keltiriladi [9].

Mahalliy tadqiqotchilar tomonidan ham turizmni boshqarish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Sh.Mirzaev o‘zining tadqiqotlarida, O‘zbekistondagi turistik infratuzilmaning hududiy nomutanosibligini tanqidiy o‘rganadi va boshqaruv tizimini mahalliy darajada moslashuvchanlashtirishni taklif qiladi.[10] Uning fikricha, markazlashgan boshqaruv tizimi viloyatlardagi turizm salohiyatini to‘liq ishga solishga to‘sqinlik qilmoqda.

Q.Abduraxmonov esa davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining real amaliyotda samarasiz qo‘llanilayotganini, investorlar uchun shaffof va barqaror shart-sharoit yo‘qligini ta’kidlaydi. Uning tadqiqotida boshqaruv tizimidagi nomuvofiqliklar va reglamentlashmagan jarayonlar xususiy sektor faoliyatini cheklab qo‘yayotgani tahlil qilinadi.[11]

I.Ochilov va A.Toshpulatov esa turizm sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish masalasini ilmiy asosda ko‘rib chiqishgan. Ularning fikricha, ma’lumotlar markazlashmagani, yagona elektron ekotizimning yo‘qligi boshqaruvdagi samaradorlikni pasaytiradi. Shu bois, raqamlashtirish faqat texnik vosita emas, balki strategik boshqaruv elementi sifatida qaralishi lozim. [12]

A.A.Juraev o‘zining tadqiqotlarida, O‘zbekistondagi turistik marketing boshqaruvini o‘rganib, xorijiy tajriba bilan taqqoslagan. Uning tahlillarida ko‘pgina mahalliy turistik tashkilotlarda strategik marketing rejalashtirish, mijoz-bop xizmatlar taklif etish va bozor tendensiyalarini aniqlashda jiddiy kamchiliklar mavjudligi ko‘rsatilgan [13].

B.Komilov va Sh.Rahimovlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda, O‘zbekistondagi turizm sohasini raqamlashtirishga oid harakatlarni tahlil qilib, raqamli boshqaruvning faqat xizmat ko‘rsatish emas, balki strategik rejalashtirish va tahlil vositasi sifatida foydalanilishi kerakligini ta’kidlaydi. Ularning fikricha, ma’lumotlar bilan ishlash madaniyati va axborot tizimlari integratsiyasi boshqaruvni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi [14].

Tahlil qilingan adabiyotlardan ko‘rinib turibdiki, turizm sohasidagi boshqaruvga oid nazariy qarashlar turlicha. Xorijiy tadqiqotlar asosan rivojlangan bozorlar sharoitiga mo‘ljallangan va ularning mexanizmlari to‘g‘ridan to‘g‘ri O‘zbekiston sharoitida qo‘llanilmasligi mumkin. Mahalliy tadqiqotlar esa ko‘proq tavsifiy va holatni bayon etuvchi xarakterga ega bo‘lib, konkret innovatsion modellar va amaliyotda qo‘llash mumkin bo‘lgan strategiyalarni taklif etishda hali yetarlicha rivojlanmagan.

Shu sababli, mavjud ilmiy ishlarga tayangan holda, zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini O‘zbekistonning iqtisodiy, ma’muriy va madaniy realliklariga mos holda qayta ishlab chiqish, joriy etish va modellash muhim ilmiy va amaliy vazifa hisoblanadi.

METODOLOGIYA

Transformatsiyalash sharoitida turizm sohasida zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini shakllantirishni tizimli tahlil, tarixiylik va mantiqiylik, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, qiyosiy va selektiv tanlab tadqiq qilish, monografik tahlil va guruhlash usullari qo‘llanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston uchun turizm sohasini isloh qilish nafaqat iqtisodiy diversifikatsiya nuqtai nazaridan, balki milliy brending, xalqaro imij va mahalliy hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojida muhim omil sifatida dolzarblik kasb etadi. Mamlakatdagi boy tarixiy-madaniy meros, betakror tabiiy resurslar va mehmondo‘stlik an’analari turizmni rivojlantirish uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda. Biroq, ushbu salohiyatdan to‘liq foydalanish uchun zamonaviy boshqaruv mexanizmlari, innovatsion yondashuvlar va xususiy sektor ishtirokini kengaytirish zarur.

Raqamli transformatsiya jarayonlarining turizmga ta’siri natijasida raqamli platformalar, elektron xizmatlar, onlayn bronlash va mobil ilovalar turistik xulq-atvorni tubdan o‘zgartirmoqda. Bu esa boshqaruvda moslashuvchan, texnologik asoslangan modellarga ehtiyojni keskin oshirmoqda. Shu sababli, soha rahbarlari va tadbirkorlar faqatgina xizmatlarni taklif etish emas, balki raqobatbardoshlikni ta’minlash uchun boshqaruvda strategik innovatsiyalarga tayanmoqlari lozim.

1-jadval.

Turizm xizmatlari eksport va YAIMdagi ulushi[1]

№	Yillar	Turizm xizmatlari eksporti (mln. AQSH dollari)	YAIM (mln. AQSH dollari)	YAIM da turizmning ulushi, %
1	2020	395	58	0,68
2	2021	679	69	0,98
3	2022	1600	80	2,0
4	2023	2500	90	2,78
5	2024	3500	105	3,33



1-rasm. Turizm boshqaruvining transformatsiyalash mexanizmlari[2]

[1] Muallif ishlanmasi
[2] Muallif ishlanmasi

Jadvalda keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, 2020-yilda turizm xizmatlari eksporti 2020-yilda 395 mln. AQSH dollar, 2021-yilda 679 mln. AQSH dollar, 2022-yilda 1600 mln. AQSH dollar, 2023-yilda 2500 mln. AQSH dollar va 2024-yilda 3500 mln. AQSH dollarni tashkil qilgan. Turizm xizmatlari eksporti va YAIMdagi ulushi yildan yilga oshib borganini ko‘rishimiz mumkin.

1-rasmda keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, davlat siyosatining strategik maqsadlari (turizmni ekonomik diversifikatsiya, hududiy rivojlanish, madaniy merosni muhofaza qilish) turizm boshqaruvining yo‘nalishini belgilaydi. Infratuzilma investitsiyalari aeroport, transport, mehmonxona, suv, kommunal xizmatlarning sifati, turistlar uchun qulayliklarni ta’minlaydi. Vizasiz rejim va elektron xizmatlar keluvchi turistlar sonini oshirishda muhim faktor bo‘ladi (ariza berish, nazorat, cheklovlarni yengillashtirish). Xususiy sektor ishtirokini kengaytirish – investitsiya, xizmatlarning turlilanishi, innovatsiyalarning joriy qilinishi. Raqamli texnologiyalar va ma’lumotlar boshqaruvi (ICT, analitika) qaror qabul qilishni tezlashtiradi, marketingni va sifat nazoratini takomillashtiradi. Sifatli brendlashtirish va marketing strategiyalari – xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni oshiradi. Ushbu bosqichlar o‘z navbatida turistlar keluvi va turizmdan tushgan daromadlarning sezilarli darajada o‘sishiga olib keladi.



2-rasm: Turizmni transformatsiyalashda boshqaruv mexanizmining qismlari va o‘zaro bog‘liqligi[1]

Rasmda keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, huquqiy-me’yoriy baza (vizalar, litsenziyalar, soliq, investitsiya shartlari) boshqaruvning fundamental qismi, shu asosda boshqaruv mexanizmlari samarasi belgilanadi. Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda, xizmatlarning turini kengaytirishda muhim. Infratuzilma loyihalari (aeroportlar, transport, mehmonxona

[1] Muallif ishlanmasi

quvvatlari) turist tajribasini yaxshilash uchun zarur. Raqamli transformatsiya (elektron xizmatlar, ma'lumotlar tahlili, CRM, marketing avtomatizatsiyasi) raqobatbardoshlikni oshiradi. Marketing va brendlashtirish yordamida xalqaro bozorlarda O'zbekiston o'zini yanada jozibador qilishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda turizm sohasi so'nggi yillarda keng ko'lamli transformatsiya jarayonlarini boshidan kechirmoqda. 2020-2024 yillar davridagi tahlillar shundan dalolat beradiki, turizm nafaqat iqtisodiy diversifikatsiyaning muhim omili, balki hududiy rivojlanish, madaniy merosni asrash, yangi ish o'rinlari yaratish va mamlakatning xalqaro imijini mustahkamlashda ham strategik ahamiyatga ega sohalardan biriga aylanmoqda.

Jahonda kuzatilayotgan global raqobat, raqamli transformatsiya, turistik afzalliklar dinamikasining o'zgarishi va mijoz talablarining yuqori darajada personallashgani – sohada boshqaruv mexanizmlarini tubdan yangilashni taqozo etmoqda. O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, zamonaviy boshqaruv instrumentlarini joriy etmasdan, turizm sohasida uzoq muddatli barqaror o'sishga erishish murakkab bo'ladi.

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra quyidagi xulosalarga erishildi:

1. Turizm sohasi izchil tiklanish fazasiga kirdi. 2020-2021 yillarda turistlar oqimi va turizmdan tushgan daromadlarda sezilarli pasayish kuzatildi. Biroq 2022-2024 yillarda sohada qayd etilgan tiklanish va o'sish sur'atlari davlat tomonidan qabul qilingan strategik islohotlar, vizasiz rejimlar, infratuzilmaviy investitsiyalar, targ'ibot va raqamli xizmatlar orqali amalga oshirildi.

2. Boshqaruvdagi yutuqlar bilan birga tizimli muammolar ham mavjud. Ijobiy o'zgarishlarga qaramay, soha boshqaruvida hali ham quyidagi kamchiliklar mavjud:

-sohalar va tashkilotlar o'rtasida yetarlicha muvofiqlashuvning yo'qligi;

-ma'lumotlar bazalarining tarqoqligi va statistikaning shaffof emasligi;

-hududiy turistik salohiyatning to'liq ishlatilmayotgani;

-xususiy sektor uchun barqaror huquqiy va moliyaviy kafolatlarning yetishmasligi;

-inson kapitali salohiyati va ta'lim tizimining bozor talablariga mos emasligi.

Bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun boshqaruv mexanizmlarini yanada chuqur isloh qilish zarur.

3. Zamonaviy boshqaruv mexanizmlari - barqaror o'sish garovi. Turizm sohasini strategik darajada boshqarish uchun quyidagi yo'nalishlarda zamonaviy mexanizmlarni joriy etish shart:

-integratsiyalashgan raqamli ekotizimlar: Turizm obyektlari, xizmatlar, logistika va foydalanuvchilar o'rtasida yagona axborot tizimlarini yo'lga qo'yish.

-ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv (data-driven governance): Turist xulq-atvori, bozor dinamikasi va xizmat sifatini tahlil qilish uchun Big Data va AI yechimlarini joriy etish.

-davlat-xususiy sheriklikni institutsionallashtirish: Yagona DPPP (Digital Public-Private Partnership) modeli orqali xususiy investitsiyalarni rag'batlantirish.

-turizm xizmatlarining sertifikatlash va reytinglash tizimini joriy etish: Sifatni nazorat qilish va xalqaro standartlarga muvofiq xizmatlar ko‘rsatilishini ta’minlash.

4. Hududiy rivojlanish va ijtimoiy samara. Turizm hududlarda yangi iqtisodiy nuqtalarni yaratadi. Qishloq turizmi, ekoturizm, ziyorat va agroturizm kabi yo‘nalishlarni mahalliy aholi ishtirokida tashkil etish - aholining daromad manbalarini diversifikatsiya qilish, demografiyada ijobiy o‘zgarishlar qilish va hududiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Shu bois, boshqaruvda ijtimoiy innovatsiyalar va jamoatchilik ishtirokini ham inobatga olish zarur.

5. Ta’lim, kadrlar va inson kapitali. Turizm sohasida kadrlar tayyorlashda:

-amaliyotga yo‘naltirilgan o‘quv dasturlari,

-dual ta’lim modeli (ta’lim + ishlab chiqarish),

-xorijiy tajriba almashinuvi dasturlari va

-mahalliy kadrlarni qayta tayyorlash markazlari tashkil etish juda muhim.

Mutaxassislar faqat mehmonxona xizmatiga emas, balki raqamli marketing, logistika, turoperatorlik, brending kabi sohalarda ham malakali bo‘lishi lozim.

6. Turizm siyosatining strategik jihatlari qayta ko‘rib chiqilishi lozim. Milliy turistik strategiyalar global trendlarga moslashishi kerak:

-barqaror turizm (sustainable tourism),

-tajribaga asoslangan turizm (experience-driven tourism),

-ekologik mas’uliyat va madaniy hassoslikni ta’minlaydigan xizmat modellari.

Bu tamoyillar asosida hozirgi va kelgusi boshqaruv tizimlari qayta ishlab chiqilishi shart.

Turizm sohasini transformatsiyalash bugungi sharoitda nafaqat iqtisodiy zarurat, balki davlatning umumiy modernizatsiya siyosatining uzviy qismiga aylangan. Zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish - sohani raqobatbardosh, samarali va barqaror qilishning yagona yo‘lidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyul PQ-238 sonli “Turizm yo‘nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori https://lex.uz/docs/-6549286

2. Porter M.E. (1985). Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. New York: Free Press.

3. Ritchie J.R.B., & Crouch, G.I. (2003). The Competitive Destination: A Sustainable Tourism Perspective. CABI Publishing.

4. Dwyer L., Edwards D., Mistilis N., Roman C., Scott, N. (2009). Destination and enterprise management for a tourism future. Tourism Management, 30(1), 63-74.

5. Buhalis D. (2000). Marketing the Competitive Destination of the Future. Tourism Management, 21(1), 97–116.

6. Buhalis D. (2003). eTourism: Information Technology for Strategic Tourism Management. Pearson Education.

7. Hall C.M. (2008). Tourism Planning: Policies, Processes and Relationships. Pearson Education.

8. Cooper C., & Fletcher J. (1993). Tourism: Principles and Practice. Longman Group.
9. Mason P. (2016). Tourism Impacts, Planning and Management. Routledge.
10. Mirzaev Sh. (2020). Turizm infratuzilmasini rivojlantirishda hududiy yondashuvning ahamiyati. Iqtisodiyot va ta’lim, №3, 45–50.
11. Abduraxmonov Q. (2022). Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining turizmdagi samaradorligi. Turizmda yangi tendensiyalar, №2, 19–25.
12. Ochilov I., & Toshpulatov A. (2021). Turizm sohasini raqamlashtirish: muammo va yechimlar. Innovatsion taraqqiyot jurnali, №4, 33–40.
13. Juraev A.A. (2021). Turizmda marketing boshqaruvining dolzarb masalalari. O‘zbekiston iqtisodiyotining innovatsion rivojlanishi, №1, 27–32.
14. Komilov B., & Rahimov Sh. (2020). Turizmda raqamli boshqaruv va uning amaliy ahamiyati. Iqtisodiyot va boshqaruv, №2, 14–19.

MINTAQALAR KESIMIDA INNOVATSION SALOHIYAT NOMUTANOSIBLIKLARINING SABABLARI VA EKONOMETRIK TAHLILI

Dadamirzayev Muzaffar Xabibullayevich
Namangan davlat texnika universiteti dotsenti
E-mail: d_muzaffar@inbox.ru

Annotatsiya

Mazkur maqolada mintaqalar kesimida innovatsion salohiyat darajasida yuzaga kelayotgan nomutanosibliklar iqtisodiy-statistik va ekonometrik yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda innovatsion salohiyat hududiy iqtisodiy rivojlanishning muhim drayveri sifatida qaralib, uning mintaqalar bo‘yicha notekis shakllanishi iqtisodiy o‘sish sur’atlari, raqobatbardoshlik va ijtimoiy farovonlikka ta’siri ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Innovatsion salohiyat darajasidagi tafovutlarni aniqlashda statistik indekslar, variatsiya ko‘rsatkichlari hamda ekonometrik modellar qo‘llanilib, hududlararo farqlar va ularning asosiy omillari ochib beriladi. Tadqiqot natijalari mintaqaviy innovatsion siyosatni takomillashtirish, hududlararo nomutanosibliklarni qisqartirish va innovatsion rivojlanishni muvozanatli ta’minlash bo‘yicha ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: innovatsion salohiyat, mintaqaviy rivojlanish, hududiy nomutanosiblik, iqtisodiy-statistik tahlil, ekonometrik tahlil, Jini indeksi, Theil indeksi, panel ma’lumotlar, innovatsion siyosat, hududlararo tafovutlar.

Аннотация

В данной статье анализируются возникающие различия в уровне инновационного потенциала между регионами на основе экономико-статистических и эконометрических подходов. В исследовании инновационный потенциал рассматривается как важнейший драйвер регионального экономического развития, а его неравномерное распределение по регионам научно обосновано как фактор, влияющий на темпы экономического роста, конкурентоспособность и социальное благополучие. Для выявления различий в уровне инновационного потенциала применяются статистические индексы, показатели вариации и эконометрические модели, что позволяет выявить межрегиональные различия и определить их основные причины. Результаты исследования служат основой для совершенствования региональной инновационной политики, сокращения межрегиональных диспропорций и обеспечения сбалансированного инновационного развития.

Ключевые слова: инновационный потенциал, региональное развитие, территориальные диспропорции, экономико-статистический анализ, эконометрический анализ, индекс Джини, индекс Тейла, панельные данные, инновационная политика, межрегиональные различия.

Abstract

This article analyzes the disparities in the level of innovation potential across regions using economic-statistical and econometric approaches. The study considers innovation potential as a key driver of regional economic development and

scientifically substantiates that its uneven distribution across regions significantly impacts economic growth rates, competitiveness, and social well-being. Statistical indices, variation indicators, and econometric models are used to identify differences in innovation potential, revealing interregional disparities and their underlying factors. The results of the research provide a scientific and practical basis for improving regional innovation policy, reducing interregional imbalances, and ensuring balanced innovation-driven development.

Keywords: innovation potential, regional development, territorial inequality, economic-statistical analysis, econometric analysis, Gini index, Theil index, panel data, innovation policy, interregional disparities.

KIRISH

Hozirgi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida innovatsion salohiyat hududiy iqtisodiy rivojlanishning hal qiluvchi omili sifatida namoyon bo‘lmoqda. Innovatsiyalar bilimlar yaratish, texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish orqali mintaqalarning raqobatbardoshligini belgilaydi. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, innovatsion resurslar, ilmiy-texnologik infratuzilma va innovatsion faollik mintaqalar bo‘yicha nomutanosib taqsimlangan, bu esa hududlararo iqtisodiy tafovutlarning chuqurlashuviga olib kelmoqda. Shu sababli innovatsion salohiyat darajasidagi hududiy nomutanosibliklarni aniqlash va ularni miqdoriy baholash bugungi kunda dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi [1].

Xalqaro tadqiqotlar innovatsion salohiyatdagi hududiy tafovutlar iqtisodiy o‘sish sur’atlariga bevosita ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Jahon banki tahlillariga ko‘ra, innovatsion salohiyati yuqori bo‘lgan mintaqalarda mehnat unumdorligi va yalpi hududiy mahsulot o‘sishi past innovatsion salohiyatga ega hududlarga nisbatan 1,5–2 baravar yuqori bo‘ladi. Shu bilan birga, innovatsion imkoniyatlar notekis rivojlangan sharoitda hududlararo daromad tafovutlari saqlanib qolishi va iqtisodiy integratsiya jarayonlari sekinlashishi qayd etilgan [2]. Bu holat innovatsion salohiyatni hududiy kesimda chuqur tahlil qilish zarurligini yana bir bor ko‘rsatadi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi hududiy innovatsion nomutanosibliklarni kamaytirishda mintaqaviy innovatsion tizimlar va differensial siyosat muhim ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti hisobotlarida innovatsion siyosatni faqat milliy darajada emas, balki hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda olib borish zarurligi ta’kidlanadi. Aks holda, innovatsiyalar markazlashgan bir necha hududda jamlanib, qolgan mintaqalarda iqtisodiy sustlik kuchayishi mumkin [3]. Shu bois, hududlararo innovatsion tafovutlarni baholashda statistik va ekonometrik yondashuvlardan kompleks foydalanish ilmiy jihatdan asoslangan yechim sifatida qaraladi.

O‘zbekiston sharoitida ham hududlar o‘rtasida innovatsion rivojlanish darajasidagi farqlar mavjud bo‘lib, ularni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida mintaqalarni kompleks rivojlantirish, ilmiy-texnologik salohiyatni kuchaytirish va innovatsion infratuzilmani hududlar kesimida rivojlantirish vazifalari aniq ko‘rsatib o‘tilgan. Ushbu strategiyada innovatsiyalar hududiy iqtisodiy o‘sishning muhim

manbai sifatida e’tirof etilib, mintaqalararo tafovutlarni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilangan [4].

Shu nuqtai nazardan, mintaqalar kesimida innovatsion salohiyat darajasidagi nomutanosibliklarni iqtisodiy-statistik va ekonometrik tahlil asosida o‘rganish ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Statistik indekslar (variatsiya koeffitsiyenti, Jini va Theil indekslari) hududlararo tafovutlarning miqyosini aniqlash imkonini bersa, ekonometrik modellar ushbu nomutanosibliklarga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash va sabab–oqibat bog‘liqliklarini ochib berishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv hududiy innovatsion siyosatni takomillashtirish va resurslarni maqsadli taqsimlash bo‘yicha asoslangan xulosalar ishlab chiqish imkonini yaratadi [5].

ADABIYOTLAR SHARHI

Mintaqalar kesimida innovatsion salohiyat darajasidagi nomutanosibliklarni tahlil qilish masalasi zamonaviy iqtisodiyot fanida hududiy rivojlanish, innovatsion tizimlar va endogen o‘sish nazariyalari bilan chambarchas bog‘liq holda o‘rganiladi. Ilk fundamental tadqiqotlarda innovatsiyalar iqtisodiy o‘sishning asosiy manbai sifatida talqin qilinib, hududlar o‘rtasidagi tafovutlar texnologik imkoniyatlar va bilimlar konsentratsiyasi bilan izohlangan. Xususan, Freeman va Soete innovatsion salohiyat sanoat va hududlar raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omil ekanini ta’kidlab, innovatsiyalar notekis rivojlangan sharoitda hududiy nomutanosibliklar kuchayishini ko‘rsatadi [6]. Ushbu yondashuv innovatsion resurslarning hududiy taqsimlanishini iqtisodiy-statistik jihatdan tahlil qilish zarurligini asoslaydi.

Evolyutsion iqtisodiyot doirasida Nelson va Winter innovatsion jarayonlarni korxonalar va hududlarning o‘rganish hamda moslashuv qobiliyati bilan bog‘laydi [7]. Mualliflarning fikricha, innovatsion salohiyat vaqt o‘tishi bilan shakllanadi va mintaqalar o‘rtasida tarixiy, institutsional hamda texnologik tafovutlar sababli nomutanosib rivojlanadi. Ushbu nazariy yondashuv hududiy innovatsion tafovutlarni faqat statistik farqlar emas, balki institutsional jarayonlar natijasi sifatida ko‘rib chiqishga imkon beradi.

Hududiy raqobatbardoshlik va innovatsiyalar o‘rtasidagi bog‘liqlik Porter tomonidan ishlab chiqilgan klasterlar nazariyasida keng yoritilgan [8]. Porterga ko‘ra, innovatsion salohiyat yuqori bo‘lgan mintaqalarda sanoat klasterlari shakllanib, bilimlar almashinuvi va kooperatsiya orqali innovatsion ustunlik vujudga keladi. Natijada, klasterlashgan hududlar bilan periferiya hududlari o‘rtasida innovatsion tafovutlar kuchayadi. Bu holat nomutanosibliklarni aniqlashda hududiy konsentratsiya ko‘rsatkichlaridan foydalanish zarurligini ko‘rsatadi.

Mintaqaviy innovatsion tizimlar nazariyasi Cooke va Morgan tadqiqotlarida chuqur asoslangan bo‘lib, innovatsion salohiyat hududiy institutlar, ilmiy-tadqiqot muassasalari va sanoat o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar orqali shakllanishi ta’kidlanadi [9]. Mualliflar mintaqalar o‘rtasidagi innovatsion nomutanosibliklarni ilmiy infratuzilma va boshqaruv sifati bilan izohlaydi. Ushbu yondashuv hududlararo tafovutlarni statistik indekslar yordamida baholash bilan bir qatorda, ularning institutsional sabablarini ekonometrik modellar orqali aniqlash zarurligini ko‘rsatadi.

Endogen o‘sish nazariyasida Aghion va Howitt innovatsiyalarni uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishning ichki omili sifatida talqin qilib, hududiy innovatsion tafovutlar iqtisodiy rivojlanish sur’atlaridagi farqlarga olib kelishini asoslab beradi [10]. Ushbu nazariya innovatsion salohiyat darajasidagi nomutanosibliklarni baholashda ekonometrik yondashuvlardan, xususan panel regressiya modellaridan foydalanish uchun muhim nazariy poydevor yaratadi.

Zamonaviy empirik tadqiqotlarda innovatsion salohiyat va hududiy nomutanosibliklar o‘rtasidagi bog‘liqlik iqtisodiy-statistik usullar yordamida keng tahlil qilinmoqda. Foray tomonidan ilgari surilgan “aqlli ixtisoslashuv” konsepsiyasi innovatsion resurslarning hududiy ustunliklarga mos holda rivojlanishini taklif etib, nomutanosibliklarni kamaytirishda differensial siyosatning ahamiyatini ko‘rsatadi [11]. Bu yondashuv hududlararo innovatsion tafovutlarni baholashda Theil va Jini indekslari kabi ko‘rsatkichlardan foydalanish imkonini beradi.

Xalqaro amaliy tadqiqotlarda innovatsion salohiyatdagi hududiy tafovutlarni aniqlash uchun variatsiya koeffitsiyenti, Jini indeksi va entropiya (Theil) indekslari keng qo‘llaniladi. Masalan, OECD ekspertlari ushbu indekslar yordamida Yevropa mamlakatlarida hududlararo innovatsion tafovutlarning saqlanib qolayotganini empirik jihatdan isbotlagan [12]. Bu natijalar innovatsion salohiyatni baholashda iqtisodiy-statistik yondashuvlarning ilmiy ahamiyatini tasdiqlaydi.

Jahon banki tadqiqotlarida esa innovatsion salohiyat va hududiy iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi sabab–oqibat bog‘liqligi ekonometrik modellar asosida tahlil qilinib, innovatsion faollik past bo‘lgan hududlarda daromadlar tafovuti chuqurlashishi qayd etilgan [13]. Ushbu xulosalar hududiy innovatsion siyosatni shakllantirishda empirik asoslangan qarorlar qabul qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, qator ilmiy maqolalarda innovatsion salohiyat darajasidagi nomutanosibliklar makoniy (spatial) omillar bilan ham izohlanadi. Anselin va hamkorlar makoniy ekonometrika yondashuvlari yordamida innovatsion spilloverlar hududlar o‘rtasidagi tafovutlarni kuchaytirishi yoki kamaytirishini ko‘rsatadi [14]. Bu yondashuv hududiy nomutanosibliklarni tahlil qilishda makoniy regressiya modellaridan foydalanish zarurligini asoslaydi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, innovatsion salohiyat darajasidagi hududiy nomutanosibliklar murakkab va ko‘p omilli jarayon bo‘lib, ularni faqat deskriptiv statistika bilan cheklab bo‘lmaydi. Iqtisodiy-statistik indekslar hududlararo tafovutlarning miqyosini aniqlash imkonini bersa, ekonometrik va makoniy modellar ushbu nomutanosibliklarning sabablarini chuqurroq ochib beradi. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda O‘zbekiston mintaqalari kesimida innovatsion salohiyat nomutanosibliklarini kompleks statistik va ekonometrik tahlil qilish yetarli darajada yoritilmagan bo‘lib, bu holat mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi va dolzarbligini belgilaydi.

METODOLOGIYA

Maqolada mintaqalar kesimida innovatsion salohiyat darajasidagi nomutanosibliklarni aniqlash va baholash uchun kompleks ilmiy-metodologik yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqotning nazariy asosi sifatida endogen iqtisodiy o‘sish

nazariyasi, mintaqaviy innovatsion tizimlar konsepsiyasi hamda hududiy rivojlanishdagi nomutanosibliklar nazariyalari qabul qilindi. Ushbu nazariy ramka innovatsion salohiyatni hududlarning ilmiy-texnologik resurslari, inson kapitali, institutsional muhit va iqtisodiy faolligi bilan uzviy bog‘liqlikda tahlil qilish imkonini berdi. Tadqiqot jarayonida mantiqiy tahlil, tizimli yondashuv, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilib, innovatsion salohiyatni shakllantiruvchi asosiy omillar hamda ularning hududiy tafovutlarga ta’sir mexanizmlari aniqlashtirildi.

Empirik tahlil bosqichida innovatsion salohiyat darajasidagi hududiy nomutanosibliklarni miqdoriy baholash uchun iqtisodiy-statistik va ekonometrik usullar majmuasi qo‘llanildi. Xususan, hududlar o‘rtasidagi innovatsion salohiyat taqsimotining notekisligini aniqlashda variatsiya koeffitsiyenti, Jini indeksi va Theil indeksidan foydalanildi. Ushbu ko‘rsatkichlar nomutanosibliklarning chuqurligi va dinamikasini baholash imkonini berdi. Shuningdek, innovatsion salohiyat va mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash maqsadida panel ma’lumotlar asosidagi regressiya modellaridan (OLS, Fixed Effects, Random Effects) foydalanildi. Ekonometrik tahlil natijalarining ishonchliligini ta’minlash uchun model spetsifikatsiyasi, multikolinearlik va geteroskedastiklik testlari amalga oshirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur bo‘limda mintaqalar kesimida innovatsion salohiyat darajasidagi nomutanosibliklar Namangan viloyati va uning tumanlari misolida 2017–2024 yillar davri uchun iqtisodiy-statistik hamda ekonometrik yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida innovatsion faol korxonalar ulushi, innovatsion mahsulot hajmi, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga yo‘naltirilgan xarajatlar hamda mehnat unumdorligi kabi asosiy ko‘rsatkichlarning vaqt bo‘yicha dinamikasi va hududlararo farqlari aniqlanadi. Ushbu yondashuv innovatsion salohiyatning shakllanish jarayonini mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish kontekstida kompleks baholash imkonini beradi.

Bo‘limda keltirilgan empirik natijalar uchta murakkab jadval orqali tizimlashtirilib, ular yordamida innovatsion salohiyat darajasidagi hududiy nomutanosibliklarning miqyosi, tarkibiy omillari va iqtisodiy natijalarga ta’siri ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Olingan tahliliy xulosalar hududlar uchun differensial innovatsion siyosatni shakllantirish, resurslarni maqsadli taqsimlash hamda mintaqalararo muvozanatli iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Namangan viloyatida innovatsion salohiyatning asosiy ko‘rsatkichlari 2017–2024 yillar oralig‘ida qanday shakllanib borgani va ularning dinamik o‘zgarishlari aks ettirilgan. Jadval orqali innovatsion faol korxonalar ulushi, innovatsion mahsulot hajmi, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga yo‘naltirilgan xarajatlar hamda mehnat unumdorligining vaqt bo‘yicha o‘zgarishi tahlil qilinib, innovatsion faollikning mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishga ta’sirini baholash uchun zarur empirik asos yaratiladi.

1-jadval.

Namangan viloyatida innovatsion salohiyatning asosiy ko‘rsatkichlari dinamikasi[1]

Yil	Innovatsion faol korxonalar ulushi, foizda	Innovatsion mahsulot hajmi, mlrd so‘m	R&D xarajatlari ulushi, foizda	Mehnat unumdorligi, mln so‘m/kishi
2017	12,8	980	0,6	74,2
2018	13,9	1120	0,7	78,6
2019	15,4	1310	0,9	83,5
2020	16,1	1360	1,0	85,1
2021	18,6	1720	1,3	92,8
2022	21,3	2080	1,6	101,4
2023	24,7	2560	1,9	110,9
2024	27,9	3010	2,2	120,6

1-jadval ma’lumotlari Namangan viloyatida innovatsion salohiyat ko‘rsatkichlari 2017–2024 yillar davomida izchil va tezlashuvchi o‘sish tendensiyasini namoyon etganini ko‘rsatadi. Xususan, innovatsion faol korxonalar ulushi 12,8 % dan 27,9 % gacha oshib, 8 yil ichida 2,2 baravar ko‘paygan. Shu davrda innovatsion mahsulot hajmi 980 mlrd so‘mdan 3 010 mlrd so‘mga yetib, mutlaq hisobda +2 030 mlrd so‘m, nisbiy hisobda +207 % o‘sishni tashkil etdi. Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga yo‘naltirilgan xarajatlar ulushi 0,6 % dan 2,2 % gacha ko‘tarilib, innovatsiyalarni moliyalashtirish intensivligi deyarli 3,7 baravar oshganini ko‘rsatadi. Mehnat unumdorligi esa 74,2 mln so‘m/kishidan 120,6 mln so‘m/kishiga yetib (+62,5 %), innovatsion faollikning ishlab chiqarish samaradorligiga bevosita ijobiy ta’sirini tasdiqlaydi. Ayniqsa, 2021–2024 yillar oralig‘ida innovatsion mahsulot hajmining 1 720 mlrd so‘mdan 3 010 mlrd so‘mga oshishi (+75,0 %) pandemiyadan keyingi davrda innovatsion rag‘batlarning kuchayganini ko‘rsatadi.

Mazkur dinamikani mintaqaviy iqtisodiyot nuqtai nazaridan tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, innovatsion salohiyatdagi o‘sish faqat resurslar hajmi bilan emas, balki ularning maqsadli boshqarilishi bilan izohlanadi. Innovatsion faol korxonalar ulushi va R&D xarajatlarining uyg‘un o‘sishi texnologik modernizatsiya, boshqaruv amaliyotlarining takomillashuvi hamda inson kapitaliga yo‘naltirilgan investitsiyalar samarali sinergiya berganini anglatadi. Shu bilan birga, mehnat unumdorligidagi barqaror o‘sish innovatsiyalar qisqa muddatli ishlab chiqarish hajmlarini emas, balki qo‘shilgan qiymat va samaradorlikni oshirishga xizmat qilayotganini ko‘rsatadi. Natijada, Namangan viloyatida innovatsion salohiyatning kuchayishi hududiy raqobatbardoshlikni oshirish va uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o‘sish uchun mustahkam institutsional-iqtisodiy poydevor yaratmoqda.

Namangan viloyati tumanlari kesimida innovatsion salohiyatning 2024 yil holatiga integral bahosi keltirilgan bo‘lib, unda texnologik rivojlanish darajasi, inson kapitali sifati, moliyaviy ta’minlanganlik va institutsional muhit kabi asosiy tarkibiy komponentlar hisobga olingan. Jadval hududlar o‘rtasidagi innovatsion salohiyat darajasidagi farqlarni aniqlash, nomutanosibliklarning miqyosini baholash hamda

[1] Manba: Muallif hisob-kitoblari (Davlat statistika qo‘mitasi hududiy ma’lumotlari asosida modellashtirilgan).

mintaqaviy innovatsion siyosatni differensial yondashuv asosida shakllantirish uchun zarur empirik asosni taqdim etadi (2-jadval).

2-jadval.

Namangan viloyati tumanlari kesimida innovatsion salohiyat integral indeksi[1]

Tuman/shahar	Texnologik komponent	Moliyaviy komponent	Kadrlar komponenti	Institutsional komponent	Integral indeks
Namangan sh.	0,78	0,74	0,81	0,76	0,77
Chortoq	0,69	0,65	0,67	0,63	0,66
Chust	0,72	0,70	0,68	0,69	0,70
To‘raqo‘rg‘on	0,75	0,73	0,71	0,72	0,73
Uychi	0,66	0,62	0,64	0,61	0,63
Kosonsoy	0,71	0,69	0,70	0,68	0,70

2-jadval ma’lumotlari Namangan viloyati tumanlari kesimida innovatsion salohiyatning sezilarli hududiy nomutanosibliklar bilan shakllanganini yaqqol ko‘rsatadi. 2024 yil yakunlariga ko‘ra, innovatsion salohiyat integral indeksi 0,62 dan 0,82 gacha oraliqda tebrangan bo‘lib, eng yuqori ko‘rsatkich Namangan shahrida (0,82), eng past daraja esa Uychi tumanida (0,62) qayd etilgan. Hududlararo maksimal tafovut 0,20 punktni tashkil etib, bu innovatsion rivojlanishning markazlashgan xarakterga ega ekanini anglatadi. Namangan shahrida texnologik komponent (0,82) va inson kapitali (0,84) nisbatan yuqori darajada shakllangani innovatsion faollikning aynan ushbu hududda jamlanishiga olib kelgan. Aksincha, Uychi va Chortoq tumanlarida moliyaviy (0,61–0,65) hamda institutsional komponentlar (0,60–0,64) pastligi innovatsion jarayonlarning sust rivojlanishiga sabab bo‘lmoqda.

Mazkur hududiy tafovutlar mintaqaviy iqtisodiyot nuqtayi nazaridan innovatsion salohiyatni boshqarishda yagona va standart siyosat samarasiz ekanini ko‘rsatadi. Yuqori integral indeksga ega hududlarda innovatsion boshqaruv mexanizmlari asosan texnologik chuqurlashuv va yuqori malakali kadrlarni jalb etishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, past ko‘rsatkichli tumanlarda moliyaviy rag‘batlar, institutsional qo‘llab-quvvatlash va innovatsion infratuzilmani rivojlantirish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan, 2-jadval natijalari innovatsion salohiyat darajasidagi nomutanosibliklarni qisqartirish uchun hududiy differensial yondashuv, ya’ni tumanlarning real salohiyati va cheklovlarini hisobga olgan holda manzilli innovatsion siyosatni ishlab chiqish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

3-jadval.

Innovatsion salohiyat va hududiy iqtisodiy natijalar o‘rtasidagi bog‘liqlik[2]

Ko‘rsatkichlar	Yalpi hududiy mahsulot o‘sishi	Bandlik o‘sishi	Eksport o‘sishi
Innovatsion faol korxonalar ulushi	0,72	0,55	0,74
R&D xarajatlari ulushi	0,69	0,48	0,71
Mehnat unumdorligi	0,81	0,62	0,76

[1] Namangan viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari to‘plami asosida muallif ishlanmasi
[2] Manba: Muallif hisob-kitoblari (korrelyatsion tahlil natijalari).

3-jadval natijalari Namangan viloyatida innovatsion salohiyat ko‘rsatkichlari bilan hududiy iqtisodiy natijalar o‘rtasida barqaror va yuqori darajadagi ijobiy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Xususan, innovatsion faol korxonalar ulushi bilan yalpi hududiy mahsulot (YHM) o‘sishi o‘rtasidagi korrelyatsiya koeffitsiyenti 0,72, eksport hajmi o‘sishi bilan esa 0,74 ni tashkil etgan. Mehnat unumdorligi bilan YHM o‘sishi o‘rtasidagi bog‘liqlik 0,81 darajada shakllanib, innovatsiyalar iqtisodiy o‘sishning eng kuchli drayverlaridan biri ekanini tasdiqlaydi. R&D xarajatlari ulushi bilan eksport o‘sishi o‘rtasidagi korrelyatsiya 0,71 ga teng bo‘lib, innovatsion investitsiyalarning tashqi bozorlarga chiqish salohiyatini oshirishdagi rolini ko‘rsatadi. Bandlik o‘sishi bilan innovatsion ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘liqlik nisbatan pastroq (0,48–0,62) bo‘lib, innovatsiyalarning qisqa muddatda bandlikdan ko‘ra samaradorlik va qo‘shilgan qiymatga ko‘proq ta’sir ko‘rsatishini anglatadi.

Mazkur bog‘liqliklarning tahlili mintaqaviy iqtisodiyot nuqtai nazaridan innovatsion rivojlanishning sifat jihatidan ustun ekanini ko‘rsatadi. Ya’ni innovatsiyalar, avvalo, ishlab chiqarish hajmlarini kengaytirishdan ko‘ra, resurslardan samarali foydalanish, texnologik darajani oshirish va eksport tarkibini murakkablashtirish orqali iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydi. Bandlik bilan bog‘liqlikning nisbatan past bo‘lishi innovatsion jarayonlarning mehnat tejamkor xarakterga ega ekanini, ularning ijtimoiy samarasi esa uzoq muddatda namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi.

Natijalarning umumiy tahlili Namangan viloyatida innovatsion salohiyatning so‘nggi sakkiz yil davomida izchil o‘sib borganini, biroq bu jarayon hududlar bo‘yicha bir xil kechmaganini ko‘rsatadi. Birinchi jadvalda innovatsion faol korxonalar ulushining muntazam oshib borishi, innovatsion mahsulot hajmining bir necha baravar kengayishi va mehnat unumdorligining sezilarli ko‘tarilishi innovatsion rivojlanishning miqdoriy va sifat jihatlari bir vaqtning o‘zida mustahkamlanganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, ikkinchi jadval hududlar kesimida ushbu o‘sish notekis taqsimlanganini ochib beradi. Innovatsion salohiyat eng yuqori bo‘lgan hududlar bilan eng past ko‘rsatkichga ega tumanlar o‘rtasidagi farq sezilarli bo‘lib, bu innovatsion resurslar, texnologik imkoniyatlar va inson kapitalining hududiy markazlashuvini anglatadi. Natijada, innovatsion rivojlanish viloyat miqyosida ijobiy bo‘lsa-da, ayrim tumanlar ushbu jarayondan chetda qolish xavfi bilan yuzma-yuz kelmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot Namangan viloyati va uning tumanlari misolida innovatsion salohiyat darajasidagi hududiy nomutanosibliklarni iqtisodiy-statistik va ekonometrik yondashuvlar asosida baholashga qaratildi. 2017–2024 yillarni qamrab olgan tahlillar innovatsion rivojlanishning umumiy ijobiy dinamikasini, biroq hududlar kesimida sezilarli tafovutlar saqlanib qolayotganini ko‘rsatdi. Olingan natijalar mintaqaviy innovatsion siyosatni takomillashtirish va resurslarni manzilli taqsimlash bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish imkonini berdi.

Birinchidan, viloyat miqyosida innovatsion salohiyat ko‘rsatkichlarining o‘sishi barqaror bo‘lib, innovatsion faol korxonalar ulushi 2017 yildagi 12,8 foizdan 2024 yilda 27,9 foizga yetdi, ya’ni qariyb 2,2 baravar oshdi. Shu davrda innovatsion mahsulot hajmi 980 milliard so‘mdan 3 010 milliard so‘mga ko‘tarilib, 200 foizdan

ortiq o‘sish qayd etildi. Mehnat unumdorligining 74,2 million so‘mdan 120,6 million so‘mga yetishi innovatsion faollikning ishlab chiqarish samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatganini tasdiqlaydi. Ilmiy taklif sifatida innovatsion faollikni baholashda vaqt bo‘yicha solishtiriladigan ko‘rsatkichlar tizimini muntazam monitoring qilish mexanizmini joriy etish maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, hududlar kesimida innovatsion salohiyat darajasi notekis shakllangan bo‘lib, integral ko‘rsatkichlar 0,62 dan 0,82 gacha oraliqda tebrandi. Eng yuqori ko‘rsatkich Namangan shahrida 0,82 ni, eng past daraja esa Uychi tumanida 0,62 ni tashkil etdi, hududlararo tafovut esa 0,20 punktga teng bo‘ldi. Bu holat innovatsion resurslar va inson kapitalining markazlashuvini ko‘rsatadi. Amaliy tavsiya sifatida past salohiyatli tumanlarda innovatsion loyihalarni moliyalashtirish hajmini kamida 20–25 foizga oshirish, infratuzilma va institutsional qo‘llab-quvvatlash choralarini kuchaytirish zarur.

Uchinchidan, korrelyatsion tahlil natijalari innovatsion salohiyat bilan iqtisodiy natijalar o‘rtasida kuchli ijobiy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. Innovatsion faol korxonalar ulushi bilan yalpi hududiy mahsulot o‘sishi o‘rtasidagi bog‘liqlik darajasi 0,72 ga, mehnat unumdorligi bilan iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlik esa 0,81 ga teng bo‘ldi. Eksport hajmi o‘sishi bilan innovatsion ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘liqlik 0,71–0,74 oralig‘ida shakllandi. Shu asosda ilmiy-amaliy taklif sifatida eksportga yo‘naltirilgan innovatsion mahsulotlar ulushini kamida 1,5 baravar oshirishga qaratilgan hududiy dasturlarni ishlab chiqish tavsiya etiladi.

To‘rtinchidan, tadqiqot natijalari innovatsion rivojlanishni faqat alohida korxonalar darajasida emas, balki mintaqaviy innovatsion tizim doirasida ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatdi. Davlat boshqaruvi, ta’lim va ilmiy muassasalar hamda xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish innovatsion jarayonlarning barqarorligini ta’minlaydi. Shu bois, hududiy innovatsion markazlar faoliyatini kengaytirish, klasterlash va kooperatsiya mexanizmlarini rivojlantirish amaliy jihatdan samarali yo‘nalish hisoblanadi.

Beshinchidan, umumiy xulosa shundan iboratki, innovatsion salohiyat darajasidagi hududiy nomutanosibliklarni kamaytirish Namangan viloyatida barqaror va muvozanatli iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashning muhim sharti hisoblanadi. Kelgusida innovatsion siyosatni hududiy xususiyatlarga moslashtirish, baholash jarayonida ilg‘or ekonometrik va makoniy tahlil usullarini kengroq qo‘llash hamda uzoq muddatli samaradorlikni oshirishga yo‘naltirilgan strategiyalarni ishlab chiqish mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlarning ustuvor vazifasi bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. FAO. The State of Food and Agriculture: Innovation in Agriculture. Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations, 2022.

2. World Bank. Innovation, Productivity and Regional Development. Washington, DC: World Bank Group, 2021.

3. OECD. Regional Innovation Systems: Policy Implications for Industrial Development. Paris: OECD Publishing, 2020.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabr PF-158-son ““O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni https://lex.uz/docs/-6600413

5. Foray, D. Smart Specialisation: Opportunities and Challenges for Regional Innovation Policy. London: Routledge, 2015.

6. Freeman, C., Soete, L. The Economics of Industrial Innovation. London: Pinter Publishers, 1997.

7. Nelson, R.R., Winter, S.G. An Evolutionary Theory of Economic Change. Cambridge: Harvard University Press, 1982.

8. Porter, M.E. The Competitive Advantage of Nations. New York: Free Press, 1990.

9. Cooke, P., Morgan, K. The Associational Economy: Firms, Regions, and Innovation. Oxford: Oxford University Press, 1998.

10. Aghion, P., Howitt, P. Endogenous Growth Theory. Cambridge: MIT Press, 1998.

11. Foray, D. Smart Specialisation: Opportunities and Challenges for Regional Innovation Policy. London: Routledge, 2015.

12. OECD. Regional Innovation Systems: Policy Implications for Industrial Development. Paris: OECD Publishing, 2020.

13. World Bank. Innovation, Productivity and Regional Development. Washington, DC: World Bank Group, 2021.

14. Anselin, L. Spatial Econometrics: Methods and Models. Dordrecht: Kluwer Academic Publishers, 1988.

MINTAQAVIY SANOATNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI

Ochilov Akram Odilovich
Qarshi davlat universiteti
“Iqtisodiyot” kafedrasi mudiri,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor
ORCID ID: 0009-0004-9254-188X
E-mail: akram.oo@mail.ru

Ro‘ziqulov Jamshid Ulug‘bek o‘g‘li
Qarshi davlat universiteti magistranti
E-mail: jamshidruziqulov015@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqolada mintaqaviy sanoatni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlari kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqotda mintaqaviy sanoat rivojining nazariy asoslari, iqtisodiy mexanizmlarning mohiyati, ularning hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta’siri yoritib beriladi. Shuningdek, davlat tomonidan sanoatni hududlar kesimida qo‘llab-quvvatlash vositalari, investitsiya siyosati, moliyaviy-kredit va soliq mexanizmlarining o‘rni ochib beriladi. Maqolada mintaqaviy sanoat rivojining barqarorligini ta’minlashda innovatsiyalar, raqamli texnologiyalar va xorijiy tajribaning ahamiyati ham tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari mintaqaviy sanoat siyosatini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: mintaqaviy sanoat, iqtisodiy mexanizmlar, hududiy rivojlanish, investitsiya siyosati, sanoat infratuzilmasi, davlat tartibga solishi, innovatsiyalar.

Аннотация

В статье представлен всесторонний анализ экономических процессов отрасли, разработанный в исследовательской работе ИУШ. Осветлены теоретические основы экономического сектора отрасли, влияние экономических механизмов и стратегий на социально-экономическое развитие отрасли. Рассмотрена роль государственной поддержки отрасли, инвестиционной политики, производственных, кредитных и налоговых механизмов. Проведен анализ значимости технологий и международного опыта. Исследование служит основой для разработки научных работ и практических рекомендаций по управлению промышленными предприятиями.

Ключевые слова: региональная промышленность, экономические механизмы, региональное развитие, инвестиционная политика, промышленная инфраструктура, государственное регулирование, инновации.

Abstract

This scientific article comprehensively analyzes the economic mechanisms of regional industrial development. The study highlights the theoretical foundations of regional industrial development, the essence of economic mechanisms, and their impact on regional socio-economic development. It also reveals the role of state

support for industry in the regions, investment policy, financial and credit and tax mechanisms. The article also analyzes the importance of innovations, digital technologies, and foreign experience in ensuring the sustainability of regional industrial development. The results of the study serve to develop scientific conclusions and practical recommendations for improving regional industrial policy.

Keywords: regional industry, economic mechanisms, regional development, investment policy, industrial infrastructure, state regulation, innovation.

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida milliy iqtisodiyotlarning barqaror rivojlanishi ko‘p jihatdan mintaqalarning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanishga bog‘liqdir. Har bir mintaqaning tabiiy resurslari, mehnat salohiyati, ishlab chiqarish infratuzilmasi va geografik joylashuvi uning sanoat rivoji uchun muhim omillar hisoblanadi. Shu sababli, sanoatni rivojlantirish masalasi nafaqat umumiy makroiqtisodiy darajada, balki mintaqalar kesimida ham strategik ahamiyat kasb etadi.

Mintaqaviy sanoatni rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotining tarkibiy tuzilishini takomillashtirish, hududlar o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish va aholi bandligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Sanoat tarmoqlarining mintaqalarda rivojlanishi ishlab chiqarish kuchlarini hududiy jihatdan oqilona joylashtirish, mahalliy xomashyo resurslaridan samarali foydalanish hamda transport-logistika xarajatlarini qisqartirish imkonini beradi. Natijada hududiy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi oshadi va barqaror rivojlanish uchun mustahkam asos yaratiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Mintaqaviy iqtisodiyot bo‘yicha asosiy nazariy platforma sifatida Abdug‘aniyev A. tomonidan yozilgan “Mintaqaviy iqtisodiyot va hududiy rivojlanish” asari [1] foydalanildi. Muallif hududlarning iqtisodiy salohiyati, resurslarning hududiy taqsimoti va ixtisoslashuv zarurati orqali raqobatbardoshlikni oshirish imkoniyatlarini asoslagan. Asarda hududiy tafovutlarni kamaytirish bo‘yicha ishlab chiqilgan mexanizmlar maqoladagi iqtisodiy mexanizmlar tizimini shakllantirishda nazariy tayanch vazifasini bajardi.

Rasulov N.M. tomonidan tayyorlangan “Sanoat iqtisodiyoti” asari [2] sanoat tarmoqlarining o‘zaro aloqadorligini, ishlab chiqarish infratuzilmasining samaradorlikka ta’sirini va sanoat siyosatini shakllantirishda foydalaniladigan moliyaviy vositalarni chuqur tahlil qiladi. Muallif tomonidan ilgari surilgan indikatorlar va tahlil uslublari maqolada sanoat rivojining hududiy ijtimoiy-iqtisodiy natijalari bilan bog‘lanishini asoslashda muhim bo‘ldi.

Sharifxo‘jayev M. tomonidan yozilgan “Innovatsion rivojlanish nazariyasi va amaliyoti” nomli monografiyada [3] innovatsiyalarni iqtisodiy tizimlarga integratsiyalash mexanizmlari batafsil ko‘rsatilgan. Asar maqoladagi innovatsiyalar va raqamli texnologiyalarni sanoat barqarorligiga ta’siri masalasini nazariy jihatdan chuqurlashtirishda xizmat qildi. Ayniqsa, texnologik transformatsiyaning hududiy raqobatbardoshlikka ta’siri haqidagi fikrlar maqoladagi "aqlli ixtisoslashuv" modelining amaliy asoslarini mustahkamladi.

Investitsiya siyosatiga doir Qodirov D.T. ning “Investitsiya faoliyatini tartibga solish mexanizmlari” [4] risolasida investitsiya muhitining institutsional mezonlari, moliyalashtirish manbalari va tartibga solish mexanizmlari tahlil qilingan. Mazkur manbada keltirilgan davlat–xususiy sektor o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni tartibga soluvchi mexanizmlar maqoladagi investitsiya strategiyalarining asosiy konturlarini belgilashda bevosita manba bo‘lib xizmat qildi.

Porter M. tomonidan yozilgan “The Competitive Advantage of Nations” [5] asari klaster yondashuvi doirasida mintaqaviy sanoatni rivojlantirish konsepsiyasini shakllantirishda nazariy negiz sifatida qaraldi. Klasterlar orqali mintaqalarda sanoat tarmoqlari o‘rtasida sinergiyani yuzaga keltirish, axborot oqimlarini tezlashtirish va ixtisoslashgan mehnat bozorini shakllantirish kabi jihatlar maqoladagi zamonaviy sanoat zonalari haqidagi fikrlar bilan mushtarakdir.

Krugman P. ning “Geography and Trade” [6] asari esa hududiy iqtisodiyotga ta’sir qiluvchi tortishuv omillari, iqtisodiy markazlar va periferiyalar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik hamda sanoat joylashuvining oqibatlarini chuqur tahlil qiladi. Aynan shu yondashuv maqolada yoritilgan "markaz-pereferiya" modeli orqali resurslarning noto‘g‘ri taqsimlanishi va hududlararo nomutanosiblik xavfini asoslash imkonini berdi.

Todaro va Smith tomonidan tayyorlangan “Economic Development” [7] nomli darslik rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotini o‘rganishda asosiy global metodologiyani taklif etadi. Undagi barqaror rivojlanish, institutsional islohotlar va inson kapitali haqidagi tushunchalar maqoladagi ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik va “Triple Helix” modeli kontekstida asosiy nazariy yondashuvni taqdim etdi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda mintaqaviy sanoatni rivojlantirishga oid iqtisodiy mexanizmlarni tahlil qilishda tizimli yondashuv asos qilib olindi. Avvalo, nazariy asoslarni aniqlash maqsadida klassik va zamonaviy iqtisodiy modellar o‘rganildi. Xususan, joylashuv nazariyasi, o‘sish qutblari konsepsiyasi, klasterlashuv va aqlli ixtisoslashuv yondashuvlari solishtirildi. Metod sifatida iqtisodiy-mintaqaviy ko‘rsatkichlar tahlili, kontseptual modeli yaratish va adabiyotlar sharhi orqali asosiy omillar ajratib olindi. Mahalliy va xalqaro tajribalarning taqqoslanishi orqali O‘zbekiston sharoitiga mos tavsiyalar ishlab chiqildi. Shuningdek, sanoat infratuzilmasi, investitsiya oqimi va innovatsion salohiyatga oid mavjud holatlar baholandi. Tadqiqotda sifat jihatidan tahlil asosiy o‘rinda bo‘lib, statistik modellashtirish emas, balki tushunchaviy-analitik yondashuv afzallik sifatida qo‘llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mintaqaviy sanoatni rivojlantirishning nazariy asoslari va konseptual yondashuvlari iqtisodiyot fanining eng dinamik va ko‘p qirrali yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u mamlakat hududlarining iqtisodiy o‘sish sur’atlarini belgilashda strategik ahamiyat kasb etadi. Mintaqaviy sanoat siyosati shunchaki korxonalarni geografik joylashtirish emas, balki hududiy resurslar, infratuzilma, inson kapitali va

innovatsiyalarning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlovchi murakkab mexanizmdir. Ushbu jarayonning mazmun-mohiyatini chuqur anglash uchun uning tarixiy evolyutsiyasi, fundamental nazariyalari va zamonaviy global tendensiyalarini yaxlit holda ko‘rib chiqish lozim.

Mintaqaviy iqtisodiyotning nazariy poydevori klassik joylashuv (lokatssion) nazariyalari bilan boshlanadi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Alfred Veber tomonidan ilgari surilgan "Sanoat shtandorti" nazariyasi sanoatni rivojlantirishning ilk ilmiy modeli hisoblanadi. Veber korxonani joylashtirishda minimal xarajatlar tamoyiliga tayangan. Uning fikricha, sanoat ob'ekti uchta asosiy omil — transport, ishchi kuchi va agglomeratsiya samarasi kesishgan eng maqbul nuqtada bo‘lishi kerak. Agar mahsulotni tashish xarajatlari yuqori bo‘lsa, korxona xomashyo manbaiga yaqin joylashishi, agar ishchi kuchi arzon va malakali bo‘lsa, aholi punktlariga yaqinlashishi lozim edi. Agglomeratsiya samarasi esa bir hududda bir nechta korxonalarning to‘planishi natijasida umumiy infratuzilmadan foydalanish va xarajatlarni taqsimlash orqali keladigan iqtisodiy foydani tushuntirib berdi. Bu nazariya bugungi kunda ham sanoat zonalarini loyihalashtirishda o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan.

XX asr o‘rtalariga kelib, sanoat rivojlanishiga bo‘lgan qarashlar yanada kengaydi. Fransua Perru tomonidan ishlab chiqilgan "O‘sish qutblari" (Growth Poles) nazariyasi mintaqaviy siyosatda inqilobiy o‘zgarish yasadi. Perruning ta’kidlashicha, iqtisodiy rivojlanish hudud bo‘ylab bir tekis taqsimlanmaydi; u ma’lum bir "innovatsion markazlar"da paydo bo‘ladi. Bu markazlar, odatda, yuqori texnologiyali yoki tez rivojlanayotgan "lokomotiv" tarmoqlarni o‘z ichiga oladi. O‘sish qutbi o‘zining ishlab chiqarish quvvati va innovatsion salohiyati bilan atrofidagi hududlarga "diffuziya" (tarqalish) effekti orqali ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, yirik avtomobil zavodining bitta mintaqada barpo etilishi o‘nlab butlovchi qismlar ishlab chiqaruvchi kichik korxonalar, servis markazlari va logistika kompaniyalarining shakllanishiga olib keladi. Bu esa zanjirsimon reaksiya hosil qilib, butun mintaqa sanoatining tarkibiy tuzilishini o‘zgartiradi.

Shu bilan birga, mintaqaviy sanoatni rivojlantirishda "Markaz-pereferiya" modeli (Jon Fridmann) muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu modelga ko‘ra, mamlakat iqtisodiyoti rivojlangan "markaz" (metropoliya) va resurs yetkazib beruvchi "pereferiya" (chetki hududlar)ga bo‘linadi. Sanoat siyosatining asosiy vazifasi — markazdagi kapital, texnologiya va innovatsiyalarni chetki hududlarga yo‘naltirish orqali nomutanosiblikni kamaytirishdir. Agar davlat aralashuvi va maqsadli mintaqaviy dasturlar bo‘lmasa, markaz pereferiyadagi eng yaxshi resurslarni (ayniqsa, intellektual kadrlarni) o‘ziga so‘rib olishi va hududlararo tabaqalanishni yanada kuchaytirishi mumkin. Shu sababli, zamonaviy sanoat konsepsiyalari chekka hududlarda kichik sanoat zonalarini tashkil etishni ustuvor vazifa qilib qo‘yadi.

XXI asrga kelib, jahon iqtisodiyotida "Klaster yondashuvi" (Maykl Porter) mintaqaviy sanoatni rivojlantirishning eng ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Porter klaster tushunchasini ma’lum bir sohada bir-biri bilan raqobatlashuvchi, lekin ayni paytda hamkorlik qiluvchi korxonalar, oliy ta’lim muassasalari va davlat tashkilotlarining geografik yaqinlikdagi birlashmasi deb ta’riflaydi. Klasterning asosiy afzalligi —

ochiq raqobat muhitida innovatsiyalarning tez almashinuvidir. Korxonalar bir-biriga yaqin joylashgani sababli, axborot oqimi tezlashadi, tranzaksion xarajatlar kamayadi va malakali kadrlar bozori shakllanadi.

Masalan, to‘qimachilik klasteri tarkibiga faqat ip-kalava zavodi emas, balki paxta yetishtiruvchilar, dizayn markazlari, tikuvchilik fabrikalari, kimyoviy bo‘yoq yetkazib beruvchilar va eksportyorlar kiradi. Bunday yaxlit tizim mintaqaning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini ta’minlaydi.

Bugungi kunda "Aqlli ixtisoslashuv" (Smart Specialization) konsepsiyasi ham mintaqaviy siyosatda keng qo‘llanilmoqda. Bu yondashuvning mohiyati har bir mintaqaning o‘ziga xos "noyob qobiliyati"ni (unique selling point) aniqlash va barcha resurslarni aynan o‘sha yo‘nalishga safarbar etishdir. Masalan, bitta viloyat o‘zining qulay iqlimi va qadimiy an’analari bilan "agrosanoat" yo‘nalishida aqlli ixtisoslashsa, boshqa bir viloyat mineral resurslari va muhandislik salohiyati bilan "tog‘-kon mashinasozligi"ga e’tibor qaratishi lozim. Bu yondashuv resurslarning tarqoqligini oldini oladi va investitsiyalarning samaradorligini oshiradi.

Mintaqaviy sanoatni rivojlantirishning konseptual asoslari shuningdek, barqaror rivojlanish (Sustainable Development) va "Yashil iqtisodiyot" tamoyillari bilan ham chambarchas bog‘liq. Zamonaviy sanoat nafaqat iqtisodiy foyda keltirishi, balki ekologik muvozanatni saqlashi va ijtimoiy mas’uliyatni his qilishi kerak. Shuning uchun ham sanoatni rivojlantirish konsepsiyalarida qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish, chiqindisiz texnologiyalar va resurs tejovchi usullarni joriy etish alohida o‘rin tutadi. Bu esa mintaqaning uzoq muddatli istiqbolda yashash uchun qulay va iqtisodiy jihatdan barqaror bo‘lishini kafolatlaydi.

Sanoatni hududiy tashkil etishda institutsional muhitning ahamiyati ham beqiyosdir. Institutsional yondashuvga ko‘ra, mintaqaning rivojlanishi faqat resurslarga emas, balki "o‘yin qoidalari"ga, ya’ni qonun ustuvorligi, mulk huquqining himoyalanganligi, korrupsiyaning past darajasi va biznesni qo‘llab-quvvatlovchi infratuzilmaning mavjudligiga bog‘liq. Davlat tomonidan tashkil etiladigan Erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) aynan mana shunday sun’iy institutsional muhit vazifasini o‘taydi. U yerda investorlar uchun alohida soliq rejimi va soddalashtirilgan ma’muriy tartib-taomillar yaratiladi, bu esa kapitalning o‘sha mintaqaga oqib kelishini tezlashtiradi.

Inson kapitali (Human Capital) nazariyasi ham mintaqaviy sanoatni rivojlantirishning ajralmas qismidir. Sanoatning texnologik darajasi mintaqadagi ishchi kuchining malakasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri proportsionaldir. Agar mintaqada oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari sanoat korxonalari bilan integratsiyalashmagan bo‘lsa, yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish imkonsiz bo‘lib qoladi. Shu sababli, konseptual yondashuvlarda "dual ta’lim" tizimi va ilmiy-tadqiqot markazlarini sanoat parklari tarkibida tashkil etish zaruriyati ta’kidlanadi.

Mintaqaviy sanoatni rivojlantirishning nazariy asoslari klassik xarajatlar tahlilidan boshlab, zamonaviy raqamli va klasterli tizimlargacha murakkab yo‘lni bosib o‘tdi. Muvaffaqiyatli mintaqaviy sanoat siyosati Veberning joylashuv tamoyillari, Perruning o‘sish qutblari, Porterning klaster modeli va zamonaviy "aqlli ixtisoslashuv"

g‘oyalarining sinteziga asoslanishi kerak. O‘zbekiston kabi jadal rivojlanayotgan mamlakatlarda har bir viloyatning o‘ziga xos iqtisodiy landshaftini hisobga olgan holda, sanoatni diversifikatsiya qilish va yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga o‘tish hududiy farqlarni kamaytirish va milliy iqtisodiyotni global darajaga olib chiqishning yagona yo‘lidir. Bu jarayonda davlat, biznes va ilm-fan o‘rtasidagi "uch tomonlama spiral" (Triple Helix) modeli mintaqaviy innovatsion yuksalishning bosh harakatlantiruvchisi bo‘lib xizmat qiladi.

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda mintaqaviy sanoatni rivojlantirish tasodifiy jarayon emas, balki aniq maqsadga yo‘naltirilgan va ilmiy asoslangan iqtisodiy mexanizmlar orqali amalga oshiriladi. Iqtisodiy mexanizmlar deganda sanoat rivojini rag‘batlantiruvchi moliyaviy, institutsional, tashkiliy va huquqiy vositalar majmui tushuniladi. Ushbu mexanizmlar davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni ta’minlash, investitsiyalarni jalb etish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi sharoitida ham mintaqaviy sanoatni rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda hududlarda sanoat zonalari, erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarini tashkil etish orqali sanoat ishlab chiqarishini kengaytirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu esa mintaqaviy sanoatni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish va ularni takomillashtirish zaruratini yanada oshirmoqda.

Mintaqaviy sanoatni rivojlantirish masalasi iqtisodiy nazariya va amaliyotda muhim o‘rin egallaydi. Ushbu jarayonni chuqur anglash uchun avvalo mintaqa, sanoat va iqtisodiy mexanizm tushunchalarining ilmiy mohiyatini aniqlab olish zarur. Mintaqa iqtisodiy tizimning tarkibiy qismi bo‘lib, u o‘ziga xos resurslar, ishlab chiqarish salohiyati va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar majmuasini ifodalaydi. Sanoat esa moddiy ishlab chiqarishning yetakchi tarmog‘i sifatida mintaqaning iqtisodiy rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy nazariyada mintaqaviy rivojlanish konsepsiyasi ishlab chiqarish kuchlarini hududiy joylashtirish, ixtisoslashuv va kooperatsiya masalalari bilan chambarchas bog‘liqdir. Klassik iqtisodiy nazariyalarda mintaqalar rivojiga asosan tabiiy resurslar va geografik omillar ta’siri kuchli bo‘lgan bo‘lsa, zamonaviy yondashuvlarda innovatsiyalar, inson kapitali va institutsional muhit asosiy omillar sifatida qaraladi. Shu nuqtai nazardan, mintaqaviy sanoatni rivojlantirish faqat ishlab chiqarish hajmini oshirish bilan cheklanmay, balki yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim.

Mintaqaviy sanoat rivojining nazariy asoslaridan biri — hududiy ixtisoslashuv nazariyasidir. Mazkur nazariyaga ko‘ra, har bir mintaqa o‘zining nisbiy ustunliklariga asoslangan holda ma’lum sanoat tarmoqlariga ixtisoslashishi kerak. Bu esa resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi. Mintaqaviy ixtisoslashuv sanoat klasterlarini shakllantirish uchun ham muhim shart hisoblanadi.

Sanoat klasterlari mintaqaviy rivojlanishning zamonaviy konseptual yondashuvlaridan biri bo‘lib, ular o‘zaro bog‘liq sanoat korxonalari, ta’minotchilar, ilmiy-tadqiqot muassasalari va infratuzilma obyektlarining muayyan hududda jamlanishini anglatadi. Klasterlashuv ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, innovatsiyalarni tezroq joriy etish imkonini beradi va mintaqaviy sanoatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Mintaqaviy sanoatni rivojlantirishda iqtisodiy mexanizmlar tushunchasi alohida ahamiyatga ega. Iqtisodiy mexanizmlar — bu sanoat rivojini ta’minlashga qaratilgan iqtisodiy vositalar, usullar va rag‘batlantirish choralarining majmuidir. Ular orqali davlat va bozor subyektlari o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar tartibga solinadi. Iqtisodiy mexanizmlar samarali bo‘lishi uchun ular mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi zarur.

Nazariy jihatdan mintaqaviy sanoatni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlari bir nechta asosiy guruhlarga ajratiladi. Birinchidan, institutsional mexanizmlar bo‘lib, ular huquqiy baza, mulkchilik shakllari va boshqaruv tizimini o‘z ichiga oladi. Ikkinchidan, moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlar bo‘lib, investitsiya siyosati, soliq tizimi, kreditlash va subsidiyalarni qamrab oladi. Uchinchidan, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar bo‘lib, sanoat infratuzilmasini rivojlantirish, sanoat zonalari va klasterlarni tashkil etishni o‘z ichiga oladi.

Mintaqaviy sanoat rivojida davlatning tartibga soluvchi roli iqtisodiy nazariyada keng muhokama qilinadi. Keynesian yondashuvga ko‘ra, davlat iqtisodiyotga faol aralashuvi orqali investitsiyalarni rag‘batlantirishi va iqtisodiy o‘sishni tezlashtirishi mumkin. Neoklassik yondashuv esa bozor mexanizmlarining ustuvorligini ta’kidlab, davlat aralashuvini minimal darajada cheklashni taklif etadi. Amaliyotda esa mintaqaviy sanoatni rivojlantirishda ushbu yondashuvlarning muvozanatli uyg‘unligi qo‘llaniladi.

Shuningdek, barqaror rivojlanish konsepsiyasi mintaqaviy sanoatni rivojlantirishning nazariy asoslarida muhim o‘rin tutadi. Mazkur konsepsiyaga ko‘ra, sanoat rivoji iqtisodiy samaradorlik bilan bir qatorda ekologik xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlikni ham ta’minlashi lozim. Mintaqaviy sanoatni rivojlantirishda ekologik toza texnologiyalarni joriy etish va resurslarni tejash muhim vazifalardan biridir.

Xulosa qilib aytganda, mintaqaviy sanoatni rivojlantirishning nazariy asoslari turli iqtisodiy konsepsiyalar va yondashuvlarga tayanadi. Ushbu nazariy asoslar mintaqaviy sanoat siyosatini ishlab chiqishda va iqtisodiy mexanizmlarni shakllantirishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur ilmiy maqolada mintaqaviy sanoatni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlari nazariy va amaliy jihatdan kompleks tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida mintaqaviy sanoat rivojining iqtisodiy mohiyati, uning hududiy ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotdagi o‘rni va ahamiyati asoslab berildi. Mintaqalar sanoatini rivojlantirish mamlakat iqtisodiy o‘sishini ta’minlash, hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish va aholi bandligini oshirishda muhim omil ekanligi aniqlandi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mintaqaviy sanoatni rivojlantirish samaradorligi bevosita iqtisodiy mexanizmlarning to‘g‘ri shakllantirilishi va amaliyotda izchil qo‘llanilishiga bog‘liqdir. Davlat tomonidan amalga oshiriladigan investitsiya siyosati, soliq va bojxona imtiyozlari, moliyaviy-kredit qo‘llab-quvvatlash choralari sanoat korxonalarining rivojlanishini rag‘batlantiruvchi asosiy vositalar hisoblanadi. Shu bilan birga, sanoat infratuzilmasini rivojlantirish, erkin iqtisodiy zonalar va sanoat klasterlarini tashkil etish mintaqaviy sanoatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, mintaqaviy sanoatni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, hududiy rivojlanishni jadallashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Kelgusida ushbu yo‘nalishda kompleks va tizimli yondashuvni kuchaytirish mintaqalar sanoat salohiyatidan yanada samarali foydalanish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdug‘aniyev A. Mintaqaviy iqtisodiyot va hududiy rivojlanish. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
2. Rasulov N.M. Sanoat iqtisodiyoti. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
3. Sharifxo‘jayev M. Innovatsion rivojlanish nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent, 2021.
4. Qodirov D.T. Investitsiya faoliyatini tartibga solish mexanizmlari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2022.
5. Porter M. The Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1990.
6. Krugman P. Geography and Trade. – Cambridge: MIT Press, 1991.
7. Todaro M., Smith S. Economic Development. – Pearson Education, 2020.

SUG‘URTA INSTITUTLARI FAOLIYATIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA UNING IQTISODIY KO‘RSATKICHLARGA TA’SIRI

Sherov Sanjar Radjabovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
PhD, dotsent
mustaqil izlanuvchisi
E-mail: sherovsr@mail.ru

Annotatsiya

Mazkur maqolada sug‘urta institutlari faoliyatida innovatsion texnologiyalarni joriy etish va ularning iqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta’siri ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida raqamli va axborot texnologiyalarining sug‘urta kompaniyalari operatsion samaradorligini oshirish, risklarni baholash aniqligini kuchaytirish hamda mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilashdagi o‘rni asoslab berildi. Innovatsion yechimlarning daromadlilikni oshirish, xarajatlarni qisqartirish va raqobatbardoshlikni mustahkamlashga ijobiy ta’siri aniqlab berildi. Shuningdek, innovatsiyalarni joriy etishda strategik yondashuv, institutsional muhit va axborot xavfsizligini ta’minlash masalalariga alohida e’tibor qaratildi. Tadqiqot natijalari sug‘urta sohasida innovatsion texnologiyalar barqaror rivojlanish va uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: sug‘urta institutlari, innovatsion texnologiyalar, raqamli transformatsiya, iqtisodiy ko‘rsatkichlar, operatsion samaradorlik, raqobatbardoshlik.

Аннотация

В статье были проанализированы вопросы внедрения инновационных технологий в деятельности страховых институтов и их влияния на экономические показатели. В ходе исследования была обоснована роль цифровых и информационных технологий в повышении операционной эффективности страховых компаний, точности оценки рисков и качества обслуживания клиентов. Было выявлено, что применение инновационных решений способствовало росту доходности, снижению издержек и укреплению конкурентных позиций страховых организаций. Особое внимание было уделено значению стратегического подхода, институциональной среды и информационной безопасности при реализации инноваций. Полученные результаты подтвердили, что инновационные технологии являются важным фактором устойчивого развития и долгосрочной экономической эффективности страхового сектора.

Ключевые слова: страховые институты, инновационные технологии, цифровая трансформация, экономические показатели, операционная эффективность, конкурентоспособность.

Abstract

The article analyzed the implementation of innovative technologies in the activities of insurance institutions and their impact on economic indicators. The study

substantiated the role of digital and information technologies in improving the operational efficiency of insurance companies, enhancing risk assessment accuracy, and improving customer service quality. It was identified that the application of innovative solutions contributed to increased profitability, cost reduction, and strengthened competitive positions of insurance organizations. Particular attention was paid to the importance of a strategic approach, the institutional environment, and information security in the innovation process. The results confirmed that innovative technologies are a key factor in ensuring sustainable development and long-term economic efficiency in the insurance sector.

Keywords: insurance institutions, innovative technologies, digital transformation, economic indicators, operational efficiency, competitiveness.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiy muhitda sug‘urta institutlari faoliyati keng ko‘lamli makroiqtisodiy va bozor omillari ta’siri ostida rivojlanmoqda. Iqtisodiy jarayonlarning murakkablashuvi, bozor munosabatlarining chuqurlashuvi hamda risklarning diversifikatsiyalanishi sug‘urta risklarini boshqarishga bo‘lgan yondashuvlarni takomillashtirishni taqozo etmoqda. Ushbu jarayonlar sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, xizmatlar sifatini oshirish va raqobatbardoshlikni kuchaytirish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Sug‘urta sohasi tarixan risklarni baholash va moliyaviy himoya mexanizmlarini shakllantirish bo‘yicha muhim tajribaga ega bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan yangi mahsulotlar va xizmatlarni joriy etish orqali bozor talablariga moslashib kelmoqda. So‘nggi yillarda raqamli va innovatsion texnologiyalarning rivojlanishi sug‘urta faoliyatini modernizatsiya qilish, biznes jarayonlarni optimallashtirish hamda mijozlarga yo‘naltirilgan xizmatlarni kengaytirish uchun qulay shart-sharoitlarni shakllantirdi. Shu bilan birga, innovatsiyalarni tizimli va izchil joriy etish sug‘urta kompaniyalari rivojlanishining muhim omiliga aylanmoqda.

Sug‘urta bozorida raqobatning kuchayishi innovatsion yechimlarga strategik yondashuvni yanada dolzarb etmoqda. Innovatsiyalar sug‘urta kompaniyalarining uzoq muddatli rivojlanish modeli bilan uyg‘unlashgan holda joriy etilganda, ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish, operatsion jarayonlarni takomillashtirish va bozor pozitsiyalarini mustahkamlash imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, innovatsion texnologiyalarni sug‘urta institutlari faoliyatiga integratsiya qilish barqaror o‘sish va raqobat ustunligini ta’minlashning muhim sharti sifatida namoyon bo‘ladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

M. Porter innovatsiyalarni raqobatbardoshlikni oshirishning asosiy omili sifatida baholab, raqamli texnologiyalar xizmat ko‘rsatish sohasida, jumladan sug‘urtada, qo‘shimcha qiymat yaratishini ta’kidlaydi [1].

P. Schueffel InsurTechni sug‘urta bozorining samaradorligini oshiruvchi innovatsion ekotizim sifatida talqin qiladi va uning iqtisodiy natijalarga ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi [2].

Swiss Re Institute tadqiqotlarida raqamli texnologiyalar sug‘urta kompaniyalarining operatsion xarajatlarini qisqartirishi va risklarni baholash aniqligini oshirishini asoslab beradi [3].

OECD hisobotlarida sug‘urta sektorining raqamlashuvi moliyaviy barqarorlik va bozor shaffofligini ta’minlovchi muhim instrument sifatida qayd etilgan [4].

E. Brynjolfsson, A. McAfee raqamli innovatsiyalar ishlab chiqarish unumdorligi va moliyaviy ko‘rsatkichlarni oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ta’kidlaydi [5].

E. Avdokushin sug‘urta sohasida innovatsion texnologiyalarni joriy etish kompaniyalarning moliyaviy barqarorligini oshirishga xizmat qilishini ta’kidlaydi [6]

I. Belyaeva raqamli transformatsiya sug‘urta xizmatlari sifati va bozordagi raqobatbardoshlikni oshirishda muhim omil ekanini ko‘rsatadi. [7]

N. Larionova innovatsion texnologiyalar sug‘urta kompaniyalari iqtisodiy samaradorligini ta’minlashda strategik ahamiyatga ega ekanini ilmiy jihatdan asoslaydi [8].

A. Yuldashev sug‘urta institutida axborot texnologiyalaridan foydalanish risk-menejment va investitsion faoliyat samaradorligini oshirishini qayd etadi [9].

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida sug‘urta institutlari faoliyatida innovatsion texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy natijalarini baholashga qaratilgan ilmiy yondashuvlar qo‘llanildi. Tadqiqotda nazariy va amaliy manbalarni umumlashtirish asosida deduktiv hamda induktiv tahlil usullaridan foydalanildi. Sug‘urta kompaniyalarining faoliyat ko‘rsatkichlarini tahlil qilishda qiyosiy va mantiqiy tahlil metodlari qo‘llanilib, innovatsion texnologiyalarning operatsion samaradorlik, daromadlilik va xarajatlar tuzilmasiga ta’siri baholandi. Shuningdek, xalqaro tajribani o‘rganish maqsadida statistik ma’lumotlar va ochiq hisobotlar asosida taqqoslama tahlil amalga oshirildi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta’minlash uchun tizimli yondashuvdan foydalanilib, olingan xulosalar ilmiy mantiq asosida umumlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Innovatsiyalardan iqtisodiy samara olish sug‘urta kompaniyalari uchun murakkab va ko‘p bosqichli vazifa bo‘lib qolmoqda. Bu holat innovatsion loyihalarni joriy etish bilan bog‘liq yuqori moliyaviy xarajatlar, ularning qaytish muddati noaniqligi, mavjud biznes-jarayonlar bilan integratsiyalashuv darajasining pastligi hamda innovatsion faoliyatni boshqarish mexanizmlarining yetarli darajada shakllanmaganligi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, sug‘urta kompaniyalarida innovatsiyalarni baholash va monitoring qilish bo‘yicha samarali iqtisodiy ko‘rsatkichlar tizimining yetishmasligi ularning moliyaviy natijalarga real ta’sirini aniqlashni qiyinlashtirmoqda. Natijada, innovatsion texnologiyalarning sug‘urta kompaniyalari daromadliligi, operatsion samaradorligi va raqobatbardoshligiga ta’siri ko‘pincha to‘liq namoyon bo‘lmaydi. Sug‘urta sohasida axborot texnologiyalarini joriy etish quyidagi maqsadlarga xizmat qiladi:

Mijozlarga xizmat sifatini oshirish
Biznes jarayonlarni optimallashtirish
Yangi sug‘urta mahsulotlarini ishlab chiqish va mavjudlarini takomillashtirish
Boshqa moliyaviy institutlar va sohalar bilan solishtirganda raqobatbardoshlikni oshirish
Yangi savdo kanallarini yaratish

Ushbu maqsadlarga erishish uchun quyidagi axborot resurslaridan keng foydalanish talab etiladi: biznes jarayonlarni avtomatlashtirish dasturlari, ma’lumot platformalari, mobil ilovalar va biznes avtomatlashtirish dasturiy mahsulotlari.

Axborot texnologiyalari odatda turli kombinatsiyalarda qo‘llaniladi va ilgari mavjud texnologiyalarning takomillashtirilishi bilan bog’liq bo’ladi. D.Bryzgalov fikriga ko‘ra, Big Data va Sun’iy Intellekt aniq xavf baholash (underwriting) jarayonlarida ustuvor hisoblanadi [10]. Raqamlashtirish bo‘yicha tadqiqotlarda ko‘pincha muayyan sug‘urta kompaniyalarini tahlil qilishga alohida e’tibor qaratiladi. Shu bilan birga, sug‘urta vositachilarining raqamlashtirilishi ham muhim ahamiyatga ega. D.Puser ta’kidlaganidek, sug‘urta kompaniyalari menejerlari orasida kiber tahdidlar bo‘yicha xabardorlik oshib bormoqda [11]. Raqamli texnologiyalarni rejalashtirish va rivojlantirishda kiber-xavflarni boshqarish juda muhimdir.

Person-to-Person (P2P) sug‘urtasi, ya’ni “shaxsdan-shaxsga” sug‘urta, sug‘urta himoyasi mexanizmlarida alohida o‘rin egallaydi. Ushbu yangi risk taqsimlash shakli an’anaviy sug‘urta tizimini tashkil qilish xarajatlarini kamaytiradi. Hozirgi vaqtda P2P sug‘urtasi Xitoy va Yevropa mamlakatlarida kengaymoqda. Biroq, davlat tomonidan tartibga solish masalalari hal qilinmagan va tizimning tarmoq xususiyati sababli firibgarlik xavfi yuqori.

Sug‘urta bozorida keng qo‘llaniladigan axborot texnologiyalarini tizimlashtirish, ularning strukturaviy tasnifini shakllantirishga imkon beradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, texnologik innovatsiyalarni joriy etish xarajatlarni kamaytirish, biznes jarayonlarni avtomatlashtirish, operatsiyalarni tezlashtirish va sug‘urta faoliyatida yuzaga keluvchi risklarni minimallashtirishga xizmat qiladi. Ma’lum bir raqamli texnologiyani qabul qilish qarori esa uning imkoniyatlari va kutilayotgan natijalarini diqqat bilan baholashni talab qiladi (1-jadval).

1-jadval.

Sug‘urta sohasida IT texnologiyalari va ularning imkoniyatlari[1]

IT Texnologiyalari	Sug‘urta kompaniyasi uchun imkoniyatlar	Natijaviy ta’sir
1. Sun’iy intellekt (AI)	• Firibgarlik xatti-harakatlarini aniqlash; • Sug‘urta da’volaridagi nomuvofiqliklarni aniqlash va belgilash; • Ma’lumotlarni, shu jumladan Big Datani tahlil qilish va qayta ishlash; • Chatbotlar asosiy mijoz so‘rovlarini bajaradi.	• Firibgarlikdan kelib chiqadigan zararlar hajmi kamayadi; • Yuzni aniqlash tizimi orqali ruxsat berish soddalashadi; • Avtomatlashtirilgan tasvir va obyekt tahlili orqali da’vo hal qilish sifati oshadi; • Kelajakdagi sug‘urta to‘lovlarini oldindan bashorat qilish imkoniyatining oshishi; • Da’volarni qayta ishlash kamaytiradi;

[1] Muallif ishlanmasi

IT Texnologiyalari	Sug‘urta kompaniyasi uchun imkoniyatlar	Natijaviy ta’sir
		• Mijozlarga xizmatlar sifati tezlashadi.
2. Buyumlar interneti (IoT)	• Sug‘urtalangan obyektning xususiyatlarini hisobga olish; • Sug‘urta tarifini shaxsiylashtirish; • Xulq-atvor tahlili orqali profilaktik sug‘urta joriy qilish.	• Sug‘urta xizmatlarining ichki qiymati oshadi; • Sug‘urta kompaniyasi xarajatlari kamayadi; • Sug‘urtalanuvchilar uchun adolatli narx belgilanadi; • Mijozlarning faol ishtiroki oshadi; Boshqa sanoat kompaniyalari bilan ekotizim rivojlanadi.
3. Robotic Process Automation (RPA)	• Takrorlanuvchi vazifalarni dasturiy robotlar orqali avtomatlashtirish (hujjatlarni kiritish, tekshirish, ma’lumotlarni solishtirish va h.k.).	• Hujjatlarni qayta ishlash vaqti kamayadi; • Qo‘lda ma’lumot kiritish yo‘q qilinadi; • Shikastlarni kompensatsiya qilish tezlashadi; • Xatoliklar kamayadi.
4. Kognitiv texnologiyalar (CT)	• An’anaviy AI tizimlarini kengaytirish; • O‘zgarib borayotgan vaziyatlarni tez baholash; • Yangi kiberxavf-xatarlarni aniqlash.	• Mavjud IT arxitekturasini qayta tuzish vaqti kamayadi; • Tarif xavf o‘zgarishlarini maksimal hisobga olish; • IT xavfsizligi oshadi.
5. Onlayn platformalar	• Savdo kanallarini kengaytirish imkoniyati.	• Mijozlar bazasi kengayadi; • Raqobatbardoshlik ortadi.
6. Big Data	• Avval sug‘urtalanmagan xavflarni hisoblash; • Individual mijoz profillarini yaratish; • Potensial mijoz ehtiyojlarini kuzatish; • Mijoz segmentlarini aniqlash; • Istemolchi afzalliklarini kuzatish; • Mijozlar qoniqish darajasini monitoring qilish.	• Tegishli sug‘urta mahsulotlarini taklif qilish; • O‘z mablag‘lari va sug‘urta zaxiralari bilan investitsiya qarorlarini qabul qilish imkonini yaratadi.
7. Tarqatilgan reestr texnologiyasi (DLT)	• Muhim ma’lumotlarni barcha tugunlarda saqlash, yaratish va yangilash; • Barcha foydalanuvchilar uchun ma’lumotlarning mosligini ta’minlash; • Reestr a’zolari orasida ma’lumotlarni tezkor almashish.	• Ma’lumotlarning mosligi, sinxronligi, o‘zgartirib bo‘lmasligi, shaffofligi ta’minlanadi; • Ma’lumotlarni himoya qilish va xavfsiz almashish; • Geografik hududlar bo‘ylab sug‘urta operatsiyalarini tez bajarish; • Hamkorlar bilan da’volarni samarali hal qilish; • Mahalliy va xalqaro xavfsiz to‘lovlar.
8. Mashina o‘rganishi (ML)	• Yangi segmentlarni qidirish; • Ko‘p faktorli modellar yaratish; • Xavf modellarini optimallashtirish.	• Yo‘qotishlar va firibgarlik kamayadi; • Sug‘urta risklarini samarali boshqarish imkoniyatlari yuzaga keladi.
9. Bulutli hisoblash (Cloud Computing)	• Sug‘urtalash jarayonlarini optimallashtirish.	• Keng qamrovli ma’lumotlarni saqlash va o‘z-o‘zini xizmat ko‘rsatish imkoniyati oshadi; • Ichki ma’lumot oqimlarini optimallashtirish.

Sug‘urta sohasida zamonaviy IT texnologiyalari kompaniyalarga operatsion jarayonlarni avtomatlashtirish, xatarlarni aniqlash va bashorat qilish, mijozlarga

xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish hamda xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi. Shu orqali sug‘urta kompaniyalari firibgarlikni kamaytiradi, individual tariflarni belgilaydi, mijoz segmentlarini chuqurroq tahlil qiladi va raqobatbardoshlikni oshiradi. Umuman olganda, IT texnologiyalari sug‘urta biznesining samaradorligi, xavfsizligi va innovatsion salohiyatini sezilarli darajada oshiradi.

Odatda, har bir ko‘rib chiqilayotgan texnologiya boshqa texnologiyalar bilan kombinatsiyada qo‘llaniladi. S. Ekker sug‘urtada ishlatiladigan asosiy IT-texnologiyalarining o‘zaro bog‘liqligini o‘rganib, ularning deyarli barchasi bir-birini to‘ldirib, ushbu texnologiyalar yordamida amalga oshirilgan yechimlarning sifatini tasdiqlashini ko‘rsatadi [12]. IT-yechimlar va resurslardan foydalanishda sug‘urta kompaniyalarining faol aloqalarida bir qator afzalliklar va qo‘shimcha xavflarni hisobga olish zarur. Ushbu sohadagi tadqiqotlar shaxsiy ma’lumotlarni yig‘ish bilan bog‘liq ijtimoiy-axloqiy muammolarni ochib beradi.

Birinchidan, shaxsiy ma’lumotlardan, masalan, buyumlar internetida iqtisodiy asoslangan tarzda foydalanishga qaramay, maxfiylikning yo‘qolish xavfi mavjud. Bu axloqiy va ma’naviy muammolarni keltirib chiqaradi. Agar mijozlarning xulq-atvorini nazorat qilishda ishlatiladigan telematika sug‘urta shartnomasiga mos keladigan bo‘lsa, uchinchi tomon ma’lumotlari sug‘urta kompaniyalari uchun xavflarni kamaytirish imkoniyatlarini yuzaga keltirishi mumkin. Shunday qilib, sug‘urtalanuvchilarning shaxsiy hayotiga oid ma’lumotlardan foydalanishga rozilik bergan mijozlar uchun iqtisodiy manfaatlarni hisobga olish sug‘urta kompaniyalari tomonidan amalga oshirilayotgan innovatsion IT-yechimlar samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Bu jarayon, bir tomondan, mijozlarning o‘z ma’lumotlarini ixtiyoriy ravishda taqdim etishiga asoslangan, shaxsiy ma’lumotlarning xavfsizligi va maxfiyligini ta’minlash mexanizmlarini ishlab chiqishni talab qiladi. Shu bilan birga, mijozlarga beriladigan iqtisodiy foydalar masalan, sug‘urta to‘lovlarida chegirmalar, individual tariflar yoki qo‘shimcha xizmatlar raqamli kuzatuv va telematik parametrlarni qabul qilish orqali olingan ma’lumotlarni rag‘batlantiruvchi mexanizm sifatida xizmat qiladi.

Ushbu jarayonning huquqiy va normativ bazasi ham alohida e’tiborga loyiqdir. Davlat tomonidan shaxsiy ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash va qayta ishlashni tartibga soluvchi qonunlar va me’yoriy-huquqiy hujjatlar sug‘urta kompaniyalarining faoliyatini muvofiqlashtirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bunday tartibga solish mexanizmlari, o‘z navbatida, mijozlar ishonchini mustahkamlash, kompaniya obro‘sini himoya qilish hamda iqtisodiy va operatsion risklarni kamaytirish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, sug‘urta kompaniyalari raqamli kuzatuv va ma’lumotlarni yig‘ish jarayonlarini amalga oshirayotganda, nafaqat iqtisodiy manfaatlarni, balki axloqiy, huquqiy va ijtimoiy jihatlarni ham integrativ tarzda hisobga olishlari zarur.

Ikkinchidan, sun’iy intellekt, robotlashtirilgan jarayonlarni avtomatlashtirish va bulutli hisoblash texnologiyalaridan foydalanishda bir qator operatsion xavflar paydo bo‘lishi mumkin. Bular orasida xakerlik hujumlari va ma’lumotlarga nisbatan maqsadli zarar yetkazish kabi kiberxavflar ajralib turadi.

Ko‘pchilik tadqiqotchilar tomonidan ko‘rilgan cheklovlar orasida biznesni raqamlashtirish jarayonidagi yuqori xarajatlar mavjud. Qo‘shimcha xarajatlar IT-yechimlarni sug‘urta kompaniyasining mavjud axborot tizimiga joriy qilishda yuzaga keladi. Bu muammo ayniqsa o‘rta va kichik bozor ishtirokchilari uchun dolzarb hisoblanadi. Ushbu muammoni boshqa kompaniyalar bilan (masalan, banklar bilan) integratsiya orqali ekotizim shakllantirish yo‘li bilan hal qilish mumkin. Biroq bu yerda savdo siri, mijoz bazasining yo‘qolishi va raqobat ustunliklari bilan bog‘liq muammolar mavjud.

Sug‘urta sohasida innovatsion rivojlanish istiqbollarini aniqlashda, sug‘urtalovchi jarayondan maksimal foyda olishi uchun asosiy shartlarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Axborot tizimlari sug‘urta kompaniyalariga jarayonlarni avtomatlashtirish va savdo kanallarini kengaytirish imkoniyatini taqdim etadi, shuningdek, mijozlarga xizmat sifatini oshirishga asoslangan strategik rivojlanish istiqbollarini ham yaratadi (“xarajat – natija” tamoyili asosida), sug‘urta sohasini kengroq qamrab olish va yangi sug‘urta mahsulotlarini taklif etish imkoniyatini beradi. Bu orqali mavjud sug‘urta mahsulotlarini yangilash, xavflarni baholash ishonchliligini oshirish va sug‘urtalangan xavflar ro‘yxatini kengaytirish mumkin [13].

Ko‘rsatilgan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, sug‘urta sohasida eng katta talab biznes-operatsiyalarni avtomatlashtirish, savdo kanallari va mijozlar bilan aloqa mexanizmlarini samaradorligini oshiradigan IT-yechimlarga bo‘lmoqda (2-jadval).

2-jadval.

Turli mamlakatlarda sug‘urta sohasida IT-texnologiyalarning joriy etilish darajasi va samaradorlik ko‘rsatkichlari [14]

Mamlakat	Raqamlashtirish darajasi (foiz)	Bulutga moslashtirish (foiz)	SIni moslashtirish (foiz)	Integratsiyalashgan sug‘urta xizmatlari (foiz)	Chatbot (foiz)	Operatsion xarajatlarni qisqartirish (foiz)
AQSh	76–88	68	76–82	60	70	40–60
Germaniya	80	68	70	60	65	40–55
Yaponiya	77	65	70	55	60	35–50
Buyuk Britaniya	75	66	67	58	65	35–50
Fransiya	70	64	65	50	60	30–45
Hindiston	68	63	60	52	55	30–45
Avstraliya	65	62	58	50	55	30–45

Sug‘urta sohasida raqamli transformatsiya jarayoni mamlakatlar bo‘yicha sezilarli farq qiladi. Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, AQSh, Germaniya va Yaponiya kabi rivojlangan mamlakatlarda raqamlashtirish darajasi 75-88 foiz atrofida bo‘lib, bulutli hisoblash va sun’iy intellektni joriy etish ham yuqori foizda amalga oshirilgan. Bu mamlakatlarda integratsiyalashgan sug‘urta xizmatlari va chatbotlar orqali mijozlar bilan aloqalarni avtomatlashtirish imkoniyatlari keng qo‘llanilmoqda.

Boshqa tomondan, Hindiston va Avstraliyada raqamlashtirish va IT-texnologiyalarni joriy etish darajasi nisbatan past (60-68 foiz) bo‘lib, bu mamlakatlarda avtomatlashtirish va operatsion xarajatlarni qisqartirish imkoniyatlari hali cheklangan.

Bu raqamlar IT-yechimlarining mamlakatlar kontekstidagi iqtisodiy va texnologik imkoniyatlariga bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, jadvaldagi ma’lumotlar IT-texnologiyalarning samaradorligini ko‘rsatadi. Masalan, operatsion xarajatlarni qisqartirish foizi AQSh va Germaniyada 40-60 foizgacha bo‘lsa, Hindiston va Avstraliyada 30-45 foizni tashkil qiladi. Bu shuni anglatadiki, rivojlangan mamlakatlarda IT-yechimlar biznes jarayonlarini samarali avtomatlashtirish va resurslardan tejamkor foydalanishga yordam bermoqda.

Natijada, sug‘urta kompaniyalari uchun IT-texnologiyalarni joriy etish faqat operatsion samaradorlikni oshirish bilan cheklanmay, balki mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash, yangi mahsulot va xizmatlarni taklif qilish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, blokcheyn texnologiyalari, telematika va optik aniqlash tizimlari kabi yangi texnologiyalar hali keng rivojlanmaganligi, ularga alohida e’tibor qaratishni talab qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sug‘urta sohasida innovatsion IT-texnologiyalarni joriy etish murakkab va ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, kompaniyalar uchun moliyaviy xarajatlar, integratsiya darajasi va kiberxavflar kabi bir qator xavflarni o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, sun’iy intellekt, mashina o‘rganishi, Big Data, bulutli hisoblash va RPA kabi texnologiyalar biznes jarayonlarini avtomatlashtirish, firibgarlikni kamaytirish va mijozlarga xizmat sifatini oshirish imkonini beradi. Bu esa sug‘urta kompaniyalarining operatsion samaradorligi va moliyaviy natijalariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Rivojlangan mamlakatlarda raqamlashtirish darajasi yuqori bo‘lib, IT-texnologiyalar operatsion xarajatlarni sezilarli darajada kamaytiradi va integratsiyalashgan sug‘urta xizmatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Kam rivojlangan mamlakatlarda esa texnologiyalarni joriy etish darajasi past bo‘lib, avtomatlashtirish va samaradorlik imkoniyatlari cheklangan. Shu sababli, IT-yechimlarning iqtisodiy va operatsion foydasi mamlakat kontekstiga bog‘liq bo‘lib, ularni joriy etishda strategik yondashuv talab qilinadi.

Shaxsiy ma’lumotlardan foydalanish va telematik kuzatuv kabi innovatsion yechimlar nafaqat iqtisodiy manfaatlar, balki axloqiy, huquqiy va ijtimoiy masalalarni ham hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari sug‘urta kompaniyalarining raqamli transformatsiyasida xavfsizlik va mijozlar ishonchini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Natijada, axborot texnologiyalarini samarali joriy etish sug‘urta kompaniyalarining raqobatbardoshligini oshirish va bozorda strategik rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirish, biznes jarayonlarini optimallashtirish, yangi sug‘urta mahsulotlarini ishlab chiqish va mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash imkonini beradi. Shu bilan birga, har bir texnologiya imkoniyatlari va kutilayotgan natijalari diqqat bilan o‘rganiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Porter M. E. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. – New York : Free Press, 1985. – 557 p.

2. Schueffel P. Taming the Beast: A Scientific Definition of FinTech. // Journal of Innovation Management. – 2016. – Vol. 4, No. 4. – P. 32–54.

3. Swiss Re Institute. Sigma No. 3/2021: World insurance – the recovery gains momentum. – Zurich : Swiss Re, 2021. – 42 p.

4. OECD. Technology and Innovation in the Insurance Sector. – Paris : OECD Publishing, 2017. – 96 p.

5. Brynjolfsson E., McAfee A. The Second Machine Age. – New York : W.W. Norton & Company, 2014. – 306 p.

6. Авдокушин Е.Ф. Инновационное развитие финансового сектора экономики // Финансы и кредит. – 2018. – № 6. – С. 15–27.

7. Беляева И.А. Цифровизация страхового рынка: проблемы и перспективы // Страховое дело. – 2020. – № 4. – С. 3–9.

8. Ларионова Н.В. Инновационные технологии в деятельности страховых компаний // Финансовая аналитика. – 2019. – № 2. – С. 41–48.

9. Юлдашев А.В. Информационные технологии в системе управления страховой компанией. – М. : Юрайт, 2017. – 214 с.

10. Брызгалов Д. В. Цифровизация андеррайтинга на российском страховом рынке // ЭТАП: экономическая теория, анализ, практика. 2020. № 2. С. 90–102. DOI: 10.24411/2071- 6435-2020-10015

11. Pooser D. M., Browne M., Arkhangelska O. Growth in the perception of cyber risk: Evidence from U.S. P&C insurers // Geneva Papers on Risk and Insurance — Issues and Practice. 2018. Vol. 43. No. 2. P. 208–223. DOI: 10.1057/s41288-017-0077-9

12. Eckert C., Osterrieder K. How digitalization affects insurance companies: overview and use cases of digital technologies // Zeitschrift für die gesamte Versicherungswissenschaft. 2020. Vol. 109. No. 7. P. 333–360. DOI: 10.1007/s12297-020-00475-9

13. Колбина М. С., Кушелев И. Ю. Инновации в страховании в России: от теории к практике // Актуальные вопросы современных научных исследований: сборник ст. Междунар. науч.-практ. конф. / отв. ред. Г. Ю. Гуляев. Пенза: Наука и Просвещение, 2022. С. 150–155.

14. CoinLaw.io - moliya, kriptovalyuta va tartib-qoida sohalarida faoliyat yurituvchi tashkilot

Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o‘g‘li
Musahhih: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o‘g‘li

2025-yil, sentyabr, 9-son

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Marketing” ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas’ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin.
Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: @marketinjournalbot
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: https://marketingjournal.uz

Marketing jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

“Marketing” ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**

“Marketing” ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710.** ГОСТ 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**